



UDK: 101.1.316

A'zam ABDULLAYEV,
Toshkent moliya instituti v.b.dotsenti
E-mail: azam_abdullayev @list.ru

O'zMU professori, f.f.d B.Tuychiyev taqrizi asosida

FUQAROLIK JAMIYATINING XVIII-XX ASRLARDAGI SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatiga o'tish asoslarini o'rganish, uning ilmiy-nazariy va siyosiy-falsafiy jihatlarini tahlil etish har qachongidan ham o'ta dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasi, uning tarixiy va siyosiy-falsafiy ildizlari qadimgi dunyo mutafakkirlarining davlat nazariyasi bilan bevosita bog'liqdir. Binobarin, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivoji insoniyat, davlat, huquq tarixining muayyan sivilizatsiyalashgan davri bilan ham bog'liqdir. Shundan kelib chiqqan holda, maqolada fuqarolik jamiyati tushunchasining XVIII-XX asrlardagi shakllanish bosqichlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, siyosiy jamiyat, jamoa, jamiyat, fuqaro, monarxiya, aristokratiya, liderlik, korporatsiya

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В XVIII-XX ВЕКАХ

Аннотация

Изучение основ перехода к гражданскому обществу, анализ его научно-теоретических и политико-философских аспектов становится одной из актуальнейших задач современности. Понятие «гражданское общество», его исторические и политико-философские корни напрямую связаны с теорией государства, разработанной мыслителями древнего мира. Следовательно, формирование и развитие гражданского общества также связано с определенным цивилизационным периодом истории человечества, государства и права. Исходя из этого, в статье изучены этапы формирования концепции гражданского общества в XVIII-XX вв.

Ключевые слова: Гражданское общество, политическое общество, община, общество, гражданин, монархия, аристократия, лидерство, корпорация.

STAGES OF FORMATION OF CIVIL SOCIETY IN THE XVIII-XX CENTURIES

Annotation

The study of the foundations of the transition to civil society, the analysis of its scientific-theoretical and political-philosophical aspects is becoming one of the most urgent tasks of our time. The concept of "civil society", its historical and political and philosophical roots are directly related to the theory of the state, developed by the thinkers of the ancient world. Consequently, the formation and development of civil society is also associated with a certain civilizational period in the history of mankind, state and law. Based on this, the article studies the stages of formation of the concept of civil society in the XVIII-XX centuries.

Key words: Civil society, political society, community, society, citizen, monarchy, aristocracy, leadership, corporation.

Kirish. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi tarixan insoniyat taraqqiyotining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. O'sha davr mutafakkirlari ularning ayrimlarini aql-idrok, qonun, adolat va erkinlik hamda inson farovonligiga erishilgan ideal ijtimoiy tuzum sifatida qarashganlar. Qadimgi dunyo faylasuflarida «fuqarolik jamiyati» tushunchasi u yoki bu tarzda davlatni takomillashtirish, huquq va qonun ustuvorligini ta'minlash muammolari bilan bog'lab o'rganilgan. Biroq XVI-XVII asrlar chegaralarida ijtimoiy munosabatlarning yangi shaklga kirishi siyosiy-falsafa sohasidagi boshqa ko'pgina qarashlarni o'zgartirib yuborganligi, qadimgi dunyo faylasuflarning fuqarolik jamiyati borasidagi qarashlarning ham o'zgarishiga olib keldi. Bu tabiiy jarayon edi. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi va bu jamiyatga oid ilk tadqiqotlarning barchasida Arastuning fuqarolik jamiyati davlatdan tashkari va undan farq qiluvchi kategoriya, deb tushunishi uzoq davom etdi. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasini shunday talqin qilish bugungi kungacha davom etib kelmoqda.

Fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy ildizlari ko'pgina hollarda aholi siyosiy madaniyatining umumiy darajasi, kategoriyasi bilan o'rganilayotganligini ham alohida ta'kidlash zarur. Fuqarolik jamiyati tushunchasi shakllanishining ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazaridan yondashuvlaridagi o'zaro farqlar qanchalik yaqqol ko'zga tashlanmasin ulardagi umumiylik, ya'ni davlat

apparating butun jamiyat nomidan umummanfaat ustuvorlik asosida zarurligining alohida ta'kidlanishida namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Yevropa siyosiy-falsafiy tafakkur tarixida «fuqarolik jamiyati» tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili va umuman fuqarolik jamiyati haqidagi ilk qarashlar Angliya-da XVII asrdan boshlangan. Ammo «fuqarolik jamiyati» degan tushunchaga faqat XVIII asrning oxirida fanda barqarorlashdi. Fikrimizning isboti sifatida T. Gobbs (1588-1679), G. Grotziy (1583-1645), J.Lokk (1632-1704) hamda shotlandiyalik mutafakkir Adam Ferposonning chop etilgan «Fuqarolik jamiyati tarixi ocherki» asarida uning o'ziga xos belgilari har tomonlama jiddiy tadqiq etilgan. Grotziy, Gobbs, Lokk asarlaridagi o'ziga xos yondashuvda fuqarolik jamiyati mutlaq hukmron davlat tizimiga qarama-qarshi qo'yilsa, A. Ferposonning asarlarida uning davlatsiz yashay olmasligi alohida ta'kidlanadi[1].

Olmon mumtoz faylasuflari o'z asarlarida fuqarolik jamiyatini jamiyatning tarkibiy qismi deb hisoblasada, lekin uni hokimiyat, davlat va boshqaruvdan tashqari sohasi deb hisoblaydi. Fuqarolik jamiyati davlatning vujudga kelishi bilan yuzaga keladi va shakllanadi, mavqei esa demokratiklik darajasiga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga fuqarolik jamiyati va davlatning o'zaro aloqalari muqarrar ravishda bog'lanib ketgandir. Manbalarda «davlat hokimiyati tizimi va faoliyatida demokratik tamoyillar va me'yorlar qanchalik to'la mujassam bo'lsa, fuqarolik jamiyatining hayotiy faoliyati ham shuncha-

lik keng, uning davlat bilan munosabatlari turli-tuman bo'ladi. Davlat va fuqarolik jamiyati manfaatlarini o'rtasidagi ziddiyat esa davlatning inqiroziga sababchi bo'lishi mumkin" degan ta'rif berilgan [2].

"Fuqarolik jamiyati" tushunchasining siyosiy-falsafiy tahlili G.Grotsiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalr yangi davr dunyoqarashining ilk ijodkorlaridan biri sifatidagina emas, balki xalqaro xuquqning zamonaviy ta'limotidagi huquq va davlatning yangi ratsional falsafasi asoslarini shakllantirish jarayonida "adolatga zid bo'lmagan narsa huquqdir" degan qoidaga asoslanadi.

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasi, uning ayrim siyosiy-falsafiy jihatlarini nemis klassik falsafasining asoschisi Emmanuel Kant (1724 - 1804) asarlarida ilmiy munozara sifatida o'rtaga tashlangan edi. Umuman Kantning fikrlash va yashash tarziga uchta ijtimoiy omil kuchli ta'sir ko'rsatgan. Birinchisi Jan Jak Russo asarlari. Ayniqsa, uning «Ijtimoiy shartnoma to'g'risida» gi asari katta ta'sir ko'rsatgan. Ikkinchisi huquq, davlat nazariyasi va falsafa tarixiga e'tibor qaratishga undagan fransuz inqilobi. Uchinchi 1794 yilda chop etilgan «Din faqat aql doirasida» asari tufayli pruss hukumati bilan ziddiyatga kirishishi sodir bo'lgan voqealar natijasida vujudga kelgan edi. Kant fuqarolik jamiyatida har bir kishining erkinligi boshqalar erkinligiga monand kelishi bilan ifodalanishini alohida uqtirib, kuyidagi tushunchalarni ilgari suradi:

- inson sifatida jamiyat a'zolari erkinligi;
- fuqaro sifatida ularning tengligi;
- fuqaro sifatida har bir jamiyat a'zolarining tengligi va boshkalar.

Kant siyosiy-falsafasi va etikasida shaxsning ma'naviy mustaqilligi va avtonomiyasini, uning lozimlik qoidalarini o'zi belgilashi, tashqaridan bo'ladigan majburlarsiz va ta'zyiqlarsiz ularga rioya qilish qobiliyati hamda huquqini belgilovchi erkin irodasi alohida o'ringa egadir.

XVI-XVII asrlar chegaralarida ijtimoiy munosabatlarning yangi shaklga kirishi siyosiy-falsafa sohasidagi boshqa ko'pgina qarashlarni o'zgartirib yuborganligi, qadimgi dunyo faylasuflarning fuqarolik jamiyati borasidagi qarashlarning ham o'zgarishiga olib keldi. Arastu qarashlaridagi «mutloq monarxiya», «aristokratiya» haqidagi fikrlariga XVI-XVII va undan keyingi asrlarga kelib N. Makiavelli, G. Grotsiy, T. Gobbs, J. Lokk, Sh. Monteske, J. J. Russolar tomonidan bir qator o'zgartirishlar kiritiladi. Ularning asarlarida fuqarolik jamiyatiga hamma davlatlar emas, balki ular fikriga ko'ra, tabiiy-huquqiy, shartnomaviy negizlarga asoslangan davlat tuzumining ilg'or shakllari mos kelishi xaqida fikr yuritila boshlangandi.Kant fikrini chuqur tahlil etgan nemis klassik falsafasining eng yirik namoyondasi G.F.Gegel (1770-1831) ham o'zining siyosat va huquq falsafasida «fuqarolik jamiyati» tushunchasiga yangicha yondashdi. U birinchi bo'lib ijtimoiy-siyosiy, falsafiy tafakkur tarixida fuqarolar jamiyatiga mustaqil insoniy qadriyat tarzida qaraydi va uni davlat qatorida talqin etadi. Uning eng mashhur asarlaridan biri «Huquq falsafasi» risolasida fuqarolik jamiyati ikki fundamental asosga asoslanishini isbot qilib berilgan. Bu xaqdagi fikrlarimiz ikkita manbaga asoslanadi [3].

Birinchisi-individlar, ya'ni odamlar faqat va faqat o'z xususiy manfaatlarini ko'zlaydilar. Ikkinchisi-ana shu odamlar o'rtasida ijtimoiy aloqalar yuzaga keladi, ular bir-birlariga muhtojlik his etishadi.

XIX asrda Ogyust Kont, Gerbert, Spenser va boshqalarning asarlarida kishilik dunyosini maxsus o'rganish zaruriyati asosida turli maqomda tushunilgan «jamiyat» atamasi jiddiyroq uchray boshlaydi. Bu haqda ko'pgina ilmiy adabiyotlarda va hattoki maxsus o'quv qo'llanmalarida bir qator chalkashliklar mavjud[4].Darhaqiqat jamiyatni keng ma'noda tushunish shartli bo'lib, buni hisobga olmaslik

ko'pgina chalkashliklarni keltirib chiqaradi. O'tgan XX asrda ham sotsiumning turli darajalaridan kelib chiqib, jamiyat to'g'risidagi yangidan- yangi qarashlar ilgari surildi. Bu qarashlarni umumlashtirib sakkizta nuqtai nazarga bo'lish mumkin deb hisoblaydi professor N. Jo'rayev, o'zining jamiyatga oid qarashlarida [5].

Fuqarolik tushunchasi jamiyatning hozirgi davr demokratik, huquqiy davlati tomon rivojlanishida katta yo'lni bosib o'tdi. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasi demokratik rivojlanishning mahsuli va demokratiya bilan bevosita bog'liqdir. Ayni paytda, hozirgi biz ishlatayotgan «fuqaro» so'zi arab tilidagi «faqir» so'zidan olingan va shu sababli bu tushunchani keng ma'noda ifoda etolmaydi deyish bir tomondan to'g'ri, lekin ikkinchi tomondan, ya'ni siyosiy-falsafiy jihatdan bu atama o'zini to'liq oqlamoqda degan fikrdamiz. Albatta, bu haqda bahs-munozaralarga so'nggi nuqta qo'yish mumkin emas.Masalaga xuddi shunday yondashish «jamiyat» atamasining qo'llanishida ham ko'rish mumkin. G'arb xalqlari tillarida «jamiyat» ma'nosida inglizcha "Community" yoki "Society" nemischa «Gemeinschaft»atamalarini qo'llaniladi. Shuningdek, kishilik dunyosini o'rganishda ilgarilab ketgan bilim sohalari ehtiyojlari bilan mazkur xalqlar tillaridagi «Society» va «Gesellschaft» iboralari keng ishlatiladi. Biroq, uning ma'nosi «jamiyat» tushunchasi ma'nosidan katta. «Fuqarolik jamiyati» tushunchasining siyosiy falsafiy tahlili jarayonida yana bir muammo, ya'ni «jamo» atamasi bilan «jamiyat» atamasi o'rtasidagi yaqinlik va o'xshashlik mavjud ekanligini ta'kidlash zarur deb hisoblaymiz. Shu o'rinda ham falsafiy tushunchalarni bir-biridan mohiyatan ajratish uchun harbir kategoriya, ya'ni tushunchaning o'z o'rnida ishlatilishi siyosat nuqtai nazaridan o'ta dolzarbdir. Masalan, «jamo» va «jamiyat» atamalarini haqida ham bir qator muammolar mavjud. Ma'lumki, har ikki so'z arabcha «jamo» dan yasalgan bo'lib, kishilarning turli darajada va maqomdan olingan umumiylikni anglatadi. Agarda «jamiyat» deyilganda keng ma'noda- kishilarning birgalikdagi manfaatlarini va kelishuvi asosida maqsadga muvofiq oqilona tashkil etilgan birgalikdagi faoliyati ifodasi tushunilsa, «jamo» tushunchasida umumiy kelib chiqish, til, taqdir va qarashlar bilan bog'liqlik ma'nolari o'z aksini topadi. Oila, xalq va hokazolar ayni shunday jamoalardir. Demak, har qanday jamoa hamjamiyat bo'lavermaydi. Lekin, istalgan jamiyat jamoa hisoblanadi. Ayniqsa, jamiyat, shu jumladan fuqarolik jamiyati murakkab jamoalarning birlashmasi, uyushmasidan iborat bo'lib, o'z-o'zidan mavjudlik va rivojlanish xususiyatiga ega emasdir.Fuqarolik jamiyatini harakatga keltiruvchi kuch demokratik qadriyatlardir. Har bir mamlakatda fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi demokratiyaning qay darajada amalga oshirilishi va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatga bog'likdir. «Jamo» va «Jamiyat» tushunchalarining yana bir farqi shundan iboratki, jamiyatda ma'lum bir siyosiy yetakchi (lider) bo'lishi shart. Lekin, jamoada ham ma'lum bir yetakchi bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lsa-da, lekin u siyosiy yetakchi (lider) darajasiga ko'tarilmaydi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish deyarli barcha MDH mamlakatlari doirasida ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidir. Masalan, 2002-yilning 21-22-noyabrda Moskvada Rossiya Federatsiyasi Prezidenti ishtirokida «Fuqarolar Forumi» o'tkazildi. Forumning besh ming ishtirokchisidan uch mingi Rossiyaning turli xil mintaqaviy tashkilotlaridan vakil sifatida ishtirok etgan edi. Umuman ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda Rossiyada hozirgi paytda jamoat, nodavlat tashkilotlar 350 mingta bo'lib ulardan 70 mingtasi doimiy faoliyat ko'rsatib turibdi. Nodavlat, jamoat tashkilotlarida faqat Rossiyaning o'zidagina bugungi kunda bir million kishi

ana shu tagkilotlarda faoliyat ko'rsatib maosh olmoqdalar. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra Rossiyaning ushbu tarmog'ida faoliyat ko'rsatayotganlarning ko'pchiligi g'arb grantlari asosida ishlamoqdalar [6].

Shundan kelib chiqib, bizning fikrimizcha fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy ildizlari ko'pgina hollarda aholi siyosiy madaniyatining umumiy darajasi, kategoriyasi bilan o'rganilayotganligini ham alohida ta'kidlash zarur. Fuqarolik jamiyati tushunchasi shakllanishining ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazaridan yondashuvlaridagi o'zaro farqlar qanchalik yaqqol ko'zga tashlanmasin ulardagi umumiylik, ya'ni davlat apparatining butun jamiyat nomidan umummanfaat ustuvorlik asosida zarurligining alohida ta'kidlanishida namoyon bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi shakllanishining ijtimoiy-falsafiy va tarixiy ildizlarida yana bir o'ziga xos yondoshuvni keltirish mumkin. Bu fuqarolik jamiyatiga o'tish davrida siyosiy partiyalar rolining pasaygani holda, fuqarolarning turli xil uyushmalari, birlashmalari faollik darajasining ortishi haqidagi fikrlardir [7]. Albatta bunday fikrlar ancha bahs munozaralidir. Barqaror demokratik jamiyatda hokimiyatni zo'rvonlikdan cheklash vositasi sifatida fuqarolar uyushmalari, birlashmalari faoliyati oshishi uning muhim vositasi va ko'rinishidir. Lekin o'zaro guruhlar o'rtasidagi kurashlar (partiyalar o'rtasidagi o'zaro muxolifatning paydo bo'lishi) ham bu siyosiy hokimiyat uchun kurash vositasidir. Ayni paytda umumiy maqsadlar asosida markaziy hokimiyatga ishonchning yuqori darajada ekanligini ko'rsatuvchi konsensus omilini siyosiy madaniyatning yuqori mezonini deyish mumkin. Shu nuqtai nazardan M.L.Romanenkoning Rossiyaning bu borada g'arb andozalaridan farqlari, uning «qoloqligi» yoki «rivojlanmaganligida» emas, balki uning o'ziga xosliklarida, ya'ni totalitarizm va avtoritarizm rejimining tarixiy ildizlari bilan bog'liqligida deb ko'rsatgan fikrlari alohida ilmiy ahamiyatga egadir [8].

Fuqarolik jamiyati tushunchasi shakllanishining ijtimoiy-falsafiy muammolarini tahlil etishda G'arb va Rossiyadagi, jumladan, Markaziy Osiyodagi bu boradagi fikrlarni o'zaro qiyoslash ham bir qator chigalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, Rossiyalik olimlar Rossiyada fuqarolik jamiyati shakllanishini o'n yettinchi asrdan boshlanib o'n sakkizinchi asrning ikkinchi yarmigacha ayrim shart-sharoitlar vujudga kelganligini asos qilib olishadi. Ularning ba'zi

birlarida asosan kapitalistik munosabatlarning shakllanishi, xususiy mulk tamoyilining qaror topishi, jamiyatda turli xil qatlamlarning paydo bo'lishi, ijtimoiy hayotdagi muqobillikning vujudga kelishi, o'z o'zini boshqarish korporativ vakillik organlari orqali iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi va siyosiy onglik darajasi bilan bog'liq ekanligi ko'rsatiladi [9].

G'arb davlatlarida fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishining ijtimoiy-falsafiy, huquqiy tamoyillari ko'pgina hollarda korporativ vakillik faoliyatining shakllanishi bilan bog'liq ekanligiga alohida urg'u beriladi. Ma'lumki korporativ vakillik faoliyati vakillik muassasa deputatlari mamlakat aholisi, yoki hududiy ma'lum bir qismni emas, balki o'zlarini saylagan kasbiy guruhlar (korporatsiyalar) manfaatlarini ifoda etish bilan bog'liq, deb ko'rsatishadi [10]. Korporativ vakillik ko'p asrlik tarixga ega. U faqat yigirmanchi asrda konstitutsiyaviy huquq tomonidan to'la to'kis inkor etildi. Fikrimizcha, uning asosiy sabablaridan biri korporativ vakillik teng vakillik tamoyiliga zid bo'lganligidir. Negaki, korporativ vakillik fuqarolarning tengligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsipning buzilishiga olib kelgan edi.

Hozirgi zamon biz tushunayotgan va barpo etishni strategik maqsad sifatida qabul qilgan fuqarolik jamiyatining ayrim ko'rinishlari, asos belgilari sharh mutafakkirlari siyosiy-falsafiy qarashlarida ham o'z ifodasini topgan. Ularning bir qator asarlarida fuqarolik jamiyati adolatli hukmdor, adolatli jamiyat, adolatli podshoh siyomosida o'z ifodasini topgan. Uning asosiy yozma namunalari sifatida Al-Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Nizomulmulkning «Siyar Ul-Mulk» ya'ni «Siyosatnoma», Amir Temurning «Temur Tuzuklari», Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy», «Hayratul abror» va boshqa ko'plab asarlarida fuqarolik jamiyatining bosh mezonini bo'lgan xalq manfaatini yo'lida adolat, qonun ustuvorligi tamoyillari muhimligini ta'kidlaganligidir.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda fuqarolik jamiyatining milliy modellari bo'lishi mumkinmi degan savolga albatta, bo'lishi mumkin degan javob ham bo'lishi shart degan mantiqiy xulosa kelib chiqadi. Fikrimizning asosi sifatida milliy davlatchilik, milliy qadriyatlar mavjud ekan, fuqarolik jamiyatining ham o'ziga xos milliy modellari mavjud bo'lishi taraqqiyot rivojlanishining umumiy qonuniyatlaridagi o'ziga xos alohidalik, yakkalik prinsiplari bilan ham bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Аникин А.В. Адам Смит (издание на русском 1968, на немецком 1990).
2. Холбеков А., Идилов У.М. Социология (изохилуфат- маълумотнома) Тошкент. Абу Али Ибн Синономидаги таърифи. 1999 й. –Б.110-41
3. Нерсесянц В.С. Хуқуқфалсафаси. (маъсулмуҳаррир: Саидов А.Х.Т, «Адолат», 2003. Учинчи боб. –Б. 201-223.
4. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда оқиқ фуқаролик жамиятининг шаклланиши. - Т. «Шарк», 2003. –Б. 9-21.
5. Сафарова Т.Р. (2021). Влияние пандемии covid-19 на состояние этнокультурного туризма в Узбекистане. In Новые вызовы новой науки: опыт теоретического и эмпирического анализа (pp. 176-183).
6. Сафарова Т.Р. (2020). К проблеме развития этнокультурного туризма в Узбекистане. Paradigmata poznani, 23-25.
7. Safarova T.R. (2022). Main Directions for Improving International Tourism Statistics. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 13, 20-22.
8. Политология. Современная демократия [Текст]: учебное пособие / Malyutin N.A. – М., 2009.
9. Жураев Н., Азизов Ш. «Ижтимоиёт асослари» (шахсважамият). Маърифат, мадакдорнашриёти. – Т.: 2003, 43 бет.
10. Жўраев Н. Янгиланишлар концепцияси: Яратилиши, эволюцияси ва амалиёти (маъсулмуҳаррир: Бекмуродов М.). - Т.: «Маънавият», 2002. - 80 б.
11. Беляева Н. Что осталось после Гражданского форума Опубликовано в журнале: «Неприкосновенный запас» 2003, №2(28)
12. Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. Т.; «ШАРК», 2002-175 б.
13. Романенко М.Л. «Социально – политические технологии разрешения конфликтов гражданского общества: Экзистенциальные альтернативы современной России на пороге третьего тысячелетия». Монография Моск. Ун-та 1999.
14. Бажинов М.А. Гражданское общество и местные самоуправления: опыт концептуального анализа. Вест Моск. Ун-та 1999. № 12.



Dilbar ABDULLAYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, (PhD)
E-mail: dilbar3007@inbox.ru

Psixologiya fanlari doktori R.Abdurasulov taqrizi asosida

CHARACTERISTICS OF INTERACTION BETWEEN MOTHER AND ADOLESCENT CHILD

Annotation

Determining the internal mechanisms of the influence of the relationship with the mother on the process of mental development of a person requires special psychological research. Most of these studies are aimed at examining how the mother's attitude is reflected in the mental development of the child. At the same time, the question of what kind of psychological basis the content of the mother's attitude leading to certain positive or negative consequences in the field of the child's mental development remains open in many cases. From this point of view, it is important to study the compatibility of mother and child relations. In the article, the mother's expressive attitude towards her child and how it is reflected in the teenage child's eyes are comparatively studied and the results of empirical analysis are presented.

Key words: Mother, adolescent child, attitude, imagination, positive interest, directiveness, hostility, autonomy, instability, trait.

ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ МАТЕРИ И РЕБЕНКА-ПОДРОСТКА

Аннотация

Выявление внутренних механизмов влияния отношений с матерью на процесс психического развития человека требует специального психологического исследования. Большинство этих исследований направлено на изучение того, как отношение матери отражается на психическом развитии ребенка. В то же время вопрос о том, на какой психологической основе лежит содержание материнской установки, приводящей к тем или иным положительным или отрицательным последствиям в области психического развития ребенка, во многих случаях остается открытым. С этой точки зрения важно изучение совместности отношений матери и ребенка. В статье сравнительно исследуется экспрессивное отношение матери к своему ребенку и то, как оно отражается в глазах ребенка-подростка, и приводятся результаты эмпирического анализа.

Ключевые слова: Мать, ребенок-подросток, установка, воображение, положительный интерес, направленность, враждебность, автономия, неустойчивость, черта.

ONA VA O'SMIR FARZANDNING O'ZARO MUNOSABAT XUSUSIYATLARI

Аннотация

Shaxs psixik rivojlanishi jarayoniga ona bilan bo'lgan munosabat ta'sirining ichki mexanizmlarini aniqlash maxsus psixologik tadqiqotlarni taqozo etadi. Mazkur tadqiqotlarning aksariyati onaning munosabati bola psixik rivojlanishida qanday aks etishini tekshirishga qaratilgan. Ayni vaqtda onaning bola psixik taraqqiyoti sohasida qandaydir aniq ijobiy yoki salbiy oqibatlariga olib keluvchi munosabati mazmuni qanday psixologik asoslarga egaligi masalasi ko'p holatlarda ochiq qolmoqda. Shu nuqtai nazardan ona va farzand munosabatlarini o'zaro muvofiqligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada onaning farzandiga nisbatan namoyon etuvchi munosabati va uning o'smir farzand nigohida qanday aks etishi qiyosiy o'rganilgan va empirik tahlil natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ona, o'smir farzand, munosabat, tasavvur, ijobiy qiziqish, direktivlik, dushmanlik, avtonomlik, beqarorlik, xususiyat.

Kirish. Oila institutini qo'llab-quvvatlash masalasi dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida davlat kontitusiyasi darajasida belgilab qo'yilgan masala hisoblanadi. Xususan respublikamiz Konstitusiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini ekani ta'kidlanishi barobarida jamiyat va davlat muxofazasida bo'lish huquqiga egaligi ko'rsatiladi. Ayni vaqtda bosh qomusimizda oilaviy munosabatlar asosini tashkil etuvchi ota-ona va farzand munosabatlari masalasiga ham e'tibor qaratilgan. Jumladan, asosiy qonunda ota-ona o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi belgilangan[1]. Bundan oilaviy hayotning nafaqat alohida olingan inson taqdiri, balki butun jamiyat va davlat taraqqiyotida tutgan o'rni naqadar yuqori ekanini anglash mumkin.

Oilaviy munosabatlar tizimida, shubhasiz, ona-bola munosabatlari markaziy o'rin tutadi. Onaning bola psixik taraqqiyotidagi mutlaq roli, ushbu omilning ta'siri esa, avvalo, o'zaro munosabatlarda namoyon bo'lishidan kelib chiqqan holda, bu sohadagi muammoli holatlar, ularni bartaraf etish va

shu tariqa bolalarning sog'lom psixologik muhitda voyaga yetishini ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar o'zining ilmiy-amaliy ahamiyati, ijtimoiy-iqtisodiy dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologik tadqiqotlarda ota-ona va o'smir farzandlarning o'ziga hamda bir-biriga beradigan tavsiflarida ikkala avlod o'zini va bir-birini asosan ijobiy baholashi, ammo qarama-qarshi tomonning unga bo'lgan munosabatini yanglish idrok etishi (ota-onaning bolalardan, bolalarning ota-onadan asliga nisbatan salbiyroq bahoni kutishi) ma'lum bo'ldi [10]. Ko'plab tadqiqotlarda ota-ona va o'smir farzandlarning bir-biri haqidagi tasavvurlari ularning munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatishi tekshirilgan [3]. L.F.Fomicheva ota - onasi bilan munosabatlari ijobiy bo'lgan o'smirlar ular haqida differensial, keng va emotsional bo'yoqdor tasavvurga ega bo'lishini aniqladi[11]. K.N.Belogay tadqiqotlari ota-ona va farzandlar munosabatlari psixokorreksiyasiga qaratilgan chora-tadbirlar ota-onada o'z farzandi va "ideal bola" haqidagi, "ideal ota-ona" va o'zi


to'g'risidagi tasavvurlari mazmuni bir-biriga yaqinlashishini isbotlamoqda[2]. Biroq bevosita ona o'zi uchun xos deb bilayotgan munosabat haqidagi tasavvur o'smir farzand nazarida onasi unga nisbatan aslida namoyon etuvchi munosabatga muvofiqlik darajasi o'zaro ta'sirlashuvda qanday aks etishi maxsus tekshirilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotimizda onaning nazarida u farzandiga nisbatan namoyon etuvchi munosabat va uning o'smir farzand nigohida qanday aks etayotganini qiyosiy o'rganish uchun E.S.Sheferning "O'smir ota-ona haqida" metodikasi qo'llandi. Bunga metodikaning original varianti o'smirlar bilan so'rov o'tkazish, uning modifikatsiya qilingan shakli onalarning fikrini o'rganish vositasi bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki, ushbu metodika E.S.Shefer tomonidan ishlab chiqilgan "Ota-ona xulq-atvorining bola tomonidan tavsiflanishi" nomli metodika asosida ishlab chiqilgan bo'lib, besh xil shkala - ijobiy qiziqish, direktivlik, dushmanlik, avtonomlik, beqarorlik xususiyatlariga mos shkalalar bo'yicha o'smirlar nazarida ularga nisbatan ota yoki ona namoyon etuvchi munosabati darajasini baholash imkonini beradi [6].

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda avval o'smirlar bergan bahoga asosan YE.S.Shefer metodikasi birinchi shkalasi - bolaga nisbatan ijobiy qiziqish darajasi asosida

respondent ayollarning ikki shartli guruhi - ushbu mezon bo'yicha bolasining yuqori bahosiga va past bahosiga sazovor bo'lgan onalar guruhlari ajratildi. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, farzand bilan bo'lgan munosabatda uning ishlari, rejalari, intilishlariga katta qiziqish bilan qarash, umuman u bilan muloqot qilishni yoqtirish ko'proq psixologik madaniyati yuqori ota-ona uchun xosligi haqidagi ilmiy dalillarga asoslanib, ijobiy qiziqishni "ona-bola" tizimidagi munosabatda konstruktiv o'zaro ta'sirlashuvning nisbiy ustunligini ko'rsatuvchi alomat sifatida qabul qilishni o'rinni, deb hisobladik. Shuningdek, shartli guruhlarni bir-biridan ushbu ko'rsatkich bo'yicha yaqqol farqlanuvchi ikki o'ziga xos toifa ayollaridan shakllantirish uchun farzand bahosiga ko'ra faqat meyardan yuqori va past natijaga ega onalarning ko'rsatkichlari e'tiborga olindi. Sinaluvchi onalar ikki shartli guruhga ajratilgach, to'rt diagnostik shkala bo'yicha ularga farzandlari bergan hamda ular o'ziga qo'yan baholarning o'zaro muvofiqlik darajasi matematik statistika metodlari yordamida tekshirildi. Natijalarning miqdoriy qiyosiy tahlili, haqiqatdan ham, farzand nuqtai nazaridan unga nisbatan ijobiy qiziqishni sust darajada ifodalovchi onalarning barcha shkalalar bo'yicha shakllangan tasavvurlari va bolalar ularda qayd etadigan xususiyatlar o'rtasidagi farq ahamiyatli darajada katta bo'lishini tasdiqladi(1-rasm).



1-rasm. "Ijobiy qiziqish" shkalasi bo'yicha yuqori baholangan onalarning o'z tasavvuridagi va farzand nazaridagi munosabati ko'rsatkichlari


Albatta, keltirilgan natijalarda, avvalo, diqqatga sazovor jihat ijobiy qiziqishning yuqori darajasini namoyon etuvchi onalarga farzandlari salbiy munosabatning barcha mezonlari bo'yicha past baholarni qo'yanliklaridir. Biroq psixologik jihatdan alohida e'tiborga loyiq yana bir holat shuki, "ijobiy qiziqish" shkalasi bo'yicha farzandning yuqori bahosiga sazovor bo'lgan onalarning bolaga munosabatning barcha shkalalari bo'yicha tasavvurlari bolaning nuqtai nazaridan ahamiyatli darajada farqlanmaydi. Boshqacha aytganda, bolasining nigohida unga nisbatan katta qiziqish bilan qarashga intiluvchi ona o'zaro munosabatning turli shkalalari bo'yicha o'ziga beradigan baho unga farzand beruvchi tavsifga yaqindir.

Aniqlangan holat, nazarimizda, avvalo, farzandiga ijobiy qiziqish bilan munosabatda bo'luvchi onaning qaytar aloqani qabul qilishga doim ochiq bo'lishi va uning hisobiga bolada unga nisbatan shakllangan fikr, bahoni bilishi tufayli vujudga keladi. Bizning fikrimizcha, ushbu jarayon quyidagicha amalga oshadi: onasining o'ziga nisbatan ijobiy qiziqishini ko'rayotgan o'smir u bilan munosabatda o'zini xavfsiz his etadi; xavfsizlik hissi sababli o'smir onasi va uning munosabati xususiyatlari yuzasidan ochiq fikr bildira oladi; ona farzandining o'zi haqidagi fikridan o'zining unga munosabati to'g'risidagi xulosani shakllantirishda muhim manba sifatida foydalanadi; onaning o'z farzandiga bo'lgan munosabati haqidagi tasavvurlarida adekvatlik darajasi ortadi.

Farzandi nazarida unga nisbatan ijobiy qiziqishini namoyon etayotgan onalarning yuqoridagi ko'rsatkichlarida barcha shkalalar bo'yicha ular o'zlariga beradigan bahoning bola ko'z o'ngida aks etayotgan munosabatga qaraganda salbiy tomonga og'ishgan ekanligini ham qayd etmay bo'lmaydi. Bunday natija, bizningcha, birinchi navbatda ushbu onalarning farzand bilan bo'lgan munosabatini tanqidiy nuqtai nazardan baholashga intilishi va bunga qodir ekanini ifodalaydi. Bundan esa ushbu toifa onalarning shaxs sifatida yetuklik darajasi ham nisbatan yuqori ekani xususida xulosa chiqarish mumkin.

Demak, farzandiga bo'lgan munosabati haqidagi shaxsiy tasavvurlari va bola tomonidan bu borada onaga berilgan bahoning munosiblik darajasi uning shaxs sifatidagi rivojlanish xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritishda o'ziga xos psixologik mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Farzandning nuqtai nazariga ko'ra unga nisbatan munosabatda ijobiy qiziqishni sust darajada namoyon etuvchi onalarning natijalarida yuqoridagidan ancha o'zgacha holat qayd etildi. Jumladan, farzandlari nafaqat ularning direktivlik, dushmanlik, avtonomlik, beqarorlik darajasini umumiy tarzda olganda o'rtachadan yuqori baholaydilar, balki ularning bu borasidagi tasavvurlari bola ko'z o'ngida gavdalanuvchi munosabatlardan farqlanadi (2-rasm).



2 rasm. "Ijoby qiziqish" shkalasi bo'yicha past baholangan onalarning o'z tasavvuridagi va farzand nazaridagi munosabati ko'rsatkichlari

Natijalardan ma'lum bo'ldiki, farzandiga nisbatan ijoby qiziqishni ularning nazarida sust ifodalovchi onalarning o'z tasavvuridagi munosabati bilan bolalari idrok etayotgan munosabat o'rtasida salbiy tomonga og'ishish darajasi yuqoridir. Boshqacha aytganda, farzandiga ijoby qiziqishning past darajasini namoyon etuvchi onalarning o'z tasavvuridagi munosabati bolalar ko'z o'ngida aks etuvchi munosabatga adekvat emas. Bunday vaziyat yuqorida biz taklif etgan interpretatsion sxemaga ko'ra bu toifa onalarning o'z farzandiga bo'lgan munosabati haqidagi tasavvurlarining asosan shaxsiy nuqtai nazarga tayanib, boladan kelayotgan qaytar aloqa mazmuniga bee'tibor ravishda shakllantirishga moyilligi sababli vujudga keladi, deb hisoblaymiz.

Qolaversa, o'smir farzand onasi unga nisbatan aslida namoyon etayotgan munosabat o'ziga xosligini tan olmayotgan, turli yo'llar bilan niqoblashga intilyotganini his etganda uning kattalarga bo'lgan tanqidiy bahosi yanada ortishini kutish o'rinli. Bu esa, bir tomondan, ularning munosabatlarida qo'shimcha to'siqlarni vujudga keltirsa, ikkinchi tomondan, ushbu sohada qiyinchiliklarni yengib o'tishga intilishni, bunga erishish mumkinligiga ishonchni susaytiradi. Mazkur holatning eng ayanchli jihati shundaki, ikkala taraf bir-birining o'zaro munosabat xususiyatlari haqidagi tasavvurlari yakunda nomutanosib bo'lib chiqayotganini qarama-qarshi tomonning o'ziga xos e'tirozi, o'z-o'zini yaxshi bilmaslikdagi ayblov sifatida ham qabul qilinishi va bu holda tabiiyki, psixologik jihatdan yanada og'riqli kechinmalarni uyg'otishi mumkin.

E'tiborli jihatlardan biri shundaki, farzandga munosabatning barcha tashxis qilingan yo'nalishlari bo'yicha onalarning tasavvurlaridagi noadekvat darajasi bir xil ko'rinishda emas. Xususan, onalarning avtonomlik va beqarorlik darajasi haqidagi tasavvurlari va bu shkalalar bo'yicha farzandlar bahosi bir-biridan ayniqsa keskin farqlanadi. Bizningcha, ushbu xususiyatlar yuzasidan onalarning o'z ko'rsatkichlarini bolalar nuqtai nazariga nisbatan ancha past baholashiga bu sifatlar ular ongida o'xshash, ammo kundalik hayotga ko'proq neytral yoki ijoby baholanuvchi sifatlariga yaqin aks etishi sabab bo'lishi mumkin. Masalan, avtonomlik, ya'ni farzand bilan munosabatda o'zini rasmiy va sovuq tutish, bolaga faqatgina u biror ish sodir etganda diqqat qaratish, o'ta befarqlik [6] bunday onalar tomonidan erkinlik berish, mustaqillikka undashning bir ko'rinishi sifatida idrok etilsa,

bunday holatda ona o'zini avtonomlikni emas, aslida bu sifatlarini namoyon etayotgandek qabul qiladi va oqibatda o'z tub mohiyatiga ko'ra avtonomlashishga qaratilgan harakatini past baholaydi. Xuddi shuningdek, beqarorlik, ya'ni bir vaziyatda ustunligini ta'kidlashga, boshqasida itoatkorlikka, bir vaziyatda bag'rikenglikka, boshqasida maydakashlikka moyillik [6] aslida sharoitga qarab ish ko'rish, doim bolaning imkoniyatlari va holatini e'tiborga olishga intilishdek qabul qilinishi hamda shunga muvofiq ona ushbu sifatni o'zida payqamasligi mumkin.

Dushmanlik va direktivlik sifatleri bo'yicha onalar bir qarashda paradoksal ravishda avtonomlik va beqarorlikka nisbatan o'zlariga yuqori baho qo'yishlarini boshqa mexanizmning faoliyati bilan tushuntirish o'rinli, deb hisoblaymiz. Bizningcha, bu borada onalarning o'zlarini biroz tanqid qilishdan qochmasligiga ularning ushbu sifatlar avvalo bola foydasi uchun zarur degan xulosaga kelishlari sababdir. Bolaning barcha ishlari uchun ma'suliyatni to'liq o'ziga olish, uning xulqida salbiy o'zgarishlarning ro'y berishiga qanday bo'lmasin yo'l qo'ymaslik, uni doimiy nazoratda saqlash (direktivlik), o'ta qattiqqo'llik, bolani raqib o'rnida ko'rish, uni kamsitish hisobiga o'z-o'ziga hurmatni oshirishga intilish (dushmanlik) ona tomonidan farzand tarbiyasining buzilishiga yo'l qo'ymaslik, uni tashqi dunyo "yovuzliklari" dan asrashga harakat qilish sifatida idrok etar ekan, bu ko'rsatkichlar yuzasidan o'zini nisbatan yuqori baholashi tabiiydir.

Demak, farzandi nazarida unga ijoby qiziqishning turli darajalarini namoyon etuvchi onalarning bola bilan bo'lgan munosabatlari xususiyatlari haqidagi tasavvurlarida adekvatlik ko'rsatkichlari ham o'zaro farqlanadi.

Xulosa va takliflar. Umuman, ona va o'smir farzandning o'zaro munosabat xususiyatlari haqidagi tasavvurlari mutanosibligini nazariy va empirik o'rganish quyidagi umumiy xulosalar uchun asos bo'ladi:

Farzandi nazarida unga ijoby qiziqishning turli darajalarini namoyon etuvchi onalarning bola bilan bo'lgan munosabat xususiyatlari haqidagi tasavvurlarida adekvatlik ko'rsatkichlari ham o'zaro farqlanadi.

Farzandga bo'lgan munosabati haqidagi shaxsiy tasavvurlari va bola tomonidan bu borada onaga beriladigan bahoning mutanosiblik darajasi uning shaxs sifatidagi rivojlanish xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritishda o'ziga xos psixologik mezon bo'lib xizmat qilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi –T: "O'zbekiston", 2018.– 40 b.
2. Белогай К.Н. Структурные компоненты родительского отношения личности: Автореф. дис...канд. психол.н. - Кемерово: КГУ, 2006.-24 с.
3. Ефремова Н.А. Психологическое содержание Я-концепсия родителя: Автореф дис..к.психол.н. – Омск: ОГУ, 2004. – 23 с.
4. Жигинас Н.В. Стиль детско-родительских отношений как основное педагогическое условие формирования социально – адаптивной личности // Вестник ТГПУ. – 2017. №5. – С.164-167.

5. Калодина В.А. Представления родителя о ребёнке как фактор детско-родительских отношений //Вестник Омского университета Серия Психология, 2016. № 2. – С 69-77.
6. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога: Уч. пособие: В 2 кн. – 3-е изд. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – кн.2: Работа психолога со взрослыми. Коррекционные приемы и упражнения.–480 с.
7. Кон И.С. Ребенок и общество: (историко-этнографическая перспектива). -М: Наука, 1998. - 270 с.
8. Макушина О.П. Психологическая зависимость подростков от родителей: Автореф... дис... к. психол. н. – М.: МГУ, 2001. – 25 с.
9. Овчарова Р.В. Родительство как психологический феномен: Учебное пособие. – М.: Московский психоло-социальный институт, 2006. -496 с.
10. Петрова А.А. Материнские представления об индивидуально-психологических особенностях ребенка как фактор детско - родительского эмоционального взаимодействия: Автореф. дис... к. психол. н. – М.: МГПУ, 2001. – 24 с.
11. Фомичева Л.Ф. Образ родителей и представленность отношений с ними у подростков // Психологическая наука и образования. – Москва, 2005. № 3. -С.26-40.



Гулбахор АБДУЛЛАХАНОВА,

доцент Ташкентский государственный экономический университет, к.ф.н

E-mail: gulbakhor@yandex.ru

Наргис АЛИМАТОВА,

доцент Ташкентский государственный экономический университет, к.ф.н

E-mail: nargis2207@gmail.com

Профессор кафедры «Общественно-гуманитарных наук» Университета общественной безопасности РУ, д.ф.н. Ф.А. Мусаев – внешний отзыв

FEATURES OF THE SUFI PHILOSOPHY OF AHMAD YASSAWI

Annotation

The relevance of the topic of this article is due to the need for a deeper study, popularization and preservation of the spiritual heritage of the thinkers of Central Asia. And one of these thinkers is Ahmad Yasawi, a major representative of Sufism, the most famous orthodox Sufi poet of the Middle Ages. One of the little-studied aspects of his work is the philosophical aspects of A. Yassawi's Sufism, which is the subject of this article. A. Yassawi's religious and philosophical teachings include his theory of the "unity of being", limited by him only to the theory of "knowledge" of God. In his philosophy there are also questions of an ethical nature (about the essence of justice, honesty, goodness, the call of people to them). Yasawi's ethics is based on the central concept of Sufism - the concept of the "perfect man". To reveal the topic, research, comparative, system analysis, scientific synthesis, inductive and deductive methods were used.

Key words: Ahmad Yasawi, Sufism, Sufi brotherhoods, Shariah, tariqa, marifah, haqiqat, asceticism, "unity of being", "perfect man".

AHMAD YASSAVIY SO‘FIYLIK FALSAFASI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola mavzusining dolzarbligi Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ma'naviy merosini chuqurroq o'rganish, ommalashirish va asrab-avaylash zarurati bilan bog'liq. Ana shunday mutafakkirlardan biri esa so'fiylikning yirik namoyandasi, o'rta asrlarning eng mashhur so'fiy shoiri Ahmad Yassaviydir. Uning ijodining kam o'rganilgan jihatlaridan biri A. Yassaviy tasavvufining falsafiy jihatlarini bo'lib, ushbu maqola mavzusidir. A. Yassaviyning diniy-falsafiy ta'limotiga uning "borliq birligi" nazariyasi kiradi, u tomonidan faqat "xudoni bilish" nazariyasi bilan cheklanadi. Uning falsafasida axloqiy xarakterdagi masalalar ham (adolat, halollik, ezgulik mohiyati, odamlarni ularga da'vat etishi haqida) mavjud. Yassaviy axloqiy tasavvufning markaziy tushunchasi – "komil inson" tushunchasiga asoslanadi. Mavzuni tadqiq etish uchun qiyosiy va tizimli tahlil, ilmiy sintez, induktiv va deduktiv usullardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: Ahmad Yassaviy, so'fiylik, so'fiylik tariqatlari, shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, zohidlik, "borliq birligi", "komil inson".

ОСОБЕННОСТИ СУФИЙСКОЙ ФИЛОСОФИИ АХМАДА ЯССАВИ

Аннотация

Актуальность темы данной статьи обусловлена необходимостью более глубокого изучения, популяризации и сохранению духовного наследия мыслителей Центральной Азии. И одним из таких мыслителей является Ахмад Яссави - крупный представитель суфизма, наиболее известный ортодоксальный поэт-суфий средневековья. Одна из малоизученных сторон его творчества – это философские аспекты суфизма А.Яссави, чему и посвящена данная статья. К религиозно-философскому учению А.Яссави относится его теория «единства бытия», ограниченная им только теорией «познания» бога. В его философии есть и вопросы этического плана (о сущности справедливости, честности, добре, призыв людей к ним). В основе этики Яссави лежит центральная концепция суфизма – концепция «совершенного человека». Для раскрытия темы использовались исследовательский, сравнительно-сопоставительный, системный анализ, научный синтез, индуктивный и дедуктивный методы.

Ключевые слова: Ахмад Яссави, суфизм, суфийские братства, Шариат, тарикат, марифат, хакикат, аскетизм, «единство бытия», «совершенный человек».

Введение. Одной из ярких страниц в развитии мусульманской религии Ислам является возникновение в VIII веке мистико-аскетического учения суфизм. Он был весьма гибким и открытым, что сделало его крайне неоднородным течением. В XIII веке последователями наиболее почитаемых учителей суфизма создаются первые суфийские братства (тарикаты). Основными их особенностями является строгая авторитарность (ученики – мюриды беспрекословно подчиняются своим учителям – шайхам); разделение членов братства на посвященных (внутренний круг) и присоединившихся (приносящие

клятву верности, но участвующие в обрядах от случая к случаю); эзотерический, тайный характер посвящения; наличие культа могил «святых».

Среди множества суфийских братств особое место занимает тюркская община Яссавийа, сформированная Ахмадом Яссави в Туркестане (юг Казахстана). Как отмечал Президент Узбекистана Ш.М.Мирзиёев на неформальном саммите Тюркского совета в 2021 году: «Бессмертное наследие Ахмада Яссави, наряду с такими нашими великими предками, как Джалалиддин Руми и Юнус Эмро, Юсуф Хос Хаджиб, Низами Гянджеви,

Махтумкули Фирог и Боборахим Машраб, является общим духовным достоянием тюркских народов». [1]

Одной из интереснейших и малоизученных сторон во взглядах А.Яссави является философский аспект его суфизма. Это явилось объектом исследования в данной статье.

Анализ литературы. Основательное исследование жизни и творчества А.Яссави, основ его тариката было проведено учеными из разных стран мира - М.Ф.Купрулу, К.Эраслон (Турция); Л.Массиньон (Франция); А.Арберри, Ж.Тримингэм, Идрис Шах (Великобритания); М.Смитт, Девин Ди Уис (США); А.Шиммел (Германия); Е.Э.Бертельс, И.Петрушевский, А.Т.Сибгатуллина, Ф.З.Яхина, А.Крымский (Россия); А.П.Абуов, А.Жаксылыков, Н.Сагандыкова, А.Кодар, А.К.Султангалиева (Казахстан); Фитрат, Э.Рустамов, Б.Касымов, И.Хакулов, Н.Хасанов (Узбекистан) и др.

Так, глубокое исследование жизни и творчества А.Яссави и его суфизма был проведен турецким ученым М.Ф.Купрулу, который в своей книге "Первые суфии в турецкой литературе" [10] описывает жизнь, известность, преемников А.Яссави. В отдельных главах М.Ф.Купрулу исследует его тарикат, этикет согласно учению, такие ритуалы как уединение, зикр, а также посвящает главу изучению книги А.Яссави "Диван-и хикмет", в которой он рассматривает вопрос о принадлежности "Диван" к известной исторической личности поэта, о языке произведения, литературных особенностях.

Е.Э.Бертельс, изучая произведение А.Яссави "Диван-и хикмет", подчеркивает, что он обращается не к правящим классам, а главный его слушатель – кочевник, отчасти и ремесленник [4, 264–265].

Философско-мистическое направление в изучении жизни и творчества А.Яссави приобрело особый интерес у А.Т.Сибгатуллиной. В своей докторской диссертации «Суфизм в татарской литературе (источки, тематика, жанровые особенности)» она отмечает, что "именно ясавийский путь познания Бога был более близок предкам нынешних татар, ибо он со своим монистическим миропониманием и особой близостью к шариату, видимо, наиболее полно отвечал духовным, религиозным потребностям народа, находившимся в окружении языческих и христианских соседей" [6, 20].

Ф.З.Яхин в своей работе "Религиозная мистика и мифология", обращаясь к труду А.Яссави «Диван – и Хикмет» анализирует и оценивает деятельность и творчество поэта с точки зрения религиозной мистики и мифологии [9].

А.П.Абуов в своей монографии уделит внимание основным положениям духовного наследия А.Яссави, и считает, что основополагающим ядром мировоззрения восточного философа-суфия является синтез тюркской народной мудрости и суфийско-исламской доктрины о Всевышнем [2].

Методы исследования. Методы исследования определяются спецификой темы. В качестве основного использовался исследовательский метод. Применялись и другие методы, как сравнительно-сопоставительный и системный анализ религиозно-философской литературы, метод научного синтеза фактических материалов, индуктивный и дедуктивный методы в их единстве при обобщении материалов. Методологическую основу составляют системный, личностно-деятельностный и культурологический подходы.

Анализ и результаты. Ходжа Ахмад Яссави – ярчайший представитель и признанный глава тюркской ветви суфизма, мыслитель, поэт, философ. Родился в 1103 г. в Сайраме (на территории современного Казахстана).

Получив образование, он начинает свою проповедническую деятельность по популяризации суфийских идей, которые в основном сводились к «познанию божества» - мистическому пути нравственного совершенствования человека.

Будучи философом, Яссави интересовался и тонко подмечал все стороны окружающей его действительности. Его волновали и мирская жизнь, и судьба правителей, и судьба самого народа. Как мудрый человек, он понимал жизнь во всех ее проявлениях: и внешних - как мыслитель, и внутренних - как духовное лицо, имеющее связь с высшим духом природы.

Религиозно-философские взгляды А.Яссави нашли свое отражение в его книгах. Он считается первым талантливым тюркским поэтом, написавшим свои произведения на огузско-кыпчакском диалекте. К ним относятся «Диван-и хикмет» («Книга мудрости»), «Мират-ул Кулуб» («Зеркало души»), «Пақыр-нама» («Сказание о бедном»).

Произведение «Диван-и хикмет» дошло до нас в нескольких вариантах. В нем изложены в обобщенной форме основные положения ясавийского тариката, проследивается проповедь ислама со стороны Яссави, что способствовало укреплению мусульманства в народной среде. Тюркоязычные народы книгу «Диван-и хикмет» называли «Корани тюрки», т.к. они восприняли сам Коран через эту работу А.Яссави, поэтому тюрки стали называть его «Хазрет Султан» - «Святой Султан», а Туркестан - второй Меккой. Хикметы А.Яссави не только проповедовали ислам, но и призывали тюркоязычные народы к духовному единению, суверенитету.

Сам А.Яссави и его суфийская школа большое внимание уделяли духовно-нравственному совершенствованию и постижению Бога. И для этого выдвигали обязательные условия для прохождения этого пути, основными этапами которого были четыре ступени: шариат, тарикат, марифат, хакикат.

Шариат - это ведение благочестивой жизни согласно предписаниям ислама; тарикат - это мистический путь, означающий отречение от всего мирского; марифат - мистическое познание и достижение экстаза, временного единения с Богом, хакикат - стадия постоянного общения с Богом в состоянии фана, когда суфий путем подавления мирских желаний достигает совершенства. В «Диван-и хикмете» Яссави большое внимание уделяет толкованию этих ступеней. По его мнению, без шариата, тариката, марифата невозможен хакикат (т.е. приближение к Аллаху), что является целью для суфия. Само определение человека невозможно без духовного напряжения, без искренней самоотдачи вплоть до готовности пожертвовать жизнью.

Каждый из ступеней имел свои макамы - стоянки. По мнению А.Яссави для того, чтобы стать дервишем, принять сан суфия мурид должен пройти 40 макамов, которые включают в себя 4 ступени - шариат, тарикат, марифат, хакикат.

Ступени и их макамы ведут к духовно-нравственному пути совершенствования суфия.

Религиозно-философское учение А.Яссави имеет свои особенности и свою специфику. Например, он теорию «единства бытия» ограничил только теорией «познания» бога; не коснулся ни космологических, ни онтологических проблем, в чем можно усмотреть его непоследовательность в объяснении очень важной с точки зрения теоретического суфизма проблемы взаимосвязи бога и мироздания бога и человека в рамках суфийской схемы взаимосвязи «макрокосма» и «микроскосма», являющейся, по глубокому убеждению, исламских улемов

богохульной, еретичной и крамольной, поскольку она подводила наиболее радикально настроенных суфиев к идее их обожествления.

Идея «познания бога», являясь частью теоретической концепции суфизма «вахдат аль-вуджуд» («единство бытия»), предполагает не столько процесс нисхождения в теории эманации, заимствованной суфиями из неоплатонизма, сколько процесс восхождения, обозначенного ими термином «познание». Неоплатоническая мысль «Познай себя, и ты познаешь бога» в суфийской литературе приобрела особое звучание.

В философии Яссави можно увидеть и вопросы этического плана. В частности, он ведет рассуждения о сущности справедливости, честности, добре и призывает людей к ним. Вопросы нравственности, морали для суфия были также важны, как и аскеза. В основе этики Яссави лежит центральная концепция суфизма – это концепция «совершенного человека», которая открывала большие возможности для этической мотивации познания Истины. Познавая бога, согласно суфиям, человек должен проникнуться мыслью о том, что бог, прежде всего – это благо, что он является и источником жизни. Благо также рассматривается ими не только как Высшее благо и высшая ступень в иерархии бытия и его познания, но и как добродетель, являющаяся целью человеческих устремлений в совершенствовании себя как высоко нравственной личности.

Основными атрибутами совершенства считались благоразумность, благожелательность, благочестие; они выступали в качестве характеристик, присущих как мировому целому, космосу, вселенной, так и человеческому существу. А человек, осознавая себя причастным к божественной сущности, обязан был

разумно осознавать свое место в мироздании и соответственно определять свое поведение и нравственный закон гражданства: быть благочестивым, справедливым, добродетельным, честным, щедрым, благоразумным, правдивым, смелым, отважным, терпеливым. Т.е. человек должен отражать высокие понятия моральной чистоты, как присущие ему божественные знаки. Такое понимание нравственности могло рассматриваться только через призму веры и в рамках самого суфизма. Именно поэтому Яссави отмечает, что «сеюший добро» обязательно найдет свое спасение и станет «любимцем бога» [5].

Заключение и рекомендации. Благодаря Яссави суфизм, являясь своеобразной философской системой, сыграл решающую роль в духовном познании и мировоззрении тюркских народов. Если до Яссави тюркские народы молились Тенгри, после него – стали верить в Аллаха. Благодаря суфизму тюркские народы познали восточную философию, философию ислама. Опираясь на религиозные трактаты и устои, он призвал соотечественников к самосовершенствованию, человеколюбию, милосердию, веротерпимости, толерантности.

Суфийская школа «Ясавийа» в целом, развиваясь в русле суфийских традиций практического направления, имела схожие черты с учениями других суфийских орденов, ей были знакомы учения ведущих теоретиков суфизма, она находилась под сильным воздействием персидской суфийской традиции и местных языческих верований. Учение Яссави впитало дух своего времени. С одной стороны, его нельзя назвать радикальным направлением, с другой стороны, оно содержало в себе положения, расходящиеся с основными догмами ислама.

ЛИТЕРАТУРА

1. Выступление Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиёева на неформальном саммите Тюркского совета в формате видеоконференции. 31.03.2021. <https://president.uz/ru/lists/view/4272>
2. Абуов А.П. Мировоззрение Ходжа Ахмета Ясави / А.П.Абуов. – Алматы, 1997. – 196 с.
3. Бегалинова К.К. Суфизм как религиозно-философская концепция мира и человека. – Алматы, 1999. С. 194.
4. Бертельс Е. Литература народов Средней Азии от древнейших времен до XV века н.э. / Е.Бертельс // Новый мир. – 1939. – № 7. – С. 264–265.
5. Додихудоев Х. Философия крестьянского бунта. — Душанбе, Ирфон, 1987.
6. Сибгатуллина А.Т. Суфизм в татарской литературе (истоки, тематики и жанровые особенности): Автореф. дис. ... д-ра филол. наук / А.Т.Сибгатуллина; КГУ. – Казань, 2002. – 62 с. С.20
7. Тримингэм Д.С. Суфийские ордена в исламе. – М.: Наука, 1989.
8. Яссави Ходжа Ахмед Хикметы / Общ. ред. и предисл. Абусейтовой М.Х.; Излож. пер. на каз. яз. Ибагова А.И., Жандарбека З., Нурмановой А.Ш.; Излож. пер. на рус. яз. Сагандыковой Н.Ж.; Коммент. З.Жандарбека. — Алматы: Дайк-Пресс, 2004. 208 с. https://vk.com/doc358527_453769534
9. Яхин Ф. Татар шигъриятендә дини мистика һәм мифология / Яхин Ф.. – Казан: Татар дәүләт гуманитар институты, 2000. – 268 б.
10. Köprülü F. Türk edebiyatında ilk mutasavvıflar. 7 baskı / F. Köprülü. – Ankara, 1991. – 415 s.



Регина АБДУРАХМАНОВА,
стажер-преподаватель Национальный университет Узбекистана
E-mail: regina3189@mail.ru

На основе рецензии и.о.профессора Ургенчского государственного университета, д.псих.н. Д.А.Уразбаевой

O'SMIRLIK DAVRIDAGI TASHVISHLANISHNI YENGISHDA KOGNITIV-XULQIYATLI YONDOSNING SAMARALIGINI BAHOLANISH

Аннотация

Ushbu maqolada 2020-2022-yillarda Toshkent shahar O'zMUda magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bo'yicha o'tkazilgan o'rganish natijalari bayon etilgan. Tadqiqot o'smirlik davridagi tashvishlarni engishda kognitiv-xulq-atvor yondashuvini baholashga bag'ishlangan. Ushbu maqolada "tashvish" tushunchasi, o'smirlik davrining xususiyatlari va zamonaviy olimlarning ishlarida ushbu yondashuvning samaradorligi ochib berilgan. A.Beckning kognitiv-xulq-atvor terapiyasi asosida o'smirlik davridagi tashvishlarni engish uchun trening shakllantirildi. Trening ishtirokchilarining 87 foizida (16 respondent) ijobiy dinamika kuzatildi.

Kalit so'zlar: tashvish, kognitiv-xulq-atvor yondashuvi, o'smirlik, terapiya, trening, psixologiya talabalari, texnikalar, tashvish dinamikasi, oiladagi shaxslararo munosabatlar.

EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF THE COGNITIVE-BEHAVIORAL APPROACH IN OVERCOMING ANXIETY IN ADOLESCENCE

Abstract

This article describes the results of the study for the defense of the master's thesis in 2020-2022 at the NUUZ of the city of Tashkent. The study is devoted to the evaluation of the cognitive-behavioral approach in overcoming anxiety in adolescence. This paper reveals the concept of "Anxiety", features of adolescence and the effectiveness of this approach in the works of modern scientists. Based on the cognitive-behavioral therapy of A. Beck, a training was formed to overcome anxiety in adolescence. Positive dynamics was observed in 87% of the training participants (16 respondents).

Key words: Anxiety, cognitive-behavioral approach, adolescence, therapy, training, psychology students, techniques, anxiety dynamics, interpersonal relationships in families.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ КОГНИТИВНО- ПОВЕДЕНЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПРЕОДОЛЕНИИ ТРЕВОЖНОСТИ В ЮНОШЕСКОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация

В данной статье описаны результаты проведенного исследования для защиты магистерской диссертации 2020-2022 года в НУУз города Ташкента. Исследование посвящается оценке когнитивно- поведенческого подхода в преодолении тревожности в юношеском возрасте. В данной работе раскрывается понятие «Тревожность», особенности юношеского возраста и эффективность данного подхода в работах современных ученых. Основываясь на когнитивно-поведенческую терапию А.Бека, был сформирован тренинг по преодолению тревожности в юношеском возрасте. Положительная динамика прослеживалась у 87% участников тренинга (16 респондентов).

Ключевые слова: Тревожность, когнитивно- поведенческий подход, юношеский возраст, терапия, тренинг, студенты-психологи, техники, динамика тревожности, межличностные отношения в семьях.

Введение. В мире в силу сложившихся обстоятельств (пандемии) резко возросло переживание тревожности среди подростков и юношей. Статистика показывает, что до 33,7% всего населения Земли в какой-то момент своей жизни переживают тот или иной вид тревожного расстройства. И сегодня наступил как раз такой момент, когда риск оказаться с тревогой один на один зашкаливает: например, в Китае, где зародилась вспышка Covid-19, с умеренной или выраженной тревожностью столкнулось 28,8% людей, а еще 8,1% пережили серьезный стресс [1].

Повышенный уровень тревожности снижает успеваемость в образовательных учреждениях, оказывает отрицательное влияние на развитие и формирование личности, а также усугубляет проблемы, возникающие в юношестве. Возникновению повышенной тревожности в юношеском возрасте способствуют стрессы и психологические проблемы, обусловленные сексуальным непостоянством, эмоциональной неуравновешенностью, статусной неопределенностью, неустойчивостью социальных

ценностей юношей, а самое главное неопределенностью будущего. Вместе с тем исследования, направленные на изучение юношеской тревожности, показали, что чем дольше продолжается тревожное состояние, тем сложнее оно поддается коррекции. Наличие постоянных страхов, сопровождающих тревожность, может привести к дополнительным сложностям во взаимоотношениях с окружающими.

Чаще всего тревожность рождает страх, неуверенность, боязнь дальнейшего жизненного пути. В запущенном состоянии тревожности наступают отклонения от норм в учебе, работе и в личной жизни. Прогрессивный вид тревожности уничтожает здравый смысл человека и причиняет дискомфорт всем окружающим. Чаще всего тревожность является разрушительной силой, способная довести до крайности молодых людей (суицид, преступления).

Тревожность во всех своих проявлениях, является проблемой для людей всех возрастов, в особенности в юношеском возрасте. По мере взросления юноша

встречается с нуждой решения многих жизненно важных проблем в жизни. Отсутствие понимания и согласования человека с самим собой, отсутствие личных установок выхода из конфликтных ситуаций, переоценивание своей психологической устойчивости и многое другое вводит юношу в мир страхов и тревог.

Молодые люди стремятся получить тот максимум, который они себе определили. Сталкиваясь с проблемами, на пути к своей цели юноша накапливает опыт преодоления тревог и страхов. Так он закаляет свое психологическое «Я». Но, не всегда и не у всех, получается обратиться тревожность - «проблему» в полезный жизненный опыт. Целью данного исследования было изучить тревожность в юношеском возрасте и определить эффективность когнитивно- поведенческого подхода в преодолении тревожности в юношеском возрасте. Объектом научной работы были студенты-психологии 2 курса (63 респондента) 2020-2022 года НУУз. Основной программой по преодолению тревожности в юношеском возрасте был тренинг, основанный на базе психотерапии А.Бека.

Литературный обзор (Literature review). Над вопросами о тревожности работали такие зарубежные ученые психологи как (З. Фрейд, К. Хорни, А. Адлер, Ч. Спилбергер) и отечественные (А. М. Прихожан, Л. И. Божович, В. М. Астапов, Л П Сливина, Р А Зобова, А.А Козлова, Т.Ю Артюхова)

Ученые считают, что симптомами тревожности проявляемой в юношеском возрасте являются ощущение постоянной опасности за свое будущее и настоящее, снижение способности к концентрации внимания, сверх-настороженность, нарушение сна, соматические нарушения. Страхи: не успеть выполнить работу, не сдать экзамен, выглядеть смешным, проявить непонимание рабочего или учебного процесса и многое другое являются сподвижниками деструктивного поведения в обществе молодых людей.

Согласно З.Фрейду тревожность может быть вызвана как субъективными так и объективными факторами природы человека. Инстинкты самозащиты срабатывают у людей бессознательно. Человек не способен контролировать мгновенные реакции тела, а осознанная реакция тела может выявить степень и уровень тревоги [2].

Тревожность является одним из центральных компонентов посттравматического синдрома (Н.В. Тарабрина), а также симптомом нарушенных межличностных отношений (Г. Салливан, К. Хорни, В. Лейбин). Постулирование эмпирической передачи тревоги от матери к ребенку отмечается в работах А.И. Захарова (2006), Т. Ларсона (2005), М. Раттера (1987), Д. Рошера (1998), Т. Уилсона (2007). При этом нарушение отношений приводит к фрустрации потребностей ребенка, которая выражается в проявлении общего чувства тревоги [3].

Нами были проанализированы исследования проблемы тревожности, которыми занимались такие авторы, как К. Изард, который рассматривал тревожность как эмоциональное состояние, А.М. Прихожан, рассматривающая тревожность как устойчивое личностное образование, З. Фрейд, К. Хорни, раскрывшие природу тревожности, и многие другие. В своей работе мы проанализировали психологические теории тревоги, разработанные разными авторами, виды тревоги; рассмотрели особенности тревожности молодых людей, выявили критерии успеваемости студентов старших курсов, а также рассмотрели некоторые методы для снижения уровня тревожности студентов.

Проведенный теоретический анализ на всех его этапах показывает верность гипотезы, положенной в его основу. Результаты теоретического анализа по проблеме тревожности дают материал для дальнейшего изучения эмоциональных состояний человека, в частности, вопроса выявления особенностей тревожности молодых людей.

Методология исследования. Основными методологическими теориями в данном исследовании были выбраны когнитивная терапия А. Бека в преодолении тревожности в юношеском возрасте, личностный подход С.Л Рубенштейна, теория установок Д.Н Узнадзе. Когнитивная психотерапия, или СВТ (Cognitive Behavior Therapy) – это направление, основанное на наиболее современных разработках в области научной психологии. Когнитивно-поведенческая психотерапия исходит из двух фундаментальных представлений о человеке – как о думающем, активном и способном изменять себя и свою жизнь.

Обратимся к работе А.Бека «когнитивно- поведенческий подход». А. Бек занимался разработкой когнитивно-поведенческого подхода. Данная модификация, основополагающих дисфункциональных убеждений пациентов, позволяет добиться более устойчивых изменений. Так, если вы постоянно недооцениваете свои способности, возможно, у вас есть глубинное убеждение о собственной некомпетентности. Когда вы измените это глубинное убеждение (например, научитесь видеть себя в более реалистичном свете, с достоинствами и недостатками) – изменится ваше восприятие определенных ситуаций, с которыми вы сталкиваетесь ежедневно.

Когнитивно- поведенческая терапия является методом борьбы с негативным мышлением, использование альтернативных стратегий восприятия проблемных ситуаций, повторное намеренное переживание событий из прошлого, а также воображения, направлены на скорейшее забывание того негативного опыта, и конечно, на приобретение нового положительного научения. Основываясь на полученные данные качественного и количественного анализа использование когнитивно-поведенческого подхода в преодолении тревожности у юношей, оцениваются довольно эффективными.

Анализ и результаты. Техники коррекции, использованные в нашем тренинге: Методика, заключающаяся в выявлении автоматических мыслей; Методика, которая заключается в сравнении себя с другими людьми. Здесь участница З. и Ф. А. смогли найти свою индивидуальность (без ущерба для межличностных отношений) сохраняя при этом взаимодействие с окружающими, сохраняя свой статус в группе; Выявление логических несоответствий. Здесь наблюдался рост самооценки, где участница К. призналась в динамике принятия себя, появилась уверенность в том, что противоположный пол проявляет достаточно настойчивый интерес в отношении К. Также эта техника помогла участнице Э. почувствовать себя более защищенной, что смогла выразить свои эмоции в отношении своих родителей, что на самом деле является сложной задачей и в результате логических размышлений улучшились отношения с мамой и родными. Еще одним примером является деструктивные мысли участницы У., которая желала быть на месте своего брата с ограниченными физическими возможностями, считая, что так она могла бы облегчить его, на ее взгляд, страдания. В результате использования данной техники участница У. решила просто всегда быть рядом с ним и оказывать ему всяческую помощь, что указывает на снижение дисфункционального самопожертвования во имя брата; Проектирование новых паттернов поведения, где

респонденты М.В.С. и А. научились говорить «НЕТ» научились выставлять и защищать свои личные границы. У участника Р. была зафиксирована блокировка способности доверять окружающим и видеть в них позитивные стороны. Данная техника помогла Р. понизить уровень ЛТ и СТ, где он стал более адекватно оценивать мотивацию и отношение других людей, стал видеть дружелюбное отношение к себе и близким, стал признавать и принимать это; Катарсис имел особый успех среди 9 участниц.

Также мы должны описать участников, у которых не проявилась особая динамика. Участница А1. не посещавшая все 10 сессий не прочувствовала никаких изменений после тренинга, негативное восприятие своих детей и негативные межличностные отношения с мамой остались не решенными. Вторая участница В., чья тревожность – это алкоголизм мамы, только частично смогла улучшить свое тревожное состояние, так как большое количество факторов влияющих на ее тревожность, имеют крепкую связь с социальной ситуацией нашей участницы. В этом случае требуется индивидуальная работа с внутренним состоянием участницы, так как если дисфункциональная социальная обстановка не меняется, наблюдать положительной динамики не получится. На примере этой участницы мы указываем на ограниченность групповой терапии в силу сложности случая нашего респондента.

Оценка эффективности нашего тренинга основывается на полученных результатах в течении и после 10 сессии тренинга, посвященного преодолению тревожности при помощи КПТ. Так как, контрольный эксперимент включает в себя большое количество когнитивных техник и методик, мы попытались подробно ознакомить читателя с их назначением и использованием. В ходе тренинга мы помогали испытуемым осознать степень влияния их мыслей на поведение, эмоции и физическое состояние. Это помогало респондентам, после полного курса когнитивно- поведенческой терапии, самостоятельно выявлять мысли, которые негативно влияют на их психологическое состояние. И один из важных моментов, терапия помогла изменять дисфункциональные убеждения на более рациональные мысли. 14 респондентов почувствовали облегчение и резкие изменения в своем поведении в отношении себя, близких

и родных, 1 респондент частично и еще 1 совсем не почувствовал динамики в своем состоянии.

После коррекционной работы, испытуемые стали внимательнее относиться к своим мыслям, реакциям на них и последующее поведение. Несколько испытуемых признались в улучшении межличностных отношениях с друзьями и родителями. Испытуемые с низкой самооценкой стали менее подвержены влиянию внешнего стимула на их тревожность. Респонденты, которые переживали страх потери родных стали наблюдать уверенность за их здоровье.

Выводы и рекомендации. Таким образом, проведенное исследование подтверждает выдвинутую нами гипотезу, где мы предполагаем, что в юношеском возрасте имеется определенный уровень тревожности, связанный с иррациональными установками, которые влияют на адаптацию юноши в социуме. Применение групповой формы когнитивно- поведенческого подхода позволит снизить уровень тревожности у юношей.

Проведенное исследование показало, что наличие тревожности может влиять на образовательную деятельность, профессиональное становление и на межличностные отношения юношей, что является актуальной проблемой нашего времени. Психическое здоровье имеет большое значение для развития личности т.е состояние полного душевного, физического и социального благополучия. Так, как основными особенностями юношей является достойная самооценка, признанность обществом, физическая полноценность и т. п. мы с вами можем понимать на сколько высокой является тревожность, в моменты эмоциональной подавленности, причиной чего могут быть иррациональные установки, ситуативные или личностные нарушения норм.

Последовательное решение в ходе проведенного эксперимента поставленных задач, тщательный анализ данных диагностики и обобщение полученных результатов позволили нам разработать план тренинга для преодоления тревожности в юношеском возрасте. Данная программа предполагает целенаправленную деятельность тренера и участника для формирования адекватного уровня тревожности и личностного развития юношей, формирования успешности и адекватной самооценки.

ЛИТЕРАТУРА

1. <https://www.forbes.ru/forbeslife/397921-trevozhnost-vo-vremya-pandemii-normalnaya-reakciya-ili-rasstroystvo-psihihi>
2. <https://psyera.ru/3242/trevoga-po-freydu>
3. <http://psychlib.ru/mgppu/periodica>



Xasanboy ABDUSAMATOV,
Mahalla va oila ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi,
psixologiya fanlari doktori, dotsent.
E-mail: habdusamatov@bk.ru

Psixologiya fanlari doktori, professor G‘.B.Shoumarov taqrizi ostida

ANALYSIS OF EMOTIONAL RELATIONSHIPS IN MIGRANT AND NON-MIGRANT FAMILIES

Abstract

This article is devoted to the analysis of emotional relationships between couples in migrant and non-migrant families. The article provides a comparative analysis of emotional relationships in migrant families. Results were processed through psychological data processing software. Areas with a low level of emotional response were analyzed. Degrading emotional relationships has been shown to lead to divorce.

Key words: migrant, non-migrant families, emotional relations, divorce, psychological services.

АНАЛИЗ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЯХ МИГРАНТОВ И НЕМИГРАНТОВ

Аннотация

Данная статья посвящена анализу эмоциональных отношений между парами в семьях мигрантов и немигрантов. В статье проводится сравнительный анализ эмоциональных отношений в семьях мигрантов. Результаты были обработаны с помощью программного обеспечения для обработки психологических данных. Были проанализированы области с низким уровнем эмоционального отклика. Доказано, что ухудшение эмоциональных отношений приводит к разводу.

Ключевые слова: мигрант, немигрантские семьи, эмоциональные отношения, развод, психологическая помощь.

MIGRANT VA MIGRANT BO‘LMAGAN OILALARDA HISSIY MUNOSABATLAR TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqola migrant va migrant bo‘lmagan oilalardagi er-xotinlar o‘rtasidagi hissiy munosabatlar taxliliga bag‘ishlanadi. Maqolada migrant oilalardagi hissiy munosabatlar qiyosiy tahlil qilingan. Psixologik ma‘lumotlarni qayta ishlash dasturi orqali natijalar qayti ishlangan. Hissiy munosabat darajasi past bo‘lgan xududlar analiz qilingan. Hissiy munosabatlarni past darajaga tushushi ajrimlarga sabab bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: migrant, migrant bo‘lmagan oilalar, hissiy munosabatlar, ajrim, psixologik hizmat.

Kirish. Har bir oila mustahkamligi o‘sha oila vakillari hisoblangan er va xotinning bir-biriga bo‘lgan o‘zaro hurmati, o‘zaro tushunishi va hissiy yaqinligi bilan o‘lchanadi. Ularda oila stajini ortib borishi natijasida yuqoridagi uch omilning ta‘sir kuchi ortib boradi. Bugun bizni jamiyatimizda oilalarni farovonligi ular oilaviy iqtisodiyotiga qarab o‘lchanadigan shkala yuzaga keldi va ommalashmoqda. Natijada, farzandlarni to‘y-to‘lqinlari, uyda avtoullovni bo‘lishi, uy-joy qurish bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda o‘zbek oilalarida er va xotin, yoki erming o‘zi, yoki ayolning o‘zi mehnat migranti sifatida o‘zga mamlakatlarga borib ishlashga majbur bo‘lmoqda. Ularning asosiy maqsadlari yuqoridagi tadbirlarda qarindosh urug‘, qo‘ni-qo‘shni va yor-birolarlarni oldida uyalib qolmaslik, izza bo‘lmaslik xolos. Aslida uzoq yillar

birga yashamaslik, bir-birini ko‘rmaslik er va xotinlar o‘rtasidagi hissiy munosabatlar darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqot geografiyasi bo‘yicha Farg‘ona, Andijon va Samarqand viloyatida istiqomat qilayotgan migrant va migrant bo‘lmagan oilalardagi er va xotinlarning o‘zaro hissiy munosabatlari o‘rganildi. Psixologik metod sifatida L.Ya.Gozman, Yu.Ye.Aleshina tomonidan modifikatsiya qilingan «Simpatiya va sevgi shkalasi» metodikasidan foydalanildi. Tadqiqotda mavsumiy xorij mamlakatlarga mehnat migrantlari va ularning farzandlari hamda turmush o‘rtog‘lari tanlab olindi.

1.jadval

“Sevgi va simpatiya” metodikasining normal taqsimlanish qonuniga mosligini aniqlash (n=460)

No	Shkalalar	M	σ	Z	p
1.	Sevgi shkalasi	22,3075	4,65587	2,338	0,000***
2.	Simpatiya shkalasi	20,6075	4,56130	1,986	0,001***

Izoh: ***- $p < 0,001$ (99.9%)

Tadqiqotimiz davomida biz tomonimizdan qo‘llanilgan metodikalar asosida olingan natijalarning tahlilini amalga oshirish bo‘yicha Kolmogorov-Smirnov mezonidan foydalanish orqali normal taqsimot qonuniga mosligi tekshirish bilan natijalarimizni parametrik yoki noparametrik mezonlarga bo‘lishga muvofiq bo‘ldik. Sevgi shkalasi bo‘yicha ($Z=2,338$; $r \leq 0,001$), simpatiya shkalasi bo‘yicha ($Z=1,986$; $r \leq 0,001$) natijalar qayd etildi. Mazkur olingan natijalarning normal

taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi. Olingan natijalarning tahlilini hudular kesimidagi migrant va migrant bo‘lmagan oilalar va umumiy tadqiqot doirasidagi migrant va migrant bo‘lmagan oilalar natijalarini qiyoslash orqali ular o‘rtasidagi sabab-oqibat kategoriyasidagi o‘xshash va ahamiyatli farqlar mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko‘ra izohlar keltirish maqsadga muvofiqdir.


“Sevgi va simpatiya” metodikasining migrant oilalar misolida
Kraskel-Uollis mezonini bo'yicha tahlili (n=287)

Shkalalar	O'rtacha ranglar			Statistik qiymat N
	Farg'ona (n=70)	Andijon (n=122)	Samarqand (n=95)	
Sevgi	51,19	154,11	141,43	71,764***
Simpatiya	54,78	156,12	137,16	67,048***

Izoh:***- p<0,001 (99.9%)

Tadqiqot natijalariga ko'ra, eng past natija Farg'ona viloyatida istiqomat qilayotgan migrant oilalar namoyon bo'ldi (sevgi shkalasi - 51,19, simpatiya shkalasi - 54,78) o'rta natija Samarqand viloyatida (sevgi shkalasi-141,43 simpatiya shkalasi - 137,16), yuqori natija Andijon viloyatida

yashayotgan migrant oilalar chiqdi (sevgi shkalasi - 154,11 simpatiya shkalasi - 156,12). O'rtacha rang qiymatiga ko'ra Andijon viloyatidagi migrant oilalarda er-xotinlarni o'zaro bir-biriga bo'lgan sevgi va simpatiya tuyg'ulari boshqa viloyat migrant oilalariga nisbatan yuqori ekanligi ko'rindi (1-rasm).



1.rasm. Migrant oilalarning Kraskel-Uollis mezonini bo'yicha o'rtacha rang ko'rsatkichlari

Migrant oilalardagi emotsional munosabatni qiyoslash va to'g'ri analiz qilish maqsadida tadqiqot doirasida migrant bo'lmagan oilalardagi er va xotinlarni hissiy munosabatlari

o'rganildi (3-jadval). Migrant bo'lmagan oilalarda er va xotinning o'zaro munosabatlari migrant oilalarga nisbatan past ko'rsatkichda ekanligi bilan farqlandi.

“Sevgi va simpatiya” metodikasining migrant bo'lmagan oilalar misolida Kraskel-Uollis mezonini bo'yicha tahlili
(n=173)

Shkalalar	O'rtacha ranglar			Statistik qiymat N
	Farg'ona (n=70)	Andijon (n=43)	Samarqand (n=60)	
Sevgi	48,51	68,79	81,53	18,982***
Simpatiya	51,33	64,38	81,73	15,907***

Izoh:***- p<0,001 (99.9%)

Migrant bo'lmagan oilalarda natijalar migrant oilalarga nisbatan past ekanligi bilan izohlandi. Samarqand viloyatida istiqomat qilayotgan migrant bo'lmagan oilalardagi hissiy munosabatlar ko'rsatkichi boshqa viloyat migrant oilalariga nisbatan yuqori ekanligi namoyon bo'ldi. Kraskel-Uollis mezonini bo'yicha Farg'ona viloyatidagi migrant bo'lmagan oilalarda er va xotin o'rtasidagi hissiy munosabatlar past ko'rsatkichda ekanligi aniqlandi (sevgi shkalasi- 48,51, simpatiya shkalasi - 51,33). Yuqoridagi ikkita jadvallardan shuni hulosa qilish mumkinki, oilani mustahkamligi va oila farovonligini zamini bo'lgan er va xotinlar o'rtasidagi hissiy munosabatlar Farg'ona viloyatidagi oilalarda yaxshi emasligi ko'rinadi. Respublikadagi ajrimlarning tahliliga ko'ra Farg'ona viloyati yuqori ekanligi ta'kidlanadi. Shu o'rinda bizning natijamiz, ya'ni er va xotin o'rtasidagi “hissiy yaqinlik” darajasi past ekanligi ajrimlarni ortishiga sabab bo'layotganligi bilan izohlash mumkin.

Bugungi kunda migratsiya global hodisa bo'lgani bois migratsion xulq-atvor fenomeni ko'pchilik tadqiqotlarning e'tibor markazida bo'lmoqda. Ko'plab davlatlar migratsiya jarayonlarida ishtirok etadilar, ularning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, madaniy hayoti, hududi yaxlitligi aynan migratsiyaga bog'liq. Psixologik bilimlar doirasida migratsion munosabatlar asosan migrantlarning moslashish muammolari va aholining ayrim etnik guruhlari migratsiya xulq-atvorining o'ziga xos

xususiyatlarini, shuningdek, etnik guruhlarning o'zaro ta'sirining psixologik muammolarini o'rganish bilan bevosita chambarchas bog'liq. Tadqiqotimiz maqsad va vazifalaridan kelib chiqib tanlangan ob'ektlarda eksperimental-sinov ishlarini olib borish davomida migrantlarning etnopsixologik xususiyatlari ham migratsiya tabiati va uning dinamikasiga ta'sir qilishi mumkinligi haqidagi taxminlar diqqatimiz markazida bo'lgan muammolardan biri bo'ldi.

Ushbu yuqorida keltirilgan jihatlarni inobatga olib, Farg'ona viloyati misolida xorijda faoliyat olib boruvchi migrant oilalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning migratsiya motivlari va shaxslararo munosabatlar kesimidagi xulq-atvor patternlarining o'zgarishini qiyoslash maqsadida migrant va migrant bo'lmagan oilalar miqyosida tadqiqot ishimizni davom ettirishni lozim topdik. Ularni solishtirish orqali aniqlangan natijalar tahliliga asoslanib migrant va migrant bo'lmagan oilalardagi farqli va o'xshash tomonlar o'rtasidagi bog'liqlik munosabatlariga tayanib kelgusi boblarda tavsifa va xulosalar ishlab chiqilishiga zamin yaratiladi.

Tadqiqot metodikalarining migrant va migrant bo'lmagan oilalarda olingan natijalari ikki mustaqil tanlanma to'plamlar o'rtasidagi farqlarni ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligini tasdiqlovchi St'yudentning - t parametrik mezonini

orqali tahlili amalga oshirilganda quyidagi e'tiborli jihatlar mavjudligi kuzatilganini ko'rishimiz mumkin.

4.jadval

“Sevgi va simpatiya” metodikasining ko'rsatkichlari tahlili Styudentning – t mezonni asosida (Migrant/migrant bo'lmagan oilalar misolida) (Farg'ona viloyati)

Ko'rsatkichlar	Migrantlik darajasi	M	σ	t
Sevgi shkalasi	Migrant oilalar	16,44	2,78	-8,555***
	Migrant bo'lmagan oilalar	21,22	2,80	
Simpatiya shkalasi	Migrant oilalar	14,96	2,24	-11,260***
	Migrant bo'lmagan oilalar	20,38	2,56	

Izoh:***- $p < 0,001$ (99,9%)

Sevgi shkalasi bo'yicha migrant oila vakillarida o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 16,44 ni, migrant bo'lmagan oilalarda esa o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 21,22 ni tashkil etib 99,9% ishonch darajasida ahamiyatli farqlar kuzatildi ($t = -8,555$; $p \leq 0,001$). Ushbu natijani migrant bo'lmagan oilalarda o'zaro hurmat, bir-birini sevish, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar ijobiyliyi ularning yaqin bo'lganliklarida, bitta “tom” ostida yashaganliklarida, uzoq muddat ayro bo'lmaganliklari bilan ham izohlashimiz mumkin.

Migrant oilalarda esa, aksincha vaziyat bo'lib, er-xotinning bir-birini uzoq muddat ko'rmaganligi shaxslararo munosabatlarga bevosita kirishish darajasining pastligi natijasida o'zaro sevgi tuyg'usining ma'lum “so'nishi” kuzatilishi natijasida, “ko'zdan yiroq – ko'ngildan yiroq” qabilidagi maqolga yaqqol misol bo'lishi anglaniladi.

Simpatiya shkalasi bo'yicha ham migrant oila vakillarida o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 14,96 ni, migrant bo'lmagan oilalarda esa o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 20,38 ni tashkil etib 99,9% ishonch darajasida ahamiyatli farqlar kuzatildi ($t = -11,260$; $p \leq 0,001$).

Hayotning barcha bosqichlarida turmush o'rtoqlar o'rtasidagi sevgi munosabatlarining birinchi o'rinida

sevgining affektiv komponentlari - hissiy xavfsizlik, simpatiya muhim o'rin egallab, ushbu elementlar mustahkam oiladagi barqaror shaxslararo munosabatlarning asosi hisoblanadi. Ushbu berilgan ta'rifni inobatga olgan holda, migrant bo'lmagan oila vakillarida simpatiya ko'rsatkichining baland chiqishi tabiiy hol bo'lib, masofalarning bo'lmashligi, doimiy birgalikdagi faoliyat, o'zaro hamkorlik dinamikasi progressiv xarakterda bo'lgani bois, ushbu turdagi oila muhitida bir-birini qo'llab-quvvatlash, hissiy yaqinlik, tashvishlarga sherik bo'lish migrant bo'lgan oila vakillariga qaraganda bevosita ahamiyat kasb etadi. Migrant bo'lgan oilada esa, simpatiya hissi faqat bilvosita yo'l bilan bildiriladi va u regressiv xarakterda bo'lib, er-xotin munosabatlarining inqirozli holatlarida yaqqol namoyon bo'lmagani bois o'zaro tushunmovchiliklar bo'lishiga yo'l ochadi.

Migrant oilalarning migratsiya jarayonidagi davomiylik ko'rsatkichlari ham migrantlik oilalardagi psixologik xususiyatlarning o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi taxminlarimizga asoslanib, migrantlarning ishlari muddati davomiyliyi bo'yicha solishtirma tafavutlar jadvalini keltirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

5.jadval

“Sevgi va simpatiya” metodikasining ko'rsatkichlarining bir omilli dispersion tahlili (migrantlik muddati ko'rsatkichlari asosida) (Farg'ona viloyati)

Shkalalar	M ko'rsatkichlar			F
	1-3 yil (n=19)	4-7 yil (n=32)	8 yildan yuqori (n=19)	
Sevgi shkalasi	18,21	15,63	14,66	8,621***
Simpatiya shkalasi	15,84	14,27	14,77	2,716

Izoh:***- $p < 0,001$ (99,9%)

Yuqoridagi jadvaldan sevgi shkalasi bo'yicha ahamiyatli farqlar ko'zga tashlanadi. Migrantlik muddati 1-3 yil bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari 18,21 ni, 4-7 yil bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari 15,63 ni, 8 yil va undan ortiq muddat bo'lgan migrant oilalarda o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari 14,66 ni tashkil etdi ($F = 8,621$; $p \leq 0,001$). Tabiiy ravishda kam muddatli migrant oilalarda sevgi hissi yuqori bo'lib, bu ularning oilasiga, o'z juftiga bo'lgan “tashnaliklar”ining natijasi hisoblanisa, migrantlik muddati uzoqroq davom etgan oilalarda esa, aksincha bo'lib, sevgi hissi masofa va vaqtning hisobiga biroz so'ngan ko'rinish olganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa. Migrant oilalarning ijtimoiy-psixologik muammolari va yechimlar mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi asosida olingan natijalar tahlili quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Migrant va migrant bo'lmagan oilalarni o'zaro qiyoslash orqali migratsion munosabatlarni yuzaga keltiruvchi “sabab-oqibat” kategoriyasidagi motivlar qatoriga moddiy farovonlikka intilish, yangi madaniy muhit bo'yicha dunyoqarashlarini kengaytirish, shaxsiy va oilaviy ehtiyojlar

qorishmasidan tashkil topgan “to'la-to'kis baxtli hayot asosini” yaratish kabilar kirishi ma'lum bo'ldi;

2. Jamiyatdan qoniqmaslik ehtiyoji tufayli migrantlar boshqa davlatlarga ketib yashashga, faoliyat olib borishga “majbur” bo'lganliklari tushuniladi. Ulardagi ijtimoiy frustratsiya ko'rsatkichining yuqori bo'lishi jamiyatdagi artefaktlarni qabul qilmaslik, ijtimoiylashuv jarayonidagi tan olish va tan oldirish motivlarining qondirilmasligi bilan tavsiflash lozim.

3. Migrant va migrant bo'lmagan oilalardagi etnomadaniy va krossmadaniy omillarning differentsiatsiyasi ulardagi qadriyatlarining ierarxiyasidagi hayotiy mazmun ko'rsatkichlarining darajalanishiga ta'sir etishi mumkin. Migrant va migrant bo'lmagan oilalardagi instrumental qadriyatlarini tanlash jihatidan ham sezilarli farqlar mavjudligi yana bir bor kuzatilib, “mustaqillik”, “o'z fikrini erkin ifoda etish”, “ziyraklik” kabilarda migrant oilalar ko'proq ustunlik ega bo'lishgan. Aynan ushbu qadriyatlarining ularda ustuvorlik kasb etishi mehnat motivatsiyasining, begona joylarga moslashish jarayonining inqirozsiz o'tishida rol o'ynashi mumkin.

4. Migrant oila farzandlaridagi ijtimoiy-psixologik muammolar ota-onasi, yaqin qarindoshlarining boladagi o'zgarishlarga e'tiborsizligi natijasida vujudga kelib, aynan o'smirlilik yoshidagi migrant oila farzandlarida muloqotga kirishi istagi, hammaslak qidirish, xulq-atvorida destruktiv xatti-harakatlarning namoyog bo'lishi migrant bo'lmagan oila farzandlariga qaraganda ustunlik qiladi.

5. Migrant oiladagi ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar tizimidagi ijtimoiy-psixologik muammolarga o'zaro persepsiya dinamikasining buzilishi, farzanddagi erkinlikka, mustaqilla intilish istagining kuchli bo'lishi ta'sirida "nazorat mexanizmlarini" inkor etish,

ota-onaning bola tarbiyasiga javobgarlikni "uchinchi shaxs" zimmasiga topshirishi tufayli farzandda sodir bo'ladigan dezadaptatsion o'zgarishlar kirishi aniqlandi.

6. Migrant oila vakillarining maqsadlari yuzasidan ikkilanishlari, konkret hayot pozitsiyalarini tanlash borasidagi qiyinchiliklari sabab ular o'zlarining "omad"larini boshqa davlatlardan qidirishga majbur bo'lishlari oqibatida ularning hayot mazmuni yo'nalganligining maqsad, "men" lokus nazorati kabi ko'rsatkichlarda etnomadaniy tafovutlar bo'lishiga qaramasdan, migrant bo'lmagan oilalarga qaraganda ancha past ko'rsatkichlar kuzatildi.

ADABIYOTLAR

1. Schwartz S. Ya, Bardi A. Value hierarchies across cultures: Taking a similarities perspective // *Journal of Cross-Cultural Psychology*. 2001. Vol. 32. P. 268- 290.
2. Schwartz S.H., Ros M. Values in the West: A theoretical and empirical challenge to the Individualism Collectivism cultural dimension//*World Psychology*.1995. Vol.1. P.99–122.
3. Lundberg, O. Defining and implementing social integration: a case study of school leaders' and practitioners' work with newly arrived im/migrant and refugee students. *International // O. Lundberg /Journal of Qualitative Studies on Health and Well-Being*, 2020. – № 15(sup2). – P. 1783859. 156.
4. Levitt, Jaworsky 2007; Glick Schiller et al. 1992.
5. Osman, F. Longing for a sense of belonging—Somali immigrant adolescents' experiences of their acculturation efforts in Sweden // F.Osman, M. Abdikerim, W. Georgina, A. Sarkadi /*International Journal of Qualitative Studies on Health and Well-Being* 2020. – № 15. – P. 1784532.
6. Байченко А.А. Формирование этнической идентичности городских подростков: дис. канд. пед. н. // А.А.Байченко. – М., Моск. гос. пед. ун-т, 1999. – 251 с.
7. Барабанщиков В.А. Психология восприятия. Организация и развитие перцептивного процесса // В.А.Барабанщиков. – М. : Когито-Центр, 2006. – 241 с. 139
8. Беллак Л. Тест детской апперцепции (фигуры (фигуры животных): методическое руководство / Л.Беллак. – СПб.: ИМАТОН, 2005. –63 с.



Mohira AZIZOVA,
TATU Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: azizovam71@gmail.com

TATU f.f.d.(PhD) A.N. Sanaqulov taqrizi asosida

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARIMIZNI MA'NAVYI TAHDIDLARDAN ASRASH MASALALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif bugungi globallashuv davrida yoshlarni ma'naviy tahdidlardan asrash masalalariga e'tibor qaratishgan. Shuningdek, ma'naviy tahdid tushunchasi, uning turli yo'llar bilan kirib kelishi, yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri hamda ma'naviy tahdidlarning oldini olishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, yoshlar, ma'naviyat, ma'naviy tahdid, mafkuraviy immunitet, ta'lim muassasalari, tarbiya.

ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ НАШЕЙ МОЛОДЕЖИ ОТ ДУХОВНОЙ УГРОЗЫ ВО ВРЕМЯ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье автор акцентирует внимание на защите молодежи от моральных угроз в современную эпоху глобализации. Также были рассмотрены понятие моральной угрозы, различные способы ее проявления, негативное влияние на воспитание молодежи, а также предложения и рекомендации по предотвращению моральных угроз.

Ключевые слова: Глобализация, молодежь, духовность, духовная угроза, идеологический иммунитет, образовательные учреждения, образование.

PROBLEMS OF PROTECTING OUR YOUTH FROM SPIRITUAL THREAT IN THE TIME OF GLOBALIZATION

Annotation

In this article, the authors focus on protecting young people from moral threats in the modern era of globalization. The concept of a moral threat, various ways of its manifestation, the negative impact on the upbringing of young people, as well as suggestions and recommendations for the prevention of moral threats were also considered.

Key words: Globalization, youth, spirituality, spiritual threat, ideological immunity, educational institutions, education.

Kirish. Ma'lumki, hozirgi kunda yoshlarning hayotda o'z o'rinlarini topishi, o'z salohiyatlarini erkin namoyon eta olishlari doimo davlatimizning diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Mazkur sohadagi ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Biroq mutaassib kuchlar qalbi va ongini o'zlarining buzg'unchi g'oyalari bilan egallashga urinayotganliklari holatiga e'tiborsizlik bilan qarab bo'lmaydi. Eng achinarlisi, o'zining mustaqil fikriga ega bo'lmagan ayrim yoshlarimiz bunday g'oyalar ta'siriga tushib qolmoqdalar. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yoshlarimizni turli xil ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasiga aylani qolmoqda. Ta'kidlangan vazifalarni ijro etishda jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'inlari oila, mahalla, ta'lim muassasalarining rolini yanada oshirish lozim bo'ladi. Ayniqsa ta'lim muassasalarida yoshlar ongini milliy an'analarga asoslangan, asrlar mobaynida ajdodlarimiz ma'naviyati va ma'rifati, tarixi to'g'risidagi bilimlar bilan boyitib borishimiz shu kunning dolzarb vazifasidir.

Shiddat bilan kechayotgan bugungi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarida jahon xalqlari hayotiga, ayniqsa milliy manfaatlariga xavf tug'diruvchi tahdidlar ham turli-tuman shakllarda namoyon bo'lmoqda. Ushbu tahdidlar jamiyat va shaxslar hayotiga xavf-xatar solish bilan taraqqiyotga ham katta zarar keltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna solayotgan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir"[1].

Bugungi kunda ma'naviy tahdidlarning yoshlar tarbiyasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda. Bunday sharoitda o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda ona Vatanga muhabbat, milliy va diniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xo'sh, ma'naviy tahdidni o'zi nima?

"Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion hurujlarni nazarda tutish lozim"[2].

Yuqorida ham ta'kidlaganimizdek, bugungi globallashuv davrida ayniqsa yoshlarimizni turli xil ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, ularning mafkuraviy immunitetni shakllantirish eng dolzarb vazifadir.

Ma'lumki, ayni damlarda insoniyat yangi axborot inqilobini boshdan kechirmoqda OAVning qamrovi darajasi tobora kengayib borib, yangi sifat darajasiga ega bo'lmoqda. Bu sohaning mahalliy, mintaqaviy, umuminsoniy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko'rsatishi uning ta'sir doirasini ko'rsatuvchi omillaridir.

Shu o'rinda, Hindistonning mashhur davlat arbobi Maxatma Gandi quyidagi fikrlarini eslaymiz: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim ham berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovol bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman". Bugungi globallashuv sharoitida O'zbekistonga tashqaridan ijobiy g'oyalar bilan birgalikda yashash turmush tarzimizga, ma'naviyatimizga zid bo'lgan turli xil yot va zararli g'oyalar kirib kelmoqda.

Internet tarmoqlaridan yoshlar har kuni turli xil jumladan: o'yinlar, videofilmlar va boshqa ko'plab va ma'lumotlardan foydalanadilar. Ularning aksariyati g'oyaviy jihatdan xalqimiz ma'naviy madaniyati va milliy o'zligini anglashga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ma'lumotlardir. Shuning uchun bu axborotlarga hammada ham bir xil munosabat shakllanmaydi: ba'zilar unga tanqidiy ko'z bilan qarasa, ba'zilar uni to'g'ridan-to'g'ri oddiy haqiqat deb qabul qiladi; yana boshqalar esa unday axborotlarga jiddiy munosabatda bo'lib, uning mazmuni-mohiyatini, g'oyaviy yo'nalishini bilishga harakat qiladilar. OAV va internet tarmoqlari orqali beriladigan bunday keng qamrovli, ayni vaqtda bizning mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan turli xil axborotlarni to'g'ri tushinish va ob'ektiv tahlil qilish uchun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirib borishimiz, xususan, milliy g'oyani singdirishimiz lozim bo'ladi. Bu jarayonda milliy o'zlikni anglash asosiy omillardan biridir.

Buning uchun yoshlarda ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, bu tuyg'ularni buzib ko'rsatuvchi ma'naviy tahdidlarga qarshi ularning mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozim.

Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongu shuurini internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa pedagoglar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab qiladi.

Bizga ma'lumki, ko'plab sayt va tarmoqlar katta mablag'lar evaziga filtrlab qo'yilgan va bu holatni ko'plab davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta, ta'qiqlar yoki fil'tr vositalari orqali odamlarni Internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo'lishi mumkin.

Ma'naviy tahdidlardan voyaga yetmagan yoshlarimizni himoya qilishda avvalo, "globallashuv avj olayotgan bugungi kunda milliy tarbiyaning strategik yo'nalishini keng ma'nodagi ma'naviyatimizni millatimizga yot bo'lgan turli zararli ta'sirlardan himoya qilish, uni yoshlarimiz ongi, qalbi, dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish"[3], milliy merosning muhofazasini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning hayoti uchun muhim bo'lgan axborotni to'g'ri va o'z vaqtida yetkazish, milliy urf-odatlar, qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, milliy tarixiy ildizlarni asrash, jamiyat a'zolarini milliy g'urur, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, tinchlikparvarlik ruhida tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda turli ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash, uning oldini olishning samarali yo'llaridan biri – fuqarolarning, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, aholi orasida doimiy ravishda milliy qadriyatlarimizga asoslangan huquqiy targ'ibot ishlarini oilada ota-onalar, o'quv muassasalarida o'qituvchilar va tarbiyachilar, mahallada mahalla faollari hamkorlikda olib borishlari lozimligini barcha anglab yetdi.

Yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratgan holda, ularning zamonaviy bilim va kasb egasi bo'lishlari bilan bir qatorda, milliy va umuminsoniy g'oyalarga sadoqat, an'ana va qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash har qachongidan ham muhim sanaladi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda... Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini

ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir"[4], deb ta'kidlab o'tgan edi.

Ayniqsa, mamlakatimizda bugungi kunda ilgari surilayotgan 5 ta muhim tashabbus: yoshlarni madaniyat va san'at muassasalariga keng jalb etish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, sport inshootlari quvvatini oshirish, aholi va yoshlar o'rtasida komp'yuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish chora-tadbirlari, yoshlar madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng jalb qilish va hududlarda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va xotin-qizlar bandligini ta'minlash chora-tadbirlarining qo'yilishi yoshlarimizni barkamol qilib tarbiyalashga asos bo'ladi.

Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: Birinchidan, har bir fuqaroda insoniylik, vatanparvarlik, millatparvarlik, mehnatsevarlik, o'zaro totuvlikni shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga e'tiborni yanada kuchaytirish;

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida, ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan yoshlar uchun o'quv mashg'ulotlarida, darslarda axborot psixologik xavfsizlik, internetdan foydalanish madaniyati, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy taraflari xususida tushuntirish ishlarini kuchaytirish;

Uchinchidan, oilada – ota-onaning farzandlar tarbiyasidagi shaxsiy namunasi asosida, oilada kitobxonlik, sport va san'atga, milliy an'ana va qadriyatlariga hurmatini shakllantirish.

To'rtinchidan, kelajak avlodimizni bir-birlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning badiiy adabiyot va san'atga qiziqishlarini kuchaytirish, sabr-toqatli qilib tarbiyalash;

Beshinchidan, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun ularni turli qo'shimcha mashg'ulotlarga, jumladan, kasb-hunar markazlari, til o'rganish maskanlariga qamrab olish darajasini yanada kengaytirish lozim. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab ularning sport va san'at bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, kitobxonlik madaniyatini oiladan shakllantirishimiz zarur. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan "Yosh kitobxon", "Bizning oila kitobxon" kabi tanlovlarning barcha bosqichlarida (tuman, shahar, viloyat, respublika) yoshlarimizni ham moddiy, ham ma'naviy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada keng yo'lga qo'yishimiz darkor.

Yettinchidan, iste'dodli yoshlarimizni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada kengaytirishimiz zarur.

Sakkizinchidan, globallashuv jarayonida ma'naviy tahdidlarni oldini olish eng muhim vazifalarimizdan biri ekan, uni amalga oshirishda jamiyatimizning barcha sohalarida fuqarolarimizning, yoshlarimizning ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan hamkorlik asosidagi chora-tadbirlarni kuchaytirish, OTMlarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni kengroq o'qitishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

O'ylaymizki, ushbu masalalarga alohida e'tibor berilib, uzoq yillik dasturlar, rejalar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilsa, har qanday ma'naviy tahdidlar, "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'siri qisman bo'lsada yoshlarimizni chetlab o'tishga erishishimiz mumkin.

Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi"[5].

Xulosa va takliflar. Kelajak taraqqiyoti bugungi yosh avlodning aqliy tafakkuri, bilim tajribasi va kasbiy tayyorligiga ekan, demak, Yurtimizda istiqomat qilayotgan har bir fuqaroda, ayniqsa yoshlarda yurtga sadoqat, vatanparvarlik, ezgulik, bag'rikenglik tuyg'ularini, yurt kelajagiga

mas'uliyat, zaminimizni buguni, ertangi kunining osoyishtaligini asrash, uning taraqqiy etishiga hissa qo'shish, tuyg'ularini qaror toptirish va yuksaltirishdan iborat bo'lishi bilan birgalikda shu aziz Vatanimizni ko'z qorachig'imizdek

asrash, uning tinchligi, osoyishtaligi va barqarorligini himoya qilish, salohiyatini yanada yuksaltirish ham farz, ham qarz bo'lgan muqaddas vazifa ekanligini hech qachon unutmasligimiz lozim.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 – jild. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017, 27-bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat” NMIU, 2008, 13-14-betlar.
3. Otamurotov S. Globallashuv va millat. – T., 2008. – B. 187.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 – jild. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017, 27-bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3 – jild. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2019, 76-bet.



UDK:330.1(075.8)

Laylo AKBAROVA,
Toshkent davlat transport universiteti katta o'qituvchisi
E-mail:akbarova1965@gmail.com

TDTTrU professori, f.f.d. Ramatov J.S. taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHNING ISTIQBOLLARI. MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Аннотация

Ushbu maqolada, O‘zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning istiqbollari, muammolar va yechimlar hamda raqamli iqtisodiyot, uni raqamlashtirish, raqamlashtirish siyosatini olib borish yo‘llari, iqtisodiyot sohasini tarkibiy qismlari, hozirgi kunda bu sohani naqadar kerakligi, undagi turli xildagi muammolar va ularni yechish yo‘llari va keyinchalik kutilayotgan natijalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiyot, intellektual raqamli, iqtisodiyot, raqamlashtirish siyosati, tendentsiya, davlat boshqaruvi, intellektual faoliyat, axborotlashgan jamiyat.

ПЕРСПЕКТИВЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассмотрены перспективы цифровизации экономики Узбекистана. анализируются проблемы и решения, а также цифровая экономика, ее цифровизация, пути проведения политики цифровизации, структурные части экономической сферы, насколько необходима эта сфера сейчас, различные проблемы в ней и пути их решения, ожидаемые результаты.

Ключевые слова: Экономика, интеллектуальная цифра, экономика, политика цифровизации, тренд, государственное управление, интеллектуальная деятельность, информационное общество.

PROSPECTS FOR DIGITALIZATION OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. CHALLENGES AND SOLUTIONS

Annotation

This article discusses the prospects for digitalization of the economy of Uzbekistan. problems and solutions are analyzed, as well as the digital economy, its digitalization, ways of pursuing a digitalization policy, the structural parts of the economic sphere, how necessary this sphere is now, various problems in it and ways to solve them, expected results.

Key words: Economy, smart figure, economy, digitalization policy, trend, public administration, intellectual activity, information society.

Kirish. Bugungi kunda, jahonda raqamli iqtisodiyot sohasiga bo‘lgan jadal suratlarda oshib borayotkani ko‘rishimiz mumkin. Bu soha haqida to‘xtalishdan oldin, keling endi bu sohani nima ekanligini tushunib olsak. Raqamli iqtisodiyot atamasi birinchi bo‘lib Yaponiya 1990-yillardagi turg‘unlik davrida yaponiyalik professor va tadqiqotchi, iqtisodchi tomonidan tilga olingan. “Raqamli iqtisodiyot” atamasi birinchi bo‘lib, 1995-yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan “Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va da va xavf-xatar” (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Iqtisodiyotni raqamli - bu intellektual faoliyat mahsuli hisoblanib, uzoq davrda shakllangan murakkab tizim sifatida bo‘lib, uning tarkibi texnik, axborot, matematik taminotidan iborat bo‘lib, real sektorlarni ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini raqamli texnologiyalarni keng qo‘llashga asoslangan tizimlardan biri hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne‘matlarining ustuvor o‘rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o‘ziga xostushuncha bo‘lib, uning o‘rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davrida bo‘lib, zamonamizning raqamli axborot

bosqichiga o‘tishi atiga bir necha o‘n yilni tashkil etadi. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma‘lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko‘rinishdagi ma‘lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir[2].

Raqamli iqtisodiyot muammolari, yechimlari va istiqbollari to‘xtaladigan bo‘lsak, Innovatsion rivojlanish vazirligi va BMT Taraqqiyot dasturi hamkorligida tashkil etilgan Innovatsiyalar va boshqaruv yechimlari laboratoriyasi tomonidan “Davlat boshqaruvini samarali rivojlantirish va raqamli transformatsiyaga ko‘maklashish” loyihasi doirasida seminar o‘tkazildi. Tadbirida vazirliklar, davlat idoralari, qo‘mitalar vakillari va mas‘ul xodimlari ishtirok etdi.

Raqamli iqtisodiyot kirib kelishi bilan raqamli platformalar yaratish va tez sur‘atlarda o‘sib borayotgan raqamli ma‘lumotlarni monetizatsiya qilish muammolari vujudga kelmoqda. Bunda qiymat yarata olish yo‘llarini, mazkur jarayonlardagi to‘siqlarni bartaraf etish vositalarini aniqlash muhimdir. Bu qiymatni yaratish va tarqatish salohiyatini, qiymatni yangilash, boshqarish hamda qiymatni qo‘lga kiritish shakllarini tushunish imkonini beradi. Raqamli iqtisodiyotni dunyoning barcha mamlakatlarida rivojlantirish zarurligi, raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonini tezlashtirish lozimligi qayd etildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan, qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi. «Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarining jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba

– traksakcion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 75 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. Ayniqsa, bu – transport, savdo, logistika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarga cheksiz qulayliklar yaratadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ularda elektron segmentning ulushi YaIMning 10 foiziga yaqinlashib, 4 foiz aholi bandligini ta'minlaydi. Eng ahamiyatlisi, bu ko'rsatkichlar barqaror tarzda o'sib boradi. Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning samaradorligiga nafaqat axborot texnologiyalarining qamrovi va infratuzilmaning mavjudligi, balki ishbilarmonlik muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruv instrumentlari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot aynan ularga tayanadi, bu esa ushbu mezonlarning raqamli iqtisodiyot rivojlanishida avvalgiday muhim o'rin tutishini bildiradi.

Tahlil va natijalar. Raqamli iqtisodiyot dunyoning ko'plab mamlakatlari iqtisodiyotiga jadal kirib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, iqtisodiyotning globallashuv jarayonlarini tezlashtirishini yuzaga keltirdi. Iqtisodiyotning barcha jabhalarida ulardan samarali tarzda foydalanish bugungi kun talabiga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya tez sur'atda o'zgaryotgan bugungi kun dunyosi uchun asosiy vositadir. Bundan tashqari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish asosida mamlakat iqtisodiyotida jadal rivojlantirishga erishish mumkin. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ham davlatga, ham aholiga va eng muhimi tadbirkorlarga qo'shimcha imkoniyat va qulayliklar yaratadi. Natijada mamlakatda qulay ishbilarmonlik hamda qulay investitsion muhit yaratiladi. Qulay investitsion muhitning yaratilishi esa mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi hajmining oshishidan dalolat beradi.

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy faoliyat bo'lib, u insonlar uchun qulayliklarni ta'minlagan holda mahsulot va xizmatlarni yaratuvchi virtual muhit hisoblanib, raqamli texnologiyalardan foydalaniladi va har kuni onlayn tarzda odamlar, bizneslar, quрилmalar, ma'lumotlar va jarayonlar orasidagi millionlab bog'lanishlarni amalga oshiruvchi tizimdir. Iqtisodiy faoliyatlarning keng xilma-xilligi raqamlashtirilgan ma'lumotlar va bilimdan asosiy omil sifatida foydalaniladi. Internet, bulutli hisoblash (cloud computing), katta ma'lumotlar (big data), moliyaviy texnologiya (financial

technology) va boshqa raqamli texnologiyalar ma'lumotlarni raqamli shaklda to'plash, saqlash va tarqatish uchun foydalaniladi, bundan tashqari ular ijtimoiy o'zaro ta'sirni butunlay o'zgartiradi.

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- raqamli iqtisodiyot sharoitida mahsulotlarni izlash harajatlari keskin kamayadi, chunki istalgan ma'lumotni online qabul qilish offline qabul qilishdan osonroqdir;

- raqamli iqtisodiyotdagi tovarlarning bir iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishi boshqa mahsulotlarga bo'lgan talab va ularning sifatini pasaytirmaydi;

- raqamli iqtisodiyotda mahsulotlarni tashish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish harajatlari nolga teng;

- raqamli texnologiyalar yordamida iste'molchining xarakterini osonlik bilan o'rganish mumkin.

Bu esa o'z o'rnida birga-bir (one to one) bozorlarni yaratadi;

- raqamli texnologiyalar mahsulot brendi va nufuzini yaratishni ham osonlashtiradi;

- raqamli iqtisodiyotda savdo-sotiqqlar elektron shaklda chegaralarni oson kesib o'tadi.

So'nggi besh yil davomida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilib, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun elektron tijorat tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqilishi hamda "Raqamli O'zbekiston- 2030" dasturi hayotga tatbiq etilishi O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanayotganligidan dalolat beradi. "Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'sishiga, korrupsiyani keskin kamayishiga imkon beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Shuning uchun iqtisodiyot sohalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirish, milliy axborot texnologiyalarini rivojlantirish va bu yo'nalishda investitsiyalar jalb etish zarur".

Quyidagilar O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblaniladi:

- davlat va xo'jalik organlari, mahalliy davlat organlarining joylarda zarur axborot tizimlari va resurslarini, dasturiy ta'minot va elektron xizmatlarning joriy qilinishini muvofiqlashtirishlarini belgilab olish;

- mamlakatda raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari bozorini, jumladan davlat xususiy sherikchiligi asosida texnopark va kovorking-markazlar faoliyatini tashkil qilish orqali xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish;

- zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasi, aloqa texnologiya va tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirishni joriy qilishni muvofiqlashtirish;

- davlat boshqaruvida va iqtisodiyot sohalarida elektron xizmatlarni joriy qilish, elektron tijorat va dasturiy ta'minot bozorini rivojlantirish orqali raqamli iqtisodiyotni yuksaltirish;

- internetning milliy segmentini, raqamli media-kontentni tashkiliy, moddiy-texnik va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash orqali rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- shahar va hududiy infratuzilmani boshqarishda foydalanish, xususan turar-joy va kommunal xizmat ko'rsatish, transport logistikasi, xavfsiz va «aqli shahar» uchun «aqli tizim»larni ishlab chiqish;

Raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyotda balki davlat boshqaruv tizimida ham samarali foydalanilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Mamlakatni ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirishda o'zaro manfaatli hamkorlikning samarasini oshirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy mexanizmlarini joriy etilishi hamda "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlatxizmatlari ko'rsatishning samarasini, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatlari oshirilishi kabi yo'nalishlar shular jumlasidandir.

Statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi oshib borayotganligini kuzatish mumkin. Lekin O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishi uchun bundan ham ko'p xorijiy investitsiyalarni talab etadi va O'zbekistonning bu sohada potentsiali yetarli darajada. Iqtisodiyotga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning hajmi oshishiga birinchi o'ringdan mamlakatda shakllangan investitsion muhit o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bugungi kunda qulay investitsion muhitning shakllanishiga esa mamlakatdagi raqamli iqtisodiyot darajasi o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi darajasi o'z potentsiali darajasi hozirgi darajasidan yuqoriroqdir. Shunday ekan, mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda buning asosida qulay investitsion muhitni shakllantirish eng muhim dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda buning asosida qulay investitsion muhitni shakllantirishga qaratilgan quyidagi takliflarni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiqdir:

- mamlakatda raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari bozorini, jumladan davlat xususiy sherikchiligi asosida texnopark va kovorking-markazlar faoliyatini tashkil qilish orqali xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish tizimini takomillashtirish;

- energiya tejankor va atrof muhitga kam zarar yetkazadigan yuqori texnologik, zamonaviy uskunalarni o'rnatish; mahalliy sharoitlarga mos keladigan ilg'or xorijiy texnologiyalarni tatbiq etish, o'zimizda yaratilayotgan ixtiro-larni rag'batlantirish va bilimlar iqtisodiyotiga mablag'lar yo'naltirish;

- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun axborot texnologiyalar sohasida yangi, zamonaviy yo'nalishlar

(raqamli texnologiyalar bo'yicha, masofaviy ta'lim bo'yicha, moliyaviy texnologiyalar bo'yicha, bulutli texnologiyalar bo'yicha va h.k.) da kardlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotning omili bo'lgan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun eng avvalo respublikamizda internet tezlikini oshirish va narxini optimallashtirish tizimini takomillashtirishni talab etadi. Bundan tashqari, aholining kompyuter va kompyuter dasturlari bilan ishlash bilim va ko'nikmasini oshirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bularni amalga oshirish uchun bir qancha amaliy vazifalarni yo'lga qo'yish lozim. Jumladan, tekin kompyuter kurslarini tashkil etish, elektron savdo maydonchalarini rivojlantirish, elektron hujjat almashish tizimini takomillashtirish, aholiga innovatsion raqamli texnologiyalar (krepto valyutalar, davlat xizmatlarining innovatsion turlari ya'ni "Elektron hukumat") haqida ko'proq va kengroq ma'lumot berish, oliy ta'lim muassalarining iqtisodiyot sohasida ta'lim olayotgan kelajak kadrlarini "raqamli iqtisodiyot" yo'nalishlariga jalb qilish kabi ishlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqoridagilarni amalga joriy etish, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning o'rmini oshirishda, axborot almashinuv tizimini tezlashtirishda muhim ro'l o'ynaydi. Shuningdek, uy xo'jaliklarining internet tarmoqlaridan keng foydalanishi tarmoq va sohalarning samaradorligishida, ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va vaqt sarfining qisqarib, iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarning ulushi oshishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday islohotlar asosida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, mamlakatimizning dunyoning iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlari reytingidan o'rin egallashiga zamin yaratadi. Pirovard natijada, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi mamlakatda qulay investitsion muhitning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Qulay investitsion muhitning shakllanishi esa mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning hajmi oshishidan dalolat beradi. Natijada mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishiga erishish mumkin. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi kunda raqamlashtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlari raqamlashtirish orqali juda katta foydaga ega bo'lish mumkin. Albatta, eng muhim masala bo'lmish "Yashirin iqtisodiyotni" maximum darajada kamaytirishga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. https://uz.vikipedla.com/wiki/Digital_economy.
2. Butaboev Muhammadjon, O'rinov Akmaljon, Mulyadinov Farhod, Tojimatov Isroiljon "Raqamli iqtisodiyot" darslik, 7-39-betlar.
3. Akbarova L.U. (2022). Application of pedagogical technologies in practical classes in the discipline "economic theory". Journal of new century innovations, 16(1), 133-135.
4. Akbarova L.U. (2022). The significance of economic theory in knowing and solving problems of economic development of the republic of uzbekistan. Journal of new century innovations, 16(1), 128-129.
5. Akbarova L.U. (2022). Some problems of lifelong education in uzbekistan in the conditions of a market economy. Journal of new century innovations, 16(1), 130-132
6. Saidahrolovich K.S., Upashevna, A.L., & Abduxamitovna, F.M. (2022). Factors Affecting Supply and Demand in The Automobile Industry of The Republic of Uzbekistan. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 5, 1-6.
7. Upashovna A.L. (2022). The Impact of Information Warfare on the Socio-Economic Development of Society and the Issue of Information Security. European journal of innovation in nonformal education, 2(1), 245-248.
8. Upashovna A.L. (2022). The Impact of Information Warfare on the Socio-Economic Development of Society and the Issue of Information Security. European journal of innovation in nonformal education, 2(1), 245-248.
9. Акбарова Л.У., Бексултонов А.Б., & Ильяшов Б.А. (2021). Бухгалтерский учет в процессе формирования управленческого учета. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 1, No. 2).
10. Акбарова Л.У. (2020). Особенности рыночной инфраструктуры в современных условиях. в номере, 9.
11. Акбарова Л.У. (2019). Особенности эффективного развития инновационного маркетинга и рекламной деятельности в сфере сервиса. Экономика и социум, (1-1), 170-17 Акбарова Л.У. (2019).



Shaxnoza ALIMOVA,
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: shaxnoza.alimova.72@mail.ru

TATU Nurafshon filiali dotsenti, f.f.b.f.d.(PhD) D.Raxmonov taqrizi asosida

MECHANISMS OF IMPROVING INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN

Annotation

The article describes the ongoing reforms in the education of children in need of social protection, which is part of our society, the issues of education of children with disabilities provided for in the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education". Also, some problems and suggestions on the problems of socio-psychological adaptation of children with disabilities in the process of education and ways to overcome them, the introduction of inclusive education for children with disabilities in Uzbekistan, its advantages, main stages, further improvement of inclusive education.

Key words: Law on Education, Convention on the Rights of the Child, Salamanca Declaration, Inclusive Education Technology, Children's Rights, Social Protection, Disability, Integration, Continuing Preschool Education, Inclusive Education, Individual Education, Socialization, rehabilitation of children with disabilities, socio-psychological adaptation, psychological training.

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье описываются проводимые реформы в сфере образования детей, нуждающихся в социальной защите, которые являются частью нашего общества, вопросы воспитания детей с ограниченными возможностями здоровья, предусмотренные Законом Республики Узбекистан «Об образовании». Также некоторые проблемы и предложения по проблемам социально-психологической адаптации детей с ОВЗ в процессе обучения и пути их преодоления, внедрение инклюзивного образования для детей с ОВЗ в Узбекистане, его преимущества, основные этапы, дальнейшее совершенствование инклюзивного образования.

Ключевые слова: Закон об образовании, Конвенция о правах ребенка, Саламанкская декларация, технология инклюзивного образования, права ребенка, социальная защита, инвалидность, интеграция, непрерывное дошкольное образование, инклюзивное образование, индивидуальное образование, социализация, реабилитация детей с ограниченными возможностями, социальная-психологическая адаптация, психологический тренинг.

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMI

Аннотация

Maqolada jamiyatimizning bir qismi bo'lgan ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning ham ta'lim-tarbiya olishlari borasida olib borilayotgan islohotlar, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan imkoniyati cheklangan bolalar ta'limida ko'zda tutilgan masalalar bayon etilgan. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari, O'zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni joriy etilishi, uning afzalliklari, asosiy bosqichlari, inklyuziv ta'limni yanada takomillashtirish bo'yicha ayrim xulosa va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Bolalar huquqi haqidagi Konvensiya», «Salamanka bayonoti», inklyuziv ta'lim texnologiyasi, bolalar huquqi, ijtimoiy himoya, imkoniyati cheklanganlik, integratsiyalashuv, uzluksiz — maktabgacha ta'lim, inklyuziv ta'lim, individual o'qitish, ijtimoiylashuv, imkoniyati cheklangan bolalar rehabilitatsiyasi, ijtimoiy-psixologik adaptatsiya, psixologik treynig.

Kirish. Har qanday jamiyatda yosh avlodning har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib voyaga yetishiga, munosib fuqarolar sifatida ulg'ayib, davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga ulush qo'shishlariga umid bog'lanadi. Butun jahon bolalariga tegishli bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Konvensiyada, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» singari qator muhim me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilishicha, barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilish, ta'lim olish, hayotda o'z o'rnini topish huquqlariga egadirlar. Ta'lim tizimini rivojlantirishning umumiy jihatlari o'quvchilar uchun teng shart-sharoit yaratish bilan bog'liq jarayonlar orqali xarakterlanadi. Bu borada nafaqat ta'lim oluvchining moddiy turmush tarzi, balki uning jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Ayniqsa, ushbu yo'nalishda imkoniyati cheklangan shaxslarga o'quv jarayonini tashkil qilishda tegishli shart-sharoit yaratish talab etiladi.

Mazkur jarayon rivoji o'zida uzluksiz – maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim bilan bog'liq bosqichlarni qamrab olganligi sababli inklyuziv ta'limda tizimli algoritmi vujudga keltirish kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid adabiyotlarni o'rganish natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuvi, shuningdek, ularning ta'lim-tarbiyasi muammosi doimo dolzarblik kasb etib keladi. Shu boisdan, inklyuziv ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha bir qancha izlanishlar va ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ture Yonsson, Devid Bayn, Kristin Maylz, Kirk Xorton, R.Fuller kabi olimlar olib borgan ilmiy tadqiqotlar yutuqlari va g'oyalari amaliyotga keng tatbiq etilgan. Ture Yonssonning «Inklyuziv ta'lim» nomli qo'llanmasi nogironlar uchun xalqaro ta'lim dasturining asosiy manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu manbada nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va o'smirlarni mustaqil hayot qurishlari va

yashashlari uchun xalqaro ta'lim-tarbiya berish dasturining asosiy jihatlari ochib berilgan [5]. Inklyuziv ta'lim sohasida yaratilgan tadqiqotlarda bolalar psixologiyasi muammolarini L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev, K.D.Ushinskiy, V.N.Mayashchev, N.N.Malofeev, N.D.Shmato, A.N.Golubeva kabi rus olimlari o'rgananganlar. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarni pedagogik-psixologik korrektsiyalash masalalarini o'rganishda I.I.Mamaychuk, L.P.Koskovoy, O.S.Nikol'skayalar, V.S.Manova-Tomova, Yu.S.Alyoshina, M.Krijanovskaya, V.S.Muxina, A.A.Bodalyov, Ye.R.Baevskayalar tadqiqot ishlari olib borganlar. Psixolog L.S.Vigotskiy o'z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko'plab g'oyalarni bevosita bolalarning psixik rivojlanishiga oiddir. U madaniy-tarixiy kontsepsiya ishlab chiqqan va unda shaxsning psixik rivojlanishi haqidagi nazariyani yaratgan [12].

L.M.Krijanovskaya imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya berishda psixologik korrektsiyalash metodlari orqali tarbiyalash yo'llarini keng yoritib bergan. Uning fikricha, inklyuziv ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishlarining samarali bo'lishi, yaxshi yutuqlarga erishishda maktab psixologi, pedagog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligi uzviy bog'langan bo'lishi lozim [10].

Hozirgacha mamlakatimizda ilg'or psixologiya vakillaridan M.G.Davletshin, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, A.S.Begmatov, B.R.Qodirov, E.G'.G'oziev, Sh.R.Barotov, A.M.Jabborov, N.S.Safiev, Sh.S.Shoyimova, R.Shomaxmudova va boshqalar tomonidan psixologiyaning maxsus sohalari bo'lmish shaxs psixologiyasi, oila psixologiyasi, o'z-o'zini anglash, ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari tadqiq qilindi. Ta'lim muassasalarida nuqsonli bolalarga ta'lim-tarbiya berish, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning psixologik va pedagogik xususiyatlari, ularning nuqsonlarini korrektsiyalash va inklyuziv ta'lim muammolarini R.Shomaxmudova, A.Berdieva, O.U.Ablaev kabi olimlar o'rganagan. Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda M.F.Hakimova, bolalardagi nutqiy kamchilikni o'rganish va uni bartaraf etish muammosi L.R.Mo'minova, X.M.Po'latova, I.G.Veretennikova, X.D.Kalbaeva, N.R.Rahmonqulova, U.Yu.Fayzieva, M.S.Asanova kabi mutaxassislarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Demak, juda ko'p olimlarning izlanishlarini tahlil qilish orqali inklyuziv ta'lim va u bilan bog'liq muammolarni ilmiy tadqiq etilganligi oilada tarbiyalanadigan har qanday holatdagi bola tarbiyasidagi muammo va masalalari har qanday millat bolasi uchun nihoyatda muhim masala ekanligini anglatadi. Psixolog va pedagoglarning ushbu muammolarni o'rganish sohasida qo'lga kiritgan yangiliklari bolalar ongi va iqtidorining rivojlanishi, shu jumladan, inklyuziv ta'limning taraqqiyotiga xizmat qiladi [12].

Tadqiqot metodologiyasi. Imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ta'lim tizimida o'qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, ularning o'z oilasidan uzoqda bo'lishga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o'rganib qoladilar, o'z-o'ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu boisdan, hozirgi kunda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyati, nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko'ra maxsus yoki umumta'lim tizimida ta'lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim siyosati amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion–uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy

qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'limning siyosati turli xil ehtiyojli bolalarni ta'lim olishini qo'llaydi, yutuqqa erishishga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi. Inklyuziv ta'lim – umumta'lim jarayonini rivojlantiradi, barcha bolalarga mos bo'lgan ta'limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim olishiga oid qo'shimcha moslamalarni tashkil qilib bolalarni ta'lim olishiga qulay sharoit yaratadi [14].

Inklyuziv ta'lim nafaqat nogiron bolalar o'rtasida, balki sog'lom turmush tarziga asoslangan oilada tarbiyalanayotgan bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari-da ham fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyatlar yarata oladi. U orqali o'quvchilarning bir-biriga ijobiy ta'sir ko'rsata olishiga erishish yaxshi natija keltiradi. Lekin ba'zan sog'lom bolalar bilan nogiron bolalar orasidagi tafovut sezilib qolishi, nogiron bola o'z tengdoshlariga qo'shilmay, tortinishi, o'z imkoniyatlaridan foydalana olmasligi sabab uyalib turishi, kamsitilishi, ayrimlari esa oilada haddan tashqari erka o'stirilganligi tufayli qaysarlik, injiqlik qilishi kuzatiladiki, bunday sharoitda ta'lim amaliyoti va ta'lim xizmatlarini tashkillashtirishda o'zgarishlar qilishga to'g'ri keladi. Bularning barchasi inklyuziv ta'lim jarayoni o'ziga xos murakkabliklarga ega ekanligini va shu sohada ishlaydigan o'qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar, kasbiy mahorat ustalari zimmasiga jiddiy talablar va mas'uliyatlar yuklashini oydinlashtiradi hamda tadqiqot mavzusining serqirra va murakkabligidan dalolat beradi.

Shu o'rinda inklyuziv ta'lim texnologiyasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

«Inklyuziv ta'lim texnologiyasi (ITT) – bu uzluksiz ta'lim tizimida maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun mehribonlik bilan tizimli yondashadigan, individuallashgan, sharoitga qarab o'zgaruvchan, maxsus o'quv dasturlari, materiallari, vositalari va metodlari yordamida ta'lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik jihatlarni zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir» [9].

Inklyuziv ta'limni o'qitadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan umumiy munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga rejali asosda joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi o'qishning uzluksiz va muttasiligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lim muassasalarida va oliy o'quv yurtlariga bema'lol, xavfsirasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi [13].

Dunyo mamlakatlarida nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, ularning jamiyatda o'ziga munosib o'rinni egallashlariga ko'maklashish masalasi-ga alohida e'tibor qaratiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotining “Nogironlar huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyasi, “Ta'lim hamma uchun” reja-dasturi to'g'risidagi Dakar deklaratsiyasi va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarining asosiy maqsadi nogiron bolalarni himoyalashga qaratilgan bo'lib, ta'lim jarayoniga

inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish ham shular jumlasidandir. Inklyuziv ta'lim faoliyati dasturi Ispaniyaning Salamanka shahrida dunyoning 92 davlati va 25 ta xalqaro tashkilot vakillari ishtirokida maxsus ehtiyojlar ta'limi Butunjahon konferensiyasida qabul qilingan. Unda alohida e'tiborga muxtoj bolalar, yoshlar va yoshi kattalarga oddiy ta'lim tizimi doirasida ta'lim berish zarur va kerak ekanligini tan olgan holda, barcha uchun maxsus ta'limning tamoyillari, islohotlari bo'yicha "Salamanka bayonoti" qabul qilingan [2]. Unda hammaga: "Biz barcha davlatlarni chorlaymiz va murojaat qilamiz: inklyuziv ta'lim tamoyilini qonun yoki islohot, deb qabul qiling"[5], deb da'vat qilingan.

Har bir mamlakatda inklyuziv ta'lim tizimi o'sha yerda mavjud an'analar, urf-odat va hukmron qadriyatlar asosida shakllanadi. Shuningdek, turli xalqlarning mentaliteti hamda o'quv tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan qonunchilik jabhasi bu boradagi ustuvor yo'nalishni yo'lga qo'yishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini ta'minlashga xizmat qilayotgan me'yoriy-huquqiy mexanizmning rolini alohida qayd etish o'rindir.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish jarayoni bosqichli tizimga ega. Prezidentimizning "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2020-2025-Oyillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish kontsepsiyasi ushbu bosqichning asosiy bo'g'ini hisoblanadi [3].

2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da:

alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan umumiy o'rta va professional o'quv muassasalariga yuborishga imkon beruvchi tibbiy ko'rsatmalar ro'yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash;

alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish va sertifikat berish tartibini ishlab chiqish;

oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatorida "Defektologiya" ta'lim yo'nalishi o'rniga "Maxsus pedagogika" ta'lim yo'nalishini kiritish;

alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilim oladigan o'quv muassasalarini maxsus adabiyotlar va metodik-qo'llanmalar bilan ta'minlash jarayonlari bilan bog'liq qator vazifalar belgilangan.

Bular O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini mustahkamlashga yo'naltirilganligi bilan muhim, albatta. Ammo bu yo'nalishni rivojlantirishda ta'limning ijtimoiylashuvi bilan bog'liq jarayonlarga alohida e'tibor qaratmoq lozim.

Alohida yordamga muxtoj – imkoniyati cheklangan bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

- birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalananadilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini, nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar;

- ikkinchidan, nogiron bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyoj uning jamiyatga va maxsus ehtiyojli bolalar uchun quyidagi nafli jihatlari mavjudligidan kelib chiqadi:

- inklyuziv ta'lim – maxsus ehtiyojli bolalarga doimo o'z oilasi, mahallasi va qarindosh-urug'lari davrasida bo'lishga imkon beradi;

- inklyuziv ta'lim – barcha uchun, ta'lim sifatini yaxshilashga olib keladigan katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Inklyuziv ta'limga o'tishning asosiy bosqichlari.

Inklyuziv ta'limga o'tish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich – maktabni moslashtirish. Ya'ni, maktab sharoiti har bir bolaning jismoniy va ruhiy holatiga monand bo'lishi kerak. Masalan, tayanch harakati shikastlangan bolalar uchun qulay chiqib-tushish yo'laklari, ularning holatiga moslangan partalar bo'lishi zarur. Sinfxona, oshxona va boshqa joylar maxsus ehtiyojli bor bolalar uchun qulaylik bilan qurilishi kerak. Shuningdek, eshitmaydigan o'quvchilar uchun eshitish moslamalari, ko'rmaydigan bolalar uchun kattalashtiruvchi oynalar kabi vositalar hamda o'quv qurollari lozim. Qisqacha aytganda, maktab bolalarning turli kamchiliklarini to'ldira oladigan darajada boyitilishi kerak;

Ikkinchi bosqich – o'qituvchilarni tayyorlash. Inklyuziv ta'limda individual o'qitish usuli juda muhim. Ya'ni, o'qituvchi har bir o'quvchining ehtiyojlari, layoqati va kamchiliklarini yaxshi bilib olishi kerak. Shunga binoan u dars davomida har bir bola bilan alohida shug'ullanadi. U eshitish layoqati past bo'lgan bolalar bilan so'zlashish nutqi, ko'rmaydigan bolalarni o'qitishda qo'llaniladigan usullarni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Individual yondoshishda o'qituvchi imkoniyati cheklangan bolalar bilan ko'proq shug'ullanishi va ularga yordamchi vositalarni ham qo'llashi lozim. Buning uchun o'qituvchilarni malaka oshirish darslariga yuborish talab etiladi;

Uchinchi bosqich – o'quvchilar saflariga yangi kelib qo'shilayotgan imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan do'stona munosabatda bo'lishlari, ularga yordam qo'lini cho'zishlari juda muhim. Ular orasida bir-birini kamsitish, ustidan kulish kabi holatlar mutlaqo bo'lmasligi kerak. O'quvchilar dars davomida eshitmaydigan, ko'rmaydigan yoki aqliy jihatdan zaifroq bo'lgan do'stiga ko'mak berishlari uchun ular orasida tushuntirish ishlari olib borish lozim;

To'rtinchi bosqich – maktabda ana shunday tayyorgarliklar amalga oshirilgandan so'ng, maxsus internatlardan bolalarni oddiy maktablarga ko'chirish mumkin. Agar, chindan bolalar ana shunday tayyorgarliklar va moslashtirishlardan so'ng oddiy maktablarga yuborilsa, ularda hech qanday qiyinchilik sodir bo'lmaydi.

Xulosa va takliflar. Butun jahonda yo'lga qo'yilgan ushbu ta'lim jarayoni bugunda yurtimizda ham rivojlanayotganligi bizning katta yutug'imizdir. Maxsus maktab-internatlarda ta'lim olayotgan barcha bolalarga ko'plab imkoniyatlar yaratish bilan ularni shaxs darajasiga yetkazish mumkin. Shu boisdan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida ayrim muammolarning yuzaga kelayotganligini inobatga olgan holda quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Nogironlikka ega bo'lgan oilalarni inklyuziv ta'lim borasidagi huquqiy va tibbiy bilimlarini oshirish;

- Imkoniyati cheklangan bolalar rivojlanishi va rehabilitatsiyasi uchun yetarli shart-sharoit yaratib berishda mahalla faollari, jamoatchilik, ta'lim muassasalari hamda tibbiyot xodimlarining hamkorligini yo'lga qo'yish;

- Imkoniyati cheklangan bolalarning erkin imkoniyatlarga ega bo'lishlarini ta'minlash uchun ta'lim, tibbiy va madaniy-ma'rifiy muassasalar va xizmatlarni moslashtirish va takomillashtirish borasidagi ishlarni yanada yaxshilash;

• Imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishlari uchun maqbul va qulay sharoitlarni yaxshilash;

• Inklyuziv ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini yanada jonlantirish uchun ota-onalar, mahalla

faollari, psixologlar va boshqa mutaxassislar ishtirokida tez-tez ochiq eshiklar kuni, davra suhbatlari, psixologik treninglar o'tkazish.

ADABIYOTLAR

1. Всеобщая Декларация прав человека 1948 г. ООН
2. Саламанская Декларация о принципах, политике и практической деятельности в сфере образования лиц с особыми потребностями. 1994г. Испания
3. "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son Qarori
4. "Maktablarni olqishlab-inklyuziv maktablardagi nogiron o'quvchilar" YUNESKO – 1999-yil.
5. Ture Yonsson. Inklyuziv ta'lim. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. YUNESKO Xalqaro tashkiloti. Opereyshen Mersi Xalqaro tashkiloti, Respublika ta'lim markazi. – T., 2003.
6. Roy Mark Konki "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YUNESKO-2004-yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
7. Shomaxmudova R., To'laganova D., Berdieva A. "Jismoniy rivojlanishida muammolari bulgan bolalar bilan inklyuziv ta'limi tizimida olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar" Uslubiy qo'llanma, "Razzoqov O.J." XT bosmaxonasi 2007-y.
8. Fayzieva U. "Инклюзивное образование детей с сенсорными нарушениями в общеобразовательных школах." Ijtimoiy Tashabbuslarni Qo'llab-quvvatlash Fondi, Toshkent-2009-yil.
9. Shomaxmudova R., Tulaganova D.R. «Инклюзия детей с особыми потребностями как залог успешной реабилитации, адаптации и социализации в обществе.» стр. 207-210 статья. Xalqaro forum materiallari to'plami: "Sog'lom turmush tarzi – barkamol avlod asosidir" («Здоровый образ жизни – основа гармоничного развитого поколения») 29-30 ноября – 2010г.
10. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: «Владос», 2013. -83-б.
11. Qaxarova. D.S. Inklyuziv ta'lim texnologiyasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2014, 192-bet.
12. Qahhorov S.Q., Qahhorova D.S. Inklyuziv ta'lim tahlili//Zamonaviy ta'lim /Современное образование. 2015, 8,43-46 b.b.
13. Alimova S.X., & Karimova G.A. (2019). Influencing incolulous education in uzbekistan and development of unique tendencies. European Science Review, (5-6), 80-83.
14. Alimova Sh.X., & Karimova G.A. (2021). Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiylashuvida inklyuziv ta'limning ahamiyati. Инновации в педагогике и психологии, 4(7).



Noila ALLAYAROVA,
Toshkent davlat texnika universiteti assistenti
E-mail: abidix17@gmail.com

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, PhD N.J. Sulaymonova taqrizi asosida

GENDER TENGLIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MOHIYATLI JIHLTLARI

Аннотация

Maqola talabalarda gender tenglik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini ko'rib chiqish va uni rivojlantirishning metodologik asoslarini belgilash natijasida qo'yilgan muammoni hal qilishga ko'maklashadigan zarur va yetarli pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yig'indisiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Dialogik o'zaro hamkorlik, o'yinli modellashtirish, ijtimoiy munosabatlar, ergonomik, qadriyatli kategoriyalar, qadriyatli kategoriyalar, pedagogik va metodik imkoniyatlar, dialogik malakalar.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ МЫШЛЕНИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА

Аннотация

Статья посвящена совокупности необходимых и достаточных педагогико-психологических условий, помогающих решить поставленную задачу в результате рассмотрения педагогико-психологических основ развития гендерного равноправного мышления у студентов и определения методологических оснований его разработка.

Ключевые слова: Диалогическое взаимодействие, игровое моделирование, социальные отношения, эргономика, ценностные категории, ценностные категории, педагогико-методические возможности, диалогические умения.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF GENDER EQUALITY THINKING

Annotation

The article is devoted to the set of necessary and sufficient pedagogical-psychological conditions that help to solve the problem posed as a result of considering the pedagogical-psychological foundations of the development of gender equality thinking in students and defining the methodological foundations of its development.

Key words: Dialogic interaction, playful modeling, social relations, ergonomic, value categories, value categories, pedagogical and methodical possibilities, dialogic skills.

Kirish. Gender tenglik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik va psixologik mohiyatli jihatlari, talabalarda gender tenglik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslarini ko'rib chiqish va uni rivojlantirishning metodologik asoslarini belgilash natijasida qo'yilgan muammoni hal qilishga ko'maklashadigan zarur va yetarli pedagogik-psixologik shart-sharoitlar yig'indisi aniqlandi. Bular: ta'lim jarayonining qadriyatli yo'nalganligi; dialogik o'zaro hamkorlik; shartlarning ergonomik tarkibiy qismi; pedagogik va metodik imkoniyatlardan o'yinli modellashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik usullarini qo'llagan holda foydalanish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi kunda jamiyat, fan va ta'lim insonparvarlik qadriyatlariga asoslangan yo'nalganlikda rivojlanmoqda (V.A.Kuvakin) qadriyatlar obyektiv mavjud va real ijtimoiy munosabatlar amaliyotida faoliyat ko'rsatadi, subyektiv anglashiladi va qadriyatli kategoriyalar, maqsadlar va ideallar tarzida boshdan kechiriladi. Ular dolzarblashib, insonlar xulq-atvorini ko'p jihatdan yo'naltiradi, bunda ijtimoiy xulqning o'ziga xos regulyatorlari (boshqaruvchilari) sifatida gavdalanadi. Qadriyatli yo'nalganliklarni rivojlantirish ancha murakkab, ma'lum davomiylikka ega va aksiologik qarashlar qurshovida amlga oshiriladi. Bu holda ta'lim muhiti qadriyatlarga yo'nalgan belgilar asosida talabalarda gender tenglik tafakkurini rivojlantirishning birlamchi sharti hisoblanadi. Talabaliq yoshida muloqot, aloqaga ehtiyoj yetakchi ekani haqidagi tezisa asoslangan holda faraz qilish mumkinki, u yoki bu

faoliyatga yo'nalgan ehtiyojlarni amalga oshirishning majburiy sharti sanaladi.

Ta'lim jarayonidagi dialogik o'zaro hamkorlik turli vazifalarni hal qilishning tayyor qoidalarini o'zlashtirishga tenglashtirilmagan ta'limni ijodiy jarayon sifatida rejalashtirish tendensiyasini faollashtiradigan gender tenglik tafakkurini rivojlantirish tizimi sifatida bilish faoliyatining motivatsiya sohasiga ta'sir ko'rsatish, refleksiya jarayonlarini faollashtirishga undaydi. Asos qilib olingan dialog g'oyasi talabalarining ta'lim jarayonidagi subyekt sifatidagi pozitsiyasini ta'minlaydi, ularning muloqot ko'nikmalari, boshqa odamlar, ularning fikrlari va munosabatlarida aks etadi. Demak, talabalarda gender tenglik tafakkurini rivojlantirish uchun dialogik malakalarga e'tiborni qaratish lozim. Muammoning psixologik jihatlarni tahlil qilish gender tenglik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-metodik shartlaridan biri – ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillarni hisobga olishni yoritib beradi. Shart-sharoitlar yig'indisining ergonomik tarkibiy qismini ajratib ko'rsatgan holda ishimizda ingliz tilini o'qitish jarayonida gender tenglik tafakkurini rivojlantirish, salomatlikni saqlovchi texnologiyalardan foydalanish, bu yo'l bilan talabalar faoliyatini optimallashtirishga urg'u berildi.

O'qitish texnologiyalarining samaradorligiga, o'z navbatida, mazmun, metod va shakllar bilan uzviy bog'liq bo'lgan ixtisoslashtirilgan o'quv vositalari majmuasini o'z ichiga olgan ergonomik axborot-predmet muhiti asosidagina erishish mumkin.

Tadqiqotimiz doirasida "Ingliz tili: amaliyot kursi" o'quv fanining tanlanishi shu kontekstda tilga olingan fan dasturlari ularning talabalar gender tenglik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Birinchi kursda o'rganiladigan fanlarning mazmuni gender tenglik mohiyati va prinsiplari, gender tenglikni his qiluvchi shaxs, gender tenglik va xulq-atvor madaniyati, boshqa xalqlarning madaniyati, an'analari va urf-odatlariga hurmat, zamonaviy dunyoda madaniyatlararo muloqot haqidagi bilimlarni kengaytirish imkonini beradi.

Nazarimizda, fanlar mazmuni mahalliy va xorij olimlarining ishlarida keltirilgan dialogik kompetentlikni tushunishga nazariy yondashuvlar; tanbehlar, o'z nuqtai nazarini himoyalashga yo'naltirilgan assertiv xulq-atvor mohiyati; talabani kasbiy faoliyatga refleksiv tayyorgarligi, ya'ni, murakkab ko'p madaniyatli makonda gender tenglik tafakkurini rivojlantirish, amalga oshirish va refleksiyalash malakalari haqidagi bilimlarni kengaytirish hisobiga to'ldirilishi kerak.

Bo'lajak mutaxassisning gender tenglik tafakkurini rivojlantirish maqsadida o'yinli modellashirishdan foydalanish bu metodning intensiv shaxslararo muloqot va hamkorlikdagi faoliyat hisobiga psixologik-korreksion samara olishga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi (A.P.Panfilova) o'yinli modellashirish mutaxassislarning ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi, ahamiyatli ijtimoiy-psixologik tajribani o'zlashirishi, o'zining kabi boshqalarning ham xulqini tahlil qilish, psixologik kompetentligini rivojlantirishda katta diagnostik, prognostik va korreksion salohiyatga ega.

Nazariy tahlil natijasida olingan xulosalar oliy ta'lim muassasasi talabalaridagender tenglik tafakkurini rivojlantirishning metodik va texnologik ta'minotini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. "Gender tenglik" – madaniyatning umumdunyoviy darajada iste'mol qilinadigan elementlari yig'indisidir. Uni targ'ib qiluvchi vositalar sanoat yo'li bilan katta hajmda ishlab chiqariladi. Gender tenglik "kundalik hayot madaniyati bo'lib, jamiyatda turli tarmoqlar orqali taqdim etilib, o'zida ommaviy axborot va aloqa vositalarini mo'jassamlashtiradi". Insonning ongi, xotirasi va bilimini tarkib topirish orqali talabalarda dunyoqarash qaror topadi. O'z navbatida, dunyoqarash talabalarda keng ko'lamda tafakkur yuritish imkonini hosil qiladi.

Tafakkur-inson akliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, u obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarta qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur – inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi

E. G'oziyev ta'biricha, tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi, fikrlash faoliyati esa, nutq shaklida namoyon bo'ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham uzatiladi. Inson o'zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o'zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning haqiqiylikni aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bivosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab

yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqea va hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko'rish imkoniyatiga ega.

Ong-psixik faoliyatning oliy shakli bo'lib, u faqat insonga xos fenomendir. Ong, uning mohiyati masalasi eng qadimiy muammolardan biridir. Ongni dastlab diniy va mifologik karashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqlning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsada, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Kimki olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati deb hisoblaydi.

Ongning mohiyatini izohlashda 2-yo'nalish – bu ong moddiy olamni inson miyasida aks etishi deb tushunish, uni inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etishdir. Ayni vaqtda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyati miyada sodir bo'ladi va u moddiy hodisa, degan xulosa kelib chiqadi. Vaholanki, insonning inson bo'lib shakllanishi ong bilan chambarchas bog'liq. Inson ham biologik, ham ijtimoiy mavjudot ekan, demak, ong ham biologik va ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ong insonning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, irodasi va karashlaridan tashkil topgan. O'z-o'zini anglash, xotira, iroda, nutq ongning asosiy psixologik jihatlaridir.

Hozirgi zamon fani ong materiyaninguzoq davom etgan evolyutsiyasining natijasi ekanligini tan oladi. Materiya, tabiat hamma vaqt mavjud bo'lib kelgan, inson esa moddiy dunyoning nisbatan so'nggi taraqqiyotining mahsulidir.

Materiya taraqqiyoti, fikrlay oladigan insonning paydo bo'lishi uchun bir necha million yillar kerak bo'lgan. Ong tabiat taraqqiyoti mahsuli, materiyaning xossasidir, barcha materiyaning emas, balki oliy darajada tashkil topgan materiyaning, ya'ni inson miyasining mahsulidir. Lekin ongning bo'lishi uchun miyaning o'zigina bo'lishi yetarli emas. Ong insonni qurshab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'langan va shu muhitning ta'sirida faoliyat ko'rsata oladi. Hozirgi zamonda murakkab ijodiy jarayonlarni ham amalga oshiruvchi raqamli texnologiyalar, forsait texnoparklar yaratilmoqda, lekin ular inson ongining o'rnini bosa olmaydi, chunki ong o'ta murakkab obyektiv mavjudlikdir.

Taxlil va natijalar. A.Erkayevning ta'kidlashicha, dunyoqarash onga juda yaqin, lekin unga nisbatan ancha tor tushuncha. Dunyoqarash shaxs, ijtimoiy guruh, sinf, yoki muayyan davr jamiyatining olam, inson, jamiyat, taraqqiyot to'g'risidagi eng umumiy va sobit tasavvur, g'oya va baholari; tushuncha; qarash; nazariya, e'tiqod, ijtimoiy mo'ljal va idealidir. Dunyoqarashga o'tkinchi va ikkinchi darajali narsalar xos emas. Umumiylik va sobitligi bilan dunyoqarash ondan farq qiladi va ongning yadrosini tashkil etadi. Dunyoqarash murakkab hodisaligi tufayli ko'p hollarda ziddiyatli bo'ladi, chunki bir vaqtning o'zida unga ilmiy, noilmiy, to'g'ri yoki xato tushunchalar, e'tiqodlar kirishi mumkin.

S.SH.Shermuhamedovning fikricha, insonning bilimlari, e'tiqodi, hayotiy mo'ljallari, uni o'rab olgan ijtimoiy muhit uning dunyoqarashi shakllanishiga ta'sir etadi. Dunyoqarash inson faoliyatining maqsad va yo'nalishlarini, uning jamiyatdagi pozitsiyasi va mavqei belgilab beradi. Ijtimoiy guruhning o'ziga xos dunyoqarashi bo'ladi. Hozir mustaqil O'zbekistonda shakllangan dunyoqarash xalqimizning tarixi, manfaatlari, istiqbolini bilish bilan bog'liqdir.

SH.S.Shodmonova ta'kidlashicha, "...dunyoqarash xalqning tarixi, manfaatlari va kelajagini tasavvur qilish, tushunish, o'tmishni o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida o'tmish va kelajak haqida xulosalar chiqarish bilan bog'liq. Mazkur jarayonda ta'lim oluvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etish, ya'ni o'tmishni o'rganish,

tahlil qilish va obyektiv baholash muhim ahamiyatga ega". Demak, dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida gender tenglik tafakkuri ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Eng muhimi insonning olamga munosabati, dunyodagi o'rni, mohiyati, hayotiy yo'nalishini, o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Shuningdek, dunyoqarash «dunyoni tushuntirish», «dunyoni his qilish», «ifodani idrok qilish» kabi tushunchalar bilan yaqin ma'nodosh ekanligini aytish joiz.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondashuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

B.Xodjayevning fikricha, "... dunyoqarash kishilik o'tmishi bilan bog'liq bo'lgan, uni o'rganish jarayonida yuzaga kelgan qarashlar tizimidir. Dunyoqarash ijtimoiy fikr orqali ijtimoiy hayot va jamiyat tarixiy taraqqiyoti, uning bosqichlari haqidagi tasavvurlar asosida vujudga keladi".

Jumladan, D.S.Abdullayevaning ta'kidlashicha, asrlar osha turli ko'rinishlarda saqlanib kelgan o'tmish haqidagi bilimlar ertangi kun uchun zarur bo'lgan xulosalarni chiqarishga zamin bo'ladi. Millatning o'tmish haqidagi tasavvurlari milliy til, urf-odatlar, tarixiy janrdagi badiiy

adabiyot namunalari, maqollar, dostonlar, tarixiy qo'shiqlar va xalq og'zaki ijodining boshqa shakllari, joy nomlari kabi ma'naviy, arxitektura yodgorliklari, nodir kitoblar, qo'lyozmalar, buyumlar kabi moddiy madaniyat shakllarida mujassamlashgan milliy tarixiy xotira haqida ham shunday deysish mumkin. Obyektivlashgan moddiy va ma'naviy madaniyat elementlari esa, subyektiv shakldagi milliy tarixiy xotiraning u yoki bu qatlamlarining aktuallashuvining muhim manbai hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan Sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030 yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.
4. Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: Монография. — М.: МАКС Пресс, 2016. — 116 с.
5. Gulobod Qudratulloh qizi, Ishmuhamedov R., Normuhamedova M. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Vuxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.
6. Ежак Е.В. Психологическое обеспечение профессионального развития педагога в условиях рисков современного образования. дисс... док.психол. наук. – Ростов-на-Дону.: 2017. - 315 с.
7. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.
8. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistalar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchu o'quv qo'llanma)-T.:2013.-279 b
9. Макарова Н.С. Дидактика высшей школы. монография/ Макарова Н.С., Дука Н.А., Чекалева Н.В. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2019 - 172 с.



Saydullo ARZIYEV,
Farg'ona politexnika instituti assistenti
E-mail: arziyevsaydullo@gmail.com

O'ZDJTSUFF sport turlari fakulteti dekani p.f.b.f.d., PhD O.A.Toshtemirov taqrizi ostida

PEDAGOGIKADA GOLOGRAFIK TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini rivojlanish tarixi va ushbu fanni o'rganishda zamonaviy texnologilardan biri sanalgan gologrammalardan foydalanish samaradorligi haqida to'xtalangan.

Kalit so'zlar: Chizmachilik fan sifatida, muhandis kadrlar, Gologramma, 3D tasvir, pedagogika, gibrid format, o'qitish metodikasi.

ГОЛОГРАФИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация

В данной статье рассмотрена история развития науки инженерной компьютерной графики и эффективность использования голограмм, являющихся одной из современных технологий в обертывании этой науки.

Ключевые слова: Черчения как наука, инженерное дело, голограммы, 3D-изображения, педагогика, гибридный формат, методика обучения.

HOLOGRAPHIC TECHNOLOGIES IN PEDAGOGY

Annotation

This article examines the history of the development of the science of engineering computer graphics and the effectiveness of the use of holograms, which are one of the modern technologies in wrapping this science.

Key words: Drawing as a science, engineering, holograms, 3D images, pedagogy, hybrid format, teaching methods.

Kirish. O'zbekiston respublikasini ta'lim to'g'risidagi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan. Bunday e'tibor ta'lim tizimidagi tub islohotlar amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Biz rivojlanayotgan davlatda yashar ekanmiz bunday islohotlarga e'tiborsizlik bilan qarashga haqqimiz yo'q, xar bir ta'lim sohasidagi xodimlar o'z malakasini va kasbiy maxoratini oshirish yo'lida tinimsiz ishlashi, xalqaro ta'lim tizimlari bilan hamnafas, kadrlarga bo'lgan umumjahon talablarini xisobga olgan holda o'z faoliyatini olib borishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Vitagen tajribasini aktualashtirish bir vaqtning o'zida A.S. Belkin golografik yondashuv deb belgilagan o'quv jarayonini tashkil qilish uchun ajoyib vositadir. Golografiya tushunchasi jismoniydir. Bu ob'ektni aks ettirilgan ko'p o'lchovli fazoda kamida uchta proektsiyada ko'rib chiqishni anglatadi. Antonio Menegetti tomonidan Golografiya tushunchasi ontopsixologiyada 1993-yilda qo'llanilgan.

Biz o'rganishda proektsiyaning golografik usulini o'rganilayotgan bilim mazmunini, minimum sifatida uchta proektsiyani Markaziy vektorlar bilan birlashtirgan holatlarni hajmli ochib berish jarayoni sifatida ko'rib chiqamiz [1]. Vitagen proektsiyasi - bu yangi bilimlarni taqdim etishga tayyorgarlik ko'rish uchun o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonida talab qilinadigan vitagen ma'lumotlardir. Vektor:

talaba → bilim → o'qituvchi

Stereo proektsiya - talabalarining vitagen ma'lumotlaridan foydalanadigan o'qituvchidan olingan ma'lumotlar. Vektor:

o'qituvchi → bilim → talaba

Golografik proektsiya - har qanday qo'shimcha manbadan olingan ma'lumotlar: boshqalarning vitagenik tajribasi, kitob, ommaviy axborot vositalari, ilmiy

ma'lumotlar, turli sohalar mutaxassislari bilan uchrashuvlar, san'at asarlari va boshqalar.

A.S.Belkin o'qitishda golografik usulning quyidagi texnologiyalarini ajratadi:

- Ta'lim jarayonida uning aloqalarini ochib berish bilan hayotiy tajribani retrospektiv tahlil qilish usuli [4]. U talabalarining analitik qobiliyatlarini va ko'nikmalaridan foydalanish, qiymatli ta'lim ma'lumotlarini vitagen ma'lumotlari bilan o'zaro bog'lash va ta'lim maqsadlari uchun zarur bo'lgan xulosalar chiqarish zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

O'qituvchining vazifasi vitagen va ta'lim bilimlari o'rtasidagi tafovut, nomuvofiqlik, qarama - qarshilik, rad etish darajasini tashxislash va ilmiy dalillar tizimiga tayanib, talabalarining hayotiy tajribasining obrazli qiymatini ochib berish, ya'ni. "ma'lumot operatsiyasi"samaradorligiga erishish.

Talabalarining hayotiy tajribasini boshlang'ich aktualashtirishni qabul qilish shundan iboratki, talabalar kerakli ta'lim (ilmiy) bilimlarni olishdan oldin kundalik ong darajasida qanday bilim zaxirasiga ega ekanligini aniqlash kerak [3]. Diagnostika individual o'quvchilarning ham, umuman sinf jamoasining ham intellektual salohiyatini aniqlashga, yangi ma'lumot olmasdan psixologik munosabatni yaratishga, olingan ma'lumotlardan muammoli vaziyatni yaratish uchun foydalanishga imkon beradi.

Oddiy savol: "siz nima bilasiz...?" Bunday texnikaning samaradorligi uchta asosiy shart bilan ta'minlanadi:

- hayotiy tajribani talabalarining yosh imkoniyatlariga moslashtirish bo'yicha qo'yilgan vazifalarning muvofiqligi;

- aktualashtirish shakli talabalarining yosh imkoniyatlariga ham mos kelishi kerak;

- talabalarining vitagen tajribasini aktualashtirishning har qanday shakli muvaffaqiyatli holatda bo'lishi va bolalarda optimistik nuqtai nazarni yaratishi kerak.

- O'qitishning ilg'or proektsiyasini qabul qilish texnika talablarini oshiradi.

Siz: "yaqinda siz yangi narsalarni o'rganasiz", deb ayta olmasiz. Aniqroq aytish yaxshiroqdir: "keyingi safar men sizga biron bir narsa haqida gapirib beraman va siz bilganingizni, bu haqda eshitganingizni, hayotingizda duch kelgan narsalarni tasavvur qilishga harakat qilasiz." texnikaning ma'nosi ta'lim proektsiyasini vitagen ustiga qo'yishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tugallanmagan ta'lim modelining qo'shimcha dizaynini qabul qilish, ayniqsa, vitagen bilimlarini emas, balki shaxsning ijodiy salohiyatini, uning o'zini o'zi anglashga bo'lgan ehtiyojini aktuallashtirish zarur bo'lgan hollarda samarali bo'ladi. Uning formulasi: "men sizga g'oyani, tugallanmagan asarni taklif qilaman va sizning vazifangiz hayotiy tajribangizga asoslanib, tarkibni to'ldirishdir" [2].

- Ta'lim proektsiyalarini vaqtincha, fazoviy, mazmunli sinxronlashtirish usuli shundan iboratki, didaktik material faktlar, hodisalar, jarayonlar o'rtasidagi vaqtinchalik, fazoviy, mazmunli aloqalarni ochib berish bilan tavsiflanadi.

Bu yerda vitagen komponenti bilimlarni o'zlashtirishda, ko'nikmalarni rivojlantirishda emas, balki "hayot haqiqati"ga muvofiq ta'lim mavzusini idrok etishning hajmli doirasida namoyon bo'ladi. Ushbu texnikaning formulasi: "hayot juda ko'p o'lchovli va o'quv materiallari ko'p o'lchovli idrok etilishi kerak, shunda u hayot uchun zarur bo'ladi." U oxir-oqibat bilimning qiymatini rivojlantiradi.

- Ta'lim proektsiyalarida vitagen o'xshashliklarini qabul qilish quyidagi formulaga ega: "hayotda hali mavjud bo'lmagan narsa yo'q".

- Jonli va jonsiz tabiat tasvirlarini vitagenik ruhlantirish usuli. Uning mohiyati tirik va jonsiz tabiat ob'ektlarini "insoniy lashtirish", ularga insoniy fazilatlarini,

harakat motivlarini bog'lash va shu bilan ta'lim aloqalari va jarayonlarining chuqur ma'nosini ochib berishdir.

Qabul qilishning texnologik ahamiyati shundaki, talabaniy o'zi golografik ko'rinishni ta'minlaydigan uchta proektsiyani yaratadi: vitagen (talabdan), Stereo proektsiya (o'qituvchidan vektor), golografik (yon tomondan vektor).

Vitagenik ma'naviyat usullari:

- L. N. Tolstoy "Xolstomer". Ot ko'zlari bilan dunyo;

- multfilmlar seriyasi "Xo'sh, kuting!", "Mougli" va boshqalar.


- Ideal ta'lim ob'ektlarini ijodiy modelashtirish texnologiyasini majoziy ma'noda "Agar men Prezident bo'lganimda" gazetasi bilan taqqoslash mumkin.

Qabulning ma'nosi o'quvchilarga o'z tasavvurlarida ta'lim ob'ektining ideal modelini yaratish imkoniyatini berishdir, buning uchun materiallar birinchi navbatda vitagen tajribasi va o'quv jarayonida olingan ma'lumotlar bo'ladi. Golografik proektsiya talabalarning dastlabki ikkita proektsiyasini sintez qiladigan ijodiy tasavvurlari bilan ifodalanadi. "Ideal" atamasi mukammallikni, kamchiliklarning yo'qligini anglatmaydi, faqat muallifning asosiy g'oyasini aks ettiruvchi spekulativ, hayot haqiqatidan uzilgan loyihani anglatadi.

Quyida gologramma xosil qilish texnologiyasini ko'rib chiqamiz:

Birinchi qadam.

Piramidani ishlab chiqarish uchun material plastikshisha bo'lishi mumkin, eski stenddan plastik rangsiz plastiklar, shaffof plastik (agar smartfon uchun bo'lsa) yoki oddiy deraza oynasi, agar o'qituvchi undan foydalansa. Materiallar qanchalik qattiq bo'lsa, shuncha yaxshi bo'ladi. Gadjetingiz uchun kelajakdagi piramidaning hajmini tanlang (ekran o'lchamiga qarab a,b,v rasmga qarang).



v) 17 dyumli monitor uchun

Ikkinchi qadam.

Kartondan biz ushbu o'lchamlarga muvofiq shablon qilamiz, shaffof plastmassa, pleksiglas va boshqalarga qo'llaymiz va qaychi yoki pichoq yordamida trapetsiyani kesib olamiz (1-rasm).



1-rasm

Biz 4 ta xuddi shunday trapetsialarni kesib olamiz, keyin biz ularni lenta bilan yopishtiramiz. Siz quyidagi mahsulotni olishingiz kerak.

Uchinchi qadam.

Smartfondan internetni yoqamiz, saytga o'ting <https://www.youtube.com/>, qidiruv satriga 3D gologramma

deb yozing va o'zingiz yoqtirgan tayyor gologrammani tanlang.

Biz uni smartfonning butun ekranida ishga tushiramiz va siz bilan quyidagi rasmni olamiz, piramidaning ekrandagi to'g'ri joylashishiga e'tibor bering.

Xulosa. Talabalar ushbu texnologiyadan foydalanib ko'rgazmali qurollarni qiziqarli va yangi bosqichda o'rganish Muhandislik kompyuter grafikasi fanida qo'llaniladigan imkoniyatini yaratib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Arziyev S. «Advantages of using three-dimensional visual views in teaching the subject «descriptive geometry»,» pp. 33-45, 2021.
2. Valikhonov Dostonbek, «Using gaming technologies in engineering graphics lessons,» *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, pp. 95-99, 2021.
3. Выгодский М.Я., «Справочник по высшей математике», «Издательство Астрель», 2002.
4. Saydullo Sobirovich Arziyev M.M.R., «The modeling method in the integration of design and engineering graphics disciplines.» *Theoretical & Applied Science*, pp. 569-572, 2020.
5. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi
6. Технологии создания голограмм. Ахидова Софья Данииловна.
7. Askarov I.B. (2017). The main stages of preparing future vocational education teachers for research activities. *Eastern European Scientific Journal*, (5).
8. Askarov I.B. (2017). Management and planning of the process of formation of research skills and abilities of future teachers of vocational education. *School of the Future*, (2), 10-15.
9. Askarov I.B. (2017). Basic approaches and principles of preparing future vocational education teachers for research activities. *Current Research in the Modern World*, (2-6), 25-32.
10. Askarov I.B. (2016). Preparation for research activities of the future teacher of vocational training. In *Teaching Excellence* (pp. 39-42).
11. Умиров И. (2021). Таълим жараёнида электрон таълим воситаларини қўллашнинг педагогик-психологик омиллари. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
12. Iskandarovich, U. I. (2021). Theoretical Fundamentals of Introduction of Electronic Educational Tools to the Educational Process. *Central asian journal of theoretical & Applied sciences*, 2(1), 1-7.
13. Askarov, I. B. (2017). Basic stages of training to research activity future professional education teachers. *Eastern European Scientific Journal*, (5).
14. Аскарлов И. Б. (2017). Основные подходы и принципы подготовки будущих педагогов профессионального обучения к исследовательской деятельности. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (2-6), 25-32.
15. Аскарлов, И.Б. (2017). Управление и планирование процессом формирования исследовательских умений и навыков будущих преподавателей профессионального образования. *Школа будущего*, (2), 10-15.
16. Аскарлов И.Б. (2016). Подготовка к исследовательской деятельности будущего педагога профессионального обучения. In *Педагогическое мастерство* (pp. 39-42).
17. Аскарлов И.Б., & Умиров, И.И. (2021). Технологии, методы и средства электронного обучения. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 459-464.
18. Daniyarovna H.S. (2021). The Contents of Students' Independent Education and Methods of Implementation. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1445-1456.
19. Умиров И., & Хамракулов Ё. (2021). Elektron ta'limning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularning qiyosiy tahlili. *Общество и инновации*, 2(10/S), 555-560.
20. Iskandar O'g'li U. . (2022). pedagogical essence and model of technological competence development in future engineers. *current research journal of pedagogics*, 3(10), 7-14.
21. Umirov I. I. O. G. L. (2021). Elektron ta'lim vositalarining o'quv jarayonida qo'llashning usullari va vositalari. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 853-856.



Nigora AKHMEDOVA,
Andijan State Medical Institute
Head of the Department of Uzbek Language and Literature, PhD
E-mail: nigora_ahmedova@mail.com

Based on the review of Professor of Karshi State University, Doctor of pedagogical sciences R.D.Shodiev

TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH VA MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Annotsatsiya

Ushbu maqolada talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Zamonaviy ta'limning eng muhim maqsadi – mutaxassisga nafaqat zaruriy tayyorgarlik, balki butun kasbiy hayoti davomida rivojlantirishni davom ettirish uchun ko'nikma va malakalar bazasini ta'minlashdir.

Kalit so'zlar: Kasbiy faoliyat, pedagogik texnologiya, ta'lim-tarbiya, modulli ta'lim, bo'lajak shifokor, innovatsiya, pedagogik amaliyot, bo'lajak mutaxassis.

PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMATION OF SPIRITUAL AND MORAL CULTURE

Annotation

This article discusses the pedagogical features of preparing students for professional activities and the formation of a spiritual and moral culture. The most important goal of modern education is to provide the specialist not only with the necessary training, but also with a base of skills and competencies to continue developing throughout his or her professional life.

Key words: Professional activity, pedagogical technology, education, modular education, future doctor, innovation, pedagogical practice, future specialist.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ФОРМИРОВАНИЮ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические особенности подготовки студентов к профессиональной деятельности и формирования у них духовно-нравственной культуры. Важнейшей задачей современного образования является обеспечение специалиста не только необходимой подготовкой, но и базой навыков и компетенций для дальнейшего развития на протяжении всей его карьеры.

Ключевые слова: Профессиональная деятельность, педагогическая технология, образование, модульное обучение, будущий врач, инновации, педагогическая практика, будущий специалист.

Introduction. The formation of spiritual and moral values of the national pedagogical culture among future doctors is one of the urgent problems of modern higher education. The transformation of the mechanisms of the organization of life, the shift in worldview accents, characteristic of the socio-cultural situation of recent years, entail the leveling of national values, their transition to the category of secondary importance in the upbringing of the younger generation [8].

Neglect of the geopolitical significance of pedagogical culture hinders the full development of the personality, the development of a sense of patriotism and national identity. The ever-increasing tendency to copy foreign trends poses a serious danger to the moral and spiritual foundations of the national educational tradition. Meanwhile, the formation of axiological ideas of the individual, his national dignity in the educational process corresponds to the principle of social equality of national cultures of all peoples. Therefore, a full-fledged entry into the global cultural and educational space presupposes, first of all, acquaintance with the value-oriented educational tradition of one's people and the adoption of its main provisions at the subject level as a pedagogical basis.

This is especially important to take into account when building a new educational system. A worthy status of Uzbekistan in the modern world will be provided only by such an education system that can realize the function of preserving

and reproducing the humanistic traditions of the national culture, a system that is flexible, open, capable of self-development, taking into account the experience of enlightenment, and meeting the needs of modernity[3].

Literature review. It follows that one of the most important tasks of educational institutions is to focus on the need to master the system of pedagogical knowledge. And this is possible with the strengthening of the block of humanitarian disciplines in state educational standards.

Thus, the problem of professional and axiological training of a teacher becomes a key problem of higher education.[9]

The goal of the university is to form a personality, a citizen, a person of humanistic spiritual and moral orientation, a specialist in one of the fields of science, able to see it in the system of modern knowledge and cultural practice.

This goal becomes more than relevant against the background of the interconnection and unity of the socio-humanitarian, cultural, psychological-pedagogical and subject-social training of the teacher, to which more and more attention has been paid in recent years.

In addition, without the foundation of higher meanings of professional and pedagogical activity, it is impossible to develop and improve the teacher's personality, its spiritual growth and creative development of cultural ideas.

The theoretical development of this direction was laid down in the works of E.R.Ashkharua, V.P.Bezdukhova, E.P.Belozertseva, S.N.Galenko, I.F.Isaeva, E.G.Silyaeva, V.A.Slastenina, E.N.Shiyanova.

The problem of understanding the importance of spiritual and moral values has always been among the most significant for the national pedagogical tradition.

The state of the economy of any developed country is largely determined by the intensity of the influx of progressive scientific and technical ideas and the speed of their implementation. In connection with the increasing informatization and intellectualization of production technologies, the volume of special information - scientific, technical, technological, etc. - is growing rapidly. Under the conditions of socio-economic transformations taking place in the country, the requirements for the quality of training of specialists are significantly increasing.

Modern scientists and teachers also explore the theoretical foundations of the education of spiritual and moral values in future doctors: aspects of stimulating moral development (Z.I.Ravkin), the interaction of a teacher and a child in the process of spiritual education of a person, his existential self-determination (O.G.Gazman, T.I.Vlasova, N.E.Shchurkova), the definition of humanistic values of education on spiritual and moral grounds (V.A.Belyaeva, T.I.Petrakova), morally oriented self-construction (E.V.Bondarevskaya).

Research Methodology. study and theoretical analysis of philosophical, psychological and pedagogical literature; designing the process of subject-activity mastering by students of the spiritual and moral values of the national pedagogical culture and experimental work on its implementation; poll; conversation; questioning; included observation; analysis of products of activity; creation and analysis of pedagogical situations; keeping a pedagogical diary (description and analysis of situations that have changed, enriched the spiritual experience of students); method of pedagogical consultation; acquaintance with the university experience in the preparation of future specialist teachers; analysis of copyright programs; statistical analysis; generalization[7].

Analysis and results. Current conditions, when there are changes in the field of ideology; when the idea of material values begins to prevail in reality and relegate the idea of spiritual and moral values to the background, they confirm the special significance of the study of the value approach, since a value orientation for a person is a guideline for his life path, actions, deeds, including professional activities.

Social requirements for the education system are formulated in the Concept for the Modernization of Uzbek Education for the period up to 2022: "A developing society needs modernly educated, moral, enterprising people who can independently make responsible decisions in a situation of choice, predicting their possible consequences, capable of cooperation, are distinguished by mobility, dynamism, constructiveness, have a developed sense of responsibility for the fate of the country. The concept of modernization of education also determines the main goal of vocational education - it is the preparation of a qualified specialist of the appropriate level and profile, competitive in the labor market, fluent in his profession and oriented in related fields of activity, capable of effective work in his specialty at the level of world standards, ready for permanent professional growth, social and professional mobility; meeting the needs of the individual in obtaining an appropriate education. The formulated requirements for the training of specialists show that the success and effectiveness of his future professional activities and life in society. In modern conditions, the most

perfect form of professional activity is the transformative, innovative, creative activity of a specialist. Production today needs independent, creative specialists who are proactive, enterprising, able to make a profit, propose and develop ideas, find unconventional solutions and implement cost-effective projects. And this cannot be done without the recourse of professional education to a student-oriented technology of teaching and educating students.

Under these conditions, the learning technology focused on the presentation and assimilation of ready-made knowledge cannot be recognized as rational and promising. New technologies of education are needed, connected with the formation of intellectual culture and the rise of the creative abilities of a specialist.

The work carried out in this direction should be based on pedagogical technology based on the concept of creative activity[4].

The success of the business is largely determined by the qualifications of specialists, their ability to creatively solve complex research, development and organizational problems. The problem of formation of such specialists is solved mainly outside of science - both fundamental and applied - in the system of higher education. The most important goal of modern education is to provide a specialist not only with the necessary training, but also with a base of skills and abilities to continue his studies throughout his professional life. The scientific and technological progress that paves the way for the civilization of the 21st century, apparently, promises work for those who can better than others develop their higher intellectual abilities (the ability to analyze, synthesize, evaluate, as well as mental flexibility and creativity) and realize themselves as a person. The upbringing of creatively thinking specialists is possible through the involvement of university students in research work, participation in the implementation of its results in production. It is determined not only by the nature of their future work, but also by the requirements for future specialists in the context of deep socio-economic transformations: a high level of ability to realize their intellectual abilities and creative potential; competence and competitiveness of the future specialist; ability for self-development. In the state educational standards actively implemented today in vocational education, the general requirements for the level of education provide that a graduate must be able to act systematically in a professional situation, to analyze and design his activities, to act independently in conditions of uncertainty, to have a steady desire for self-improvement (self-knowledge self-control, self-assessment, self-regulation and self-development), strive for creative self-realization. Today there is a need to develop a new system of professional training of future specialists, teaching students the basics of research activities [1].

The country's need for teachers who are able to take a personal and humane position in relation to students and to themselves puts forward the problem of improving the preparation of university students for professional and pedagogical activities, the problem of increasing professional, primarily psychological and pedagogical competence. This question has always been one of the most important in the domestic psychological and pedagogical science, but the current stage of the development of society fills it with new content. The problem acquires special significance in connection with the process of modernization of education.

The social-activity approach to the interpretation of the concept of "professional and pedagogical competence" allows us to define it as a willingness to perform professional and pedagogical functions in accordance with the norms and standards accepted in society. However, standards are

changing. Features of the modern social and educational situation impose new requirements on teaching staff.

Many authors (S.G.Vershlovsky, E.N.Gusinsky, Y.N.Turchaninova) rightly state the existence of a crisis of professional competence, which is experienced by many teachers who already work in educational institutions, but do not have sufficiently developed professional personal qualities.

In recent years, the contradiction between the objective personality-developing function of the teacher and his real capabilities, reflected in the level of professional and personal development, has become sharply aggravated.

The question of how it is possible to ensure the development of a student's professional competence in the process of preparing him for professional and pedagogical activity is relevant [6].

In this regard, pedagogical activity has now acquired an independent socio-cultural significance and the teacher, as the bearer of cultural and historical values, must have the ability to create new positive cultural realities, while maintaining the best traditions or adapting them to changing socio-cultural conditions.

But at the same time, the analysis of the development of his intellectual abilities (updating the content of education, new technologies, etc.) occupies a predominant place in the study of teacher preparation for future professional activity. The question of pedagogical values that a teacher should possess, which should become his achievement, is considered in most cases one-sidedly.

Conclusion/Recommendations. The process of formation of the spiritual and moral values of the domestic pedagogical culture among future teachers will be successful if: the corresponding target setting is clearly defined; the main guidelines for structuring the values of the national pedagogical culture are cultural and axiological approaches; the selection of the content of education is carried out from the standpoint of a contextual approach to the integration of the pedagogical values of the secular and Orthodox pedagogical culture of Uzbekistan; the principle of the personal-activity approach acts as a master in the organization of the educational process; the principle of "unity of the type of impressions" is realized in the educational process at the individual creative level in various types of educational and cognitive and educational and transformative activities of students; in the educational process, an atmosphere of significance of Uzbek folk culture in the spiritual and moral education of a person has been created[1].

1. The main categorical concepts of the process of formation of the spiritual and moral values of the national pedagogical culture among future doctors are: education,

determined from the standpoint of taking into account the Uzbek mentality and national historical traditions; upbringing as a process of formation and development of a value-oriented personality by means of historically selected samples of the culture of Uzbekistan; pedagogical culture, interpreted primarily from the standpoint of morality and spirituality, creation and "life saving", historically corresponding to the national educational tradition.

2. The leading guideline for selecting the content of pedagogical knowledge is the axiological orientation of the domestic pedagogical system, which performs the function of a kind of matrix, on which the entire volume of knowledge transferred to students from the field of domestic pedagogy will be superimposed in its contextual integrity of secular and religious views. The selection guidelines are also: the consistent inclusion of the values of the national pedagogical culture into the system of general pedagogical knowledge as the basic basis of education; bringing professional and pedagogical knowledge in their axiological content to the worldview level; implementation of the legislatively declared provisions for the renewal and modernization of education in the practical work of a pedagogical university; principles: axiological, continuity, priority of knowledge of national culture, unity of rational and sensual development of knowledge, realization of the creative potential of students[10].

3. The pedagogical conditions for the formation of students' spiritual and moral values of domestic pedagogical culture in the process of studying the course "History of Education and Pedagogical Thought" are: a systemic target setting for the formation of students' professional competence based on the spiritual and moral values of domestic pedagogical culture in a holistic educational process on the study of the history of education and pedagogical thought; providing a personal-activity approach as a key element in the organization of the educational process, which is realized on the basis of taking into account the individual value orientations of students in the field of spiritual and moral values of the national pedagogical culture; accentuation of the importance of Uzbek folk culture, where spiritual and moral education acts as the organizing principle of the personality; implementation of the "unity of the type of impressions" in various types of educational and cognitive and educational and transformative activities of students in the aspect of referring to the spiritual and moral values of the national pedagogical culture; integration of spiritual and moral values of secular and Orthodox pedagogical culture into all sections and topics for studying the development of education in Uzbekistan; introducing students to a transformative spiritual experience in the practice of the educational process.

REFERENCES

1. Abulkhanova-Slavskaya K.A. Activity and psychology of personality. - M.: Nauka, 1980. - 335 p.
2. Amonashvili Sh.A. Creating a person. - M.: Knowledge, 1982. - 95 p.
3. Ananiev B.F. Psychophysiology of student age and the assimilation of knowledge. // Bulletin of the Higher School. - 1972. - No. 7. - p. 17-26.
4. Andrienko E.V. Psychological and pedagogical foundations for the formation of teacher's professional maturity: Monograph.— M.; Novosibirsk: NGPU, 2002. - 266 p.
5. Arkhangelsky S.I. The educational process in: higher education, its regular foundations and methods. - M.: Higher School, 1980. - 368 p.
6. Babansky Y.K. Pedagogical process: Fav. ped. works. - M.: Pedagogy, 1989 - 560 p.
7. Belyaeva V.A., Aksenova G.I., Pevcheva T.N., Chernykh A.P. Pedagogical technologies 'in modern school': Textbook. - Ryazan: RGPU, 2000. - 64 p.
8. Boguslavsky M.V. Universal and national value orientations of domestic pedagogy // Pedagogy.- 1998.- No. 7.- P. 82-87.
9. Vidt I.E. Pedagogical culture: Formation, content and meanings // Pedagogy. - 2002. - No. 3. - P. 3-7.
10. Vulfson B.L. Methods of comparative pedagogical research // Pedagogy. - 2002. - No. 2. - P. 70-80.
11. Gessen S.I. Fundamentals of Pedagogy: An Introduction to Applied Philosophy / Ed. ed. and comp. Alekseev P.V. - M.: School-Press, 1995. - 448 p.



Muzaffar ASHURMATOV,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta ilmiy xodimi,
E-mail: muzaffarashurmatov6@gmail.com

Psixol. f.f.d. (PhD), dotsent N.A.Mirashirova taqrizi asosida

THE SIGNIFICANCE OF THE STABILITY OF THE PSYCHOLOGICAL STATE OF MILITARY PERSONNEL IN ENSURING DEFENSE AND SECURITY

Annotation

The integration of the Republic of Uzbekistan into the world community ensures rapid development in the socio-economic, political and various fields, but at the same time requires the adoption of mutually beneficial measures in the field of defense and security. This is expressed in the systemic reforms being carried out in the Armed Forces as part of ensuring the defense and security of the country. This article scientifically and practically analyzes the issues of ensuring the psychological stability of the military personnel of the Armed Forces, which is the basis of the country's defense capability.

Key words: Defense doctrine, defense and security, moral and psychological state, psychological stability, military professional qualities.

ЗНАЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБОРОНЫ И БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

Интеграция Республики Узбекистан в мировое сообщество обеспечивает стремительное развитие в социально-экономической, политической и различных сферах, но в то же время требует принятия взаимовыгодных мер в области обороны и безопасности. Это выражается в системных реформах, проводимых в Вооруженных Силах в рамках обеспечения обороны и безопасности страны. В данной статье научно и практически проанализированы вопросы обеспечения психологической устойчивости военнослужащих Вооруженных Сил, которая является основой обороноспособности страны.

Ключевые слова: Доктрина обороны, оборона и безопасность, морально-психологическое состояние, психологическая устойчивость, военно-профессиональные качества.

MUDOFAA VA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA HARBIY XIZMATCHILAR BARQAROR PSIXOLOGIK HOLATINING AHAMIYATI

Аннотация

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va turli sohalarda jadal rivojlanishni ta'minlash, bir vaqtning o'zida mudofaa va xavfsizlik sohasida o'zaro manfaatli choralar ko'rishni talab etmoqda. Bu esa mamlakat mudofaa va xavfsizligini ta'minlash doirasida Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan tizimli islohotlar bilan ifodalanadi. Mazkur maqolada mamlakat mudofaasining negizi bo'lgan Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilarining psixologik barqarorligini ta'minlash masalalari ilmiy-amaliy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Mudofaa doktrinasi, Mudofaa va xavfsizlik, axloqiy-ruhiy holat, psixologik barqarorlik, harbiylik-kasbiy sifatleri.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi Qurolli Kuchlar davlat harbiy tashkilotining va mamlakat mudofaa tizimining negizi bo'lib, harbiy mojarolarni jilovlash hamda ularning oldini olish, shuningdek davlatning harbiy xavfsizligini ta'minlash uchun mo'ljallangan deya belgilangan [1]. Bugungi kunda jahon va mintaqada yuzaga kelgan harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyat oqibatlarining tahlili asosida mamlakat mudofaa va xavfsizligini ta'minlashda muhim choralar ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi, "...davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish" chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi [2].

Ayni paytda jahondagi vaziyat shiddat bilan o'zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol keskinlashib, xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi ortib borayotgani xalqaro va mintaqaviy vaziyatni har tomonlama tahlil va bashorat qilishni, mamlakatimiz xavfsizligi barqarorligini ta'minlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini

o'shishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ko'rishni talab etmoqda [3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakat mudofaa va xavfsizligini ta'minlash eng avvalo Qurolli Kuchlarning birlamchi va dolzarb vazifasi bo'lib, mazkur vazifani mukammal ado etish harbiy xizmatchilar orqali amalga oshiriladi. Qurolli Kuchlar tizimida yuqori darajadagi axloqiy-ruhiy holatni ta'minlash uchun ijtimoiy-gumanitar sohada tadqiqot obyekt sifatida falsafa, tarix, pedagogika, psixologiya, sosiologiya, iqtisod, huquqshunoslik kabi fanlar xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holatini aniqlash va baholash ishlari ko'p qirrali, murakkab va uzluksiz jarayon ekanini ko'rsatadi. Inson omili bilan bog'liq barcha sohalardagi kabi tadqiqot mavzusi ham turli qarashlarga ega va muhokamalar sabab bo'ladigan dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishdagi ilmiy, harbiy va maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqot mavzusining ayrim jihatlar haqida turli davrda turlicha fikrlar bildirilgan. Jumladan, respublikamiz olimlaridan N.Eshnaye, A.Ikramov, R.Samarov, A.Ergashev, S.S.Abdurayimov, A.A.Satibaldiyev, L.Ravshanov, Z.Alimardonov, F.Shermatov,

A.Saidov va boshqalar harbiy xizmatchilarni jangga tayyorlash bo'yicha axborot-psixologik, axloqiy-ruhiy kabi omillarining ayrim masalalariga e'tibor qaratib, ilmiy izlanishlarini amalga oshirishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan S.Zavyalov, P.Shitov, E.Chinukvadze, S.Voronsov, V.Utkin, R.S.Bekirova, G.V.Lavrentev, E.V.Luzik, N. Kouplend, V.F. Misyur, I.N. Yeliseev va boshqalar o'z ishlarida harbiy kadrlarni tayyorlashning tashkiliy, huquqiy, g'oyaviy, institutsional asoslarini hamda harbiy bo'linmalarda psixologik ishlarni tashkil etish masalalarini o'rganishgan.

Xorij olimlaridan Clarke A.M., Frakes J.T., D.Duglas, M.I.Drepa, Timothy Bancroft-Hinche va boshqalarning tadqiqotlarida harbiy kontingent psixologik holatini o'rganish va baholash bilan birga jangovar harakatlarga psixologik tayyorlashning ayrim jihatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Shuningdek, buyuk harbiy nazariyotchi va sarkardalar Sun-Szi, A.Makedonskiy, Chingizxon, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburlar harbiy boshliq va jangchi shaxsiyatiga asosiy e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaganlar hamda jangchilarning ruhiy jihatdan tetikligi, jasurligi, botirligi, qahramonligi, dovyurakligi, or-nomusi, sodiqligi va boshqa shu kabi xislatlariga e'tibor qaratishni targ'ib etganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy qurolli to'qnashuvlar va urushlar tasnifi, nafaqat harbiy ishning rivojlanish mantiqi, harbiy-siyosiy hal etuvchanlik, davlatning harbiy qudratiga, balki ma'naviy omil, ya'ni kasbiy ong, aniqlik, harbiy-kasbiy ongni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu armiya tarkibidagi harbiy xizmatchilarning barqaror va mustahkam ruhiy holati, iroda kuchi, barcha hayotiy harbiy qiyinchiliklarni bosib o'tishga tayyorligi, o'z faoliyatining natijasiga ishonch bildirishi kabilarda namoyon bo'ladi.

Armiya jamiyat hayotining tinchligi va osoyishtaligi kafolati ekanligini inobatga olsak, mamlakat xavfsizligini ta'minlash borasida muhim o'rin egallaydi va armiyada professional harbiy xizmatchilarni xizmatni o'tashi, nafaqat harbiy, siyosiy, hattoki, ijtimoiy mazmun kasb etadi. Bu esa, har qanday og'ir va murakkab vaziyatda ona Vatanni, milliy mustaqillikni va mamlakat hududiy yaxlitligini ishonchli himoya qilish, yurtning har bir qarich yerini, o'z xalqi, otanasini va farzandlarini ko'z qorachig'idek asrash, kerak bo'lsa shu yo'lda o'z jonini fido qilishga tayyor bo'lgan harbiy xizmatchini kamol toptirishni taqozo etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, - "Armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin, lekin axloqiy jihatdan zaifligi, jangovar ruhi, Vatanga sodiqlik va muhabbat, uning taqdiri uchun mas'uliyat hissi yo'qligi yoki loqaydlik tuzatib bo'lmas oqibatlariga olib kelishi mumkin".

Shunday ekan, mamlakat mudofaa va xavfsizligini ta'minlashda harbiy xizmatchilar barqaror axloqiy-ruhiy holati muhim ahamiyatga ega bo'lib, unga ilmiy-amaliy jihatdan yondashuvna talab etadi. Shu o'rinda axloqiy-ruhiy holat tushunchasini chuqurroq tahlil qilsak. Axloqiy-ruhiy holat bo'yicha bir qator olimlar o'z fikrlarini bildirganlar.

Jumladan, V.A. Ganzen axloqiy-ruhiy holatni murakkab, yaxlit, yarim funksional va yarim tizimli hodisa sifatida tushunadi [4].

N.D. Levitov axloqiy-ruhiy holatni maxsus psixologik tushuncha sifatida quyidagicha ta'riflaydi: "... insonning holati va psixik xususiyatlaridan oldin aks ettirilgan ob'ektlar va hodisalarga bog'liq ravishda aqliy jarayonlarning o'ziga xos yo'nalishini ko'rsatadigan ma'lum vaqt davomida aqliy faoliyatning yaxlit xarakteristikasi"[5]. 1964-yilda N.D. Levitovning "Insonning psixik holati to'g'risida" kitobi nashr

etilganidan keyin, "axloqiy ruhiy holat" atamasi keng qo'llanila boshlandi.

A.G. Maklakov ta'kidlashicha, ruhiy jarayonlarsiz xech qanday psixologik holatlar bo'lishi mumkin emas. Ruhiy jarayonlar kabi, psixologik holatlar ham boshlanishi va oxiri bor. Ammo psixologik holat yanada to'liq va barqarordir [6].

Bundan tashqari, V.N. Myasishchev axloqiy-ruhiy holatlar shaxsning individual xususiyatlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi [7].

Yu.Ye. Sosnovikova tomonidan shaxsning axloqiy-ruhiy holati ma'lum bir intensivlikka ega va ma'lum bir vaqt ichida insonning atrof-muhitdagi muvozanat darajasini ifodalovchi ruhiyatning barcha tarkibiy qismlarining nisbatan barqaror, aniq nisbati sifatida belgilanadi [8].

Axloqiy-ruhiy holat – bu shaxsiy tarkibning atrof-muhit sharoitlari, komandirlar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlarining ta'siri ostida shakllangan, murakkab vaziyatlarda mardonavor harakatlar bilan jangovar vazifalarni minimal psixogen talafotlar bilan muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlaydigan axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va psixik qobiliyatining yig'indisidir.

Axloqiy-ruhiy holatning funksiyasi uning tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar orqali ifodalanib, umumlashgan va potensial qism – axloqiy tayyorgarlik hamda amalga oshirish qismi – ruhiy qobiliyatlardan iborat. Axloqiy tayyorlik – bu g'oyaviy e'tiqod va vatanparvarlik asosida shakllangan, harbiy xizmatchining o'z quroliga va komandirlar (boshliqlar)ning ekstremal sharoitda zimmasidagi vazifalarni bajarishga muvaffaqiyat bilan kirisha olish qobiliyatlarini xarakterlovchi harbiy mahoratiga ishonchidir. Psixik qobiliyat – bu harbiy xizmatchining vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish maqsadida yuzaga kelgan vaziyatning murakkab sharoitlarini uning ongi va ruhiyatiga ta'sirini mardonavor yengib o'ta olish, o'zining harbiy-kasbiy qobiliyatlarini to'la namoyon qila olishidir. Ruhiy qobiliyatlar psixologik barqarorlik va psixologik boshqaruvchanlik orqali amalga oshiriladi. Psixologik barqarorlik – bu harbiy xizmatchining xavf-xatarlarga qarshi tura olishi, zamonaviy jangning murakkab sharoitlarini uning ongi va ruhiyatiga, hissiy va jismoniy ta'siriga chidamliligi, shu bilan birga harbiy-kasbiy faoliyatning faolligi va samaradorligini saqlay olishidir. Psixologik boshqaruvchanlik – bu harbiy xizmatchining yuqori qo'mondonlik (qo'mondon, komandir, boshliqlar)ning buyruq (direktiva, farmoyish, ko'rsatma)larini mos ravishda anglab yetishi, o'zining axloqiy-ruhiy holati va xulqini ularning talablari va qarorlariga mos ravishda boshqara olishi, shu bilan birga oqilona tashabbuskorlik va mustaqillikni namoyon qila olishidir.

Ko'rinib turibdiki, axloqiy-ruhiy holatni ifodalash asosini shaxsning psixologik holati tashkil etadi. Bundan kelib chiqib harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holatini ularning psixologik holati sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.


Shunday qilib, yuqorida keltirilgan barcha fikrlarni umumlashtirgan holda "Harbiy xizmatchilarning psixologik (axloqiy-ruhiy) holati – vaziyatning turli jangovar va ekstremal sharoitlarida ularga yuklatilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlay olish darajasi bilan belgilanadi" deb aytishimiz mumkin [9].

Tahlil va natijalar. Harbiy xizmatchilarning barqaror axloqiy-ruhiy holatini ta'minlash yuzasidan olib borilgan izlanishlar harbiy xizmatchining axloqiy-ruhiy holatini o'rganish va baholash orqali ularning kasbiy sifatlarini ham aniqlashda qo'l kelishini ko'rsatadi.

Qo'shinlarning jangovar harakatlardagi ishtiroki natijalaridan kelib chiqib harbiy mutaxassislar tomonidan harbiylik kasbini ixtisoslik jihatdan tabaqalashtirib, uni tadqiq etilmaganligi qayd qilingan [10]. Bizning fikrimizcha, harbiylik kasbiy sifatlarini aniqlashda qo'shin turlarining

mo'ljallanishi va vazifalarini inobatga olib, ularning funksiyalaridan kelib chiqqan holda, nazariy-amaliy tadqiqotlarni yo'lga qo'yish lozim. Harbiy soha mutaxassislik yo'nalishlarining ko'pligi va ko'laminin kengligi, ulardan nafaqat umumharbiy bilimga egalik qilishni, balki "inson-inson", "inson-jamiat", "inson-texnika", "inson-ekologik muhit" tizimlarida ham faoliyat yurita olishni talab etadi.

Boshqacha qilib aytganda, "O'zimizniki – Dushman", "Ma'lum hudud – Noma'lum hudud", "Foydalanib kelayotgan qurol-aslaha – Begona qurol-aslaha" kabi ijtimoiy-harbiy va psixologik munosabatlar tizimi yuqoridagi fikrlarimizni tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, harbiylik kasbiy sifatlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin.



Ko'rsatilgan sifatlar kasbiy yondashuv asosida zarur bo'lganligi sababli, ularni shartli ravishda asosiy kasbiy sifatlar deb ko'rsatish mumkin. Harbiy sohada faoliyatning maqsadi, predmeti, vositalari hamda sharoitlarini inobatga olgan holda harakat yuritish taqozo etiladi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, har qanday holatda ham mamlakat

mudofaasi va xavfsizligini ta'minlash eng asosiy va muhim vazifa hisoblanib, uni ado etish ruhiy ta'sirlarga bardoshli va psixologik barqaror harbiy xizmatchilarga yuklatilgan. Zero, jangda muvaffaqiyat garovi bo'lib, zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika emas, shaxsiy tarkibning barqaror va mustahkam ruhiy holati, jangovar ruhi xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Mudofaa Doktrinasi [Elektron resurs]. – Toshkent: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2018 y., 03/18/458/0537-son. – URL: <http://lex.uz/docs/3495885.html>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni: "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" [Elektron resurs]. – URL: <http://lex.uz/docs/4697866.html>.
3. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. – 324 b.
4. Ганзен В.А. Системные описания в психологии / Ганзен В.А. – Л.: 1984. – С.156
5. Левитов Н.Д. О психических состояниях человека / Н.Д. Левитов – М.: Просвещение, 1964. С.112
6. Маклаков А.Г. Общая психология / Маклаков А.Г. – СПб.: Питер, 2002. – С.324.
7. Мясичев В.Н. Основные проблемы и современное состояние психологии отношений человека // Мясичев В.Н. Психологическая наука в СССР. - Т.2. – М.: 1960. - С.98-111
8. Сосновицкая Ю.Е. Психические состояния человека, их классификация и диагностика / Сосновицкая Ю.Е. – Горкий, 1975. - С.62.
9. Mualliflik fikri. Ashurmatov M. Jangovar navbatchilikni o'tash mobaynida harbiy xizmatchilarning psixologik holati: muammo va yechimlar. - T.: Akademiya 2020. - B.17
10. Война в Персидском заливе. - М.: Воениздат, 1993., Масутов Т. Афганские дневники. – Алматы.: РОНД, - 2004. – 424 с., Сергеев С. Силы специальных операций США в боевых действиях в зоне Персидского залива // Зарубежное военное обозрение, 2001. – № 10.



Tolibjon BABAYEV,
O'zbekiston davlat jahon tillari univ'ersiteti mustaqil tadqiqotchisi

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti kafedra boshlig'i, s.f.d. F.Xatamov taqrizi asosida

POLITICAL COMMUNICATION AND SOCIAL STABILITY

Annotation

This scientific article discusses political communication and its role in ensuring the social stability of society. The practice of improving communicative functions in public administration using various political technologies and legal mechanisms is revealed. At the same time, it was emphasized that the development of communication and dialogue with the people is of great importance in the large-scale reforms implemented in Uzbekistan in recent years.

Key words: Political communication, state, civil society, media, reforms, communication with the people, strategic development.

SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA VA JAMIYAT BARQARORLIGI

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada siyosiy kommunikatsiya va uning jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni tadqiq etilgan. Davlat boshqaruvidagi kommunikativ funksiyalarni takomillashtirish, turli siyosiy texnologiya va huquqiy mexanizmlarni qo'llash amaliyoti ochib beriladi. Shuning bilan birga, so'nggi yillar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda xalq bilan muloqot va kommunikatsiya omilining rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Siyosiy kommunikatsiya, davlat, fuqarolik jamiyati, OAV, islohotlar, xalq bilan muloqot, strategik rivojlanish.

ПОЛИТИЧЕСКАЯ КОММУНИКАЦИЯ И СОЦИАЛЬНАЯ СТАБИЛЬНОСТЬ

Аннотация

В данной научной статье рассматривается политическая коммуникация и ее роль в обеспечении социальной стабильности общества. Выявлена практика совершенствования коммуникативных функций в государственном управлении с использованием различных политтехнологий и правовых механизмов. При этом подчеркивалось, что большое значение в широкомасштабных реформах, реализуемых в Узбекистане в последние годы, имеет развитие коммуникации и диалога с народом.

Ключевые слова: Политическая коммуникация, государство, гражданское общество, СМИ, реформы, коммуникация с народом, стратегическое развитие.

Kirish. Siyosiy kommunikatsiya bu - ijtimoiy muloqotning alohida shakli bo'lib, u siyosiy aktorlar va uni o'rab turgan ijtimoiy muhit (jamiyat)ning hokimiyat, boshqaruv-ma'muriy munosabatlar haqidagi axborot almashinuvi hamda ta'sirini anglatadi. Siyosiy kommunikatsiya o'zida siyosiy axborotni uzatishning barcha jarayonlarini birlashtiradi. Shartli ravishda, siyosiy kommunikatsiyani davlatning harakatlari to'g'risida ma'lumot almashish, fuqarolar, ommaviy axborot vositalari va siyosiy aktorlar o'rtasidagi munosabatlarning ucburchagi sifatida belgilash mumkin[1].

Siyosiy kommunikatsiya hokimiyat uchun kurash jarayonida ma'lumotlar almashinadigan subyektlarning muayyan ta'sirining o'ziga xos jihati. U axborotni maqsadli ravishda uzatish va tanlab olish bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularsiz siyosiy jarayonning harakatlanishi va samaradorligi mavjud bo'lmaydi. Siyosiy kommunikatsiyaning o'zining tuzilmasi yuqoridagi tashabbuskorlar (faollashtiruvchilar) va quyida kuzatuvchilar o'rtasidagi farqlarni o'z ichiga oladi va tizim ishlab chiqarishi mumkin bo'lgan ishtirokchi energiyaga cheklovlar qo'yadi. Shuningdek, u siyosiy munosabatlarning alohida turi sifatida ham harakat qiladi, uning yordamida siyosatda hukmronlik qiluvchi subyektlar ishlab chiqarishni tartibga soladi, shuningdek, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy g'oyalari, qarashlari va e'tiqodlarini tarqatadi.

Siyosiy kommunikatsiyaning mazmunini tomonini aniqlash va davlat hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning maqbul strategiyasini belgilash uchun biz bir qator savollarni shakllantirib, ularga javob berishga harakat qilamiz. Siyosiy jarayon, tizim va uning elementlari haqida muayyan tasavvurlarni shakllantirish uchun axborot qanday bo'lishi va

uni kimlar tarqatishi kerak? Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi kommunikativ hamkorlikning qanday samarali mexanizmi ishlab chiqilishi lozim? Siyosiy faoliyat va siyosiy ishtirokning muhim normalarini o'rnatish uchun nima zarur? Ayniqsa muhim siyosiy masalalar va vazifalar yuzasidan jamoatchilik fikrini shakllantirishga qanday jarayonlar yordam beradi? Siyosiy kommunikatsiya tizim sifatida siyosiy-huquqiy, ijtimoiy kabi boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqada bo'lishi kerakmi?

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotga asosiy qarash institutsional yondashuvdan kelib chiqib, bu siyosiy kommunikatsiyani davlat institutlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining elita va elita bo'lmagan qatlamlarning o'zaro munosabatlariga xizmat qiluvchi barqaror aloqa rollari va funksiyalari majmui sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Siyosiy kommunikatsiya mexanizmlarini tushunish davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi barqaror muloqotga hissa qo'shishi mumkin. Institutsional yondashuv tadqiqotni ikki jihatdan olib borish imkonini beradi. Birinchidan, yangi siyosiy institutlarning paydo bo'lishi va shakllanishining tarixiy jarayonini tahlil qilish, bu ularning paydo bo'lish sabablari va shartlarini ochishga yordam beradi. Ikkinchidan, institutsional paradigma shaxslar va tashkilotlarning uning tartibga solish talablariga moslashuvi jarayonida siyosiy tizim ichidagi institutlarning faoliyatiga e'tiborni qaratishga imkon beradi, bunda siyosiy birlashmalarning barqarorligi va samaradorligini ta'minlaydigan siyosiy mexanizmlar shakllanadi.

Endilikda, biz tadqiqotimizda ta'sir ko'rsatadigan siyosiy kommunikatsiyaning uchta asosiy tarkibiy qismlarini –

davlat, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatini batafsil tahlil qilib o'tamiz.

Davlat siyosiy kommunikatsiyaning yetakchi instituti sifatida hokimiyat tuzilmalari va jamiyat o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir darajalari va turlarining xilma-xilligini aks ettiradi. Siyosiy tizimning boshqa institutlari - ommaviy axborot vositalari, partiyalar va jamoat tashkilotlarining faoliyati va ularning siyosiy o'zaro ta'siri aynan unga bog'liqdir. Kommunikativ jihat davlatning faoliyati bilan ifodalanadi, chunki davlat hokimiyati siyosiy kommunikatsiya institutlarining ishini qonunon belgilab beradi.

Davlat haqida gapirganda, tadqiqotda asosan markaziy, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv darajalarini tavsiflovchi ommaviy (public) hokimiyati tushunchasidan foydalanish to'g'ri. Shu bilan birga, bevosita siyosiy faoliyat bilan shug'ullanadigan institutlarni: parlament, hukumat, mahalliy hokimiyat organlarini ham ommaviy hokimiyat tizimiga kiritishimiz mumkin. Ular, o'z navbatida, turli siyosiy qarorlar qabul qilishda bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'ladilar. Fuqarolik jamiyati vakillari tizimdan chiqib ketmaydi, aksincha, kommunikativ almashinuvining qo'shimcha bo'g'ini hisoblanadi[2]. Davlat hokimiyatining to'la huquqli instituti sifatida faoliyat yurituvchi, demokratik sharoitlarga mos keladigan mahalliy o'zini o'zi boshqarishning samarali tizimini yaratish davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining samarali hamkorligi variantlaridan biri hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) zamonaviy jamiyatdagi siyosiy kommunikatsiyaning asosiy va ko'p funksiyali institutidir. OAVning tabiati va yo'nalishi siyosiy va elektoral jarayonlarining ijtimoiy rivojlanishida muhim siyosiy-mafkuraviy omillarga aylandi. Ommaviy axborot vositalari insonlarning cheklanmagan doirasiga, ijtimoiy guruhlariga, davlatga dunyoda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar, muayyan mamlakat, ma'lum bir mintaq, shuningdek, sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida tezkor ma'lumot berish va tarqatish kanallari majmui sifatida maxsus ijtimoiy funksiyalarni bajaradi[3].

OAV orqali tarqatiladigan ma'lumotlarning o'ziga xos xususiyati - tezkorlik, uni taqdim etishning muntazamligi va deyarli bir vaqtning o'zida iste'mol qilishning kombinatsiyasi hisoblanadi. Axborotni tarqatish insoniyat tarixiy rivojlanishining ma'lum bir bosqichida to'g'ridan-to'g'ri shaxslararo muloqotdan tashqari paydo bo'lgan odamlarning ommaviy ma'naviy va siyosiy aloqalarining ajralmas tarkibiy qismi. OAV jamiyat siyosiy tizimining elementidir. Uni "to'rtinchi hokimiyat" deb atashgani bejiz emas, chunki ular jamoat manfaatlarini ifoda etishga chaqirilgan. Ommaviy axborot vositalari ta'lim va tarbiya vositasi sifatida ham ishlaydi. Ularning erkin tashkil topishi va faoliyati so'z erkinligining haqiqiy ko'rinishi bo'lib, ularsiz shaxsning boshqa barcha siyosiy huquqlarini amalga oshirib bo'lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Fuqarolik jamiyati kabi siyosiy kommunikatsiyaning navbatdagi instituti alohida ahamiyat va qiziqish kasb etadi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasi bilan siyosiy kommunikatsiya samaradorligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Fuqarolik jamiyati rivojlanishi va barqaror faoliyat yuritishi uchun har bir fuqaro "hokimiyat-jamiyat" tizimi hayotining o'zini qiziqtirgan barcha masalalari bo'yicha tezkor va ishonchli ma'lumotlarni olishi va bu ma'lumotlarni erkin almashishi zarur.

Fuqarolik jamiyatining zamonaviy talqinlari shundan kelib chiqadiki, har qanday siyosiy uyushgan jamiyat ikki qismdan iborat: ommaviy hokimiyatining turli darajalariga ega bo'lgan davlat va u bilan bog'liq bo'lmagan shaxslar, guruhlar, birlashmalar to'plami - fuqarolik jamiyati. Shu bilan birga, gap nisbatan avtonom o'zini o'zi tashkil etuvchi jamiyat

haqida bormoqdaki, unda mustaqil fuqarolar guruhlari va birlashmalar umumiy manfaatlar va ularni davlat hokimiyati oldida himoya qilishga tayyorlik asosida birlashadi[4].

Shunday qilib, bugungi kunda biz fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining bir nechta muqobil modellari mavjudligi va ularni muayyan mamlakatda amalga oshirishning turli darajalari haqida gapirishimiz mumkin. Bu bir qator masalalarni o'rganishni taqozo etadi: fuqarolik jamiyati G'arb siyosiy makonlaridan tashqarida qanday shakllarda mavjud, uning asosiy institutlari va davlat bilan o'zaro aloqa shakllari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlari qanday.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy sharoitda fuqarolik jamiyati tobora ko'proq siyosiy konturlarga ega bo'lib bormoqda va uni ijtimoiy-siyosiy hayotning nodavlat qismi va shaxsning siyosiy faoliyati, ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlarni ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar, rasmiy va norasmiy tuzilmalar majmui sifatida ta'riflash mumkin.

Shu bilan birga, davlat va fuqarolik jamiyati bir-biriga nisbatan birinchi navbatda kuch yoki zaiflik manbalari sifatida harakat qiladi, deya ta'riflanadigan nazariy qarashlar ham mavjud. Kuchli davlat - bu qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish jarayonida kuchli irodali konsentratsiya va mutloq monopoliyaga ega bo'lgan davlat institutidir. Fuqarolik jamiyatining mustahkamligi bevosita uni tashkil etuvchi asosiy ijtimoiy institutlar, birlashmalar va tashkilotlarning rivojlanish darajasi va real kuchiga, shuningdek, ularning davlatga bosim o'tkazish qobiliyatiga bog'liq. Boshqa tomondan, davlat va fuqarolik jamiyati o'zaro ta'siri jarayonida bir-biriga nisbatan kuchlarni muvozanatlash, tizimni keskinlashuvdan himoya qilish, unga harakatchanlik va hayotiylikni berish rolini ham o'tab berishadi.

Keling, tarixiy ekskurs qilib, faylasuf olimlarning fuqarolik jamiyati va davlat haqidagi qarashlari, g'oyalari ko'rib chiqaylik. Ilmiy adabiyotlarda (ham mahalliy, ham xorijiy) fuqarolik jamiyati fenomeni, uning davlat bilan o'zaro aloqadorligi haqida juda ko'p turli xil fikrlar mavjud.

Demak, Gegel o'z asarlarida fuqarolik jamiyati insoniyat hayotining tarixan shakllangan sohasi bo'lib, u davlat tarkibiga kiradi, deb ta'kidlagan. U fuqarolik jamiyatini shaxsning ijtimoiy tashkilot tizimiga, ya'ni davlat tizimiga integratsiyalashuviga imkon beruvchi institut sifatida qaragan. Faylasuf fuqarolik jamiyati va davlatni ajratmagan, lekin ularni aralashmagan ham. U shuningdek, "oliy hokimiyat ham, fuqarolik jamiyati ham aholining umumiy manfaatlarini ta'minlaydi, davlat shaxsga bera olmagan narsani fuqarolik jamiyatida oladi"[5], deb hisoblagan.

Gegelning fikricha, "fuqarolik jamiyatini davlatdan ajratib turuvchi chiziq juda shartli bo'lib, u hatto davlatdan tashqari fuqarolik jamiyati ham uning uzviy qismi bo'lib qoladi"[6], deya e'tirof etadi. Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos talqinini berar ekan, Gegel alohida ta'kidlaydiki, ular "avtomatik ravishda shaxslar birlikmalariga bo'linmaydilar va bir lahzaga faqat bitta vaqtinchalik harakat uchun yig'iladilar, ular qo'shimcha aloqalarsiz, teng huquqli sherikliklarga, jamiyatlarga va korporatsiyalarga bo'linadi va shu tariqa ular foyda oladigan kuchdir".

Fuqarolik jamiyati quriladigan asosiy tamoyillar sifatida Gegel xususiy mulk va shaxsiy erkinlik tamoyillari bilan bir qatorda "ommaviylik" va "umumiy xabardorlik" tamoyillarini ham alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, erkin shakllangan jamoatchilik fikri, adolatli va qat'iy rioya qilinadigan qonunlar mazkur jamiyatning asosi bo'lib xizmat qiladi.

SH.L.Monteskye fuqarolik jamiyati insoniyat tarixining qahramonlik davridagi tabiat holati, oila va davlatdan keyingi eng yuqori to'rtinchi bosqichidir, deb hisoblaydi[7]. Nemis ma'rifatparvari, liberal siyosiy fikr namoyandasi F.V.

fon Gumboldt ham shunday xulosaga kelgan: "Davlat tuzumi o'z-o'zidan maqsad emas, u faqat insoniyat taraqqiyoti vositasidir"[8].

Bu mutafakkirlar guruhi orasida eng radikal pozitsiyani mashhur "Inson huquqlari" pamfletining muallifi T.Peyn egallagan. U davlatni zaruriy yovuzlik deb hisoblaydi: u qanchalik kichik bo'lsa, jamiyat uchun shunchalik yaxshi. Shuning uchun davlat hokimiyati fuqarolik jamiyati foydasiga cheklanishi kerak. Fuqarolik jamiyati qanchalik mukammal bo'lsa, u o'z ishlarini shunchalik ko'p tartibga soladi va hukumatga shunchalik kamroq ehtiyoj sezadi. T.Peynning fikricha, «o'ziga ishongan va o'zini-o'zi boshqaradigan jamiyat faqat minimal siyosiy mexanizmlarni talab qiladi»[9].

K.Marks davlat tashqi tomondan butun fuqarolik jamiyatini qamrab olgan holda, amalda hukmron mulkdorlar sinfi manfaatlariga xizmat qiladi, deb hisoblagan. Aynan fuqarolik jamiyatidan, uning tuzilmalaridan, Marks nuqtai nazarida, burjua jamiyati vujudga keldi. Feodalizmdan kapitalizmga o'tish natijasida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlarning yangi ijtimoiy tabiati fuqarolik munosabatlari o'zgacha asos yaratib, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. "Jamiyat nima, u qanday shaklda bo'lishidan qat'iy nazar? - deb yozadi K.Marks - odamlarning o'zaro ta'siri mahsulidir. Odamlar u yoki bu ijtimoiy shaklni tanlashda erkinmi? Yo'q albatta. Odamlarning ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanishida ma'lum bir bosqichni egallang va siz ma'lum bir almashish va iste'mol shakliga ega bo'lasiz. Ishlab chiqarish, ayirboshlash va iste'mol taraqqiyotida ma'lum bir bosqichni bosib o'ting, shunda sizda ma'lum ijtimoiy tizim, oila, mulk yoki sinflarning ma'lum bir tashkiloti, bir so'z bilan aytganda, ma'lum bir fuqarolik jamiyati paydo bo'ladi. Muayyan fuqarolik jamiyatini oling va siz faqat fuqarolik jamiyatining rasmiy ifodasi bo'lgan ma'lum bir siyosiy tizimga ega bo'lasiz"[10].

Umuman olganda shuni ta'kidlash mumkinki, fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayoni zamonaviy jamiyat evolyutsiyasining tabiiy bosqichi bo'lib, nafaqat jamiyat, balki

davlat ichki tuzilishining murakkablashuvi sifatida tavsiflanishi mumkin. Ushbu jarayonning asosiy qiyichiligi davlat tuzilmalari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish uchun maqbul yondashuvni topish bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Siyosiy kommunikatsiyani axborot harakatlari va siyosiy aktorlar o'rtasidagi almashuvlar yig'indisi sifatida belgilashga asoslanib, biz siyosiy sohadagi kommunikativ ta'siri tushinishda konseptual birlikning yo'qligi haqida quyidagi xulosaga kelamiz. Bizning fikrimizcha, siyosiy kommunikatsiya – siyosiy subyektlarning axborot o'zaro ta'siri bo'lib, uning davomida mutanosiblikka erishish uchun hokimiyat va jamiyat o'rtasida paritet, konstruktiv muloqotni amalga oshirish maqsadida siyosiy g'oyalar, qarashlar, munosabat va xatti-harakatlar almashinuvi amalga oshiriladigan ijtimoiy-siyosiy tizim tushunilishi lozim.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarning sifati va natijadorligini tubdan oshirish hamda insonning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini, shu jumladan odamlar hayotining munosib darajasini ta'minlash, ular amalga oshirilishi uchun davlat organlarining roli va mas'uliyatini kuchaytirish, aholi bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish va ularning murojaatlari bilan ishlashning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish, fuqarolarni bezovta qilayotgan hayotiy muammolarni o'z vaqtida hal etish, «Inson manfaatlari har narsadan ulug'» degan ezgu g'oyani hayotga izchil joriy etish maqsadida xalq bilan muloqotning mutlaqo yangi tizimi yaratildi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5633-sonli «Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilinib, tizimli ishlar olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mazmun-mohiyati esa "xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi shart" degan konseptual asosga tayanadi.

ADABIYOTLAR

1. Hasebrink Uwe. Hans-Bredow-Institut für Medienforschung an der Universität Hamburg: Medien von A – Z / Uwe Hasebrink, Hans-Bredow-Institut (Hrsg.). – Wiesbaden : Verl VS. für Sozialwiss., 2006. –S. 283.
2. Jarren Otfried. Politische Kommunikation in der Mediengesellschaft: Eine Einführung / von Otfried Jarren, Patrick Donges. – Wiesbaden, 2011. –S. 130.
3. Политическая энциклопедия: в 2 т. Т. 2 / Национальный общественно-научный фонд; рук. проекта
4. Семигин Г.Ю. – М.: Мысль, 1999. -С. 466.
5. Adloff, Frank Zivilgesellschaft. Theorie und politische Praxis / Frank Zivilgesellschaft Adloff. – Frankfurt am Main : Campus, 2005. –S. 154-155.
6. Орлова И.В. Социально-философский анализ гражданского общества как формы бытия современной демократии: автореф. дис. ... д-ра филос. наук: 09.00.11 / И. В. Орлова. – М., 2007. –С. 16.
7. Гегель Г.В. Ф. Философия права / Г. В. Ф. Гегель. – М.: Изд-во МГУ, 1990. -С. 55.
8. Монтескье, Ш.Л. О духе законов / Ш. Л. Монтескье. – М. : Мысль, 1999. – 463 с.
9. Гумбольдт В.О пределах государственной деятельности. Серия «Философия свободы». Вып. 1 / Гумбольдт В., пер. с нем. – Челябинск : Социум ; М. : Три квадрата, 2003. –С. 46.
10. Пейн Т. Избранные сочинения / Пейн Т.. – М. : Изд-во полит. лит., 1959. – 422 с.
11. Маркс К. Письмо П.В. Анненкову. 28 декабря 1846 г. / К. Маркс // К.Маркс. Сочинения/К.Маркс, Ф.Энгельс. – 2-е изд. – Т. 27. – М.: Наука, 1976. – С. 402.



Aksungul BALTAMURATOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
E-mail: baltamuratova@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Raximov taqrizi asosida

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISI IJODIY FAOLIYATINING MAZMUNI VA TUZILISHI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchisining ijodiy faoliyatning mazmuni va tuzilishi haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, bo'lajak pedagog, kasbiy tayyorlash, pedagogik ijodkorlik, pedagogik vazifalar, ijodiy tafakkuri, ijodiy faollik, mustaqillik, ijodiy qobiliyat, tinglash, amaliy harakat, hisobot, insho va esse, maqola, tezis, nutq, ma'ruza.

СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРА ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В статье содержится информация о содержании и структуре творческой деятельности будущего учителя начальных классов.

Ключевые слова: Высшее образование, будущий педагог, профессиональная подготовка, педагогическое творчество, педагогические задачи, творческое мышление, творческая деятельность, самостоятельность, творческая способность, мышление, слушание, практическое действие, доклад, сочинение и сочинение, статья, тезис, выступление, лекция.

CONTENT AND STRUCTURE OF THE CREATIVE ACTIVITY OF THE FUTURE PRIMARY EDUCATIONAL TEACHER

Annotation

The article contains information about the content and structure of the creative activity of the future primary school teacher.

Key words: Higher education, future teacher, professional training, pedagogical creativity, pedagogical tasks, creative thinking, creative activity, independence, creative ability, thinking, listening, practical action, report, composition and composition, article, thesis, speech, lecture.

Kirish. Har qanday pedagogik innovatsiya fikrlash va amaliy harakatning stereotipiga aylanishga intiladi. Shu sababdan, uning muntazam amalga oshib borishi muqarrardir. Ya'ni ta'lim tizimidagi boshqa innovatsiyalarni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi pedagogik stereotipga aylanadi.

Shu o'rinda yana bir muhim jihatni ta'kidlashimiz joizki, bu – siklik takrorlanish, pedagogik yangiliklarning qaytishi, ularning yangi sharoitlarda qayta paydo bo'lishi qonuniyatidir. Pedagogika va ta'lim tizimi uchun bu xarakterli xususiyatdir. Shu sababli, pedagogik nazariya va amaliyotda innovatsiyalar alohida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi, chunki pedagogik jamoa ko'pincha ularga allaqachon bo'lgan narsaga murojaat qiladi, bu eskining emas, balki yangining takrorlanishi yoki eskining yangi tiklanishi ekanligini sezmaydi. Bu qonuniyatlar pedagogik innovatsiyaning hali o'rganilmagan umumiy va xususiy qonuniyatlari bilan chegaralanib qolmaydi. Ammo bu qonuniyatlar rivojlanish dinamikasini va umuman ta'lim tizimidagi jarayonning ziddiyatlarini tushunish uchun zarurdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'lim muassasalari tomonidan hal qilinadigan vazifalar murakkablashib borishi bilan o'qituvchining ijodiy pedagogik faoliyatining roli oshadi.

Boshlang'ich sinif o'qituvchisi pedagogik faoliyatining yetakchi kognitiv tuzilmalari:

predmet va hodisalarni tan olish;

ularni tushuntirish va qo'llashdan iborat.

Ijodiy-pedagogik faoliyat natijasida bilimlarni o'zlashtirishning uchta asosiy usuli amalga oshiriladi:

a) qayta takrorlash orqali formula, xulosa, qoida va matnlarni mazmunli yoki so'zma-so'z yodlash usuli;

b) o'quv materialini amaliyotda takroran qo'llash orqali yodlash;

c) o'quv materialini umumlashtirilgan va mavhum shakllarda qayta ishlash va qayta kodlash orqali yodlash va eslash.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang'ich sinif o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'zlashtirilgan bilimlarni so'z bilan ifodalash bosqichi muhim ahamiyatga ega. Bu o'qituvchining o'z fikrlarini ifodalashi, ilgari o'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilishi uchun muhimdir.

Talabalar faoliyatining navbatdagi turi tadqiqotchilik malakalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot faoliyatidir. Masalan, "Mutaxassislikka kirish" fanida talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilishda sevimli o'qituvchisining xarakter xususiyatlarini tavsiflashdan boshlash mumkin. Qolaversa, bitiruv malakaviy ishlarigacha bo'lgan butun tizimni qamrab olish mumkin bo'ladi. Ya'ni o'quv jarayonida hisobotlar tayyorlash, insho va esselar yozish yoki maqola va tezislarni yozish, nutq va ma'ruzalarga tayyorgarlik bosqichlarini o'zlashtirish va h.k.

Tahlil va natijalar. Talabalarni ijodiy faoliyatga nazariy tayyorlash bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchisining tayyorgarligini ta'minlashning zarur sharti bo'lib, ikkita: nazariy-uslubiy va motivatsion komponentni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Nazariy materialni taqdim etishning asosiy shakli ma'ruza bo'lib, u muhim uslubiy, kognitiv, amaliy va kasbiy ahamiyatga ega.

Ma'ruza o'quv jarayonining etakchi shaklidir. Uning alohida ahamiyati shundaki, u o'quvchini ilm-fan bilan tanishtiradi, ilgari olingan bilimlarni kengaytiradi, chuqurlashtiradi va takomillashtiradi. Shu bilan birga, uning bilimga

bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, diqqatini safarbar qiladi, tinglash, idrok etish, tushunish va ma'lumotlarni yozib olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalarining o'qituvchi ma'ruzalariga mustaqil izlanib tayyorgarlik ko'rishni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, bu faoliyatga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi, ya'ni uni tizimli ravishda amalga oshirish zarurligini anglashi;

ikkinchidan, ma'ruza arafasida maqsadli kognitiv va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishi. Ya'ni bunda:

a) ilgari o'rganilgan materialni xotirada tiklash uchun oldingi ma'ruza yozuvlarini ko'rib chiqishi;

b) ilgari o'rganilgan va endi o'rganilayotgan material o'rtasida semantik va mantiqiy bog'lanishni o'rnatish uchun dastur va darslik (o'quv qo'llanma) bo'yicha kelgusi (navbatdagi) ma'ruza materialini bilan tanishishi. Shu o'rinda darslik bir necha yilda bir marta nashr etilishi va dasturga kiritilgan savollar unda aks ettirilmasligi mumkinligini inobatga olgan holda bunday nomutanosiblikka ishonch hosil qilgan talaba ma'ruza davomida asosiy e'tiborni shu masalalarga qaratadi;

c) ma'ruza davomida bajarilishi kerak bo'lgan asosiy faoliyat turlarini aniqlashi va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan materiallarni oldindan tayyorlashi;

d) mustaqil ijodiy faoliyati uchun topshiriq bilan tanishishi, bilimlarni chuqurlashtirishi va kengaytirishi, topshiriqlarni bajarish uchun zarur bo'lgan adabiyotlarni tanlashi.

Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini ma'ruzalarga tayyorlashning boshqa shakllari ham mavjud bo'lib, bunda talabaga ma'ruzadan bir hafta oldin o'qituvchidan ma'ruza maqsadi va rejasi ko'rsatilgan maxsus shakli, shuningdek asosiy adabiyotlarni (darslik yoki o'quv qo'llanmaning bo'limlari)ni olishi tavsiya etiladi. Unga tayyorgarlik ko'rish uchun harakat qilishi lozim.

Ma'ruza ustida ishlash og'ir intellektual va jismoniy mehnatni talab qiladi. Chunki talaba tomonidan tayyorlanadigan ma'lumotlar uni tushunib, qayd etib borishga undashligi bilan birga dunyoqarashini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ma'ruza jarayonida talaba va o'qituvchining fikrlash darajasi o'rtasidagi tafovut katta bo'lganligi sababli, har doim uzatilayotgan ma'lumotlarni talaba to'g'ri va to'liq tushunib borishi va o'zlashtirishiga e'tibor qaratish va sharoit yaratish zarur bo'ladi. Shu sababdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida "tinglash qobiliyatini" rivojlantirish va hisobot materialini tayyorlash malakalarini shakllantirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Балтамуратова А.П., Абдікалиева В.Т. Бастауыш мектептегі оқушылардың шығармашылық қабілетін дамыту // Science and innovation international scientific journal. Volume 1. ISSUE 7. UIF-2022: 8.2. ISSN: 2181-3337.–Pp.1049-1055. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7295379>.
2. Baltamuratova A.P., Raxmatova R.D. Pedagogika ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining ta'lim sifatini oshirishda kredit-modul tizimining ahamiyati// International Conference: Problems And Scientific Solutions: Vol. 1 No. 5. Australia, Melbourne. 2022. – Pp.38-46. <https://academicsresearch.com/index.php/icpass/article/view/909>.
3. Максименко Н.В. Творческая деятельность будущего учителя начальных классов в процессе изучения психолого-педагогических дисциплин. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. – М.:1998. – 160 с.
4. Родионова С.А. Формирование готовности к профессиональному творчеству у будущих учителей начальных классов. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. - Ивановская область, г. Шуя, 2010. – 24 с.
5. Салаева М.С. Инновацион таълим шароитида педагогнинг шахсий-касбий ривожланишининг психологик омиллари // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 12 (том 3) (март, 2021)- Б.567-570.
6. Салаева М.С. Педагогнинг самарали инновацион фаолиятини таъминлашда шахсий-касбий ривожланишини психологик қўллаб-қувватлаш / “Инновацион таълим: халқаро таъриба, муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. Тошкент шаҳридаги ЁДЖУ техника университети, 2021-йил 21-апрель. Электрон тўплам. 3-қисм. 2021-йил 21-апрель. - Б.405-407.
7. Салаева М.С. Педагог профессионализмининг шаклланиши интегратив психологик ҳодиса сифатида / “Педагогические и психолингвистические особенности развития, формирования и становления личности врача” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. Самарқанд давлат тиббиёт институти, 2021-йил 5 -май. Электронный сборник. СамГМИ. 5 мая 2021 года. – С.178-180.
8. Салаева М.С. Профессионал даражага эришиш мақсадида педагогнинг виртуал мобиллигини ривожлантириш / “Хорижий тилларни ўқитишнинг долзарб масалалари: муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги Халқаро онлайн илмий-амалий конференция. Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат Ўзбек тили ва адабиёти университети, 2021-йил 5-май. Электрон тўплам.. 2021-йил 5 -май. – Б.230-234.
9. Салаева М.С. Таълимни ахборотлаштириш шароитида бўлажак педагогларнинг виртуал академик мобиллигини шакллантириш // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Выпуск №15 (том 3) (июнь, 2021). - С.480-484.
10. Салаева М.С., Джумабаева М.. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // Uzacademia Ilmiy-uslubiy jurnali. ISSN (E) – 2181 – 1334. Barcha sohalarda bo'yicha electron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021. Part - 1. - С.54-60. www.academscience.uz
11. Salaeva M.S. Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishga innovation yondashishning psixologik-pedagogik imkoniyatlari // Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 83–91. ISSN 2181-3558. Volume 1, Issue 3. August 2022. DOI raqami: 10.5281/zenodo.6675309. Retrieved from <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/article/view/141>.
12. Salaeva M.S., Koshnazarova M.A., Abdukodirov G. & Radjabova D.A. (2022). Professionalism of the Teacher as a Pedagogical Credo in the Age of Innovation // Specialusis ugdymas / special education, 1(43). Pp.10571-10576. <https://www.sumc.lt/index.php/se/article/view/1637>.



Hafiza BEKMURODOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
Email: xafiz1068@gmail.com
Dotsent, psix.f.d. B. Jo‘rayev taqrizi asosida

O‘SMIRLARDA SHAXSIY QARORI ASOSIDA TANLANGAN KASBLARIDA BARQARORLIK VA CHIDAMLILIGINI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada o‘smirlarning kasb tanlashiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar, qiziqishi yuqori bo‘lgan asosiy kasblar doirasi hamda tanlangan kasbda barqarorligi va chidamliligi darajasi diagnostika natijalari keltirilgan. O‘smirlarning kasb tanlashida shaxsiy qaror omilini oshirish, qiziqishi yuqori bo‘lgan asosiy kasblar doirasini kengaytirish, tanlangan kasbda barqarorligi va chidamliligini shakllantirish bo‘yicha psixologik tajriba olib borilgan.

Kalit so‘zlar: Kasbiy qiziqish, yo‘nalganlik, o‘smir, barqarorlik, chidamlilik, kasbiy faoliyat, kasbiy taraqqiyot, motivatsiya, aktuallashtirish, hayot shakli.

ФОРМИРОВАНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ И ВЫНОСЛИВОСТИ В ВЫБРАННЫХ ПРОФЕССИЯХ НА ОСНОВЕ ЛИЧНОГО РЕШЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В данной статье представлены основные факторы, влияющие на выбор профессии подростками, спектр основных профессий с высоким уровнем интереса, а также результаты диагностики уровня устойчивости и выносливости в выбранной профессии. Психологический опыт был проведен с целью повышения личного фактора принятия решений при выборе профессии подростками, расширения круга ключевых профессий с высоким уровнем интереса, формирования устойчивости и выносливости в выбранной профессии.

Ключевые слова: Профессиональный интерес, ориентация, подросток, стабильность, выносливость, профессиональная деятельность, профессиональное развитие, мотивация, актуализация, жизненная форма.

FORMATION OF STABILITY AND ENDURANCE IN SELECTED PROFESSIONS BASED ON A PERSONAL DECISION IN ADOLESCENTS

Annotation

This article presents the main factors influencing the choice of profession by adolescents, the range of main professions with a high level of interest, as well as the results of diagnostics of the level of stability and endurance in the chosen profession. Psychological experience was conducted in order to increase the personal factor of decision-making when choosing a profession by teenagers, to expand the range of key professions with a high level of interest, to form stability and endurance in the chosen profession.

Key words: Professional interest, orientation, teenager, stability, endurance, professional activity, professional development, motivation, actualization, life form.

Kirish. O‘smirlarda kasbiy qiziqishlar va yo‘nalganlik shaxs hayot shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Kasb tanlashda o‘smir shaxsining shaxsiy tanlovi o‘z qobiliyatiga mos kelgan kasbni tanlash imkonini beradi. Shu sababli o‘smirlarning qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblar doirasini kengaytirish, tanlangan kasbda barqarorligi va chidamliligini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Shaxs o‘z hayot shaklini va kasbiy faoliyatini tanlashi, tanlangan faoliyat turida o‘zini namoyon etishi, taraqqiyotga erishishi, actual-lashishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, A. Maslou [1], K. Rojers [2], E. Bern [3], V. Frankl [4], A. Adler [5], E. Fromm [6] va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. E.I. Zabneva yoshlarning kasbiy tanlovi shakllanishiga oliy ta‘limgacha bo‘lgan bosqichda konseptual ta‘sir etish ijobiy samara berishini aytgan [7]. YE.V. Volobueva o‘quvchilarining kasb tanlashida ota-onaning kasbiy namunasi asosiy omil ekanligini ta‘kidlagan [8].

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Shaxsning tanlagan kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi borasida YE. Ilin [9], o‘smirlarning kasbiy tayyorligi borasida L. Kabardova [10], o‘smirlarning kasbiy faoliyatda hayot shakli shakllanishi borasida A. Adler qarashlari tadqiqotning metodologiyasi hisoblanadi.

- **Tahlil va natijalar.** Tadqiqotda tajriba guruhida (TG) 224 nafar, nazorat guruhida (NG) 163 nafar, jami 387 nafar o‘smir yoshidagi maktab o‘quvchilari ishtirok etgan. Tadqiqotning diagnostik bosqichida o‘smirlar kasb tanlashiga ta‘sir etuvchi asosiy omillar, qiziqishi yuqori bo‘lgan kasb turlari, tanlangan kasbda barqarorligi va chidamliligini diagnostika qilingan.

O‘smirlar shaxsning kasbiy faoliyatini tanlashda barqarorligi va chidamliligi “Xarakter xususiyatlari diagnostikasi” (A.V.Lebedev), “Chidamlilikni o‘zini-o‘zi baholash so‘rovnomasi” (YE.P.Ilin va YE.K.Feshenko) metodikalari yordamida aniqlandi. So‘rovnoma natijalariga asosan, TG o‘g‘il bolalarda 38,5% (o‘rta daraja), qiz bolalarda 35,1% (quyi daraja); NG o‘g‘il bolalarda 36,4% (o‘rta daraja), qiz bolalarda 36,2% (quyi daraja); umumiy ishtirokchilar bo‘yicha o‘g‘il bolalarda 37,5% (o‘rta daraja), qiz bolalarda 35,6% (quyi daraja) namoyon bo‘lgan.

Diagnostika natijalariga asosan TG ishtirokchilarida psixokorreksiya amaliyoti olib borilgan. Psixokorreksiya amaliyotida kasb tanlashda “Shaxsiy qaror” omilini oshirish, professiogramma yordamida kasbiy qiziqishi doirasini kengaytirish, tanlangan kasbda barqarorligi va chidamliligini shakllantirish vazifalari amalga oshirildi. Amaliyot davomida Geshtalt texnikalar, kasblar professiogrammasi va kasbiy

o'zini belgilash texnikalari ("Mening kasbim – mening kelajagim", "Qanday omadli bo'lish mumkin?", "Kasblar namoyishi", "Tuzoq-qopqon", "Hayotdan bir kun", "Ishsizning muhokamasi", "Hayotim o'z tanlovim", "Uzoq yo'l oldida") qo'llanildi.

Rivojlaniruvchi korreksiya amaliyotidan keyin o'smirlarning kasb tanlashiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ko'rsatgichlari dinamikasi: shaxsiy qaror shkalasi TGda TO-9,4 %dan TK-55,4 %gacha ko'tarilgan bo'lsa, NGda TO-11,0 %dan TK-10,4 % gacha kamaygan; moddiy holat shkalasi TGda TO-21,0 %dan TK-10,7 %gacha kamaygan, NGda esa TO-22,1 %dan TK-23,3 % gacha ko'tarilgan; oilaviy qadriyat shkalasi TGda TO-12,9 %dan TK-8,0 %gacha, NGda TO-9,8 %dan TK-9,2 % gacha kamaygan; ota-ona fikri shkalasi TGda TO-16,1 %dan TO-10,3 %gacha, NGda esa TO-17,8 %dan TK-17,2 % gacha kamaygan. do'stlar fikri shkalasi TGda TO-8,5 %dan TK-3,6 %gacha, NGda esa TO-9,2 %dan TK-8,0 % gacha kamaygan; orzudagi shaxs shkalasi TGda TO-12,1 %dan TK-2,2 %gacha kamaygan, NGda esa TO-10,4 %, TK-10,4 % saqlanib qolgan; pedagog yoki mas'ullar shkalasi TGda TO-9,4 %dan 4,9 %gacha kamaygan, NGda esa TO-9,8 %dan TK- 11,0 % gacha ko'tarilgan; boshqa sabablar shkalasi TGda TO-10,7 %dan TK-4,9 %gacha kamaygan, NGda esa

TO-9,8 %dan TK- 10,4 % gacha ko'tarilgan. TGda olib borilgan korreksiya amaliyoti natijasida o'smirlarning kasb tanlashda shaxsiy qaror qabul qilishi yuqori darajada ko'tirilgan bo'lib, korreksiya amaliyoti samaradorligi yuqori ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Korreksiya amaliyotidan keyingi o'smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo'lgan kasblar turlari bo'yicha olingan natijalar tahlili: TGda o'qituvchi kasbiga 7,1%, shifokor kasbiga 6,7%, tadbirkor kasbiga 4,5%, harbiy kasbiga 8,0%, shofyor kasbiga 4,0%, iqtisodchi kasbiga 6,7%, san'atkor kasbiga 4,0%, yurist kasbiga 6,7%, turizm mutaxassisi kasbiga 5,4%, tarjimonlik kasbiga 5,4%, sport murabbiyi kasbiga 6,7%, oshpaz kasbiga 4,0%, sartarosh kasbiga 4,0%, dizaynerlik kasbiga 4,9%, menejerlik kasbiga 4,5%, kompyuter mutaxassisi kasbiga 4,9%, aloqa operatori kasbiga 5,4%, mexanik kasbiga 3,1%, quruvchi-loyihachi kasbiga 4,0% o'smirlarning qiziqishi mavjud ekanligi aniqlandi. TG ishtirokchilarining kasblar professionografiyasi bilan tanishishi natijasida bir necha kasblarga nisbatan qiziqish namoyon bo'lgan, NGda esa sezilarli o'zgarish yuzaga kelmagan.

Korreksiya amaliyotidan keyingi o'smirlar shaxsning kasbiy faoliyatni tanlashda barqarorligi va chidamliligi ko'rsatgichlari tahlil qilindi. (1-jadval)


1-jadval

O'smirlar shaxsning kasbiy faoliyatni tanlashda barqarorligi va chidamliligi ko'rsatgichlari dinamikasi n=387 / TG n=224/ NG n=163

Shkala	Vil	TT								HG							
		TO				TK				TO				TK			
		o'g'il	%	qiz	%	o'g'il	%	qiz	%	o'g'il	%	qiz	%	o'g'il	%	qiz	%
Baqarorlik	Sam v n=111	16,2	40,5	13,6	34,0	31,2	78,0	27,6	69,0	14,6	36,5	14,3	35,8	15,4	38,5	15,1	37,8
	Qash v n=147	14,7	36,8	15,1	37,8	28,6	71,5	29,4	73,5	13,8	34,5	13,9	34,8	14,6	36,5	14,3	35,8
	Sur v n=129	15,3	38,3	13,4	33,5	29,4	73,5	27,2	68,0	15,3	38,3	15,2	38,0	14,8	37,0	14,8	37,0
	M (umum)	15,4	38,5	14,0	35,1	29,7	74,3	28,1	70,2	14,6	36,4	14,5	36,2	14,9	37,3	14,7	36,8
T		4,73***								1,18							
Chidamlilik	Sam v n=111	8,3	46,1	6,7	37,2	15,6	86,7	14,7	81,7	6,3	35,0	7,2	40,0	5,9	32,8	6,8	37,8
	Qash v n=147	7,5	41,7	8,4	46,7	14,4	80,0	13,8	76,7	7,4	41,1	5,9	32,8	6,7	37,2	6,3	35,0
	Sur v n=129	9,1	50,6	7,3	40,6	15,2	84,4	14,1	78,3	6,9	38,3	6,8	37,8	7,4	41,1	7,1	39,4
	M (umum)	8,3	46,1	7,5	41,5	15,1	83,7	14,2	78,9	6,9	38,1	6,6	36,9	6,7	37,0	6,7	37,4
t		4,59***								1,04							

Izoh: *** p<0,001

O'smirlar shaxsning kasbiy faoliyatni tanlashda barqarorligi va chidamliligi ko'rsatgichlari dinamikasi. (1-rasm)



1-rasm. O'smirlar shaxsning kasbiy faoliyatni tanlashda barqarorligi ko'rsatgichlari dinamikasi

Jalvalda keltirilgan barqarorlik shkalasi bo'yicha tajribadan oldin va keyin olingan natijalar dinamikasi quyidagi tahlilga ega:

Samarqand viloyati bo'yicha: TG o'g'il bolalarda TO - 40,5% (o'rta daraja); TK - 78,0% (yuqori daraja); qiz

bolalarda TO - 34,0% (quyi daraja); TK - 69,0 (yuqori daraja); NG o'g'il bolalarda TO - 36,5% (o'rta daraja), TK - 38,5% (o'rta daraja); qiz bolalarda TO - 35,8% (quyi daraja); TK - 37,8% (o'rta daraja) namoyon bo'lgan.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha: TG o'g'il bolalarda TO - 36,8% (o'rta daraja), TK - 71,5% (yuqori daraja); qiz bolalarda TO - 37,8% (o'rta daraja); TK - 73,5% (yuqori daraja); NG o'g'il bolalarda TO - 34,5% (quyi daraja), TK - 36,5% (o'rta daraja); qiz bolalarda TO - 34,8% (quyi daraja); TK - 35,8% (o'rta daraja) namoyon bo'lgan.


Surxondaryo viloyati bo'yicha: TG o'g'il bolalarda TO - 38,3% (o'rta daraja), TK - 73,5% (yuqori daraja); qiz bolalarda TO - 33,5% (quyi daraja); TK - 68,0% (yuqori daraja); NG o'g'il bolalarda TO - 38,3% (o'rta daraja), TK - 37,0% (o'rta daraja); qiz bolalarda TO - 38,0% (o'rta daraja); TK - 37,0% (o'rta daraja) namoyon bo'lgan.

Viloyatlar bo'yicha umumiy ko'rsatgich: TG o'g'il bolalarda TO - 38,5% (o'rta daraja), TK - 74,3% (yuqori

daraja); qiz bolalarda TO - 35,1% (quyi daraja); TK - 70,2% (yuqori daraja); NG o'g'il bolalarda TO-36,4% (o'rta daraja); TK-37,3% (o'rta daraja) qiz bolalarda TO - 36,2% (quyi daraja); TK - 36,8% (o'rta daraja) namoyon bo'lgan.

Korreksiya amaliyoti natijasida TG ishtirokchilarda kasbiy faoliyatni tanlashda barqarorlik ko'rsatgichi ortganligi, NG ishtirokchilarda korreksiya amaliyoti bo'lmaganligi sababli kasbiy faoliyatni tanlashda barqarorlik ko'rsatgichida sezilarli o'zgarish yuzaga kelmaganligi aniqlangan.

Korreksiya amaliyotidan keyingi o'smirlar shaxsning kasbiy faoliyatni tanlashda chidamliligi ko'rsatgichlari dinamikasi 2-rasmda diagramma ko'rinishida keltirilgan.



2-rasm. O'smirlar shaxsning kasbiy faoliyatni tanlashda chidamliligi ko'rsatgichlari dinamikasi

Jalvalda keltirilgan chidamlilik shkalasi bo'yicha tajribadan oldin va keyin olingan natijalar dinamikasi quyidagi tahlilga ega:

Samarqand viloyati bo'yicha: TG o'g'il bolalarda TO - 46,1% (o'rta daraja), TK - 86,7% (yuqori daraja); qiz bolalarda TO - 37,2% (o'rta daraja); TK - 81,7% (yuqori daraja); NG o'g'il bolalarda TO - 35,0% (quyi daraja), TK - 32,8% (quyi daraja); qiz bolalarda TO - 40,0% (o'rta daraja); TK - 37,8% (o'rta daraja) namoyon bo'lgan.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha: TG o'g'il bolalarda TO - 41,7% (o'rta daraja), TK - 80,0% (yuqori daraja); qiz bolalarda TO - 46,7% (o'rta daraja); TK - 76,7% (yuqori daraja); NG o'g'il bolalarda TO - 41,1% (o'rta daraja), TK - 37,2% (o'rta daraja); qiz bolalarda TO - 32,8% (quyi daraja); TK - 35,0% (quyi daraja) namoyon bo'lgan.

Surxondaryo viloyati bo'yicha: TG o'g'il bolalarda TO - 50,6% (o'rta daraja), TK - 84,4% (yuqori daraja); qiz bolalarda TO - 40,6% (o'rta daraja); TK - 78,3% (yuqori daraja); NG o'g'il bolalarda TO - 38,3% (o'rta daraja), TK -

41,1% (o'rta daraja); qiz bolalarda TO - 37,8% (o'rta daraja); TK - 39,4% (o'rta daraja) namoyon bo'lgan.

Viloyatlar bo'yicha umumiy ko'rsatgich: TG o'g'il bolalarda TO - 46,1% (o'rta daraja), TK - 83,7% (yuqori daraja); qiz bolalarda TO - 41,5% (o'rta daraja); TK - 78,9% (yuqori daraja); NG o'g'il bolalarda TO - 38,1% (o'rta daraja), TK - 37,0% (o'rta daraja); qiz bolalarda TO - 36,9% (o'rta daraja); TK - 37,4% (o'rta daraja) namoyon bo'lgan.

Korreksiya amaliyoti natijasida TG ishtirokchilarda kasbiy faoliyatni tanlashda chidamlilik ko'rsatgichi ortganligi, NG ishtirokchilarda korreksiya amaliyoti bo'lmaganligi sababli kasbiy faoliyatni tanlashda chidamlilik ko'rsatgichida sezilarli o'zgarish yuzaga kelmaganligi aniqlangan.

Tajribadan keyin o'smirlarning tanlangan kasbga barqarorligi va chidamliligi ularning kasb tanlash omillariga bog'liqligini o'rganish talab etiladi. Shu sababli, o'smirlarning kasb tanlashiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda ularning tanlangan kasbga barqarorligi va chidamliligi ko'rsatgichlari dinamik natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik korrelyasion tahlil qilindi. (2-jadval)

2-jadval

O'smirlarning kasb tanlash omillari va tanlangan kasbga barqarorligi va chidamliligi o'zaro bog'liqligi

N=224 (Pirson bo'yicha)

№	Shkalalar	Shaxsiy qaror	Moddiy holat	Oilaviy qadriyat	ota-ona fikri	Do'stlar	Orzudagi shaxs	pedagog yoki mas'ullar
1	barqarorlik	0,68**	0,21**	0,18**	0,32**	0,16**	0,09	0,26**
2	chidamlilik	0,62**	0,17**	0,21**	0,29**	0,19**	0,13*	0,22**

Izoh: * p<0,05; ** p<0,01;

Jadvalda keltirilgan, o'smirlarning kasb tanlash omillari va kasb tiplari ko'rsatgichlari o'zaro korrelyasion bog'liqligi natijasiga asosan:

- shaxsiy qaror omili va barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik r=0,68 bo'lib, ma'noga ega bog'liqlik namoyon bo'lgan; shaxsiy qaror omili va chidamlilik o'rtasidagi o'zaro

bog'liqlik r=0,62 bo'lib, ma'noga ega bog'liqlik namoyon bo'lgan;

- oilaviy qadriyat omili va barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik r=0,18 bo'lib, kuchsiz bog'liqlik namoyon bo'lgan; oilaviy qadriyat omili va chidamlilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik r=0,21 bo'lib, kuchsiz bog'liqlik namoyon bo'lgan;

- ota-ona fikri omili va barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik $r=0,32$ bo'lib, o'rtacha bog'liqlik namoyon bo'lgan; ota-ona fikri omili va chidamlilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik $r=0,29$ bo'lib, o'rtacha bog'liqlik namoyon bo'lgan;

- pedagog yoki mas'ullar omili va barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik $r=0,26$ bo'lib, kuchsiz bog'liqlik namoyon bo'lgan; pedagog yoki mas'ullar omili va chidamlilik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik $r=0,22$ bo'lib, kuchsiz bog'liqlik namoyon bo'lgan;

Tajribadan keyingi natijalarga asosan, o'smirlarning tanlangan kasbga barqarorligi va chidamliligi ularning kasb tanlashda shaxsiy qaror omili bilan ma'noga ega bog'liqlik mavjudligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar. O'smirlarning kasb tanlashda shaxsiy qaror omilini yuzaga keltirish, kasbiy qiziqishlar doirasini kengaytirish hamda tanlangan kasbga barqarorligi va chidamliligi shakllantirish borasida psixokorreksiya amaliyoti tashkil etilgan. Psixokorreksiya amaliyotidan keyingi ko'rsatgichlar dinamikasiga asosan TGda kasb tanlashda shaxsiy qaror omili yuzaga kelgan hamda tanlangan kasbga barqarorligi va chidamliligi oshishiga erishilgan.

- o'smirlarning kasb tanlashda shaxsiy qaror omilini yuzaga keltirish ularning kelajak faoliyati samarali bo'lishini ta'minlaydi.

- o'smirlarning tanlangan kasbda barqarorligi va chidamliligini shakllantirish orqali o'zini aktuallashtirish imkoniyati oshadi.

ADABIYOTLAR

1. Kotlyarov I.D. Matematicheskaya formalizatsiya teorii motivatsii Abraxama Maslou i Frederika Gersberga. Vestnik TGEU. № 2. 2008, c. 36-42.
2. Kolpachnikov V.V. Cheloveko sentrirovanniy podxod: sovremennoye sostoyaniye i perspektivi. Moskovskiy psixoterapevticheskiy jurnal, 2009, №1. s. 141-171.
3. Xaitov A.U. Sport psixodiagnostikasi va psixokorreksiya. Darslik. - T.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020. – 343 b.
4. Revushkina M.B. Predstavleniye o sennostyax v uchenii Frankla V.. Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta, 2015, № 2, (30) c. 145-153.
5. Freyjdjer R., Feydimen D. Lichnost. Teorii, uprajneniye, eksperimenti. M.2007. 680 c.
6. Funk R. Erich Fromm: bringing psychoanalysis and sociology together. in: Fromm Forum, 23 / 2019 (Special Edition), Tuebingen (Selbstverlag), pp. 9- 23.
7. Zabneva E.I. Sosialnaya effektivnost upravleniya prosessom professionalnoy oriyentatsii molodeji v sisteme raboti vuza (na primere Kemerovskoy oblasti). avtorefer. diss. kand. sociol. nauk.: 22.00.08 – Tyumen – 2013
8. Volobueva YE.V. Vliyaniye roditeley na professionalniy vibor starsheklassnika. avtorefer. diss. kand. psixol. nauk.: 19.00.07 – Stavropol – 2007.
9. Ilin YE.P. Rabota i lichnost. Trudorolizm, perfektsionizm, len.- SPb.: Piter, 2011.-224 s.
10. Malseva L.V. Professionalnaya diagnostika v rabote psixologa. Metodicheskiye ukazaniya dlya laboratornix zanyatiy. Kurgan 2013. 34 s.



Zuxriddin BOBOSHEV,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti v.b
E-mail: zuhriddinboboshev88@gmail.com

O'DJT va SU dotsenti v.b., (PhD) X.Z. Baxriddinov taqrizi asosida

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФУТБОЛА ПРИ ПОДГОТОВКЕ В ВУЗЕ,
А ТАКЖЕ РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКОГО И ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ СТУДЕНТОВ-
ФУТБОЛИСТОВ**

Аннотация

В данной статье проведен педагогический анализ повышения эффективности футбола при подготовке и развития физического и функционального состояния студентов-футболистов в высших учебных заведениях, даны научно-обоснованные мнения и рекомендации о средствах, применяемых при восстановлении физического и функционального состояния организма студентов после занятий физическим воспитанием и спортом. Также разъясняются эффекты применяемых средств при восстановлении физического и функционального состояния организма, применение методов, направленных на снижение и понижение утомляемости.

Ключевые слова: Студент, футбол, подготовка, тренировка, двигательная плотность, игра, техника, тактика, действие, развитие, воспитание, физическая подготовка, функциональная подготовка, организм.

**PEDAGOGICAL ANALYSIS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF FOOTBALL WHEN PREPARING AT THE
UNIVERSITY, AS WELL AS THE DEVELOPMENT OF THE PHYSICAL AND FUNCTIONAL CONDITION OF
STUDENTS-FOOTBALL PLAYERS**

Annotation

In this article, a pedagogical analysis of increasing the effectiveness of football in the preparation and development of the physical and functional state of football students in higher educational institutions is carried out, scientifically based opinions and recommendations are given on the means used to restore the physical and functional state of the body of students after physical education and sports. It also explains the effects of the means used in restoring the physical and functional state of the body, the use of methods aimed at reducing and reducing fatigue.

Key words: Student, football, training, training, motor density, game, technique, tactics, action, development, education, physical training, functional training, organism.

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FUTBOL MASHG'ULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TALABA-
FUTBOLCHILARNING JISMONIY HAMDA FUNKSIONAL HOLATINI RIVOJLANTIRISHNING
PEDOGOGIK TAHLILI**

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida futbol mashg'ulotlari samaradorligini oshirish va talaba futbolchilarning jismoniy hamda funksional holatini rivojlantirishning pedagogik tahlil qilinib, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridan so'ng talabalar organizmi jismoniy va funksional holatining tiklanishda qo'llaniladigan vositalar haqida ilmiy asoslangan fikr va tavsiyalar berilgan. Shuningdek organizm jismoniy va funksional holatining tiklanishda qo'llaniladigan vositalarning organizmga ta'siri, charchoqni yo'qotish va kamaytirishga qaratilgan usullarning qo'llanishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Talaba, futbol, tayyorgarlik, mashg'ulot, motor zichligi, o'yin, texnik, taktika, harakat, rivojlanish, tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, funksional tayyorgarlik, organizm.

Kirish. Bugungi kunda futbol sport turining kun sayin rivojlanishi, jismonan baquvvat va iste'dodli o'yinchilarni tayyorlab berishni taqozo etmoqda. Oliy ta'lim muassasa (OTM)larida rejaga muvofiq o'quv dars mashg'ulotlarida va futbol tugaraklari, seksiyalari mashg'ulot jarayonida olib boriladi.

Talaba futbolchilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash sport mashg'ulotlarning muhim jihatlaridan biri sanaladi. Bu o'z navbatida kelajakda talabalarni yetuk futbolchi qilib tarbiyalashda mutaxassislar fikricha ularni jismoniy tayyorgarligiga e'tibor berish, ularning sog'lig'ini mustahkamlash va rivojlanishiga, xilma-xil ko'nikma, malakalarini egallab olishga, futbol o'yin texnik-taktikasini o'zlashtirishda asosiy rol o'ynaydi.

Ishning maqsadi. Talaba futbolchilarning jismoniy tayyorgarliklarini bilish maqsadida Toshkent davlat transport universiteti talabalari bilan pedagogik tadqiqot ishlarini olib bordik. Tadqiqot davomida Toshkent davlat transport

universiteti talabalarining jismoniy sifatleri maxsus testlarda yordamida kuzatilib tahlil qilindi va mashg'ulotlarning motor zichliklari aniqlandi. Tadqiqot ish davomida o'rganilgan va olingan natijalar bizning pedagogik kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, OTM talaba futbolchilarning dastlabki jismoniy tayyorgarliklari bo'yicha o'tkazilgan test talablarida olingan natijalarga hech qanday farq sezilmaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi zamonaviy futbolda futbolchilarning taktik va texnik harakatlar jadal rivojlanishi bilan birga ko'zga tashlanadigan jismoniy va funksional kamchiliklari ham sezilib qolinmoqda. Bu borada futbol mutaxassislari va dunyoning ko'zga ko'ringan futbolchilari o'z ilmiy fikrlarini bildirmoqda. Ayniqsa futbol musobaqalari jarayonida futbolchilar jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridan so'ng organizmining jismoniy va funksional holatining tiklanishida yaqqol namoyon bo'ladi [1].

Respublikamizda futbol musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish bilan birga jismoniy tarbiya va sport mashg'ulot-

larini ko'lamli, jadalligi va sport musobaqalarining soni ham oshib bormoqda. Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda hozirgi kunda talabalarning aksariyati o'zlarining bo'sh vaqtlarida muntazam futbol o'ynash bilan o'tkazmoqda. Futbol o'ynash, musobaqalarda ishtirok etish va bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish bilan birga talabalarning faol dam olishni tashkil etish ularning organizmini tiklanishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rishi lozimdir [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda turli ilmiy usullardan foydalanildi:

Birinchi, ilmiy izlanish uchun dialektik usul asoslarini bilish. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarda shunday talablarga rioya qilish lozimki, bu ilmiy izlanishlar aniq haqiqatni, tasodiflarni o'rganib uzviylik va rivojlanish mavjudligini isbot etish. Boshqacha qilib aytganda, falsafiy asoslar va uslubiyatlar xohlagan fanda haqiqatni anglay olish yo'lini ko'rsatadi. Ikkinchi, umumiy uslublar (metodlar): mantiqiy (tahlil, sintez, induksiya, deduksiya va h.k.); kuzatishlar; anketalar bilan ish yuritish. Uchinchidan, sportga yaqin bo'lgan tadqiqotlar usuli, alohida metodlar (model-lashtirish, testlar, bashorat qilish va h.k.). To'rtinchidan, maxsus uslub va usullar (xronometrlash, kino va videolavhalar tahlili).

Ko'rsatib o'tilgan uslubiy guruhlar bir-biri bilan bog'liqdir. Umumiy metodologiya asosida alohida usullardan ham foydalaniladi, shuningdek, sport sohasiga yaqin turgan fanlarning usullaridan keng foydalanish mumkin. Masalan, ijtimoiy, fiziologik, ruhiy va boshqalarda har tomonlama ob'ektiv qonuniyatlar asosida ishlash mumkin. Shuning uchun ham ko'pincha pedagogik tadqiqotlarda futbolda qo'llaniladigan kompleks uslublar ayni muddodir.

Futbolda qo'llanadigan bir necha usullarni ko'rsatib o'tamiz.

Antropometriya-futbolchilarning jismoniy rivojlanishini ko'rsatadigan usul. Ularning asosiy ko'rsatkichlari bo'yi (tana uzunligi), vazni, tana hajmi: bo'yin aylanasini kengligi, boldir, sonlar, yelka, qo'l kuchi, bel kuchi, o'pkaning nafas olish sig'imi. Antropometriya tekshiruviga yana somatopoksiya (ko'krak qafasi mushaklarining rivojlanishi, yog'lari hajmi, oyoq, panjalarining o'lchamlari).

Goniometriya-bo'g'imlar harakatchanligi va ular amplitudalarini o'lchash usubi.

Polidinometriya yordamida mushak guruhlarini topografiyasini tuzish, ya'ni har bir mushak kuchi imkoniyatini o'lchash mumkinligi usuli, futbolchilarning mushak guruhlarini o'lchash maqsadida dinamometriya usulidan keng foydalaniladi [1].

Futbolchilarning tezlik va chaqqonlik sifatlarini aniqlash uchun sekundomerlar, xronometr, millisekundomer, fotofinish va boshqa apparatlardan foydalaniladi.

Jismoniy sifatlardan chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilikni o'lchash uchun futbolchilarga maxsus test sinovlar o'tkaziladi. Ulardan tashqari, futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligini tekshirish o'ta muhimdir. Hozirgi zamon talabalariga binoan futbolchilar sport mashg'ulotlari uslublarini takomillashtirish maqsadida futbolchiga tushayotgan yuklama ta'siri to'g'risida juda keng va ob'ektiv ma'lumotlarga ega bo'lish, futbolchining funksional tayyorgarligini o'rganish zarur, chunki sportda yuqori natijalarga erishish to'g'ridan to'g'ri yurak-qon tomir va nafas

olish tizimi, tayanch-harakat apparati holatlari va nerv faoliyati tizimiga bog'liq.

Maxsus mashg'ulotlar paytida sportchi organizmidagi o'zgarish to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarni bioximik usullar yordamida olish mumkin. Elektrokardiografiya mushaklar qisqarishi biotoklarini yozib olish, ulardan muskullarni turli harakat holatlariga xos va mos faoliyat ko'rsatishi aniqlab olinadi, shuningdek, harakat strukturasi ham. Futbolchilar taktik tayyorgarligi masalalari, o'yinchilar jamlanmasi va ularni o'yinda hamjihatligi psixologiya metodi yordamida yechiladi.

Tadqiqotda qanday metod qo'llanishidan qat'iy nazar, u ish eksperiment usuli bilan olingan natijalar albatta matematik statistika metodi yordamida ishlab chiqilib xulosa qilinishi kerak.

Har qanday tadqiqot ishlarini tanlashda uning vazifasiga, izlanuvchining texnik imkoniyatlariga qaraladi. Lekin nima bo'lganda ham metodika quyidagicha bo'lishi lozim: samarali va yanada ob'ektiv ilmiy materiallarni olishni ta'minlash; ishonchli va qayta ishlovga munosib (ko'plab tadqiqotlarda, har xil kontingentlarda); tejamkor; oddiy va xavfsiz; ilmiy, to'laqonli (har bir holatni haqiqiy tavsiflab beruvchi maksimal ma'lumot berish).

Pedagogikada ancha ko'p qo'llanadigan usullardan quyidagilarni olish mumkin:

Kuzatuv usubi. Sportdagi pedagogik kuzatuvlar bu – aniq maqsadli, rejali, uzluksiz o'quv-mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonidagi ma'lumotlarni olish.

Pedagogik kuzatuvlar – ilmiy ma'lumotlarni olishdagi eng asosiy metodlardan hisoblanadi. Uni o'tkazish uchun jiddiy tayyorlanish zarur. Kuzatuvga tayyorgarlik o'z ichiga quyidagilarni oladi: kuzatuv vazifalari va rejasini aniqlash; kuzatuv ob'ektini tanlash; kuzatuvni qanday o'tkazishni aniqlash; kuzatuv natijalarini belgilash usullarini ishlab chiqish; olingan hujjatlarni tahlil qilish uslubiyatini aniqlash.

Sport mashg'uloti amaliyotida kuzatuvlarni olib borish uchun ko'pincha turli chizmalar, bayonnomalar, jadvallar va maxsus ishlab chiqilgan hisoblash kartalaridan foydalaniladi.

Misol tariqasida, o'yinda bir futbolchining ma'lum daqiqalarda hujumdagi yoki himoyadagi harakat faoliyatini kuzatish protokolini berishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, amaldagi yillik tayyorgarlik jarayoni davomida talabalarda jismoniy va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlar sust shakllangan.

Jumladan, jismoniy tarbiyaning auditoriyadan tashqari mashg'ulotlari jarayonida toqqa sayohat uyushtirishda talabalarda jismoniy tayyorgarlik darajasining o'sish sur'ati o'rganilgan ko'rsatkichlar bo'yicha mashg'ulotlar jarayonlaridan oldin yildan-yilga juda kam miqdorda qisqarib borgan, ammo yillik o'sish farqi mili soniyalar va millimetrlar miqdorida qayd etilgan (1-jadvalga qarang).

Jumladan, jismoniy tarbiyaning auditoriyadan tashqar mashg'ulotlar jarayonida talabalar jismoniy tayyorgarligining o'sish sur'ati 100 m ga yugurish bo'yicha dastlabki ko'rsatkich - 13,09±0,88; mashg'ulot jarayonidan 1 yil oldingi ko'rsatkichlar - 12,98±0,49; mashg'ulot jarayonidan 2 yil oldingi ko'rsatkichlar - 12,82±0,42; 1000 m ga yugurishga mos ravishda: 3.39,4±1.24,8; 3.18,2±0.95,4; 2.87,1±0.52,6; 3000 m ga yugurish bo'yicha olingan ko'rsatkichlar ham qayd etilgan yo'nalishga xos o'sish sur'ati bilan ifodalandi.

Jismoniy tarbiyaning auditoriyadan tashqari mashg'ulotlari jarayonida talabalar jismoniy tayyorgarligining o'sish sur'ati ($\bar{x} \pm \delta$)

Testlar	Dastlabki ko'rsatkichlar	Mashg'ulot jarayonidan oldingi ko'rsatkichlar	
		1-yil	2-yil
Yugurish mashqlari (soniyada)			
100 m, s	13,09±0,88	12,98±0,49	12,82±0,42
1000 m, s	3.39,4±1.24,8	3.18,2±0.95,4	2.87,1±0.52,6
3000 m, s	13.05,2±4.19,4	12.56,2±3.39,2	11.18,4±3.19,7
Uzunlikka sakrash mashqlari (sm)			
Joyidan turib sakrash	231,62±4,08	234,56±5,12	239,68±4,44
Joyidan turib, 3 hatlab sakrash	723,84±6,12	730,67±5,66	738,72±5,74

Uzunlikka sakrash bo'yicha kuzatilgan natijalar esa quyidagicha: joyidan turib sakrash 231,62±4,08; 234,56±5,12; 239,68±4,44, joyidan turib, 3 hatlab sakrash 723,84±6,12; 730,67±5,66; 738,72±5,74, o'sib borgan (ishtirok etgan barcha talabalarining o'rtacha statistik ko'rsatkichi (\bar{x})).

Tadqiqot ishida ishtirok etgan talabalarining o'rganilgan fiziologik ko'rsatkichlari o'ziga xos xususiyatlar bilan qayd etildi (2-jadvalga qarang).

Tadqiqot ishi shuni ko'rsatadiki, olingan dastlabki ko'rsatkichlar va ularning yil davomida o'zgarish o'sish sur'ati yurak-tomir va nafas olish tizimlari sust rivojlanganligidan dalolat beradi.

Masalan, AQB mm/s.u. SB: dastlabki ko'rsatkichi 121,2±4,4, kuzgi 127,4±5,8, qishki 122,7±4,4, bahorgi 119,6±4,2, yozgi 129,2±5,6 ga teng bo'ldi. DBga muvofiq ravishda 63,4±3,8; 66,2±4,8; 68,4±3,6; 71,2±3,9; 73,4±3,4 mm/s.u.ga teng miqdorda ifodalandi. YuQCh: 74,3±3,8; 71,4±4,0; 70,1±3,7; 74,9±4,5; 77,3±3,9, marta/daqiqani tashkil etdi. Genchi sinovi – 17,6±1,9; 22,2±1,4; 23,8±2,1; 27,6±3,2; 38,4±3,6. Shtange sinovi – 30,7±1,0; 33,7±1,4; 36,6±2,5; 17,6±1,9; 17,6±1,9. NOCh – 39,4±2,2; 15,6±1,7; 14,8±0,8; 16,8±1,5; 15,4±2,2. O'TS – 4834,6±126,2; 4883,4±134,9; 5016,2±148,6; 5177,8±411,4; 5312,5±152,6 testlarining natijalari ham yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar o'sish sur'atiga o'xshab ifodalangan.

Futbol mashg'ulotlar jarayonida talaba futbolchilar funksional tayyorgarlikning o'sish sur'ati ($\bar{x} \pm \delta$)

Testlar	n	DK	Kuzgi	Qishki	Bahorgi	Yozgi	
AQB (mm/s.)	SB	75	122,2±4,6	126,4±5,8	124,7±4,8	121,6±4,6	128,2±6,1
	DB	75	63,4±3,8	66,2±4,8	68,4±3,6	71,2±3,9	73,4±3,4
YuQCh (marta/daq)	75	74,3±3,8	71,4±4,0	70,1±3,7	74,9±4,5	77,3±3,9	
Genchi sinovi (sek)	75	17,6±1,9	22,2±1,4	23,8±2,1	27,6±3,2	38,4±3,6	
Shtange sinovi (sek)	75	30,7±1,0	33,7±1,4	36,6±2,5	17,6±1,9	17,6±1,9	
NOCh (m/daq)	75	39,4±2,2	15,6±1,7	14,8±0,8	16,8±1,5	15,4±2,2	

Izoh 1.: AQB – arterial qon bosimi, SB – sistolik bosim, 1- eshitilgan zarba, DB – diastolik bosim – sust zarba, YuQCh – yurak qisqarish chastotasi, Genchi sinovi(sek) – chuqur nafas chiqarib nafasni saqlab turish, Shtange sinovi (sek) – chuqur nafas olib, nafasni saqlab turish, NOCh – nafas olish chastotasi, DK – dastlabki ko'rsatkich.

Genchi sinov qobiliyati organizmning gipoksik imkoniyatini aks ettiruvchi mezon bo'lib, chidamlilik sifatlarini oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Agar turli turg'un holatlarda, genchi va shtange sinovi (sekund) muddatni oshirishga qaratilgan nafas mashqlari gipoksik rejimda chidamlilik mashqlari bilan qo'shib qo'llanib borilsa, organizmning aerob – anaerob (aerob – organizmdagi kislorodli holat, anaerob – organizmdagi kislorodsiz holat) tartibda ishlash imkoniyati ortadi va markaziy hamda periferik organlar, to'qimalar va hujayralarda kislorodni sarflash qobiliyati yaxshi rivojlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba boshlanishidan avval olingan natija nazorat guruhida ham, tajriba guruhida ham bir-biridan deyarli farq qilmadi. Jumladan, 100 m NG – 13,12±0,32 s; TG – 13,03±0,3 s; 1000 m NG – 203,75±7,64 s; TG – 173,42±4,68 s; 2000 m NG – 489,60±19,04 s; TG – 440,44±17,96 s; 3000 m NG – 783,22±26,11 s; TG – 789,42±26,83 s natijalarida qayd etildi.

Jismoniy tarbiyaning auditoriyadan tashqari mashg'ulotlari jarayonida talabalar bilan toqqa sayohat uyushtirishda yugurish va sakrash qobiliyatlarini (ayniqsa, uzunlikka sakrash yoki oyoqdan oyoqqa sakrash) yaxshi rivojlangan bo'lsa, bu holat yugurush natijasiga ham ijobiy

ta'sir ko'rsatishi muqarrar. Yugurish testlari natijalarini e'tiborga olgan holda, jismoniy tarbiyaning auditoriyadan tashqari mashg'ulotlari jarayonida talabalar bilan nazorat va tajriba guruhlarida sakrash testlari qabul qilindi.

Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, tajribadan avval qayd etilgan sakrash ko'rsatkichlari ikki guruhda ham bir-biridan keskin farq qilmadi. Bu ushbu guruhlarining jismoniy jihatdan bir xil tayyorgarlikka ega ekanligidan dalolat berdi. Masalan, joyidan uzunlikka sakrash NGda – 251,0±7,87 sm, TGda – 249,75±13,73 sm ni, 3 hatlab sakrash NGda – 738,25±10,22 sm; TGda – 739,00±19,14 sm ni tashkil etdi.

Toshkent davlat transport universiteti TG va NG talaba futbolchilarida jismoniy tayyorgarlik bo'yicha o'tkazilgan test normativlarida ancha farqlanish kuzatilgan.

Talaba futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi va texnik harakatlarni rivojlantirishda mashg'ulot o'tkazish samarasi ham muhimdir. Biz ikkala guruhda o'tkazilgan futbol mashg'ulotlarini samarali o'tkazishdagi ya'ni mashg'ulotlarining mator zichligini tahlil qildik.

Masalan, mashg'ulotlarning mator zichligi (MZ) – bu mashg'ulotning umumiy davomligini nisbatan yosh futbolchilarning mashg'ulotlarda aynan harakatlarni faoligi uchun sarflangan sof vaqtdir. Mator zichligi aniqlashda mashqlarni

bajarish uchun sarflangan sof vaqt (tsv) hisoblanadi. Tsv 100% ko'paytirilib, mashg'ulotning umumiy vaqtiga (tum) bo'linadi: mashg'ulotlar jismoniy tayyorgarlikka, texnik harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, davomiyligi 90 daqiqaga teng bo'lgan mashg'ulotlardir.

TG talaba futbolchilarida bilan borilgan mashg'ulotlarning motor zichligi 82,4% ni tashkil etdi. NG talaba futbolchilarining mashg'ulotlarning motor zichligi 70,1% ni tashkil etdi. Demak TG talaba futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik bo'yicha test talablari o'tkazilganda ushbu guruh shug'ullanuvchilarining ko'rsatkichlari yaxshi darajada deb baholanishi ham, mashg'ulotlarning samarali olib borilishida deb baholashimiz mumkin.

Xulosalar. Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, Toshkent davlat transport universiteti TG talaba futbolchilarida mashg'ulotlar o'tkazishda yaxshi yo'lga qo'yilgan va buning ijobiy samarasi ko'zga tashlandi. Mazkur guruhdan ishtirok etgan talabalarning yil davomida o'tkaziladigan futbol musobaqalarida ishtiroki hamda g'alabani qo'lga kiritishi ancha yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Aksincha, NG talaba futbolchilarida mashg'ulotlar o'tkazishda ko'pgina kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha test talablari olinmaydi. Mashg'ulotlar davomida talaba futbolchilarga jismoniy yukmalarni ko'pariq oyoq qismlariga berilishi, aksincha, gavda, qo'l qismlariga e'tibor berilmasligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Muxamadiyev K.B. Talabalarning jismoniy ko'rsatkichlarini rivojlantirish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent temir yo'l muhandislari instituti bosmaxonasi. 07.05.2019-y. – 28 b.
2. Muxamadiyev K.B. Jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanishda jismoniy yuklamalar samaradorligini baholashning pedagogik nazorat usullaridan foydalanish. Uslubiy qo'llanma Toshkent temir yo'l muhandislari instituti bosmaxonasi. 07.08.2019-y. – 23 b.
3. Muxamadiyev K.B. Jismoniy tarbiya ta'limi jarayoni samaradorligini oshirish va talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari: Monografiya / "Innovatsion rivojlantirish nashriyoti-matbaa uyi". – Toshkent, 2021. – 413 b.
4. Boboshyev Z.N. Jismoniy tarbiya va sport (futbol asoslari). O'quv qo'llanma. T.: 20____, 220 bet.
5. Золотарев А.П. Структура и содержание многолетней подготовки спортивного резерва в футболе: дис. докт. пед. наук / Золотарев А.П. – Краснодар, 1997. – 445 с.
6. Зонин Г.С. Исследование физической, технической подготовленности и их совершенствование у футболистов: автореф. дис. канд. пед. наук / Зонин Г.С. – М., 1975. – 21 с.
7. Климин В.П. Планирование и учет индивидуальной подготовки / Климин В.П. // Футбол: ежегодник. – М.: Физкультура и спорт, 1985. – С. 38–42.
8. Люшкинов Н.М. Индивидуальная тренировка / Люшкинов Н.М. // Искусство подготовки высококлассных футболистов. – М.: Советский спорт, 2006. – С. 179–184.



A'zam BOLTAEV,
O'zMU, Taekvondo va sport faoliyati fakulteti o'qituvchisi
Ravshan YUSUPOV,
O'zMU, Taekvondo va sport faoliyati fakulteti o'qituvchisi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti, (Phd) S.Q.Adilov taqrizi asosida

O'RTA MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARINING CHAQQONLIK JISMONIY SIFATINI RIVOJLANTIRISHDA MAXSUS MASHQLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maktab o'quvchilarning chaqqonligini rivojlantirish uchun to'p bilan maxsus mashqlarni ishlab chiqish va qo'llash. O'rta maktabyoshidagi voleybolchilarning ishlash ko'rsatkichlari tadqiqotda aniqlash. Yosh sportchilarda chaqqonlikni rivojlantirish uchun murabbiylar o'quv mashg'ulotlari, o'rtoqlik uchrashuvlari va shahar musobaqalaridan olingan ma'lumotlar asosida maxsus usullarni yaratadilar va ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Maktab o'quvchilari, chaqqonlikni rivojlantirish, yosh sportchilar, maxsus mashqlar, tadqiqot o'tkazish, tajriba va nazorat guruhi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ СПОСОБНОСТИ СРЕДНИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

Разработка и применение специальных упражнений с мячом для развития ловкости школьников. Определение показателей результативности вольейболистов старшей школы в исследовании. Для развития ловкости у юных спортсменов тренеры создают и разрабатывают специальные методики на основе информации, полученной на тренировочных занятиях, товарищеских матчах и городских соревнованиях.

Ключевые слова: Школьники, развитие ловкости, юные спортсмены, специальные упражнения, исследовательская, экспериментальная и контрольная группы.

USE OF SPECIAL EXERCISES IN DEVELOPING PHYSICAL AGILITY OF SECONDARY SCHOOL STUDENTS

Annotation

The school was attended by students studying at a special workplace and studying at the workplace. The volleyball school is a research center. As a trainer engaged in the preparation, preparation and conduct of trainings on the basis of special training and preparation.

Key words: Schoolchildren, agility development, young athletes, special exercises, research, experience and control group.

Kirish. O'rta maktab yoshida, 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarni qamrab oladi. 12-15 yoshdagi o'quvchilar funksional jihatdan beqaror holat va tananing nisbatan engil sezgirligi bilan ajralib turadi. Buni ushbu yoshdagi o'spirinlar bolalikdan yoshlikka o'tish bilan bog'liq bo'lgan murakkab ichki qayta qurish bosqichini boshdan kechirayotganliklari bilan izohlash mumkin. Tashqi ko'rinish o'sishning o'zgarishi (keskin tezlashuvchan), harakatning muvofiqlashtirilmasligi, tez-tez charchash, kayfiyatning o'zgarishi va uning namoyon bo'lishidan iborat.

O'smirlik davrida mushaklarning kuchini rivojlantirishning tezlashtirilgan jarayoni boshlanadi va funksional shakllanish tugaydi. Kamenskaya V.G. va Melnikova I.E. ular shunday yozadilar: "Markaziy asab tizimida nurlanish jarayonlari zaiflashadi va farqlash qobiliyati oshadi. Harakat ko'nikmalarini avtomatlashtirish boshlanadi, bu murakkab taktik harakatlarni keyingi o'rganishda muhim rol o'ynaydi." Amaliyotchilar uzoq fikrlash jarayonidan taktik vazifani qabul qilish va hal qilishga o'tishadi.

12-15 yoshli o'quvchilarda vosita va vegetativ funksiyalarning nomuvofiqligi nomukammaldir, shuning uchun kuchni rivojlantirish uchun chidamlilikni rivojlantirish va statik mashqlar berish isbotlangan. Tananing yuqori samaradorlik bilan yuqori tezlikda mashq bajarishga tayyor bo'lishi osonlashadi.

Ma'lumotlarga ko'ra Fomina N.A., o'rta maktab yoshi o'sish intensivligi va tana hajmining oshishi bilan tavsiflanadi:

yiliga tana uzunligining o'sishi 4-7 sm, asosan oyoqlarning uzunligi tufayli; har yili tana vazniga 3-6 kg qo'shiladi; o'g'il bolalarda 13-14 yoshda o'sish eng tez sur'atda rivojlanadi, bunda tana uzunligiga yiliga 7-9 sm qo'shiladi; qizlar.

Ular o'sishni ancha oldinroq boshlaydilar, ammo o'sish faqat 7 sm gacha ko'tariladi.

Erta o'smirlik davrida yuqori va pastki eksperimintlarning uzun quvurli suyaklari tez sur'atlarda o'sadi va umurtqalarning o'sishi tezlashadi. Mushaklarga noto'g'ri va juda ko'p yuk ossifikatsiya jarayoniga olib keladi, naycha suyaklarining o'sishi sekinlashadi.

Mushaklar tizimi tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 13 yoshdan boshlab mushaklarning umumiy massasining keskin o'sishi, birinchi navbatda mushak tolalari qalinligining oshishi tufayli kuzatiladi. Mushak massasi ayniqsa 13-14 yoshdagi o'g'il bolalarda, 11-12 yoshdagi qizlarda tez o'sadi.

Jeleznyak Yu. D. yozadi: "Yurak-qon tomir tizimining morfologik va funksional yukligi, Markaziy asab tizimining jadal rivojlanishi tufayli yurak va qon tomirlarining turli funksiyalarini qarama-qarshi va muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarning shakllanishi tugallanmaganligi aniq ko'rinib turibdi. Shuning uchun mushak faoliyati bilan 12-15 yoshli bolalarda qon aylanish tizimining moslashish qobiliyati yoshlikka qaraganda ancha past".

Balag'at davrida o'spirinning nafas olish tizimi yuqori sur'atda rivojlanadi. O'pkaning hayotiy qobiliyati (VC) va nafas olishning daqiqali hajmi deyarli ikki baravar ko'payadi.

O'smir uchun kattalarga qaraganda nafasini uzoq vaqt ushlab turish qiyinroq, kislorod etishmasligi sharoitida ish qobiliyati pasayadi. Muntazam yugurish ko'plab tana tizimlariga foydali ta'sir ko'rsatadi, xususan nafas olish tizimini rivojlantiradi.

O'rta maktab voleybolchilarining chaqqonligini rivojlantirish uchun to'p bilan maxsus mashqlarni ishlab chiqish va qo'llash.

Mashg'ulot jarayoni davomida to'p bilan o'yin mashqlaridan foydalanish yosh voleybolchilarning ish qobiliyatini oshirishi va shu bilan birga texnik va taktik tayyorgarlikni yaxshilashga imkon berishi kerak. O'quvchilar oldida ma'lum bir vazifani belgilash orqali (to'pni ma'lum bir zonaga yo'naltirish, to'siqni mag'lub etish, hujumkor o'yinchini to'siq bilan yopish va boshqalar) biz ham jamoalar ham individual o'yinchining harakatlarini muvofiqlashtirishimiz mumkin. Ushbu mashqlarning intensivligini oshirish, agar sportchi olingan ko'nikmalarni musobaqa davri oxirigacha qo'llash kerak bo'ladi.

Shakllantiruvchi eksperiment bosqichida voleybol jarayonida 7 "B" va 7 "g" sinf o'quvchilarining chaqqonligini rivojlantirish uchun tajriba guruh bilan ish olib borildi.

Vazifaga asoslanib, chaqqonlikni rivojlantirish uchun biz butun tajriba davomida o'quv mashg'ulotining asosiy qismiga kiritilgan mashqlar to'plamini o'z ichiga olgan dasturni ishlab chiqdik.

Tajriba guruhda ishlash dasturi

O'rta maktab o'quvchilari uchun maxsus mashqlar to'plami

1. Turli xil boshlang'ich pozitsiyalardan (tik turish, o'tirish, yotish, sakrash), harakat va to'xtash paytida va undan keyin uzatish (alohida, juftlikda).

2. To'pni bir qo'li bilan hujum qilgan sherigiga berish.

3. Yoo'nalishni o'zgarish bilan 9 m yugurish - voleybol maydonining 6 nuqtasiga.

4. Blokni o'rnatish uchun yuqoriga sakrash bilan oldinga siljish.

5. To'pni pastdan va yuqoridan juftlarga o'tkazish.

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilarning chaqqonligini rivojlantirish uchun to'p bilan maxsus mashqlarni joriy etish.

Voleyboll bilan shug'ullanadigan o'quvchilar yuqoriga sakrovchanlik qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Yosh sportchilarda chaqqonlikni rivojlantirish uchun murabbiylar o'quv mashg'ulotlari, o'rtoqlik uchrashuvlari va shahar musobaqalaridan olingan ma'lumotlar asosida maxsus usullarni ishlab chiqadilar. Chaqqonlikni rivojlanishi sportchi o'zini to'liq anglaydigan eng muhim jihat ekanligini tushunish qiyin emas.


Shu munosabat bilan bizning ishimizda yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonida chaqqonlikni rivojlantirish uchun №-1 maxsus mashqlar to'plamini joriy etish bo'yicha pedagogik tajriba o'tkazildi. Olingan natijalarga asoslanib, biz ilgari ishlatilgan testlarning har biri uchun pedagogik tajriba boshlanishidan oldin nazorat va tajriba guruhlarining chaqqonlik sifati ko'rsatkichlarining statistik ko'rsatkichlari bilan 1-jadvalni tuzdik.

Jadval-1.

O'rta maktab yoshidagi voleybolchilarning ishlash ko'rsatkichlari tadqiqotda aniqlash.

Statis. Ko'rsatish. $X \pm a$	mokkisimon yugurish 3 x 10 m (sek) 3 x 10 m (sek)	Ikki qo'1 bilan pastdan devorga 30 soniya ichida uzatish (marta)	Uzatish ikki qo'llar aniqlik uchun tepada (bir vaqtning o'zida)	Kombinatsiyalangan test (miqdor-bir vaqtning o'zida)
NG N=12	8,0±	22±	12±	27±0
TG N=12	8,3±	20±	10±	25±
(R)	R>0,05	R>0,05	R>0,05	R>0,001

Aniq tajriba natijasini biz tuzgan 1-diagrammada ko'rish mumkin. Nazorat bosqichida jismoniy tayyorgarlik darajasi.



Tajriba

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, pedagogik tajribadan oldin asosiy o'rtacha ko'rsatkichlar bo'yicha nazorat va tajriba guruhida amalga oshirishda kuchli farqlarga ega emas edi. Bu bizga ikkala guruh ham pedagogik tajriba boshida chaqqonlikning teng darajada rivojlanganligini ko'rsatdi.

Amalga oshirilgan ishlarda bizni 12±1,5 marta aniqlik uchun ikki qo'lli bilan yuqoriga uzatish ko'rsatkichi va 27±0,0 kombinatsiyalangan sinov ayniqsa qiziqitirdi; nazorat guruhi-

ning yosh voleybolchilari quyidagi natijalarni ko'rsatdilar - 10±1,3; va mos ravishda 25±3,0, R>0,05. R>0,001.

Tajribaning ikkinchi bosqichi chaqqonlikni rivojlantirish uchun qo'llaniladigan texnikadan keyin nazorat tajribasini o'tkazish zarur edi. Uni amalga oshirish uchun ilgari tavsiflangan testlardan foydalanildi. Olingan natijalar o'rtacha natijaga matematik tarzda qayta ishlanib, jadvalga kiritildi.

Jadval 2

O'rta maktab yoshidagi voleybolchilarning ishlash ko'rsatkichlari nazorat tajribasi vaqti

Statistik. Ko'rsatkich. $X \pm a$	Mokisimon yugurish 3 x 10 m (sek)	Ikki qo'l bilan pastdan devorga 30 soniya ichida uzatish (marta)	Aniqlik uchun yuqoridan ikki qo'l bilan uzatish(vaqt, marta)	Kombinatsiyalangan sinov (vaqt, marta)
KG N=12	7,9±0,1	22,0±2,0	17±5,0	27±0,0
EG N=12	5,4±2,9	24,0±4,0	14±4,0	28±3,0
(R)	R<0,05	R<0,05	<0,05	R>0,05

Biz 2-jadvalda ko'rgan natijalarga asosanib aytishimiz mumkin:

1. Tajriba guruh yaxshi natijalarga erishdi, chunki o'quvchilar mashg'ulot jarayonini tizimlashtirishni boshladilar, mashqlarni to'g'ri bajarish va o'zlashtirishni takomillash-tirish bilan qiziqishga harakat qildilar.


2. To'pni yuqoridan va pastdan uzatishning aniqligi mahoratga aylana boshladi. Yosh voleybolchilar hujum zarbasidan keyin qo'llarini blokga qo'yishga va to'pni qabul qilishga alohida e'tibor berishni boshladilar.

3. Tajriba guruhning voleybolchilari to'pni ko'zdan qochirmaslik va raqibga e'tibor bermaslikni maqsad qilib qo'yishdi, shuning uchun diqqat va chaqqonlik ko'rsatkichi asta-sekin o'sishni boshladi.

Nazorat tajribasi davomida ishlash ko'rsatkichlariga asosanib, biz 2-diagrammani tuzdik.

Diagramma 2.

Nazorat tajribasi bosqichida jismoniy tayyorgarlik darajasi



O'rta maktab yoshidagi voleybolchilarda chaqqonlikni yaxshilash uchun ishlab chiqilgan 1-sonli testlarning uslubiy majmuasi to'g'risida biz 3-rasmdagi 4-ilovada keltirilgan davra mashqlari majmuasidan foydalandik. Bundan tashqari, asosiy sifatdan tashqari, biz tajriba guruhga tanani kelgusida ishlarga tayyorlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan yangi ko'nikmalarni berishga harakat qildik - biz buni 3-ilovadagi 2-rasmdagi cho'zish belgilari majmuasida ko'rsatdik.

Shunday qilib, mashg'ulotning muvaffaqiyati va uning davomiyligi to'g'ridan-to'g'ri mashg'ulot jarayonining qurilishiga bog'liq. Uning asosi pedagogik jarayonning qonuniyatlari. Voleybolning o'ziga xos xususiyatlari tufayli o'quvchilar uchun mashg'ulot jarayonini tashkil etishning muayyan sharoitlarida va tegishli usullarda qo'llaniladigan sharoitlar yaratiladi.

Ikki guruhda qayta sinovdan o'tkazilganda, tajriba guruh nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni ko'rsatdi. Nazorat guruhida natijalar biroz o'zgardi, deyarli birinchi sinov bilan bir xil.

Tajriba natijalari to'g'risida aniqroq tasavvurga ega bo'lish uchun ish davomida olingan natijalar bilan 3-jadval tayyorlandi.

O'rta maktab yoshidagi o'quvchilarda o'quv mashg'ulotlarida chaqqonlikni rivojlantirish dinamikasini o'rganish.

Ikki guruhda qayta sinovdan o'tkazilganda, biz aniqladik dastlabki sinov natijalari bilan taqqoslaganda tajriba guruh yuqori natijalarni ko'rsatdi. Nazorat guruhida natijalar birinchi sinovda bo'lgani kabi deyarli bir xil bo'lib qoldi.

Olingan statik jihatdan ishonchli natijalar asosida ($P<0,05$; $P<0,001$) natija ko'rsatkichi aniqlandi shunga ko'ra 3-jadval tuzildi, unda tajriba guruhning natijalari barcha testlarda nazorat guruhidagi natijalardan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Istisno-bu miqdoriy nisbat birlashtirilgan test. Texnikalarni bajarishda yosh voleybolchilarning beqaror hissiy holatiga murojaat qilishimiz mumkin. Shunga qaramay, biz o'quvchilar 6 hafta davomida bajargan to'p bilan maxsus mashqlar to'plami ijobiy natija berganini ko'ramiz. Shunga asosanib, agar siz ushbu kompleksni uzoqroq vaqt davomida ishlatsangiz, chaqqonlik ko'rsatkichida sezilarli o'sish bo'ladi degan xulosaga kelishimiz mumkin.


Jadval 3

Pedagogik tajriba natijasida voleybolchilar natijalarining qisqacha jadvali

Statis. Ko'rsatish. $X \pm a$	Mokisimon yugurish beg 3 x 10 m (sek)	Ikki qo'l bilan pastdan devorga 30 soniya ichida uzatish (marta)	Aniqlik uchun yuqoridan ikki qo'l bilan uzatish(bir vaqtning o'zida)	Kombinatsiyalangan sinov (vaqt, marta)
NG N=12	7,9±0,1	22,0±	17,0±	27,0±
TG N=12	5,4±2,9	24,0±	14,0±	28,0±
(R)	R<0,05	R<0,05	<0,05	R>0,05

Diagramma 3.

Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining o'sish diagrammasi
Voleybolchilar



Yakuniy natijalar asosida tuzilgan 3-jadval bajarilgan ishlarni yanada aniqroq namoyish etadi. Sinovlarda tajriba guruhda: 3x10 mokisimon yugurish uchun sarflangan vaqt 0,6 soniyaga kamaydi, to'pni pastdan ikki qo'l bilan uzatishda, soni 4 ga oshdi va to'pni aniqlik uchun yuqoridan uzatishda

samaradorlik 2 baravar oshdi, kombinatsiyalangan test 3 soniya yaxshilanganligini ko'rsatdi. Nazorat guruhida to'pni yuqoridan aniqlik bilan uzatishda kichik o'zgarishlar yuz berdi, natija 1 ga oshdi.

ADABIYOTLAR

1. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleyboll nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: Fan va texnologiya. 2012, B.40 – 50.
2. Айрапетянц Л.Р. Волейбол. // Учебник для высших учебных заведений. Т.: Zar qalam. 2006. – 240 с.
3. Беляев А.В., Савин М.В. Волейбол. М.: Фон, 2000. – 368 с.
4. Беляев А.В., Буликина Л.В. Прыжковая подготовка волейболистов в подготовительном периоде на основе анализа их соревновательной деятельности. // Теория и практика физической культуры. 2004, №3, С. 37–38.
5. Годик .М.А. Физическая подготовка футболистов. М.:Терра-Спорт. 2006. – 272 с.
6. Железняк Ю.Д. Волейбол: У истоков мастерства. М.: ФАИР-ПРЕСС. 1998.– 336 с.
7. Железняк Ю.Д., Шипулин Г.Я.,Сердюков О.Э. Тенденции развития классического волейбола на современном этапе. // Теория и практика физической культуры. 2004, №4, С. 30–33.
8. Клещев Ю.Н. Волейбол. М.: Спорт Академ Пресс. 2003. – 189 с.



UDK:159:377:371:378(575,1)

Laylo G'AYBULLAYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasini tadqiqotchisi

SamDU professori, f.f.d. Samadov A. taqrizi asosida

THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE NEIGHBORHOOD INSTITUTE IN INCREASING YOUTH POLITICAL ACTIVITY IN THE SOCIETY

Annotation

The social institution called neighborhood has a special place in increasing the political activity of every citizen in the society, and it has its place in the development of philosophical thinking in the minds of the growing youth. Philosophical factors affecting the formation of political and legal knowledge of young people, proposals and ideas on the philosophical nature of the neighborhood institute for increasing their political knowledge and consciousness, political activity are presented in the article.

The increase in the level of political activity of young people in the society shows that the state reforms are being implemented rapidly. In this process, the process paves the way for the growth of young people's political thinking, political consciousness, and the strengthening of cooperative relations with the neighborhood institution in the system of social relations. The broad opportunities created by the state are considered to be of great importance in the activity of young people in the new Uzbekistan as a politically active layer. The political activity of Uzbek youth today, mainly in the state administration, working in leading positions in the neighborhoods, gives its positive results. These issues are scientifically researched in the article in a modern way and studied from a philosophical point of view.

Key words: youth, political activism, civil society, civil society institutions, family, education, political parties, social institutions, mass media, political culture.

ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ИНСТИТУТА СОСЕДСТВА В ПОВЫШЕНИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

Социальный институт, называемый соседством, занимает особое место в повышении политической активности каждого гражданина в обществе, а также в развитии философского мышления в сознании подрастающей молодежи. В статье представлены философские факторы, влияющие на формирование политико-правовых знаний молодежи, предложения и идеи о философской природе института соседства для повышения их политических знаний и сознания, политической активности.

Повышение уровня политической активности молодежи в обществе свидетельствует о том, что государственные реформы осуществляются ускоренными темпами. В этом процессе прокладывается путь для роста политического мышления молодежи, политического сознания, укрепления отношений сотрудничества с институтом соседства в системе общественных отношений. Большое значение в деятельности молодежи нового Узбекистана как политически активной прослойки придается широким возможностям, создаваемым государством. Политическая активность узбекской молодежи сегодня, в основном в органах государственного управления, работая на руководящих должностях в микрорайонах, дает свои положительные результаты. Эти вопросы научно исследуются в статье на современный лад и исследуются с философской точки зрения.

Ключевые слова: молодежь, политическая активность, гражданское общество, институты гражданского общества, семья, образование, политические партии, социальные институты, СМИ, политическая культура.

JAMIYATDA YOSHLAR SIYOSIY FAOLIGINI OSHIRISHDA MAHALLA INSTITUTINING FALSAFIY MOHIYATI

Annotatsiya

Jamiyatda har bir fuqaroning siyosiy faolligini oshirishda mahalla deb atalgan ijtimoiy institut alohida o'ringa ega bo'lib, o'sib kelayotgan yoshlarning ongida falsafiy tafakkurni rivojlantirishda o'zining o'rniga ega. Maqolada yoshlarning siyosiy-huquqiy bilimlarni shakllantirishga ta'sir etuvchi falsafiy omillar, ularning siyosiy bilimi va ongi, siyosiy faolligini oshirish bo'yicha mahalla institutining falsafiy mohiyatiga doir taklif va g'oyalar keltirilgan.

Yoshlarning jamiyatda siyosiy faollik darajasining oshib borishi bu davlat islohotlarining jadallik bilan amalga oshib borayotganligini ko'rsatadi. Bunda jarayon yoshlarning siyosiy tafakkuri, siyosiy ongining o'sishiga, ijtimoiy munosabatlar tizimida mahalla instituti bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirishga keng yo'l ochadi. Yangi O'zbekistondagi yoshlarning siyosiy faol qatlam sifatida faoliyat olib borishida davlat tomonidan yaratilib berilayotgan keng imkoniyatlar muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. O'zbek yoshlari bugun siyosiy faollik assoida davlat boshqaruvida, mahallalardagi yetakchi lavozimlarda ishlashi o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Bu masalalar maqolada zamonaviy tarzda ilmiy tadqiq etilib, falsafiy tomondan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, siyosiy faollik, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, oila, ta'lim, siyosiy partiyalar, ijtimoiy institutlar, ommaviy axborot vositalari, siyosiy madaniyat.

Kirish. Yoshlarning faollik jarayonlarida o'ziga xos uning madaniy an'analari bilan bog'liq bo'ladi. Bu turli xususiyatlarga ega bo'lishi jamiyatning tarixiy sharoitlari va mamlakatlarda xilma-xil bo'lib, ularning madaniyatlarida,

ijtimoiy jarayonlardagi ideallarida turlicha davom etadi. Shu sababli, turli tarixiy davrlarda va mamlakat rivojlanishining muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarida yoshlarning faollik darajalari turlicha shakllanadi. Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar siyosiy sohada ko'zga ko'rinadigan o'zgarishlarga olib keldi. Natijada, siyosiy tuzilmalarning jamiyatdagi o'rni mustahkamlanishiga, yoshlarning turli siyosiy tadbirlardagi faolligi oshirishiga, ijtimoiy-siyosiy institutlarning yangilanishiga shart-sharoitlar yaratildi. Bunday o'zgarishlar jamiyatda yoshlarning ommaviy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy xulq-atvor modellarning normal huquqi yangi tuzilmalariga ta'sir ko'rsatdi. Buning asosida yoshlarda jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga qiziqishlarining ortishiga, mavjud davlat boshqaruvidagi o'zgarishlarda faol ishtirok etishiga olib keldi.

- Mazvuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Jamiyatning asosiy bug'ini hisoblangan yoshlarning siyosiy faolligini oshirish bugungi kunda islohotlarimizning markazida turganligi o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Bugun yurtimizda "yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, yoshlar sohasidagi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz mavqeini oshirish bo'yicha ko'shimcha choralar ko'rish, xorijda ta'lim olayotgan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarni samarali yo'lga ko'yishga doir vazifalarni"[1] yangi bosqichga olib chiqish belgilandi. Bu borada huqumatning qaror va farmonlarining chiqarilishi bevosita jamiyatdagi innovatsion jarayonlarga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazdi. Yosh avlodning ko'nikma va malakalarini shakllantirishda siyosiy faolligini oshirish, zamonaviy bilimlar doirasini kengaytirish muhim sanaladi. Yoshlarning muayyan jamiyat urf-odatlarini, psixologik moslashish mexanizmlarini, ijtimoiy normalar va qadriyatlarini o'rganadilar. Yoshlar jamiyatda ijtimoiy munosabatlar tizimiga o'zlarining siyosiy faolliklari orqali o'z ta'sirlarini singdirib borishlari jarayonlarida turli siyosiy institutlarning tizimiga aylangan mahallalarda o'zlarini namoyon etib boradilar. Mahalla ham jamiyatning ijtimoiy instituti sifatida har bir voyaga yetib kelayotgan yigit-qiz uchun ijtimoiy makon, kelajak uchun siyosiy faollikka zamin hozirlaydigan muhit hisoblanadi.

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Jamiyatimizda yoshlarning siyosiy faollashuvi uchun mahalla institutining roli katta bo'lib, undagi siyosiy o'zgarishlarda yoshlarning faol qatlamga aylanishi muhimdir. Zamonaviy sharoitda yoshlarning siyosiy faolligi sohasida mahalla institutining boshqaruvini eng maqbul va samarali faoliyat usullari, uslublari va vositalari, konseptual g'oyalar, ilmiy tahlil va ishlannmalar tizimiga asoslangan holda optimallashtirish zarur.

Yoshlarning siyosiy faolligi siyosiy madaniyat elementlari sifatida shaxsning ichki tuzilishiga o'tkazish yo'li bilan siyosiy qarashlar, yo'nalishlar va qadriyatlarni shakllantiradi, va shaxsning o'z maqsadlariga erishish qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi jamiyatda yoshlarning siyosiy faolligi o'z-o'zidan paydo bo'lmay, balki tashqi muhitdagi yangilanishlar, mahallalarga qaratilayotgan davlat tomonidan e'tiborning kuchayishi negizida saqlanib qoladi. Chunki mavjud siyosiy tizim doirasidagi yoshlarning siyosiy faolligi mahalla institutlarining murakkab va qarama-qarshi tadirijiyli natijasida rivojlanadi. Natijada, yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan siyosiy faollik mahalla institutining to'g'ri ta'siri va hokimiyatning taz'yiqsiz bu jarayonning samaradorligini oshirishda davlat hokimiyati organlarining zaif manfaatlar bilan belgilanadi. Zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar yoshlarning nafaqat siyosiy faolligi orqali mahalla institutiga ta'sirini o'zgartirishga, balki ular o'rtasidagi tizimli aloqalarni mustahkamlashga olib keladi.

Jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va mafkuraviy o'zgarishlari zamonaviy sharoitda hukumat tomonidan yoshlar siyosiy faolligini oshirishga va ularda faol fuqarolikni shakllantirishga xizmat qilib, ularni mamlakat siyosiy hayotiga jalb etish olib keladi. Mahalliy institutning yoshlarga ta'siri siyosiy tizimning barqarorlashishiga, davlat siyosatining barcha turlari va bosqichlarini anglab yetishiga yordam beradi. "Har bir inson hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday fikrlarni unib-o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir"[2].

Zamonaviy jamiyatda mahalla institutining faoliyatiga yoshlarni keng jalb etish, bu jarayonda turli qarama-qarshiliklarni bartaraf etib borish dolzarbdir. Bir tomondan, jamiyatni demokratlashtirish yoshlarning siyosiy rivojlanishi, ularning o'z-o'zini anglashi va siyosatda faol ishtirok etishi zaruratidan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, siyosiy faollik mahalla institutining samarasiz va konstruktiv faoliyatiga to'sqinlik qilishi, buning natijasida ko'pchilik yoshlarning siyosatga qiziqishining ortishi, siyosiy qarorlar qabul qilishda ishtirokining kengayishiga olib keladi.

Yoshlarning siyosiy faollik holatini tahlil qilish, ular jamiyatning eng katta qismi ekanligini ko'rsatadi. Binobarin, ayrim yoshlar o'z siyosati, siyosiy hayotga daxldorlik darajasi va zamonaviy jamiyatdagi turli g'oyaviy-siyosiy yo'nalishlarga yo'naltirilganligi bilan bir-biridan farq qiladi. Jamiyatda o'z-o'zini tashkil etish muhimligini anglash va o'z manfaatlarini himoya qila oladigan yoshlarning ko'payishi ularning siyosiy faollikka intilishiga keng yo'l ochadi. Yosh avlodning intiluvchanligi va mehr-oqibatli munosabatini innovatsion shakllardagi faollik bilan uyg'unlashtirish siyosiy faollikga ijobiy jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat jamiyatning ob'ektiv sharoitlariga, shuningdek, yoshlarning ijtimoiy-psixologik va belgilovchi xususiyatlariga ko'proq bog'liq bo'ladi [3].

Bugungi kunda ayrim davlatlardagi ijtimoiy-siyosiy tahdid, ularning noqulay demografik ahvoli, yoshlar hayot sifatining asosiy ko'rsatkichlariga bo'lgan norozilik jihatlari yoshlarning ijtimoiy intellektual resurs sifatidagi rolini sezilarli darajada pasaytirib yubormoqda. Yoshlarning siyosiy ongidagi o'zgarishlar, siyosiy tizimni himoya qilishga hissa qo'shayotgan ko'plab omillardan biri bu yoshlarning siyosiy faolligidir. Chunki hech bir tizim keng tarqalgan siyosiy bilimlar, qadriyatlar va qarashlarni rivojlantira olmasa, yetarli darajada integratsiya va barqarorlikka erishib bo'lmaydi. Mahalla instituti orqali siyosatningsub'ekti sifatida aynan siyosiy faollik yoshlarning muayyan ko'nikma va malakalarni egallashida, ular bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Zamonaviy sharoitda yoshlarning siyosiy faolligi nafaqat jamiyatdagi siyosiy madaniyat qadriyatlarini saqlab qolish va ularni yangi avlodlarga o'tkazish, balki jamiyatning yangi siyosiy madaniyatini o'zgartirish va yaratish, shaxsni siyosiy hayotning faol qismiga aylantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlarida yoshlarning siyosiy faolligi muammolari haqidagi konseptual qarashlar ijtimoiy institutlar ta'siriga bog'liqligi kam bo'lib, ijtimoiy-siyosiy jarayon sifatida talqin qilinishining asosi bo'ladi. Yosh avlodning siyosiy faolligi va fuqarolik holatiga oid muammolarni hal etish ikki yo'nalishga qarshi kurashda sodir bo'ladi. Bir tomondan, yoshlarning siyosiy rivojlanishi, siyosatda faol ishtirok etishi, o'z-o'zini anglashi uchun doimiy siyosiy ehtiyoj mavjud. Ikkinchidan, mahalla instituti orqali fuqarolikni rivojlantirishda yoshlarning konstruktiv faolligi mavjud. Bu bir qator ob'ektiv omillarning ta'siri bilan

bog'liq. Siyosiy faollikni oshiradigan jarayon ijtimoiy-siyosiy institutlardir. Ularning yoshlar siyosiy faolligini oshirishga ta'siri ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchidan, institutsional tuzilmalar jamiyat siyosiy faolligining institutsional jihatini mustaqil ravishda shakllantiradi, ikkinchidan, siyosiy normalar, qadriyatlar va siyosiy xulq-atvorni targ'ib qiladi. Davlat jamiyatning siyosiy hayotini tartibga soladi, qonunlar va huquqiy me'yorlarni belgilaydi, jamiyatdagi mavjud milliy g'oya esa mafkuraviy tamoyillar tizimini, qadriyatlar va ularni boyitish usullarini qo'llab-quvvatlaydi, fuqarolarning xulq-atvorini va ularning ongiga kirishini tartibga solish jarayonda ishtirok etadi. Mahalla instituti demokratiyaga sodiqlikni qaror toptirishda yoshlar tomonidan siyosiy hokimiyat va mafkura qadriyatlarini o'rganishga, qonun normalarini (huquqlarini) mukammal o'rganishga keng yo'l ochadi. Mahalla instituti bilan yoshlarning o'zaro hamkorligini tashkil etish orqali fuqarolarning tashabbuskorligi, faolligi va o'zini o'zi boshqarishdagi rolini kuchaytiradi. Bu jarayon jamiyat hayotining ta'siridan farq qiladi, chunki siyosiy hayotga o'z qarashlariga ega bo'lgan ko'plab yoshlar o'zlarining turlicha o'zaro munosabatlarini shakllantiradilar. Bunda mahalla instituti orqali yoshlarni siyosiy hayotga jalb qilish usullariga alohida e'tibor beriladi. Mahalla institutlari (oilalar, kichik guruhlalar, ta'lim, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, siyosiy ishtirok etish tajribasi va boshqalar kabi ta'sirni taqqoslash, davlatning siyosiy tizimini tashkil etish) yoshlar siyosiy faolligini oshirishda birlamchi ahamiyatga ega. Jamiyatning o'ziga xos siyosiy ijtimoiylashuvi mahalla institutlari rolining o'zgarishi bilan birga ijtimoiy integratsiyaning siyosiy samaradorligini vujudga keltiradi. Hozirgi kunda yoshlarning siyosiy faolligi shakllanishi ularning siyosiy bilim darajasini oshirish bilan bog'liq. Mahalla institutlarining shaxsiga ta'siri siyosiy institutlar tizimi samaradorligini oshirishda, ularning manfaatdorligini kuchaytirishga olib keladi.

Mahalla institutlari faoliyatiga yoshlarning keng jalb etilishi bevosita ijtimoiy jarayonlarni tartibga solishga, zamon bilan hamnafas bo'lib yashashga zarur taklif va tavsiyalarni berishda ham o'zining o'rniga ega. Mahalla institutining rivojlanib borishi jamiyatda yoshlar siyosiy faolligining oshishi bilan birga yangi qarashlarning keng ko'lamda amal qilishiga xizmat qiladi. Jamiyatda "siyosiy ongning rivojlanishi natijasida, yoshlarda siyosiy jo'shqinlik va siyosiy faollik oshib ketadi. Agar, u siyosiy madaniyat bilan bir vaqtda rivojlantirilmasa, muvozanat barham topsa, siyosiy ong yoshlardagi ana shu jo'shqinlik va faollikni mamlakatning siyosiy ziddiyatlar girdobiga tushib qolishiga olib kelish xavfini yuzaga keltiradi. Bunday o'ta xatarli jarayonning oldi olinmas ekan, yoshlarning siyosiy jo'shqinligi va siyosiy faolligidan turli siyosiy kuchlar o'zlarining siyosiy maqsadlarini amalga oshirishda, xususan, hokimiyatni qo'lga kiritishda foydalanishlari mumkin"[4]. Yoshlarning faolligi jamiyat sohalariidagi barcha jabhalar uchun ham aniq va maqsadga muvofiq o'zgarishlarni amalga oshirishda dolzarbdir. Yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan boyitish, ular

ongida yangi qadriyat va me'yorlarni shakllantirish va qabul qilish, mafkuraviy-siyosiy yo'nalish va munosabatlar, demokratik siyosiy madaniyat, yuksak saviya uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamisha kun tartibidagi masala sifatida qarab kelingan. Yoshlarning siyosiy faollik darajasi, davlat boshqaruvi ishtirokidagi harakatlari, ularning siyosiy faollik sohasida davlat tomonidan tartibga solinishi, siyosiy faollik jarayoniga jalb qilingan institutlar faoliyatida faol ishtirok etishi muhimdir. Jamiyatning ajralmas qismi bo'lgan yoshlarni yanada faollashtirish va rivojlantirish bugun islohotlarimizda katta imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Bu uning eng muhim resursidir, shuning uchun jamiyat va davlat tomonidan yoshlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu qiziqish, eng avvalo, yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini, demokratiya, bozor iqtisodiyoti, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ishtirok etish huquqi va huquq ustuvorligi masalasi bilan bog'liq.

Mahalla institutlari a'zolari aholining ayrim qatlamlari, jumladan, yoshlar bilan muloqotini yo'lga qo'yishi, ularning muammosiga birgalikda yechim topishiga intilishi zarur. Yoshlarning siyosiy faolligi nafaqat saylov kampaniyasida, balki mahallalardagi siyosiy jarayonlarni boshqarishda namoyon bo'lishi lozim. Ular ushbu jarayonlarning ishtirokchisi sifatida o'zlarini his qilishi, davlatning siyosiy hayotida ishtirok etishning ijtimoiy xulq-atvor tajribasiga ega bo'lish imkoniyatini vujudga keltiradi. Islohotlarning taqdiri, samarali natijalari va istiqboli aholi, ayniqsa, yoshlarning faolligiga, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligiga bog'liq. Zero, davlatning ijtimoiy-siyosiy salohiyatini belgilovchi omillardan biri bu mamlakat yosh avlodining faolligi, aql-zakovati va fidoyiligidir. Aytish joizki, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun eng avvalo yoshlar, ya'ni kelajak vorislari demokratik jarayonlar ishtirokchisi, demokratik qadriyatlarining faol himoyachisi bo'lishi zarur. Bu juda murakkab vazifa yoshlarning siyosiy-huquqiy madaniyatini izchil va qat'iy oshirishni taqozo etadi. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlashda yoshlar bilan "bir tilda" muloqot qila oladigan yosh siyosatchilar salohiyatidan foydalanish samarali bo'ladi. Yoshlarning siyosiy faolligini oshirish uchun ularda siyosiy faollik, o'zini o'zi boshqarish, o'z manfaatlarini himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarurdir.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yoshlarning siyosiy bilim va malakalari yangilanib borishi jamiyat uchun o'zining ijobiy jihatlari ega bo'lib, bu jarayonda har bir fuqaro islohotlarning mohiyatini chuqur anglab yetishi zarur. Bugungi kunda yoshlarning siyosiy faolligini barcha sohalardagi o'zgarishlarda ko'rishimiz, milliy ma'naviyatimiz bilan uzviy qadriyatlarini rivojlantirishda namoyon etishimiz lozim. Shunday ekan, har bir yosh avlod ongida davlat va jamiyatning ertangi istiqboli yo'lida samarali faoliyat olib borishi uchun zamonaviy mexanizmlar asosida falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish, milliy tafakkur tarzini yuksaltirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O'zbekiston, 2021. 261-бет.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 124 bet.
3. Yoshlarning siyosiy salohiyati va siyosiy faolligi. 2005 yil 02 iyun [Elektron resurs]. – Kirish rejimi: [http://bd.fom.ru/report/cat/humdrum/homefamily/molodezh/dd052222\(kirish_sanasi:25.10.2010\)](http://bd.fom.ru/report/cat/humdrum/homefamily/molodezh/dd052222(kirish_sanasi:25.10.2010)).
4. Отамуротов С. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантириш омиллари. –Тошкент: O'zbekiston, 2015. 87-бет.



Aqida DADASHEVA,
Toshkent davlat transport universiteti professori v.b, y.f.d. (DSc)
E-mail: aqida777@mail.ru

TDYU professor, y.f.d., Roziev Zafar Rayimovich

SUMMARY OF REFORMS CARRIED OUT IN THE NEW UZBEKISTAN – GOALS AND OBJECTIVES

Annotation

The importance of public opinion, public control and public demand in the perception by citizens of the expected positive results regarding the reforms carried out in the new Uzbekistan and their effective results in the future was emphasized.

Key words: Reforms, public opinion, public control, public investigation, legal framework, development, executive power, conflict, citizens' rights.

РЕЗЮМЕ РЕФОРМ, ПРОВЕДЕННЫХ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ – ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ

Аннотация

Подчеркнута важность общественного мнения, общественного контроля и общественного запроса в восприятии гражданами ожидаемых положительных результатов относительно проводимых в новом Узбекистане реформ и их эффективных результатов в будущем.

Ключевые слова: Реформы, общественное мнение, общественный контроль, общественное расследование, правовая база, развитие, исполнительная власть, конфликт, права граждан.

YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR SARHISOBI – MAQSAD VA VAZIFALARI

Annotatsiya

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar va ularni kelajakdagi samarali natija berish yuzasidan, kutilayotgan ijobiy natijalarni fuqarolar tomonidan qabul qilinishida jamoatchilik fikri, jamoatchilik nazorati, jamoatchilik surishtiruv muhimligini ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Islohotlar, jamoatchilik fikri, jamoatchilik nazorati, jamoatchilik surishtiruv, huquqiy asos, murojaatnoma, taraqqiyot, ijro hokimiyati, ziddiyat, fuqarolarning huquqlari.

Kirish. O‘zbekistonning hozirgi bosqichdagi milliy taraqqiyot andozasiga, strategik maqsadlariga, tadjiriy-islohiy siyosatiga mos keluvchi davlat boshqaruvi va hokimiyat institutlari, asosan, shakllanib bo‘ldi. Lekin takomillashuv jarayoni qizg‘in davom etmoqda va u muammolardan xoli emas. Muammolarning asosiy qismi bevosita davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarini erkinlashtirish bilan bog‘liq. Zotan, davlat boshqaruvi institutlarining funksional vazifalari, tizimi ham shundan dalolat beradi. Ya‘ni davlat boshqaruvi institutlari: davlatning ichki va tashqi xavfsizligini ta‘minlaydi.

Asosiy qonunda ko‘zda tutilgan maqsadlarga erishishda va konstitusiyaviy vazifalarni bajarishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, demokratik barqarorlikni ta‘minlaydi; fuqarolar huquq hamda erkinliklarini ta‘minlashda asosiy mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi va hokazo. Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan so‘ng boshlangan O‘zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida fuqarolik jamiyatining mavqeyi va roli ham o‘zgacha ma‘no kasb etmoqda. Hozirgi davrda u bajarayotgan funksiyalar ham davlat hokimiyati va boshqaruvida yuz berayotgan katta o‘zgarishlarga mos ravishda yangi sifat kasb etmoqda. 2022- yil dekabr oyida Prezident SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisi va O‘zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomada ijtimoiy munosabatlardagi barcha jabhalarni qamrab oluvchi yo‘nalishlarda bo‘lib o‘tadigan o‘zgarishlar, yangiliklar, modernizatsiya va islohotlar masalasiga to‘xtalib o‘tildi. Jamiyatning rivojlanishidagi fundamental burilishni ushbu Murojaatnomada quyidagicha ta‘riflab berdilar: «Jamiyat – islohotlar tashabbuskori» degan g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib borilishi e‘tirof etildi[1].

O‘tmishga nazar tashlasak, Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining mukammal jamiyat va davlatni barpo etish

haqidagi g‘oyalari diqqatga sazovor. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiy siyosiy-huquqiy ta‘limotining asosiy mazmuni - uning o‘z davri uchun orzu-xayol bo‘lgan mukammal (fazilatli) jamiyat va shahar-davlat barpo etish haqidagi qarashlari bilan bog‘liq. Forobiy tasavvuridagi mukammal jamiyat va davlatning oliy maqsadi - insonlarni tom ma‘noda baxt-saodatga erishuvi yo‘lidagi vazifalaridan kelib chiqadi. Shu bois, uning fikricha, barkamol shaharlar - fazilatli, mukammal ijtimoiy uyushma; o‘rta asr real voqeligidagi shaharlar esa - u yoki bu darajada johillik xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan “kichik jamiyat” bo‘lib, agarda shahar - davlat oqillik hamda ijtimoiy rivojlanishning zaruriy va haqiqiy qonunlarini anglashga asoslangan ekan, uni albatta takomillashtirish va fozil jamiyat, shahar - davlat bilan almashtirish zarur, deb hisoblaydi.

Jumladan, Forobiy adashganlar shahri, beqaror shahar hamda erkinlik va hamjamoatchilik shahri, aniqrog‘i, ulardagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarga ham baho berar ekan, xususan, u, adashganlar shahri aholisi foniy dunyoda baxt-saodatga erishish mumkinligiga ishonmaydi hamda bu shahar aholisining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida va diniy e‘tiqodlarida jiddiy chalkashliklar mavjudligi ularning halol yashashlariga xalaqit berishini aytib o‘tadi. Beqaror shahar aholisining nazariy qarashlari va amaliy ishlari esa avvalroq fozillar shahri aholisining qarashlari va ishlariga o‘xshash bo‘lgani, ammo keyinchalik bu yurtga begona g‘oyalar asta-sekin kirib kelgani bois uning aholisi maslagi butunlay o‘zgarib ketgani bilan xarakterlanadi [2].

Erkinlik va hamjamoatchilik shahrida esa yaxshilik va yomonlik (yovuzlik) bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi, bu yerda donishmandlar va notiqalar ham yashashi va juda munosib insonlar ham paydo bo‘lishi mumkinligi qayd etiladi.

Shu tariqa Forobiy o'z zamonasi shaharlari qator turlarini "johil shaharlar" tushunchasi ostida birlashtirar ekan, ularni mumkin qadar mukammallashtirish, takomillashtirish yo'li va usullarini izlaydi.

Forobiyning "adolat" tushunchasi borasidagi qarashlariga ko'ra, "Davlat va jamiyat hayotida adolat ahillik, birdamlik, hamjihatlik, tinchlik, osoyishtalikni barqaror qilsa, adolatsizlik – davlatdami, qabila, jamoadami, qo'shinlarga rahbarlikdami, qayerda bo'lsa ham guruhbozlikni, nizo-janjallarni, kelishmovchiliklarni, tartibsizlikni, o'zaro dushmanlikni keltirib chiqaradi" [3].

Forobiy ta'limotida "adolat" tushunchasi faqat umumdavlat fazilati sifatidagina emas, balki shaxslararo munosabatlarni, taqsimot va ayirboshlash sohalarini ham qamrab oluvchi ijtimoiy mezon sifatida e'tirof etiladi. Unga ko'ra, adolat - nafaqat mukammal davlat ijtimoiy-siyosiy tuzilmasini tartibga soluvchi hamda aholining baxt-saodatga erishuviga yordam beruvchi umumdavlat fazilati, balki har bir shaxsga, shaxslararo munosabatlarga, fuqarolar hamda davlat, aholi va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarga beriladigan iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy-ma'naviy tavsif hamdir. Shunday qilib, Forobiy mukammal jamiyat va davlat amal qilishiga ijtimoiy adolat tantanasi sifatida qaraydi. Zero, bunday davlat o'z fuqarolarining baxt-saodatga erishuvi yo'lida bir qator muhim vazifalarni amalga oshiradiki, ularning natijalarini baholashning asosiy mezon – adolatdir[4].

Hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar sarhisobi uchinchi renessans shakllanishiga, yetuk olimlar, yangiliklar, yangi ixtirolar ochilish yuzaga kelishga sabab bo'lishi kerak. Ammo ijobiy natijalarga erishish, yutuqlarni sarhisob qilish, yangiliklarni tatbiq etishda amaliy ijobiy natija bera olishiga tayanish qiyin. Buni tatbiq etishdan oldin ijtimoiy fikr, ijtimoiy so'rovnomalarni masalasiga ham e'tibor qaratilishi muhim.

"Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat" degan g'oyani Konstitusiyamiz va qonunlarimizga ham, kundalik hayotimizga ham chuqur singdirishimiz kerak. Hozirgi kundagi jiddiy sinovlar va bashorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o'tishga qodir bo'lgan milliy davlatchiligimiz asoslarini mustahkamlashimiz zarur-degan fikrni Prezident tomonidan Murojaatnomada ta'kidlanib o'tilgan.

Inson qadri davlat siyosati markazida e'tibor berilishi va ustuvor vazifa sifatida doimo bardavom bo'lishi, bosh

Qomusimizda kelajakda aks ettirishi, har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi sifatlari ta'lim olishi, oilasini tebratish uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilinishi e'tirof etilishi bu ijobiy. Ammo ushbu murojaatnomadagi taklif va tavsiyalar qonunda to'liq aks ettirish, uni ijro etishda qonundan chetga chiqmagan holda quyi tashkilotlarga ta'lim berish, qonun ustuvorligini ta'minlash masalasini amalga oshirilsagina maqsadga erisha olamiz.

Qonun chiqaruvchi hokimiyat, yaratiladigan qonunlarning tashabuskori sifatida maydonga chiqsa va uni nazorat qilish sifatida, parlament so'rovnomalari asosida xisobotlarni monitoring qilib tursa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Qonun texnikasiga to'liq amal qilib, nomuvofiq holatlar, qarama qarshilik, ziddiyatlar, qaytarilish holatlari olidini olinsa qonun amaliyotda kuchini ko'rsata oladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumiyashtirish holatiga e'tibor beradigan bo'lsak, ijro organlari faoliyatini nazorat qilish ijtimoiy faollik bilan bog'liq. Fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishining tabiiy va sun'iy omillari mavjud. Fuqaro ijtimoiylashuvi jarayonidan o'tar ekan, unda, tabiiy ravishda, siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga ishtiyoq vujudga keladi. Jamiyatdagi muammolarning ko'payishi esa, ijtimoiy faol fuqarolarni yanada shijoatli bo'lishga undaydi, kundalik muammolarni bartaraf etgan holda umumxalq ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarga e'tibor qaratishga va fikr-mulohazalar, taklif-tavsiyalar bilan qatnashishga jalb etadi. Ijro hokimiyati rahbarligida, ya'ni "yuqoridan", xalq vakillari ishtirokisiz amalga oshiriladigan demokratlashtirish hamisha ham jamiyat manfaatlarini ifodalamaydi. Ya'ni qonun amaliyotdagi kuchini va mexanizmga kirishish jarayoni sustlashib qolganligini e'tiborga oladi.

Bunday amaliyot salbiy oqibatlariga, jumladan, fuqarolarning o'z huquq va manfaatlarini to'liq anglamaslik, ijtimoiy hayotdagi yuzaga keladigan muammolarga qarshi kurashish ko'nikmasining shakllanmasligiga olib keladi. Davlat-jamiyat munosabatlarida yuzaga keladigan bunday murakkabliklarni bartaraf etishning samarali institutlaridan biri bo'lgan jamoatchilik nazorati ilmiy-nazariy yondashuvni va ushbu masalaga har doim e'tibor qaratib borilishini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi. 1993. -B. 163.
3. Platon. Gosudarstvo. Sochineniya v 3-x tomax. T.3. -M., Misl. 1971. -S. 125.
4. Muxitdinova F.A. Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy ta'limotlari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning siyosiy-huquqiy qarashlari asosida). Yurid. fan. doktori diss. -T., 2010. -B. 181-185.
5. Dadasheva A. Pravo svobodno poluchat i rasprostranyat informatsiyu–vajniy faktor neposredstvennogo obshestvennogo kontrolya nad deyatelnostyu organov gosudarstvennoy vlasti i upravleniya// Academic research in educational sciences, 2022.
6. Dadasheva A. Davlat xizmatini isloh qilish sharoitida hokimlar faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari // Academic research in educational sciences, 2022. TSTU Conference 1. 117-122 c
7. Dadasheva A. The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research 4 (01),16-19https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Go2mvgkAAAAJ&citation_for_view=Go2mvgkAAAAJ:qjMakFHDy7sC



UDK:002:651.37.015.3(075)

Marjona DJAVOTOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasida tadqiqotchisi

SamDChTI professori, f.f.d. G'aybullayev O. taqrizi asosida

THEORETICAL AND PHILOSOPHICAL BASIS OF ETHICAL-AESTHETIC CULTURE FORMATION IN LEADERSHIP ACTIVITY

Annotation

Revealing the place of moral-aesthetic factors, justifying these processes, finding problems in this field and their solutions is considered an important process in the formation of the culture of leading personnel in society. In the course of researching the topic, we paid attention to the fact that tasks such as the formation of proposals and recommendations on the effective use of ethical and aesthetic factors in the formation of the professional culture of leading personnel are one of the components of the state's personnel policy. In the new Uzbekistan, it is becoming more and more important to inculcate moral and aesthetic qualities in the formation of the professional culture of management personnel, and to study the factors that positively affect the development of management personnel from moral and aesthetic aspects. Summarizing, improving and enriching the national experience gathered in this field, as well as interpreting them in relation to the requirements of the current era, formulating new proposals and recommendations in order to eliminate problems in this field has become one of the bases of training and selection of modern leadership personnel.

Key words: state, moral culture, society, human, fair management, moral virtue, culture, management ethics, position, conscience, organization, skills.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭТИКО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ЛИДЕРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

Выявление места нравственно-эстетических факторов, обоснование этих процессов, поиск проблем в этой области и пути их решения считается важным процессом в формировании культуры руководящих кадров в обществе. В ходе исследования темы мы обратили внимание на то, что такие задачи, как формирование предложений и рекомендаций по эффективному использованию этико-эстетических факторов в формировании профессиональной культуры руководящих кадров, являются одной из составляющих кадровой политики государства. В новом Узбекистане все большее значение приобретает привитие нравственно-эстетических качеств в формировании профессиональной культуры управленческих кадров, изучение факторов, положительно влияющих на развитие управленческих кадров с нравственно-эстетической стороны. Обобщение, совершенствование и обогащение накопленного отечественного опыта в этой области, а также интерпретация его применительно к требованиям современной эпохи, формулирование новых предложений и рекомендаций с целью устранения проблем в этой области стало одной из основ обучения и подбор современных руководящих кадров.

Ключевые слова: государство, нравственная культура, общество, человек, справедливое управление, нравственная добродетель, культура, управленческая этика, позиция, совесть, организованность, навыки.

RAHBARLIK FAOLIYATIDA AXLOQIY-ESTETIK MADANIYAT SHAKLLANASHINING NAZARIY-FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya

Jamiyatda rahbar kadrlar madaniyatini shakllantirishda axloqiy-estetik omillarning o'rnini ochib berish, bu jarayonlarni asoslash, bu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish muhim jarayon sanaladi. Biz mavzuni tadqiq etish asnosida rahbar kadrlar kasbiy madaniyatni shakllantirishda axloqiy-estetik omillardan unumli foydalanishga doir takliflar va tavsiyalarni shakllantirish kabi vazifalar davlatning kadrlar siyosatini tarkibiy qismlaridan biri ekanligiga e'tibor qaratdik. Yangi O'zbekistonda rahbar kadrlar kasbiy madaniyatini shakllantirishda axloqiy-estetik fazilatlarini singdirib borish, rahbar kadrlarning axloqiy-estetik jihatlardan kamol topishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillarni o'rganish dalzarblashib bormoqda. Bu sohada to'plangan milliy tajribani umumlashtirish, takomillashtirish va boyitish, shuningdek, ularni hozirgi davr talablari bilan bog'liq holda talqin etish, bu sohadagi muammolarni bartaraf etish maqsadida yangi taklif va tavsiyalarni shakllantirish zamonaviy rahbar kadrlarni tayyorlash va tanlashning asoslaridan biriga aylandi.

Kalit so'zlar: davlat, axloqiy madaniyat, jamiyat, inson, adolatli boshqaruv, axloqiy fazilat, madaniyat, boshqaruv etikasi, lavozim, vijdon, tashkilot, ko'nikma.

Kirish. Jahon miqyosidagi boshqaruv modernizatsiyasi taraqqiyoti sog'lom muhit, o'zaro hamkorlik, yuqori ishlab chiqarish va yuqori natija bilan belgilanmoqda. Aynan shu yo'nalishdagi tub o'zgarishlarni amalga oshirishda rahbar shaxslarning samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy rahbar zimmasidagi vazifalarni bajarishda nafaqat axloqiy va estetik madaniyat, balki adolatli boshqaruv-

ni tashkil etish ham ustuvor o'rinni egallaydi. Bundan boshqaruv qoidalarning yangi darajaga ko'tarilganligi nafaqat siyosiy boshqaruv tizimida balki ayni paytda har bir rahbarning o'z kasbiga bo'lgan layoqatlilik belgisini ifoda etmoqda. "Bundan buyon davlat lavozimlariga faqat konkurs asosida ishga qabul qilinadi. Barcha rahbarlarning faoliyati samaradorlik ko'rsatgichlari asosida baholab boriladi. Har yili

500 nafar mutaxassisni eng nufuzli xorijiy oliygo'ha va markazlarda o'qitib kelamiz. Kelgusi ikki yilda har bir tuman va shahar hokimligiga respublika idoralarida yuqori lavozimlarda ishlagan, bilimli va tajribali kadrlar qo'yiladi"[1]. Umuman olganda, mamlakatimizda rahbar sub'ektini, axloqiy sifatlarini yuksaltirish, ularning adolatli boshqaruvni tashkil etish bilan bog'liq masalalarni o'rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmokda. Bu borada barcha sohalar uchun yetuk kadrlarni tayyorlash, davlat va jamiyat boshqaruvida masu'liyatli, fidoyi, axloqon pok vijdonli rahbarlarni tayyorlab voyaga yetkazish, estetik jihatdan har tomonlama yuksak muloqot madaniyatiga ega mutaxassislar tayyorlash uchun imkoiniyatlar yaratildi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). XX asr boshlarida rivojlangan mamlakatlarning davlat boshqaruvida doir ta'limotlarida axloqiy qadriyatlar ustuvorlik kasb etganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Germaniya, Fransiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Xitoy, Koreya va Yaponiya kabi qator davlatlarda rahbar kadrlarning salohiyati, rivojlanish va taraqqiyotning bosh mezon sifatida keng ko'lamli nazariy metodologik ta'limotlar vujudga keldi. Ular "davlat xizmatchisi"ning ob'ekti va predmetini tashkil etishga olib keldi. Bugun ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda ham "Davlat xizmatchisi" kategoriyasi asosida "Axloqiy kodeks", "Axloq normalari" boshqaruv sohasiga kirib keldi. Bunda shaxsning rahbarlik salohiyatini aniqlash, intellektual resurs sifatida uni jamiyat rivojiga tadbiiq etish texnologiyalari, joriy etish mexanizmlari yaratildi.

Jamiyatda ideal rahbar modeli deganda korxonada yoxud tashkilotni boshqarish uchun zarur bo'lgan bilim va malakalar, xislat va fazilatlar, iste'dod va qobiliyatlar yig'indisi nazarda tutiladi. Uning haqidagi ilmiy mulohaza va tasavvurlar bugunga kelib paydo bo'lgani yo'q. Ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixida bu borada ko'plab ahamiyatli g'oyalari ilgari surilgan. Masalan, buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy rahbar tabiatan 12 xislat va fazilatni o'zida mujassam qilmog'i zarur, deb hisoblaydi: 1) sog'lomlik; 2) farosatlik; 3) kuchli xotira; 4) zukkolik; 5) notiqlik; 6) ma'rifatga intilish; 7) nafsi jilovlash; 8) haqiqatni sevish; 9) oriyatlik; 10) mol-dunyo ketidan quvmaslik; 11) adolatparvarlik; 12) qat'iyatlik va jasurlik. Xuddi shunday fikrlarni Konfutsiy, Al-Movardiy, Ibn-al-Azroq, Al-G'azzoliy, Nizomul-mulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqalarning asarlarida uchratishimiz mumkin. G'arb falsafasining ko'plab yorqin vakillari merosida ham ana shunday fikr va mulohazalar keltiriladi.

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bugun dunyo xalqlari nihoyatda rang-barang, shu paytga qadar jahon hamjamiyati o'z boshidan kechirmagan yoki avval misli ko'rilmagan turli-tuman murakkab siyosiy jarayonlar ichida yashamoqda, rivojlanmoqda. Odamlarning siyosiy dunyoqarashi va madaniyati ham shunga muvofiq tarzda o'zgarimoqda. Bugun mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekiston uchun ham bunday o'zgarishlarning ta'sir o'gkazishi turgan gap. Shu jihatdan, mustaqillik yillarida davlat boshqaruvi organlari tubdan o'zgartirildi. Ular faoliyati mazmun-mohiyatida demokratik va bozor iqtisodi tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Jumladan, "davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsilari asosida amalga oshiradi" [2]. Mazkur tamoyilni ta'minlashda davlat organlari rahbarlari faoliyatida qator mas'uliyat va javobgarlikning belgilanishi, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, fuqarolik jamiyati asoslarining kengayib borishiga xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, ijtimoiy adolatning axloqiy-estetik kategoriyalar rivojidadagi o'rni katta, chunki u ko'pincha umumiy madaniyatning sinonimi deb ham tushuniladi. Zero, islohotlarning amalga oshirilishi ko'p jihatdan rahbar kadrlarning o'z ishiga bo'lgan munosabatiga

bog'liq.

Jamiyatda boshqaruv sohasida kadrlarning klassifikatsiyasi, profессиogrammasini ta'minlash, axloqiy-estetik madaniyatini yuksaltirish masalasi kun tartibiga chiqmoqda. "Professiogramma" lotincha so'z bo'lib, ma'lum bir kasb-korga oid belgilarni, norma va talablarni o'zi ichiga olgan tavsifnomani anglatadi. Mazkur belgilarga qarab, biz kasb-korning o'ziga xos ichki, immanent xususiyatlarini, funksional vazifalarini anglaymiz. Hech bir kasb-kor mazkur talablarsiz ratsional tashkil etilmaydi va uning kelajagi, transformatsion o'zgarishlari va hayot dinamikasiga muvofiqligi aniqlanmaydi. Professiogramma ijtimoiy talablarga muvofiq transformatsiyaga uchraydi va ushbu o'zgarishlar yangi kasb-korlarning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Shunday ekan, rahbarlar profессиogrammasida ham o'zgarishlar bo'lib turishi tabiiy holdir. Rahbar xodimlar profессиogrammasida ikki guruh funksiyalari mavjud. Ular, birinchisi, davlatning o'ziga xos bo'lgan funksiyalarini amalga oshirishda unga yordam berish. Uni umumiy kratologik funksiya deyish mumkin. Ikkinchisi, rahbar xodimlarning faoliyati xususiyatlari, ichki tartibi bilan bog'liq xususiy funksiyalari. Buni immanent funksiyalar deyish mumkin.

Axloqiy-estetik fazilatlarining rahbar faoliyatidadagi o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbar (forscha «yo'l-boshchi – sardor, yetakchi») – jamiyat, davlat, tashkilotga doimiy va hal qiluvchi ta'sirga ega bo'lgan shaxs. Rahbar ishning ko'zini biladigan, jamoa, soha manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritadigan boshqaruv xodimidir.

Rahbarlik aql-farosat, kuch-g'ayrat, izlanish va topqirlikni, o'z ustida tinmay ishlashni, tadbirkorlikni talab qiladi. Rahbar tushunchasining quyidagi jihatlari ahamiyatlidir:

1. Rahbar – ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shaxs.

2. Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadlarini belgilaydi.

3. Rahbar o'z sohasiga yangi g'oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi tadbirkor shaxs hisoblanadi.

4. Rahbar mehnati, ayni vaqtda, tadbirkorlikka asoslangan mashaqqatli faoliyatdir. Unga sarflangan kuch, mablag' ba'zan vaqtincha foyda emas, zarar keltirishi, muassasa foyda o'rniga zarar ham ko'rishi mumkin. U bunday holatlarni oldindan ko'ra olishi va bunga tayyor turishi, zarur bo'lganda, faoliyatini qayta boshlashi, o'zida bunga kuch-g'ayrat topa bilishi lozim.

Mamlakatimizda qator mutaxassislar tomonidan zamonaviy rahbarning ijtimoiy qiyofasi, uni shakllantirish yo'llari, turli ijtimoiy muammolarni hal qilishda rahbarning tutgan o'rni va shu kabi masalalarga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlar tayyorlandi [3]. Mazkur asarlar "rahbar" tushunchasiga ta'rif berishda, uning ijtimoiy qiyofasiga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlashda, bajarishi zarur bo'lgan funksiyalar haqidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishda nazariy-metodologik asos vazifasini o'taydi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirgi vaqtda fuqarolik jamiyati qurish yo'lida mustaqil mamlakatimizning buyuk kelajagi bevosita Sharq va G'arb dunyoqarashidadagi ijtimoiy-falsafiy fikr, dunyoviy madaniyat taraqqiyotidadagi o'rni va uning bugungi kunda rahbarning axloqiy-estetik ko'rinishi hamda jamiyat taraqqiyoti hamohangligi bilan uyg'un tarzda o'rganish har qachongidan dolzarbdir. Demak, zamonaviy rahbar axloqiy-estetik madaniyati asosiy hal qiluvchi xususiyat sifatida ilmiy-nazariy

jihattan tadqiq etish zarurati quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etdi:

- davlat va jamiyat boshqaruvida rahbar kadrlarning o'rni, ularning dunyoqarashiga axloqiy-estetik qadriyatlarini singdirishning davlat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotidagi ahamiyati, bu sohada paydo bo'lgan muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini topish;

- rahbar kadrlar kasbiy madaniyati axloqiy-estetik jihatlarning shakllanish darajasini aniqlash, shuningdek, bu jarayonda uning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi mezonlar tizimini ishlab chiqish;

- jamiyatda rahbar kadrlar faoliyati bilan bog'liq holdagi siyosiy ma'naviy jarayonlarni empirik ma'lumotlar asosida tahlil etish, rahbar axloqiy-estetik madaniyatining yuksakligini jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o'rni asoslab berish;

- rahbar kadrlarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda yuksak axloqiy-estetik fazilatlarining qaror topishi va rivojlanishini ta'minlovchi shart-sharoit va omillarni aniqlash, ushbu jihatlarning yanada takomillashuvi uchun imkoniyatlarni kengaytirishga doir tadqiqotlarni amalga oshirish;

- rahbar kadrlar dunyoqarashiga fikrlar xilma-xilligi, milliy qadriyatlarini singdirish, ularni rahbar kadrlarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida axloqiy me'yorlar sifatida qaror topishiga erishish boshqaruv rahbarlarida demokratik tafakkurlashning o'sishi hamda ular dunyoqarashidagi demokratik o'zgarishlarning rahbar kadrlar kasbiy madaniyatini shakllanishiga ta'sirini o'rganish;

- rahbar kadrlar axloqiy-estetik madaniyatini yuksaltirishning fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish jarayonida millatning integratsiyalashuv jarayonlarini ta'minlovchi omillardan biri ekanligini asoslash, shuningdek, bu jarayonning rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'l-yo'riqlari va usullarini shakllantirish;

- rahbar kadrlar axloqiy-estetik madaniyatining kasbiy faoliyatga ta'siri jarayonini empirik usullar yordamida o'rganish, jamiyat va davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;

- rahbar kadrlar kasbiy madaniyatini shakllantirishning muhim jihati bo'lgan axloqiy-estetik omillarni o'rni oshirish mamlakatda davlat boshqaruvini milliy manfaatlar asosida amalga oshirishni ta'minlashini asoslash e'zozlash rahbar kadrlar faoliyatining asosiy tamoyili ekanligi falsafiy fanlar nuqtai nazaridan tadqiq etish;

- rahbar kadrlarning kasbiy madaniyatini shakllantirishda uning axloqiy-estetik qadriyatlarini o'zlashtirish darajasini aniqlashning mezonlari tarixiy tajriba va zamonaviy amaliyot natijalarini umumlashtirish asosida bir tizimga keltirish;

- rahbar kadrlar kasbiy faoliyatini axloqiy-estetik qadriyatlar bilan bog'lash, bu jarayonda rahbar kadrlarning faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida milliy manfaatlar talablarini qo'yilishi, ularning Vatan ozodligi va obodligi yo'lidagi faoliyatlarining umumiy va mushtarak holda kechishini ta'minlashda ma'naviy omillarning o'rni

nechoqlik muhim ahamiyat kasb etishi ochib berish;

- rahbar kadrlar kasbiy madaniyatini shakllantirishda axloqiy-estetik omillardan keng foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarni aniqlanib, ulardan foydalanishga doir uslubiy va amaliy tavsiyalar hamda takliflar ishlab chiqish;

- rahbar kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash tizimida axloqiy-estetik qadriyatlarini o'zlashtirishni kengaytirish vositasida rahbar kadrlarni faoliyatini samarasini oshirish, ularning ish faoliyatlarini aholi manfaatlarini ifodalashlari asosida kechishini ta'minlashga doir nazariy tahlillar shakllantirish;

- rahbar kadrlar kasbiy madaniyatini shakllantirishda g'oyaviy-mafkuraviy omillar o'rni muhim ahamiyat kasb etishi asoslash;

- milliy istiqloq g'oyasining jamiyatda fuqarolarni jipslashtirish, ularning mehnat va ijtimoiy faolligini oshirishga qodir birlashtiruvchi kuch sifatidagi o'rni ochib berish [4].

Rahbar axloqiy-estetik madaniyatini o'rganishning bosh vazifasi, o'z ob'ektlariga doir barcha masalalarni ilmiy, amaliy va nazariy chuqur tekshirish vositasida:

-jamiyatga taraqqiyot uchun xizmat qiladigan muhim xulosalar taqdim etish;

-erishilgan natijalarning ahamiyati, tatbiq etilish davri, o'rni va maqsadlarini aniqlagan holda qo'llash uchun tavsiyalar, dasturlar, tizimlar, funksional mexanizmlar va boshqa shu kabilar taqdim etish, jamiyatga xizmat ko'rsatish samaradorligini asoslash;

-boshqarish, rahbar, rahbarlik va rahbariyat uchun kutiladigan yangi shart-sharoitlar, shu asosda ular uchun lozim bo'ladigan zaruriy xususiyatlar, tartiblar, qoidalar va boshqa talablarni bashorat qilish, doimiy ravishda eng ilg'or xususiyatlar, faoliyat ko'rinishlari va tashkiliy mexanizmlar hamda uslublarni kashf etib borishdan iboratdir[5].

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Bugungi kunda mutaxassislarning ideal rahbar modeli haqidagi ilmiy tasavvurlari o'zining turli-tumanligi bilan xarakterlanadi. Boshqaruvda adolat, tenglik hamda jamiyat ne'matlarini to'g'ri taqsimlash, mehnat va intellektual salohiyatlarni tabaqalashtirish kabi tamoyillarga qaratilgan qonunlarning amaliy natijasi siyosiy axloqni ta'minlovchi mezon bo'lib hisoblanadi [6]. Ya'ni, adolat davlat tizimining barcha bo'g'inlarida o'z ifodasini topishi rahbar faoliyatining axloqiylikni kafolatlaydi. Jamiyatda rahbar axloqiy-estetik madaniyati tor ma'noda amaliy jarayonlarda turli ijtimoiy guruhlarda faoliyat ko'rsatayotgan o'rni, holati va vazifasiga ko'ra amaldor axloqiy-estetik madaniyati qonuniyatlari va metodologiyasini ifoda etsada, amaldor va amaldorlik funksiyalari rahbar axloqi sohasiga xos yo'nalishlardan faqat bittasigina bo'la oladi. Chunki, rahbar axloqiy va estetik sifatlari birgina yoki bir necha amaldorga xos xususiyat bo'lmay, u amalda davlat darajasidagi tashkiliy tuzulmalarning ham yaxlit, bir butun axloqiy-estetik munosabatlarini ifodalaydi. Keng ma'noda esa tarix, hozirgi zamon va kelajak bilan bog'liq o'ziga doir amaliy va nazariy manbalarni ham qamrab oladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Тараққиётга – фақат машаққатли ва жасоратли меҳнат орқали эришилади. Янги Ўзбекистон газетаси, 2022 йил 21 декабрь. 2-бет.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Тошкент: Ўзбекистон. 2017. 7-бет.
3. Боймуродов Н. Раҳбар салоҳияти.- Т.: Янги аср авлоди, 2010. 42-бет.
4. Бошқарув маданияти ва раҳбар маънавияти // Н.Комилов ва бошқалар.- Т.:Академия, 2007. 14-бет.
5. Холов А. Бошқарув қарорлари қабул қилишнинг замонавий усуллари ва раҳбар масъулияти.- Т.: Тафаккур қаноти, 2017. 31-бет.
6. Юлдашева Н. Раҳбар хулқи, одоби ва самарали нутқ кўникмаларини ривожлантиришда педагогик-психологик муносабатларнинг аҳамияти // Замонавий таълим, 2015, №7.- 17-22-бетлар.



Kuanishbay DJUMABAYEV,
Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: djumabaevkuanishbay@gmail.com

Pedagogika fanlari nomzodi, professor A.T. Tilegenov tahriri ostida

USING CHALLENGE EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN TEACHING THE PYTHON PROGRAMMING LANGUAGE

Annotation

This article presents an analysis of the scientific and methodological work of scientists on problem-based learning technology and its capabilities, as well as suggestions and recommendations for using problem-based learning technology when teaching the Python programming language in secondary schools. Within the framework of this study, experimental work was carried out to determine the level of effectiveness of the proposed methodology, and the level of its effectiveness was proved using the Student-Fisher criterion.

Key words: Algorithm, programming, problem-based learning, Python, experiment-test, Student-Fisher

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКА ПРОГРАММИРОВАНИЯ PYTHON

Аннотация

В данной статье представлен анализ научно-методической работы ученых по технологии проблемного обучения и ее возможностей, а также предложения и рекомендации по использованию технологии проблемного обучения при обучении языку программирования Python в общеобразовательных школах. В рамках данного исследования была проведена экспериментальная работа по определению уровня эффективности предложенной методики, и уровень ее эффективности был доказан с использованием критерия Стьюдента-Фишера.

Ключевые слова: Алгоритм, программирование, проблемное обучение, Python, эксперимент-тест, Стьюдент-Фишер

PYTHON DASTURLASH TILINI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada muammoli ta'lim texnologiyasi va uning imkoniyatlariga oid olimlarning ilmiy-uslubiy ishlarini tahlili keltirilgan hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarida Python dasturlash tilini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan. Ushbu tadqiqot doirasida taklif etilgan metodikani samaradorlik darajasini aniqlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borilgan hamda uning samaradorlik darajasi Student-Fisher kritepiyasidan foydalanib isbotlangan.

Kalit so'zlar: Algoritm, dasturlash, muammoli ta'lim, Python, tajriba-sinov, Student-Fisher.

- **Kirish.** Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalari-ga raqamli texnologiyalarni joriy etish tizimini takomillashtirishda va zamonaviy dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqishda dasturlash tillari muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Dasturlash tillari yordamida ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlar bilan barcha sohani boshqaruv faoliyatini raqamlashtirishga va soddalashtirish hamda axborot texnologiyalariga oid turli amaliy muammolarni yechish imkoniyati mavjud [3]. Shu bois, uzluksiz ta'lim tizimida zamon talabiga mos dasturchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish lozim [6].

Uzluksiz ta'lim tizimida dasturlash sohasida zamon talablariga mos kadrlarni tayyorlash uchun, dastlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida dasturlash tillarining o'qitilishiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini, jumladan "Algoritmsh asoslari" va "Dasturlash asoslari" bo'limini o'qitishning shakli, usul va vositalarini hamda o'quvchilarning kreativ fikrlashini va kompetensiyalarini shakllantirishning yangicha yondashuvlarini joriy etish lozim [6].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini asosiy qismini tashkil etgan "Algoritmsh asoslari" va "Dasturlash asoslari" bo'limlarini o'qitish samaradorligini oshirishda hamda o'quvchilarning algoritmsh va dasturlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarni, xususan

muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi [7].

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bu borada, ya'ni muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish muammolari, muammoli vazifalarning tuzilishi va tasnifi, muammoli topshiriqning ta'lim oluvchini fikrlash jarayonlariga ta'sir, muammoli vaziyatni aniqlash va uni hosil qilish usullariga oid izlanishlar J.O.Tolipova, D.M.Maxmudova, A.V.Xutorskoy, V.T.Kudryavsev, V.Okonna, I.F.Xarlamov, M.I.Maxmutov, O.Y.Trifonova, G.V.Tixonova, G.M.Kodjasparova, L.P.Krivshenko, V.Okon, N.A.Demchenkova, YE.Y.Nikitina kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu olimlarning ta'dqiqotlarida muammoli ta'lim tushunchasiga turlicha ta'riflar va imkoniyatlariga oid fikr mulohazalar keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan olimlarni ilmiy-uslubiy ishlarining tahlilga ko'ra, muammoli ta'lim texnologiyasini umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini, Python dasturlash tilini o'qitish samaradorligini oshirishda muhim o'qitish texnologiyasi bo'lib xizmat qiladi, degan xulosaga keldik.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Muammoli ta'lim umumlashtirilgan bilimlarni – tushunchalar, qoidalar, qonunlar, sabab-oqibat va boshqa mantiqiy bog'liqliklarni o'zlashtirishda qo'llanilishi mumkin [8]. Bu o'quvchilarning bilim olish va qidiruv muammolarini hal qilish uchun zarur

bo'lgan aqliy faoliyat texnikasi va usullariga maxsus o'rgatish vazifasi hisoblanadi [10].

Shu bois, dasturlash tillari yordamida misol va masalalarni dasturlashni o'rgatishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish uchun quyidagi tamoyillarga tayanish lozim: o'quv jarayonini qurish mantig'i va o'rganilayotgan materialning mazmuni; o'quvchilarning o'quv-kognitiv faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish usullari; muammoli ta'lim jarayonini tashkil etish nazariyasi mazmuni va mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilishi; darsning tuzilishi va o'quvchilar faoliyati jarayoni hamda natijasi ustidan o'qituvchi nazorati shakli; o'qituvchining o'qitish shakllari, usullari va texnik vositalarini egallashi; o'qituvchining o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotda tizimli ravishda ijodiy qo'llashi.

Keltirilgan tamoyillar asosida o'quvchilarning dasturlashga oid ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muammoli o'qitishda to'liq ifodasini topadi. Bunda o'quvchilar nafaqat idrok etadilar, balki tuzadilar va ma'lumotlarni tugallangan shaklda esda saqlash, shuningdek, o'qituvchi bilan birgalikda yoki muammoli vaziyatda mavjud bilim, ko'nikma va malakalarga asoslangan mantiqiy-kognitiv vazifalar tizimini mustaqil ravishda hal qiladi [6].

Shunday qilib, dasturlash tillarida, jumladan Python dasturlash tilida misol va masalalarni dasturlashni o'rgatishda muammoli ta'limdan foydalanish orqali quyidagilarga erishiladi: o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi (qarama-qarshiliklar muammoli qiyin vaziyatdan chiqish yo'lini izlash haqida o'ylashga majbur qiladi); mustaqillik (muammoga mustaqil qarash, muammoli masalani, muammoli vaziyatni shakllantirish, yechim rejasini tanlashda mustaqillik va boshqalar); ijodiy fikrlashni

rivojlantirish (bilimlarni mustaqil qo'llash, harakat usullari, masalalarni dasturlash orqali mustaqil nostandart yechimni izlash); analitik (berilgan masala shartlarni tahlil qilish, mumkin bo'lgan yechimlarni ajratib olish) va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish (tanlangan yechimning to'g'riligini isbotlash) [6].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Python dasturlash tilida misol va masalalarni dasturlashni o'rgatishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishda o'zaro bog'liq muammoli vaziyatlarning paydo bo'lishiga olib keladigan va maktab o'quvchilari tomonidan tegishli o'qitish usullarini qo'llashni oldindan belgilab beradigan shunday texnika va o'qitish usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Shu bois, umumiy o'rta ta'lim maktablarida dasturlash tillarini, jumladan Python dasturlash tilida misol va masalalarni dasturlashda quyidagi darajadagi muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish lozim:

1. Mustaqil bo'lmagan faoliyat darajasi. Bu o'quvchilar o'qituvchining tushuntirishini idrok etishi, muammoli vaziyatda aqliy harakat modelini o'zlashtirishi, o'quvchining mustaqil ishni bajarishi, takror ishlab chiqarish xarakteridagi mashqlar, og'zaki takrorlash;

Dasturlashni o'rganishda mustaqil bo'lmagan faoliyat dasturlarning tayyor matnlarini o'rganishda namoyon bo'ladi. Masalan, for va While operatorlarini qo'llashni o'rganishda berilgan "Salom" jumlasini 5 marta chiqarish, berilgan ikkita oraliqda natural sonlarni ketma-ket chiqarish, yig'indisini hisoblash, toq sonlarni va kvadratini chiqarishni tayyor algoritmi misolini ko'rib chiqishdan boshlash mumkin. Buning uchun siz ushbu algoritmi amalga oshiradigan dasturni o'z ichiga olgan taqdimotli dasturlardan foydalanib taqdim etish maqsadga muvofiq sanaladi.

1-masala. "Salom" jumlasini 5 marta chiqarish dasturi.

For operatori yordamida	While operatori yordamida
for i in range(10): print("Salom")	i=1 while i<=10: print("Salom") i+=1

2-masala. 1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarni ekranga chiqaruvchi dastur.

For operatori yordamida	While operatori yordamida
for i in range(1,101,1): print(i)	i=1 while i<=100: print(i) i+=1

3-masala. 1 dan n gacha bo'lgan sonlarning yig'indisini hisoblovchi dastur.

For operatori yordamida	While operatori yordamida
n=int(input("n sonini kiriting: ")) s=0 for i in range(1,n+1,1): s=s+i print(s)	n=int(input("n sonini kiriting: ")) s=0 i=1 while i<=n: s=s+i i+=1 print(s)

4-masala. 1 dan 10 gacha bo'lgan toq sonlarni chiqaruvchi dastur tuzing.

For operatori yordamida	While operatori yordamida
for i in range(1,100,2): print(i)	i=1 while i<=100: if i%2!=0:print(i) i+=1

2. Yarim mustaqil faoliyat darajasi. Bunda oldingi bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash va o'qituvchi tomonidan qo'yilgan muammoni hal qilish yo'lini izlashda maktab o'quvchilarining ishtiroki bilan tavsiflanadi;

Bu daraja o'qituvchining ko'rsatmalari asosida yangi materialni o'rganish bilan tavsiflanadi. Bunday maslahatlar

1-masala. "Salom" jumlasini 5 marta chiqarish dasturi.

For operatori yordamida	While operatori yordamida
for i in range(10): ...	i=1 ... print("Hello World")

sifatida dastur shablonlaridan foydalanish mumkin. Masalan, for va While operatorlarini qo'llashni o'rganishda berilgan "Salom" jumlasini 5 marta chiqarish, berilgan ikkita oraliqda natural sonlarni ketma-ket chiqarish, yig'indisini hisoblash, toq sonlarni va kvadratini chiqarishda shablon berilishi mumkin.

	i+=1
2-masala. 1 dan 10 gacha bo'lgab sonlarni ekranga chiqaruvchi dastur.	
For operatori yordamida for i in ... print(i)	While operatori yordamida i=1 ... print(i) i+=1
3-masala. 1 dan n gacha bo'lgan sonlarning yig'indisini hisoblovchi dastur.	
For operatori yordamida n=int(input("n sonini kiriting: ")) s=0 for i in range(1,n+1,1): ... print(s)	While operatori yordamida n=int(input("n sonini kiriting: ")) s=0 i=1 while i<=n: ... print(s)
4-masala. 1 dan 10 gacha bo'lgan toq sonlarni chiqaruvchi dastur.	
For operatori yordamida ... range(1,100,2): print(i)	While operatori yordamida i=1 while i<=100: ... i+=1

3. Mustaqil faoliyat darajasi. Bunda reproduktiv-qidiruv tipidagi ishlarni bajarish, ya'ni o'quvchining o'zi darslik matni bo'yicha hal qiladi, oldingi bilimlarni yangi vaziyatda qo'llaydi, o'rtacha murakkablik darajasidagi masalalarni tuzadi, hal qiladi, gipotezalarni o'qituvchining yo'llanmasi bilan isbotlaydi va hokazo;

Bu daraja uchun o'quvchi oldiga o'qituvchi yordamisiz o'zi hal qilishi kerak bo'lgan vazifa qo'yish kerak. Masalan, for va While operatorlari yordamida berilgan

oraliqda juft sonlari yig'indisini hisoblash, toq va juft sonlarning ayirmasini hisoblash.

4. Ijodiy faoliyat darajasi. Bunda ijodiy tasavvurni, mantiqiy tahlil va farazni talab qiladigan mustaqil ishlarni bajarish, ta'lim muammosini hal qilishning yangi usulini topish, mustaqil isbotlash, mustaqil xulosalar chiqarish. Maslan, berilgan dastur kodidan foydalanib masalani shartini tuzish.

n=int(input("n sonini kiriting: ")) m=int(input("m sonini kiriting: ")) for i in range(n,m+1,1): if i%5==0:print(i)	n=int(input("n sonini kiriting: ")) m=int(input("m sonini kiriting: ")) while n<=m: if n%5==0:print(n) n+=1
--	---

Shu bilan birga ijodiy faoliyat darajasiga olimpiada masalalarni yechishni, turli amaliy loyihalar tayyorlashni misol sifatida keltirish mumkin. Bu darajada o'z oldiga vazifa qo'yish kerak, uni hal qilishda o'quvchi nafaqat mustaqil ishlaydi, balki bunga ijodiy yondashadi. Shu kabi usullardan Python dasturlash tilini o'rgatishda barcha mavzularni o'rgatishda foydalanish mumkin.

- **Tahlil va natijalar.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilariga Python dasturlash tilida misol va masalalarni dasturlashni o'rgatishda muammoli ta'lim texnologiyasini samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahridagi 34, 17, Beruniy tumanidagi 66, Xujayli tumanidagi 16 umumiy o'rta ta'lim maktablari tanlab olindi. Bunda jami 378 nafar 9-sinf o'quvchilari jalb etilib, ular tajriba va nazorat sinflariga ajratildi. Tajriba sinfiga tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodika tavsiya etildi. Nazorta sinfiga esa

an'anaviy ravishda tashkil etildi. Ushbu tajriba-sinovga jalb etilgan o'quvchilarning natijalari tahlil etilib, ishonchligini tekshirish maqsadida Student-Fisher kritepiyasi asosida matematik-statistik tahlil etildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o'rta qiymatlar, tarqoqlik koeffitsiyentlarini formuladan fodalaniildi. Hisoblash natijasiga ko'ra, tajriba sinfiga o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorta sinfiga nisbatan yuqori ekanligi, ya'ni 9,2 % ga oshganligi ma'lum bo'ldi.

- **Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini, jumladan Python dasturlash tilida misol va masalalarni dasturlashni o'quvchilarga o'rgatishda muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish muhim sanaladi. Chunki muammoli ta'lim texnologiyasi yordamida o'quvchilarni dasturlashga bo'lgan qiziqishini oshirishga, kognitiv fikrlashini rivojlantirishga va kompetensiyalarini shakllantirishga erishiladi.

ADABIYOTLAR

- Газейкина А.И. Обучение школьников 5-7-х классов объектно-ориентированному подходу к созданию и использованию средств информационных технологий: Дис. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2004. – 164 с.
- Жемчужников Д.Г. Методика обучения программированию, основанная на создании школьниками динамических компьютерных игр: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2013. – 25 с.
- Мысин М.Н. Построение содержания обучения программированию в старших классах общеобразовательной школы на основе информационного моделирования // Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Самара, 1999. – 27 с.

4. Лебедева Т.Н. Формирование алгоритмического мышления школьников в процессе обучения рекурсивным алгоритмам в профильных классах средней общеобразовательной школы // Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2005. – 24 с.
5. Гаврилова И.В. Трит-методика решения алгоритмических задач на уроках информатики в основной школе // Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Красноярск, 2019. – 24 с.
6. Джумабаев Қ.Н. умумий ўрта таълим мактабларида дастурлаш технологияларини ўқитиш самарадорлигини оширишда муаммоли таълим технологиясини имкониятлари // Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў илмий-методикалык журнали. – Нукус, 2022. – № 4. – Б. 101–105.
7. Djumabaev K.N. Methods of formation of students 'programming competences // Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects. 2022. – P. 77-78. <http://www.openconference.us>
8. Толипова Ж. Биологияни ўқитишда педагогик технологиялар // Дарслик. – Т., 2011. – 159 б.
9. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. – М.: Изд-во МГУ, 2003. – 416 с.
10. Махмудова Д.М. Муаммоли таълим технологиялари асосида талабаларнинг креатив фаолиятини ривожлантириш методикаси // Пед. фан. д-ри (DSc) ... дис автореф. – Чирчик, 2022. – 58 с.
11. Ильина Т.Ю. Проблемное обучение информатике младших школьников // Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 1995. – 15 с.
12. Прусакова О.А. учебно-методическое обеспечение проблемного обучения информационным технологиям в основной школе // Автореф. дис. канд. пед. наук. –М., 2012. – 23 с.



UDK:323.1.(575.1)

Axmadjon DJURAYEV,
Samarqand davlat chet tillar instituti, Gumanitar fanlar
va axborot texnologiyalari kafedrasini tadqiqotchisi
SamDChTI professori, f.f.d. G'aybullayev O. taqrizi asosida

PHILOSOPHICAL ASPECTS OF ENHANCEMENT OF ROAD SAFETY CULTURE IN THE MIND OF YOUTH IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

Life itself shows that the process of social development is enriching the minds of young people in the society with different views, increasing their interest in learning modern mechanisms of struggle for living. Instilling the culture of traffic safety in the minds of students and young people in the educational activities carried out in educational institutions is becoming more and more important day by day. Increasing the road safety culture of young people in the preschool and school education system directly contributes to the reduction of accidents related to them on the roads. In the article, special attention is paid to the philosophical observation of issues related to the field based on the creativity of these processes in the minds of students. The reforms of the new Uzbekistan in the development of activities aimed at regulating conditions compatible with traffic safety have been revealed to the minds of young people on the basis of educational work in educational institutions. In it, the educational institutions of our republic have been scientifically researched to teach socio-philosophical aspects of road traffic in the minds of students of our republic, to approach reality with innovations in the changes in society.

Key words: traffic safety culture, educational institution, youth, student, school, public control, physical observation, spirituality, morality

ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ КУЛЬТУРЫ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ В МЫСЛЕ МОЛОДЕЖИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация

Сама жизнь показывает, что процесс общественного развития обогащает сознание молодых людей в обществе иными взглядами, повышает их интерес к познанию современных механизмов борьбы за существование. Привитие культуры безопасности дорожного движения в сознании студентов и молодежи в воспитательной деятельности, проводимой в образовательных учреждениях, с каждым днем приобретает все большее значение. Повышение культуры безопасности дорожного движения молодежи в системе дошкольного и школьного образования напрямую способствует снижению связанных с ними аварий на дорогах. В статье особое внимание уделяется философскому наблюдению за вопросами, относящимися к данной области, на основе творчества этих процессов в сознании учащихся. Реформы нового Узбекистана в развитии деятельности, направленной на регулирование условий, совместимых с безопасностью дорожного движения, раскрываются перед сознанием молодежи на основе воспитательной работы в образовательных учреждениях. В нем образовательными учреждениями нашей республики проведены научно-исследовательские работы по преподаванию социально-философских аспектов дорожного движения в сознании школьников нашей республики, с новаторством приблизить реальность к изменениям в обществе.

Ключевые слова: культура безопасности дорожного движения, образовательное учреждение, молодежь, ученик, школа, общественный контроль, физическое наблюдение, духовность, нравственность

TA'LIM MUASSASALARIDA YOSHLAR ONGIDA YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGI MADANIYATINI OSHIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI

Annotatsiya

Ijtimoiy taraqqiyot jarayoni jamiyatda yoshlar ongining turli qarashlar bilan boyib borayotganligini, ularda yashash uchun kurashning zamonaviy mexanizmlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirayotganligini hayotning o'zi ko'rsatib bermoqda. Bugun ta'lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy faoliyatda o'quvchi-yoshlarning ongiga yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini singdirib borish kundan-kunga dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Makatagacha va maktab ta'limi tizimida yoshlarning yo'l harakati xavfsizligi madaniyati oshirib borish bevosita yo'llarda ular bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning kamayishiga xizmat qiladi. Maqolada mazkur jarayonlarning o'quvchilar ongida kreativlik asosida sohaga doir masalalarni falsafiy mushohada etishga alohida e'tibor qaratilgan. Yoshlarning ongiga yo'l harakati xavfsizligi bilan uyg'un holatlarni tartibga solishga qaratilgan faoliyat rivojlantirishda yangi O'zbekistonning islohotlari ta'lim maskanlaridagi tarbiyaviy ishlar negizida ochib berilgan. Unda respublikamiz ta'lim muassasalari o'quvchi-yoshlari ongida yo'llarda harakatlanishga doir ijtimoiy-falsafiy jihatlarni o'rgatishga, jamiyatdagi o'zgarishlarda innovatsiyalar bilan voqelikka yondashish kabilar ilmiy tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: yo'l harakati xavfsizligi madaniyati, ta'lim muassasasi, yoshlar, o'quvchi, maktab, jamoatchilik nazorati, falsafiy mushohada, ma'naviyat, axloq.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar bevosita yoshlarning kelajakda kreativ tafakkur egasi bo'lib yetishishlari, zamonaviy bilimlarni egallashi asosida innovatsiyalar yaratish borasidagi ijtimoiy ongi va falsafiy qarashlarini yuksaltirishga qaratilgan. Biz

yoshlarning barcha fanlardan dastlabki tushunchalarni ta'lim maskanlarida egallashlari uchun yurtimizda maktab ta'limining bepul amalga oshirilishi jarayonlarini qonun doirasida mustahkamlab qo'yganmiz. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida "Har kim

bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi" [1], deyilgan. Bugun maktablarga farzandlarimizga ta'lim berish jarayonida barcha fanlar qatori yo'l harakati xavfsizligi qoidalari bo'yicha ham o'quvchilarda ko'nikmalarni shakllantirib borishimiz lozim. O'quvchilarda turli fanlarni bilishga bo'lgan ehtiyoj singari yo'l harakati qoidalari va xavfsizligi madaniyatini yuzasidan bilimlarini oshirib borishimiz o'zining sohaga doir ishlar rivojida ijobiy natijasini beradi. Chunki har bir o'sib kelayotgan yigit-qizlar kundalik turmushining ajralmas bug'iniga aylanib ketgan yo'llarda xavfsizlik xulq-atvor qoidalariga amal qilishi, yo'l harakati ko'nikmalarini va odatlarini oshirib borishlari lozim. O'quvchilarga yo'l harakati xavfsizligi haqida bilimlar berib kelsak, ularga bu egallagan bilimlari umr davomida, har doim ongli ijtimoiy faoliyat olib borishida kerak bo'ladi.

- Mazvuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Jamiyatda yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, jumladan ta'lim maskanlarida har bir ta'lim oluvchining shaxsiy xavfsizligiga g'amxo'rlik masalasi hali ongli va zarur tabiiy ijtimoiy ehtiyoj sifatida fuqarolar tomonidan to'liq anglab yetilmagan jarayon hisoblanadi. Maktab o'quvchilarida ongli ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bu yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini axloqiy xulq-atvor me'yorlari bilan parallel tarbiyalashdir. Maktab o'quvchilari uchun ushbu me'yor va xulq-atvor qoidalarini shakllantirish maktabning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan xavfsizlik madaniyatini tarbiyalashning asosidir. Ushbu vazifaning alohida murakkabligini shundaki, yo'llar bilan bog'liq masalalarning yechimi tashqi va ichki to'siqlarni yengib o'tish, bolada mantiqiy tafakkur qilishni kuchaytirish, voqelikka nisbatan maktab o'qituvchilarining xohish-irodasi, ularning maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini xavfsizlik bilan bog'lashdir. Faqat shu tarzda maktab o'quvchisining xulq-atvori yo'l harakati xavfsizligi madaniyatiga yo'naltiriladi va jamiyat uchun xavfsizlik muhitini vujudga keltiradi. Maktablarda yo'l harakati qoidalarini o'quvchilarga doimiy ravishda tushuntirib borishda mutaxassislar jarayonini nafaqat tipik, balki ekstremal vaziyatlari haqida ham ma'lumot berib borishlari lozim.

Mazkur mavzu bugungi kunda ko'plab tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib, uning falsafiy jihatlari deyarli ilmiy tadqiq etilmagan. Yo'llarda xarakat xavfsizligini tadqiq etishga doir Q.H.Azizov, S.M.Qodirov, R.N.Dimetov, N.F.Muhi tinov, B.Sh.Umarov, X.M.Mamatov, J.R.Qulmuhamedovlar o'zlarining bir qator ilmiy tadqiqotlarini olib borganlar. Ularning izlanishlari asosan texnik yo'nalishdagi jarayonlarni qamrab olgan bo'lib, ko'p-raq transport vositalarining yo'llarda harakatlanish masalalari yoritilgan. Lekin yo'l harakati xavfsizligi madaniyatiga odir ilmiy tadqiqotlar ma'naviy va ijtimoiy tomondan respublikamiz olimlari tomonidan deyarli falsafiy tarzda ochib berilmagan.

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Barcha maktablarda ham o'quvchilarning yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini bir xil darajada shakllantirish juda qiyin vazifa bo'lib, mazkur faoliyatni amalga oshirishda soha mutaxassislarining vatanparvarligi muhim ahamiyat kasb etadi. "Yo'l harakati qoidalari, belgilari hamda qoida buzganlarga nisbatan ko'riladigan chora-tadbirlarning o'zi bilan ko'zlangan maqsadga yetishish qiyin. Faqat yo'l nazoratchilari sonini kupaytirishning o'zi yo'l harakatini tartibga solish uchun kifoya qilmaydi. Balki bu borada ta'lim-tarbiya va tushuntirish ishlarining olib borilishi, yo'l harakati qoidalariga kishilarning ongli ravishda rioya qilishlarga, boshqacha qilib aytganda, yo'l harakati axloq-odob, madaniyat darajasiga olib chiqishga erishish lozim"[2]. Bugun bizning jamiyatimizda bu vazifani faol amalga oshirish yo'lida emas, balki uni hal etish zarurligini uzluksiz ommaviy targ'ibot qilish borasida kurash

bor kuch-g'ayratimizni ishga solishimiz darkor. Ko'plab mutaxassislar yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini jamiyat uchun zarurligini gapirishadi, ayrimlari hatto maktab o'quvchilarini yo'l harakati qoidalarining talablarini yodlashga o'rgatadilar va kamroq darajada ularni yo'lida qo'llashadi. Shu asosda aynan u maktab o'quvchilarini ilhomlantiradigan xavfli bayonotlar kelib chiqdi: masalan, "Qizil - to'xtang! Yashil - ket! Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda ongli ravishda harakatlanish intizomini tarbiyalash, uning qoidalariga qat'iy rioya qilish muhim o'rin tutadi.

Jamiyatda yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini o'rganish jarayonini yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini rivojlantirishdan ajratib bo'lmaydi. Shu bilan birga, tarbiyaning maqsadi har qanday maxsus, oldindan belgilab qo'yilgan qarashlarni o'zlashtirib olish emas, balki o'z xatti-harakati va qilmishini mustaqil belgilash qobiliyatini rivojlantirishdir. Bu maqsad muayyan xulq-atvorni shakllantirish emas, balki adekvat xatti-harakatni o'z-o'zini tartibga solish qobiliyatini rivojlantirishdir. Ushbu maqsadlar shaxsiyatni rivojlantirish zarurligini uning hayotning turli sohalarda (shu jumladan, transportda) kognitiv va amaliy muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirish sifatida tushunishga asoslanadi. Belgilangan yondashuv o'quv maqsadlarini belgilashga ham tegishli bo'lib, uni ta'limning alohida holati, uning usullaridan biri sifatida ko'rib chiqish mumkin.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Maktablarda o'quvchilarga yo'l harakati xavfsizligi madaniyatining barcha elementlarini o'rgatish uchun bugun zamonaviy shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun maktablarda yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini maxsus o'rganish uchun ma'lum fan sohalari bilan parallel holda mazkur soha bilimlarini ham o'quvchilarga singdirib borish muammosini hal qilish lozim. Bugun biz yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini boshqa fanlardan ustun qo'yish evaziga emas, balki ongli ravishda ijtimoiy muhitdagi zaruriy jarayon sifatida yoshlarga singdirib borishimiz, aniq dasturlar bilan ishlashimiz kerak. Chunki so'nggi yillarda esa mamlakatimizda maktab o'quvchilari ishtirokidagi baxtsiz hodisalarning ortishi natijasida yo'l-transport vositalari orqali avriya holatlarining ko'payishi bilan bog'liq xavotirli jihatlari jamiyatimizni, ayniqsa, ot-onalar va maktab rahbariyatini bezovta qilishi katta muammolarga sabab bo'lmoqda. Ammo, ta'lim muassasalarida yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini o'quvchilar ongiga singdirishda, buni ijtimoiy hayot xavfsizligi bilan uyg'unligiga e'tibor qaratish muhim sanaladi. O'quvchilarda yo'l harakati xavfsizligiga doir odatiy kunikmalarni shakllantirish, ularning hayoti uchun xavfsizlik muhitini yaratishga xizmat qiladigan huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirish bevosita doimiy bo'lib turadigan xatti-harakatlar, turli yo'l belgilariga doir harakatli namunalar, odat va mahoratni oshirish darslarini tashkil etishga bog'liq.

Yo'llarda harakatlanishda har bir fuqaroning, jumladan, haydovchi va piyodaning bir-biriga xushmuomalalik bilan munosabat bildirishi va aql bilan yo'lida yuzaga keladigan turli vaziyatlardan chiqishi muhim sanaladi. Bu yerda eng yaxshi yordamchi bu insonning yuksak axloqiy ongi va umumiy xulq-atvor qoidalarini bilish katta ahamiyatga ega. Yo'l harakati qoidalariga rioya qilish orqali har bir shaxs avvalo o'zining xavfsizligini, qolaversa, o'zining xulq-atvor madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan xushmuomalalik obodini namoyon etadi. Xushmuomala odam har qanday vaziyatda boshqalarga sabr qiladi, boshqalarga e'tibor beradi, diqqatli va imkoniyat darajada yordam beradi. Boshqalar nima qilishni niyat qilganini bilmaguncha harakat qilmaydi. Shu boisdan yo'llarda haraktalanishda atrof-muhitga moslashishga, boshqalarga xavf tug'dirmaslikka intiladi. Aslida insonning

odatiy faoliyat va xulq-atvori, atrof-muhitdagi sharoitlarga moslashishi, voqelikni ongli ravishda o'zlashtirishi va o'zgartirishga intilish qobiliyati jamiyatdagi mavjud tizimning faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Bugun ta'lim muassasalari faoliyatiga yo'llardagi holatlar halaqit bermasligi uchun biz xatti-harakatlarimizdagi turli dinamik stereotiplardan qochib, harakatchan bo'lishimiz, turli sharoitlarda o'zgarishlarga tayyor turishimiz kerak. Insonning muayyan hayotiy vaziyatlarida, shu jumladan yo'llarda qiyinchiliklarsiz harakatlanishiga imkon beradigan shart-sharoitlarni yaratish lozim. Hokimiyat vakillari va tegishli mutasaddilar "tezkor vaziyatni hisobga olgan holda patrul-post, yo'l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarining qo'shimcha yo'nalishlarga joylashtirish"[3] chora-tadbirlari va shayligiga uzluksiz e'tibor berib borish o'zining ijobiy samarasini beradi.

Insonning xatti-harakatlari bevosita uning ichki dunyosini aks ettiradi. Xushmuomalalik insonning umumiy rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq. Ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar qatorida madaniy yo'l harakati ishtirokchisini tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Bunda sohaga mas'ul xodimlarning fidoyiligi, joylardagi vaziyatni nazorat qilib borish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim tizimida yo'l harakati xavfsizligini o'quvchilarga o'rgatishdan maqsad ularga yo'l harakati qoidalarini o'rgatish orqali yo'l harakati ishtirokchisining xulq-atvoriga, ma'naviy-falsafiy tafakkuriga ta'sir qilishdir. O'quvchida tashqi muhitga va tevarak-atrofdagi vaziyatga taqlidchanlik qanchalik tez anglab yetiladigan bo'lsa, turli baxtsiz hodisalarning soni kamayishiga, insonlarda yo'l harakati xavfsizligi madaniyati oshirishga shart-sharoit yaratamiz. Yoshlar ongiga yo'lda yurganda ta'sir qilish vositalarini ko'paytirish, aniq yo'l harakati qoidalarini bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi, faoliyatida o'z sohasiga, urf-odatlariga, atrof-muhitga va insonning rivojlanishiga bog'liq bo'lgan ko'plab omillarga e'tiborli bo'lish lozim. Bugungi kunda jamiyatimizda, ta'lim tizimi bilan parallel olib boriladigan o'qitish o'quvchilar o'rtasida baxtsiz hodisalar sonining kamaytirishiga va yo'l harakati xavfsizligi madaniyatining oshishiga xizmat qiladi. Yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini ta'minlash yo'l harakati qatnashchisini sohaga doir bilimlar bilan malakali qilib o'qitish va har tomonlama zukko qilib borish jarayonida vujudga keladi. Bunday yo'l yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini ta'minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish ijobiy samara beradi.

1. Tizimli ta'lim mexanizmi. Yo'llarda harakat xavfsizligi ta'minlashda tizimli ta'lim mexanizmini ishlab chiqish lozim. Bunda sohadagi xilma-xil muvaffaqiyat-sizliklarning oldi olinadi. Ta'limning eng muhim yo'nalishlari negizida o'quvchiga singdirib boriladigan yo'l harakati qoidalarini bolalikning xavfsiz xulq-atvoriga, shu jumladan yo'lda xatti-harakatlarga ongli munosabatda bo'lishiga olib keladi.

2. Maqsadga yo'naltirilgan mexanizm. O'quvchilarga yo'l harakati qoidalarini o'rgatish alohida-alohida emas, maqsadli va izchil amalga oshirilishi kerak. Ular turli - treninglar davomida xavfsiz harakatlanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak. O'quvchilarda yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini tarbiyalashda sohaga doir rang-barang mavzular tanlanishi inson hayotida, maktab va barcha ta'lim muassasalari faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega.

3. Jamoatchilik nazorati mexanizmi. Bunda yo'l harakati xavfsizligi madaniyati jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan ommaviy ravishda nazoratga olinishi ko'zda tutiladi. Uning muhim bo'g'ini sifatida yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini keng masshtabda fuqarolar ongida

huquqiy jihatdan ifodalash, inson qadrining ulug'ligini singdirishdan iborat. Jamoatchilikda yo'l harakati xavfsizlik madaniyatini tarbiyalash yangi asr maktablarining eng dolzarb va mas'uliyatli vazifasidir. Uni hal etishda kechikish odamning hayoti va sog'lig'iga doimo xavf-xatar tahdid solib turishi, odamlarning unga nisbatan ishonchsizlik holatini keltirib chiqaradi. Ta'lim tizimida yo'llar bilan bog'liq aniq muammolarni hal qilishga yordam beradigan, maktabning amaliy ehtiyojlariga xizmat qiladigan, voqelikni real idrok etadigan zamonaviy kitoblar, o'quv adabiyotlari yetarli deb bo'lmaydi. Bu usul nafaqat o'quvchining bilimlarini kengaytiradi, balki o'quvchilarni ijtimoiy-falsafiy tarbiyalash va jamiyatda yo'l harakati xavfsizligi madaniyati ko'nikmalarini egallash uchun samarali sharoitlarni ta'minlaydigan yuqori darajadagi malakali pedagoglarga bo'lgan ehtiyojni ham keltirib chiqaradi.

O'quvchilarga yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini o'rgatishda yo'l harakati qoidalarini o'rganish bilan bir qatorda o'quvchilar bilan sinfdan tashqari ishlar ham katta ahamiyatga ega. U ikki usulda amalga oshiriladi. Avvalo, tevarak-atrofdagi olamni bevosita idrok etish orqali, bu jarayonda bolalar turli yo'l harakati holatlari bilan faol tanishadi. Muayyan ob'ektlarni, hodisalarni, odamlarning harakatlarini, ularning bir-biri bilan munosabatlarini idrok etadi va o'zining kreativ munosabatlarini bildirib, xulosa chiqaradilar. Ikkinchi yo'l - ota-onalar, o'qituvchilarning hikoyalari, badiiy adabiyotlarni o'qish, teledasturlar, filmlar tomosha qilish, ochiq havoda o'yinlar, turli maketlar, rasmlar, rasmlar, atributlar yordamida o'yinlar orqali haqiqatni bilishga o'rgatish lozim. Ya'ni, sinfdan ham, darsdan tashqari mashg'ulotlar natijasida ham olingan barcha ma'lumotlarni boyitish, mustahkamlash va aniqlashtirish ijobiy samara beradi. Muayyan sharoitlarga qarab maktab va turar-joy massivlarining joylashuvi, ma'lum bir aholi punktida transport vositalarining harakati, mavsumiy ob-havoning o'zgarishi bevosita o'quvchining ongiga ilmiy va amaliy yo'llar bilan singdirilishi maqsadga muvofiqdir.

Maktablarda o'quvchilar o'rtasida yo'l harakati xavfsizligi bilan bog'liq o'yinlar va musabobalarni o'tkazish ham o'zining ijobiy jihatlariga egadir. Jumladan, "Xavfsiz g'ildirak" musobaqasi, "Yo'lda xavfsizlik" rasmlar tanlovi, "Yo'l harakati xavfsizligi" haftaligi, "Biz piyodamiz" viktorinasi, "Ko'chada bolaning xavfsizlik madaniyati" bo'yicha ota-onalar bilan suhbat kabilarni o'tkazish o'zining yaxshi samarasini beradi.

Yo'l harakati qoidalarini bo'yicha o'quvchilarga maktabda video va filmlar ko'rsatish, maxsus magnitafonli yozuvlarni tinglash, yo'l harakati xavfsizligi xodimlari bilan uchrashuvlar o'tkazish, jamoat inspektorlari bilan doimiy aloqada bo'lish muhim sanaladi. O'quvchilar ishtirokida yo'llarda sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalarning oldini olish, maktab o'quvchilari o'rtasida jamoat joylarida o'zini tutish qoidalarini tushuntirish, yo'l harakati qoidalarini buzilishining oldini olish bo'yicha uzluksiz faoliyat olib borish lozim.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ta'lim muassalarida yoshlarning yo'l harakati xavfsizligi madaniyatiga doir malaka va ko'nikmalarini shakllantirib borishda har bir fuqaroning mas'uliyati bilan yo'llarda harakatlanish qoidalariga amal qilishini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki ta'lim maskanlarida o'quvchilarning kundalik faoliyati yo'llar bilan parallel ravishda amalga oshadigan jarayon bo'lib, biz yoshlarga ta'lim berishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishini nazoratga olib borishimiz darkor. Bugungi kunda yoshlarga yo'l harakati xavfsizligi madaniyatini o'rgatish borasida har bir o'quvchining hushyorligini oshirish, ma'naviy olamida zamonaviy yo'llar bilan bog'liq tushunchalarni kengaytirish katta ahamiyatga egadir. Biz bu jarayonda yoshlarimizga zarur

tushunchalarni maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'lim bo'g'inlarida uzluksiz ravishda o'rgatib borishimiz, yo'llar-dagi harakatlanish qoidalariga rioya qilishni jamaotchilik asosida nazorat qilib borishimiz darkor.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2018. 16-bet.
2. Хасан Яҳё Абдулмажид. Йўл ҳаракати фикхи. –Тошкент: NIHOL-NASHR, 2021. 112-бет.
3. Икрамов Ш.Т., Зиёдуллаев М.З. Милиция таянч пунктлари негизида ҳамкорликни ташкил этиш ва бошқариш. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, -Тошкент: 2013. 185-бет.



Nargiza DUSIMBETOVA,
O'zDJTU o'qituvchisi
E-mail:nargiza_77@mail.ru

PhD T.shoymardonov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY COMPETENCE

Annotation

The article presents general information about the pedagogical and psychological features of the formation of competence in the field of information security. In this article, the author revealed the content of a number of concepts related to the issues of ensuring information security in the education system, the competencies of future specialists in ensuring information security, and also focused on aspects of the information educational process. The idea of the need to form the information competence of future specialists on the basis of pedagogical and psychological characteristics is substantiated.

Key words: Information security, pedagogical and psychological features, competence, development, future specialists.

ПЕДАГОГИЧЕСКИ-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация

В статье представлены общие сведения о педагогико-психологических особенностях формирования компетентности в области информационной безопасности. В данной статье автор раскрыл содержание ряда понятий, связанных с вопросами обеспечения информационной безопасности в системе образования, компетенций будущих специалистов по обеспечению информационной безопасности, а также акцентировал внимание на аспектах информационного образовательного процесса. Обосновывается мысль о необходимости формирования информационной компетентности будущих специалистов на основе педагогико-психологических характеристик.

Ключевые слова: Информационная безопасность, педагогико-психологические особенности, компетентность, развитие, будущие специалисты.

AXBOROT XAVFSIZLIGI KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Ushbu maqolada muallif tomonidan ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari, bo'lajak mutaxassislarining axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentsiyalari bilan bog'liq bir qator tushunchalarning mazmuni ochib berilgan, shuningdek, axborot ta'lim jarayonining jihatlariga e'tibor qaratilgan. Bo'lajak mutaxassislarining axborot kompetentsiyasini pedagogik-psixologik xususiyatlar asosida shakllantirish zarurati haqidagi g'oya asoslanadi.

Kalit so'zlar: Axborot xavfsizligi, pedagogik-psixologik xususiyatlar, kompetentlik, rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislar.

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularni shaxs sifatida shakllantirish muhim masalalardan biridir. Zero yosh avlod tarbiyasi ta'limi Vatanimiz tarqiyotini belgilovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizning xavfsizligi, barqaror taraqqiyoti o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga, ijtimoiy-madaniy muhit omillari, axborot makonining ta'siri kengayib bormoqda. Hozirda Respublikamizda 600 mingdan ortiq talabalar bo'lib, internet tarmoqlari tahdidlari kuchayib borishi natijasida axborotlarni tanlab, saralab olishda katta psixologik zo'riqishlarga duch kelmoqda. Shu sababli talabalarning axborot-psixologik xavfsizlik immuniteti – Vatan xavfsizligi darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biriga aylandi.

Zamonaviy jamiyatda odam axborot iste'mol qilish va ishlab chiqish borasida qarashlari va mustaqilligi keskin oshdi. Internet tarqiyotning muhim omili bo'lishi bilan birga asosiy targ'bot quroliga aylandi. Ayniqsa pornografiya, jinoyatchilik, bezorilik, jinoyatchilik, odobsizlik, latifalar, mishmishlardan iborat keraksiz, zararli axborotga ega juda ko'plab internet kontentlari paydo bo'ldi. Jamiyatga yot g'oyalar birdaniga kira olmaydi. Qarama-qarshiliklar eng avvalo yoshlarning siyosiy, diniy, ijtimoiy dunyoqarashlar tizimiga to'xtovsiz ta'sir qilib turadigan psixologik texnologiyalardan foydalanilyapti [3].

Axborot xavfsizligi sohasida kompetentsiyani shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari metodologiyasini ishlab chiqishda, umumiy metodologiyani, kategoriyaviy va kontseptual apparatini aniqlashda, diagnostika usullarini tanlashda biz o'zbek va xorijiy tadqiqotchi olimlarning ishlariga tayandik, samarali eksperimental ishlarni tashkil etish va o'tkazishga qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilardan iborat degan xulosaga kelishimizga imkon berdi:

- muammoni dastlabki, batafsil tahlil qilish, shu jumladan uning paydo bo'lishining tarixiy ko'rinishi;
- gipotezani konkretlashtirish, uni o'rganish jarayonida takomillashtirish;
- pedagogikadagi muammoning nazariy va amaliy rivojlanishini batafsil tahlil qilish;
- tadqiqot maqsadlarining aniq bayoni;
- tajriba natijalarini har tomonlama baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- nisbatan uzoq muddatli eksperimental ish;
- tajriba uchun bir yosh guruhini tanlash;
- eksperimentning borishi va pedagogik jarayonni tuzatish haqida ma'lumotni tizimli ravishda olishdir.

Turli sohalardagi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammosi ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Bo'lajak mutaxassislarning tayyorlashni takomillashtirishning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri kompetensiyani shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, axborot xavfsizligi sohasida kasbiy kompetensiyani shakllantirish hisoblanadi. Bu g'oya davlat darajasida tasdiqlandi va O'zbekiston Respublikasining Axborot xavfsizligi doktrinasida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda axborot sohasi, ya'ni axborotdan, shuningdek, yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish tizimidan foydalanish, axborot infratuzilmasi, axborotni to'plash, shakllantirish, tarqatish va tarqatuvchi sub'ektlar majmui bo'lgan axborot sohasining o'rni ortib borayotgani alohida ta'kidlangan [2].

Bo'lajak mutaxassislarning o'rtasida axborot xavfsizligi sohasidagi kasbiy kompetensiyani mohiyatini ochib berish "kasbiy kompetensiya" va "axborot xavfsizligi" tushunchalarini aniq ta'riflamasdan mumkin emas [4].

"Kasbiy kompetensiya" atamasi "kompetentlik" va "kompetent" tushunchalaridan kelib chiqqan. Izohli lug'atida ularga quyidagi ta'riflar berilgan [5]: - kompetensiya (lotinchadan *compentia* - huquq bo'yicha tegishli) - har qanday organ yoki mansabdor shaxsning vakolatlari; shaxs bilim va tajribaga ega bo'lgan masalalar doirasi; - malakali (lot. *compentens*, *compentis* - mos, qodir) - kompetensiyaga ega; bilimli, ma'lum bir sohada bilimdon.

Xolmatovning K.D. fikricha, "kompetentlik" xorijiy atamasi "qobiliyat" tushunchasiga imkon qadar yaqin, garchi unga teng bo'lmasa ham [7]. U o'z tadqiqotida kompetensiya sohasidagi barcha tadqiqotlarni asl ta'rif asosida yotgan lotincha so'zga qarab ikkita asosiy yo'nalishga ajratadi:

1) qobiliyat sifatidagi imkoniyat (mumkin) va qobiliyat sifatidagi tayyorlik (*aptus*), xorijiy tadqiqotlarda ushbu atamalardan foydalanishning yuqori chastotasi bu bilan izohlanadi;

2) bir qator kichiklar - muammoga adekvat bo'lgan tushunish (*sara*), moslashuvchanlik (*habilis*) va protsedurani bajarish qulayligi (*facilis*). Amerikaning "Webster" lug'atiga ko'ra, "kompetentlik" (kompetentlik) tushunchasi 1596-yilda, "kompetentlik" (kompetentlik) - 1605-yilda paydo bo'lgan. Ularni qo'llashning turli xil ta'riflari va yondashuvlarida ba'zi xorijiy tadqiqotchilar (T. J. Bastiaens, R. L. Martens, J. J. G. Van Merrienboer, A. Stoof) rivojlanishning ikkita manbasini ajratadilar: boshqaruvda kompetensiyaga asoslangan yondashuv va ta'limda kompetensiyadan foydalanish [4].

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek - Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda [1], ya'ni endi yovuz xavf-xatarlarning oldini olishda ota-onaga, jamiyatga munosabatda ma'naviy birdamlik, ijtimoiy-xavf xatarlarning psixologik xavf-xatarlarning holatini tahlil qila olishlari kerak bo'ladi. 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizda - Telegramda 18 million, -Odnoklassnikida 16,7 million, Facebookda 4,7 million, Instagramda 3,7 million, -Vkontakte 2,6 million, LinkedInda 288 ming, Twitterda 51,6 ming nafar O'zbekistonlik foydalanuvchi mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligini yoshlar tashkil qiladi. 2021-yilning dekabr holatiga ko'ra, milliy domen makonidagi 289 ta veb-saytda pornografiya, 91 ta veb-saytda esa behayollik va ma'naviy buzqlik targ'ibotiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan holat aniqlangan va 2097 ta qonunbuzarlik holati qayd etilgan [2] keltirib o'tish joizdir. Ana shunday xavflar turli axborot tarmoqlari orqali xalq ishonib kelgan narsalar yomonlanadi, obro'sizlantiriladi. Qadriyatlarini yemirish usullarining jirkanch ko'rinishlaridan foydalanishlari mumkin. Bu albatta

erkinlik yoki oshkorlik, niqobi ostida sodir bo'lishi ehtimoli yuqori hisoblanadi. Axborotni tanlash va u bilan ishlash salbiy yoki ijobiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan jarayondir. Bir tomondan, individ mustaqil bo'lishi lozim. Lekin, ikkinchi tomondan, u o'zining ma'naviy negizlariga putur yetkaza oladigan yot ta'sirdan himoyalaniish dasturiga ega bo'lishi darkor. Individ axborotning soxtaligini o'z vaqtida payqamasligi mumkin, sababi bunday axborot, odatda -Yaltiroq qog'ozga yaxshilab o'ralgan bo'ladi. Oqibatda insonning axborotdan foydalanishdagi erkinligi aks samara beradiki, bu individning o'zini ham bunday mustaqillikdan muhofaza qilish zarurligini ko'rsatadi [5].

XXI asr tsivilizatsiyasi rivojlanishining global muammolarining nisbatan yangisi bo'lajak mutaxassislarda, ayniqsa televidenie va ommaviy axborot vositalari xodimlarida kompetensiyani shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlariga asoslangan axborot xavfsizligi muammosidir. Dastlab, bu muammo sof texnokratik deb hisoblangan va uning mazmuni asosan dasturlar va ma'lumotlar bazalari, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini halokatli ta'sirlardan himoya qilish zarurati bilan bog'liq edi. Biroq, ta'lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining to'liq joriy etilishi o'quv jarayonining barcha ishtirokchilariga, asosan, talabalarga yangi tahdidlar va axborot ta'siri omillarini keltirib chiqardi. Masalan, o'qituvchilarni hisobga oladigan bo'lsak, maktab o'qituvchilarining aksariyati faol kompyuterlashtirish va o'quv jarayonini axborotlashtirish boshlanishidan oldin ham oliy ma'lumotga ega bo'lishgan. Bundan tashqari, ularning aksariyati (80%) olimlar ta'lim tashkilotining axborot xavfsizligi masalalari bilan shug'ullanishni boshlashdan oldin edi.

Ushbu muammoning ijtimoiy-pedagogik yechimi bo'lajak mutaxassislarning faoliyatiga axborot xavfsizligi kompetensiyasi kabi postprofessional tayyorgarlikning tarkibiy qismini kiritish zaruratidan iborat.

O'quv jarayoni doirasida axborot xavfsizligini ta'minlash uchun bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha yondashuvlar, usullar, g'oyalarni shakllantirish uchun ularni bo'lajak mutaxassislarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini shakllantirish uchun malaka oshirish jarayonida tegishli model shaklida ilmiy loyihalash maqsadga muvofiqdir. Bizning fikrimizcha, ushbu model nazariy va uslubiy yondashuvlar va tamoyillar platformasida qurilgan tizim bo'lib, uning yordamida uzluksiz ta'lim tizimida axborot xavfsizligi sohasida bo'lajak mutaxassislarning kompetensiyasini shakllantirish jarayoni ishlab chiqilgan.

Bunday modelni ishlab chiqishdan maqsad bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatining axborot xavfsizligi bo'yicha kompetensiya darajasini oshirishdan iborat bo'lib, u amaliy axborot xavfsizligi ko'nikmalaridan tashqari, bo'lajak mutaxassislarni axborot oqimlariga yo'naltirish tajribasini o'z ichiga oladi. Xavfsiz ta'lim muhitini tashkil etishni ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan kasbiy faoliyatda o'quvchi shaxsiga ruxsatsiz ta'sirga samarali qarshi turish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni bashorat qilish, axborotni himoya qilishni ta'minlash va axborot xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish qobiliyati [4].

So'nggi o'n yilliklarda o'zbek maktablarida va oliy ta'lim muassasalarida, barcha jarayonlarni axborotlashtirish yo'nalishi bo'yicha jadal rivojlanib, raqamli texnologiyalar asosida bo'lib kelmoqda.

"O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyoti" dasturida "Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish kengaymoqda. Ta'lim tashkilotlari internet tarmog'iga kirish imkoniga ega va u yerda o'z veb-saytlarida taqdim etilgan..." [4], - bu jarayonning asosiy, muhim elementi esa axborot xavfsizligi hisoblanadi. Axborot kasbiy

muammolarni hal qilishning eng muhim resursi, axborot texnologiyalari esa yosh avlodning intellektual, aqliy va jismoniy rivojlanishiga, o'quvchining axloqiy fazilatlarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan uzluksiz ta'lim jarayonining qurolidir. Shu bilan birga, ta'lim tadbirlari raqamli texnologiyalar bilan qanchalik keng qamrovli bo'lsa, o'quvchilar va talabalar uchun xavf darajasi shunchalik yuqori bo'lishi, ta'lim jarayonining barcha masalalarida axborot ta'sirining yangi xavf omillari va tahdidlari paydo bo'lishini ta'kidlash muhimdir.

Jamiyat va davlat turli ijtimoiy institutlar orqali talabalarning axborot xavfsizligi darajasini oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani shakllantirish orqali axborot tahdidlariga qarshi turishga harakat qilmoqda. Ushbu kontseptsiya "bolalar sog'lig'iga va (yoki) jismoniy, aqliy, ma'naviy, axloqiy rivojlanishiga axborot orqali zarar etkazish xavfi mavjud bo'lmagan bolalarni himoya qilish holati" deb talqin qilinadi. O'zbek pedagogik ta'lim tizimida ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining axborot xavfsizligini ta'minlashning samarali ilmiy asoslangan, me'yoriy-huquqiy, tashkiliy-metodik mexanizmlarini yaratish eng muhim vazifa hisoblanadi.

Axborot xavfsizligi sohasida kompetentsiyani shakllantirish bo'yicha maqsadga optimal erishish pedagogik va psixologik xususiyatlar asosida quyidagi uslubiy yondashuvlar mumkin emas:

- Tizimli yondashuv ushbu modelni o'zaro bog'liq elementlar va munosabatlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida ko'rsatishni ta'minlaydi. Bu axborot xavfsizligi kompetentsiyasining tarkibiy qismlarini o'rganish jarayonini tashkil etish, shuningdek, ushbu tadqiqot ob'ekting asosiy qonuniyatlarini aniqlash uchun uning atrof-muhit bilan aloqasini tavsiflash imkonini beradi.

- Talabaga yo'naltirilgan yondashuv nafaqat axborot xavfsizligi va axborotni muhofaza qilish sohasidagi bilimlarni egallashga, balki bo'lajak mutaxassis shaxsini uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishga qaratilgan.

- Faoliyat yondashuvi shundan kelib chiqadiki, bo'lajak mutaxassislarning uzluksiz ta'lim-tarbiyasi bir tomondan uning kasbiy faoliyati jarayoni, shuningdek, butun jamiyatdagi odamlarning o'zaro munosabatlari jarayonidir.

- Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv har bir mutaxassis o'z sohasi bo'yicha ega bo'lishi kerak bo'lgan (kompetentlik modeli) axborot xavfsizligi sohasidagi o'sha funksiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan, u tayyor bo'lishi kerak bo'lgan vakolatlar majmuasining tavsifi sifatida muhim ahamiyatga ega.

- Aksiologik yondashuv alohida voqelikni ifodalaydi va o'ziga xos pedagogik hodisalarning butun majmuasini o'z ichiga oladi. Asosiy e'tibor nafaqat bilim, ko'nikma, malakalarga, balki hayotiy qadriyatlarining butun majmuasiga, ularni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga qaratilgan. Mutaxassisning qadr-qimmatining etukligi talabalarga kerakli qadriyatlarni rivojlantirishda ular bilan kasbiy o'zaro munosabatlarning samaradorligini belgilaydi [4].

Shu bilan birga talaba yoshlarga axborot bilan ishlash bir qancha jihatlarini qamrab oladi, va ularning ish mexanizmi esa quyidagidan iborat:

- Ma'lumotlarni qabul qilish, anglab olish va yodga olish;
- qayta ishlash va yangilangan axborotni shaxs xotirasida saqlash;
- axborotni tarqatish.

Axboriy psixologik xavfning ko'lamini tobora kengayib bormoqdaki bunda shaxsga ta'sir etishning turli qarashlar tizimidan foydalangan holda tadqiq qilinishga muhtojdir.

Shuning uchun ham biz individni uning psixologik sifatleri va unga ko'rsatiladigan axborot ta'siri nuqtai nazaridan uchta asosiy mazmunda ko'rib chiqsak, to'g'ri bo'ladi:

- birinchidan, u maqsadli yo'naltirilgan axborot-psixologik ta'sirga duchor qilinadigan bosh obyekt hisoblanadi;

- ikkinchidan, ayni bir paytda u ijtimoiy axborot bobida birdan-bir ishlab chiqaruvchidir;

- uchinchidan, u axborot tajovuzlaridan davlat va jamiyat tomonidan himoya qilinishga muhtoj sub'ektdir [3].

Barkamol shaxsni shakllantirish jamiyatimizning eng muhim psixologik xususiyatlar muhim ahamiyatga ega. Shaxsni axborotni quyidagi asosiy manbalardan oladi:

- davlat tomonidan yetkaziladigan axborot siyosati;
- turli ommaviy axborot vositalari;
- norasmiy muloqotdagi axborot.

Ochiq axborot tizimlarining turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Mamlakatimizning 60% ni yoshlar tashkil qilishini hisobga olsak, bu muommoning ko'lamini sezish qiyin emas. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisining ohiyatini chuquroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu jamiyatning xulqiy o'zgarishlarining axborot ta'sirida o'zgarayotganligidan dalolat berib turibdi[4].

Insonning axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning eng muhim xususiyatlaridan biri pedagogik-psixologik mustahkamlik va moyillikdir, chunki u odamlarning turli xuruj va ekstremal holatlarga bog'liqligini, shuningdek, vaziyatdan chiqish yo'lini topish uchun qisqa vaqt ichida yordam beradigan to'g'ri qarorlarni qabul qilish qobiliyatiga ega. Shunday qilib, bo'lajak mutaxassislarda axborot-psixologik immunitetini hosil qilishda quyidagi omillarni rivojlantirish zarurati mavjud:

- Bo'lajak mutaxassislarda vatanparvarlik, sadoqat, milliy o'zlikka xos tushunchalarini boyitish shakllantirib borish;

- Huquqiy, axloqiy me'yorlarga rioya etish va axborot xavf omili uning zarurati haqida izchil va muntazam ravishda bilimlar berib borish;

- Internetga tobelikning psixologik ta'siri sog'lom turmush tarziga amal qilish;

- Internetga qaramlik, mobil telefonlarga tobelik, komyuter o'yinlarining psixologik mohiyati;

- Mamlakatimiz va dunyoda ro'y berayotgan voqealarga to'g'ri munosabatlarni shakllantirish;

- Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish haqida bilimlar berib borish;

- O'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlari orqali milliy an'analarimizni rivojlanishiga hissa qo'shuvchi, kasb-hunarga o'rgatuvchi san'at turlarini egallashga moyillik tuyg'ularini shakllantirib borish;

- Hozirda o'quv-tarbiya muassasalari xilma-xilligidan kelib chiqib ular o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoshlar kamolotini ta'minlovchi ta'lim-tarbiyaviy shartnoma va kelishuvlar asosida hamkorlikda yagona pedagogik jarayonni mazmunan boyitish;

- O'quv-tarbiya muassasalari, ota-onalar va jamoatchilik hamkorligini amaliy jihatdan yuqori saviyada olib borishga erishish;

- Talaba-yoshlarning go'zallikni his ettirish ko'nikmalarini tarkib toptirish orqali ma'naviy muhofaza qila olish imkonini yaratish omilidir.

O'quv jarayonining axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy omili – kasbiy faoliyati davomida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mehnat jarayonida

murakkab kasbiy vazifalarni, ta'lim faoliyatida tashqi va ichki axborot tahdidlarining ta'siri ostida samarali hal eta oladigan, o'z sohasi bo'yicha malakali mutaxassislarning yetishib chiqishidir.

Shunday qilib, yuqoridagilarni tahlil qilar ekanmiz, ta'lim tizimining axborot xavfsizligi sohasidagi maqsad va vazifalarini aniq tushungan holda faoliyatning turli sohalari bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash yagona reja asosida amalga oshirilishi zarurligini ta'kidlash zarur.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson mafaatlarni ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovoligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 24-bet. Toshkent -O'zbekiston-2017
2. Abdurazzoqov N.K. O'smirlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences- 2021.
3. Abdurazzoqov N., & Abdujalilov M. (2022). Talabalarda axborot psixologik xavfsizligi immunitetini rivojlantirish omillari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollari, 1(1), 473–476. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5197>
4. Вагин И.О. Психология жизни и смерти. Изд-2. – Москва: Харьков. 2021.
5. Khlebnikova M., Dolinina I. (2020) Digital Educational Resources in the Professional Activities of Educators. In: Anikina Z. (eds) Integrating Engineering Education and Humanities for Global Intercultural Perspectives. SHQIP 2020. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 131. Springer, Cham.
6. Umarov B. Shaxs axborot-psixologik xavfsizligining psixologik imkoniyatlari. The light of Islam, 4-son 2019.
7. Холматова К.Д. Методологические подходы и принципы концепции подготовки будущих специалистов к обеспечению информационной безопасности // Вестник Омского университета. Педагогика и методика преподавания. Выпуск 1, 2021.



Yashnarjon JO'RAYEV,
Toshkent davlat transport universiteti katta o'qituvchisi
E-mail:online.jorayev@mail.ru

t.f.n., dotsent A. Yusupov taqrizi asosida

IMPROVING THE METHOD OF INCREASING THE QUALITY OF TRAINING CAR DRIVERS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

Due to the increase in the number of people interested in driving a car in our country, the number of cars on the roads is also increasing accordingly. This article is relevant to provide drivers with quality driving on the roads.

Key words: Car driver, teaching methods, rules of the road, cloud system, mobile application, gaming technologies.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПОДГОТОВКИ ВОДИТЕЛЕЙ АВТОМОБИЛЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация

В связи с увеличением количества людей, заинтересованных вождением автомобиля в нашей стране, соответственно увеличивается и количество автомобилей на дорогах. Данная статья актуальна для обеспечения водителей качественному вождению на дорогах.

Ключевые слова: Водитель автомобиля, методы обучения, правила дорожного движения, облачная система, мобильное приложение, игровые технологии.

TA'LIM MUASSASALARIDA AVTOMOBIL HAYDOVCHILARNI TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISH USLUBINI TAKOMILASHTIRISH

Аннотация

Mamlakatimizda avtotransport vositasini boshqarishga qiziquvchilarning soni ortishi hisobiga yo'llarda avtomobil soni mos ravishda ortmoqda. Haydovchilarni sifat jihatdan ta'minlashda mazkur maqola dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Avtomobil haydovchisi, ta'lim metodlari, yo'l harakati qoidalari, bulutli tizim, mobil ilova, o'yin texnologiyasi.

Kirish. Mamlakatimizda avtotransport vositasini boshqarishga qiziquvchilarning soni ortishi hisobiga yo'llarda avtomobil soni mos ravishda ortmoqda. Bunda haydovchilar, haydovchilik guvohnomasini olish vaqtida bir martagina avtomobilni boshqarish bo'yicha imtihon topshiradi va ijobiy baho olgan taqdirda unga ega bo'ladi. Yagona imtihon markazi hodimi haydovchini oddiy usul bilan baholaydi, ya'ni test savolarini to'g'ri yechib amaliy boshqarib bersa demak, imtihon topshirgan hisoblanadi. Haydovchilar va avtotransport vositalarining yo'llarda ortishi, o'z-o'zidan harakat xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan talabni yani dolzarbligini anglatadi.

-Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yo'llarda harakatlanish tartibini qonun bilan qat'iy belgilash zarurati ot – ulov transporti davrida vujudga kelgan edi.

Tarixdan ma'lumki, harakatni tartibga soluvchi kurakli simafor tipidagi birinchi qurilmani injener Dj. Nayt 1868-yili Londondagi ingliz parlamenti binosi yoniga qurdi. U keyinchalik qizil va yashil yorug'lik filtrlari bilan to'ldirildi va modernizatsiya qilindi.

XVIII asrda o'zi harakatlanadigan yengil aravalarni paydo bo'lishi, ularni harakatlanish qoidalarini ishlab chiqishni taqozo qildi. 1879-yili birinchi bug'avtomobilining kashfiyotchisi bo'lib fransuz Nikola-Jozef Kyuno hisoblanadi. Benzin dvigatelli avtomobilni – zamonaviy avtomobil prototipi – 1885-1886-yillarda nemis injenerlari Karl Bens va Gotlib Daymrlar yaratdilar. Aynan ular rasmiy ravishda avtomobil kashfiyotchilari deb tan olindi, holbuki tarixda har xil bemalol yura oladigan konstruksiyalar yaratgan ko'pchilik boshqa kashfiyotchilarning nomlari tilga olingan bo'lsada.

Avtomobillar uchun harakat qoidalari birinchi bo'lib 1893-yili 14-avgustda Fransiyada kiritildi. Harakatlanishni

yengillashtirish uchun yo'l belgilari va svetoforlar ishlatila boshlandi. Birinchi to'rtta, chorraha, temir yo'l perezdi, egri – bugri yo'llar, qatnov qismidagi notekisliklar kabi xavflilik mavjudligini ko'rsatuvchi belgilar 1909-yili Avtomobillarda harakatlanish bo'yicha Parij Konvensiyasida tasdiqlandi. Bu dumaloq shaklida belgilar hozirgi belgilarda qo'llanilayotgan ishora va ramzlarga deyarli to'liq mos bo'lgan va bugunkı kunda ham o'sha turdagi xavflilik belgilanadi.

Yo'l belgilari va yo'l chiziqalaridan foydalanildi. Ularning yordamida oshib borayotgan avtomobillar harakatlanishi tartibga solindi. 1926-yili Yo'l belgilari xalqoro tizimi yana ikkita belgi bilan to'ldirildi: "Qo'riqlanmaydigan temir yo'l perezdi" va "To'xtash majburiy". Sovet ittifoqida shu yili birinchi bo'lib yo'l signal belgilarining texnik shartlari ishlab chiqildi va amalga tadbıq etildi.

1931-yili Jeneva shahrida yo'l harakati bo'yicha konferensiyada Yo'llardagi signallarning yagona tizimi to'g'risida Konvensiya qabul qilindi. Belgilar soni 26 tagacha ko'payib, ular uch guruhga ajratildi: ogohlantiruvchi, buyuruvchi va ko'rsatuvchi.

Ikkinchi jahon urishigacha dunyodagi har xil davlatlarda yo'l belgilarining ikkita asosiy tizimi mavjud edi. Yevropa tizimida 1931-yilgi Konvensiyaga muvofiq belgilarda asosan simvollaridan foydalanilgan. Ingliz – amerika tizimida simvollar o'rniga yozuvlardan foydalanilgan.

1940-yilgacha bizning yurtimizda yagona Qoida yo'q edi, uni ishlab chiqish va tasdiqlash mahalliy hokimlik tashkilot vakolatiga kirar edi. 1940-yilda birinchi namunaviy harakatlanish qoidasi tasdiqlandi, uning asosida joylarda kam yoki ko'p bir – biriga o'xshagan qoidalar ishlab chiqildi.

Ikkinchi jahon urishi tugagach, butun dunyo bo'yicha yo'l signallarining yagona tizimini yaratishga kirishildi. 1949-

yili Jeneva shahrida yo'l harakati bo'yicha xalqaro konferensiyada Yo'l xarakati bo'yicha Konvensiya va yo'l belgilari, signallari to'g'risida qaror qabul qilindi. Unga Sovet Ittifoqi 1959-yilda qo'shildi.

Birinchi bo'lib, mamlakat uchun yagona bo'lgan shahar va aholi yashaydigan punktlar ko'chalarida va yo'llarda harakatlanish qoidalari 1961-yilda kiritildi. Keyin birmuncha qayta ishlashdan so'ng bu qoidalar 1965-yili qayta tasdiqlandi.

Yo'l harakati sohasida xalqoro qonunchilik rivojining keyingi bosqichi 1968-yilda qabul qilingan, Yo'l xarakati to'g'risida Konvensiya va yo'l belgilari, signallari to'g'risida Konvensiya bo'ldi. Bu Konvensiyalar keyinchalik 1971-yili Yevropa kelishuvida, yevropa davlatlari sharoitiga muvofiq qayta ishlangan Konvensiya holida, to'ldirildi. Sovet Ittifoqi bu hujjatlarni ratifikatsiya (tasdiqladi) qildi va u qoidalarni mamlakat yo'l harakatini tashkil etishda amalda tadbir qildi. 1968-yilgi Konvensiyaga va 1971-yilgi Yevropa kelishuvidagi qo'shimchalarga asoslangan Yo'l harakati qoidalari yaratildi.

1949-yili Jeneva shahrida yo'l belgilari, signallari to'g'risida qaror bilan tasdiqlangan yo'l belgilari tizimi bizning yurtimizda 1973-yil 1-yanvargacha amalda bo'ldi, ya'ni GOST 10807 – 71 kiritilgunga qadar.

1980-yil 1-yundan qoidalarning yangi tahriri kiritildi. 1980-yildagi tahrir ilgari qoidalardan to'liq qayta ishlangan bo'limlari va yo'l belgilari bilan farq qilgan. Qoidalardagi keyingi o'zgartirishlar 1987-yil 1-yanvardan kuchga kirdi.

Hozirgi kunda deyarli hamma davlatlarda yo'l harakati qoidalari "Yo'l harakati, yo'l belgilari va ishoralar to'g'risidagi 1968-yilgi Xalqoro Konvensiyaga asoslangan. Shu taraflamam ular o'xshashdir. Lekin bir qancha, jumladan Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xindiston va ba'zi boshqa davlatlarda harakatni hamma qabul qilgan tartibdan birmuncha farqi bor. Bu davlatlarda yo'l tizimidagi ishoralarda tafovutlar mavjud va chap tomonlama harakat o'rnatilgan.

Mustaqil O'zbekiston davrida ham yo'l harakati qoidalarni mukammallashtirish ustida ishlash to'xtagan yo'q. Mustaqil O'zbekistonda birinchi qoida 1994-yil kuchga kirdi.

Bugungi kunda kuchda bo'lgan yo'l harakati qoidalari 2001-yilda kiritilgan bo'lib, 2010-yilda o'zgartirish va qo'shimchalar bilan ikkinchi nashri ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 24-dekabrda 370-son qarori o'z kuchini yo'qotib o'rmiga, "Yo'l harakati qoidalarni tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-aprelda 172-son qarori qabul qilindi va yo'l harakati qoidalari qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-sonli "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi[1], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-maydagi 408-sonli "Avtomototransport vositalari va shahar elektr transport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bo'yicha nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi[2], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 139-sonli "Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi[3] qarorlari qabul qilingan

Muammo nazariya bilan amaliyotning bog'liqligida. Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va xayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llay bilish xam kerak.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** O'yin texnologiyasi barcha yoshdagi insonlarga ayniqsa, yosh bolalarga yo'l harakati qoidalarni o'rgatishda o'yinlardan, musobaqalardan foydalanishning yuqori samaradorligini isbotladi. O'yinning qiymatini o'yin-kulgi va dam olish imkoniyatlari bilan tugatib bo'lmaydi. Bu uning hodisasi, o'yin-kulgi, dam olish bo'lib, u o'rganish, ijodkorlik va namunaga aylana oladi. Boshlang'ich maktab yoshi idrokning yorqinligi va tezkorligi, tasvirlarga kirishning qulayligi bilan ajralib turadi. Bolalar har qanday faoliyatga, ayniqsa o'yinga osongina jalb qilinadi, o'zlarini guruh o'yinida tashkil qiladi, ob'ektlar bilan o'ynashni davom ettiradi.[6]

Yo'l harakati qoidalarni o'rgatishda o'yin texnologiyalari:

- mobil, sport, jismoniy mashqlar;
- mantiqiy vazifalar, o'yinlar - topishmoqlar;
- rol o'ynash;
- yo'l miniatyura teatri, o'yinlar - drammatizatsiya;
- intellektual va o'quv o'yinlari, sayohatlar, viktorinalar;
- didaktik;
- Ish stolida chop etilgan, ob'ektlar bilan.

Shuning uchun ham yo'l harakati qoidalarni o'rgatishda o'quvchida zarur xulq-atvor normalarni uyg'otish, o'rganilayotgan material uning xotirasida hissiy iz qoldirishiga e'tibor qaratish lozim. Texnologiya - bu natijalarga qaratilgan harakatlar va operatsiyalar zanjiri. Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, o'quvchilarning rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishishini ta'minlashdan iborat. Haydovchilikka tayyorlash xizmatlarini ko'rsatuvchi muassasalar o'quv jarayonini tashkil etishda qonun hujjatlari va uslubiy qo'llanmalarga amal qiladilar.


Ta'limning asosiy shakli - kunduzgi. Biroq, agar haydovchilik maktabi vebinarlarni tashkil qilishning texnik qobiliyatiga ega bo'lsa, unda masofaviy o'qitish faqat nazariy qismni o'rganish vaqtida ruxsat etiladi.

Ba'zi haydovchilik maktablarida avtomobil simulyatorlari mavjud bo'lib, ular yo'lda avtomobilning harakatini to'liq taqlid qilish imkonini beradi. Old oyna o'rniga kompyuter ekрани ishlatiladi. Bunday simulyator haqiqiy haydash ko'nikmalarini olishga imkon berishiga qaramay, ular bo'yicha mashg'ulotlar nazariy o'quv kursi doirasida o'tkaziladi.

Yo'l harakati qoidalari bilan tanishishda axborot kompyuter texnologiyalaridan foydalanish darsni noan'anaviy, mazmunli o'tkazish, turli xil texnika va o'qitish usullarini ta'minlash imkonini beradi. Animatsiya, slayd-prezentatsiyalar, filmlardan foydalanish insonlarda o'rganilayotgan hodisalarga faol kognitiv qiziqishni uyg'otish imkonini beradi. Materialni vizual qo'llab-quvvatlash usullari o'quvchilar e'tiborini uzoq vaqt davomida jamlashga, shuningdek, bir vaqtning o'zida bolaning bir nechta hissiy organlariga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi, bu esa olingan yangi bilimlarni yanada mustahkamroq mustahkamlashga yordam beradi. Koreadagi imtihon olish jarayonida foydalanilayotgan avtomobillarni o'zimizda qo'llash juda samarali deb hisoblayman, chunki bu avtomobillar zamonaviy qilib jixozlangan bo'lib qoidalarni buzgani avtomatik nazorat qilib boriladi. Bu esa o'z navbatida tajribali va bilimli haydovchilarni yo'lga chiqishini ta'minlaydi [5].

- **Tahlil va natijalar.** Avtomobil transportida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalarning qariyb 75 foizi haydovchilarning yo'l harakati qoidalarni buzishi tufayli sodir bo'ladi. Huquqbuzarliklarning eng xavfli turlari hamon tezlikni oshirish, yo'l belgilariga e'tibor bermaslik, qarama-qarshi transportga chiqish va mast holda haydash bo'lib qolmoqda. Ko'pincha yomon yo'llar (asosan sirpanchiq), avtomashinalarning noto'g'ri ishlashi (birinchi o'rinda - tormoz,

ikkinchidan - rul, uchinchidan - g'ildiraklar va shinalar) baxtsiz hodisalarga olib keladi.




1-rasm. Yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablari

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, barcha yo'l-transport hodisalarining taxminan 75% sodir bo'ladi haydovchilar tomonidan yo'l harakati qoidalarini buzganligi sababli. Bundan tashqari, yo'l-transport hodisalarining uchdan bir qismi haydovchilarni o'qitishning yomonligi natijasidir. Ular tegishli toifadagi transport vositasini boshqarish huquqiga ega emaslar yoki umuman haydovchilik guvohnomalarini sotib olishganligidir.

Yig'ilishda sohadagi ayanchli holat statistik ma'lumotlar asosida tanqidiy tahlil qilindi. Tahlillar ko'rsatishicha, avariylarning:

- 45 foizi haydovchilarning qoidalarini mensimasligi;
- 10 foizi haydovchilarning tajribasizligi;
- 25 foizi yo'l holati va infratuzilmasi talabga javob bermasligi;
- 20 foizi piyodalarning qoidalariga amal qilmasligi oqibatida sodir bo'lmoqda.



2-rasm. Avariylarning tahlili

Yuqoridagi muammolarning barchasi ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham xavfsizlik masalalariga bevosita bog'liq. Shu bois, 2022-yilda barcha hududlarda "Xavfsiz yo'l va xavfsiz piyoda" umummilliy dasturini amalga oshiramiz", dedi Prezident[4].

Misol uchun, 2021-yilda aniqlangan 7,7 million huquqbuzarlikdan 46 foizi qo'pol qoidabuzarliklar hisoblanadi. Ayniqsa:

- mast holda boshqarish Samarqand (12 mingta), Toshkent viloyati (8,5 ming), Farg'ona (7,5 ming) va Toshkent shahrida (7 ming);


- qizil chiroqqa o'tish Toshkent viloyati (62 ming), Samarqand (51 ming) va Toshkent shahrida (47 ming) ancha yuqori.

Yana qo'shimcha qilib aytak haydovchi uzoq yo'lga chiqqanda vaqtida dam olmasdan yo'llarda uxlab qolishi oqibatida ham og'ir turdagi yo'l-transport hodisasiga olib keladi.


Qo'pol qoida buzarlilarning eng xavfli turlari:

1. Tezlik chegarasidan oshib ketish;
2. Qarama-qarshi qatorga chiqishi;
3. Avtomobilni mast holda boshqarish.

Qo'pol qoida buzarlilarning 2020-2021-yillar misolida tahlil qilish natijasida 12 foizga kamayganini ko'ramiz, chunki yo'llarda kameralar va nazoratning kuchaytirilganligidir.



3-rasm. 2020-2021 yillar o'rtasida qo'pol qoida buzariqlar



4-rasm. YTH sodir etgan haydovchilarning yoshi bo'yicha

2021-yil yo'l-transport hodisalarining 2 008 tasini 25 yoshgacha bo'lgan haydovchilar, 2 057 tasini esa 30 yoshgacha bo'lgan haydovchilar sodir etgan. Bu raqamlar ko'rsatib turibdiki, haydovchilarning bilim malakasi kamligida va yo'ldagi vaziyatlarni to'g'ri baholamasligidadir.

- **Xulosa va takliflar.** Talabalarning bilim olish darajasini masofadan turib qo'llab-quvvatlash maqsadida "Windows" "android" "IOS" tizimlarining eng ko'p ishlatiladiganlaridan biri android bo'lib, ushbu android tizimida ishlovchi telefonlar uchun "Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi asoslari" fanidan mobil ilova ishlab chiqildi. Bulutli tizim va boshqa metodlarni qo'lagan holada talabalar va avtomaktab o'quvchilar bilimlari quydagi foizlarda ko'tarildi:

Haydovchilarning umumiy vazifalari (14,2 foiz), yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda haydovchining majburiyatlari (20,2 foiz), piyodalarning majburiyatlari (16,2 foiz), yo'lovchilarning majburiyatlari (8,2 foiz), svetofor va tartibga soluvchining ishoralari (23,2 foiz), ogohlantiruvchi va avariya (xavf-xatar) ishoralari (21,2 foiz), harakatlanishni boshlash, manyovr qilish (28,2 foiz), yo'lning qatnov qismida transport vositalarining joylashuvi (11,2 foiz), harakatlanish tezligi (9,2 foiz), quvib o'tish (8,2 foiz), to'xtash va to'xtab turish (14,2 foiz), chorrahalarda harakatlanish (26,2 foiz), piyodalarning o'tish joylari va yo'nalishli transport vositalarining bekatlari (36,2 foiz), temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish (16,2

foiz), avtomagistrallarda harakatlanish (7,2 foiz), turar joy dahalarida harakatlanish (17,2 foiz), tik balandlik va nishabliklarda harakatlanish (8,2 foiz), yo'nalishli transport vositalarining imtiyozlari (9,2 foiz), tashqi yoritish asboblardan foydalanish (11,2 foiz), mexanik transport vositalarini shatakka olish (11,2 foiz), transport vositalarini boshqarishni o'rgatish (17,2 foiz), odam tashish (17,2 foiz), yuk tashish (19,2 foiz), velosiped, moped va aravalar harakatlanishiga, shuningdek, hayvonlarni haydab o'tishga doir qo'shimcha talablar (21,2 foiz), mansabdor shaxslarning va fuqarolarning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, transport vositalarini yo'lga chiqarish, raqam va taniqli belgilarini o'rnatish bo'yicha majburiyatlari (8,6 foiz), yo'l belgilari (15,8 foiz), yo'l chiziqlari (10 foiz), haydovchilarning bilim darajasining oshganligi test nazorati orqali aniqlandi.

Shu o'rinda mobil ilovaning imkoniyatlari:

- internet kerak emasligi, bu esa ortiqcha xarajatlar yo'qligi (avtomaktab talabalarga bepul tarqatilishi mo'ljallangan) va internet ishlashida muammo bo'lgan hududlarda xam o'qish imkoniyatini beradi.

- mobil ilova kitob ko'rinishida emas balki taqdimot sifatida dasturlangan, bu esa talabaga o'qish jarayonida qulaylik yaratadi.

- taqdimot so'ngida video maruza joylashtirilganligi talabalar va tinglovchilarning bilim olish jarayonida qulaylik yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-sonli "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-maydagi 408-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-maydagi 408-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-fevral kuni o'tkazilgan videoselektordan.



Vasila ZAYNIDDINOVA,
TATU Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: zayniddinova.v@gmail.com

O'zMU professori, s.f.d. B.Omonov taqrizi asosida

MADANIY-OMMAVIY TADBIRLARNING MA'NAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISHDAGI O'RNI

Annotatsiya

Maqolada ommaviy-madaniy tadbirlarning nazariy asoslari, tadbirlarning mazmun-mohiyati va ularning jamiyatdagi o'rni hamda ularning maqsad va vazifalari atroflicha tahlil qilinadi. Shu bilan birga ommaviy-madaniy tadbirlarning yoshlar ma'naviy dunyoqarashiga ta'siri masalasi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ommaviy-madaniy tadbirlar, nazariya, jamiyat, ma'naviyat, madaniyat, dunyoqarash, g'oya, tarbiya, ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy, maorif.

РОЛЬ КУЛЬТУРНО-ОБЩЕСТВЕННЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В БОРЬБЕ С МОРАЛЬНОЙ УГРОЗОЙ

Аннотация

В статье всесторонне анализируются теоретические основы массовых культурных мероприятий, содержание и сущность мероприятий и их место в обществе, а также их цели и задачи. При этом рассматривается вопрос о влиянии культурно-массовых мероприятий на духовное мировоззрение молодежи.

Ключевые слова: Массово-культурные мероприятия, теория, общество, духовность, культура, мировоззрение, идея, образование, социальное, политическое, воспитательное, воспитательное.

THE ROLE OF CULTURAL AND PUBLIC EVENTS IN THE FIGHT AGAINST MORAL THREAT

Annotation

In the article, the theoretical foundations of public cultural events, the content and essence of events and their place in society, as well as their goals and tasks are thoroughly analyzed. At the same time, the question of the impact of mass cultural events on the spiritual worldview of young people is considered.

Key words: Mass-cultural events, theory, society, spirituality, culture, worldview, idea, education, social, political, educational, educational.

Kirish. Pandemiya so'ng O'zbekistonda ommaviy-madaniy tadbirlarni yo'lga qo'yish va ularni yanada yaxshilash maqsadida joylarda targ'ibot, madaniy ommaviy ishlarni kuchaytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda ommaviy-madaniy tadbirlarni tizimli tashkil etishga va ularning samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori joylarda ommaviy-madaniy tadbirlarning o'tkazish ishlarini jadallashtirib yubordi.

Ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazish bilan shug'ullanadigan muassasalar turli-tuman bo'lib, ulardan har biri muayyan turdagi tadbirlarni o'tkazishga ixtisoslashadi: Ommaviy-madaniy tadbirlarni olib boruvchi har bir muassasa o'z mohiyati, xususiyati, imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos turli xil tadbirlardan foydalanishi lozim. Jumladan, drama teatrlari spektakllardan, professional musiqa-cholg'uy ansambllari konsertlardan, o'quv muassasalari dars, leksiya, seminar kabi shakllardan foydalanib, ular orqali o'z faoliyatini olib boradilar. Ommaviy-madaniy tadbirlarni interaktiv tarzda o'tkazish maqsadga muvofiqdir, shu bilan birga, mazkur tadbirlarning milliy ruhda bo'lishiga ham alohida e'tibor qaratish darkor. Zero, ommaviy-madaniy tadbirlar mazmun-mohiyati va o'zining xususiyati bilan milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy ma'naviy merosimizga asoslanadi. Bu esa "... xalqimizning madaniyati va mentaliteti, dunyoqarashi va ma'naviyatining mustahkam asosi bo'lgan uning milliy madaniy merosi to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirishga yordam beradi".

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz ommaviy-madaniy tadbirlar orqali milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarishdir. O'tkazilayotgan ommaviy-madaniy tadbirlarning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish va ularning tasnifiga ba'zi qo'shimchalar kiritishga imkon beradi. Mavjud adabiyotlarda ommaviy-madaniy tadbirlar quyidagi: turli xil kechalar, badiiy kompozitsiyalar, badiiy chiqishlar va diskoklub dasturlari, teatrlashtirilgan konsert va tomoshalar, xalq marosimlari va sayillari, ommaviy bayramlar, ko'rik tanlovlari kabi ko'plab shakllarga bo'linadi.

Professor Usmon Qoraboev tasnifiga ko'ra madaniy bayramlarning (tadbirlarning) qamroviga qarab ularni shartli ravishda uch guruhga bo'ladi. Birinchi guruh – tabiat va mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mavsumiy bayramlar; Ikkinchi guruh – inson kamoloti, oila hayoti bilan bog'liq bo'lgan oilaviy marosim va tantanalari; Uchinchi guruh – jamiyat ma'naviyati, e'tiqodlar bilan bog'liq diniy bayramlar shular jumlasidandir.

Ushbu fikrlarga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkin, ommaviy madaniy tadbirlarni (bayramlarni) yana quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Uyushgan jamoalarda, shu jumladan, o'quv yurtlarida o'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbirlar.
2. Aholi turar joylarida o'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbirlar.
3. Uyushmagan aholi o'rtasida o'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbirlar.

Uyushgan jamoalarda o'tkaziladigan tadbirlar ishtirokchi tomoshabinlarning bir-birlarini bilishi, umumiy maqsadga intilishi bilan xarakterlanadi. Bunday jamoa a'zolari o'rtasida muayyan ruhiy yaqinlik mavjud bo'lib, bu holat ommaviy-madaniy tadbir jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday jamoalarda ommaviy-madaniy tadbirlar jarayonidagi ma'naviy-ruhiy uyg'unlik qisqa muddatda va yuqori darajada yuz beradi. Aholi turar joylarida o'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbirlar xususiyati ular o'tkaziladigan joy – maxalla, qishloq, ovul, qo'rg'oncha aholisining bir-biriga muayyan darajada yaqinligi, tanishligi bilan bog'liq. Ular o'rtasidagi ruhiy yaqinlik uyushgan jamoalar a'zolari o'rtasidagi singari bo'lmasa ham, ular bir xududda istiqomat qilib, bir birlarini taniydilar va ular o'rtasida yashash tarzi bilan bog'liq umumiy jixatlar mavjud bo'ladi. Uyushmagan aholi o'rtasida o'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbirlar, asosan, shaxarlardagi madaniyat saroylari, istirohat bog'lari, kontsert zallari va madaniyat uylarida o'tkaziladi. Bunday tadbirlarni tomosha qilish uchun to'plangan fukarolar turli kasb egalari, turli yosh, jins, ijtimoiy qatlam vakillari bo'lib, ular o'rtasida ma'naviy-ruhiy yaqinlik ko'zga tashlanmaydi.

Ommaviy-madaniy tadbir jarayonida ular o'rtasida ham ana shunday aloqadorlik va yaqinlik vujudga kelishi mumkin. Ommaviy-madaniy tadbirlarning o'quv muassasalaridan o'tkaziladigan shakllaridan biri ijodiy uchrashuvlar, desak xato bo'lmaydi. Ma'lumki, "ijodiy uchrashuv" so'zlari ancha keng ma'no ifodalaydi. Shoir, yozuvchi, san'atkor, rassom (musavvir), aktyor, xalq amaliy san'ati ustasi, boringki, o'z ishining ustasi bo'lgan har qanday soha vakili bilan o'tkaziladigan diltortar suhbatlar ijodiy uchrashuvning ko'rinishlaridir. Odatda bunday suhbatlar tabiiyligi, savol-javoblarga boyligi, samimiyliigi, kutilmagan savol va javoblarni keltirib chiqarishi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Jumladan, yozuvchi va shoirlar, aktyorlar bilan uchrashuvlar yuzlab yoshlarning qalbida badiiy ijodga, san'atga, ilm-ma'rifatga ishtiyoq sehrli olamiga mehr-muhabbat uyg'otadi, o'quvchi yoshlar ma'naviy dunyo-qarashini kengaytiradi, ularni yaxshilikka undaydi, ezgulik bilan hamnafas yashashga da'vat etadi. Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz – yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularni yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Ommaviy-madaniy tadbirlar kechalar, tomosha va teatrlashtirilgan kontsertlar, ko'rik-tanlovlar, ko'rgazma, badiiy kompozitsiya, quvnoqlar va zukkolar tanlovlari kabi shakllarda o'tkaziladi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, shunga monand ravishda, ularni o'tkazish uslubi ham bir-biridan farq qiladi. Ta'lim tizimida olib borilayotgan ommaviy madaniy tadbirlarni quyidagi ikki turga bo'lish mumkin:

1. Bevosita ta'lim jarayonida o'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbirlar. Ularga madaniy tadbirlarning ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot kabi dars shakllarida foydalaniladigan turlari kiradi. Tadbirlarning bu turidan foydalanilganda dars mashg'ulotlari davomida monologlardan, instsenirovkalardan, badiiy asarlardan, video va audio yozuvlaridan parchalar keltiriladi. Bu tadbirlar o'rganilayotgan predmet, kurs yoki fanni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga bu tadbirlar talabalarga dars jarayonida qisqa muddatli hordiq berish funksiyasini ham bajarishi mumkin.

2. O'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtlarda o'tkaziladigan ommaviy madaniy tadbirlar. Ularga mavzuli kechalar, o'tkir zexnlilar baxslashuvlari, ijodiy uchrashuvlar, ilmiy baxslar, dam olish kechalari, munozara, ilmiy va ijodiy

konferentsiya, teatrlashgan kontsert, ommaviy tomosha, sayil, bayram, karnaval, ko'rik-tanlovlar, sayoxat, ekskursiyalar, olimpiada, ko'rgazmalar, qiziqarli o'yinlar, badiiy-sport tadbirlari, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqalar kiradi. Ommaviy madaniy-ma'rifiy tadbirlarning bu ikki turi bir-biridan faqat o'tkaziladigan vaqti bilan farqlanmaydi. Ularning maqsadlari ham bir. Mashg'ulotlar jarayonida o'tkaziladigan tadbirlarning maqsadi shu mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuni chuqurroq anglash, yaxshiroq eslab qolishga xizmat qilishdir. Masalan, ommaviy-madaniy tadbirlar sirasiga kiradigan "Navro'z" bayrami ham "...barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtiradi, ularning qalbida eng go'zal va oliyanob tuyg'ularni uyg'otadi". Yoshlarning bo'sh vaqtlarida o'tkaziladigan tadbirlar muayyan bir mavzuga emas, balki barcha uchun umumiy bo'lgan yo'nalishda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Bular jumlasiga mavzuli kechalar, o'tkir zexnlilar baxslashuvlari, ijodiy uchrashuvlar, ilmiy baxslar, dam olish kechalari, munozara, ilmiy va ijodiy konferentsiya, teatrlashtirilgan kontsert, ommaviy tomosha, sayil, bayram, karnaval, ko'rik-tanlovlar, sayoxat, ekskursiyalar, olimpiada, ko'rgazmalar, qiziqarli o'yinlar, badiiy-sport tadbirlari, badiiy havaskorlik to'garaklari va boshqalar kiradi. Bu tadbirlarda ko'ngil ochish ko'proq o'rin egallaydi. Lekin, odatda bu tadbirlarda mazkur o'quv yurti xususiyatlari, yo'nalishi ham muayyan darajada aks etadi. Ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishda samaradorlikka erishish uchun mazkur tadbirlar interfaollikka asoslanishi zarur. Lekin har qanday tadbir ham interfaol bo'lavermasligini unutmash kerak. Ommaviy madaniy tadbirni interfaol holatda o'tkazmoqchi bo'lgan tashkilotchi, avvalo, interfaol jarayonning mohiyatini to'g'ri tushunib olishi kerak. Olib borilayotgan izlanishlarimizdan ma'lum bo'lmoqdaki, ayrim "eski qolip"da ishlab o'rgangan xodimlar bugungi kunda hamyo'q emas. Interfaol jarayon ommaviy-madaniy tadbir qatnashchilarining mustaqil fikr yuritishlariga ko'proq imkoniyat yaratishni taqozo etadi va o'zaro muloqotga kirishishda qatnashchilarning faolligi nazarda tutiladi. Ommaviy-madaniy tadbirlarni yuqorida qayd etilgan tashkilot va muassasalar ishining bir bo'lgi sifatida, ya'ni asosiy vazifadan tashqari holatda tashkil qilinsa, xozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, shuni ham qo'shimcha qilgan xolda ta'kidlash lozimki, bu tadbirlar o'quv yurtlari pedagog-o'qituvchilari ishining asosiy qismi, asosiy vazifasi sifatida qaralib, ular bevosita bajarishi zarur bo'lgan asosiy funksiyalaridan xisoblanishi lozim. Chunki, ta'lim jarayonida faqatgina ma'ruza o'qish, seminar o'tkazish kabi shakllar bilan cheklanilsa, bir tomondan, mashg'ulotlar zerikarli bo'lib qoladi, ikkinchi tomondan, ta'lim jarayonining tarbiyaviy jihati oqsab qolishi mumkin. Ta'lim jarayoniga kuvnoqlar va zukkolar tortishuvlari, ilmiy baxslar, munozara, ijodiy uchrashuv, mavzuli kecha singari madaniy-ma'rifiy tadbirlarni jalb etish mashg'ulotlarning juda qiziqarli bo'lishini ta'minlash bilan birga ularning tarbiyaviy jihatdan yuqori samarali bo'lishiga ham ko'maklashadi. Bu esa mazkur tadbirlar ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash bilan birga ularning xar ikkisi ham yuqori samarali bo'lishiga xizmat qilishini anglatadi.

Hozirgi murakkab sharoitda o'sib-unib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan ommaviy-madaniy tadbirlarni joylarda amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir. Ommaviy-madaniy tadbirlar turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Bunda quyidagi vazifalarni nazarda tutish lozim: ta'lim muassasalarida bolalar va talabalarining yoshiga mos ravishda ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkillash; - maxsus ta'lim muassasalaridagi o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda ommaviy-madaniy tadbirlarni g'oyaviy negizlarini teran aks ettirish; - maktab, kollej, institut va universitetlarda ommaviy-madaniy tadbirlarni bugungi kun

tablari darajasiga ko'tarish shular jumlasidandir. Demak, ommaviy-madaniy tadbirlar "...millatimizga faqat o'zligi namoyish etishning tarixiy imkoniyatlarini yaratibgina qolmay, yangicha yashash, fikrlash, ayniqsa, yoshlar oldiga hayotda o'ziga munosib o'rin egallash, umuminsoniy qadriyatlarga uyg'un milliy mafkuraga asoslangan yangicha ma'naviyatni egallab olish talablarini ham qo'ydi". Ommaviy-madaniy tadbirlar negizini xalqimizning ko'p asrlar davomida to'plagan bebaho xazinasi bo'lgan xalq og'zaki ijodi tashkil etganligi uchun ham u ko'p qirrali, serjilo, sermazmundir. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topgan. Uning boyligidan qancha ko'p baxramand bo'lsak, u kamaymaydi, balki shunchalik boyib boradi. Uni qanchalik chuqur va ko'p o'rgansak, u o'zining yangi qirralarni shunchalik ko'p zohir etadi. Shu sababli ham biz mazkur xazinaga, ularga e'tiqod qo'ygan an'analarga suyanishimiz, ulardan o'z o'rnida oqilona foydalanishimiz zarur. Shundaygina jamiyatimizning olg'a qarab borishini ta'minlaymiz. Ommaviy-madaniy tadbirlar hayotning barcha ijtimoiy jarayonlarida namoyon bo'ladigan kishilar borlig'i, muayyan maqsad sari yo'naltirilgan kundalik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy turmush faoliyati jarayonida shakllanadi. Bunda ma'naviy hayot, madaniy ehtiyojlar jamiyat ma'naviy hayotining o'zagini tashkil qiladi. Chunki aynan ana shu ehtiyojlar natijasida jamiyatning ma'naviy hayoti shakllanadi va rivojlanib boradi.

Joylarda o'tkazilayotgan ommaviy-madaniy tadbirlar o'ziga xos xususiyati, jumladan, ta'sirchanligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaliligi, emotsionalligi bilan jamiyat ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra o'tkaziladigan ommaviy-madaniy tadbirlar quyidagi tartibda amalga oshirilishi lozim:

1. Avvalo, ommaviy-madaniy tadbirlar o'ylangan reja asosida, g'oyaviy badiiy maqsadni ko'zda tutgan holda tayyorlangan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, o'tkazilgan har bir tadbirda necha o'n yillar davomida to'planib kelayotgan tajribalar doim hisobga olinishi, bu esa har yili o'tkaziladigan

an'anaviy tadbirlarni yanada o'gacha, o'ziga xos, original elementlarini alohida nazarda tutib o'tkazishga katta ijodiy yordam beradi.

2. Ommaviy-tadbirlar o'zining ta'sirchanligi bilan alohida ajrab turishi kerak. Chunki tadbirlarga tayyorgarlik ko'rilayotganda, tadbir ishtirokchilari va tashkilotchilari, kerak bo'lsa, ijtimoiy-gumanitar va musiqa mutaxassislari bilan bir necha bor ilmiy-nazariy, amaliy maslahat yig'ilishlarni o'tkazib, ularda tadbirning barcha muhim jihatlarni o'zaro muhokama qilib, olib chiqilayotgan materiallarning ko'lami, hajmi, mazmuni, g'oyasi, ijrosi, sarflanadigan vaqti tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar. Barkamol inson ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirishda ommaviy-madaniy tadbirlarning o'ziga xos o'rni bor bo'lib, o'z xususiyatiga egadir. Chunki unda "...go'zallik, ulug'vorlik, ko'tarinkilik, tushkinlik, g'amginlik, hazinlik, ma'yuslik, singari tuyg'ularni uyg'otuvchi xususiyatlari mavjud va xuddi mana shu jihatlari orqali inson ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatadi". Ommaviy-madaniy tadbirlarning mohiyatini anglab yetish shundan iboratki, ularning barchasi inson baxtsaodatining ko'zgusi deb tushunishlikni taqazo etadi. Zero, kelajagi buyuk xalqimizning poydevori tarixan boy ma'naviy meros ustiga qurilgan bo'lib, faxrlanishga arzigulik zarvaraqariga egadir. Ommaviy-madaniy tadbirlarning tashkilot va muassasalarda olib borishi zarur bo'lgan quyidagi tavsiyalar ko'zda tutiladi: - ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan madaniyat tashkilotlari va ijtimoiy muassasalarda ommaviy-madaniy tadbirlar oqilona tarzda tashkil qilish uchun ularning moddiy bazasini yaratish va mustahkamlash; - yoshlarning ma'naviy saviyasini yuksaltirish va kamol topishida ommaviy-madaniy tadbirlarning ijtimoiy ahamiyatini oshirib borish; - ijtimoiy sohada davlatimiz olib borayotgan siyosatni yoshlar ongiga singdirishda ommaviy-madaniy tadbirlarning o'rnini alohida e'tirof etish shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2019-yil 3-maydagi PQ - 4307-sonli Qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. -T.: O'zbekiston. NMIU. 3-tom. 2019. -B. 277
3. Qoraboev U. O'zbek xalq bayramlari. -T.: Sharq nashriyot - matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2002. -B. 72
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat. 2008. -B. 124-125
5. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -T.: O'zbekiston. NMIU. 2-tom. 2018. -B. 478
6. Siddiqov I.B. Yoshlarda intellektual madaniyatni rivojlantirish: ijtimoiy-falsafiy tahlil. -Farg'ona. 2021. -B. 81-82
7. Feruza Asqar. Musiqa va inson ma'naviyati. -T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti. 2000. -B. 29 ISSN: 2181-3337
8. Akhadjonovich K. A. The classification, content, essence and function of values.
9. Nasretidinova Madina, Toshaliyev Dilshod, & Murodova Durдона Raimjon Qizi (2022). An'anaviy ijrochilik sanatining hozirgi davr muammolari. Scientific progress, 3 (2), 846-850.10. Ahadjonovich, K. A. (2021, January). Scientific and spiritual in the rise of science the importance of heritage. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 369-372).
10. Nasritdinova Madina 2021/9-II Actual problems of modern science, education and training theoretical fundamentals of health through developing children through music education. 29-33 page
11. Toshaliyev, D. (2021). A brief philosophical-scientific analysis of makoms. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 91-95.
12. Nasritdinova, M. (2021). Pedagogical components and stages of health of develop children through music education. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(05), 251-258.
13. Qurbonova, B. (2017). Fine arts role in development spiritual мировоззрения persons. ученый XXI века, (2- 3), 50.
14. Курбонова, Б. (2017). Роль изобразительного искусства в развитии духовного мировоззрения личности. Ученый XXI века, 48.



Nafisa INAGAMOVA,
Uzbekistan state world languages university Department of English practical subjects №1
E-mail: nafisainagamova@icloud.com

Under the review of Yuldashev Akmal Gulyamovich PhD in philology of UzSWLU

ТИЛ ЎРГАНУВЧИЛАРНИНГ ПРАГМАТИК КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ МАҚОЛ ВА МАТАЛЛАР ОРҚАЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Аннотация

Ушбу мақолада олий ўқув юрларида инглиз тили дарсларида прагматик компетенцияни шакллантириш омили сифатида фойдаланиш билан боғлиқ мақол ва маталлар муаммоси ўрганилган. Чет тилни коммуникатив-йўналтирилган ўқитиш жараёнида ўқишнинг биринчи йилларида тилдан тўғри фойдаланиш учун зарур бўлган қисм сифатида юкори тартибли нутқни талаба нутқига киритиш имконини беради. Чунки мақол ва маталлар асосий фразеологик бирликлар бўлиб, уларнинг билими ва уларни тўғри қўллай билиши сўзловчи нутқига бадий ифодалик беради.

Калит сўзлар: Мақол ва маталлар, прагматик компетенция, коммуникатив йўналтирилган ўқиш, бадий ифода, халқ амалий санъати, мамлакат маданияти.

DEVELOPMENT OF PRAGMATIC COMPETENCE OF LANGUAGE LEARNERS THROUGH PROVERBS AND SAYINGS

Annotation

In this paper, the problem of proverbs and sayings associated with their usage as a factor in the formation of pragmatic competence in English lessons in higher education has been studied. In the process of communicatively oriented teaching of a foreign language in the first years of study, it allows to include higher-order speech in the student's speech as a part necessary for the correct use of the language. Since proverbs and sayings are the main phraseological units, and their knowledge and ability to use them correctly gives artistic expressiveness to the speaker's speech.

Key words: Proverbs and sayings, pragmatic competence, communicatively oriented teaching, artistic expressiveness, folk art, culture of the country.

РАЗВИТИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ИЗУЧАЮЩИХ ЯЗЫК ЧЕРЕЗ ПОСЛОВИЦЫ И ПОВОРОККИ

Аннотация

В данной работе изучено проблема связанных с использованием пословиц и поговорок как фактор формирования прагматической компетенции на уроках английского языка в высшей школе. В процессе коммуникативно-ориентированного обучения иностранному языку на первых годах обучения, позволяет включить в речь студента речь более высокого порядка в качестве части, необходимого для правильного использования языка. Так как пословицы и поговорки являются основными фразеологическими оборотами, а их знание и умение правильного их использования придает художественную выразительность речи говорящего.

Ключевые слова: Пословицы и поговорки, прагматическая компетентность, коммуникативно ориентированное обучение, художественная выразительность, народное творчество, культура страны.

Introduction. Real knowledge of a foreign language implies the ability to speak, using expressions, phraseological units characteristic of this language. Phraseological turns are special units of the language, characterized by the integrity of the meaning, the stability of the lexical composition and syntactic structure. They are used in speech ready, i.e. they must be known in the form in which they are established in the language, and with the meaning that has been assigned to them. Changing their composition, replacing some words with others can be justified only by certain stylistic goals. This is observed in works of fiction and journalism, when the authors update its composition in order to introduce additional expressive shades (jokes, ironies, etc.) into the phraseological unit.

In real life, we most often encounter situations when, thanks to communication, it becomes possible to carry out other, “non-verbal” activities. As a rule, in communicating with other people, we need to speak out in order to achieve a certain result, which has a non-verbal goal as its source. We speak in order to achieve something, and this happens precisely because speech and communication are not just

woven into the fabric of human life, but, above all, actively serve all spheres of human activity. The use of proverbs and sayings makes this process easier. Since such an entry of speech into the structural organization of activity determines the directionality of the influences that arise here. Acting as a peculiar form of transferring socio-historical experience, fixed in the language, speech in ontogenesis becomes a powerful weapon for the formation of a person's personality, his consciousness, a regulator of his behavior, and the organization of activity rises to a qualitatively new level, in turn, providing opportunities for further speech development.

Literature review. Scientists from various fields of domestic and foreign science have been and continue to be engaged in the study of folk art products, among which proverbs belong.

The study of proverbs in Russian linguistics goes back to the works of such linguists as E.A. Lyatsky, F.I. Buslaev, A.A. Potebnya, V.I. Dal. However, in the 19th century, as well as at the beginning of the 20th century, in the studies of both domestic and foreign authors as A. Taylor, B. Whiting etc. these units are studied from the point of view of folklore. All

scholars of this period speak of the nationality of proverbs in terms of origin and use, emphasizing their edifying nature. Judgments about the actual linguistic features of proverbs can be found in the works of E.A. Lyatsky, who points to the whole-predicative nature of proverbs [1]. The question of the linguistic status of proverbs has not yet found a final solution. In general, today we can talk about two opposite approaches in relation to these units:

- 1) non-phraseologically oriented;
- 2) phraseologically oriented.

Representatives of the first approach speak of the inadvisability of recognizing proverbs as linguistic units and consider them only as speech works. [3] As the main argument in defense of their point of view, they cite the structural originality of these units, referring to the thesis of S. Bally about the equivalence of phraseology to the word [2]. A proverb is a sentence, simple or complex, and this contradicts the principle of structural uniformity of phraseological units. The peculiarity of proverbs in the semantic and structural terms lies in the fact that they express a complete thought. It is for this reason, according to the above linguists, that they cannot be included in the phraseological system of the language.

Research methodology. In modern linguistics, some scientists single out pragmatics as a subject of study and are of the opinion that it explores language in use. Because the product of the language is a text, let us pay attention to the formation of pragmatics in different aspects. A living language in the variety of its characteristic functions and variants is the central object of study of pragmatics. The conditional speaker loses his position in front of the real speaker, who performs speech activity in a different environment and colloquial-pragmatic space. The main principles of pragmatics are anthropocentrism and egocentrism. Pragmatics presents language as a system of means and focuses on communicative processes, as well as on the principles of operation of this system in various situations of communication. Language in it is considered not only a system of signs, but the unity of many of its functional options: vernacular, dialects, etc. There is another definition of pragmatics. Thus, some scientists believe that pragmatics is a linguistic discipline equivalent to phonetics, phonology, lexicology and linguistics in general.

Linguistic pragmatics as a science studies the use and functioning of linguistic signs in real communication processes. At the same time, it should be borne in mind that the meaning of various statements and words is assumed as an obligatory part of the specifically considered pragmatic situation. Their meaning can only be determined using the communicative goal and communicative acts. This feature is a consequence of the regulation of the use of the language, its dependence on the rules and norms of use. Within the framework of linguistic pragmatics, language issues related to the subject - the speaker, the addressee of communication, their interaction in situations of communication are studied. After analyzing the works of scientists related to the study of pragmatics, we can conclude that the review of approaches is sufficient to form a clear idea of the role of linguistic pragmatics in modern linguistics. However, the question of pragmatics as a separate discipline is still open.

Analysis and results. Proverbs as a kind of expression of folk wisdom, as a phenomenon common in all languages of the world, have long attracted and continue to attract the attention of linguists.

There are a large number of dictionaries of proverbs in different languages, a number of works that consider these sayings as part of folklore. At the same time, their linguistic study from the point of view of modern science is just beginning.

In this work, this peculiar type of phraseological units of the English language was studied from the point of view of its pragmatic potential in the language system and pragmatic characteristics in speech implementation.

Being originally intended to have an impact, already in the language system, proverbs are characterized by pragmatic potential. The analysis carried out in terms of the theory of speech acts, taking into account the structural and semantic features of English proverbs, made it possible to reveal their illocutionary force. During the study, it turned out that most of the proverbs at the deep level are potentially endowed not only with the illocutionary power of affirmation, but also with the illocutionary power of advice or warning. Often there is a combination of the illocutionary powers of advice and warning.

In a real situation of using a proverb, only one of the types of illocutionary force characteristic of it is most often chosen. Nevertheless, it is important to take into account the above characteristics of proverbs, which reflect their pragmatic features already in the language system and, thus, predetermine the pragmatic aspects of these units in a particular communication situation.

The pragmatic characteristics of English proverbs in speech were studied on the example of their implementation in works of art by English and American authors over the last 20 years of the 20th century.

Proverbs are used mainly in the dialogical speech of the characters, as well as in non-direct speech, both in the usual and in the occasional form.

A comparative analysis of the use of proverbs in the usual and occasional form showed that in this study the number of proverbs in the occasional form exceeds the number of proverbs in the usual form.

Obviously, this state of affairs can be explained by the speaker's desire for independence of judgment, a general rather dismissive attitude towards stereotyping. Proverbs in an occasional form bring the effect of surprise into speech, thus making it more lively and emotionally rich.

The use of proverbs is to some extent predetermined by such pragmatic factors as age, social status, level of education of communicants, as well as gender differences. The conducted research shows that these units are used by representatives of all generations of both sexes. The average age of the interlocutors is 25-40 years. The speech of people under the age of 20 is characterized by a much less saturation of proverbs in the usual form, or even their absence. Young people often use occasional proverbs in their speech.

The use of proverbs is mainly carried out in situations that are symmetrical in terms of age criteria and social status. In asymmetric situations, as a rule, the proverb is used from the highest to the lowest, from the oldest to the youngest.

An analysis of examples of the speech implementation of proverbs showed a close relationship between the proverb and the context. In general, three types of interaction between the proverb and the context are distinguished.

1. Proverb-conclusion. In this case, with the help of a proverb, the speaker confirms the correctness of the expressed thought or idea.

2. The proverb is the basis for subsequent reasoning,

3. Proverb-conclusion-basis.

Most often, the speaker uses the proverb as a conclusion or basis for subsequent reasoning.

An analysis of proverbs in a real situation of communication confirmed the previously expressed idea that they all have a pragmatic orientation, which receives its final embodiment only in the context. Features of the interaction of the context and the proverb depend on the situation of

communication. And this is predetermined, first of all, by the intention of the speaker.

The act of speaking is usually intentional. Of course, cases of spontaneous communication (for example, at the airport or in line at the store) between strangers or unfamiliar people should also be taken into account. In such situations, the choice of language units, as well as their possible modification, is more a consequence of the situation of communication that has arisen than the intention of the speaker.

In this regard, it seems promising to study the pragmatic characteristics of proverbs in spontaneous speech.

Interesting and promising is the comparative study of the proverbial picture of the world, as well as the national specifics of the proverbial picture of the world in different languages; the study of a combination of a national and individual picture of the world.

Conclusion and recommendations. Science does not stop there. Now interesting techniques and methods are being developed, with the help of which teachers try to resist unfavorable learning conditions, to go beyond the rigid framework of the program and textbooks, in order to somehow get closer to the set learning goals.

Today, the need to take into account the entire complex of school learning conditions has become more recognized - the lack of a language environment and the natural need for students in the practical use of a foreign language, the presence of students of even one age group of different psychological and pedagogical prerequisites for the success of mastering foreign language communication.

Since one of the urgent problems in teaching a foreign language is the development of a linguistic and cultural aspect, it seems to us very useful to use proverbs and sayings in the form of a diverse methodological arsenal.

The use of proverbs and sayings in English lessons contributes to a better mastery of this subject, expanding knowledge about the language and the features of its functioning. Introduction to the culture of the country of the language being studied through elements of folklore gives students a sense of belonging to another people.

Thus, the organization of learning a foreign language in close connection with the national culture of the people who speak this language, educational materials, in particular, will help to strengthen the communicative and cognitive motivation of students, expand the general cultural outlook, will diversify the methods and forms of work, appeal to the intellect and the emotional sphere of schoolchildren, most effectively implement the general didactic requirement of combining training with education. We believe that the implementation of such approaches in teaching will increase the motivation, activity, initiative of the child in the classroom, which means that there is a need, the need to gain knowledge and master the skills and abilities in a foreign language.

Thus, we can conclude that the main goal of the work, the development of recommendations for a foreign language teacher on the use of proverbs and sayings aimed at the formation of pragmatic competence, has been achieved.

REFERENCE

1. Bogdanov V.V. Speech communication: pragmatic and semantic aspects. L.: Publishing House of Leningrad State University, 1990.
2. Bondarenko N. G. Modified proverbs and sayings in the headings on pages of modern newspapers // Modern philology: materials of the Intern. Scientific conf. April 2011 - Ufa: Summer, 2011. - P. 236–239.
3. Kunin A.V. Phraseology of modern English. The experience of a systematic relationship. M.: 1972. - 288 p.



Moxinur ISAKOVA,
Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
E-mail:moxinura@gmail.com

Falsafa fanlari doktori O'.Tilavov taqrizi asosida

XOTIN-QIZLARNING IJTIMOY- IQTISODIY HAYOTDAGI O'RNINING YUKSALISHI

Annotatsiya

Maqolada bugungi jamiyatimizdagi xotin-qizlarni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoyalash, ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy, ijtimoiy, globallasuv, innovatsiya, qaror, siyosat, turizm.

ПОВЫШЕНИЕ ПОЛОЖЕНИЯ ЖЕНЩИН В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ

Аннотация

В статье говорится о том, что вопрос правовой, экономической и социальной защиты женщин в нашем обществе сегодня, создания для них благоприятных условий поднялся на уровень государственной политики.

Ключевые слова: Экономическая, социальная, глобализация, инновации, решение, политика, туризм.

INCREASE OF WOMEN'S POSITION IN SOCIO-ECONOMIC LIFE

Annotation

The article talks about the fact that the issue of legal, economic and social protection of women in our society today, and the creation of favorable conditions for them, has risen to the level of state policy.

Key words: Economic, social, globalization, innovation, decision, politics, tourism.

Kirish. Mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Respublikasi xuquqiy demokratik davlat va adolatli fuqorolik jamiyati qurish yo'lidan dadil bormoqda. Bu borada jamiyatda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa xotin-qizlar xar soxada jamiyatimizda o'z faolligini ko'rsatib kelmoqda. O'tgan davr mobaynida davlat tomonidan xotin-qizlar masalasini xal qilishda izchil siyosat olib borilishi asoslarini o'rganish uchun mavzuning dolzarbligi belgilandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan gender tenglikni ta'minlashga qaratilayotgan ustuvor e'tibor natijasida, xotin-qizlarning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash ularning davlat va jamiyat xayotidagi o'rnini mustahkamlash masalalari davlat siyosati-ning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu esa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida xotin-qizlarning faolligini oshirish oilada va jamiyatda mavqeyini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Dunyo mamlakatlarida turizm sohasining o'ziga xos jihatlari, jumladan, xunarmandchilik, aholiga turli xizmatlar ko'rsatish, eksport salohiyatini o'stirish, aholining, ayniqsa, xotin-qizlarning bandligini ta'minlashdagi hissasi, shu bilan birga xotin-qizlarning turizm va tadbirkorlik rivojidadagi alohida o'rni masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilmoqda. Hozirgi kunda xotin-qizlarning turizmni rivojlantirishdagi ishtiroki, ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, bu jarayonda uchraydigan muammolar sabablarini o'rganish yuzasidan keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borish borilmoqda.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, yurtimiz hududlarida xunarmandchilikning turli soxalari qadimdan mavjud bo'lgan. XIX asrda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan sayyohlar elchilar o'z ustaliklarida yozib qoldirganlar. A. Berns va E. Meyendorf O'rta Osiyodagi shaharlar bozorlari hunarmandchilikning turlari haqida malumot berishgan.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ayollar rolining ortishi, ularning ijtimoiy xayotning barcha soxalarida faol ishtirok etishi, onalik burchlarini bajarish bilan ishlab chiqarishdagi mexnat faolliklarini

muvaffaqiyatli tarzda birga qo'shib olib borish uchun zarur xuquqiy va ijtimoiy kafolftlarning yaratilganligi shkndan dalolat beradiki O'zbekiston xayotining barcha soxalarini qamrab olgan tub o'zgarishlar jarayoni tufayli ijtimoiy iqtisodiy muommolarni xal etish gender tengligi jarayonlarni hal etishning sharti bo'lib qolmoqda. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning yangi shakllaridan bo'lgan kichik va o'rta biznes xamda xususiy tadbirkorlikda ayollarning ishtiroki katta axamiyatga ega bo'ldi. Jamiyatda ayollarning mehnat bilan bandligiga tasir ko'rsatadigan ko'plab omillarni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruhga ayollarning iqtisodiy faolligi va bandligining umumiy darajasini mexnatga bo'lgan nuqtai nazaridan taqozo etuvchi omillar (iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi sanoatning rivojlanish darajasi mexnat sharoitlari va boshqalar) kiradi.

Ikkinchi guruhni ayollarning mehnat bilan band bo'lishiga tasir ko'rsatuvchi o'ziga xos omillar-tug'ilish, maktabgacha bolalar muassasalari bilan taminlanish darajasi, ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajalari, xotin-qizlar ishchi kuchining kasbiy malaka xususiyatlari ayollarning ijtimoiy mehnat motivatsiyasi – tashkil etadi. Mazkur omillarning rivojlantirilishi ayollarning mexnat salohiyatini oshirish imkonini beradi. Jumladan, 1996-yil aprel oyidan boshlab kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ayollar va oilaviy majburiyatlarni bajarish bilan band bo'lgan shaxslar uchun maxsus qo'shimcha imtiyozlar ko'zda tutilgan. Kodeksning 222-237-moddalarida xotin-qizlar mehnatidan foydalanish taqiqlangan og'ir ishlar ro'yxati Mehnat vazirligi va Adliya vazirligi tomonidan 1996-yil 28-mayda tasdiqlandi.

Hozirgi kunda hukumatimiz o'z rivojlanish strategiya-sida ayollarning jamiyat ishlarida faol ishtirok etishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish borasida keng kamrovli ishlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston xotin-qizlarining chevarchilik, kashta-chilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik kabi kasanachilik mehnat shakli asosida bozor iqtisodiyoti talablariga mos zamonaviy

tadbirkorlik va erkin raqobat muhitiga transformatsiyalashuv jarayonlari, chekka hududlarda sanoatni rivojlantirish, tadbirkor, fermer xotin-qizlar ilg'or tajribalarini ommalashtirishga qaratilgan keng qamrovli faoliyati, o'sish sur'atlari va amaliy natijalari dalillangan;

Aholi ijtimoiy faol qismi tarkibida izlanuvchan va tashabbuskor tadbirkor xotin-qizlar salmog'ining oshib borishi, davlat va nodavlat tashkilotlar, xalqaro jamg'arma va grant loyihalari ko'magida tadbirkor ayollar huquqlarini himoya qilish tizimining takomillashishi, maqsadli moliyaviy resurslar ajratish iqtimoiy mehnat bozorida qulay sharoitlar yaratish borasidagi ijtimoiy-huquqiy omillar ochib berilgan;

O'zbek ayoli tabiatidagi tadbirkorlik xislatlarining shakllanishi uzoq tariximizga borib taqaladi. Tadbirkorlikning milliy asosda namoyon bo'lishi va rivojlanishida hunarmandchilik muhim rol o'ynaydi. Bolalikdan hunar o'rganish, yaratgan mahsuloti va mehnati bilan odamlarga naf keltirish xalqimizning milliy qadriyatiga aylangan.

Hunarmandchilik – oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda, qo'l mehnati asosida faoliyat olib boruvchi sanoat turi bo'lib, milliy va an'anaviy mayda ishlab chiqarish sohasi hisoblanadi. Jamiyat tarixiy taraqqiyoti va mehnat taqsimoti bilan bog'liq ravishda hunarmandchilikning uchta: uy hunarmandchiligi – kasanachilik, buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan, bozor uchun mahsulot yetkazib beruvchi turlari shakllandi. Uy hunarmandchiligi sanoat ishlab chiqarishigacha bo'lgan davrda hunarmandchilikning eng ko'p tarqalgan turi bo'lgan. Hunarmandlarning buyurtma asosida mahsulotlarni bozorga tayyorlashi natijasida, hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqarildi va bu o'z navbatida hunarmandchilikning yangi turlari vujudga kelishiga hamda shaharlar taraqqiyotiga sabab bo'ldi. Hunarmandchilik ham turli mahsulotlar tayyorlash bo'yicha ixtisoslasha bordi. O'zbekistonda qadimdan oq hunarmandchilikning dastlabki muhim tarmog'i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarish va to'qimachilik vujudga keldi, yirik hunarmandchilik markazlari paydo bo'ldi. Ip mato, gilam, shoyi, mis va temirdan turli ro'zg'or buyumlari tayyorlash, shisha mahsulotlari ishlab chiqarish avj oldi. Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xiva, Toshkent kabi shaharlarining ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik hamisha muhim rol o'ynab kelganligi tarixiy manbalardan ma'lum[1]. O'zbekistonda chevarlik, kashtachilik va kasanachilik bilan ayollar uyda o'tirib shug'ullanishgan. Hunarmandchilikda ustoz-shogird an'analari mavjud bo'lib, avloddan-avlodga o'tib keluvchi o'ziga xos tartib-qoida va me'yorlar, axloqiy mezonlarga amal qilingan. Shogird o'z ustozidan fотиha olgandan keyingina o'zi mustaqil faoliyat olib borgan[2]. Bugungi kunda ham bu an'analarga amal qilib kelinadi. Hunar turlari asrlar davomida kengayib, yangi yo'nalishlar va maktablar bilan boyib borgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda respublikada hunarmandchilikning 34 turi mavjud bo'lib[3], shaharlarda kasb-koriga qarab hunarmandlarning mahallalari shakllangan. Mustaqillik yillarida ayol avvalo, inson sifatida ijtimoiy-siyosiy, huquq va

erkinliklarga ega ekanligi e'tirof etilib, erkaklar bilan huquqiy mavqei va jamiyatda tutgan o'rni qonun doirasida o'zaro tenglashtirildi. Bunga eng muhim asos – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'lib, uning 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar"[4], deb belgilab qo'yildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida sovetlar davridan meros qolgan ayollar masalasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish va yangi sharoitda ularning ijobiy hal etilishini ta'minlashga e'tibor kuchaytirildi. Barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq huquqiy-demokratik davlat qurish, inson, uning manfaatlari, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. 1992-yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan Vazirlar Mahkamasi oldiga xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi[5]. Umuman olganda, respublikadagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishi xotin-qizlarning turli yo'nalishlarda erkin faoliyat yuritishi, ular manfaatlarini himoya qilishda tub o'zgarish yasash zarurligini ko'rsatdi.

O'tish davrida ayollarning ahvoli oilada uy-ro'zg'or yumushlari mas'uliyati ularning zimmasida bo'lgani bilan emas, balki ular mehnat bozorida erkaklarga nisbatan ta'lim, malaka darajasi nisbatan pastligi tufayli murakkablashdi. Mustaqillik tufayli Sobiq Ittifoq davridagi yirik korxonalar boshqaruvining mahalliyashuvi, mulkchilik shaklining o'zgarishi, boshqa respublikalar bilan mavjud bo'lgan o'zaro iqtisodiy aloqalarning izdan chiqishi tufayli ular faoliyatining sustlashishi, to'xtab qolishiga, ishsizlar sonining keskin oshishiga, jumladan xotin-qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki ham kamayib ketishiga olib keldi. Agar 1992-yilda mehnatga qobiliyatli yoshdagi jami ayollarning 46,5 foizi ular hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1997-yilda bu 42,2 foizgato'g'ri keldi[6]. Integratsiyalashgan rejali iqtisodiyotda O'zbekistonga asosan, xom-ashyo: paxta, gaz, minerallar va nodir metallar ishlab chiqarish roli ajratib berilgan edi. Respublikaning poytaxt va industrial shaharlarida sanoat rivojlanishiga qaramay, O'zbekiston asosan, xom-ashyo resurslari ishlab chiqaruvchi mamlakat bo'lib qolaverdi. Bu esa, aholining, ayniqsa qishloq aholisining turmush darajasi va sifatiga ta'sir qilmay qolmadi. Shuning uchun, O'zbekistonda xotin-qizlar asosan, malakasiz qo'l mehnati ulushi katta bo'lgan tarmoqlarda band bo'lib qoldi.

Xulosa va takliflar. Ayollarga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarishi, ularning jamiyatdagi mavqeni mustahkamlash, munosib yashash va mehnat sharoitlarini yaratish, ijtimoiy-siyosiy faolliklarini oshirish, davlat boshqaruvidagi, muhim hukumat qarorlarini qabul qilishdagi ishtirokini faollashtirish, intellektual salohiyatini oshirish, o'z iqtidorlarini turli jabhalarda namoyon etishlari uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berish, ijtimoiy muammolarini hal etish, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, iqtisodiy sohada, tadbirkorlikda, fan va texnika taraqqiyotidagi o'rnini kengaytirish kabi masalalar davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi.

ADABIYOTLAR

1. Astanaqulov X. Turizm salohiyati yuksalmoqda. // «Jamiyat» gazetasi, 2013-yil 27-sentabr soni.
2. Amonboev A., Gimranova O. Regionalnyy turizm. Tashkent. Izd. Iqtisodiyot, 2019 g. 197 str.
3. Ivatov I. Globallashuv shapoitida xalqaro turizm bozorini rivojlantirish. Ekonomika i sotsium. Jurnal. 2021-yil, 12-son.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. T.2020
5. Ro'ziev S.S.O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari T.2000.
6. O'zbekistonda turizm. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi 2016-2021-y. 118-son
7. Berezinskaya N.L. Turizm kak faktor mejdunarodnyy kommunikatsii. Sank Peterburg 1999 g.
8. Usmanova Z. Turizm – xo'jalik faoliyatining sohasi sifatida va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida uni rivojlantirish muammolari. Iqtisod va moliya, jurnal. 2012-yil, 12-son.



UDK:1(075.8)

Munira KAXAROVA,

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbarining birinchi o'rinbosari, siyosiy fanlar doktori F.Jo'raqulov taqrizi asosida

POSSIBILITIES OF PROMOTION TECHNOLOGIES (FOR THE EXAMPLE OF THE USA)

Annotation

In this article, the possibilities of digital advertising technologies were analytically presented on the example of the United States of America. It emphasized the issue of cyber threats. The threat of the Internet is considered to be the cause of conflicts between countries today.

Key words: Cyber threat, technology, propaganda, internet, cyber war, ideology, spirituality, idea, state, national mentality, ethnic group, threat.

ВОЗМОЖНОСТИ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОДВИЖЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ США)

Аннотация

В данной статье аналитически представлены возможности цифровых рекламных технологий на примере Соединенных Штатов Америки. Особое внимание было уделено проблеме киберугроз. Угроза Интернета сегодня считается причиной конфликтов между странами.

Ключевые слова: Киберугроза, технология, пропаганда, интернет, кибервойна, идеология, духовность, идея, государство, национальный менталитет, этнос, угроза.

RAQAMLI TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI (AQSH MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli targ'ibot texnologiyalarining imkoniyatlari Amerika qo'shma shtatlari misolida tahliliy bayon etildi. Unda kiber tahdid masalasiga urg'u berildi. Internet tahdidi bugungi kunda davlatlar o'rtasida kelib chiqayotgan nizolarni sabab bo'lishi asoslandi.

Kalit so'zlari: Kibertahdid, texnologiya, targ'ibot, internet, kiberurush, mafkura, ma'naviyat, g'oya, davlat, milliy mintalitet, etnik guruh, tahdid.

Kirish. Axborot olami ichida yashayotgan bugungi kun kishisi umri davomida ko'pdan-ko'p manbalar, dalillari raqamlarga murojaat qilishga majbur. "Raqamlar sehiri"dan insonlarni ta'sir doirasiga olishning bir usuli sifatida foydalanilishi ham shundan. Aslida, bu narsalar insonga atrofda – yurtida va dunyoda sodir bo'layotgan voqea, hodisa, jarayonlarni anglashi, ularning o'zaro aloqadorligi, munosabati va mohiyatiga chuqur kirib borishi uchun kerak. Bugun oddiy ma'naviyat bilan ilg'orlar safida bo'lish ehtimoli past. Bu yerda faqat yuksak ma'naviyatgina yordam bera oladi.

Raqamli dunyo ko'rinadigan va hozirgi tahdidning yangi turini olib keldi, ya'ni kiber urushni vujudga keltirmoqda. Internet va axborot texnologiyalari shu darajada rivojlanganki, ular hozir milliy kuchning asosi bo'lib ko'rinadi, so'nggi yillarda kiber urush tobora ortib borayotgan sarlavhalarni bosib o'tib, bu muammoning ko'lamini ko'rsatmoqda. Mamlakatlar o'zlarining kiber salohiyatini kuchaytirayotgan, milliy kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqayotgan va ayni paytda yangi siyosiy motivlarga ega kiber mudofaa va hujum vositalarini qidirayotgan paytda kibermakon siyosiy mojarolarning yangi maydoniga aylandi. Ijtimoiy media, shunga qaramay, so'nggi hodisalar, o'z yo'nalishi bo'yicha rivojlanmoqda. Targ'ibot deyarli ming yillardan buyon davom etayotgan bo'lsa-da, yaqinda ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot endi juda qisqa vaqt ichida butun xalqlarga ta'sir o'tkaza oladigan uslubiy jarayonga jalb qilingan. Jamoat ongini kuchli manipulyatsiya qilish ijtimoiy texnologiya vositalari orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, tashviqot ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshirilgandan so'ng, u kiber urushda siyosiy vositaga aylanadi, shuning uchun kiber

urushning yangi elementlari yuzaga chiqmoqda. Zamonaviy kiber urushning mohiyati nafaqat texnologik qaramaqarshilikni, balki ijtimoiy aloqani ham o'z ichiga boshladi. Siyosiy maqsadlar va kibermakondagi mamlakat xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy media manipulyatsiyasi haqidagi xabarlar tobora ortib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kiber urushning umume'tirof etilgan ta'rifi yo'q. Richard A. Klark, ilgari AQSh Xavfsizlik, infratuzilmani himoya qilish va terrorizmga qarshi kurash bo'yicha milliy koordinator va eng ko'p sotilgan "Kiber urush: Milliy xavfsizlikka keyingi tahdid va unga qarshi nima qilish kerak" nomli kitobining hammuallifi kiber urushni "millatning harakatlari" deb ta'riflaydi. U bir davlat boshqa davlatning kompyuterlari yoki tarmoqlariga zarar yetkazishi yoki buzish maqsadida kirib borishini tushuntiradi[1]. 2011-yilda OECDning Future Global Shocks loyihasi uchun yozgan keng qamrovli hisobotida Piter Sommer va Ian Braun tomonidan qiziqarli ta'rif taklif qilingan: "Haqiqiy kiberurush - bu odatiy urush xususiyatlariga ega, ammo faqat kiberfazoda kurashgan voqea". Biroq, aniq ta'rif maslahat kengashi, CompTIA tomonidan taklif qilingan va kiber urush uning "xavfsizlik, mudofaa qobiliyati, hayotiy infratuzilmasi yoki jamiyatlariga bevosita tahdid soluvchi zararli kiberfaoliyat" ta'rifi bilan belgilanadi. muayyan shtat yoki mintaqa[2]. Ushbu harakatlar xorijiy davlat, trans-davlat ishtirokchisi yoki siyosiy sabablarga ko'ra tashkilot tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Kiber urush tajovuzkorlarga ishonchli inkor qilish imkonini beradi, chunki kiberhujumlarning kelib chiqishini kuzatish juda qiyin. Hatto hujumning kelib chiqishini aniqlash ham jabrlanuvchiga yordam bermasligi mumkin, chunki Internet Protokol (IP) manzillari soxta bo'lishi mumkin,

tajovuzkorlar uzoq joylardan foydalanishi mumkin va trafik anonim serverlar orqali yo'naltirilishi mumkin. Ushbu inkor etilganligi sababli, ko'plab davlatlar qo'lida mutlaq dalillarga ega bo'lmagan holda boshqa mamlakatni kiberhujum uyushtirganlikda ayblashdan ehtiyot bo'lishadi. Ishonchli inkor qilishdan tashqari, kiber urush harakatlari arzonroq, shuning uchun kichik davlatlar uchun qulayroqdir. Yangi Amerika xavfsizligi markazining texnologiya va milliy xavfsizlik dasturi bo'yicha ilmiy xodimi Emi Changning so'zlariga ko'ra, "kiber urush oddiy qurollarga ajoyib muqobildir". Jeffri Karning so'zlariga ko'ra, hujum va mudofaa axborot urushining o'ziga xos vositalari to'rtta vositani o'z ichiga oladi, ular orasida psixologik manipulyatsiya mavjud, bu tom ma'noda tashviqotdir[3].

AQShning NCISdagi vakili va Kibermudofaa kooperativi Kenet Geersning so'zlariga ko'ra, tashviqot arzon, samarali, lekin tez-tez ham eng oson va eng kuchli kiberhujum emas[4]. Kiber urush harakatlari nafaqat kibermakonga zarar yetkazishi mumkin, balki kinetik effektlarga o'tadigan jarayonlarni manipulyatsiya qilish uchun ishlatilishi mumkin, ehtimol jismoniy, haqiqiy dunyoga zarar yetkazishi mumkin. Ishonchli inkor etilishi va arzonligi natijasida tobora ko'proq mamlakatlar kiber urushga kirishmoqda. Mamlakatga hujum qilish uchun kiber urushdan foydalanishning turli usullari mavjud. Texnologiya va jamiyatni o'rganish markazi (Texnologiya va jamiyatni o'rganish markazi Vashingtondagi notijorat tadqiqot va ta'lim tashkiloti bo'lib, uning vazifasi zamonaviy fan va texnologiya tomonidan qo'yilgan muhim axloqiy va siyosiy masalalarni jamoatchilik tushunishini yaxshilashdan iborat. Uning asosiy faoliyati choraklik The New Atlantis jurnalini ishlab chiqarish va nashr etib boradi) kiber urushning harbiy harakatlar vositasi sifatida ishlatilishi mumkin bo'lgan beshta usulni aniqladi. Bu vositalar josuslik qilish va muhim ma'lumotlarga kirish, dushman harbiy operatsiyalarini to'xtatish va muhim infratuzilmaga hujum qilish, veb-saytlarni buzish yoki tashviqotni tarqatish uchun kiber urushdan foydalanishni o'z ichiga oladi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda yangi tendensiya yangi yo'nalishni ko'rsatmoqda. To'g'ridan-to'g'ri hujumlardan jamiyatga qarshi harakatlarga, ishonirishga qaratilgan hujumlarga o'tmoqda. Natijada tashviqot kiber urushning muhim elementiga aylanib bormoqda. Kibertahdid mavzusini o'rganayotgan ko'plab tadqiqotchilar bor. So'nggi paytlarda tadqiqotlar kiber harakatlar va kibertahdidlarning boshqa siyosiy va ijtimoiy tadqiqotlar bilan o'zaro bog'liqligini chuqurroq tahlil qilmoqda. AQSh qonunchiligiga ko'ra, yashirin harakatlar hukumatning siyosiy, iqtisodiy va harbiy sohalarga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xorijda hukumatning roli oshkora bo'lmasligi yoki omma oldida tan olinmasligi ko'zda tutilgan shartlar ko'p yillar davomida siyosiy maydonda yashirin harakatlar asosida qurilgan, shu bilan birga ular kiber makonga muvaffaqiyatli o'tgani ma'lumdur. Jeffri Karning fikriga ko'ra, yashirin kiber harakatlar ikkita umumiy turdagi bo'lishi mumkin: -maqsadli mamlakatning muhim elementlarini qo'llab-quvvatlovchi nodavlat aktyorlarning kompyuter tarmoqlarini falaj qilish harakatlari; - psixologik operatsiyalar ostida qoladigan targ'ibot va dezinformatsiya[6].

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlanganidek, kiber arenadagi tashviqot hukumatlar tomonidan boshqa mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy yoki harbiy sharoitlariga urush quroli sifatida ta'sir qilish uchun foydalanilayotganini isbotlaydi. Hukumatlar yolg'on ma'lumotlarni tarqatish va ijtimoiy fanlarning aqlli taktikalarini qo'llash orqali bostirib kirish, aldash va nazorat qilish maqsadida yashirin onlayn operatsiyalarni amalga oshirmoqda. Ijtimoiy media manipulyatorlarining taktikasiga misollar quyidagilardir: "ijtimoiy tarmoqlarga har xil yolg'on materiallarni kiritish" va "onlayn nutq va faollikni boshqarish uchun ijtimoiy fanlar va boshqa

usullardan foydalanib, kerakli natijalarga erishish" Ushbu turdagi ma'lumotlar mahfiydir, ammo misol sifatida Britaniya hukumati bilan aloqalar bo'yicha bosh qarorgohining (GChQ) Joint Threat Research Intelligence Group (JTRIG) tomonidan taqdim etilgan "Aldash san'ati: trening" deb nomlangan ma'lumotlarni onlayn maxfiy operatsiyalar uchun taqdim etadi. Hujjatda hukumatning asosiy maqsadiga erishish uchun qo'llanilayotgan strategiya va taktikalar belgilab berilgan. Bu soxta bayroq operatsiyalarini o'z ichiga oladi, ya'ni Internetda nishonga noto'g'ri kiritilgan ma'lumotlarni, soxta qurbonlik blog yozuvlarini joylashtirishni, kerak bo'lgan joyda salbiy ma'lumotlarni joylashtirishni anglatadi. Targ'ibot taktikasi ommaviy xabarlar va ijtimoiy media platformalarida hikoyalarni manipulyatsiya qilishni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda AQShning milliy va iqtisodiy xavfsizligi xavfsiz, ishonchli va bardoshli texnologiyaga bog'liq. Ammo raqamli tahdidlar hukumat va sanoatdagi muhim tizimlarni buzishda davom etmoqda. Yildan yilga muammoga milliardlab dollar sarflayotganiga qaramay, AQSh tahdidlarga qarshi turishga harakat qilmoqda. Va keyingi yigirma yil ichida rasmiylar fuqarolik va harbiy infratuzilmaga kibertahdidlar ko'payishini va raqamli va jismoniy olamlarning birlashishi natijasida kibermojarolar yanada kuchayishini kutishmoqda.

Qo'shma Shtatlar misli ko'rilmagan choralar ko'rish kerak: u butun mamlakat kiber strategiyasini va qo'llab-quvvatlovchi kibexavfsizlik tizimini ishlab chiqishi va faollashtirishi kerak. Ushbu imkoniyatdan foydalanish yanada kengroq sa'y-harakatlarni, ishonchli oldini olish siyosatini ta'minlash uchun kibermudofaa va huquqbuzarliklarni birlashtirishni, muhim kiberdomenlarda davlat va xususiy sektor o'rtasida har kungi hamkorlikni va kibertexnologiyalarni safarbar qilishni talab qiladi.

Shubhasiz, AQSh ma'muriyati katta yutuqlarni yo'naltirmoqda va federal tizimlar va muhim infratuzilmalarning kibexavfsizligi va mustahkamligini yaxshilash uchun katta mablag' ajratmoqda, ularning aksariyati xususiy mulkdor sifatida boshqariladi. AQSh rasmiylari butun mamlakatni kiber-rejalar qilishga chaqirmoqda. Bunday harakatlar xakerlarning maqsadlarini inkor etish orqali kibertahdidlarning oldini olishga yordam beradi[7]. Biroq, tahdidlardan samarali o'tish uchun qo'yidagilarni bajarishi kerak:

1. Kibexavfsizlik doirasini kengaytirish

Qo'shma Shtatlar ko'plab milliy davlatlar va jinoiy guruhlardan kelib chiqadigan kiber-josuslik, sabotaj va ta'sir operatsiyalaridan himoya qilish uchun ham kuchni loyihalash uchun to'liq spektrli imkoniyatlarga muhtoj. Bu to'liq spektrli kiberaoliyat va fuqarolarga qaratilgan butun mamlakat bo'yab harakat qilish uchun siyosat, rejalar, dasturlar va tadbirlarni ishlab chiqishni anglatadi.

2. Huquq va mudofaa foydalanish

AQSh kibehuquq va mudofaa usullarini yangilangan milliy strategiya, tegishli siyosat, butun hukumatning operatsion modellari, harbiy daqiqalardan tashqariga chiqadigan doktrina, rollar va mas'uliyatlar atrofida aniqlik va ziddiyat bilan yaxshiroq birlashtirish va sinxronlashtirish kerak.

Muvaffaqiyat qanday bo'lar edi? Yangi boshlanuvchilar uchun himoyachilar hujumchilar tomonidan qo'llaniladigan taktika, texnika va protseduralarni qo'lga kiritishlari va ularni Milliy xavfsizlik agentligi va AQSh kiber qo'mondonligiga mudofaaga qaratilgan hujum operatsiyalarini qo'llab-quvvatlashlari kerak. Pentagonning siyosat boshlig'i joriy yil boshida Kongressda aytganidek, AQSh kiberdushmanlarni jazolash - kibermakonda va boshqa sohalarda millatga hujum qilganlarga qarshi javob qaytarish orqali to'xtatishi kerak. Aks holda, kibermudofaa xarajatlarini nomaqbul bo'lib qoladi.

Bundan tashqari, hukumat tajovuzkor kiberoperatsiyalar haqidagi tushunchalarni olish, ularni anonimlashtirish va mudofaani yaxshilashni tezlashtirish uchun ularni himoyachilar bilan baham ko'rish yo'llarini topishi kerak. Bu AQShning muhim infratuzilmasini kiberhujumlarga bardosh berish va operatsiyalarni davom ettirish uchun yetarlicha chidamli qilish uchun juda muhimdir. Va agar AQSh mojarolar nazoratdan chiqib ketmasdan kibertahdidlarning oldini olishni kutsa, mustahkamlikni oshirish juda zarur bo'ladi.

3. Davlat-xususiy hamkorlikni qayta tasavvur qilish

Davlat va xususiy sektorlar kibertahdidlar bo'yicha ma'lumotlar almashishni yaxshilashlari kerak, shunda korxonalar tahdidlar bo'yicha tezkor ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Kiberxavfsizlik va infratuzilma xavfsizligi agentligi (CISA) direktori Jen Easterli haqli ravishda ma'lumot almashishni agentlikning "super kuch" deb ataydi va undan to'liq foydalanish kerak. CISA ning yangi qo'shma kiber mudofaa hamkorligi (JCDC) davlat va xususiy sherkatlar uchun umumiy xabardorlik va tahlilni ta'minlash uchun yaxshi birinchi qadam bo'ladi. Oxir oqibat, yangi milliy kiberxavfsizlik markazida hukumat va sanoat mutaxassislari o'rtasida ko'proq yuzma-yuz, yonma-yon hamkorlik qilish kerak.

Hamkorlik orqali Qo'shma Shtatlar tahdidlarni tushunishni rivojlantirishi, qarshi choralar ishlab chiqishi, zararli infratuzilmani yo'q qilishi va tayyorgarlik, oldini olish va tiklash ishlarini kuchaytirishi kerak. Millat raqamli tahdidlarni yengib chiqqach, bu usullarni himoyachilarga o'tkazish yo'llarini topishi kerak. Ko'proq harakatga layoqatli razvedka bilan qurollangan tashkilotlar o'zlarining ichki tarmoqlarida yashiringan xakerlarni yo'q qilish uchun proaktiv tahdid ovini kuchaytirishlari kerak.

AQSh Milliy kiber-direktori Kris Inglis ta'kidlaganidek, xususiy sektor va hukumat kibertahdidlarga qarshi integratsiyalashgan, hamkorlikda ishlashi kerak. Bu nafaqat kengroq real vaqt rejimida ma'lumot almashishni, balki muhim infratuzilma kompaniyalariga davlat dushmanlari tahdidlariga qarshi turishga yordam beradigan ko'proq federal resurslarni ham o'z ichiga olishi kerak. Shuningdek, kiberstrategiya va operatsiyalarni ishlab chiqishda AQSh rasmiylari xususiy sektorga mumkin bo'lgan ta'sirlarni yodda tutishlari kerak.

Kompaniyalar muvofiqlik o'rniga kiber mudofaa oqibatlarini yumshatishga e'tibor qaratishlarini osonlashtirish uchun AQSh kiberxavfsizlik standartlari bo'yicha ko'proq hamkorlikka muhtoj. Shuningdek, manfaatdor tomonlar Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti ishiga asoslanib, kiber mudofaani kuchaytirish uchun ommaga ochiq loyihalar, tayyor vositalar, grantlar va moliyalashtirishga muhtoj. Va amaldorlar o'rta va kichik biznesdagi yuklarni yengillashtirish uchun tobora murakkab qoidalarni tartibga solishlari kerak, shunda ular xavflarni kamaytirish va yumshatishga e'tibor qaratishlari mumkin.

4. Yangi yechimlarni yaratish

Ertangi kiberxavfsizlik yechimlarini yaratish uchun AQSh milliy kibertexnologiya va innovatsion bazadan

foydalanishi kerak. Hukumat bazani rivojlantirishi zarur, ko'p milliard dollarlik venchur kapitali xarajatlari asosida va ittifoqdosh sheriklar bilan buni amalga oshirishni ko'rib chiqishi kerak.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda AQSh federal idoralar va idoralarning asosiy vazifalari doimiy xavf ostida qolishi mumkin. Kiberkosmosning raqamli jang maydonlarida tahdid subyektlari ustunlik qiladi va nafaqat ".gov" muhitini, balki AQSh agentliklar xizmat ko'rsatadigan infratuzilma, sanoat va shaxslarni ham urmoqda. Biroq, kiberhujumlar tobora tez-tez va shiddatli o'sib borayotgan bo'lsa ham, bu muhim institutlar eski infratuzilma, maxsus muvofiqlashtirish va reaktiv kiber mudofaa operatsiyalari kabi muammolar bilan bog'liq. Yildan-yilga ".gov" kiberxavfsizlikka bag'ishlangan xarajatlarning sezilarli o'sishi kiberxavfsizlikning nisbatan yetukligini oshirdi, ammo ".gov" ekotizimini davom etayotgan hujumdan himoya qila olmadi.

".gov" muhiti keng qamrovli, yaxshi federal kiberxavfsizlikning umumiy operatsion rasmi atrofida qurilgan kiberxavfsizlikka qanday yondashishi va amalga oshirishi borasida inqilobga muhtoj. Sayohat sanoat, hukumat va xalqaro ilg'or tajribalarga asoslangan yagona federal kiberxavfsizlik tizimidan boshlanadi, bu esa ".gov" bo'ylab ko'proq xavfsizlik va chidamlilik uchun tizimli tasavvurni ta'minlaydi. Ushbu ramka federal kiberrahbarlarga vakolat beruvchi va federal agentliklarni - Kiberxavfsizlik va infratuzilma xavfsizligi agentligidan (CISA) tortib kichik fuqarolik agentliklarigacha - kiberxavfsizlikni o'zgartirish yo'lida belgilovchi aniq "Shimoliy yulduz" bo'lib xizmat qiladi.

Bugun aksar davlatlar maqsad-muddaosida - milliy g'oyasida umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslangan mafkuralar ustuvorlik kasb etmoqda. Milliy xavfsizlik, sarhadlari daxlsizligi - birlamchi maqad. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson va jamiyat kamolotiga xizmat qiladigan umuminsoniy g'oyalar muhim sanaladi. Shuning barobarida inson ongida yangicha dunyoqarash va tafakkur tarzi shakllanayotgan bir davrda muayyan kuchlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga, o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan intilishi ham tobora g'oyaviy-mafkuraviy, amaliy kuchayib bormoqda.

Internet tahdidi yuqorida keltirilgan AQSh misoli, shular jumlasidandir. Axboriy tahdidlar, axborot urushi, kiberterrorizm, ludomaniya, mediavirus, dezinformatsiya, virtual ta'qib kabilarda namoyon bo'lmoqda. Eng yomoni, bugun ekstremizm, umuman, vayronkorlikni onlayn ko'rinishlari avj olmoqda. Ular safiga tobora yoshlar, ayollar va hatto bolalar kengroq jalb etilmoqda. Turli shakllarda namoyon bo'layotgan terrorchilik kuchli moddiy asosga egaligi ham bunga qaysidir ma'noda turtki bo'lmoqda. Shuning uchun atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga ongli, ilmiy yondashish, tarixan isbotlangan milliy, diniy qadriyatlarimizga hurmat bildirish, ajdodlar ruhi, ilmiy merosini qadrlash, tahliliy xulosalar chiqarish bugungi kunda ayniqsa muhimdir.

ADABIYOTLAR

1. Gerasimov V. Zadachi Voennoy Nauki, Obzor voyenno-politicheskoy obstanovki v mire, http://dokwar.ru/publ/-novosti_i_sobytiya/mnenie/zadachi_voennoj_nauki/9-1-0-681 (retrieved 02.02.2015).
2. Sommer P., Brown I., Reducing Systemic Cybersecurity Risk 2011 - 6 p.
3. Suci P., Why cyber warfare is so attractive to small nations Article, Fortune, 2014.
4. Geers K., Cyberspace and the changing nature of warfare, SC Magazine, 2008.
5. Applegate S.D., "National Security Special Focus: Cyber Warfare." Center for the Study of Technology and Society. Washington D.C., 2001 - p. 10.
6. Carr J. Inside Cyber Warfare. Mapping the Cyber Underworld, O'Reilly 2nd edition, 2012.
7. Booz Allen Hamilton. American City Business Journals. 2022-yil 2-soni. <https://www.boozallen.com/insights/cyber/-transforming-federal-cybersecurity.html>.



Kumush KOSIMOVA,
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti magistri
E-mail: kumushjumanova99@gmail.com

O'ZDJTU falsafa doktori (PhD) Maxmudova N.A taqrizi asosida

11- SINIF VA 1-BOSQICH TALABALARI UCHUN INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'QISH VA YOZISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Ingliz tilida yozish, ayniqsa ijodiy yoki mustaqil ravishda yozish, odatda 11-sinf o'quvchilari uchun qiyin ishdir. Tadqiqot hozirgi stsenariyni va ushbu qiyinchiliklarning sabablarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu maqola, shuningdek, o'quvchilarga yozish ko'nikmalarini rivojlantirishning ba'zi usullarini ko'rsatib beradi, bu ularni o'z akademik hayotida qo'llashi mumkin. Ma'lumotlar turli xil yozish jarayonlari va o'quvchilar tomonidan dars mashg'ulotlari asosida tuzilgan so'rovnoma yordamida to'plangan. So'rov O'zbekistonning xususiy universitetida ingliz tili bo'limida tahsil olayotgan yoki til bo'yicha kurslarda qatnashgan talabalar o'rtasida o'tkazildi. Natijalar asosida barcha uch manfaatdor tomonlar: o'quvchilar, o'qituvchilar va muassasalar uchun ba'zi amaliy tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Jarayonni yozish, aqliy hujum, ro'yhat va klaster, tsikl, oldindan o'qish, almashish, qayta ko'rib chiqish.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ И ПИСЬМА В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА У УЧАЩИХСЯ 11 КЛАССОВ СТУДЕНТОВ 1 КУРСА

Аннотация

Письмо на английском языке, особенно творческое или самостоятельное письмо, обычно является сложной задачей для учащихся высших учебных заведений. Исследование направлено на выявление существующего сценария и причин этих проблем. Эта статья также предписывает учащимся некоторые способы развития навыков письма, чтобы они могли применять их в своей академической жизни. Данные были собраны с помощью вопросника, который был составлен на основе различных процессов письма и практики учащихся в классе. Опрос проводился среди студентов, обучающихся или прошедших курсы языковой подготовки на кафедре английского языка в частном университете Узбекистан. На основе полученных данных были сделаны некоторые практические рекомендации для всех трех заинтересованных сторон: учащихся, учителей и учебных заведений.

Ключевые слова: Написание процесса, мозговой штурм, составление списков и группировка, зацикливание, предварительное чтение, совместное использование, пересмотр.

DEVELOPMENT OF READING AND WRITING SKILLS IN LEARNING ENGLISH FOR 11 GRADE STUDENTS AND 1- COURSE STUDENTS

Annotation

Writing in English, especially writing creatively or independently, is usually a challenging endeavor for learners in the 11 grade classrooms. The study aims at discovering the present scenario and the reasons for these challenges. This paper also prescribes to the learners some ways for developing writing skills so that they can apply them in their academic life. Data was collected using a questionnaire which was formulated on the basis of different processes of writing and classroom practice by the learners. The survey was conducted among the students who were studying or had taken language skills courses at the Department of English in a private university of Uzbekistan. Based on the findings, some practical recommendations have been made for all three stakeholders: learners, teachers, and institutions.

Key words: Process writing, brainstorming, listing and clustering, looping, prereading, sharing, revising.

Kirish. Barcha mulohazalarga ko'ra, yozish barcha talabalarning akademik hayotida o'rganishi kerak bo'lgan ko'nikmalardan biridir va shuning uchun yozishni o'rgatish O'zbekistondagi barcha ta'lim darajalarida, ayniqsa oliy o'quv yurtlarida juda muhim o'quv maqsadi sifatida qabul qilingan. Qizig'i shundaki, o'quvchilarning yozuvlarini rivojlantirishga katta e'tibor berilganiga qaramay, bu ko'pchilik talabalar uchun doimo qiyin mahorat bo'lib kelgan. G'oyalarni to'plash, ularni to'g'ri tartibda tartibga solish, yozish oqimini saqlash, xatosiz va uyushiq jumlarlar yozish va jozibali iboralarni qo'llash - ular duch keladigan muammolardan biri. yozish jarayonlari haqida yaxshi bilimga ega emas. Biroq, muammolarni osongina engib o'tish mumkin va agar ular yozish paytida ba'zi samarali jarayonlarni kuzata olsalar, vazifa ular uchun juda ilhomlantiruvchi va qiziqarli bo'lishi mumkin. Tadqiqotning asosiy maqsadi g'oyalarni tartibga solish va ularni yozma ravishda qo'yish mumkin emasligi

sabablarini ochib berishdir. Tadqiqotning yana bir maqsadi - o'quvchilarga qiyinchiliklarni engish yo'llarini topishga yordam berish uchun yozishning turli jarayonlarini topish va tushuntirish va o'quvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida yozish ko'nikmalarini qanday rivojlantirish haqida xabardorlikni oshirishdir. Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun quyidagi tadqiqot savollari qo'yildi:

1-tadqiqot savoli: O'quvchilar yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yozuv darslarida qanday jarayonlarga rioya qilishadi?

2-tadqiqot savoli: Talabalar yozishning turli xil asosiy tushunchalari bo'yicha qanchalik bilimga ega?

Tadqiqot savoli 3: Yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qanday standart jarayonlarga rioya qilish kerak?

Ushbu savollarga javob berish uchun Toshkentdagi oliy o'quv yurtida talabalarning fikrlarini o'rganish uchun qisqa so'rov o'tkazildi. So'rov natijalari ushbu maqolada

taqdim etiladi va muhokama qilinadi. Nihoyat, topilmalar va muhokamalar asosida pedagogika uchun ba'zi ta'sirlar ta'kidlandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Universitet grantlari komissiyasining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda oliy ta'lim talabalarining asosiy qismiga ta'lim beradigan 40 ta davlat universiteti va mamlakatning etti bo'linmasida 72 ta xususiy universitetlar mavjud (2018). Ushbu universitetlar ingliz tiliga alohida e'tibor berishadi, chunki bu til milliy va xalqaro maydonlarda katta talabga ega. Shuningdek, ular ingliz tilida so'zlashadigan muhiti bilan talabalarni jalb qilish orqali moliyaviy daromad olishdan manfaatdor.

Milliy Universitetda barcha bakalavr, bakalavr va BSS yo'nalishlari bo'yicha o'tish va imtiyozli diplomga ega bo'lgan talabalar majburiy ingliz tili kursini – 100 balldan umumiy ingliz tilini va ularning akademik ta'limini va kelajakdagi ehtiyojlarini osonlashtiradigan maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) deb nomlangan boshqa kursni o'rganishlari kerak. Shu nuqtai nazardan, Hossainning (2013) kuzatishi ham xuddi shunday tasdiqlaydi. Oliy o'quv yurtlarida talabalar akademik paragraflar va insholardan tortib, turli turdagi akademik maqolalar, hisobotlar va hokazolargacha bo'lgan ko'plab yozma topshiriqlarni bajarishlari kerak. darajasi va ularning yozilishi izchil bo'ladi, bu erda fikrlar va g'oyalari tartibga solinadi (Cohen & Miller, 2003). Biroq, O'zbekiston oliy o'quv yurtlari talabalari uchun ular to'rtta til ko'nikmalarini - tinglash, gapirish, o'qish va yozishni o'rganishga harakat qilsalar ham, yozish ular uchun eng qiyin mahorat hisoblanadi (Karim, Maasum va Latif, 2017). Uchinchi darajali sinfda yozishni o'rgatish borasida Sinha (2013) oliy darajadagi o'quvchilar duch keladigan shunga o'xshash qiyinchiliklarni kuzatadi (77-bet). Uning so'zlariga ko'ra, bunday qiyinchiliklardan biri ular da turli xil yozish vazifalarini bajarish uchun zarur ko'nikma va iboralarning etishmasligidir. Ular duch keladigan yana bir qiyinchilik - grammatika va tilni to'g'ri qilish haqida tashvishlanishdir. Bu qiyinchiliklar ular uchun yozishni qiyinlashtiradi va ularning yozish vazifalarini bajarishga to'sqinlik qiladi.

Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan holda, Barman va Akhter (2014) yozish har doim o'quvchilar uchun nafrat, yoqtirmaslik va hatto nafrat mavzusi bo'lib kelgan, deb hisoblaydilar, bundan mustasno. Alam (2007) tomonidan ham xuddi shunday fikr berilgan. Uning kuzatishicha, ko'pincha o'quvchilar lug'at va grammatika (masalan, zamon, qo'shma gap va old qo'shimchalar) haqida bilimga ega bo'lishi mumkin, biroq ularni baholagandan so'ng ular izchil yozish va fikrlarni qayta tuzishda muammolarga duch kelishadi. Bernshteyn (Xigginsda keltirilgan, 2003) shunday dedi:

Aksariyat odamlar uchun yozish yolg'iz, asabiy va baxtsiz tajribadir. Yozish jarayonidan rohatlanadigan yozuvchi g'ayrioddiy ko'rinadi. Aksariyat yozuvchilar yozishni yoqtirishadi, lekin qalamni qog'oz varag'i bo'ylab siljitish yoki tugmachalarni birin-ketin bosish kabi haqiqiy vazifadan hech qanday zavq olishmaydi. (8-bet)

Til o'qituvchilari sifatida biz, shuningdek, sinfda o'quvchilardan kundalik hayot bilan bog'liq mavzularda yozishni so'rashganda, ular intellektual muammoga duch kelishlarini boshdan kechirdik. Shunga o'xshash muammo Barman va Akhter (2014) tomonidan aniqlangan. Ularning fikriga ko'ra, o'quvchilar yozmoqchi bo'lganlarida, o'zlarini bo'sh his qilishadi. Ular zulmatda bo'lib, g'oyalarni izlaydilar, lekin hech narsa topolmaydilar. Ko'pincha ular o'zlarini mag'lubiyatga uchragan va yo'qolgandek his qiladilar, bu esa oxir-oqibat ularni hafsalasi pir bo'ladi, motivatsiyani yo'qotadi va yozishga qiziqmaydi (100-bet).

Yozishni o'rgatish: jarayonga yondashuv

L2 yozish muammolarini hal qilish va malakali L2 yozuvchilarni rivojlantirish uchun hozirgacha turli olimlar

tomonidan yozishga turli yondashuvlar kiritilgan. Eng keng tarqalgan ikkita yondashuv mahsulotga yondashuv va jarayon yondashuvidir. Mahsulot yondashuvi yozish jarayonining o'zi emas, balki yakuniy mahsulotning quyilishini asosiy yo'nalish sifatida baholaydi (Harmer, 2011, 325-326-betlar).

Tadqiqot metodologiyasi. Xarmerning fikricha, ko'plab olimlar ESL kontekstida yozishga jarayonli yondashuvni yoqlaydilar. Jarayon yondashuvi nuqtai nazaridan, yozish "fikrlash jarayoni" sifatida qaraladi (Braun, 2001, 336-bet). Bu yondashuvda yozuvchilar ijodi va "yozuvchi va yozuvchilarning ichki dunyosi o'rtasidagi kognitiv munosabatlar"ga urg'u beriladi (John Swales, 1990, 220-bet). Braun (2001) jarayonli yondashuvning muhimligini ta'kidlab, uni til o'rganishda talabalar uchun foydali deb hisoblaydi va bu jarayonda talabalar o'z yozuvlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'kidlaydi, chunki ular yozish paytida fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu yondashuvda talabalar ma'lum bir mavzu bo'yicha yozishlari vaqt cheklovi bilan cheklanmaydi. Raimes (1983) ta'kidlaganidek, "jarayonda yozish jarayonida o'quvchilar vaqt chekloviga ega bo'lmasalar... aksincha ular mavzuni yozish orqali o'rganadilar" (10-bet). Ushbu yondashuv har qanday yozma asar boshidan kechiradigan turli bosqichlarga urg'u beradi. Harmer (2011) jarayonli yondashuvning afzalliklari haqida gapirar ekan, o'quvchilar bilan yozishdan oldingi bosqichlarda vaqt o'tkazish, tahrirlash, qayta tuzish va nihoyat, ularning ishini tugallangan versiyasini ishlab chiqarish orqali jarayon yondashuvi quyidagi maqsadlarga erishishni maqsad qiladi, deb hisoblaydi. ko'pchilik yozuvchilar qo'llaydigan turli ko'nikmalarning qalbiga (325-326-betlar).

Jarayonlar g'oyalarni kashf qilish uchun zarur bo'lgan vosita sifatida ishlaydi. Bular o'quvchilarga o'zlarining taqirlarini engishga yordam beradi va ularni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish uchun ular ichida yashiringan g'oyalar bulog'ini ochishi mumkin. Ushbu tadqiqotda yozish mahsulot sifatida emas, balki o'quvchiga g'oyalarni yaratishdan boshlashga va topshiriq bajarilgunga qadar oldinga siljishga yordam beradigan jarayon sifatida taqdim etilgan.

Tribble (1996) ta'kidlaganidek, "ko'p kengaytirilgan matnlar tarkibida aniqlash mumkin bo'lgan bosqichlar mavjud bo'lsa-da, odatda yozuvchilar bu bosqichlarning ba'zilarini matn tugaguniga qadar ko'p marta qayta ko'rib chiqishadi" (38-bet). Shunday qilib, yozish jarayonining turli doiralari va modellarini tahlil qilgandan so'ng, yozishning beshta asosiy bosqichi borligini aytish mumkin. Bular oldindan yozish, loyihalash, qayta ko'rib chiqish, tahrirlash va almashish.

Braun (2001) yozuvdan oldingi bosqich uchun sinfda quyidagi tadbirlarni taklif qiladi: aqliy hujum, ro'yxat, klaster, erkin yozish, parchani (keng miqyosda) o'qish, parchani ko'zdan kechirish va/yoki skanerlash (348-bet).

Loyihalash bosqichida o'quvchilar grammatik yoki mexanik xatolar haqida qayg'urmasdan, g'oyalarni ishlab chiqishga va ularni yozishga harakat qilishadi. G'oyalar ishlab chiqarish, ularni tartibga solish, mavzuni ishlab chiqish, rejani ishlab chiqish, auditoriyani hisobga olish va boshlash yozuvchilarning birinchi qoramani yozish uchun qiladigan faoliyatidir (Tribble 1996, 113-bet).

Tahlil va natijalar. Yozishni jarayon sifatida tan olgan holda, turli tadqiqotchilar yozish strategiyalarining turli modellarini taklif qilishadi. Biroq, olimlar turli atamalar va ma'nolarni ishlatsalar ham, ular ko'proq yoki kamroq bir xil strategiyalarga murojaat qilishadi. Aqliy hujum yoki g'oyalar yaratish yoki tezisni kashf qilish, g'oyalarni sanab o'tish yoki qo'llab-quvvatlash yoki diqqatni jamlash, iskala yoki konturni yaratish, tarmoqqa bo'lish va aylanish yoki tartibga solish, bepul yozish va xaritalash, loyihalash, baholash, qayta ko'rib chiqish, qayta ishlash, jigma yozish, tahrirlash yoki tuzatish va

birinchi loyihani takomillashtirish, yakuniy versiyani tayyorlash tadqiqotchilar tomonidan tavsiya etilgan ba'zi mashhur strategiyalardir (Barman & Akhter, 2014; Byrne, 1988; Hedge, 1988; Heffernan, Linclon & Atwill, 2001; Langan, 2005; Shaw, McDonough & Shaw & 2020). va Miller, 1999).

Biroq, ushbu mashhur strategiyalarning barchasini o'rganib chiqib, biz o'rganishimizda asosan quyidagi strategiyalarga e'tibor qaratdik:

1. Aqliy hujum: Bu g'oyalarni yaratish uchun eng keng tarqalgan strategiya. Aqliy hujum orqali o'quvchilar mavzuga oid barcha fikrlarni sanab o'tadilar. Bu bosqichda o'quvchilar o'z rejalari asosida erkin yozadilar. Ular grammatik va tashkiliy aniqlik haqida ko'p bezovta qilmasdan g'oyalarni ishlab chiqaradilar va birinchi jummalarni yozadilar. Oddiy qilib aytganda, aqliy hujum deganda mavzu yoki g'oyadan boshlash, qog'ozga qalam yoki barmoqlarni klaviaturaga qo'yish va xayolga kelgan narsani qog'ozga tushirish tushuniladi.

2. Ro'yxat va klasterlash: Bu bosqichda o'quvchilar mavzuni o'zaro bog'liq g'oyalarni tasviri va aloqalar konturi orqali o'rganadilar. Barcha tegishli fikrlar so'zlar va iboralar shaklida keltirilgan. Ro'yxatda keltirilgan so'zlar va iboralar guruhlarga bo'linadi va shuning uchun bog'lanish jarayoni yaratiladi. Bu umumiy g'oyalardan muayyan sohalarga o'tish jarayonidir. Bu, shuningdek, fikrlarni tartibga solish jarayonidir. Bu yozuvchining fikrini g'oyaning batafsil

oxirigacha aylantirish imkonini beradi. Umuman olganda, bu g'oyalarni rivojlantirish va guruhlash usulidir.

3. Oldindan o'qish: Bu juda foydali strategiya bo'lib, yozuvchilarga bilim ufqlarini kengaytirishga yordam beradi. Bu ularga har doim eng so'nggi bilimlar va boshqa odamlarning mavzu bo'yicha fikrlari bilan yangilanish imkoniyatini beradi. O'qish har doim yozuvchiga ijodiy g'oyalarni yaratishda yordam beradi.

Xulosa. Tadqiqot uchinchi bosqichda yozishni o'rgatish va o'rganish holatlarini o'rganib chiqdi va tavsifladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, talabalarning aksariyati yozish jarayonlari bo'yicha zarur bilimlardan bexabar. Talabalarning ba'zilarini turli xil yozish strategiyalari haqida ma'lum darajada tushunchaga ega bo'lishsa-da, ularning ko'p qismi bu usullarni qanday bajarishni bilishmaydi. Yana bir asosiy topilma shundan iboratki, loyihani yaratish bosqichida talabalarning aksariyati grammatik yoki mexanik xatolar haqida haddan tashqari xavotirda bo'lib qoladilar va shuning uchun bu talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Bu tashvishlarni boshqa strategiyani, ya'ni hamkorlikda o'rganishni qabul qilish orqali minimallashtirish mumkin, ammo bu amaliyot sinfda o'qitishda ham mavjud emasligi aniq. Yana bir e'tiborga loyiq topilma shundaki, o'quvchilarning aksariyati esdalikdan o'rganishga bog'liq. Ushbu cheklovni muassasalarda to'g'ri o'qitish muhitining yo'qligi va o'qituvchilar tomonidan etarli darajada qo'llab-quvvatlanmasligi bilan osongina bog'lash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Alam M. (2007). L2 yozish tajribasini rivojlantirish: O'qituvchi EFL/ESL sinfidagi sifat o'zgarishlarining yordamchisi sifatida. Chittagong universiteti san'at va gumanitar fanlar jurnali, 12, 139-154.
2. Barman P. & Akhter, T. (2014). Yozish mahoratini rivojlantirish: Yozish strategiyalari va sinf amaliyoti, SUB jurnali, 5(2), 100-112.
3. Braun H. (2001). Prinsiplar bo'yicha o'qitish (2-nashr, 348-bet). Nyu-York, Nyu-York: Addison Uesli Longman. Byrne, D. (1988). Yozish ko'nikmalarini o'rgatish. London va Nyu-York: Longman.
4. Harmer J. (2003). Ingliz tilini o'qitish amaliyoti (3-nashr, 261-bet). Xarlou: Longman.
5. Harmer J. (2011). Ingliz tilini o'qitish amaliyoti (4-nashr, 325-326-betlar). Xitoy: Pearson Education Ltd. Hedge, T. (1988). Yozish. Oksford: Oksford universiteti nashriyoti.
6. Heffernan J. va Linkoln, J. va Atwill, J. (2001). Yozish, kollej qo'llanmasi. Nyu-York, Nyu-York: V. V. Norton. Xiggins, D. (2003). Reklama yozish san'ati: hunarmandlar bilan suhbatlar: Devid Ogilvi, Uilyam
7. Bernbax Leo Bernett, Rosser Rivz. Linkolnvud, IL: NTC biznes kitoblari.
8. Hossain M. (2013). ESP muhandislik talabalari uchun tahlilga muhtoj: o'quvchilarga qaratilgan yondashuv. Prezidentlik Universitet jurnali, 2(2), 16-26.



Klaraxon MAVLONOVA,
O'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, p.f.f.d.
E-mail: klara_mavlonova@mail.ru

O'zMU professori, f.f.d N.Abdurahmonova taqrizi asosida

THE ANALYSIS OF THE OPPORTUNITIES PROVIDED BY "MOTHER TONGUE" TEXTBOOKS IN TEACHING TEXT CREATION

Annotation

In this article, opportunities of teaching text structure in 5-9 grade "Mother tongue" textbooks are analyzed: theoretical rules, exercises and tasks, the content of text education, such as identifying and separating the components related to text structure are analyzed, approaches to introducing students to text structure in textbooks created on the basis of the national curriculum national curriculum, oral or written exercises and some types of task in the classroom, the essence of the questions and tasks aimed at strengthening and revision the acquired knowledge is revealed.

Key words: Textbook, text structure, knowledge of text structure, pronoun linking in text structure, text creation, conjunction, prepositions, introduction, profreading, paragraph, heading, plan, conclusion and punctuation.

АНАЛИЗ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫХ УЧЕБНИКАМИ «РОДНОЙ ЯЗЫК» В ОБУЧЕНИИ СОЗДАНИЮ ТЕКСТА

Аннотация

В данной статье анализируются возможности обучения структуре текста в учебниках «Родной язык» для 5–9 классов: анализируются теоретические правила, упражнения и задания, содержание текстового образования, такие как выявление и выделение компонентов, связанных со структурой текста, подходы для ознакомления учащихся со структурой текста в учебниках, созданных на основе ГОУ, устными или письменными упражнениями и некоторыми видами заданий на уроках, раскрывается сущность вопросов и заданий, направленных на закрепление и повторение полученных знаний.

Ключевые слова: Учебник, структура текста, знание структуры текста, связь местоимений в структуре текста, создание текста, союз, предлоги, введение, вычитка, абзац, заголовок, план, заключение и пунктуация.

MATN TUZISHNI O'RGATISHDA "ONA TILI" DARSLIKлари BERADIGAN IMKONIYATLAR TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada 5–9-sinf "Ona tili" darsliklarida matn tuzilishini o'rgatishga oid imkoniyatlar: nazariy qoidalar, mashq va topshiriqlar, matn tuzilishi bilan bog'liq komponentlarni aniqlash va ajratish kabi matniy ta'lim mazmuni tahlilga tortilgan, milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan darsliklarda o'quvchilarni matn tuzilishi bilan tanishtirishga oid yondashuvlar, sinfda og'zaki yoki yozma bajariladigan mashqlar va ayrim ish turlari; olingan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun mo'ljallangan savol hamda topshiriqlar mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Darslik, matn tuzilishi, matn tuzilishiga doir bilimlar, matn tuzilishida olmoshli bog'lanish, matn yaratish, bog'lovchi, yuklamalar, kiritma, tahrir, xatboshi, sarlavha, reja, xulosa va tinish belgilari.

Kirish. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish faqat ona tili ta'limi doirasidagi emas, balki barcha ta'lim sohalariga dahldor muammodir. "Til haqida, uning ichki tuzilish birliklari va ularning imkoniyatlari haqida umumiy bilimlar zaxirasiga ega bo'lmay turib muloqotni samarali amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birga, samarali muloqotsiz professional kompetensiyani egalab bo'lmaydi.grammatika o'qitish qoida yodlatish bilan amalga oshirilmasligi zarur. Grammatika tilning tatbiqini, uning funksiyalashish imkoniyatlarini o'rgatish asosida singdirilishi lozim" [1]. Ko'rinadiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darslarida o'quvchilarda matnlarni savodli, ongli ravishda tuzishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularni matn darajasidagi muloqotga tayyorlash, shu maqsadda matn tuzilishi bilan bog'liq komponentlarni aniqlash va ajratish, bir so'z bilan aytganda, qoidalar tarzidagi matniy ta'lim mazmunini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish zamon talabidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xorij maktablarida boshlang'ich sinflardan boshlab matn tuzilishiga doir bilimlar keng ko'lamda o'rgatiladi.

Dunyoda tilning matn tuzilishi bilan bog'liq me'yorlari, nazariy ma'lumotlarini yozma nutqni ijodiylik tavsifida

o'rgatish, matnning (murakkab sintaktik butunlikning) tuzilishiga xos til xususiyatlarini ta'lim mazmunida aks ettirish, o'quvchilarning mantiqiy izchillikda, fikrlarni o'zaro bog'lanishda ifodalash tarzidagi ijodiy ishlarga xos qobiliyatlarini yuksaltirish maqsadida foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish kabi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim jarayonida o'zbek tilini o'qitish, o'quvchilarni matn yaratish bilan bog'liq nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish, ijodiy tafakkurini o'stirish masalalari yangi bo'lib, ayrim masalalar M.Rixsiyeva, T.Ziyodova, N.I.Bekniyozova tomonidan tadqiq etilgan; R.A.Yo'ldoshev va M.M.Rixsiyevaning metodik qo'llanmalari chop etilgan, rus tili darslari bo'yicha Y.M.Sorokina, G.N.Urinbayeva, S.Sadixovalar tadqiqot olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ona tili darslarida matniy birliklarga oid lingvistik bilim berish hamda matn tuzish qoidalarini o'rgatish imkoniyatlari mavjud.

5–9-sinf "Ona tili" darsliklari asosida ish olib borish jarayonida matn tuzilishini o'rgatish borasida shu darsliklar beradigan imkoniyatlarni quyidagi guruhlariga ajratib, o'rni bilan ulardan unumli foydalanish mumkin:

1) nazariy ma'lumotlar;

2) berilgan mavzuda matn tuzishga doir matn tuzilishi bilan bog'liq komponent ustidagi ish mo'ljallangan maxsus mashq va topshiriqlar; sinfda og'zaki yoki yozma bajariladigan mashqlar va ayrim ish turlari;

3) olingan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun mo'ljallangan savol hamda topshiriqlar.

Tahlil va natijalar. I. 2017-yil nashr qilingan 5-sinf "Ona tili" darsligining [2] 88-darsida yordamchi so'zlar haqida quyidagi umumiy ma'lumotlar bor: "Biror so'roqqa javob bo'lmay, gap yoki gap bo'laklarini bir-biriga bog'lash yoki ularga qo'shimcha ma'no yuklash uchun xizmat qiladigan so'zlarga yordamchi so'zlar deyiladi".

89-darsdagi bog'lovchi ta'rifida shunday deyiladi: "Uyushiq bo'laklarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchi sanaladi". [2].

53-va 54-darslarda "Kirish so'zlar", undan keyingi darslarda ko'chirma gaplar, dialog gaplar yuzasidan ma'lumotlar beriladi. Ushbu ma'lumotlardan ham matn tuzilishi elementlarini tushuntirishda foydalanish mumkin.

6-sinf uchun ona tilidan 2012-yilda nashr qilingan darslikda [3: 8–10-darslar] matn va mavzuning ta'rifi berilgan, matnning necha qismdan iborat ekanligi (kirish qismi, asosiy qism, xulosa) ta'kidlangan.

Darslikning "Matndagi gaplarning o'zaro bog'liqligi. Matn turlari"ga bog'ishlangan darsida matndagi gaplar mazmun va grammatik jihatdan bir-birlari bilan o'zaro bog'langan bo'lishi, matnlar xabar, darak, tasvir, rivoya, sayohat kabi mazmunlarda tuzilishi ma'lum qilingan, xatlarning maqsadiga ko'ra turlari izohlangan.

Bu kabi nazariy ma'lumotlarni matndagi gaplar mazmun va grammatik jihatdan bir-birlari bilan o'zaro bog'langan bo'lishini tushuntirish mumkin bo'lgan misollar keltirish lozim bo'ladi.

Matn turlarining tasnifiga kelsak, u munozarali sanaladi: xabar matni bilan darak matnini farqlash juda qiyin. Darslikda matnning har bir turiga misollar ham keltirilmagan. Sayohat matni ham aniq chegaralarga ega emas. O'zbek tilshunosligida bunday tasniflarni uchratganimizcha yo'q.

7-sinf "Ona tili" darsligidagi [4] ayrim nazariy ma'lumotlarda o'rganilayotgan vositaning gaplarni bir-birlari bilan bog'lashi ham aytib o'tilgan:

"Oldingi gap, gapdagi biron-bir so'z, so'z birikmasi o'rnida qo'llanib, unga ishora qiluvchi yoki biror so'zni aniqlab keluvchi olmoshlar ko'rsatish olmoshlari hisoblanadi" deyiladi, lekin oldingi gapni almashtirib kelgan olmoshga misol keltirilmaydi.

Teng bog'lovchilar gap bo'laklari va gaplarni bog'lash bilan birga ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatni ham ro'yobga chiqaradi [4].

Ushbu ta'riflarga berilgan misollarni gapni gapga bog'lashga doir juft-juft qilib berilgan gaplar, shuningdek, kichik-kichik matnlar bilan boyitish zarur bo'ladi.

8-sinf "Ona tili" darsligidagi [5] "Ma'lumotnoma va ijodiy-tavsifiy matn" mavzusidagi nazariy ma'lumotda matnning mazmuniy turlari bayon qilingan. Savollar va topshiriqlar ham mazmuniy o'xshashlik va farqlarni aniqlash sari yo'naltirilgan. "Insho – ijod mahsuli" mavzusidagi nazariy ma'lumotda tuzish, yaratish, barpo qilish kabi ijod jarayoni aks ettirilgan, reja tuzish kerakligi asoslangan.

"Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant" nomli metodik qo'llanmada ta'kidlanishicha, "O'zida insho mavzusining barcha jihatlarini yaqqol aks ettirib turgan reja namunalari insho mazmunining ixchamlashtirilgan shakllaridir. Yaxshi tuzilgan rejalar inshoning yo'nalishi, tarkibiy qismlari, mavzuning izchilligi haqida aniq bir tasavvur beradi. Bunday tipdagi insho rejalaridagi tartib arab

raqamlari bilan belgilanadi va reja bandlari oxirida nuqta qo'yiladi" [6].

Darslikda "Inshoga epigraf tanlash" mavzusida nazariy ma'lumot berilgan. Ushbu mavzuning matnning tashkiliy-texnik tuzilishiga bevosita aloqasi bor.

9-sinf "Ona tili" darsligida [7] quyidagi nazariy ma'lumotlar keltirilgan:

Darslikning 7-bo'limi matnga bog'ishlangan: 46-darsda "Matn va uning maqsadi. Hikoya matni", 47-darsda "Tasviriy matn", 48-darsda "Muhokama matni", 49-darsda "Matn va gap" mavzulari yuzasidan materiallar berilgan.

Matnga izoh keltirilgan. Matn turlari ko'rsatilgan: 1) hikoya matni; 2) tasviriy matn; 3) muhokama matni.

8-bo'lim (50–55-darslar) tinish belgilariga bog'ishlangan. Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli hishayajon bilan aytilsa, ketma-ket uchtagacha undov belgisi qo'yilishi mumkin.

5-sinf "Ona tili" darsligidagi [8] quyidagi darslar matn tuzilishi bilan bevosita bog'lanishi mumkin. 101-dars. Iboralar, 102-dars. Iboralar (davomi), 103-dars. Matn va lug'at ustida ishlash, 105-dars. Maqollar. 106-dars. Maqollar (davomi), 107-dars. Hikmatli so'zlar. 108-dars. Hikmatli so'zlar (davomi).

Ona tili fanidan tuzilgan milliy o'quv dasturi asosida 2022-yilda nashr qilingan 6-sinf "Ona tili" darsligidagi [9] matn tuzilishini o'rganishga doir materiallar quyidagilardan iborat:

Matn mazmun va grammatik jihatdan bog'langan gaplardan tuziladi. U og'zaki yoki yozma nutqning parchasi bo'lishi mumkin [9].

So'zning so'zga va gapning gapga bog'lanishida nafaqat mazmun, balki grammatik jihat ham muhim. Birdan ortiq so'z yoki gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlar bog'lovchi deyiladi.

Va; ammo; lekin; chunki; yoki; yo..., yo...; dam..., dam...; goh..., goh... kabilar bog'lovchilardir.

Bog'lovchilardan so'zlarni yoki sodda gaplarni o'zaro bog'lashda foydalaniladi [9].

Nutq turli uslublarda yaratiladi. Ulardan biri badiiy uslubdir. "Oqsaroyning favvorolari" matni ham badiiy uslubning yorqin namunasi.

Badiiy uslubda voqealar tasviriy vositalar, ta'sirchan so'zlarni qo'llash orqali yoritib beriladi. Shuning uchun ham bu uslubning ta'sirchanligi yuqori bo'ladi.

Badiiy nutqdagi ta'sirchanlikni oshiruvchi omillardan biri taqlid so'zlar hisoblanadi. Qiyoslab ko'ring:

Gulxanga tashlangan o'tinlar yonmoqda.

Gulxanga tashlangan o'tinlar chars-churs yonmoqda [9]

7-sinf "Ona tili" darsligida [10] matn tuzilishini o'rganishga doir nazariy ma'lumotlar quyidagilardan iborat:

Olmoshlar so'z, so'z birikmasi, gaplar va matnlarga ishora qiladi, ularning o'rnida almashib kela oladi. Masalan, Salimning sochlari sariq, ko'zlari ko'k. U hecham o'zbekka o'xshamaydi gapida u olmoshi Salim o'rnida qo'llanmoqda. Asrora sahnaga chiqmadi. Bu Lola opaning jahlini chiqardi gaplarida esa bu olmoshi butun bir gapga ishora qilmoqda. Mazkur o'rinlarda olmoshlarning qo'llanishi nutqiy qisqalikka, ravonlikka va o'rinsiz takrorlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

II. Berilgan mavzuda matn tuzishga doir matn tuzilishi bilan bog'liq komponent ustidagi ish mo'ljallangan maxsus mashq va topshiriqlar; sinfda og'zaki yoki yozma bajariladigan mashqlar va ayrim ish turlari matn tuzilishiga doir ayrim tushunchalar ustida ishlashning (tushuncha berish, o'tilgan qoidalarni eslash, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, o'quvchilar tafakkurini o'stirish va b.) imkoniyati katta.

Berilgan mavzuda matn tuzish talab etilgan mashqlar barcha darsliklarda mavjud. Ularni grammatik topshiriqli mashqlar sirasida matn tuzilishini o'rganishga qaratish mumkin.

6-sinf "Ona tili" darsligidagi [9] mashq va topshiriq shartlari orqali anglatilayotgan matn tuzilmalari:

O'zaro bog'langan gaplarni aniqlash va izohlashga doir:

Ikki ustundagi gaplarni o'qib chiqing hamda ularni o'zaro solishtiring. Savollarga javob bering. Qaysi ustundagi gaplar bir-biri bilan o'zaro mazmun va grammatik jihatdan bog'langan? Javobingizni izohlang.

Gaplarni o'zaro bog'layotgan mavzuni aniqlash va izohlash: Birinchi ustundagi gaplarni qaysi mavzu o'zaro bog'lab turibdi? 2-ustunda-chi?

Xatboshilar va mavzu munosabati: Matndagi xatboshilar bilan kichik mavzularni moslashtirib yozing. Xatboshilarni kirish, asosiy qism va xulosa qismlariga ajrating.

Gaplarning matn ekanligini aniqlash va izohlash: Qaysi ustundagi gaplarni matn deyishimiz mumkin? Qaysi xususiyatlariga ko'ra?

Matndagi gaplar anglatayotgan fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash va izohlash: Matn asosida berilgan to'g'ri fikrlarni aniqlab yozing. Noto'g'ri gaplarni esa to'g'rilab ayting.

Xatboshilarni aniqlash, sarlavha topish:

Berilgan matnni o'qing. Xatboshilarni aniqlab, matnga mos sarlavha toping 24-b. Matnga mos sarlavhani tanlab, yozing. Tanlovingizni qisqacha izohlang. 42-b. Matn xatboshilari uchun berilgan kichik sarlavhalarni to'g'ri ketma-ketlikda ko'chiring. 109-b.

Olmoshli bog'lanishga doir: Matndan ko'rsatish olmoshlari ishtirok etgan gaplarni ko'chiring. Ushbu olmoshlar o'zidan oldingi qaysi birliklarga ishora qilganini aniqlang va namunadagidek izoh yozing. 38-b.

Bog'lovchili bog'lanish: Yozgan gaplaringizni o'qing. Ayting-chi, lekin, chunki, va so'zlarisiz ham gaplarni davom ettirish mumkinmi? Ular nima maqsadda qo'llangan deb o'ylaysiz? Fikringizni izohlang. Berilgan gaplarni o'qing. Fikrlaringiz asosida ularni davom ettiring hamda va, ammo, lekin, chunki, biroq kabi bog'lovchilar yordamida gaplarni mazmunan bog'lab, "Qon aylanish tizimi" haqida matn yozing. 62-b.

Matn tuzish: Tavsiyalarigizni matn ko'rinishida qoralama nusxada yozing. "Mening kasbim – mening kelajagim" mavzusida ijodiy matn yarating. Unda sifat darajalaridan foydalaning 96-b. Quyida badiiy uslubdagi kichik matn berilgan. Siz uni badiiy bo'lmagan uslubga aylantirib, qayta yozing. 190-b.

Yozilgan matnni tahrir qilish:

Yozgan matningizni tahrir qiling hamda oqqa ko'chiring. Tahrir jarayonida ko'rsatish olmoshlari hamda sifat darajalaridan foydalanganingizga e'tibor bering. O'qituvchingiz to'g'rilagan o'rinlarga diqqat qiling. O'qituvchingiz tavsiyalari asosida matnni qayta ko'chiring. Xatolaringizni anglab, keyingi safar bu xatoni takrorlamaslikka harakat qiling 176-b.

Radionutq tayyorlash: "Men tabiat bilan birgaman" mavzusida radionutq tayyorlang. 40-b.

Tinish belgilariga doir: Matndagi ko'pnuqtalarning vazifasi nima? 49-b.

Reja tuzish: Berilgan gaplarni shunday tartib bilan yozingki, ular siz eshitgan audiomatn uchun reja vazifasini bajara olsin. 53-b.

Matnning xulosa qismidan o'zingiz eng muhim deb bilgan gapni topib, ko'chiring. Tanlovingizni asoslab bering. 101-b.

Biror mavzu yuzasidan kirish, muammo va tahlil, xulosa qismlaridan iborat maqola yozing 102-b.

7-sinf "Ona tili" [10] darsligidagi mashq va topshiriqlar:

Sarlavha va matn mazmuni: Matnga mos keluvchi sarlavhalarni aniqlab, yozing. Yana qanday sarlavhalarni tanlagan bo'ladingiz? Chap ustunda sarlavhalar, o'ng ustunda esa matn qismlarining qisqacha mazmuni berilgan. Ularni moslashtirib ko'chiring. 25-b.

Matn tuzish: Quyidagi vositalardan foydalangan holda ikkinchi matnni bog'lanishli matnga aylantirib ko'chiring. Matndagi takroriy so'z va jummalarni, uslubiy g'alizlikni tuzatishga harakat qiling.

Matnni tekshirish: Yozgan matningizni sinfdoshingizniki bilan almashing. Uning matni bilan tanishing hamda qisqacha izoh yozing. Havolada berilgan maqolalar bilan tanishing. Yozgan matningiz bilan solishtiring. 12-b.

Gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalarni aniqlash va izohlash: Birinchi matnda gaplarni o'zaro bog'layotgan birliklarni aniqlang. Menimcha, ularga, qolaversa. 20-b.

Xulosa qism: Matndagi gaplar yakunini aniqlab, mos tinish belgilarini qo'ying. Bo'sh o'rinlarga zarur til birliklarini qo'yib, matnni ko'chiring. 7-b.

III. Olingan bilimlarni mustahkamlash va takrorlash uchun mo'ljallangan savol hamda topshiriqlar matn tuzilishini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. 5–9-sinflar uchun nashr qilingan "Ona tili" darsliklari ularda berilayotgan nazariy ma'lumotlar, matnning tuzilish komponentlari bilan bog'liq maxsus mashqlar, savol va topshiriqlardan darslarda maqsadli va unumli foydalanish imkoniyatlari katta bo'lib, darslar samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Набиева Д.А. Лингвистик компетенция в унинг шаклланиш жараёнлари. Илмий хабарнома, АДУ, №1. 2019. – Б. 91–93.
2. Mahmudov N. va b. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / 4-nashri. – T.: Ma'naviyat, 2015. – 224 b.
3. Mahmudov N. va b. Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2012. – 208 b.
4. Mahmudov N. va b. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. – T.: Ma'naviyat, 2017. 159 b.
5. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova, M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.
6. Madayev O. va b. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
7. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov, Ona tili: Umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2019. – 128 b.
8. Mahmudov N. va b. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / To'la yangilangan 5-nashr. – T.: G'.G'ulom, 2020. – 192 b.
9. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Xakimova N., Siddiq M. Ona tili. 1–2-qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-va 7-sinfi uchun darslik. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022.



Naima MAVLONOVA,
NamDU Fizika fakulteti o'qituvchisi

PhD G'. Otamurodov taqrizi asosida

IMPLEMENTATION OF INTEGRATION IN TEACHING PHYSICS BASED ON A COMPETENCY-BASED APPROACH

Annotation

The article discusses the integration of physics based on a competent approach in learning for a holistic study of knowledge about nature, given its inextricable link with other disciplines, as this allows a deeper study of the process of understanding. In particular, the relationship of physics with astronomy, chemistry and mathematics was studied and laboratory work was modeled called « Body movement in the gravity field » as an example. The reason is to create integrated tables that will help combine the basic concepts of science, absorb new knowledge from these tables, perform laboratory work, solve quality problems, use them to summarize repetition lessons.

Key words: Element, atom, electrolysis, differentiation, magnetic field, space, amount of heat, electron, proton, nucleus.

РЕАЛИЗАЦИЯ ИНТЕГРАЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Аннотация

В статье обсуждается интеграция физики на основе компетентностного подхода в обучении для целостного изучения знаний о природе, учитывая ее неразрывную связь с другими дисциплинами, так как это позволяет глубже изучить процесс понимания. В частности, изучена связь физики с астрономией, химией и математикой и была смоделирована лабораторная работа которая называется «Движение тел в поле земного тяготения» в качестве примера. Причина заключается в создании интегрированных таблиц, которые помогут соединить основные концепции науки, впитать новые знания из этих таблиц, выполнять лабораторные работы, решать проблемы качества, использовать их для обобщения уроков повторения.

Ключевые слова: Элемент, атом, электролиз, дифференциация, магнитное поле, космос, количество теплоты, электрон, протон, ядро.

FIZIKANI O'QITISHDA KOMPETENTLI YONDASHUV ASOSIDA INTEGRATSIYASINI AMALGA OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada fizika fanini o'qitishda kompetentli yondashuv asosida integratsiyasini amalga oshirish uning boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rib chiqqan holda, tabiat haqidagi bilimlarni birgalikda yaxlit holda o'rganish bilish, anglash jarayonini chuqurroq o'rganish imkonini berishini ko'rib chiqilgan. Aniqroq qilib aytganda, fizikaning astronomiya, kimyo va matematika fanlari bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan holda misol tariqasida jismning Yer og'irlik maydonidagi xarakati haqidagi laboratoriya ishini modellashtirildi. Sababi fanlarning asosiy tushunchalarini bir-biriga bog'lab o'rganishda yordam beradigan integratsiyalashgan jadvallar tuzish, bu jadvallardan yangi bilimlarni singdirish, laboratoriya ishlarini bajarish, sifat masalalari yechish, umumlashtiruvchi takrorlash darolarida foydalanish yaxshi samara beradi.

Kalit so'zlar: Element, atom, differentsiatsiya, elektroliz, magnit maydon, kosmos, issiqlik miqdori, elektron, yadro, proton.

Kirish. Jahonning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimida kompetentli tavsifdagi o'quv dasturlari va darsliklaridan keng foydalaniladi. Bunda talabalar uchun qiziqarli bo'lgan, hayotiy, muhim ahamiyat kasb etgan fanning amaliy yo'nalishlariga katta e'tibor qaratish ko'zda tutilgan. Integratsiyaga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik adabiyotlarda tabiat qonuniyatlarining mohiyati ochib beriladi, shuningdek, ularning inson faoliyatiga ijobiy ta'siri yoritiladi. Biroq ularda talaba, fanlardan erishilgan bilimlarini umumlashtirgan holda tafakkur qilishga o'rgatish va ularning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga yetarli e'tibor berilmagan. Bilimlarning integratsiya jarayoni, bilish jarayonining yana bir yangi umumiy qonuniyatini namoyon qilib, bunday jarayonning rivoji, chuqurlasha borib, bizni yangi ufqlarga olib chiqadi. Bilimlar integratsiyasi, faqat tabiiy fanlari bilangina chegaralanmaydi. Bir vaqtlar inson faoliyatining tabiatga ta'siri (antropogen omil) juda arzimos bo'lgan davrlarda, u o'zini tashqi bir kuzatuvchi sifatida his etar edi. Biroq bugun tabiatga antropogen ta'siri keskin ortib, kritik holatga yaqinlashganda, inson endi tabiatni tashqaridan turib emas, balki ichkaridan turib, o'zi bilan bog'lanishda, jamiyatdagi bo'ladigan jarayonlarni hisobga olgan holda, o'rganishni kasb

qilishi lozimligi inson va tabiat orasida vujudga kelayotgan munosabatlarda, uning muammolarida yorqin namoyon bo'lmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimida kompetentli tavsifdagi o'quv dasturlari va darsliklaridan keng foydalaniladi. Bunda talabalar uchun qiziqarli bo'lgan, hayotiy, muhim ahamiyat kasb etgan fanning amaliy yo'nalishlariga katta e'tibor qaratish ko'zda tutilgan. Integratsiyaga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalar va metodik adabiyotlarda tabiat qonuniyatlarining mohiyati ochib beriladi, shuningdek, ularning inson faoliyatiga ijobiy ta'siri yoritiladi.

Fizikadan laboratoriya ishlarini kompetentli yondashuv asosida boshqa fanlar bilan uzviy bog'lanish, ya'ni integratsiyani amalga oshirish quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi:

- tabiiy-ilmiy bilimlarni dialektikaning yagona birligi asosida qarashini shakllantirish;
- bilimlarni tizimlashtirishini tashkil etish;
- o'qitishning kasbga yo'nalishini kuchaytirish;
- talabalarda hodisalar, qonunlar, tushunchalar, nazariyalar orasida har tomonlama bog'lanish borligining anglash ko'nikma va malakasini rivojlantirish .

Fanlararo bunday bog'lanish asosida, darslarni tashkil etish uchun, birinchi navbatda, kompetentli tavsifdagi o'quv materiallarining mazmunini aniqlash zarur. Aynan shu masalalar bo'yicha oliy ta'lim tizimida fizik bilimlarga oid kompetentli materiallarni, ular dasturlarining tahliliga tayanib o'rganiladi. Integratsiya tendensiyasi, fan va texnikada, ta'limda mavjud bo'lib, u fan asoslarini, bilimlarni amaliyotda qo'llashga, predmetlar mazmunini takomillashtirishga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Laboratoriya ishlarini kompetentli yondashuv asosida bajarish texnikasi va texnologiyasi takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»da belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga asoslanadi.

Fizikaga oid adabiyotlarda fanlararo bog'lanish va integratsiyadan foydalanib, laboratoriya ishlarini kompetentli yondashuv asosida bajarishning samarali bo'lishi haqida bir qancha fikrlar mavjud. Jumladan, fanlar integratsiyasini o'rnatgan rus olimi, faylasuf M.Chepikov «Integratsiya nauki» kitobida – qadimgi Yunoniston va Sharqda faylasuflar diqqatini dunyoning bir qancha qismini bilish, tabiatning umumiy ilmiy manzarasini tushuntiradigan yagona tabiatshunoslik fani mavjud bo'lgan. Qadimgi yunon faylasuflari bir vaqtning o'zida tabiatshunos ham bo'lganlar – degan fikrlarni bayon qiladi [95].

Tadqiqot metodologiyasi. Tabiat haqidagi har qanday fanni, jumladan, fizikani o'rganish jarayonida talabalarda bir qancha fanga doir bo'lgan bilimlar bilan ish ko'riladi. Masalan talabalar «Modda tuzilishi», «Fotosintez» tushunchalari bilan fizika, biologiya, kimyoni o'rganishda, «element», «atom», «elektroliz», «elektrolitlik dissotsiatsiya» kabi tushunchalar bilan fizika, kimyo fanlarini o'rganishda; «Gidroenergetika»ga doir bilimlar bilan fizika, geografiya fanlarini o'rganish jarayonida; «Magnit maydon», «Modda tuzilishi», Koinotga oid «Kosmik muhit»ga doir bilimlar bilan fizika va astronomiya fanlarini o'rganish jarayonida duch keladilar. Fizikada «Bug'lanish», «Bug' hosil bo'lishi solishtirma issiqlik miqdori» mavzularini o'rganishda talabalarining zoologiya va biologiya fanlaridan olgan tushunchalaridan foydalanishi o'rinli deb hisoblaymiz. Masalan, 1 g suv bug'langanda jism 2430 J energiya yo'qotkanda, odam terlamaganda uning tana temperaturasi 1000 S gacha ko'tarilgan bo'lishi mumkinligini misol tariqasida keltirilsa, talabalar fizika, kimyo, zoologiya va biologiya fanlarining bir-biriga aloqadorligini yanada chuqurroq tushunib oladilar va ularning tibbiyot sohasiga ham qiziqishlari ortadi. Fizika va kimyo fanlariga doir umumiy tushunchalar: agregat holat,

moddalar, mol, elementlar, atom, elektron, neytron, proton, yadro, pozitron, gaz, gaz qonunlari, Mendelyev-Klapeyron tenglamasi, zarracha, energiya, kimyoviy energiya, ichki energiya, energetik daraja, energetik qobiq, elektr o'tkazuvchanlik, elektroliz, potentsial, spektr, nurlanish, radioaktivlik, rentgen nurlari, kosmik nurlar, kvant, foton, yorug'lik xossalari, lazer, issiqlik, termodinamika, entropiya, yadro energiyasi va boshqalar.

Kimyo va fizika kurslarida modda tuzilishini; bunda dastlab molekula tushunchasi fizika kursida kiritiladi, keyin esa, uning tuzilishi, kimyo kursida o'rganiladi. Kimyoviy reaksiyalarning sodir bo'lish shartlaridan asosiy reaksiyaga kirishuvchi moddalarning molekulari asosidagi bog'lanish. Hamma molekular o'zaro to'qnashganda reaksiyaga kirisha olmaydi. Faqat o'rtacha kinetik energiyasidan (bu fizik tushuncha) kattaroq energiyaga ega bo'lgan molekular reaksiyaga kirisha oladilar. Bunday energiya aktivatsiya energiyasi deyiladi (100 kJ/molga yaqin).

«Ideal gaz» mavzusini o'rganishda, ideal gazning o'rtacha kinetik energiyasini aniqlash, kimyoviy reaksiyalarning yuz berish temperaturasini topish ko'nikma va malakalarini talabalarga singdirish foydali. Fizika va kimyo fanlarining asosiy tushunchalarini bir-biriga bog'lab o'rganishga yordam beradigan integratsiyalashgan jadvallar tuzish, bu jadvallardan yangi bilimlarni singdirish, laboratoriya ishlarini bajarish, sifat masalalari yechish, umumlashtiruvchi takrorlash darslarida foydalanish yaxshi samara beradi.

Fizika va matematika fanlariga doir tushunchalar: masofa, trayektoriya, shakl, vektor, skalyar, harakat nisbiyligi, matematik modellar, hisoblash tenglamalari, funksiyalar, koordinata va boshqalar.

Fizika va matematika fanlarining o'zaro bog'liqligi fizika qonunlarini isbotlashda matematik apparatlardan foydalanishni taqozo qiladi. Matematik apparatlar fizikaviy qonuniyatlarni isbotlash, masalalar yechish hamda laboratoriya ishlarini bajarishda katta ahamiyatga ega. Matematikadagi «funksiya» kabi fundamental tushuncha fizikaviy qonuniyatlarni mazmunini yechishda asosiy rol o'ynaydi.

A.Eynshteyn zamonaviy fizikaning eng muhim xarakterli tomonlaridan biri haqida gapirib, boshlang'ich g'oyalardan keltirib chiqarilgan xulosalar nafaqat sifat xarakterga, balki miqdoriy xarakterga ham egaligini, miqdoriy xulosalar chiqarishda matematika tilidan foydalanish lozimligini ta'kidlaydi va eksperiment natijalari bilan taqqoslash mumkin bo'lgan xulosalar chiqarish uchun fizikaga matematika tadqiqot quroli sifatida zarurligini aytadi.

Misol sifatida jismning Yer og'irlik maydonidagi harakati haqidagi laboratoriya ishini keltiramiz.

Ushbu laboratoriya quyidagicha bayon etiladi: bir jism og'irlik maydonida qandaydir boshlang'ich tezlik bilan tashlangan; uning harakat qonuni va trayektoriyasi topilsin. Biz bu yerda fizik modelni soddalashtirganimizni eslatib o'tamiz – Yerning og'irlik maydonini bir jinsli maydon deb oldik, bu esa harakat davomida jism bilan Yer sirtigacha bo'lgan masofa yer radiusidan ancha kichik bo'lganda o'rinli xolos. So'ngra, real jism moddiy nuqta deb modellashtiriladi;

Jismni moddiy nuqta deb qarab uning ox va oy o'qlari bo'yicha proyeksiyasini olsak:

$$\begin{cases} v_x = v_{0x} + g_x t, \\ v_y = v_{0y} + g_y t, \end{cases}$$


$$\begin{cases} x = x_0 + v_{0x}t + \frac{1}{2}g_x t^2, \\ y = y_0 + v_{0y}t - \frac{1}{2}g_y t^2. \end{cases}$$

Vertikal xarakatlanayotgan jism uchun shu formulalar yetarli.

A) vertical yuqoriga xarakatlanayotgan jism uchun $v_{0x} = 0$, $g_x = 0$, $v_{0y} = v_0$, $g_y = -g$.

$$\begin{cases} v_x = 0, \\ v_y = v_0 - gt, \end{cases}$$

$$\begin{cases} x = x_0, \\ y = y_0 + v_0 t - \frac{1}{2}gt^2. \end{cases}$$




B) Gorizonttal otilgan jism xarakati $v_{0x} = v_0$, $g_x = 0$, $v_{0y} = 0$, $g_y = -g$, $x_0 = 0$,

$$\begin{cases} v_x = v_0, \\ v_y = -gt, \end{cases}$$

$$\begin{cases} x = v_0 t, \\ y = y_0 - \frac{1}{2}gt^2. \end{cases}$$

Xarakat trayektoriyasini aniqlash uchun birinchi tenglamadan vaqtni topib uni ikkinchi tenglamaga qo'yish yetarli ya'ni u parabola bo'ylab xarakatlanadi.


$$y = y_0 - \frac{1}{2}g \frac{x^2}{v_0^2}.$$



B) Gorizontga burchak ostida otilganda $v_{0x} = v_0 \cos \alpha$, $g_x = 0$, $v_{0y} = v_0 \sin \alpha$, $g_y = -g$, $x_0 = y_0 = 0$, и потому

$$\begin{cases} v_x = v_0 \cos \alpha, \\ v_y = v_0 \sin \alpha - gt, \end{cases}$$

$$\begin{cases} x = (v_0 \cos \alpha)t, \\ y = (v_0 \sin \alpha)t - \frac{1}{2}gt^2. \end{cases}$$



Barcha ko'rib chiqqan xollarimiz uchun umumiy holda quyidagi formulani (vektor ko'rinishda) ishlatsak bo'ladi.

$$m\vec{a} = \vec{F}_T$$

Masalani umumiy holda hal etgandan so'ng, ma'lum xususiy hollarni ko'rib o'tish foydalidir, ularni ballistik pistolet yordamida ko'rsatish maqsadga muvofiq va hokazo. Mos fizik va matematik modellarni tanlashda faraz qilingan cheklanishlarni real sharoitlar bilan taqqoslab, yana tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiqdir.

«Issiqlik miqdori», «Tok kushi, kuchlanish, qarshilik» mavzulariga doir laboratoriya ishlarini bajarish, sifat va miqdoriy masalalarni yechishda, fizik kattaliklarning funksional bog'lanishlarga amal qilinadi. Masalan, tok kuchi, kuchlanish va qarshilik orasidagi funksional bog'lanish Om qonuni. Shuningdek, o'tkazgichning solishtirma qarshiligi haqida tushuncha berilganda qarshilikning o'tkazgichning uzunligi, ko'ndalang kesim yuzasi va materialga bog'liqligini o'zaro mutanosib bog'lanish orqali tushuntirish qulay.

Fizika va biologiya fanlariga doir umumiy tushunchalar: biopotensial, molekulyar biofizika, biotok, biomexanika, bioenergetika, biosfera, nanobiologiya, ultratovush diagnostika, mikroskop, radioizotop, kardiograf, elektrokardiogramma, elektroforez va boshqalar.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, fizika, astronomiya, kimyo va matematika fanlari mazmuni bo'yicha o'qitishda, kompetentli yondashuv asosida integratsiyasini amalga oshirish modda, energiya va vaqt tushunchalarining mohiyatini mukammal anglashga imkon berishi bilan muhim. Shu bois bu xildagi tushunchalarni o'rganishni ularning kompetentli mazmuni negizida tashkil etilsa, talabalar uchun bu tushunchalar va bilimlar haqida to'la, umumlashgan tasavvurga ega bo'lishi ancha oson kechadi va o'qitishda o'rinsiz qaytarishlarning oldi olinadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida" Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2019 y., 03/19/576/3970 son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.10.2020 y.,/20/6097/1431-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2020 y., 03/20/630/1101-son.
4. Vorontsova V.G. Humanitarian and axiological foundations of postgraduate education of a teacher / V. G. Publishing House, 1997. –p.
5. Usmonov B.Sh., Raximov F.X., Dusmumamedova M.X. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi va innovatsion hamkorlik. – T.: "Adabiyot uchqunlari", 2017 y. 75 b.
6. Pedagogicheskoy deyatelnosti v visshyey shkole /Kosolapova M.A.; Tomskiygos. ped. un-t. – Tomsk, 2007. – s. – Bibliogr. : s. 104 – 110. Dep. V Inion Ran №60426
7. Zeyer E.F., Pavlova A.M., Simanyuk E.E. Modernizatsiya professionalnogo obrazovaniya: Kompetentnostniy podxod. – M.: MPSI, 2005. – 216s.
8. Zimnyaya I.A. Klyucheviye kompetentsii – novaya paradigma rezultata obrazovaniya //– 2003. –№ 5. – S. 34–42; Kompetentnostniy podxod...
9. Chullieva Gulchekhra Toshpulotovna; "Intonation. Intonema, its structure. Functions of intonema", Middle European Scientific Bulletin, 8, ISSN 2694-9970 142,141-148,2021.



Javlonbek MADAMINOV,
Farg'ona politexnika institute dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)
E-mail: javlonbeg12@gmail.com

O'ZDJTSUFF sport turlari fakulteti dekani p.f.b.f.d., PhD., O.A.Toshtemirov taqrizi ostida

“TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI BO’YICHA RIVOJLANTIRISH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH” (LOYIHALASH FAOLIYATI MISOLIDA)

Аннотация

Maqolada bugungi kunda “Muhandislik va kompyuter grafikasi” fanining o’qitishda OTM muassasalaridagi muammolar, “Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida muhandislik va kompyuter grafikasi bo’yicha amaliy-ijodiy ko’nikmalar shakllantirish va rivojlantirish metodlarini takomillashtirish” (Loyihalash faoliyati misolida), ushbu muammolarining yechimlari hamda bo’lajak muhandis-pedagoqlarni loyihalash kompetensiyalarini kompyuter grafikasi vositasida rivojlantirish haqida grafik dasturidan loyihalashda foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Axborot, texnologiya, grafik dasturlar, amaliy-ijodiy ko’nikmalar, loyihalash faoliyati, animatsiya, metodika, intellektual, pedagogik, metodik, kasbiy, qobiliyat.

«СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ИНЖЕНЕРНОЙ И КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКИ У СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ» (НА ПРИМЕРЕ ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ)

Аннотация

В статье рассмотрены современные проблемы преподавания «Инженерная и компьютерная графика» в высших учебных заведениях, «Совершенствование методики формирования и развития практических и творческих навыков инженерной и компьютерной графики у студентов технических вузов» (как пример проектной деятельности), решения этих задач и развитие проектных компетенций будущих инженеров-педагогов с помощью компьютерной графики рассматриваются с использованием графических программ в проектировании.

Ключевые слова : Информация, технология, графические программы, практические и творческие навыки, проектная деятельность, анимация, методология, интеллектуальное, педагогическое, методическое, профессиональное, умение.

“IMPROVING METHODS OF DEVELOPMENT IN ENGINEERING AND COMPUTER GRAPHICS AMONG STUDENTS OF TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS” (AS AN EXAMPLE OF DESIGN ACTIVITY)

Annotation

In the article, today's problems in the teaching of "Engineering and computer graphics" in higher education institutions, "Improving the methods of formation and development of practical and creative skills in engineering and computer graphics among students of technical higher education institutions" (as an example of design activities), the solutions of these problems and the development of design competencies of future engineers-pedagogues with the help of computer graphics are thought about using graphic software in designing.

Key words: Information, technology, graphics programs, practical and creative skills, project design, animation, methodology, intellectual, pedagogical, methodical, professional, art.

Kirish. Zamonaviy sharoitda mutaxassisni tayyorlash sifati uning egalik qiladigan bilim darajasi va hajmi bilan emas, balki uning intellektual, kasbiy va ijodiy salohiyati, nostandart fikrlash va axborot oqimini boshqarish qobiliyati bilan belgilanadi. Muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhandislik va kompyuter alohida o’rin tutadi. Shu bilan birga, so’nggi yillarda muhandislik va kompyuter grafikasini o’rgatish bilan bog’liq vaziyat, hatto bilimlarni an’anaviy reproduktiv assimilyatsiya qilishga, hatto bunday muammolarni hal qilishga ham yordam bermaydi.

Maktablarda grafik mashg’ulotlarning deyarli to’liq yo’qligi, o’rta maxsus ta’lim muassasalari auditoriya mashg’ulotlari uchun soatlarning kamligi o’quvchilarda “Muhandislik va kompyuter grafikasi”ga ikkinchi darajali fan sifatida munosabatini shakllantirishga olib keldi va ularning uni o’zlashtirishga tayyorligiga salbiy ta’sir ko’rsatdi.

Chizmalarni bajarish va loyihalash qoidalarini o’rganish, turli ulanishlar tasvirlarini bajarish, montaj chizmalari, ya’ni. o’zlashtirilishi lozim bo’lgan klassik muhandislik grafikasining nazariy materialini bevosita o’rganish va

qo’llash talabalar tomonidan qabul qilinadi. Chizma nima? Chizmada qanday tasvirlar bor? Chizmalar qanday tasniflanadi?

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Texnika oliy ta’lim muassasalarida talabalarining amaliy-ijodiy ko’nikmalarini kompyuter grafikasi vositasida rivojlantirish, texnik oliy o’quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash tizimini amaliy-ijodiy ko’nikmalari orqali loyihalash va ishlashning zamonaviy nazariyalari hamda metodikasi bo’yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan;

– zamonaviy ta’lim tizimiga yangi axborot texnologiyalarini kiritish jarayonlarini tizimli va texnologik qo’llab-quvvatlashning madaniy va psixologik-pedagogik modellari (V.S. Lobanov, A.N. Kostikov, O.V. Juykova [3] va boshqalar);

– inson ijtimoiy faoliyati tarkibidagi texnologik davrning rivojlanishi mantig’ida loyihalash turlari va sohalari tipologiyasiga yaxlit tizimli faoliyat yondashuvi (G.P.Kolomoets, I.E.Nikitina Zerdev, K.A. Kondrateva, V.F.Sidorenko, G.P.SCHedrovitskiy [4] va boshqalar);

– kasbiy kompetentlik va ijtimoiy jihatdan malakali mutaxassislarni tarbiyalash jarayonida shaxsning asosiy madaniyati va ijodi rivojlanishining pedagogik kontseptsiyalari (I.A.Zimnyaya, ye.A.Klimov, N.F. Maslova, V.A. Panicheva, V.P. Kuzovlev, A.A. Derkach, N.K.Shabanov, N. Shiyanov, V.E.Medvedov va boshqalar); kabi mavzularda ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Olib borilgan izlanishlar va tahlillar natijasida bo'lajak muhandislarning amaliy-ijodiy ko'nikmalarini kompyuter grafikasidan foydalanib, rivojlantirish muammolari bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsada, oliy ta'lim muassasalarida muhandislarning pedagogik va psixologik muammolariga kam e'tibor qaratilganligi hamda grafik dasturlarining imkoniyatlaridan foydalanib talabalarining loyihalash, amaliy-ijodiy ko'nikmalari, modellashtirish, qobiliyatlari va rivojlantirish imkoniyatlari to'liq ochib berilmaganligi, oliy ta'lim muassasalarida muhandislarning loyihalash kompetentsiyalarini kompyuter grafikasidan foydalanib rivojlantirish metodikasi asosida o'qitishni takomillashtirish lozimligini taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Texnik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarning kompyuter grafikasi yordamida amaliy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish loyihalash faoliyati misolida metodikasiga oid tadqiqot natijalari asosida:

– oliy ta'lim muassasalarida talabalarining amaliy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitish bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lim standarti va fan dasturlari, fal sillabuslari mazmuniga singdirilgan. Ya'ni o'quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligi ta'minlangan va talabaning o'z ustida mustaqil ishlashi uchun imkoniyatlari berilgan. Natijada mazkur o'quv fanlari bo'lajak muhandislarga loyihalash jarayonlarini rivojlantirishda kasbiy mobillikni, ishlab chiqarish bilan bir vaqtda shakillantirish imkoniyatini yaratgan va muhandislar malaka va ko'nikmalarining tezkor o'zlashtirishi, ilm olishga va ularni kasbiy mahoratini takomillashtirishga xizmat qilgan [1];

– bo'lajak muhandislarning ijodiy faoliyatlari hamda mustaqil ishlashlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan grafik dasturlar muhandislik va kompyuter grafikasi, muhandislik grafikasi va kompyuterli loyihalash fanlarida talabalarining topshiriqlarini mustaqil bajarishlarini funktsional imkoniyatlari asosida o'qitishni takomillashtirish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan. Natijada muhandislarni tayyorlashda o'quv jarayoni samaradorligini oshirish va bo'lajak muhandislarning intellektual, professional loyihalash kompetentligi, madaniyati sifatlarini rivojlantirishda o'quv japyonida didaktik vosita sifatida foydalanish imkoniyati yaratilgan;

Ushbu va ko'plab muhandislik va kompyuter grafikasining nazariy asoslari tushunishda qiyinchiliklar tug'diradi va shu bilan mavzuni o'rganish jarayonini sovtadi. Shunday qilib, men o'z oldimga ijodiy faoliyat orqali fanni o'zlashtirish jarayonini faollashtirish, tegishli vosita va texnologiyalarni topish vazifasini qo'ydim.

Talabalarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud:

1. konferentsiyalar;
2. loyiha usullari;
3. ishbilarmonlik o'yinlari;
4. grafik diktantlar;
5. ijodiy vazifalar;
6. kompyuter grafikasidan foydalanish.

“Muhandislik va kompyuter grafikasi” o'quv jarayonini faollashtirish shakllaridan biri bo'lib, u nafaqat fanni o'rganishga qiziqishni, balki talabalarining ijodiy

boshlanishini ham uyg'otadi. Talabalarining jamoaviy ishini tashkil etishda eng samaralisi mikrogruphlarni shakllantirish va loyiha usulidan foydalanishdir.

Jamoalar o'zaro hamkorlik va psixologik moslik asosida tuziladi. Mikrokollektivda bilim va qobiliyatlardagi farqlar o'quv faoliyatiga xalaqit bermaydi. Biror kishi uchun to'liq amalga oshirilmaydigan narsani kelishilgan jamoaviy ish orqali amalga oshirish mumkin. Talabalar paydo bo'lgan muammolarni birgalikda hal qilishadi va shu orqali o'rganishadi. Har bir inson ham talaba, ham o'qituvchi bo'ladi. Mikrogruphlarni shakllantirishning muhim bosqichi o'z mikrogruphu doirasidagi o'quv jarayonining tashkilotchisi bo'lgan eng qobiliyatli talabalar orasidan rahbarini tanlashdir. U o'quv topshiriqlari va amaliy ishlarni bajarish bo'yicha umumiy rahbarlik qiladi, o'qituvchidan topshiriq oladi va o'z guruhi a'zolari bilan birgalikda o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqsimlaydi.

Talabalarining kichik gruphlarda ishlashi, ish muhitida o'rtoqlar bilan ishbilarmonlik muloqoti muloqot ko'nikmalarini keskin oshiradi, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlashish uchun yuqori darajadagi kasbiy tayyorgarlik zarur. Talabaning doimiy ravishda o'z natijasini tanqidiy o'zini-o'zi baholashga yo'naltirilishi mavjud, bu esa o'z navbatida uni o'z-o'zini rivojlantirishning ichki mexanizmlari va zaxiralarini izlashga undaydi.

Tahlil va natijalar. Bunday mashg'ulotlar, agar diqqat mikrogruphga ma'lum vaqt davomida qaratilgan bo'lsa, samaraliroq bo'ladi, yaxshi niyat va o'zaro ishonchga yordam beradi. Mikrogruphlar bilan ishlash talabalarining mustaqil fikrlash va ijodiy faolligini rivojlantirish imkonini beradi.

“Muhandislik va kompyuter grafikasi” darslarida loyiha usulidan foydalanish axborot makonida harakatlanish qobiliyatini shakllantirish, axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini egallash, tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish, gruphda jamoaviy ishlarni tashkil etish, ko'zlangan maqsadga mustaqil ravishda erishish yo'llarini o'rgatish imkonini beradi [2].

Ta'lim loyihasi tarbiyaviy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ta'sirdan iborat. Loyiha o'z qobiliyatiga, bilimiga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam beradi, mavzuni o'rganishga undaydi va kollektivizm tuyg'usini rivojlantiradi, ijodiy va tadqiqot yo'nalishiga ega.

“Muhandislik va kompyuter grafikasi”dagi loyiha deganda nazariy hisob-kitoblar, geometrik modellashtirish, dizayn echimlari elementlari bo'lgan hisob-kitob va grafik vazifa tushuniladi, buning natijasida talabalar sub'ektiv va ba'zan ob'ektiv yangilikka ega bo'lgan mahsulotni yaratadilar.

Mana bir xil yo'nalishdagi loyiha topshiriqlariga misollar:

Taklif etilgan tasvirlar bo'yicha murakkab geometrik obyektning modellarini qurish – individual vazifalar. Individual topshiriqlar o'quvchining shaxsiy xohishiga qarab ham qiyinlik darajasi, ham mavzu bo'yicha farq qilishi mumkin.

Talabalarining o'zlari tomonidan yaratilgan yoki ixtiro qilingan ob'ektlarning modellarini qurish. Bunda o'qituvchi mavzuni taklif qiladi va shartlar qo'yadi.

Yig'malarning uch o'lchovli modellarini yaratish.

Fan bo'yicha laboratoriya ishlarini ishlab chiqish.

Elektron modellarini yaratish bilan nazariy materialni chuqur o'rganish.

Har bir talaba o'qituvchi tomonidan taklif qilingan loyiha mavzusini tanlaydi. Ammo loyiha bir gruph talabalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin va ularning har biri uchun loyihaning alohida qismi belgilanadi. Yakunida loyihaviy tadqiqot natijalari tuziladi, so'ngra loyiha gruph

oldida himoya qilinadi. Eng yaxshi loyihalar konferensiyalar va tanlovlarda ishtirok etish uchun tavsiya etiladi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tashxislash tizimi rang korrelyatsiyasi, dispersion tahlil, klassik statistik o'lchov usullarini integrativ muvofiq-lashtirish orqali takomillashtirilgan va bo'lajak muhandis-larning kasbiy grafik kompetentligi rivojlanganligini uzluksiz nazorat qilish texnologiyasi asosida o'quv jarayoni samarador-ligi oshirildi. Texnika oliy ta'lim muassasalari ta'lim yo'na-lishlari talabalari uchun "Muhandislik va kompyuter grafikasi"

fanidan taklif qilingan o'qitish metodlarining ishonchligi matematik statistika elementlari yordamida tasdiqlandi.

2. Mashg'ulotlarning taklif qilingan turlari va mazmuni talabalarning bilim darajasini sezilarli darajada oshirdi. Tajriba guruhi talabalari berilgan bilimlarni o'zlash-tirishlarining sifat ko'rsatkichlari "Muhandislik va kompyuter g-pafikasi" fani bo'yicha 80%-85% gacha bo'lgan yuqori darajada namoyon bo'ldi.

3. Tajriba-sinov natijalari asosida gistogramma tuzildi va unda talabalar kasbiy grafik kompetentlikni, amaliy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish sifatining statistik tavsifi yaqqol namoyon bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Muxtoraliyeva R. M., Nosirjonovich O. Z., & Zafarjonovich M. J. (2020). Use of graphics computer software in the study of the subject "Drawing and engineering graphics". *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 83-86.
2. Madaminov J.Z. (2020). Methods of developing students' design competencies in the discipline "Engineering and computer graphics". *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 66-71.
3. Lobanov V.S. Formirovanie professionalnoy kompetentnosti uchitelya obschestvoznaniya v usloviyax usileniya vozdeystviya mediasredy: avtoref. dis ... kand. ped. nauk. – Moskva, 2020. – 23 s.; Kostikov A.N. Metodika obucheniya kompyuternoy grafike buduschix uchiteley informatiki na osnove kompetentnostnogo podxoda: avtoref. dis ... kand. ped. nauk. – Sank – Peterburg, 2003. – 12 s.; Juykova O.V. Organizatsiya samostoyatelnoy raboty studentov-buduschix inzhenerov pri izuchenii graficheskix distsiplin v texnicheskom vuze: avtoref. dis ... kand. ped. nauk. – Kazan, 2014. – 14 s.;
4. Kolomoets G.P. Dizayn v sovremennom sotsiokulturnom prostranstve: avtoref. dis... kand. kul. nauk. – K.: 2003. –95 s.;
5. Kholmurzaev A. A., Alijonov O. I., & Madaminov J. Z. (2020). Effective tools and solutions for teaching "Drawing-geometry and engineering graphics". *Academica: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 58-61.
6. Kholmurzaev A. A., Madaminov J. Z., Rahmonov D. M., & Rasulzhonov I. R. (2019). Metodika razvitiya professional'noj kompetentnosti informacionno-tehnicheskix sredstv budushhih uchiteley chercheniya. *Aktual'naja nauka*, 4, 112-115.
7. Muslimov N. A., & Madaminov J. Z. (2020). Methods for improving the qualifications of future curriculum teachers using information technology. *Scientific-technical journal of FerPI*, 24(1), 177.
8. Kholmurzaev A. A., Alijonov O. I., Madaminov J. Z., & Karimov R. X. (2019). Effektivnye sredstva sozdaniya obuchayuschix programm po predmetu «Nachertatel'naya geometriya». *Problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya*, (12-1 (145)).
9. Kholmurzaev A. A., Alizhonov O. I., Madaminov J. Z., & Karimov R. H. (2019). Jeffektivnye sredstva sozdaniya obuchayjshhih programm po predmetu " nachertatel'naja geometrija. *Problemy sovremennoj nauki i obrazovaniya*, (12-1 (145))).
10. Toshqo'zieva Z. E., Nurmatova S. S., & Madaminov J. Z. (2020). Features of using innovative technologies to improve the quality of education. *Theoretical & Applied Science*, (5), 213-217.



Mansurbek MA'RUF OV,
O'zDJTSU Ko'pkurash sport tulari fakulteti dekan muovini
E-mail: mansurbek_marufov@mail.ru

Toshkent davlat transport universiteti p.f.b.f.d., dotsent Muxammadiyev K.B. taqrizi asosida

ВЛИЯНИЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ ФАКТОРОВ ПРИРОДЫ, КЛИМАТА И ПОГОДЫ НА ОРГАНИЗМ СПОРТСМЕНОВ, ФИЗИЧЕСКОЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СПОРТИВНЫХ УПРАЖНЕНИЙ

Аннотация

В данной статье рассмотрено влияние естественных факторов природы, микрофлоры воздуха, климата и погоды на здоровье спортсменов, а также эффективность тренировок. Вы также познакомитесь с аналитическими результатами гигиенических аспектов массового спорта и физического воспитания, целенаправленного и комплексного использования гигиенических средств для поддержания, укрепления и повышения спортивной работоспособности спортсменов.

Ключевые слова: Природа, естественные факторы, климат, погода, спортсмены, здоровье, тренировка, работоспособность, эффект, микрофлора, массовый спорт, физическое воспитание, гигиена, деятельность, средство, результат.

INFLUENCE OF NATURAL FACTORS OF NATURE, CLIMATE AND WEATHER ON ATHLETES' BODY, PHYSICAL AND FUNCTIONAL CONDITION, AS WELL AS THE EFFICIENCY OF SPORTS EXERCISES

Annotation

This article discusses the influence of natural factors of nature, air microflora, climate and weather on the health of athletes, as well as the effectiveness of training. You will also get acquainted with the analytical results of the hygienic aspects of mass sports and physical education, the purposeful and integrated use of hygiene products to maintain, strengthen and improve the sports performance of athletes.

Key words: Nature, natural factors, climate, weather, athletes, health, training, performance, effect, microflora, mass sports, physical education, hygiene, activity, means, result.

TABIATNING TABIIY OMILLARI, IQLIM VA OB-HAVONING SPORTCHILAR ORGANIZIMI, JISMONIY VA FUNKSIONAL HOLATI HAMDA SPORT MASHG'ULOTLARI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Аннотация

Ushbu maqolada tabiatning tabiiy omillari iqlim va ob-havoning sportchilar salomatligi va mashg'ulot samaradorligiga ta'siri, havo mikroflorasini haqida ilmiy fikr yuritilgan. Shuningdek ommaviy sport va jismoniy tarbiyaning gigienik jihatlari, sportchilarning salomatlikni saqlash, mustahkamlash va sport faoliyatini yaxshilash uchun gigienik vositalarini maqsadli va kompleks qo'llash bo'yicha tahliliy natijalar bilan tanishasiz

Kalit so'zlar: Tabiat, tabiiy omillari, iqlim, ob-havo, sportchilar, salomatlik, mashg'ulot, samaradorlik, ta'sir, mikroflora, ommaviy sport, jismoniy tarbiya, gigiena, faoliyat, vosita, natija.

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport o'quv fani sifatida talabalar va jismoniy tarbiya sohasi mutaxassislari uchun katta umumiy tarbiyaviy va alohida ahamiyatga ega. Ushbu o'quv fanini bilish ko'p jihatdan kasalliklarning oldini olishga, jismoniy tarbiya va sport yordamida inson tanasining funksional holatini to'g'rilashga, organizmning noqulay ekologik omillarga chidamliligini oshirishga yordam beradi. Shu maqsadda har xil ob-havo va iqlim, tabiat omillarining, sportchilar hamda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchi insonlarning jismoniy va organizmining funksional holatiga, uning sog'lig'i va ishlashiga ta'sirini o'rganish kerak.

So'nggi yillarda ob-havo va iqlim omillarining o'zgarishi masalalariga e'tiborning kuchayishi ilmiy va amaliy ishlanmalarning faol rivojlanishiga sabab bo'ldi. Iqlim parametrlarini o'zgartirish dunyodagi barcha mamlakatlar qatori respublikamiz hudud uchun ham dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy nashrlarda urbanizatsiyalashgan hududlarda ob-havo va iqlim omillari ko'rsatgichlari dinamikasini baholashda tartibsizlik holatiga xos bo'lgan aniq belgilangan tartibsizlik rejimi qayd etilgan [3].

Ilmiy adabiyotlarda iqlim omillarining inson salomatligiga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarda, odamlarning faol

migratsiya bog'liq bo'lgan aholining shu hududga ko'pligi bilan jadal moslashish jarayonlarini ham ko'rsatib o'tadi.

K.B. Muxammadiyev shunday yozadi: «...jismoniy tarbiya va sport shug'ullanuvchilarning jismoniy va funksional ko'rsatgichlarini aniqlash uchun iqlim o'zgarishi oqibatlarini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish zarur. Ba'zi yondashuvlarni modernizatsiya qilish kerak. Jismoniy, funksional va biologik tizimlar holatidagi o'zgarishlarni aniqlash, ularni belgilash (sabablarini aniqlash) va xavflarni tahlil qilish usullarini yanada rivojlantirish kerak. Bu usullar ilmiy asoslanishg, ularning samaradorligiga taalluqlidir»[4].

A.B. Gudkov va boshqalar sovuq atamasiga quyidagi ta'rifni beradi, "sovuq - bu meteorologik sharoitlarning to'plami, agar ularning inson tanasiga ta'siri turli xil issiqlik buzilishlari yoki sovuq shikastlanishning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lsa" [4].

Shunday qilib, iqlim parametrlarini baholashning uslubiy masalalari hozirda munozarali va ko'p o'lchovli baholash tizimi nuqtai nazaridan muhokama qilinmoqda.

Sportchilar ko'rsatgichlarini yaxshilash jarayonda jismoniy tarbiya, gigienik omillar va tabiatning davolovchi kuchlaridan keng foydalanish kerak. Bu muammolarni hal qilishda jismoniy tarbiya va sport gigienasi umumiy gigiena

va maxsus gigiena fanlari ma'lumotlariga asoslanadi, shuningdek, jismoniy tarbiya nazariyasi, sport tibbiyoti, sport fiziologiyasi va boshqa fanlardan keng foydalaniladi.

Mavsumiy va iqlim omillarining sportchilar organizmiga ta'siri mo'tadil hududlarda sportchining mashg'ulotlariga mavsumiy va iqlim omillarining ta'siri haqida adabiyotlarda ma'lumot yo'q.

Tadqiqot metodologiyasi. Sportchilarning jismoniy va funksional ko'rsatkichlari hamda ularning salomatligi ta'sir qiluvchi ayrim jihatlarni o'rganishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi ikkita vazifani bajarishni joiz bildik: 1) iqlim va ob-havoni sportchilarning sog'lig'i va faoliyatiga, havo mikroflorasiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida tavsiflash; 2) ommaviy jismoniy tarbiya va sportning gigienik ta'minlanishini ko'rib chiqish.

Noqulay atrof-muhit omillari ham shaxs, ham aholi katta guruhi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy-biologik sharoitlarga moslashish zarurati bilan bog'liq doimiy morfologik va funksional adaptiv o'zgarishlar, organizmning yetakchi adaptiv tizimlarining funksional holatidagi o'zgarishlar tufayli inson tanasining noqulay muhit omillari ta'siriga chidamliligi shakllanadi. Ushbu omillar ta'sirini o'rganish asosida gigiena tavsiyalar, me'yor va qoidalari ishlab chiqiladi.

Iqlim hamda havo mikroflorasi sportchilarning salomatligi va mashg'ulotlar samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida ko'rishimiz mumkin. Iqlim - uzoq muddatli ob-havo rejimi, muayyan hududning asosiy geografik xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Iqlimning asosiy xususiyatlari "quyosh radiatsiyasining kirib kelishi, havo massalarining aylanish jarayonlari, yer osti va yuzasining tabiati bilan belgilanadi" [4].

Iqlimning inson hayoti, farovonligi, odatlari va mehnatiga turli xil ta'siri yaxshi ma'lum. Ob-havo - atmosferaning sirt qatlamining nisbatan qisqa vaqt oralig'idagi fizik xususiyatlari to'plami. Ob-havo - bu ma'lum hududdagi meteorologik sharoitlarning vaqtinchalik holati. Bu ko'rsatkichlarning har biri havo muhitining o'ziga xos gigienik omillarining inson organizmiga ta'sirini aks ettiradi va uning sifatini baholashda mustaqil ahamiyatga ega. Gigiena nuqtai nazaridan troposferaning holati va sifati, Yerdan 10-12 km balandlikda joylashgan havo qatlami eng katta amaliy ahamiyatga ega. Chunki inson hayoti aynan troposferada sodir bo'ladi. Iqlim va ob-havo omillari jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, ularning sog'lomlashtirish samaradorligini, umumiy va maxsus (sport) ko'rsatkichlarini, sport bilan shug'ullanuvchilarning sog'lig'iga putur yetkazmagan holda sport natijalari darajasini oshirishni ta'minlaydi. Ko'proq e'tibor, ob-havo sharoitlarining keskin o'zgarishiga bog'liq bo'lgan bilvosita ta'sirga ega. Bu o'zgarishlar oddiy inson fiziologik ritmlari bilan rezonansga kiradi. Inson organizmi asosan tun va kun va fasl almashishiga moslashgan. Agar keskin va kutilmagan o'zgarishlarga kelsak, ular organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, ob-havoga chidamli yoki ob-havoga sezgir odamlar uchun to'g'ri keladi va o'zini metotropik reaksiyalar deb ataladi. Yil davomida ob-havo fasllarga qarab doimiy ravishda o'zgarib turadi.

Tabiatning tabiiy omillari haroratning o'zgarishi, namlik, quyosh ta'siri, atmosfera bosimi, shamol va boshqalar. Sportchining tanasi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashadi. Agar inson sog'lom bo'lsa, u buni o'z vaqtida va tana uchun sezilmaydigan tarzda amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun ob-havo o'zgarishi deyarli sog'lom sportchining farovonligiga ta'sir qilmaydi. Sportchilar organizmidagi kechadigan kasalliklarning kuchayishi va xavfli vaziyatlarning yuzaga kelishi xavfini kamaytirish uchun yuzaga keladigan

meteorologik tahdidlarda davolash va profilaktika choralarini amalga oshirish kerak.

Tahlil va natijalar. O'quv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari atrof-muhit sharoitida tananing reaksiyasiga ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olib, funksional holatning mavsumiy dinamikasini o'rgandik. Tajriba guruhiga 20 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan jami 75 talaba sportchilar, nazorat guruhiga 25 nafar sport bilan shug'ullanmaydigan talabalar, o'qituvchilar tadqiqotga jalb qildik.

Tadqiqot natijasida barcha sub'ektlarning funksional holati mavsumiy iqlim ta'siriga tushganligi aniqlandi. Ko'rsatkichlardagi eng muhim o'zgarishlar bahorda kuzatildi. Birvaqtning o'zida, nafas olib nafasni ushlab turish davomiyligi sezilarmas darajada kamayadi va oddiy va murakkab harakat reaksiyasi vaqti sezilarli darajada kamayadi.

Bahorda ro'yhatdan o'tgan sportchilarni yoz va kuz fasllaridagi sub'ektlarning boshqa guruhlari ko'rsatkichlari bilan solishtirganda past, yozda esa yuqori teri harorati ko'rsatkichlariga ega.

Bahorda sportchilar yuqori (tekshirilganlarning boshqa fasllarining ko'rsatkichlariga nisbatan) nafas olib nafasni ushlab turish (NONUT) va nafas chiqarib nafasni ushlab turish (NChNUT) davomiyligi, tana harorati, oddiy va murakkab harakat reaksiyalari vaqti sezilarli darajada kamayadi. Shu bilan birga, sportchilar harakat paytida nafasni ushlab turishning past ko'rsatkichiga ega, ammo yurak qisqarish chastatasi (YuQCh) yuqori darajada bo'ldi.

Yozda tana haroratining umumiy pasayishi, YuQCh, nafas olib nafasni ushlab turish va nafas chiqarib nafasni ushlab turish vaqtining ortishi hisobiga sportchilarda tana haroratining sezilarli darajada oshishini takidlash kerak, qon bosimi va puls - sportchilarda, asosan, arterial qon bosimining AQB minimal pasayishi tufayli yuzaga keladi.

Kuzda, funksional holatning aksariyat ko'rsatkichlarining nisbiy o'sishi bilan, sportchilarning mushak faoliyati bilan bog'liq xususiyatlar ham aniqlanadi. Ayrim sport bilan shug'ullanadigan sportchilarda tana harorati, YuQCh, NChNUT paytida oksigemoglobin miqdori eng past ammo maksimal va minimal AQB ko'rsatkichlarga ega bo'ladi. Ularda, vaqt bilan solishtirganda, NONUT vaqti ortadi, NChNUT oddiy va murakkab harakatlar vaqti biroz qisqaradi. Voleybolchilarda terining yuqori harorati saqlanib qoladi, puls bosimining yuqori darajasini saqlab, maksimal va minimal AQB ni kamaytirish mavjud, eng katta (tekshirilayotgan shaxslarning boshqa yillari natijalariga nisbatan) NONUT va NChNUT vaqti, oddiy va murakkab harakatlar reaksiyasining eng qisqa vaqtiga to'g'ri keladi.

Moslashuv uchun organizmning qayta tiklanish jarayonida individual farqlarni ta'kidlash kerak. Demak, yozda, sport bilan shug'ullanmaydigan odamlarda, aksariyat ko'rsatkichlarning pasayishi 10 % hollarda tana haroratining ko'tarilishi kuzatildi, 6,8 % hollarda u o'zgarmadi. AQB o'zgarishlar 8,2 %, 6,4 % hollarda qayd etildi. YuQCh 14,85 % ga, o'pkada nafasni ushlab turish vaqti 8,3% ga oshdi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan shaxslarning individual xususiyatlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yozda tana haroratining umumiy pasayishi sport bilan shug'ullanmaydiganlar o'rtasida 8,3 %, qisman shug'ullanadiganlarda 19,7% va sportchilarda 76,4% hollarda o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Kompleks mashqlari vaqti barcha jihatlarida bir xil tarzda o'zgarib turadi. Oddiy harakatlarni bajarish javob berish vaqti sort bilan shug'ullanmaydiganlar o'rtasida 18,3% hollarda, qisman shug'ullanadiganlarda 22,6% hollarda qisqartirildi, bu ko'rsatkich butun guruhda natijalarning ishonchsiz o'sishiga olib keldi. Aksariyat hollarda, bu ko'rsatkichlar kamaygan yoki o'zgaragan.

Sport bilan muntazam shug'ullanuvchilarning ko'rsatkichlari oldingi natijalar bilan deyarli bilan bir xil. Shu bilan birga, mashg'ulot jarayonining davriyligining o'ziga xos xususiyatlari, sport bilan shug'ullanadigan muhitning o'ziga xosligi funksional ko'rsatkichlarining holatga mos ravishda ta'sir qiladi.

Bu qonning morfologik tarkibi ko'rsatkichlariga ta'lluqli. Shunday qilib, eritrotsitlar cho'kindisining eng yuqori darajasi bahorda ($R > 0,1$), qishda ($R < 0,01$) fasllariga nisbatan qayd etilgan. Bahordagi ko'rsatkichlari bilan taqqoslaganda, eritrotsitlar ($R < 0,01$) va gemoglobin ($R < 0,05$) miqdori yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Tana haroratining qon aylanish parametrlari bahor yoki qishda ko'tarilishi kuzatildi.

Bahorda sezilarli darajada (qish vaqtiga nisbatan) UTS ($R < 0,01$) oshadi, NONUT paytida UTS ($R < 0,01$), bo'ldi. Yozda bu ko'rsatkichlarning biroz pasayishi maxsus xolatlarining yaxshilanishida, xususan, 100 va 200 metr masofalarga yugurishda sodir bo'ladi.

Ayrim meteorologik elementlar majmualarining sub'ektlarning funksional holatiga ta'siri o'rganildi. Sport bilan shug'ullanmaydigan odamlarda yurak urish tezligi kunlik havo harorati farqiga, AO kunlik barometrik bosim farqiga, havo namligining puls bosimiga, vosita reaksiya vaqtiga, shamol tezligiga, umumiy ob-havo indekslariga, ilhomlanishdagi oksigemoglobin ulushiga bog'liqligining ijobiy yoki salbiy ko'rsatkichlariga ega tana harorati va havo namligi.

Tadqiqotimizda ayrim meteorologik elementlarning sportchilar organizimi funksional holatiga ta'siri o'rganildi. Sport bilan shug'ullanmaydigan odamlarda YuQCh kunlik havo harorati o'zgarishiga bog'liqligining ijobiy yoki salbiy tomonlariga ega, AQB kunlik barometrik bosimning pasayishi, havo namligi, pulsning bosimi, harakat vaqti, shamol tezligi, umumiy ob-havo indekslari, nafas olishdagi oksigemoglobin ulushi, tana harorati va havo namligiga bog'liq.

Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan sportchilar havo harorati korrelyatsiya koeffitsientlari ta'siri aniqladi:

bir tomondan tana harorati, minimal AO, bir daqiqa davomida o'pkada havo aylanishi (BDDUSHA) o'pkaning kislorod bilan ta'minlanishi foizda (UKBTF) - boshqa tomondan, tana harorati bilan kunlik havo harorati farqi, minimal AQB, ChD, BDDUSHA, UKBTF harakat vaqtida;

quyosh nurida nafas olish vaqti kislorod molekullarining (O_2) umumiy qiymati;

umumiy meteorologik indeks, tana harorati, nafas olish va nafas olishda oksigemoglobinning ulushi, vosita reaksiyasi vaqti.

Ta'kidlash joizki, bu natijalar sportchilar bilan tadqiqot tajribasini o'tkazish paytida ijobiy va qulay harorat sharoitida olingan bo'lib, mashg'ulotlarning asosiy vaqti

bahor-yoz vaqtiga to'g'ri keladi. Yilning ma'lum bir vaqti va tarzda qo'llaniladigan jismoniy mashqlarning o'ziga xos xususiyatlarining yaqinligiga bir biriga ta'sir qiladi deb taxmin qilish mumkin. Shuni hisobga olgan holda, bir xil qarama-qarshi iqlim sharoitida mushaklar faolligining o'ziga xosligi bilan ajralib turadigan bir jinsli sportchilarda so'rovnomalari o'tkazildi.

Olingan ma'lumotlar ko'p hollarda tasvirlanganlarga o'xshash fiziologik reaksiyalarning teng yo'nalishini o'rnatishga imkon berdi. Biroq, ma'lum farqlar mavjud. Shunday qilib, yozgi sport turlari bilan shug'ullanadigan sportchilar, qishki sharoitlarda havo haroratining oshishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud va u pasayishi bilan - umumiy meteorologik ko'rsatkich va harakat vaqti ($r = 0,414$, $R < 0,05$; $r = 0,473$, $R < 0,05$), o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

Yuqori koeffitsient quyosh nuri va ish qobiliyatining umumiy soni og'irligi bo'lib chiqadi ($r = 0,501$, $P < 0,01$), garchi yozda bu ko'rsatkichning o'sishi ish qobiliyati darajasiga teskari bog'liq bo'lsada ($r = -0,315$, $P > 0,05$).

Agar maqbul (ijobiy) harorat sharoitida (tinch holatda me'yodagi yuklamani bajarishda) havo harorati va AB (yuqori va past) o'rtasida manfiy ($r = -0,451$, $R < 0,05$; $r = -0,425$, $R < 0,05$) va YuQCh bilan bog'liqlik ijobiy, kuzda havo harorati 00 darajadan o'tganda ijobiy bog'liqlik maksimal AB ($r = 0,412$, $P < 0,05$) va YuQCh uchun salbiy xolat kuzatiladi ($r = -0,467$, $P < 0,05$).

Ijtimoiy-maishiy sharoitlarning xususiyatlari (mashg'ulotlar tartibini tashkil etish, dam olish, mushaklar faoliyatining o'ziga xosligi va boshqalar), bir tomondan, mavsumiy va iqlim o'zgarishlari, boshqa tomondan, turli xil mexanizmlarning shakllanishini, tananing funksional holatidagi xarakterli o'zgarishni kuzatish mumkin.

Xulosa va takliflar. Hozirgi vaqtda respublikamiz hududida ikkita ekologik zonani ajratish mumkin: qulay va noqulay. Tadqiqot Respublikamizning turli, ekologik jihatdan turli hududlarida doimiy yashovchi mahalliy sportchilari o'rtasida bir qator antropometrik va fiziologik ko'rsatkichlarda sezilarli farqlarni aniqladi.

Respublikamizning iqlimi qulay hududlaridagi sportchilarning umumiy tana o'lchamlari noqulay hudud sportchilarinikidan sezilarli darajada kattaroqdir. Iqlimi yaxshi bo'lgan hudud shug'ullangan sportchilar orasida yurak-qon tomir tizimi, shuningdek, tashqi nafas olish ko'rsatkichlari noqulay hududdagi tengdoshlarida kuzatilgan va mos keladigan ko'rsatkichlardan oshib ketadi, sistolik bosim qulay sharoitdagi sportchilarga qaraganda past. Sportchilarda ham, sport bilan shug'ullanmaydigan yigitlarda ham ba'zi morfologik ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillar respublikamiz guruhlariga xos bo'lgan iqlim va geografik va ijtimoiy-maishiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR

1. Гаттаров П.У. Исследование показателей функционального состояния студентов трехмедицинских групп здоровья / Гаттаров П.У., Потапова Т.В., Зубков С.М. и др. // Вестник Южно-уральского государственного университета. Серия "Образование, здравоохранение, физическая культура". 2007. №16 (88). вып. 12. С.43-49.
2. Muxamadiyev K.B. Talabalarning jismoniy ko'rsatkichlarini rivojlantirish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent temir yo'l muhandislari instituti bosmaxonasi. 07.05.2019 y. – 28 b.
3. Muxamadiyev K.B. Jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanishda jismoniy yuklamalar samaradorligini baholashning pedagogik nazorat usullaridan foydalanish. Uslubiy qo'llanma Toshkent temir yo'l muhandislari instituti bosmaxonasi. 07.08.2019 y. – 23 b.
4. Muxamadiyev K.B. Jismoniy tarbiya ta'limi jarayoni samaradorligini oshirish va talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari: Monografiya / "Innovatsion rivojlantirish nashriyoti-matbaa uyi". – Toshkent, 2021. – 413 b.
5. Muxammadiyev K.B. Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya ta'limi jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish // Ta'lim, fan va innovatsiya – Toshkent, 2021. 4-son. – B. 53-57.



Akrom MIRZAKULOV,
IV Akademiyasi Jangovar va jismoniy tayyorgarlik kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: akrom.mir1988@gmail.com

O'zDJTSU magistratura bo'limi boshlig'i, pedagogika fanlari nomzodi F.R. Maxamadjonov taqrizi asosida

FUNKSIONAL KO'PKURASH (KROSSFIT) VOSITA VA USULLARI ORQALI IIV AKADEMIYASI KURSANTLARINI JISMONIY VA JANGOVAR TAYYORGARLIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Аннотация

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga katta etibor qaratilayotganligi yurtimizda sport turlari bo'yicha yangi chempionlar yetishib chiqishiga hamda sportchilarimiz Osiyo va jahonda yurtimiz bayrog'ini yuqori ko'tarishlariga muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: FunkSIONAL ko'pkurash, krossfit, turnik, brus, makkisimon yugurish, shtanga, variatsiya koeffitsiyenti, jismoniy sifatlari.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИЗИЧЕСКОЙ И БОЕВОЙ ПОДГОТОВКИ КУРСАНТОВ АКАДЕМИИ МВД СРЕДСТВАМИ И МЕТОДАМИ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО МНОГОБОРЬЯ (КРОССФИТА)

Аннотация

В стране осуществляются последовательные меры по популяризации физической культуры и спорта, созданию необходимых условий и инфраструктуры для пропаганды здорового образа жизни среди населения, особенно молодежи, обеспечения достойного участия страны в международных спортивных соревнованиях. Большое внимание уделяется физической культуре и спорту, что является важным фактором, способствующим появлению в нашей стране новых чемпионов по этому виду спорта и поднятию нашими спортсменами флага нашей страны в Азии и мире.

Ключевые слова: Функциональное многоборье, кроссфит, турник, Брюс, мокасанный бег, штанга, коэффициент вариации, физические качества.

IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF PHYSICAL AND COMBAT TRAINING OF CADETS OF THE ACADEMY OF THE MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS BY MEANS AND METHODS OF FUNCTIONAL ALL-AROUND (CROSSFIT)

Annotation

Consistent measures are being taken in the country to popularize physical culture and sports, create the necessary conditions and infrastructure to promote a healthy lifestyle among the population, especially young people, and ensure the country's worthy participation in international sports competitions. Much attention is paid to physical culture and sports, which is an important factor contributing to the emergence of new champions in this sport in our country and the raising of the flag of our country by our athletes in Asia and the world.

Key words: Functional all-around, crossfit, horizontal bar, Bruce, moccasin running, barbell, coefficient of variation, physical qualities.

Kirish. Mamlakatimiz aholisini yarmidan ko'prog'ini tashkil etuvchi yoshlarga, qolaversa butun aholimiz yaratilayotgan keng sharoit va qulayliklar, ularning zamonaviy bilim olishi va salomatligini mustahkamlash bo'yicha qabul qilinayotgan davlat dasturlari, qaror va farmonlari maqsadli rejalarni amalga oshirishga katta zamin yaratmoqda.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli hamda 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli farmoni, Ichki Ishlar Vazirining 2022-yil 22-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligini tashkillashtirish to'g'risida"gi 383-son buyrug'i kabi ko'plab farmonlari va qarorlari ham shular jumlasidandir[1].

Funksional ko'pkurash (krossfit) – bu ko'p energiya talab qiluvchi, ko'p bo'g'imli harakatlardan foydalanadigan sport turi bo'lib, u erkin og'irlikdagi mashqlar, shaxsiy tana og'irligi bilan mashqlar, siklik (kardio) mashqlardan foyda-

langan holda maxsus tuzilgan komplekslar to'plamlarini birlashtirib, bir vaqt davomida uzuluksiz bajarishlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu sport turining asosiy vazifasi – tananing turli tizimlarini jadal rivojlantirish va umumiy sog'likni mustahkamlashdan iborat. Qolaversa, kombinatsiyalashgan mashqlar ishtirokchilarni chiniqtirish, ularni chidamlilik darajasini oshirish, jismoniy imkoniyatlarini har qanday yuklamaga moslashtirish hisoblanadi.

Funksional ko'pkurash (krossfit) sport turini organizmning barcha jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga hamda har qanday maqsadlarga erishishga imkon beruvchi universal sport turi deb hisoblash mumkin.

Funksional ko'pkurash (krossfit) sport turi bo'yicha IIV Akademiyasida ham keng ko'lamli ishlar, sport tadbirlari va ommaviy chiqishlar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda ichki ishlar xodimlariga jinoyatchilikka qarshi samarali kurashishda katta talablar qo'yilmoqda. Har bir xodim jismonan baquvvat va aqlan teran bo'lmoqligi darkor. Bu o'rinda funksional ko'pkurash (krossfit) bilan shug'ullanmoqlik albatta xodim uchun, uning jismoniy holati uchun eng

maqbul usullardandir. Jismoniy rivojlanganlik darajasiga doimiy ravishda talablar ortib bormoqda. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining professional jismoniy tayyorgarligi tezkor va xizmat faoliyatini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining harakatlarini samaradorligi jinoyatchilikka qarshi kurashda va jamoat tartibini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Ba'zida esa xar bir xodimning kasbiy faoliyatida surunkali charchoq, noto'g'ri ovqatlanish va jismoniy harakatsizlik kabi salbiy illatlar ta'qib qilib boradi. Agar xodim ushbu salbiy illatlarga ruju qo'ymasa, jinoyatchilikka qarshi kurashishda faollik namoyon etadi va albatta kasbiy faoliyatida unum bo'ladi[3].

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarining jismoniy tayyorgarligi darajasi nafaqat jismoniy, balki aqliy faoliyatini yaxshilash bilan chambarchas bog'liq. Bu ichki ishlar xodimlarining kasbiy-amaliy faoliyatida alohida ahamiyatga yega, chunki ichki

ishlar tizimida barcha mutaxassisliklar va xodimlarining aqliy hamda jismoniy faoliyati hajmi doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Binobarin, jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi psixologik jarayonlarning barqarorligini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi. Shunday qilib, jismoniy tayyorgarlik ichki ishlar xodimlarining kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi va muhim vazifalarni samarali bajarishga yordam beradigan asosiy vositalardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Jismoniy tarbiya kursantlar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

tartibli va intizomli bo'lish;
jismoniy tayyorgarligini oshirish;
belgilangan vazifalarga muvofiq o'qish sifatini oshirish.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya fani ham, ta'lim tizimining boshqa o'quv fanlari singari, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursantlarining o'quv yili boshidagi jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari (sentabr 2021-yil).

№	Nazorat mashqlari	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			t	p
		X	±m	V,%	X	±m	V,%		
1.	100 m yugurish (s)	14,35	0,9	2,6	14,38	0,7	2,4	0,02	>0,05
2.	Mokkisimon yugurish 10x10 (s)	26,67	0,51	1,9	27,25	0,37	1,6	0,75	>0,05
3.	Mokkisimon yugurish 4x20 (s)	16,76	0,1	1,8	16,54	0,8	1,4	0,89	>0,05
4.	3000 m yugurish (s)	787,34	18,4	1,6	773,14	16,6	1,5	0,56	>0,05
5.	5000 m yugurish (s)	1596,4	34,11	2,3	1581,3	23,7	1,9	0,36	>0,05
6.	100 m suzish (s)	133,36	0,84	2,7	131,12	0,93	3,01	1,79	>0,05
7.	Turnikda tortilish (marta)	08,16	0,41	12,6	9,21	0,36	11,4	1,94	>0,05
8.	Turnikda to'ntarilib tushish	3,26	0,09	7,4	3,45	0,09	7,2	0,73	>0,05
9.	Turnikka kuch bilan chiqish	2,34	0,08	10,8	2,47	0,09	10,4	0,08	>0,05
10.	Brusda mashq bajarish	12,36	0,17	10,3	12,47	0,31	11,4	0,31	>0,05
11.	Shtangani yerdan uzib ko'tarish	89,17	0,81	4,3	90,34	0,87	4,1	0,98	>0,05

Izoh: $\alpha = 0,05$ trp. = 2,011; $\alpha = 0,01$ tgr. = 2,682; $\alpha = 0,001$ tgr. = 3,505. Qiyosiy baholashda NG va TG bir xilligi ifoda etildi, shuning bilan bir qatorda variatsiya koeffitsiyenti 33% dan oshmadi.

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursantlarining 1-kurs oxirida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari (iyun 2022-yil).

№	Nazorat mashqlari	Nazorat guruhi			Tajriba guruhi			T	p
		X	±m	V,%	X	±m	V,%		
1.	100 m yugurish (s)	14,35	0,04	2,4	14,21	0,05	2,1	2,3	> 0,05
2.	Mokkisimon yugurish 10x10 (s)	26,54	0,04	1,6	26,08	0,2	1,3	2,3	> 0,05
3.	Mokkisimon yugurish 4x20 (s)	16,54	0,1	1,7	16,10	0,06	1,5	4,0	> 0,001
4.	3000 m yugurish (s)	776,5	3,5	1,5	756,4	4,1	1,4	3,79	> 0,001
5.	5000 m yugurish (s)	1590,3	9,4	2,4	1552,6	8,6	2,0	2,9	> 0,01
6.	100 m suzish (s)	130,16	0,61	2,4	127,13	0,56	3,2	3,7	> 0,001
7.	Turnikda tortilish (marta)	8,64	0,3	11,6	10,02	0,4	11,2	3,12	> 0,01
8.	Turnikda to'ntarilib tushish	3,39	0,2	7,4	4,06	0,1	7,6	3,04	> 0,001
9.	Turnikka kuch bilan chiqish	2,58	0,1	10,2	3,06	0,2	10,4	5,45	> 0,001
10.	Brusda mashq bajarish	12,73	0,3	9,21	14,53	0,3	9,17	4,28	> 0,001
11.	Shtangani yerdan uzib ko'tarish	91,27	0,74	4,5	96,14	0,82	4,8	4,42	> 0,001

Izoh: $\alpha = 0,05$ tgr. = 2,011; $\alpha = 0,01$ tgr. = 2,682; $\alpha = 0,001$ tgr. = 3,505. Qiyosiy baholashda NG va TG bir xilligi ifoda etildi, shuning bilan bir qatorda variatsiya koeffitsiyenti 33% dan oshmadi.

Tahlil va natijalar. Olingan natijalar yeksperimental tadqiqot natijalari to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishdan oldin, jismoniy qobiliyatlar har doim insonning morfologik va psixofiziologik xususiyatlari majmuasi bo'lib kelganligini va ularni o'lchash tadqiqotchi uchun bir qator muammolarni keltirib chiqarishini yesga olish kerak. Gap shundaki, jismoniy tayyorgarlik testlarining aksariyati geterogen, ya'ni ularning natijasi bir necha omillarga bog'liq. Masalan, turnikdagi tortishishlar soni inson kuchi va chidamliligiga bilan bog'liq. Aniqroq natijani

aniqlash uchun biz buning uchun sinov normativlaridan foydalandik.

IIV Akademiyasi kursantlarining tezlik qobiliyatlarini aniqlash uchun 100 m yugurishdan foydalanildi, bu ham geterogendir, chunki 100 m yugurish natijasi nafaqat tezlik qobiliyatiga, balki kuchga ham bog'liq.

4x20 va 10x10m mokkisimon yugurish natijalari tezlik qobiliyatlariga bog'liq balki tezlik-chidamlilik va koordinatsion qobiliyatlariga ham bog'liq bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki 3000 va 5000 m masofaga yugurish kursantlarining chidamkorligini rivojlantiradi, shu bilan bir qatorda 100 m masofaga suzish ham. Shuni qo'shimcha qilish kerakki, 3000 va 5000 m yugurishdagi natijalar kursantlarning irodasini mustahkamlaydi.

Turnikda tortilish, to'ntarilib chiqib tushish va kuch bilan chiqishda biz nafaqat kuch sifatlarini balki kuch-chidamkorlik sifatlariga ham guvoh bo'ldik.

Tajriba va nazorat guruhlarining jismoniy tayyorgarligi darajasi, jismoniy sifatning rivojlanishini tavsiflovchi testlar bilan aniqlandi: tezlik (100 m yugurish; makkisimon yugurish 10 x10 , 4x20 m), chidamlilik (3000 m yugurish, 5000 m yugurish), kuch (turnikda tortilish), kuch va muvofiqlashtirish (turnikda to'ntarilib tushish), kuch (brusda bajariladigan mashqlar, shtangani yerdan uzish).

Harakatlar tezligini tavsiflovchi "100m yugurish" testi tajriba guruh kursantlarining nazorat guruhi bilan solishtirganda tayyorgarligidagi farqlarning ishonchligini, farqlarning ishonchligi ($p < 0.05$) bilan aniqladi. Tajriba guruh "yaxshi" bahoga bajardi, nazorat guruhi – "qoniqarli" bahoga bajardi.

Guruxlarda tezlik va chaqqonlikni rivojlantirish uchun 10x10 va 4x20 makkisimon yugurish testlari berildi, bunda tajriba guruxi kursantlari yaxshi natijani ko'rsatishdi ($p \leq 0,01$).

Funksional ko'pkurash (krossfit) jismoniy yuklamalari tajriba guruhi kursantlarining tezligini rivojlantirishga yaxshi ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, taklif qilingan Funksional ko'pkurash (krossfit) texnikasi tajriba gurux kursantlariga an'anaviy usullar bilan shug'ullangan nazorat guruhi kursantlariga

nisbatan yaxshiroq jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlariga yerishishga imkon berdi[4].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarining jismoniy tarbiya tizimidagi jismoniy tayyorgarligini oshirish darajasiga yo'naltirilgan ilmiy, uslubiy va ixtisoslashtirilgan adabiyotlarni tahlil qilish natijasi ushbu hodisani yanada samarali vositalar tarkibini soddalashtirishga qaratilgan pedagogik strategiya sifatida aniqlashga imkon berdi.

Funksional ko'pkurash (krossfit) yordamida O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursantlarining jismoniy tayyorgarligini tashkil etish modeli ishlab chiqilgan. Uning tarkibi uchta blokdan iborat.

Bir yil davomidaolib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhining natijalari nazorat guruhining natijalariga nisbatan o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan: 4x20 m masofaga makkisimon yugurishda 2,6 % (r (0,001)ga; 3000 m masofaga yugurishda 2,7 % (r (0,001)ga; 5000 m masofaga yugurishda 2,4% (r (0,001)ga; 100 m masofaga suzishda 2,7% (r (0,001)ga; turnikda to'ntarilib chiqib tushish 16,6 % (r (0,001)ga; turnikda tortilish 15,3 % (r (0,001)ga; turnikka kuch bilan chiqish 15,7 % (r (0,001)ga; shtangani yerdan uzish 15,4 (r (0,001)ga oshganini ko'rishimiz mumkin.

Jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining yeng sezilarli o'sishi nazorat guruhi bilan taqqoslaganda tajriba guruhda kuzatildi. Shu bilan birga, tajriba guruh kursantlarining jismoniy tayyorgarligining barcha ko'rsatkichlari model parametrlari qiymatlariga yetdi va dastlabki ma'lumotlar va yakuniy natijalar o'rtasidagi taqqoslashdagi farq yuqori darajada ahamiyatga yega bo'ldi (r (0,001).

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ 3031-sonli "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. 2021-yil 15-aprel kunidagi PQ-5076-sonli Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risidagi prezident qarori hamda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2022-yil 22-sentabrdagi 383-son "Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarligini tashkillashtirish" to'g'risidagi buyrug'i.
3. Глассман Г. Crossfit: руководство к тренировкам / Г. Глассман. / пер. с англ. Е. Богачев, И. Карягин. – М. : www.cfft.ru, 2009.
4. Kuliyeв R.S., Maqsudov Q.A., Raxmatullayeva L.A. Funksional ko'pkurash/ O'quv qo'llanma. – Toshkent 202-yil.



УДК:796.08:316.3 (575.1)

Isajan MIRZAKULOV,
Toshkent davlat transport universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası v.b.dotsenti
E-mail: mirzakulov.isazhon@bk.ru

TDPU professori v.b. L.X.Rustamov taqrizi asosida

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД ПО РАЗВИТИЮ МЫШЕЧНОЙ СИЛЫ ЗАНИМАЮЩИХСЯ ПРИ ЗАНЯТИЯХ БОРЬБЫ-КУРАШ

Аннотация

В данной статье отражены педагогические наблюдения, направленные на развитие мышечной силы студентов-борцов. Приведены научные заключения о случаях потери победы соперником в результате недостаточного развития силы борцов в состязаниях, даны рекомендации, основанные на педагогических наблюдениях ученых, занимающихся здоровьем. Основная цель проведенных исследований – повышение эффективности подготовки борцов нашей республики на научной основе системы управления соревновательными и тренировочными нагрузками, повышение их технико-тактической и функциональной подготовленности и силовых качеств.

Ключевые слова: Борьба, соревнование, мышца, работоспособность, мышечный тонус, спорт, травма, тренер, тренировка, технико-тактический, метод, физические качества, гибкость, выносливость, сила, развитие, механизм, результат.

PEDAGOGICAL APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF MUSCLE STRENGTH OF PARTICIPANTS IN KURASH WRESTLING

Annotation

This article reflects pedagogical observations aimed at developing the muscular strength of student wrestlers. Scientific conclusions are given on cases of loss of victory by an opponent as a result of insufficient development of the strength of wrestlers in competitions, recommendations are given based on the pedagogical observations of scientists involved in health. The main goal of the conducted research is to increase the effectiveness of the training of wrestlers of our republic on a scientific basis of the competitive and training load management system, to increase their technical-tactical and functional readiness and strength qualities.

Key words: Wrestling, competition, muscle, working capacity, muscle tone, sport, injury, coach, training, technical and tactical, method, physical qualities, flexibility, endurance, strength, development, mechanism, result.

KURASH MASHG‘ULOTLARIDA SHUG‘ILLANUVCHILARNING MUSHAKLAR KUCHLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN PEDAGOGIK YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada talaba kurashchilarning mushak kuchlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik kuzatuvlar haqida fikr yuritilgan. Musobaqalarda kurashchilarning kuch imkoniyatlarining yaxshi rivojlanmaganligi natijasida raqibga g‘alabani boy berib qo‘yish holatlari haqida ilmiy fikirlar berilgan va sohaga daxildor bo‘lgan olimlarning pedagogik kuzatuvlariga asoslanib tavsiyalar berilgan. Olib borilgan tadqiqot ishlarining bosh maqsadi, respublikamizda kurashchilarni tayyorlash samaradorligini oshirish musobaqa va mashg‘ulot yuklamalarini nazorat qilish tizimining ilmiy asoslab ularning texnik-taktik va funksional tayyorgarligi hamda kuch sifatlarini oshirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Kurash, musobaqa, mushak, ish qobiliyati, mushaklar tonusi, sport, shikastlanish, murabbiy, mashg‘ulot, texnik-taktik, usul, jismoniy sifatlar, egiluvchanlik, chidamkorlik, kuch, rivojlantirish, mexanizm, natija.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyo o‘tkazilib kelinayotgan nufuzli sport musobaqalarda, jumladan, Olimpiada va Osiyo o‘yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari, an’anaviy xalqaro turnirlarda sport natijalarining uzluksiz o‘tib borishi, raqobatni yanada keskinlashayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi zamonaviy sport amaliyotida yuksak sport natijalariga erishish maqsadida yuklamalar hajmi va shiddatini me‘yoridan oshirish ko‘ngilsiz oqibatlar, hatto shikastlanishlarga olib kelishi murabbiy va olimlar tomonidan ta‘kidlanib kelinmoqda. Bugungi kunda bu borada bir qator ilmiy va amaliy ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ilmiy manbalar kurashda qo‘llaniladigan ilmiy jihatdan yetarlicha ochib berilmaganligini ko‘rsatmoqda. Bu esa sohaga daxildor mutaxassislar tomonidan ilmiy asoslangan izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Respublikamizda kurash sport turining ommaviylikini oshirish, uning milliy qadriyatimiz ekanligini, targ‘ib qilish va yoshlar ongida kurash milliy sport turiga bo‘lgan emmunitetini

oshiri, “6-sentyabrni O‘zbekistonda “Kurash” milliy sport turi kuni deb e‘lon qilinishi” Prezidentimiz tomonidan o‘z vaqtida kurashga bo‘lgan e‘tiborning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligidan dalolat beradi. Kurash xalqaro assotsiatsiyasining 2017-yilning 27-mayda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari Kongressida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevni kurash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining doimiy Faxriy Prezidenti etib saylanganligi kurash sportchilarini va xalqimizda kurashga bo‘lgan ishtyoqni yanada oshirdi. Kurash milliy sport turini 2030-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish konsepsiyasi, 2020-2030-yillarda kurash milliy sport turining xalqaro nufuzini yanada oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”, 2030-yilga qadar kurashni ommalashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarni baholash mezonlari tasdiqlanganligi o‘ta ahamiyatli hisoblanadi. Olib borilgan bu ishlarining bosh maqsadi, respublikamizda kurash bo‘yicha yosh sportchilarni tayyorlash samaradorligini oshirish musobaqa va mashg‘ulot yuklamalarini nazorat qilish tizimining ilmiy

asoslab ularning texnik-taktik va funksional tayyorgarligi oshirishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yakkakurash sport turlarida tayyorgarlik tizimini takomillashtirish bir qator olimlar milliy kurash amaliyotchi murabbiylari diqqatini o'ziga tortib keladi. Mazkur muammoning ayrim tomonlari bo'yicha ilmiy tadqiqot va o'quv-uslubiy ishlarda ishlab chiqilgan. Bu borada yurtimiz olimlari va xorijiy amaliyotchilariga yetarlicha ishlarni amalga oshirgan jumladan, T.S.Usmanxodjaev, F.A.Kerimov, A.N.Abdiev, K.B.Muxammadievlarning ilmiy qarashlarida kurashchilarning turli jihatdan morfo-funksional yo'nalishlari tadqiq etilgan. Rus olimlarida ishlaridan sportchilarning jismoniy tayyorgarligi va harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish masalalarini I.V.Zabludovskiy, Z.I.Biryukova, I.P.Povlova, A.I.Makarova, A.V.Korobkov, A.D.Slonim, N.A.Belaya, O.Glezer, A.N.Kramarenko, A.B.Lejax, F.K.Biryukov A.A.Epifanov V.S.Selivanov, V.I.Logyanov, A.I.Makarova va boshqa olimlarning ishlarida sportchilar organizmining o'ziga xos ko'rsatkichlarini ta'riflaganlar. Ularning ilmiy izlanishlari kurashchilar tayyorgarligi, organizmining jismoniy va funksional holatlarining tiklanish jarayonlari rivojlanishiga ma'lum darajada hissa qo'shish kelmoqda.

Yuqoridagi olimlarning fikrlariga asosan aytish mumkinki kurashchilarning jismoniy va funksional holatining tiklanish qobiliyatini rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini tahlil qilish natijasida yuzaga kekladigan muammo bartaraf etish dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot vazifalarini hal etish uchun quyidagi uslublardan foydalanilgan: pedagogik kuzatuv, pedagogik tahlil, matematik-statistika uslublari, jihozlarning ishlatilishi jarayonlari va qo'llash bosqichlari hamda sikllari yoritilgan. Sikllar 3-bosqichda amalga oshirilgan.

Birinci bosqichda (2019-2020-yillar) mahalliy va xorijiy adabiyotlarda ilmiy mavzuning dolzarbligi o'rganilib, mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar va tadqiqot ishlari asosida tahliliy materiallar tayyorlandi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichiga o'tish uchun instrumental metodik loyiha yaratildi.

Ikkinchi bosqichda (2020-2021-yillar) tadqiqotning loyihasi asosida tajriba maydonchalarida pedagogik kuzatuvlar amalga oshirildi, Toshkent davlat transport universitetida 1 bosqich talabalarini sinaluvcilarining tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi. Har bir guruh 25 nafardan kurashchi o'smir talabalar tanlab olindi. Murabbiy va o'qituvchilar bilan tadqiqot loyihasini amalga oshirish yuzasidan mahorat darslari tashkil etildi.

Uchinchi bosqichda (2021-2022-yillar) tadqiqotning so'nggi bosqichida tajriba maydonchalarida ish yakunlanib, olingan natijalarga matematik-statistik tahlili va atijalar asoslanganligi haqida xulosa qilindi.

Tahlil va natijalar. Pedagogik tadqiqot boshida talaba kurashchilarning tayyorgarlik tizimida jismoniy xolatning tiklanish darajasini oshirish, kuchi va chidamkorlikning mashg'ulot va musobaqalardan so'ng tiklashi muammolarini aniqlash maqsadida tajriba boshida guruhlarda qayd qilingan mushak kuchi, bo'shshish va taranglashishida mushak tonusi, guruxlardagi talaba sportchilarda olingan kuchi va ishchanlik qobiliyatini kuzatishlar natijalari, kuchi ko'rsatkichlarining qisqacha tavsifi haqida ilmi ma'lumotla aniqlab ularning statistik xarakteristikalarini o'zaro solishtirish natijalari keltirilgan. Nazorat va tajriba guruhlari sinaluvcilarining o'rganilgan kuch va egiluvchanlik bo'yicha ko'rsatgan natijalari uchun hisoblangan variatsiya koeffitsienti qiymatlarini barcha dalillari bo'yicha bir-birlariga o'zaro yaqinligi asosida tajriba va nazorat guruh talaba kurashchilarining tajriba boshidagi tayyorgarlik darajasi o'zaro yaqinligini ko'rsatdi.

Demak tajriba to'g'ri tashkil etilganligi haqida xulosa chiqarilgan [4].

Pedagogik tajriba davomida tajriba guruhidagi (TG) talaba sportchilarning mashg'ulotdan oldin, mashg'ulotdan so'ng kuzatish davrlaridagi mushak kuchining o'zgarish dinamikasi va olingan natijalar asosida hisoblangan statistik tahlili natijalari guruhlardagi variatsiya koeffitsientlarining son qiymatlari nazorat guruh (NG) talabalarinkiga qaraganda nisbatan yaxshiligini ko'rsatadi.

Bilak mushaklari kuchi ko'rsatkichlari boshqa mushaklarga qaraganda, ularni kuchsizroq sifatida ifoda etadi. Tajriba guruhidagi talabalarda mushak kuchining dastlabki ko'rsatkichlari o'zgarishi 70 – 75 kg atrofida (80%) atrofida, nazorat guruhi talabalarda esa 63 – 58 kg 13 % atrofida bo'ldi. Bu tajriba guruhi kurashchilarida $\chi \pm \sigma = 16,0 \pm 0,30$ ga teng. Boshqa mushaklar kuchining dastlabki ko'rsatkichlari 68-65 kg atrofida o'zgarib turdi va shu o'zgarishlar doirasida bir tekis taqsimlandi:

$\chi \pm \sigma = 19,5 \pm 0,27$. Tajriba guruhidagi (TG) talaba kurashchilarda bilakni yozuvchi mushaklar kuchi ko'rsatkichlari Nazora guruhidagilarga (NG) nisbatan umumiy jamlangan holda taqsimlandi. TG talaba kurashchilarining tinch holatda bilakni yozuvchi mushaklar kuchi ko'rsatkichlari 87,6%, NG talaba kurashchilariniki esa 52,4%, bu ko'rsatkichlar umumiy kuzatishlar uchun xos bo'ldi. TG talaba kurashchilarining bilakni yozuvchi mushaklar kuchi dastlabki ko'rsatkichlarining umumiy holati NG talaba kurashchilarinikiga qaraganda yuqori darajada mashqlanganlik bilan tushuntirish mumkin. Sonni bukuvchi mushaklar guruhi, og'irroq bo'lgani tufayli, o'zgarishlar chegarasi ancha katta bo'ldi. TG talaba kurashchilarining dastlabki ko'rsatkichlari $\chi \pm \sigma = 22,8 \pm 0,41$ kg ni tashkil etdi. 70 % ko'rsatkichlar past kuch ko'rsatkichlaridan o'rtacha qiymatlariga taqsimlangan bo'lsa, 30% ko'rsatkichlar 77 – 80 kg atrofida o'zgarish chegarasiga to'g'ri keldi. NG talaba kurashchilariniki sonni bukuvchi mushaklar kuchining dastlabki ko'rsatkichlari 66 – 70 kg chegarasida o'zgarib turdi, asosiy kuzatuvlar foizi (48,2 %) o'zgarish chegarasi orasida taqsimlandi va faqat 5,8 %, 40 – 46 kg atrofida bo'ldi $\chi \pm \sigma = 28,0 \pm 0,4$. Shuningdek, nazorat va tajriba guruhlari sinaluvcilarining o'rganilgan ko'rsatkichlar bo'yicha natijalarining o'rtacha arifmetik qiymatini pedagogik tajriba davomida o'zgarishi statistik ishonchligini Styudent taqsimoti kritik qiymatlari asosida baholash natijalarining tahlili nazorat guruhidagi mos ko'rsatkichlarga nisbatan tajriba guruhida ancha yuqori va statistik ishonchli o'zgarishlar kuzatilganligini ko'rsatdi va bu tajriba guruhida qo'llangan metodikani samaradorligini tasdiqlaydi.

Talaba kurashchilar mashg'ulotlari jarayonida mushak tizimi holatini pedagogik kuzatish shuni ko'rsatdiki, son va boldirni yozuvchi mushaklar qo'proq katta mushak yuklamalariga bardosh beradi, bilakni yozuvchi, yelka, boldir va sonni bukuvchi mushaklar esa kamroq yuklama ta'siriga uchraydi. Shu sababli o'quv – mashg'ulotlarni o'tkazishda kurashchilarning yetakchi mushaklari (sonni, boldir va yelkani bukuvchi mushaklar) va faol holatdan tashqarida turgan mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan yuklamalarni berish ahamiyatli hisoblanadi.

Tadqiqotimizdan ma'lum bo'ldiki, mushak kuchi va taranglashishi hamda bo'shshish holatidagi ko'rsatkichlarning oshish kurashdagi – texnik natijalarining o'sishiga olib keladi, ayni paytda mushak kuchining mutlak kattaligi sport – texnik natijalarining o'sishi bilan uyg'un ekanligini aniqlash imkoni bo'lmadi. Kurash sportida faol hisoblangan mushak guruhlarini kuchlanishiga qaratilgan mashqlar shaklidagi qo'shimcha vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Talaba kurashchilar organizmining funksional holati va mashg'ulotdan so'ng tiklanishi imkoniyatidan kelib chiqib sport mashg'ulotlarining an'anaviy va maxsus usullarni

qo‘llash hisobiga mushaklarida kuchi va chidamliligining ortadi ish qobiliyati tezkor rivojlantirish uslubiyati takomillashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek talaba kurashchilarning harakat faolligini oshirish uchun mashg‘ulotdan oldin va keyin mushak kuchi tonusini (bo‘shashish va taranglashish) rivojlanganlik darajasini hisobiga ularning jismoniy va funksional ko‘rsatkichlarini inobatga olib, shiddatli mashg‘ulotlar (uch va besh oylik) uchun seriyali mashg‘ulot vositalarini joriy qilish natijasida yuklamadan keyin qayta tiklanish vaqti qisqartirilib, talaba kurashchilarning jismoniy ishchanligi dinamikasidan kelib chiqib kuchning tiklanishi kurashchilarning organizmini keyingi mashg‘ulotdagi shiddat va xajmlarga bardoshlik xisobiga jismoniy xolatni oshirish imkoniyati kengaytirilganligini tajribamiz davomida ilmiy jihatdan aniqladik.

Talaba kurashchilarda mushak kuchining yoshga xos farqlari TG va NG guruhidagi kurashchilarda yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Mashg‘ulotdagi yuklamalar darajasining o‘shib borishi bilan yoshga xos farqlar yo‘qolib boradi.

TGdagi talaba kurashchilarda mushaklarning kuchlanish holatidagi mushak biridan katta farq qilmaydi. Shuningdek barcha mushaklar guruhida kuchning tegishli ko‘rsatkichlari bibiriga nisbatan 10 – 12 marta yuqoriroq. Bu TGdagi talabalarda mushaklardagi kuchlanish qobiliyatining pasayishini ko‘rsatadi, buni jinsiy yetilish davriga bog‘liq holda organizmda kechayotgan o‘zgarishlar bilan tushuntirish mumkin.

K.B.Muxammadiyevning takidlashicha “Respublikamiz iqlim sharoitlarida yashovchi barcha kurashchilarda tananing ochiq joylaridagi teri harorati mo‘tadil iqlimda yashaydigan sportchilarning tegishli ko‘rsatkichlaridan yuqoriroq. Muntazam olib borilmaydigan mashg‘ulotlar mushaklar kuchi va ishchanlik kobilyatiga ma‘lum darajada ta’sir ko‘rsatadi va buni quyidagicha ko‘rishimiz mumkin: mushak kuchi pasayadi, pasayishning eng yuqori darajasi oyoqlarning son va boldir mushaklari guruhida qayd qilinadi, bu kurash mashg‘ulotlari jarayonida mushaklar guruhiga tushadigan maksimal yuklama bilan bog‘liq”.

Mushak kuchining pasayishi TG talaba kurashchilarida ahamiyatli bo‘lib bu guruhlarida mushak tonusi ko‘rsatkichi bo‘yicha baholanadigan erkin taranglashish va bo‘shashish qobiliyati pasayadi. Muntazam bir oy davomidagi etadigan mashg‘ulotlar ham bukuvchi, ham yozuvchi mushaklar kuchining o‘shishini keltirib chiqaradi va bu o‘shish ko‘proq oyoqlar mushaklariga to‘g‘ri keladi. Bunday o‘zgarishlar NG talaba kurashchilarida yaqqol namoyon bo‘ldi. TG kurashchi talabalarida mushak kuchining yanada o‘shib borishi qayd qilindi, biroq NG talaba kurashchilarida nisbatan kam ahamiyatli bo‘ldi. TGda olib borilgan muntazam, uzoq muddatli (3-5 oy davomidagi) kurash mashg‘ulotlari qo‘llar va oyoqlarni bukuvchi hamda yozuvchi mushaklar kuchining yanada jadal o‘shishiga olib keldi. Biroq bunday o‘shish NGda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Xulosa va takliflar. Kurash bilan shug‘ullanuvchi talabalar organizmini tiklashi, mushaklar kuchini rivojlantirish mo‘ljallangan mashg‘ulotlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqot va pedagogik tajriba natijalari hamda ularning qiyosiy tahlili asosida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin:

Talaba kurashchilarning mushak kuchi va tiklanish darajasini oshirishda mashg‘ulot usullari kurashchilarning texnikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi va tez tiklanishni rivojlantirish bo‘yicha qo‘llanilgan usullar majmuasi mazmunida aks ettirilganligi natijada talaba kurashchilarning texik-taktik tayyorgarligi 15 % ga ortgan.

talaba kurashchilarda mashg‘ulot oldi va keyingi holatlarda tiklanuvchanlik sifatini rivojlantirishga mo‘ljallangan siklli mashg‘ulotlarni olib borilishi atijasida musobaqa faoliyati ko‘rsatkichlari 20 % o‘sganligi aniqlandi.

Toshkent davlat transport universiteti talaba kurashchilarning mashg‘ulotlariga so‘ng mushaklarning tiklanish ko‘rsatkichlari 11,3 % ga oshgan.

talaba kurashchilarning organizmi tiklanish darajasi mushak kuchining oshishi, taranglashuvi va bo‘shashishini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan uslub kurash mashg‘ulotlari o‘quv dasturlariga kiritilsa talaba kurashchilarning egiluvchanlik qobiliyatini rivojlanish darajasi 15 % ga yaxshilanishi prognoz qilindi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 4-ноябрдаги “Кураш миллий спорт турини ривожлантириш ва унинг халқаро нуфузини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4881-сон Қарори.
2. Abdiyev A.N. – Borba monografiya. Tashkent, 2004-yil.
3. Abdullayev Sh.A. – Malakali sportilarni tayyorlashning ilmiy – uslubiy asoslari. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent-2015-yil.
4. Mirzakulov I.M. Jismoniy tarbiya va sport (belbog‘li kurash). Mirzakulov I.M. O‘quv qo‘llanma. T.: 2022y. – 197 b.
5. Мухаммадиев К.Б. Спортизированное физическое воспитание студентов на основе сочетания средств борьбы и игрового метода // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. УДК/UDC 796.011.2:5:012.33. – Москва, № 9, 2021. С. 23-24.
6. Muxammadiyev K.B. Sport mashg‘ulotlari jarayonida talabalarning jismoniy sifatleri, funksional tayyorgarligi, organizm fizologik holatining o‘shish va tiklanish dinamikasi // Xalq ta’limi – Toshkent, 2020. 6-son, – 78-84 b.
7. Muxammadiyev K.B. Issiq iqlim sharoitida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining organizmga ta’siri. “O‘zMU xabarlari” (M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy jurnali) 1/1-son. 2020. – 109-114b.
8. Muxammadiyev K.B. Jismoniy tarbiya ta’limi jarayoni samaradorligini oshirishning dolzarb pedagogik muammolari //“Fan-sportga”. – Toshkent, 2021. 4-son. –53-56 b.
9. Nurshin J.M. – Milliy kurash usullari. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent 1987-yil.
10. Nurshin J.M., Taymurodov A. – O‘zbekiston milliy kurash usullari. Toshkent 1987-yil.
11. Туманян Г.С. – Спортивная борьба, теория, методика, организация тренировки. Учеб.пособ. В 4-х кн. Кинезиология и психология. М.: Советский спорт. 1998 г. С.280.



Nargiza MULLABOYEVA,
NamMTI dotsenti
E-mail: mullaboyevanargiza79@gmail.com

NamDU dotsenti S.Yu.Akbarov taqrizi asosida

VIEW OF FOREIGN PSYCHOLOGISTS ON THE DEFECTS OBSERVED IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

The purpose of physical education of children with mental retardation is to strengthen their health, develop proper physical development and movement skills. Systematic educational process creates favorable conditions for children's harmonious development. Mentally retarded children have somatic weakness compared to their peers, lagging behind in physical development, posture and movement defects. Special tasks aimed at eliminating movement defects and lagging behind physical development of mentally retarded children determine the specific characteristics of physical education of these children. This article presents the opinions of foreign psychologists about the changes in the psyche of children who are behind in their development, their intelligence, psychological processes and imagination.

Key words: Anomalous, oligophrenopsychology, typhlopsychology, deaf psychology, sensor, inclusive education, psychocorrection, psychorehabilitation.

ВЗГЛЯДЫ ЗАРУБЕЖНЫХ ПСИХОЛОГОВ НА ДЕФЕКТЫ, НАБЛЮДАЕМЫЕ В РАЗВИТИИ ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

Целью физического воспитания детей с умственной отсталостью является укрепление их здоровья, формирование правильного физического развития и двигательных навыков. Систематический образовательный процесс создает благоприятные условия для гармоничного развития детей. Умственно отсталые дети имеют соматическую слабость по сравнению со сверстниками, отставание в физическом развитии, дефекты осанки и движений. Специальные задания, направленные на устранение двигательных дефектов и отставание в физическом развитии умственно отсталых детей, определяют специфику физического воспитания этих детей. В данной статье представлены мнения зарубежных психологов об изменениях психики детей, отстающих в своем развитии, их интеллекте, психических процессах и воображении.

Ключевые слова: Аномалия, олигофренопсихология, тифлопсихология, глухая психология, сенсор, инклюзивное образование, психокоррекция, психореабилитация.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA KUZATILADIGAN NUQSONLAR HAQIDA XORIJ PSIXOLOGLARINING QARASHLARI

Annotatsiya

Aqli zaif bolalar jismoniy tarbiyasining maqsadi ularning sog'lig'ini mustahkamlash, to'g'ri jismoniy rivojlantirish va harakat ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Tizimli ravishda amalga oshiriluvchi tarbiya jarayoni bolalarning garmonik rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Aqli zaif bolalarda tengdoshlariga nisbatan somatik zaiflik, jismoniy rivojlanishdan orqada qolish, gavda tutish hamda harakatlanish nuqsonlari kuzatiladi. Aqli zaif bolalar harakat nuqsonlarini va jismoniy rivojlanishdan orqada qolishini bartaraf etish maqsadidagi maxsus vazifalar bu bolalar jismoniy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Mazkur maqolada xorij psixologlari tomonidan rivojlanishida ortda qolgan bolalar psixikasidagi o'zgarishlar, ularning intellekti, psixologik jarayonlari va tasavvurlari haqidagi fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Anomal, oligofrenopsixologiya, tiflopsixologiya, surdopsixologiya, sensor, inklyuziv ta'lim, psixokorreksiya, psixoreabilitatsiya.

Kirish. Mamlakatimizda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari qatori milliy ruhda tarbiyalanishlari, aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy jihatdan kamol topishlari, jamiyatdagi ijtimoiy hayotga mustaqil, yetuk fuqarolik darajasida tayyor bo'lib yetishishlari masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, maktab-internatlar) (keyingi o'rinlarda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari)ni tashkil etish va u yerga bolalarni joylashtirish, shuningdek inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi uning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda qabul qilingan "Alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-

huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-sonli qarori asosida amalga oshiriladi.

XX asrning oxirgi o'n yilligida ko'pchilik mamlakatlarda integratsiyaning rivojlanishi hamda imkoniyati cheklangan, alohida e'tiborga muhtoj, nogiron bolalarga nisbatan davlat va jamiyatda yangi munosabatlarning qaror topishi va rivojlanishi bilan bog'liq muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hozirgi paytda respublikamizda maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolaga va uning ota-onasiga kompleks yordam ko'rsatiladigan muassasalar tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Bunday muassasalar sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ta'lim tizimlarida, nodavlat tashkilotlar ko'rinishida amal qilmoqda. Bular mehribonlik uylari, nogiron bolalarni reabilitatsiya qilish markazlari, maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari,

maxsus (korreksion) maktablar, maktab-internatlar va ular qoshidagi maxsus oromgohlar va boshqalarni qamrab oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasasida maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar tarbiyasi dasturining bo'limlaridan biri jismoniy tarbiyadir. Aqli zaif bolalar jismoniy tarbiyasining maqsadi ularning sog'lig'ini mustahamlash, to'g'ri jismoniy rivojlan-tirish va harakat ko'nikmalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Tizimli ravishda amalga oshiriluvchi tarbiya jarayoni bolalar-ning garmonik rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Aqli zaif bolalarda tengdoshlariga nisbatan somatik zaiflik, jismoniy rivojlanishdan orqada qolish, gavda tutish hamda harakatlanish nuqsonlari kuzatiladi. Aqli zaif bolalar harakat nuqsonlarini va jismoniy rivojlanishdan orqada qolishini bartaraf etish maqsadidagi maxsus vazifalar bu bolalar jismoniy tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Aqli zaif bolalarni to'g'ri harakatlanishga o'rgatish ta'limining asosiy vositasi – jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridir. Asosiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, koptok otish, osilish) yordamida bolalarda hayotiy muhim harakatlar rivojlanadi. Harakat malakalarini egallash bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi, nuqsonlar korreksiyasi, ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aqli zaif bolalarni o'rganishning mumkinligi va zarurligi, ularni o'qitish, tarbiyalash kerakligi, tibbiyot, psixiatriya va psixologiyaning rivoji bilan ham uzviy bog'liq. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida aqli zaif bolalarni davolash, tarbiyalash, o'qitishga oid ma'lum ijobiy qarashlar yuzaga keldi va shakllana boshladi. Shuni eslatib o'tish joizki, aqli zaiflar ta'lim-tarbiyasi masalalari dastlab, aqliy nuqsoni og'ir darajadagi bolalar ustida boshlangan. Nisbatan yengil darajadagi aqli zaif bolalarni o'rganish, davolash, tarbiyalash, birmuncha keyinroq ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin yuzaga keldi. 1858-yilda xorij pedagogik adabiyotlarida N.A.Dobrolyubov tomonidan aqli zaif bolaning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Uning ko'rsatishicha, "faollikning pastligi", "sekin idrok qilish", "quruq yodlashning ustunligi", "bir xildagi harakatlar", "yangi sharoitlarga yomon moslashish", "bilimlarini to'g'ri ishlata olmaslik" bu aqli zaif bolalarga xos xususiyatlardir [1].

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida aqli zaif bolalarni o'rganuvchi, davolovchi, tarbiyalovchi, bilim beruvchi qator davolash, tarbiyalash muassasalari ochila boshlandi. 1910-yilda aka-singil Postovskiylar boshlang'ich bilim yurti qoshida aqli zaif bolalar uchun yordamchi sinflar ochdilar. Hamda bolalarni o'rganish uchun eksperimental psixologik kabinet tashkil qildilar. 1911-yilda shifokor-psixiatr, professor G.I.Rossolimo tomonidan bolalar psixolo-giyasi va nevropatologiyasi institutiga asos solindi. Bu yerda aqli zaif bolalar ruhiyatining o'ziga xos tomonlari o'rganila boshlandi. 1920-yillardan boshlab maxsus psixologiya, xususan aqli zaif bolalar psixologiyasi mustaqil fan sifatida maorif tizimiga kiritildi. Shu davrdan boshlab bu muammo davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishlar tizimiga kiritilib, alohida e'tibor berila boshlandi. 1925-yilda Moskvada eksperiment-al defektologiya instituti tashkil etildi. L.S.Vigotskiy (1896-1934) rahbarligida muntazam, izchil aqli zaif bolalarni o'rganish boshlab yuborildi. Yetuk psixolog L.S. Vigotskiy maxsus psixologiya sohasida juda katta nazariy meros qoldirdi. Hamda xaqli ravishda oligofrenopsixologiyaning asoschisi hisoblanadi. 1935-yildan aqli zaif bolalar ruhiyatini o'rganuvchi laboratoriyani L.V.Zankov boshqara boshladi. 1943-yilda mavjud bo'lgan eksperimental defektologiya instituti Defektologiya ilmiy tekshirish institutiga aylantirildi. Institutga T.A.Vlasova 1985- yilga qadar rahbarlik qildi.

L.S.Vigotskiyning ko'rsatishicha, oliy psixik funktsiya-lar tarixiy rivojlanishahsuli bo'lib murakkab tuzilishga ega. Ushbu xususiyat ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, u insondagi

faqat oliy psixik funktsiyalarni emas, balki elementar psixik jarayonlarni, ya'ni fonematik eshituv, ovozlarni eshituvi va hokazolarni o'z ichiga oladi. Psixik faoliyatning murakkab shakllarini yuzaga kelishga olib keladigan ijtimoiy tajribani tayyor mazmuni o'zlashtirib olish jarayoni sifatida qarash mumkin emas. Bola tomonidan ijtimoiy tajribani o'zlashtirish bilim, ko'nikma, madaniy malakalarni egallab olishdangina iborat bo'lmay, shuningdek o'ziga bolaning shaxsi, ehtiyojlari, motivlarini shakllantirishni kiritadigan chuqur, murakkab jarayondir. Ijtimoiy tajribani egallash bolaning faol faoliyatida, ya'ni - predmetli, o'quv, muloqot va o'yin jarayonlarida amalga oshiriladi. Ilk rivojlanish davrlaridayoq bolalarni kattalar bilan o'zaro muloqotga kirishishida oliy psixik funktsiyalarining shakllanishi muhim o'rin egallaydi. Psixik funktsiyalarning rivojlanishi bir nechta bosqichlardan o'tadi va shundan keyin ular murakkab psixik jarayonga aylanadi. Psixik faoliyatning barcha murakkab shakllari (ixtiyoriy diqqat, mantiqiy xotira, mavhum tafakkur va h.q.) bilvosita tuzilishga ega bo'lib, unda nutq bosh rolda keladi. Predmet va hodisalar mavjud emas vaqtga ham ularni o'rnini so'z egallaydi va har qanday psixologik jarayonni kechishini ifodalab, uning tuzilishini bir qismi bo'lib qoladi. Nutq oliy psixik funktsiyalarning tuzilishi va amalga oshirishini yangi, yana ham yuqori darajaga ko'taradi[2].

S.L.Rubinshteynning yozishicha, "a'zo tuzilishi bilan, uning funktsiyasi orasidagi bog'liqlik bir tomonlama emas, funktsiya a'zo tuzilishiga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki a'zo tuzilishi ham uning funksiyasiga bog'liq"dir[3].

Oliy psixik funktsiyalarni shakllanishning muhim tomoni - simvolik (ramziy) ramziy faoliyatning tashkil topishi, so'z belgilarni egallashdir. Dastavval belgi tashqi, yordamchi omil sifatida qatnashadi. L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, har bir psixik funktsiya o'z rivojlanishida ikki bosqichni bosib o'tadi: birinchi "intersixologik" bosqich, bunda funktsiya insonlar ortasida munosabat o'rnatuvchi, ikkinchi bosqichda - ichki, intrapsixologik, jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Oliy psixik funktsiyalar yillar davomida shakllanadi. U nutqiy muloqot bilan tug'ilib, faoliyatning to'liq ramzi (simvolik faoliyat) bilan tugallanadi. Bolaning psixik rivojlanishi va shaxsini shakllanishi ta'lim va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Shunday qilib, oliy psixik funktsiyalar psixologiyada murakkab jarayon sifatida ko'riladi. Oliy psixik funktsiyalarni shakllanishida nutq hal qiluvchi rolni oynaydi. Psixofiziologik mexanizmlarni tushuntirish uchun P.K.Anoxinning funksional tizimlar haqidagi konsepsiyasi qo'llaniladi. A.R. Luriyaning ko'rsatishicha, funksional tizim bolani tug'ilish davrida tayyor holda bo'lmasdan, balki uning psixik funktsiyalari predmetlar hamda materiallar bilan o'zaro munosabatga kirishganida shakllanib boradi.

Funksional tizim - bu bir vazifani bajarish uchun bir qancha anatomik hamda fiziologik tuzilmalarni birlashtiradigan dinamik tuzilma bo'lib, turli nervsistemalarida joylashgan. Psixologlar (A.R.Luriya, A.N.Leontyev) doimiy ravishda oliy psixik funktsiyalarning fiziologik negizi markaziy nerv sistemasi yoki uning alohida qismlari bo'lib qolmasdan, balki miya qobig'idagi funksional sistemaning birgalikda ishlashi deb ta'kidlaganlar. Bola hayot faoliyati jarayonida ushbu funksional sistemaning shakllanishi, sekin-astalik bilan murakkab xarakterga ega bolib, funksional bog'liqlik mustahkamlanadi. Ushbu ilmiy nizom inson psixikasini rivojlanishi haqidagi tasavvurlarni o'zgartirdi. Fiziolog va psixologlarning tadqiqotlaridan ko'rishimiz mumkinki, alohida funktsiyalar sistemasining yetilganligi ma'lum bir rivojlanish davrida bir xil emas: ba'zi sistemalar shakllanib bo'lgan, ba'zilari esa endi shakllanadi. Har bir funksional sistema, hatto alohida zonalar o'zining rivojlanish dasturiga ega, lekin ular bir butunlikda ish olib borishadi. Har bir yosh davrda ma'lum bir funksional sistema yetuklik darajasida

bo'lishi kerak, aks holda ushbu sistemalar faoliyati o'zaro aloqadorlikda amalga oshirila olmaydi (L.O.Badalyan). Shunday qilib, psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlari bosh miyaning alohida qism yoki zonalarida yetuklik natijasi hisoblanmaydi. Ular ontogeneza to'planadi hamda bolaning ijtimoiy rivojlanish vaziyatiga bog'liq bo'ladi. L.S.Vigotskiy o'zidan oldingilarni (G.Y.Troshin, A.S.Gribovedov, E.Segen, M.Montessori va boshqalar) ishlarini umumlashtirdi hamda anomal rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Ushbu konsepsiyaning asosiga psixologik rivojlanishning madaniy-tarixiy nazariyasi kiradi, buni L.S.Vigotskiy rivojlanishning normal xususiyatlarini o'rganib ishlab chiqqan. L.S.Vigotskiyning anomal rivojlanish konsepsiyasining asosiy belgilari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ular XX asming 50-90-yillardagi T.A. Vlasova, J.L.Shif, V.L.Lubovskiy, V.V.Lebedinskiy, YE.M.Mastyukova va boshqa olimlarning ishlarida o'z rivojini topgan.

G.Y.Troshin meyorida va amal rivojlanishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fikrni ilgari surgan, buni esa ko'pgina tadqiqotchilarning (T.A. Vlasova, J.L.Shif, V.I.Lubovskiy) keyingi ishlarida ham ko'rishimiz mumkin. L.S.Vigotskiy meyorida va anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini izohlab, ular uchun psixik rivojlanishning ijtimoiy xarakterdaligi umumiydir: pedagogik ta'sir meyorida ham shuningdek rivojlanishning buzilishida ham oliy psixik funksiyalarning shakllanish manbai hisoblanadi, deb ta'kidlagan. Ammo, meyorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatilmaydigan, lekin rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda uchraydigan bir qator qonuniyatlar ham ajratiladi. T. A.Vlasova, V.I.Lubovskiy ishlarida anomal rivojlanuvchilarning umumiy qonuniyatlari bir tizimga keltirilgan. L.S.Vigotskiy nuqsonlarni tuzilishini sistemaliligi haqidagi fikrlari unga anomal rivojlanishini ko'ra ikki guruhga ajratish imkonini bergan. Bu kasallikning biologic xarakteriga ko'ra kelib chiqadigan birlamchi nuqson, bolaning ijtimoiy rivojlanishida, uning atrof - olam o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan ikkilamchi nuqsondir.

J.I.Shifing ko'rsatishicha, anomal rivojlanishning yana bir qonuniyati bola shaxsining rivojlanishidagi o'zgarishlardir. Kayfiyatning yo'qligi, ijtimoiy muloqotga vahima, qo'rquv bilan kirishuv, o'z-o'ziga past baho berishi, xavotirda bo'lish kabilar ushbu shaxsning asosiy sifatleri


hisoblanadi. Bunday buzilishlar oiladagi noto'g'ri tarbiya hamda ta'limning noto'g'ri tashkil etilishi oqibatida kelib chiqadi. Aloqa qobiliyatidagi o'zgarishlar bolalar so'zlashuv nutqini buzadi natijada noverbal aloqa vosilalarining roli ko'payib boradi. Ma'lumotlarni qabul etish va ulami qayta ishlash qobiliyatidagi kamchiliklar V.I.Lubovskiy ta'kidlashicha, qabul etilayotgan ma'lumotlar hajm va tezligini susaytiradi, ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanishga imkon bermaydi. Anomal rivojlanishning yana bir qonuniyatlaridan biri-nutqiy faoliyatning buzilishidir, bu so'zlashuvni bavoysita ifodalay olmasligida namoyon bo'ladi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumotlarni qabul qilish va qayta ishlay olmaslik, muloqotdagi qiyinchiliklar, materiallarni eslab qola olmaslik rivojlanishning fikrlash, umumlashtirish va farqlash kabilarini shakllanishida to'sqinlik qiladi. Ushbu tasavvur va nutqdagi kamchiliklarning barchasi atrof - muhitni idrok etish, tasavvuridagi bilimlarini saqlash kabilarining shakllanishi ushbu muammoli bolalarda doimo yetarlicha emasdir. Biroq rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning muhitga moslashtirish va o'qitish qiyinchiliklaridan iborat o'ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda, ijobiy qonuniyatlar ham mavjud. Ulardan biri L.S.Vigotskiy tomonidan rivojlanishning yaqin zonasi ko'rinishida nuqsonli bolalarda psixikasini shakllantirishning potensial imkoniyatlar sifatida mavjudligi qayd etilgan.

Yana bir qonuniyat V.I.Lubovskiy tomonidan bolalar harakatlarini so'z orqali boshqarishni o'rganish davomida ifoda qilingan. U nutq ishtirokisiz yoki qisman so'z bilan ifodalovchi yangi shartli bog'liqlarni ishlab chiqish imkoniyatini ko'rsatgan. Shunday qilib, nuqsonli rivojlanish psixikaning shakllanishida orqada qolishni ham va buzilishni kompensatsiya qilish qonuniyatlarga ega.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlarida maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rta "A" va "B" guruhlarida tarbiyalanayotgan bolalarni aqliy qobiliyatlarini o'rganish maqsadida ikki bosqichli eksperiment o'tkazildi. Bu guruhlarning "A" guruhini nazorat guruhi, "B" guruhini tajriba guruhi deb oldik. Birinchi bosqichda bolalarga "Rasmda yetishmayotgan narsani top" proyektiv metodikasini o'tkazish orqali bolalarning narsalar haqidagi tasavvurlari o'rganildi. Har bir guruh ishtirokchisini topgan vaqtini inobatga olib "5" baholik tizimda baholab bordik. Olingan natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

**Tajribadan oldingi natija:
O'rta "A"-sinf nazorat guruhi
O'rta "B"-sinf tajriba guruhi**



tajriba guruhi	nazorat guruhi
5 baho – 8 ta - 25 %	5 baho – 7 ta - 23 %
4 baho – 15 ta - 47 %	4 baho – 14 ta - 47 %
3 baho – 7 ta - 22 %	3 baho – 7 ta - 23 %
2 baho – 2 ta - 6 %	2 baho – 2 ta - 7 %
32g`100 % 32-x Xg` (23*100)G`32 Xg`71,8	30g`100 % 30-x Xg` (21*100)G`30 Xg`70,0

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, rivojlanishidan ortda qolgan bolalardagi turli kamchiliklarini bartaraf etishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslublarini ishlab chiqish va uni ta'limga joriy etish lozim. Rivojlanishidan ortda qolgan bolalarni o'qitishda ta'limning differentsial va integratsiyalashgan turini joriy etilishi tarbiyalanuvchilar uchun ham anchagina samarali jarayondir. Sababi tarbiyachi qisqa davr ichida hech bir qiyinchiliksiz tarbiyalanuvchilarga ko'proq ma'lumot bersa, tarbiyalanuvchilar esa kengroq bilm

oladilar, ularning fikirlash qobiliyatlari yanada o'sadi. Bolalar fanlar va mavzular, darslikdagi bo'limlar orasidagi bir biri bilan bog'lanish hamda to'ldirilishlarni yaxshi, tez anglab oladilar. RRS bolalarni o'z vaqtida aniqlash, ularning kamchiliklarini to'g'ri va aniq tashxislashtirish, maxsus o'qitish, bolalarni o'qitish va tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishishga imkon beradi hamda bolalarning kelajakda rivojlanishi va maktab ta'limida muvaffaqiyatli o'qishi uchun yetarli shart sharoit yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Nurkeldiyeva D.A., Hamidova M.U. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi. O'quv qo'llanma. TDPU., Toshkent, 2016y. 276b
2. Психолого-медико-педагогическое обследование детей дошкольного и младшего школьного возраста Авторы-составители: Айтжанова Р.К., Сулайменова Р. А., Ерсарина А.К.и др. Алматы, 2000г.
3. Отбор детей в специальные дошкольные учреждения. - М , 1972. Составители: Власова Т.А., Лебединская К.С., Мачихина В.Ф
4. Nurkeldiyeva D.A., Hamidova M.U. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi. O'quv qo'llanma. TDPU., Toshkent, 2016y. 276b



Ноила МУСТАФОЕВА,
Старший преподаватель
Ташкентский государственный юридический университет
mustafoevanoila@gmail.com

Доцент ТГЮУ Шамситдинова М. на основе обзора

ВИДЫ ОФИЦИАЛЬНЫХ ДОКУМЕНТОВ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ (КЛАССИФИКАЦИЯ ЮРИДИЧЕСКИХ ДОКУМЕНТОВ)

Аннотация

В данной статье говорится о видах официальных документов и их использовании при обучении иностранным языкам (классификация юридических документов). В последнее время все большее внимание привлекает вопрос качества юридических документов. Поэтому важно изучать юридический документ как самостоятельную категорию на макроуровне.

Ключевые слова: Иностранные языки, методика обучения, юридические науки, классификация документов, педагогика, официальные документы.

TYPES OF OFFICIAL DOCUMENTS AND THEIR USE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES (CLASSIFICATION OF DOCUMENTS IN THE LEGAL FIELD)

Annotation

This article talks about the types of official documents and their use in teaching foreign languages (classification of legal documents). Recently, the issue of the quality of legal documents is attracting more and more attention. Therefore, it is important to study the legal document as an independent category at the macro level.

Key words: Foreign languages, teaching methodology, legal sciences, classification of documents, pedagogy, official documents.

RASMIY HUJJATLAR TURLARI VA ULARDAN XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA FOYDALANISH (YURIDIK SOHAGA OID HUJJATLAR KLASIFIKATSIYASI)

Annotatsiya

Ushbu maqolada rasmiy hujjatlar turlari va ulardan xorijiy tillarni o'qitishda foydalanish (yuridik sohaga oid hujjatlar klassifikatsiyasi) haqida so'z yuritilgan. So'nggi paytlarda huquqiy hujjatlarning sifati masalasi tobora ko'proq e'tiborni tortmoqda. Shuning uchun huquqiy hujjatni mustaqil kategoriya sifatida makro darajada tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Xorijiy tillar, o'qitish metodikasi, yurudik fanlar, hujjatlar klassifikatsiyasi, pedagogika, rasmiy hujjatlar.

Введение. Процесс реформирования государственных и общественных институтов, который мы наблюдаем на протяжении последних лет, направлен на формирование правового государства и гражданского общества. Правовое регулирование общественных отношений, осуществляется при помощи определенной системы средств. Одним из важнейших из них являются юридические документы, которые выступают правовой формой передачи юридически значимой информации. В связи с появлением новых самостоятельных участников правовых отношений - органов местного самоуправления, индивидуальных предпринимателей, отделением от государственного механизма многих организаций, документооборот значительно увеличился. Юридические документы пронизывают весь процесс правового регулирования. В первую очередь это связано с тем, что сами правила поведения всех участников правовых отношений закрепляются в юридических документах.

Необходимость изучения юридических документов состоит в том, что именно в них отражаются все элементы содержания (права и обязанности, ответственность, действия участников правовых отношений; результаты этих действий; приемы, средства и способы их достижения; допущенные ошибки и нарушения) и процедурно-процессуальные формы (собственно этапы работы с юридическими документами, юридические

процессы, процедуры по принятию решений, правовые режимы) юридической практики.

В последнее время все чаще ставится вопрос о качестве юридических документов. Грамотное их составление формирует положительное впечатление об участнике правовых отношений. Более того, повышается уровень правовой культуры. В свою очередь, закрапываясь в юридический документ ошибка, может вызвать лишь негативные последствия. Так, наличие дефекта в завещании может задержать наследование имущества на долгие годы, а составленное с нарушениями обвинительное заключение - исказить человеческие судьбы. Поэтому важно исследовать юридический документ на макроуровне как самостоятельную категорию. Кроме того, в ходе исследования нельзя пренебрегать правилами юридической техники, потому что именно их соблюдение во многом поможет создать грамотный юридический документ.

Таким образом, исследование юридических документов представляется весьма актуальным. Оно имеет значение для разработки иных общетеоретических положений (учения о соотношении юридических документов, учения о юридической практике, учения об источниках права, учения о юридическом процессе). Кроме того, изучение специфики подготовки, требований предъявляемых к юридическим документам, дефектов, которые могут допускать лица их разрабатывающие,

может вооружить практических работников знаниями, необходимыми для разработки качественного юридического документа. Данное исследование также может служить развитию отраслевых наук.

Анализ научных трудов отечественных и зарубежных авторов показывает, что исследования юридических документов, как правило, затрагивают лишь отдельные их разновидности. Весьма разработанными являются вопросы, связанные с подготовкой нормативных и индивидуальных правовых актов, актов толкования норм права, индивидуальных правовых договоров и других юридических документов. В рамках таких исследований особое внимание уделяется понятию, классификации, значению и процедурным вопросам работы с этими разновидностями юридических документов.

Анализ литературы. Изучению же собственно юридического документа как самостоятельной категории уделяется недостаточное внимания. Тем не менее, нельзя сказать, что данный феномен является неисследованным. Проблемам юридического документа посвящены работы А.Ф.Черданцева, Е.С.Шугриной. Нельзя не учитывать и отраслевые исследования.

Так, разработкой проблем индивидуальных правовых договоров занимались Н.Г.Александров, М.И.Брагинский, О.В.Плюснина, Ю.А.Тихомиров. Изучению индивидуальных правовых актов посвящены работы Ю.Н.Старилова, актов толкования норм права - работы В.В.Тарасовой, А.Н.Шаронова. Исследованию источников права, в том числе и документально оформленных, уделяется внимание в трудах В.М.Баранова, А.Л.Белкина, Г.И.Муромцева, С.В.Полениной, Ю.А.Тихомирова, В.А.Толстика, А.Ф.Шебанова и др.

Вместе с тем, диссертационных исследований по проблемам юридических документов не проводилось. Хотелось бы также отметить, что в ходе изучения вопросов, связанных с определением понятия юридического документа, его функций, выработки классификации, необходимо прибегать и к работам в сфере делопроизводства и документоведения. Отдельные важные наработки по вышеуказанным проблемам зафиксированы в трудах Т.Н.Бондыревой, Н.Б.Зиновьевой, М.В.Кирсановой, М.И.Шейнина.

Методология исследования. В решении поставленных задач автор опирался на диалектический метод научного познания, с позиций которого явления и объекты рассматривались комплексно, в движении, взаимосвязи и взаимодействии с другими явлениями и средой. Применение также нашли общенаучные и частнонаучные методы познания феномена «юридический документ». Тот факт, что юридический документ отграничивался от иных разновидностей документов, позволяет говорить об использовании таких логических приемов как анализ, синтез, обобщение, абстрагирование и др. Сравнительный метод применяется при сопоставлении однопорядковых явлений. Наконец, особое внимание в рамках системной методологии уделено деятельностному, функциональному, структурному, социологическому, лингвистическому, юридическому и иным подходам научного поиска.

Анализ и результаты. Результаты исследования такой категории как юридический документ, позволяют сформулировать ряд выводов. Несмотря на особую роль юридических документов для регулирования общественных отношений, в таком контексте, который выбран нами, изучение юридического документа еще не производилось. Вместе с тем, отдельные важные наработки по данной проблематике существуют.

Юридический документ определяется нами как документ, вовлеченный в правовое регулирование посредством практической деятельности участников правовых отношений, к составлению и содержанию которого предъявляется ряд требований, имеющий особое значение для юридической практики.

Роль юридического документа в механизме правового регулирования значительно возросла, особенно с учетом происходящих изменений в политической, социальной, экономической жизни страны. Его значение для общественных отношений определяется теми функциями, которые выполняет юридический документ в процессе правового регулирования. Это самые разнообразные функции - функция накопления информации, социальная, коммуникативная, историко-культурная, политическая, экономическая, доказательственная, правоохранительная, удостоверительная, правоустановительная и др. Выполняемые юридическим документом функции позволяют говорить о его значении не только для юридического процесса, но и для текущей жизни отдельного человека. Исследовать функции юридического документа более глубоко, нежели они рассмотрены в диссертации, не представляется возможным из-за четко установленных рамок объема работы.

Значение юридического документа для правовых отношений повышается, если он составлен в соответствии со всеми требованиями, которые выработаны практикой. Кроме того, важно учитывать и правила юридической техники при его составлении, ибо они являются залогом качества. Среди требований к юридическому документу можно отметить достоверность, своевременность и оперативность его создания, доступность, полноту, точность, грамотность, авторитетность и аутентичность, обязательность, обоснованность и некоторые другие.

Анализ различных юридических документов - нормативных правовых актов; судебных решений, постановлений, определений; договоров и иных документов показывает, что весьма часто в них встречаются различного характера дефекты, способные негативно повлиять на реализацию данного юридического документа. Такие недостатки появляются в результате ошибочной юридической деятельности, правонарушений, правового произвола. Соответственно встает вопрос, как искоренить данные негативные социальные явления? Чтобы на него ответить, необходимо сначала определить какие процессы лежат в основе появления дефектов в юридических документах? Исследование основных причин наличия дефектов в юридических документах, показывает, что ими выступают: недостаточность юридического образования, правовая неграмотность, некомпетентность; общая неграмотность; незнание правил разработки и правил техники юридического документа; безответственность, халатность; невнимательность; нехватка времени, загруженность работой; неопытность; полное отсутствие юридического образования; заблуждение. Мы не претендуем на абсолютизацию данных проведенного диссертантом анкетирования. Тем не менее, тот факт, что предложенный вопрос являлся открытым, может говорить о негативной ситуации сложившейся при работе с юридическими документами. Основным фактором, вызывающим создание юридического документа с ошибками является юридическая неграмотность.

Направлениями искоренения ошибочной юридической деятельности, правонарушений и правового произвола являются профилактика, предупреждение и пресечение. Предупреждение в рамках профилактики

основано на применении таких способов как обучение юридическому мастерству, введение единых критериев создания юридического документа, оказание юридической помощи, повышение защиты юридических документов (денег и ценных бумаг, паспортов и др.), проставление специальных реквизитов, контроль за лицами, освободившимися из мест лишения свободы и т.д. Предотвращение негативных социальных явлений должно строиться на мерах по экспертизе, нотариальному удостоверению, согласованию и регистрации юридических документов. Наконец, в основе пресечения лежит контроль, осуществляемый за участниками юридического процесса.

В исследовании категории «юридический документ», многие вопросы рассмотрены с общетеоретической точки зрения и требуют дальнейшего их изучения. В перспективе необходимо будет задуматься о структуре юридического документа, глубже исследовать дефекты в разновидностях юридического документа, определить какие из них наиболее часто встречаются и причиняют наибольший ущерб. Широкие возможности представляет изучение способов предупреждения негативной юридической деятельности. Здесь можно рассмотреть особенности экспертизы, согласования, регистрации юридических документов. Следует также остановиться и на контроле, как за исполнением, так и за правильным их составлением. Детальное изучение средств специальной профилактики -обучения юридическому мастерству, введения единых критериев создания юридических документов, оказания юридической помощи, издания специальной литературы, открывает горизонты в искоренении негативных социальных явлений еще до того, как они могут вызвать отрицательные последствия.

Наряду с рассмотренными проблемными вопросами вдут дальнейшей разработки и вопросы, которые не получили в данной работе должного внимания. Так, нуждается в исследовании проблема разрешения коллизий юридических документов. Коллизии представляют собой расхождение в содержании двух или более юридических документов, которые распространяют свое действие на одно и то же общественное отношение, на одних и тех же его участников. Заслуживают своего внимания проблемы столкновения нормативных правовых актов, судебных документов, юридических документов, которые предоставляют право или вводят обязанность в отношении нескольких лиц по одному вопросу, что вызывает конфликты интересов.

Интересен вопрос о роли юридического документа в формировании высокого уровня правовой культуры. Так как многие юридические документы далеки от идеального их состояния, необходимо задуматься, как такие

негативные процессы могут повлиять на сознание участников правовых отношений. Кроме того, важно проанализировать, как искаженные формы правового сознания влияют на подготовку юридических документов.

Не менее важными, чем предыдущие, является проблема влияния достижений современной техники на качество юридического документа. Более тщательного изучения требует и вопрос о роли электронного документа как особой разновидности юридического документа в правовом процессе. Здесь необходимо будет проанализировать и процедуру его разработки и средства защиты. Средства современной техники используются при выявлении правонарушений, в связи с чем, можно затронуть проблемы выявления поддельных юридических документов.

Положения практически каждого юридического документа реализуются в юридическом процессе при активном участии субъектов права. Вместе с тем, существуют различные формы реализации - исполнение, использование, соблюдение и применение. Поэтому интересным может стать рассмотрение вопросов, связанных с реализацией юридического документа в рамках конкретной формы реализации.

Так, далеко не всегда исполнение, соблюдение, использование и применение юридического документа может повлечь наступление положительных последствий. Поэтому следует проанализировать негативные последствия от следования предписаниям, содержащимся в юридических документах. Однако если лицо осознает, что оно исполняет заведомо незаконный приказ или распоряжение, оно должно нести уголовную ответственность на общих основаниях.

Выводы. Особый теоретический интерес может представлять исследование трансформации обычного документа в юридический документ и наоборот. Многие документы первоначально не имеют юридического значения и вовлекаются в правовое регулирование в связи с наступлением ряда факторов. Так, справка из больницы не представляет собой как такового юридического документа, но может, например, подтвердить факт нахождения лица в лечебном учреждении в момент совершения какого-либо преступления и подтвердить его алиби. Существуют и другие формы трансформации документов в юридические документы.

Еще одним направлением в исследовании юридических документов может явиться исследование действия юридических документов во времени, в пространстве и по кругу лиц. Данное направление изучения юридического документа является более масштабным, нежели исследование действия нормативных правовых актов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Нормативные правовые акты и другие официальные источники.
2. Агабекян И.П. Практический английский для студентов-юристов. -Ростов н/Д., 2003.
3. Андреева В.И. Делопроизводство в кадровой службе. — М., 2997.
4. Алексеев С.С. Право: азбука теории — философия: опыт комплексного исследования. — М., 1999.
5. Бабаев В.К., Баранов В.М., Толстик В.А. Теория государства и права в схемах и определениях. — М., 2003.
6. Бахрах Д.Н., Хазанов С.Д. Формы и методы деятельности государственной администрации: Учебное пособие. Екатеринбург, 1999.
7. Башарин С.М., Чемпосов П.М. Основы делопроизводства в органах внутренних дел: Учебное пособие. -Н. Новгород, 1998.
8. Делопроизводство в системе государственного управления: Учебно-практическое пособие. — М., 2001.



Komil MUXAMMADIYEV,

Toshkent davlat transport universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsent p.f.b.f.d. (PhD)

E-mail: komilmuhammadiyev@yandex.ru

O'DJT va SU p.f.n, v. b prof Aripov Yu.Yu taqrizi asosida

СРЕДСТВА, ИСПОЛЪЗУЕМЫЕ ПРИ ВОССТАНОВЛЕНИИ ФИЗИЧЕСКОГО И ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ОРГАНИЗМА СТУДЕНТОВ ПОСЛЕ ЗАНЯТИЙ ФИЗИЧЕСКИМ ВОСПИТАНИЕМ И СПОРТОМ

Аннотация

В данной статье предложены научно обоснованные представления и рекомендации о средствах, применяемых при восстановлении физического и функционального состояния организма студентов после занятий физическим воспитанием и спортом. Также объясняется влияние на организм средств, используемых при восстановлении физического и функционального состояния организма, и применение методов, направленных на потери и снижение утомляемости. В ходе тренинга раскрывается роль приема пищи с целью восстановления сил и энергии, затраченных участниками.

Ключевые слова: Тренировка, физическое воспитание, спорт, здоровый, воля, ответственность, восстановление, инструмент, педагогика, психологическая, медицина, утомление, массаж, баня, сауна, экология, окружающая среда, упражнения.

MEANS USED IN THE RESTORATION OF THE PHYSICAL AND FUNCTIONAL STATE OF STUDENTS ORGANISM AFTER PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS

Annotation

This article proposes scientifically based ideas and recommendations about the means used to restore the physical and functional state of the body of students after physical education and sports. It also explains the effect on the body of the means used to restore the physical and functional state of the body, and the use of methods aimed at losses and reducing fatigue. During the training, the role of food intake in order to restore the strength and energy expended by the participants is revealed.

Key words: Training, physical education, sport, physical, healthy, will, responsibility, recovery, tool, pedagogy, psychological, medicine, fatigue, massage, bath, sauna, hammam, ecology, environment, exercises.

JISMONIY TARBIIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARIDAN SO'NG TALABALAR ORGANIZIMI JISMONIY VA FUNKSIONAL XOLATINING TIKLANISHDA QO'LLANILADIGAN VOSITALARI

Аннотация

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridan so'ng talabalar organizimi jismoniy va funksional xolatining tiklanishda qo'llaniladigan vositalar haqida ilmiy asoslangan fikr va tavsiyalar berilgan. Shuningdek organizim jismoniy va funksional xolatining tiklanishda qo'llaniladigan vositalarining organizimga ta'siri, charchoqni yo'qotish va kamaytirishga qaratilgan usullarning qo'llanishi yoritib berilgan. Mashg'ulotlar jarayonida shug'illanuvchilar sarflayotgan kuch va energiyani qayta tiklashga qaratilgan oziq-ovqat mahsulotlarni istemol qilishning o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Mashg'ulot, jismoniy tarbiya, sport, sog'lom, iroda, mas'uliyat, tiklash, vosita, pedagogika, psixologik, tibbiyot, charchoq, toliqish, massaj, chumilish, sauna, ekologiya, atrof-muhit, shug'illanish.

Kirish. Ma'lumki, Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirish"ga yo'naltirilgan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-sonli "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "Mamlakatimizning barcha hududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlikning asosi ekanini targ'ib-tashviq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o'z qobiliyatlari va iste'dodlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turganligi" ta'kidlangan.

Bu belgilangan vazifalarni ta'lim tizimida amalga oshirish hamda muntazam ravishda isloh qilib borish o'z samarasini beradi. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'biri

bilan aytganda, "Hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yimoqda". Bu o'z navbatida amalga oshirib kelayotgan ishlarimizni yanada takomillashtirish va rivojlantirib borish, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar asosida chora-tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirib borishni zaruriyat bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xozirgi texnik va texnologiyalarning rivojlangan jarayoni Yer sayyorasida ko'plab ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolar o'z-o'zidan insoniyat organizimiga o'zining salbiy ijatlar bilan turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa bu jarayon jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridan so'ng talabalar organizimining jismoniy va funksional xolatining tiklanishida yaqqol namayon bo'ladi [1].

Respublikamizda sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bilan birga jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini ko'lami, jadalligi va sport musobaqalarining soni ham oshib bormoqda. Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda hozirgi kunda talabalarning 73-75 foizi o'zlarining bo'sh vaqtlarida

muntazam sport bilan shug'ullanmoqda. Sport bilan shug'ullanuvchi talabalarining faol dam olishni tashkil etish bilan birga ularning organizmni tiklanishi ta'minlash uchun zarur choralarini ko'rishi lozimdir [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirga zamonaviy jismoniy tarbiya va sport jarayonida kechadigan shug'ullanuvchilarning haddan tashqari jismoniy, funksional va ruhiy yuklamalardagi zuriqishini bartaraf etish uchun organizmni qayta tiklash uchun burlit vositalardan oqilona foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Qayta tiklash vositalari ikki shaklda o'tkazildi:

1. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonidagi shug'ullanuvchi talabalarining organizmini tiklash tizimini tahlili hisobiga.

2. Tibbiy rehabilitatsiya, kasallanish, shikastlanish, o'ta charchash va o'ta zo'riqishlardan keyin jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonidagi shug'ullanuvchi talabalarining ish qobiliyatini qayta tiklashning tahlili orqali.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonidagi shug'ullanuvchi talabalar organizmini qayta tiklash uchta asosiy vositalari mavjud - pedagogi, psixologik va tibbiy guruhlariga bo'linadi. Pedagogik vositalar orqali rejali va to'g'ri tuzilgan sport mashg'ulotlari qayta tiklash jarayonlarini tezlashtiradi va sport natijalarni oshiradi. Bunda mikro va makro sikllarda intensiv va to'liqinsimon yuklamalar bilan dam olishni birga qo'shib to'g'ri olib borilishini muntazam tashkil qilishini nazorat qilish zarur. Shuningdek organizmning maxsus qayta tiklanishi, dam olish kunlar, mashg'ulotlarni har xil sharoitlarda o'tkazilishi, mushaklarni bo'shashtiruvchi mashqlar, yengil yugurishlar, nafas olish mashqlari hamda mashg'ulotlarning yakuniy qismlarini to'g'ri rejalashtirish va boshqalar hisobiga tiklanadi. Ruxiy (psixologik) vositalar asosida: - ruxiy holatning ko'tarinkiligi, organizmning harakat va fiziologik funksiyalari tezda qayta tiklanadi. Bularga har xil asabiy va ruxiy holatlarini boshqarish usulublar: meyyordagi uyqu, uxlab dam olish, o'z kuchiga ishonish, irodaning mustahkamligi, mushaklarni bo'shashtirish, bo'sh vaqtlarni sermazmun o'tkazish, do'stlar davrasi, musiqa tinglash, toza havoda sayr qilish va boshqalar kiradi [5].

Demak jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridan so'ng talabalar organizmi jismoniy va funksional xolatining tiklanishi deganda organizmning funksional holati o'zgarandan keyin uning fiziologik holatini ishdan oldingi yoki unga yaqin gomeostaz (ichki muhitni saqlash) holatiga qaytishi tushiniladi. Aerob holatning ustun kelishi tiklanish jarayonlarining o'ziga xos tomoni bo'lib hisoblanadi. Bilamizki, ma'lum bir yuklamadan so'ng organizmning sarf qilgan engrgiya resurslari va uning fiziologik funksiyalari qayta tiklanib qolmay balki uning muhim funksional tuzilishi paydo bo'ladi. Shuning uchun qayta tiklanish jarayonlarini bilib hisobga olish mashg'ulot yuklamalariga doimo to'g'ri yordam beradi.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlardagi yuklamalarni bajarish natijasida organizmning ichki muhitida kuchli o'zgarishlar sodir bo'ladi, energetik resurslar kamayadi, termoregulyatsiya, buziladi, yurak-qon tomir, nafas tizimlarining faoliyati buziladi. Bularning faoliyatini yaxshilashda tibbiy vositalar yordam beradi. Buning natijasida charchash holati yo'qoladi, ish qobiliyati oshadi va organizmning keyingi beriladigan yuklamaga moslanishini yengillashadi. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi talabalar organizmning ish qobiliyatini qayta tiklashda sport tibbiyotida keng kompleksli vositalar qo'llaniladi. Bunga maxsus tug'ri va havfsiz ovqatlanish, dieta va vitaminlar o'simliklardan tayyorlangan farmakologik preparatlar qo'llaniladi. Shuningdek jismoniy tarbiya va sport bilan shug'il-

lanuvchi talabalar organizmning ish qobiliyatini qayta tiklashda gigienik vositalari ham keng qo'llaniladi - bir meyyordagi kundalik rejim, tabiatdagi tabiiy vositalari va boshqalar. Aytib o'tish joiz-ki, eng asosiysi organizmning ish qobiliyatini qayta tiklashda massaj, xammom, sauna, termo (issiq) - elektro, baro-magnit va boshqa uslublar ko'llaniladi [3].

Ko'pgina tibbiy vositalar organizmga salbiy va yuqori ta'sir qiladi. Bu vositalarni noto'g'ri ko'lanishi, organizm holatiga mos kelmasligi, meyyorning (dozirovka) ko'payib ketishi, shug'ullanuvchilar sog'ligiga salbiy ta'sir etishi, uning ish qobiliyatini yomonlashishiga olib keladi. Shuning uchun tibbiy vositalarni qo'llashda shug'ullanuvchilarning individual holatini, yoshini, jinsini, sog'ligi, jismoniy rivojlanganligi, organizmning holati, mashg'ulotning yoki musobaqaning bosqichi va xarakterini hisobga olish kerak. Bu vositalar vrach nazorati asosida qo'llaniladi talab etiladi.

Tahlil va natijalar. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridan so'ng talabalar organizmi jismoniy va funksional xolatining tiklanish hamda ular organizmdagi charchash xolatini tahlil qilganimizda tez-tez kuzatiladi xolatlar borligi ma'lum bo'ldi.

Charchash, toliqish, horish - organizmga haddan tashqari zo'r kelishi natijasida mehnat qobiliyatining pasayishi bilan kechadigan fiziologik holat. Jismoniy charchash muskul-kuchi va bir tekisda harakatlanishi kabi funksiyalarning buzilishi bilan kechadi. O'ta va surunkali charchash bir-biridan farq qilinadi. O'ta charchash zo'r berib jismoniy mehnat qilish natijasida ro'y beradi. Surunkali charchash turli funksional sistemalar va butun organizmdagi o'zgarishlarning oylar va yillar davomida to'liq tiklanmasligi bilan bog'liq xolat xisoblanadi. Charchashning tezligi mehnatning xususiyati bilan belgilanadi. Masalan bir tarzda turib muskullarga zo'r keladigan ish bajarilganda kishi ancha tez, bir maromdagi ish bajarilganda birmuncha kam toliqqanligini ko'rdik. Charchashning yuzaga kelishida odamning bajarilayotgan ishga nisbatan munosabati ham muhim rol o'ynashi kuzga tashlandi. Ko'pchilik odamlarda emotsional qo'zg'alish davrida uzoq vaqtgacha charchash belgilari paydo bo'lmaydi. Yetarli dam olmaslik yoki uzoq, vaqt haddan tashqari zo'riqib ishlash charchashga yoki mador qurishiga olib keladi. Jismoniy yuklamadan yuzaga keladigan charchash qisqa vaqt dam olishdan so'ng o'tib ketadi. O'ta charchash esa charchash jarayonining usma-ust kelishi, kasalliklardan so'ng tiklanmasdan mashg'ulotlarda ishtirok etganda, mashg'ulotlarning kun tartibi buzilganda paydo bo'ladigan, patologiya oldi holatini rivojlanishiga sabab bo'ladigan holat.

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida shug'ullanuvchilarning organizmi faoliyati va ish qobiliyatini oshirishda navbatdagi mashg'ulotlar to'liq tiklanmagan holatida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Sport mashg'ulotlarini jarayonidagi jadallashtirish va sport ish qobiliyatini oshirishda organizm ish qobiliyatini qayta tiklash muntazam ravishda qo'llanilishiga katta ahamiyat berilishi kerak [3].

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridan so'ng talabalar organizmi jismoniy hamda funksional xolatining tiklanishda qo'llanilash bo'yicha nazariy-metodologik hamda amaliy takliflar, tavsiya, usullarni qo'llash metodikasi orqali amalga oshirilgan. Pedagogik tajriba davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

Toshkent davlat transport universiteti talabalarining jismoniy va funksional xolatining tiklanishda ko'rsatkichlari tatbiq etilgan. Natijada talaba (o'smir)larda jismoniy va funksional sifat ko'rsatkichlari: chidamlilik 10-12 %ga, tezlik 18-20 %ga, egiluvchanlik 17-19 %ga, oyoq muskullari kuchi 22-24 %ga, qo'l muskullari kuchi 14-16 % rivojlangan, nafas olish chastotasining tiklanish sur'ati ko'rsatkichi mashg'ulot-

dan avval olingan dastlabki ko'rsatkichga ancha yaqinlashganligi (14,8 marta/daq. - dastlabki ko'rsatkich, 17,6 marta/daq - tiklanish ko'rsatkichi) kuzatildi [5].

Toshkent viloyati "Xo'jakent" oromgohi iqlimi va tog' sharoitida o'tkazilgan o'quv-mashg'ulotlari jarayonida ularning jismoniy hamda funksional ko'rsatkichlarini oshirish, psixoemotsional his-hayajon tuyg'ularini yumshatishga qaratilgan kombinatsion mashqlar qo'llanildi. Natijada talabalarning jismoniy tayyorgarligining o'sishi 13,5-15 % ga, funksional tayyorgarlikning o'sishi 9,2 % ga, iqlim va sharoitga moslashishi (adaptatsiyasi) natijalari 7-8 % ga, o'quv mashg'ulotlaridan oldin organizmning tiklanish sur'ati 5,9 % ga, mashg'ulotdan keyin, mashg'ulotdan 10 daqiqa o'tgandan so'nggi tiklanishi 11,7 % ga, maxsus kombinatsion mashqlarni berish olqali o'sishga erishildi. Funksional testlar: arterial qon bosim (AQBmm/s.) 9-11 %, sistolik bosim (SB) 14 % ga, distolik bosim (DB) 9,5-10 % ga, yurak qisqarish chastotasi (YuQCh) marta/daq 15-16 % ga, nafas olish chastotasi (NOCh marta/daq) 8,3-10 % ga, Shtange sinovi 5-6 % ga, Genchi sinovi 4,5-5 % ga, o'pkaning tiriklik sig'imi (O'TSml) 10 % gacha me'yorlashtirildi. Jismoniy tayyorgarlikning o'sish sur'ati: chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarish (30 soniyada bajarish soni) 29 - 21 % ga, polga tayangan holda qo'llarni bukish va rostdash (marta) 17-19,5 % ga, turnikda tortilish (marta) 14,5-15,5 % ga, mokisimon yugurish 3x10 m (soniya) 19-21 % ga, chidamlilik 3000 m, masofaga yugurish 13-15 % ga, joydan turib uzunlikka sakrash (sm) 20-22 % ga, jismoniy tayyorgarlikning integral ko'rsatkichi 18-20 % ga ortdi, ularning natijalari testlar orqali tahlili qilindi. Natijada, talabalarda jismoniy mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish 42 % ga, sog'liklarini mustahkamlash 48,7 % ga, o'z-o'zini jismoniy takomillashtirish 54,8 % ga, emotsional his-hayajonni yumshatish va dam olishga bo'lgan ehtiyoj 40,7 % o'sishga erishildi [5].

Xulosa va takliflar. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridan so'ng talabalar organizmining jismoniy,

funksional va charchash xolatining tiklanish jarayonlarni tezlashtirishda yoki oldini olishda sog'lom tarmush tarziga rioya qilish, tug'ri va havfsiz ovqatlanish, kundalik rejimga katta ahamiyat berish bilan harakterlanadi.

Ilmiy ma'lumotlardan kelib chiqib aytishimiz mumkin-ki, modda almashinuv tufayli organizmning o'sish va rivojlanish, morfologik o'zgarishlarni turg'unligini va biologik tizimlarning funksional holati ta'minlanadi. Yuqori jismoniy yuklamalar natijasida tananing oziqa moddalarga qisman oqsil va vitaminlarga bo'lgan ehtiyoji, oshishi kuzatiladi. Natijada yuklamalar sarflanadigan kuch va quvvat oshishi bilan energiyani sarflanishi ham oshadi. Shug'illanuvchilar va ustozlar turli jismoniy yuklamalarga ta'alluqli energiyani shg mos kelishini aniqlashi kerakligi zarur bo'ladi. Qayta tiklanish jarayonlarini tezlashtirish maqsadida yuqori yuklamalar mashg'ulot va musobaqalar davomida ovqatlanish kaloriyasini hisoblab chiqarilgan normativlarga nisbatan 9-10%, suyuqlikni 0,5-1 litrga oshirish lozim. Shuningdek organizmning tiklanish davrida ozuqa bilan oqsil moddalarini ist'emol qilinishiga alohida ahamiyat berilishi zarur. Taomnomadagi oqsil tarkibini go'sht, baliq, jigar, so'zma, sut maxsulotlarini 50-60 % tashkil qilishi kerak. Oqsil moddalar tarkibiga kiruvchi aminokislotalar, glyutamin (sutki bug'doyni oqsillari) lipoproteinlar (sut, jigar, mol go'shtli oqsil moddalarni va xolin) mol jigarida, tilda, tuxum sarig'ida, no'xat orqali qayta tiklanishi ta'minlaydi. Yog' va uglevodlar - organizmning qayta tiklanish jarayonlarida katta rol o'ynaydi. Yog' maxsulotlari 20-25% dan oshmasligi, uglevodlar miqdorini oshirish lozim. Jigar mushaklarda glikogen zapaslarini oshirishda yuklanishlardan 24-28 soat o'tgandan keyin shug'illanuvchilarning ozuqa tarkibini uglevodlar bilan boyitilishi lozim. Bunda bir sutkali kaloriya 60 % tashkil etishi maqsadga muvoffiq. Shuning uchun shug'illanuvchilar ovqatlanish davomida turli vitaminlar bilan boyitilgan ozuqa bilan oziqlanishi kerak. Davrimizning asosiy taraqqiyotni rivojlan-tiruvchi kuch talaba yoshlarimiz hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Березина Л.А., Быстрова О.Л., Сабуркин П.А. Исследование интереса к занятиям физической культурой у студентов вуза // В сборнике: Современные проблемы физического воспитания и безопасности жизнедеятельности в системе образования 2015. С. 18-22.
2. Гаттаров Р.У. Исследование показателей функционального состояния студентов трехмедицинских групп здоровья /Гаттаров Р.У., Потапова Т.В., Зубков С.М. и др. // Вестникуюжно-уральского государственного университета. Серия "Образование, здравоохранение, физическая культура". 2007. №16 (88), вып. 12. С.43-49.
3. Muxamadiyev K.B. Talabalarning jismoniy ko'rsatkichlarini rivojlantirish. Uslubiy qo'llanma. Toshkent temir yo'l muhandislari instituti bosmaxonasi. 07.05.2019 y. - 28 b.
4. Muxamadiyev K.B. Jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanishda jismoniy yuklamalar samaradorligini baholashning pedagogik nazorat usullaridan foydalanish. Uslubiy qo'llanma Toshkent temir yo'l muhandislari instituti bosmaxonasi. 07.08.2019 y. - 23 b.
5. Muxamadiyev K.B. Jismoniy tarbiya ta'limi jarayoni samaradorligini oshirish va talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari: Monografiya / "Innovatsion rivojlantirish nashriyoti-matbaa uyi". - Toshkent, 2021. - 413 b.
6. Muxammadiyev K.B. Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya ta'limi jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish // Ta'lim, fan va innovatsiya - Toshkent, 2021. 4-son. - B. 53-57.
7. Тимошина И.Н., Богатова С.В. Исследование динамики физической подготовленности студентов педагогических и непедагогических специальностей // Педагогико-психологические и медико-биологические проблемы физической культуры и спорта. 2015. №1(34). С. 146-153. DOI 10.14526/00_2015_00.
8. Варламова Л.П. Разработка аппаратно-программного комплекса по мониторингу физического здоровья студентов // Вестник ТУИТ 2017г., № 4(44), с.80-86.



Samiyaxon NE'MATOVA,

Namangan viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi, (PhD)

E-mail:samiyaxon88@mail.ru

NVPYMO'MM dotsenti, p.f.d. Q. Djurayev taqrizi asosida

SOME ASPECTS OF TEACHER PROFESSIONAL COMPETENCE IN AN INNOVATIVE EDUCATION ENVIRONMENT

Annotation

This article contains issues, competence and competency qualities and content of teacher professional competence, competency requirements and some aspects of the teacher's competence.

Key words: Competent, competent, pedagogical competency, personal, communicative, psychological, research and cruise, special, innovative, ICT competencies.

НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ В ИННОВАЦИОННОЙ СРЕДЕ ИНТЕГРАЦИИ

Аннотация

В этой статье содержатся проблемы, компетентность и содержание профессиональной компетенции учителей, качества компетентности, требования и некоторые аспекты компетентности учителя.

Ключевые слова: Компетентная, педагогическая компетентность, личная, коммуникативная, психологическая, исследования и креативные, специальные, инновационные, компетенции ИКТ.

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGINING AYRIM JIHLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchi kasbiy kompetentligini takomillashtirish masalalari, kompetensiya va kompetentlik sifatлари va mazmuni, ta'limga kompetensiyaviy yondashuvning retrospektiv tahlili, o'qituvchining kompetentligining ayrim jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, pedagogik kompetentlik, shaxsiy, kommunikativ, psixologik, tadqiqotchilik va kreativlik, maxsus, innovatsion, AKT kompetensiya.

Kirish. Hozirgi ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida pedagogning kasbiy kompetentligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda o'qituvchi muvaffaqiyatli va talabchan bo'lishi uchun har qanday o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, yangi sharoitlarga tez va samarali moslasha olishi, o'z kasbining ustasi bo'lishga intilishi, bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi, o'z-o'zini rivojlantirishga harakat qilishi, ayrim noqulayliklarga bag'rikenglik ko'rsatishga tayyor bo'lishi – ya'ni o'z kasbining fidoyisi bo'lishi kerak. Biroq, ijtimoiy amaliyotning ko'rsatishicha, bunday muhim xususiyatlar barcha o'qituvchilarda ham shakllangan, deb ayta olmaymiz.

Buning asosiy sabablaridan biri, pedagoglarning aksariyat qismi bugungi kunda tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy sharoitlarga moslashish jarayonida katta qiyinchiliklarga duch kelayotganliklari, bu o'z navbatida, o'qituvchidagi mavjud kasbiy kompetentlikning yetarli emasligi oqibatida shaxsning jiddiy ijtimoiy-psixologik muammolar bilan ro'baro kelishi bilan izohlanadi.

Shuning uchun o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yordam beradigan psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish, sohaga oid chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish juda muhimki, bu o'z navbatida ta'lim sifati va samaradorligini oshishiga va o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari o'rtasida ijobiy munosabatlarning shakllanishiga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Dastlab, kompetentlik tushunchasiga mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda talqin qilishda turli xil semantik urg'ular berilgan edi. Shu bilan bir qatorda, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi bo'yicha izlanishlar olib borgan germaniyalik olimlar

G.Lehmann [6], S.Blomeke [2], T.Brandt [3], C.Kraler [5], K.Bauer [1] va E.Terhart [9]lar kompetentlikni zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va kasbiy etika birligi sifatida baholab, uning asosiy komponentlari sifatida ijtimoiy tahlil, pedagogik vaziyatlar diagnostikasi, refleksiya va kasbiy harakatlarni e'tirof etadilar[4].

Xususan, tadqiqotchilarning fikricha, pedagogning kasbiy kompetentligi uning:

tegishli fan sohasi va tarbiya borasida maxsus ilmiy-nazariy bilimlarga shuningdek, belgilangan vazifalarni samarali hal eta olish layoqatiga ega bo'lishi;

maxsus kasbiy etika asosida ta'lim oluvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqadigan aniq pedagogik vaziyatlarni samarali yechimini topishi;

yuqorida keltirilgan kasbiy vazifalarni amalga oshirishdagi har bir pedagogik hatti-harakati uchun har bir shaxs oldidagi mas'uliyat va javobgarlikni his etishi bilan belgilanadi[11].

Professor N.Muslimov o'z ilmiy izlanishlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida oliy ta'limni mazmunan modernizatsiyalashda quyidagi vazifalarning bajarilishini nazarda tutadi:

-ta'lim muassasalarida sog'lom ijodiy muhitni yaratish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'tarish, talaba-yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish;

-iqtidorli talaba-yoshlarning qobiliyati va iste'dodini aniqlash, tarbiyalash, iste'dodini to'laqonli ro'yobga chiqarishning yagona umumilliy tizimini shakllantirish, o'quv-

tarbiya jarayonini individuallashtirish va tabaqallashtirish ilmiy asoslarini yaratish;

- o'quv rejalaridagi turdosh fanlarni integratsiyalash orqali o'quv yuklamalari ko'lamini va hajmini maqbullashtirish;

- oliy ta'lim muassasalarida virtual o'quv-laboratoriya, zamonaviy axborot kommunikatsiya, elektron-texnik va masofadan o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish, darslik, qo'llanma, o'quv filmlarining elektron turlarini yaratish hamda ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish;

- oliy ta'lim muassasalarida ta'limni boshqaruv tizimi uchun rahbar kadrlarni maqsadli tayyorlashni yo'lga qo'yish;

- pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarini malakali mutaxassislar bilan to'liq ta'minlash choralari belgilash;

- pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, pedagogik diagnostika, talaba shaxsiga individual yondashishga doir tadqiqotlarga keng yo'l ochish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish;

- indikatorlar tizimi orqali ta'lim sifatini boshqarish mexanizmini yaratish va joriy etish;

- ta'lim mazmunining bevosita shaxsga yo'naltirish va ta'lim oluvchilarning shaxsiy va ijodiy qobiliyatlarini boyitish, mavjud imkoniyatlarini rivojlantirishda ularning qiziqish va ishtiyoqlarini hisobga olgan holda ta'limni ijtimoiylashtirish, individuallashtirish[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Kadrlar menejmenti yo'nalishidagi ilmiy izlanishlarida tadqiqotchi T.Bazarov ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida mutaxassislarining zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan institutsional mexanizmlarini takomillashtirish xususida to'xtalgan. Bu borada ta'lim sohalariga ixtisoslashtirilgan kompetensiyalar tizimini shakllantirish; kasbiy muloqot tizimini (seminarlar, mahorat darslari, konferentsiyalar va boshq.) rivojlantirish; malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirishning innovatsion shakllari, yondashuvlari kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi muhim omillar ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, tadqiqotchi, zamonaviy hamjamiyat uchun muhim bo'lgan innovatsionlik (muammoga yo'nalganlik, kreativlik, dinamiklik), muloqotchanlik (kooperativlik, detsentratsiya, madaniyatlararo muloqot), liderlik (ta'sir eta olish, loyihalashtirish-bashoratlash, mobillik) kabi kompetensiyalar klasteriga asoslangan modelni taklif etadi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda muallif aynan kompetensiyalarga asoslangan yondashuv orqali kadrlarning individual, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ijodkorligini rivojlantirish tamoyillarini izohlaydi[7].

Mualliflarning fikriga ko'ra, muayyan sohada ma'lum bir harakatni amalga oshirish, jumladan yuqori ixtisoslashgan bilimlar, ko'nikmalar, fikrlash usullari va o'z harakatlari uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga tayyor bo'lishlik uchun ham kompetentlik zarur hisoblanadi.

- kompetentlik komponentlari faqat muayyan shaxsning o'zini qiziqtiradigan faoliyat bilan shug'ullanish jarayonidagina rivojlanadi va namoyon bo'ladi;

- samarali faoliyat - bir nechta omillarning o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'lib, muayyan vaziyatda namoyon bo'ladigan individual qobiliyat yoki qobiliyat darajasiga emas, balki maqsad sari intilish jarayonida turli xil vaziyatlarni qamrab oladigan bir qator mustaqil va qo'shimcha kompetentliklarga ham bog'liq bo'ladi.

- shaxsning muayyan holat va o'ziga xos konkret vaziyatga tushib qolishi unda bevosita qadriyatlarining shakllanishi va yangi kompetentlikni rivojlanishi va o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir qiladi.

“Kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalariga o'zbek olimlari – S.N.Akbarov, N.Sh.Turdiyev, Yu.M.Asadov, D.Sh.Temirovlar o'z tadqiqot ishlarida quyidagi fikrlarga alohida e'tibor qaratadilar:

- bilimlar majmuining amalda qo'llanilishi;

- shaxsning o'quvi, hislatlari, fazilatlarini;

- amaliy faoliyatga tayrgarlik o'lchovi;

- muammolarni hal etish, amalda zarur natijalarni qo'lga kiritish layoqati;

- shaxsning professional faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar yaxlitligi;

- shaxsning maqsadga yo'naltirilgan emotsional iroda kuchi[10].

Demak, kompetensiya – o'z ichiga shaxsga oid o'zaro ijobiy sifatlarining barchasini, ya'ni kompetensiyalar va faoliyat usullarini qamrab oladi, chunki u shaxsga yo'naltirilganlik (motivatsiya, qadriyat yo'nalishi va boshqalar), uning muammolarni his qilish, stereotiplarni yengish, tushuncha, mustaqillik, qat'iyatlilik, fikrlashning moslashuvchanligi, kuchli irodali fazilatlar, ya'ni, shubhasiz, kasbiy faoliyatda shaxsiyatni ro'yobga chiqarish uchun asosiy omil hisoblanadi. Kompetentlik esa shaxs tomonidan o'ziga xos kompetensiyaga egalik qilish faoliyatiga oid ma'noli harakatni tashkil etishni nazarda tutadi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlili asosida kompetensiyaning quyidagi integratsion tavsiflari keltiramiz:

jamiyatdagi qadriyat yo'nalishlari, nutqda namoyon bo'luvchi muloqot uslubi, til va din vakillari bo'lgan insonlar bilan hamkorlikda yashashga tayyorligini o'ziga xos tarzda anglashiga yordam beruvchi kompetensiyalar;

kasbiy bilim va ko'nikmalarga egalik, o'qituvchining o'ziga bo'lgan munosabati, amaliy faoliyati hamda uni kognitiv amalga oshirishga oid kompetensiyalar;

insonning mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodirligi, hamkorlikda biror qarorni qabul qila olish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy kompetensiyalar;


kasbiy faoliyatda tanqidiy mushohada yuritish, to'g'ri qaror qabul qila olish, sohta dalillarni asosli ravishda inkor etish, samarali natijalarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati mavjudligini belgilovchi kompetensiyalar;


shaxsning tanlagan kasbi, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy hayot bilan bog'liq bilimlarni uzluksiz o'zlashtirib borishini ta'minlovchi kompetensiyalar;

kasbiy faoliyatni amalga oshirishda ma'lum bir malaka darajasini namoyon etishga doir qobiliyatni belgilovchi kompetensiyalar;

ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi innovatsiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq etishga tayyorligini tavsiflovchi kompetensiyalar.

Yuqoridagi ilmiy-amaliy izlanishlar tahlili natijasida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish holati o'rganilib, yuqoridagilarning kasbiy kompetentligi tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqdik (1-pasm).





1-rasm. O'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatleri va mazmuni

Ushbu rasmdan ma'lumki, o'qituvchidagi mavjud kompetensiya sifatleri namoyon bo'lsa, ta'lim samaradorligiga erishilishi mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilardagi tayanch kompetensiyalarning shakllanishiga omil bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Tahlillarimiz davomida, kasbiy kompetentlikni oshirish va rivojlantirish muammolari aksariyat izlanishlarda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash misolida o'rganilganligi, shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda ilgari surilgan kompetensiyalar tuzilmasi va elementlari kelgusidagi kasbiy faoliyat talablari uchun qaratilganligi,

amaliyotdagi mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari esa faoliyatning real talablaridan kelib chiqqan holdagi rejalashtirishni talab qilishi aniqlandi.

Keltirilgan sharhlarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratiga qarab, biz o'quv jarayonida shakllangan va kasbiy faoliyat davomida rivojlanib boradigan kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlar to'plamini ifodalaydigan va pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydigan o'qituvchining yaxlit sifatini anglaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Bauer K., Kopka A., Brindt S. *Padagogische Professionalituet und Lehrerarbeit*. - Weinheim und München, 2006.
2. Blömeke S. *Professionelles Lehrerhandeln. Kriterien und aktuelle empirische Erkenntnisse aus der Unterrichtsforschung*. - Vortrag an der Universitaet Passau, 2010.
3. Brandt T. *Can Self-Leadership Be Used to Foster the Entrepreneurship Competence Framework?* / Brandt T., J. F. Da Silva Gomes, Polbitsyn S. // Стратегии развития социальных общностей, институтов и территорий: материалы V Международной научно-практической конференции, Екатеринбург, 22-23 апреля 2019 г. : в 2-х т. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019. — Т. 1. — С. 270-273.
4. Грачева Е. Ю., К вопросу о профессиональных компетенциях педагогов германии, содействующих успешности их практической деятельности, и их развитии / *Professional Education in Russia and abroad* 2 (6) 2012. С. 87-95.
5. Kraler C. *Professionalisierung in der Berufseingangsphase – Berufsbiografie und Kompetenzentwicklung* // *SchVw Spezial*. – 2008. - № 1. – S. 4-7.
6. Lehmann G., Nieke W. *Zum Kompetenz Modell*. 2001. – Режим доступа: <http://www.bildungsserver-mv.de/download/material/text-lehmann-nieke.pdf> (дата обращения: 26.03.2012).
7. Мирсолиева М.Т. Педагог касбий компетентлигининг таркибий қисмлари // Педагогик маҳорат. Бухоро, 2017. -№ 1.-18-23 б. (13.00.00.№ 23).].
8. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси / Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013.
9. Terhart E. *Erfassung und Beurteilung der beruflichen Kompetenz von Lehrkräften*. In: Laeders, Manfred; Wissinger, Jochen, Hg. *Kompetenzentwicklung und Programmevaluation. Forschung zur Lehrer-bildung*. - Muenster, New York, München, 2007.
10. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетентлигини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. – Т.: Т.Н. Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти, 2015.-160 б. 14 Б
11. http://conf.edu.yar.ru/docs/adult/rf411_256.pdf.



Nargiza NURITDINOVA,
French Teacher, the Uzbek State World Languages University, Tashkent
E-mail: nuritdinovanargiza777@gmail.com

Under the review of UzMU professor, doctor of philology A.E. Mamatov

THE INTERCULTURAL DIMENSION OF FRENCH TEACHING

Annotation

The main objective of this article is to increase the role of teaching in the study of foreign languages, which is currently relevant, to improve the quality, to overcome the age gap with teaching skills and to new methods. Research addresses the issues below in order to accomplish the following tasks: study the skills of today's teacher to work with material in the classroom and without additional material; the notion of age difference in language teaching; the notion of punishment; teach the lesson in parts; overcoming difficulties in the classroom in the teaching of foreign languages. Object of the work is new teaching techniques, skillful use of modern or traditional teaching methods. Subject of the article is different forms and contents of foreign language teaching methods and techniques.

Key words: Modern teaching methods, new techniques, difficulties in the classroom.

FRANSUZ TILINI O‘QITISHDA MADANIYATLARARO TAFOVUT MAYDONI

Annotatsiya

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi hozirgi davrda dolzarb bo‘lgan chet tillarini o‘rganishda o‘qitishning rolini oshirish, sifatini oshirish, yosh farqini pedagogik mahorat va yangi usullar bilan bartaraf etishdan iborat. Tadqiqot quyidagi vazifalarni hal qilish uchun quyidagi savollarni hal qiladi: zamonaviy o‘qituvchini darsda va qo‘shimcha materiallarsiz foydalanish imkoniyati bilan o‘rganish; til o‘rganishda yosh farqini istisno qilish; hujjatlar to‘plami; darsni qismlarga bo‘lib o‘tkazish; chet tillarini o‘rgatishda sinfdagi chastotalarni bostirish. Ishning obyekti - yangi o‘qitish usullari, zamonaviy yoki muqobil o‘qitish usullaridan mohirona foydalanish. Ishning obyekti - yangi o‘qitish usullari, zamonaviy yoki an'anaviy o‘qitish usullaridan mohirona foydalanish. Maqolaning mavzusi - chet tilini o‘qitish usullari va usullarining turli shakllari va mazmuni.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy o‘qitish usullari, yangi texnikalar, darsdagi qiyinchiliklar.

МЕЖКУЛЬТУРНОЕ ИЗМЕРЕНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ФРАНЦУЗСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Основной задачей данной статьи является повышение роли преподавания в изучении иностранных языков, что актуально в настоящее время, повышение качества, преодоление возрастного разрыва с педагогическими навыками и новыми методами. Исследования решают поставленные ниже вопросы для решения следующих задач: изучить умения современного учителя работать с материалом на уроке и без дополнительного материала; понятие разницы в возрасте в обучении языку; понятие наказания; вести урок по частям; преодоление трудностей на занятиях при обучении иностранным языкам. Объектом работы являются новые методы обучения, умелое использование современных или традиционных методов обучения. Предметом статьи являются различные формы и содержание методов и приемов обучения иностранному языку.

Ключевые слова: Современные методы обучения, новые приемы, трудности на уроках.

Introduction. The methods implemented are not lacking in the teaching process. The student's mind is not a kind of passive container, which one cannot claim, as U.Gantier says: "the language teacher, in fact, practices on virgin ground, in a way, he digs, he sows the seed that he causes to rise as he pleases."

On the contrary, we must go beyond this idea, because each learner has his own pre-established knowledge of this language, he must develop his own strategy of learning from, on the one hand, what he already knows and on the other hand, by observing samples of the second language (FL), in communication situations.

To clearly understand our subject, and taking into account as samples of the foreign language, the impact and the role of the media, namely, the journalistic text and advertising. A support that can somehow improve the learner's mastery of the language, by inculcating the messages conveyed by the media in the field of learning, knowing that the press also includes several disciplines (linguistics, semantics, semiology, syntax, etc.), which the learner is already used to being in contact with this technical side of the language.

Discussion. The relationship between the media and the individual is not innocent. Usually they exert an influence on the receiver by making him passively absorb the messages addressed to him. In our case, we will try to make the individual (the learner) active. That is to say, knowing how to draw from the media what will be able to reinforce and achieve the goal of the learner in FLE, namely, to master the foreign language and make use of it in his discursive environments.

In this case, the mediated text is not limited to the simple transmission of messages, but its role goes beyond this task.

Teaching a foreign language always starts with the teacher. The latter cannot be sure that the learner outside his learning environment is able to use it.

It should also be noted that we do not know how each of the learners proceeds to acquire FL and build their communication skills. We therefore did not want to make the choices for the learner, considering that he is an adult and responsible for his learning.

We will try to provide the different pedagogical means that allow different psychological and cognitive temperaments to build their competence, through an initiation to consider journalistic and advertising text as a new way of learning and becoming familiar with French as a foreign language? Hence the next question:

What function does the integration of the media at the university fulfill in the teaching/learning of French as a foreign language? and how does culture intervene there?

Above all it is a motivational function considering that without which there will be no effective learning. Awakening the intellectual curiosity of learners about the cultural and linguistic aspects of the target language and gradually transforming it into a desire, even a need, to learn and to go ever further, such is the primary role of teachers. Of course, the choice of topics and means of presentation depends on the teaching situation.

For the development and presentation of a learning tool, considered as a support to improve the use and mastery of the foreign language by the learner, we can identify the following hypotheses:

Since the learner must discover and reconstitute the rules which control the structure and the use of the language, starting from the courses which are given to him, it is advisable to grant a large place from the beginning, with the presentation of texts of French expression, belonging to the field of the media - since the latter deal with all areas of life, and the learner will surely find his center of interest there - presenting situations and acts of communication likely to meet his needs and to his interests.

The relationship between media text and the teaching/learning of French as a foreign language is linked by the common disciplines between the two, namely, linguistics, semantics, semiology, syntax, psychology, sociology, etc. the first uses them in an implicit (indirect) way, the second in an explicit (direct) way.

This new support, to teach FL, must be designed in such a way as to leave ample room for observation, reflection and explanation, which play an important role in the discovery and acquisition of FL usage rules.

We are going to test the hypothesis that it is through long-term communications, and not brief exchanges in class, that linguistic knowledge, discursive and conversational skills can be deployed.

Analyses. Through the teaching of foreign languages, information, attitudes, images and prejudices about people and countries where the language is spoken are conveyed. It is important to be aware of this. Especially since the development of the means of communication which makes it possible to travel ever further and faster, the Internet which makes the most remote places accessible with the click of a mouse, the mobility of the labor force that the causes of misunderstanding between two partners belonging to different cultures, and the potential conflicts of interpretation have multiplied. Therefore, it becomes necessary to base the

teaching of culture on something other than chance and intuition. A theoretical basis is necessary, but reflection on the subject remains relatively limited.

Awareness of foreign culture is explicitly one of the three main objectives of language teaching. However, the implications and related directions remain unclear. The 1996 instructions aim to integrate culture more fully into language teaching, on the one hand, and on the other hand, to make it an instrument of personal development, and therefore of education, in its primary sense: to help to grow. Indeed, some recommend through the teaching of culture, to lead to the discovery of the other, to the understanding of their difference, and therefore to the development of the spirit of tolerance.

The link between culture and communication is clearly established, and it is therefore necessary that pupils acquire the ability to interact effectively in a multicultural environment, which leads to their awareness of the fact that knowledge of the rules of the functioning of the language is not sufficient to ensure communication competence and that the latter presupposes socio-cultural and intercultural competences. Otherwise, the speaker will tend to use the references of his own culture to analyze the message produced by his interlocutor.

Results. Teachers should be led to propose a course enabling their pupils to be able to recognize and analyze cultural differences, to develop the distance necessary for understanding others, and to implement linguistic and behavioral capacities adapted to the cultural context of the domain in which they intend to interact.

1.1. What is culture?

One of the difficulties, and not the least, will be to agree on the meaning of the word "culture", often considered as a "catch-all" word. Many attempts at definition, even classification, have been proposed. For Mr. Byram, culture covers an ideological domain comprising the values and beliefs specific to a group, a documentary domain encompassing intellectual or artistic productions, explicit information on the country, historical, geographical, contemporary, and social domain, concerning the lifestyle, verbal and non-verbal interactions — nature of social relationships, roles specific to each sex and each generation.

Conclusion. All these definitions of culture tend to indicate that the cultural elements to be introduced into language teaching cover a much broader field than the traditional list of facts that must be known concerning the civilization of one or two of the target cultures. In the present work, therefore, we will use the term "culture" as a collective noun referring both to the facts of civilization and to information relating to beliefs, customs, social practices, values and behaviors. Within this broader concept, for greater clarity and simplicity, reference will be made to elements evoking aspects of civilization or significant achievements by the commonly used term "Culture", with a capital C, and to other elements, from beliefs to behaviors, by that of "culture", with a small c (Halverson, 1985).

REFERENCES

1. Comblin A. et Rondal.J.A: Apprendre les langues, où, quand, comment? ed Mardaga, France, 2001, – P. 41.
2. Cornaire: La compréhension orale, Ed. Clé international Paris,1998, p 54.
3. Cuq. J.P; Gruca I: cours de didactique du français langue étrangère et seconde, Ed Pug, Grenoble, 2002. – P.117.
4. Décuré, Nicole, Françoise Frager & Elizabeth Ali. Help! Exercices et Jeux pour la classe d'Anglais. Toulouse: CRDP. 1985
5. Petit précis de l'évaluation de l'impact social, Avise, Essec, Mouves (devenu Mouvement Impact France depuis 2020), 2013
6. ESS & création de valeur, Phase 1 – La mesure d'impact social : caractéristiques, avantages et limites des démarches existantes, Avise, La Fonda, Le Labo de l'ESS, 2017.
7. Guide de la mesure d'impact social, (Im)prove, Fondation Rexel, 2015.
8. Rapport de synthèse sur la mesure de l'impact social, Conseil supérieur de l'économie sociale et solidaire (CSESS), 2011.



Shaxlo NURITDINOVA,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsent, v.v.b.

O'zMU dotsenti, p.f.n V.SH. Raximov taqrizi asosida

KICHIK O'SMIRLARNI O'QUVCHILIK BELBOG'LARGA ATTESTATSIYALASHGA TAYYORLASH JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik o'smirlarni o'quvchilik belbog'larga attestatsiyalashga tayyorlash jarayonini individuallashtirish haqida so'z yuritilgan. O'smir yoshidagi taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarliklarini ancha tabaqalashtirilgan diagnostikasi uchun o'g'il bolalar va qiz bolalar alohida testdan o'tkazildi.

Kalit so'zlar: O'quvchilik belbog'lari, attestatsiya qilish, o'quv – mashg'ulot jarayoni, yosh taekvondochilar, jismoniy tayyorgarlik, o'zini o'z baholash.

INDIVIDUALIZING THE PROCESS OF PREPARING LITTLE TEENAGERS TO CERTIFICATE THE STUDENT BELTS

Annotation

This article talks about the individualization of the process of preparing young teenagers for school belt certification. Boys and girls were tested separately for a more differentiated diagnosis of the general physical fitness of adolescent taekwondo players.

Key words: Student belts, certification, training process, young taekwondo players, physical training, self-assessment.

ИНДИВИДУАЛИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА ПОДГОТОВКИ МАЛЕНЬКИХ ПОДРОСТКОВ К АТТЕСТАЦИИ ШКОЛЬНЫХ РЕМНЕЙ

Аннотация

В данной статье говорится об индивидуализации процесса подготовки младших подростков к аттестации школьного пояса. Мальчиков и девочек обследовали отдельно для дифференцированной диагностики общей физической подготовленности тхэквондистов подросткового возраста.

Ключевые слова: Ученические пояса, аттестация, тренировочный процесс, юные тхэквондисты, физическая подготовка, самооценка.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining asosiy holatlari – shaxsni o'z mavqeini belgilab olishini ta'minlashga orientatsiya qilish va uni amalga oshirish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. O'smirlik davrida bolani o'zini o'zi anglashini amalga oshirishi, uning o'zini o'zi baholashini rivojlanishiga tayanadi.

Psixologik-pedagogik va fiziologik masalalar bo'yicha ilmiy va ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, kichik o'smirlik yoshidagi taekvondochilarni o'quvchilik belbog'lari-ga attestatsiyaga tayyorlashning pedagogik jarayoni bilan bog'liq bo'lgan asosiy an'analarni, istiqbollarni va dolzarb muammolarni ajratish imkonini beradi.

Tadqiqot obyekti – sportda dastlabki ixtisoslashish bosqichida yosh taekvondochilarni attestatsiyaga tayyorlashning o'quv - mashg'ulot jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – yosh taekvondochilarni o'quvchilar belbog'lariga attestatsiyaga tayyorlash jarayonini individuallashtirishning pedagogik shartlari.

Tadqiqotning maqsadi – kichik o'smir yoshidagi yosh taekvondochilarni o'quvchilar belbog'iga attestatsiya qilishga tayyorlash jarayonini individuallashtirish jarayonining pedagogik shartlarini o'rganish.

Tadqiqotning maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi.

Dastlabki sportdagi ixtisoslashish bosqichida shug'ullanuvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan harakatlar va operatsiyalarning, bilimlarning, jismoniy va axloqiy-irodaviy sifat-larni shartlari va tarkibini aniqlash.

Kichik o'smir yoshidagi yosh taekvondochilarni attestatsiya qilishga tayyorlashning o'quv - mashg'ulot

jarayonlarini individuallashtirishning pedagogik shartlarini asoslash va baholash.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotlar 2018-yildan to 2021-yilga qadar uchta asosiy bosqichlarda o'tkazildi.

Birinchi bosqich – izlanuvchi. Tadqiqotning muammosi bo'yicha ishlar o'rganildi va tahlil qilindi, tadqiqotlarning metodologik va nazariy asoslari, qarama-qarshiliklari, maqsadi, obyekti va predmeti aniqlandi.

Tadqiqotning asosiy usullari ushbu bosqichda quyidagilar bo'ldi: nazariy tahlil, tajribani umumlashtirish, kuzatishlar, suhbatlar.

Ikkinchi bosqich – tajribaviy-tahliliy. Ushbu bosqichda asosiy e'tibor konstatatsiya qilinadigan tajribaga qaratildi.

Ushbu ishning natijalariga ko'ra, tajriba va nazorat guruhlarini tanlash amalga oshirildi; tajriba ishlarini o'tkazishda ishtirok etadigan trenerlar bilan seminarlar, treninglar va konsultatsiyalar yo'li orqali metodik ishlar o'tkazildi. Tajriba ishi tadqiqotlar bazasida tabiiy sharoitlarda o'tkazildi.

Ushbu bosqichdagi asosiy usullar quyidagilar bo'ldi: pedagogik testlash, suhbat, kuzatishlar, mantiqiy va matematik tahlil.

Uchinchi bosqich – nazorat-umumlashtirish bosqichi. Nazorat va tajriba guruhlari kichik o'smirlarini texnikani, bilimlar va malakalarni o'zlashtirish darajalarini baholash attestatsiya jarayonida o'tkazildi. Yosh sportchilarning o'quv - mashg'ulot jarayoni samaradorligini oshirishning ajratilgan pedagogik shartlarini va o'quvchilar belbog'lariga attestatsiyani tajribada tekshirish amalga oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur bosqichda tadqiqotning asosiy usullari – pedagogik tajriba, pedagogik

testlash, kuzatishlar va suhbatlar, tajriba ma'lumotlarining statistik tahlil qilishdan iborat bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Yosh taekvondochilarni dastlabki tayyorgarligi darajasini va

individual-tipologik xususiyatlarini testlash natijalari Nazorat va tajriba guruhlarida sinovdan o'tuvchilarning dastlabki tayyorgarliklari darajalarini aniqlash uchun 2018-

yilning sentyabr oyida, o'quvchilar belbog'iga attestatsiya qilish va umumiy jismoniy tayyorgarlikni dastlabki tadqiq qilish amalga oshirildi. Barcha tadqiqotlar bir xil metodika bo'yicha tashkil qilindi va mos ravishdagi o'quvchilar belbog'iga attestatsiya dasturini bajarish malakasini aniqlashdan iborat bo'ldi. Attestatsiya dasturi 1-rasmda keltirilgan.

Umumiy talablar		
Bo'limlar		
Nazariya	Texnika	UJT
Taekvondo tarixi	Blok va qo'llar bilan zarbalar	Qo'llarni tayanchda bukish
Taekvondo etiketi	Blok va oyoqlar bilan zarbalar	Osilib turib oyoqlarni ko'tarish
Atamashunoslik	Bir qadamli sparring	SHpagat uzunasiga
Musobaqalar qoidalari	Uch qadamli sparring	SHpagat ko'ndalangiga
	Erkin sparring	Arqon bilan sakrashlar
	O'z-o'zini himoyalash	Skameyka ustidan sakrashlar
	Pumse	Jismlarni sindirish

1-rasm. Attestatsion imtihon dasturi.

Tajriba guruhi 12 kishidan iborat bo'ldi. Besh nafar bolalar o'n bir yoshda va yetti nafari – o'n ikki yoshda edi. SHunday qilib, sinovdan o'tuvchilarning barchasi kichik o'mirlar yoshiga mansub bo'ldi. Guruh, o'z ichiga 6 nafar qiz bolalarni va 6 nafar o'g'il bolalarni oldi. Taekvondo bilan shug'ullanish stajlari yarim yildan to ikki yilgacha bo'lgan. Yosh sportchilarning malakasi quyidagicha bo'ldi: 3 kishi sariq tasmani belboqqa ega (9 gip), sariq belboqqa (8 gip) 5 kishi, yashil tasmani sariq belboqqa (7 gip) 4 kishi ega bo'lgan.

Nazorat guruhi 13 kishidan iborat bo'lib, tajriba guruhidagi sportchilarni bilan deyarli bir xil bo'lgan yosh-

jinsli va malakali tarkibiga ega bo'lishgan. Uning tarkibiga 5 nafar qiz bolalar va 8 nafar o'g'il bolalar kirishgan. Ularning ichida 5 nafari sariq, oq belboqqa (9 gip), shuncha o'smirlar sariq belboqqa (8 gip) va faqatgina 3 nafar sportchi 7-gip darajasiga ega bo'lishgan.

Jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash dasturlarida, odatda qo'llaniladigan testlar yordamida qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazildi. Dastlabki tadqiqotlarning natijalari 1- va 2-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval:

Pedagogik tajriba boshlanguniga qadar o'smirlar yoshidagi taekvondochilarni o'quvchilar belbog'iga attestatsiya qilish natijalari

Parametr	Bo'lim			
	Nazariya	Texnika	UJT	Umumiy baho
Nazorat guruhi, n=13	3,8±0,11	3,7±0,06	3,1±0,10	3,53
Tajriba guruhi, n=12	3,7±0,12	3,9±0,07	3,2±0,09	3,6
Farqi	0,1	-0,2	-0,1	-0,07
R	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05

Attestatsiyani 2-jadvalda keltirilgan natijalari, nazorat va tajriba guruhlarida yosh taekvondochilari, tayyorgarlikning alohida bo'limlari bo'yicha ham va integral tayyorgarliklari

bo'yicha ham deyarli bir xil attestatsion baholarga ega bo'lishganligi to'g'risida dalolat beradi.

2-jadval:

Pedagogik tajribaga qadar yosh taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarliklarini testlash natijalari

Parametr	Mashq					
	qo'llarni tayanchda bukish	joyidan turib uzunlikka sakrash, sm	oldinga egilish, sm	yugurish 1000 m, s	yugurish 30 m, s	yugurish 3x10 m, s
Nazorat guruhi	11,1±0,67	139±1,48	4,5±0,12	294±7,9	5,6±0,06	8,3±0,16
Tajriba guruhi	10,9±0,66	141±1,52	4,6±0,08	288±9,4	5,5±0,13	8,7±0,13
Farqi	0,02	- 2,00	-0,10	5,5	0,07	- 0,34
P	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05	>0,05

O'smir yoshidagi taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarliklarini ancha tabaqalashtirilgan diagnostikasi uchun o'g'il bolalar va qiz bolalar alohida testdan o'tkazildi. Jismoniy sifatlar majmualari tadqiq qilindi: qo'llar mushaklarining kuchi (yotgan holatda tayanchda

qo'llarni bukish va roslash), tezkor-kuch tayyorgarlik (joyidan turib uzunlikka sakrash, egiluvchanlik (oldinga egilish), umumiy chidamlilik (yugurish 1000m), tezkorlik (yuqori startdan yugurish 30m) va koordinatsion qobiliyatlar (mokisimon yugurish 3x10 m).

3-jadval:

Pedagogik tajribadan keyin o'smir yoshidagi taekvondochilarni o'quvchilar belbog'lariga attestatsiya qilish natijalari

Parametr	Bo'lim			
	Nazariya	Texnika	UJT	Umumiy baho
Nazorat guruhi, n=13	4,0±0,08	4,1±0,06	4,1±0,07	4,06
Tajriba guruhi, n=12	4,7±0,05	4,9±0,07	4,8±0,05	4,8
Farqi	-0,7	- 0,8	-0,7	- 0,74
R	< 0,05	< 0,01	< 0,01	< 0,01

Quyidagi 4-jadvalda keltirilgan natijalar, tajriba guruhidagi o'g'il bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarliklari darajasi, pedagogik tajribadan keyin, barcha ko'rsatkichlari bo'yicha

yuqori bo'ldi. Bunda, ularning uchtasi bo'yicha farqlar statistik ishonchli bo'ldi.

4-jadval.

Pedagogik tajribadan keyin o'smir yoshidagi taekvondochilarning umumiy jismoniy tayyorgarliklarini attestatsiya qilish natijalari

Parametr	Mashq					
	qo'llarni tayanchda bukish	joyidan turib uzunlikka sakrash, sm	oldinga egilish, sm	yugurish 1000 m,s	yugurish 30 m, s	yugurish 3x10 m, s
Nazorat guruhi	22,3±1,1	156,9±1,5	2,8±0,1	244±3,7	5,3±0,1	7,98±0,2
Tajriba guruhi	30,1±1,1	173,5±1,9	3,1±0,08	240±3,2	4,8±0,1	7,75±0,1
Farqi	-7,8	-16,6	-0,3	0,04	0,46	0,23
R	< 0,001	<0,05	>0,05	>0,05	<0,05	>0,05

Xulosa va takliflar. O'smir yoshidagi taekvondochilarni o'quvchilar belbog'lariga attestatsiyaga tayyorlash bo'yicha o'quv – mashg'ulot jarayonini individuallashtirishning ishlab chiqilgan pedagogik shartlari, o'zining samaradorligini ko'rsatdi.

Olti oylik pedagogik tajriba natijasida, individual yondashish, tajriba guruhining yosh taekvondochilariga statistik ahamiyatli darajada o'z yengdoshlaridan attestatsiya natijalari bo'yicha ham va umumiy jismoniy tayyorgarliklarini majmuaviy testlashning ko'pchilik ko'rsatkichlari bo'yicha ham yuqori bo'lishlariga imkoniyat yaratdi. Tajriba guruhida, ikki nafar yosh sportchi, olti oy ichida attestatsiyaning ikkita pog'onasidan muvaffaqiyatli o'tishdi va qolgan barchalari o'z toifalarini oshirishdi. Nazorat guruhida faqat 80% bolalar attestatsiyadan o'tishdi va o'z malakalarini oshirishdi.

Tahliliy obzor ma'lumotlarining ko'rsatishicha, eng adekvat metodologik yondashuv – o'smir yoshidagi taekvondochilarni o'quvchilar belbog'iga attestatsiyaga tayyorlashning o'quv - mashg'ulot jarayoni samaradorligini oshirish yo'llarini tadqiq qilishga shaxsli faoliyatli yondashuv bo'lishi mumkin. Taekvondochilar faoliyatini va ularning texnik arsenalini tahlil qilish, asosiy harakatlarning operatsion tarkibini aniqlashga imkoniyat berdi.

Adabiyotlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish, tadqiqotchilar va amaliyotchi pedagoglarni shug'ullanuvchilarga

bo'lgan individual yondashuvlarini kengaytirish va chuqurlashtirishning katta imkoniyatlarini ko'rsatdi. Bir tomondan, ta'lim va tarbiyaning deyarli barcha usullari, metodikalari va metodik usullari individuallashtirilishi kerak. Bu, ilmiy-metodik adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar, ilg'or pedagogik tajribani umumlashtirish bilan ham va bizning tajriba tadqiqotlarimiz natijalari bilan ham tasdiqlanadi. Boshqa tomondan, shug'ullanuvchilarning iste'dodlarini, qobiliyatlarini va moyilliklarini har tomonlama hisobga olish asosida, ularga individual yondashishni qo'llash, ularni mos ravishdagi sport faoliyati bilan faol shug'ullanishga motivatsiya qildiradi va shu tufayli, o'quv - mashg'ulot va tarbiya jarayonlarini ijtimoiylashtirishga ko'maklashadi.

Nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning natijalari, muammoning borgan sari katta dolzarbligini tasdiqlaydi. Bir tomondan, u, individuallashtirishni shug'ullanuvchilarning individual-tipologik va yosh-jins xususiyatlarini ancha to'liq konstatatsiya qilish va hisobga olishdan, bolalarning individual xususiyatlarini o'zini o'rganishga va tarbiyalashga yo'naltirilgan, yanada chuqurligi bilan belgilanadi. O'quv - mashg'ulot va tarbiya jarayonini boshqa istiqbolli yo'nalishi, bizning nazarimizda, trenerlarni, individuallik xususiyatlarini diagnostikasi va individual yondashuv metodikalarini o'zlashtirish masalalari bo'yicha o'qitish va trenirovka qildirish bilan bog'liq.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-sonli «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-sonli «Ta'lim to'g'risida» qonuni.
3. Abdurasulova G.B., Nuritdinova Sh.N., Tajibayev S.S., «Taekwondo nazariyasi va uslubiyati» Darslik. Toshkent «Turon-Iqbol» 2015 u. 563 b.
4. Abdurasulova G.B., Nuritdinova Sh.N., Tajibayev S.S., Raxmatov B.Sh., Taekwondo nazariyasi va uslubiyati». Darslik. - Toshkent-2018. - 563 bet.
5. Lim A.V. Fetisova N.A Organizatsiya i provedenie sorevnovaniy po Taekwondo VTF (kyurugi). Metodicheskoe posobie. g. T.: 2009 god 28 s.
6. Ligay. Put' k sovershenstvu. Tashkent, «SHark» 1994 g. 159 s.
7. Babak Yu.M., Konstantinova E. Taekwondo: Metodicheskoe posobie Kiev: 2010 g. 88 s.
8. wtuzbekistan@hotmail.com
9. <http://m.worldtaekwondo.org/rules-wt/rules.html>



UDK: 94(575.12),043.3.

Abdujabbor NURMATOV,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti dosenti v.b, PhD.
E-mail: abdujabbor.nurmatov@mail.ru
Abdumalik NURMATOV,
Namangan muhandislik-texnologiya instituti talabasi
E-mail:abdumalik@gmail.com

NamDU "Tarix" kafedrasida dosenti, PhD. U.Mansurov taqrizi ostida

IN THE 80S OF THE TWENTIETH CENTURY, THE STATE OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN, ITS PROBLEMS AND THE IMPACT ON THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION

Annotation

This article discusses the centralized economic policy pursued in Uzbekistan in the 80s of the twentieth century and its negative impact on the standard of living of the population. In the development of the economy of Uzbekistan for many years, the policy pursued on the basis of the Soviet economic model without taking into account the opportunities and interests of the republic, and as a result of this, the problems in the economy have become aggravated, intensified every year and negatively affected the standard of living of the population.

Key words: Economy, centralization, standard of living, cotton monopoly, industry, extensive, intensive, acceleration, "perestroika".

В 80-Е ГОДЫ XX ВЕКА СОСТОЯНИЕ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА, ЕЕ ПРОБЛЕМЫ И ВЛИЯНИЕ НА УРОВЕНЬ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ

Аннотация

В данной статье проводится централизованная экономическая политика, проводимая в Узбекистане в 80-х годах XX века и ее негативное влияние на уровень жизни населения. В развитии экономики Узбекистана на протяжении многих лет политика проводимая на основе советской экономической модели без учета возможностей и интересов республики, и как следствие этого обострились проблемы в экономике, с каждым годом усиливались и негативно сказывалось на уровне жизни населения.

Ключевые слова: Экономика, централизация, жизненный уровень, хлопковая монополия, промышленность, экстенсивная, интенсивная, ускорение, «перестройка».

XX ASRNING 80-YILLARIDA O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI HOLATI, MUAMMOLARI VA UNING AHOLI TURMUSH DARAJASIGA TA’SIRI

Аннотасија

Mazkur maqolada XX asrning 80-yillarida O‘zbekistonda olib borilgan markazlashtirilgan iqtisodiy siyosat va uning aholi turmush darajasiga salbiy ta’siri. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda yillar mobaynida sovet iqtisodiy modeli asosida respublikaning imkoniyat va manfaatlarini inobatga olmasdan olib borilgan siyosat va buning oqibatida iqtisodiyotda o‘z yechimini kutayotgan o‘tkir muammolarning yildan-yilga ortib borishi va aholi durmush darajasiga salbiy tasiri kabi masalalar yoritib berilgan.

Kalit so‘z: Iqtisodiyot, markazlashtirish, aholi turmush darajasi, paxta monopoliyasi, sanoat, ekstensiv, intensiv, jadallashtirish, "qayta qurish".

Kirish. Jamiyat taraqqiyotida aholi turmush darajasi va farovonligini ta'minlab borilishi mamlakat rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Har bir davlat o'zining iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, aholi turmush darajasi va sifatini davriy taraqqiyotga hamohang tarzda takomillashtirib borish borasidagi ijtimoiy yo'naltirilgan dasturlarni hayotga tatbiq etib boradi. Shuning uchun ham dunyo mamlakatlarida aholining turmush darajasi turli ko'rsatkichlarga ega. Aholining turmush darajasi va sifat ko'rsatkichlari mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining natijasidir. Aholi turmush darajasi va sifat ko'rsatkichi bevosita davlatning iqtisodiy imkoniyatlariga, shuningdek, bu borada olib borgan siyosatiga ham bog'liq. Shuning uchun ham aholi turmush darajasi va sifati turli davrlarda turli ko'rsatkichlarga ega bo'lgan.

Jumladan, XX asrning 80-yillari oxirlari kelib sobiq Ittifoq va uning tarkibida bo'lgan O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalaridagi tanglik oqibatlari tobora kuchayib, mamlakat hayotining barcha sohalarini qamrab oldi. Bu,

o'z navbatida, aholi turmush darajasi, ishlab chiqarish sur'atlari, mehnat unumdorligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yillar mobaynida mavjud imkoniyatlarni hisobga olmasdan ishlab chiqilgan ko'plab dasturlar amalda ko'zlangan natijalarni bermadi. Aksincha, keyingi davrlardagi iqtisodiy ziddiyatlarining yanada ortib borishiga olib keldi. XX asrning 80-yillaridan boshlangan inqiroz holati, ayniqsa 1980-yil o'rtalariga kelib barcha sohalarida yaqqol namoyon bo'la boshladi.

Jahonning rivojlangan davlatlari ushbu davrda tobora yuksalib borayotgan ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanib, ko'plab sohalarida intensiv taraqqiyot yo'liga kirib bordi. Sobiq Ittifoq va uning respublikalari bu jarayonlardan nisbatan orqada qoldi. Albatta, buning o'ziga xos sabablari mavjud edi.

Birinchidan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining kuchli qaror toptirilishi, xalq xo'jaligi va boshqa sohalariga partiyaviy rahbarlik hamda uning mafkuralashtirilishi iqtisodiyotni isloh qilish yo'lidagi urinishlarni yo'qqa chiqardi. Ikkinchidan, sanoat korxonalarini joylashtirishdagi muammolar va ularning moddiy-texnik bazasi hamda malakali kadrlar bilan ta'min-

lashdagi qoloqliklar, ishlab chiqarish texnologiyalarining zamon talablaridan orqada qolishi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning miqdor va sifat jihatidan pasayishiga, ular ko'p holatlarda sotilmay omborlarda to'planib qolishi oqibatida iqtisodiy zarar ortib borishiga olib keldi. Shuningdek, sovet davrida shakllangan sarf-xarajati cheksiz markazlashgan "rejali iqtisod" tizimi iqtisodiyotni zaiflashuviga olib keldi.

Uchinchidan, respublikalarning imkoniyat va manfaatlarini inobatga olmasdan olib borilgan siyosat natijasida respublikalar iqtisodiyotini izchil tarzda bir-biriga bog'lab qo'yilishi, ishlab chiqarish tarmoqlaridagi ekstensiv yo'lning xaddan ortiq darajada ustunligi, ishlab chiqarishda ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish darajasining pastligida, to'rtinchidan esa hududlarning demografik xususiyatlariga yetarli e'tibor qaratilmaganligi kabi omillarda ko'rish mumkin.

1980-yil o'rtalariga kelib ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi inqiroz nafaqat respublikalarda, balki sobiq Ittifoqning o'zida ham yaqqol sezila boshlagan. Chunki, ushbu davrga kelib aholi turmush darajasi, o'rtacha umr kechirish yoshi, xususan, bolalar o'limi, aholini keng iste'mol mollari va xizmatlar bilan ta'minlanish bo'yicha SSSR nafaqat rivojlangan, balki, taraqqiyoti o'rtacha darajadagi kapitalistik mamlakatlardan ham ancha orqada qolib ketdi[1]. Bunday omillar haqli ravishda serxarajat sovet iqtisodiyotida tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etardi.

XX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlab sovet jamiyatidagi mavjud inqiroz holatidan chiqarish hamda mamlakat hayotining barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish maqsadida olib borilgan "Qayta qurish" siyosati ham amalda ko'zlangan natijalarni bermadi. Qayta qurish siyosati go'yoki ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish va ijobiy yutuqlarga olib boruvchi yo'l deb qaraladi. Biroq, mamlakatdagi real ahvolning murakkabligini chuqur anglab yetmaganliklari ularning keyingi (Qayta qurish) siyosatlarida ham o'z aksini topgandi. Jumladan, iqtisodiyotni rivojlantirishda, umuman ko'plab sohalarida Markazning rahbarlik roli va markazlashtirish siyosatidan amalda voz kechilmadi. Bu keyingi yillarda ham sosializm "afzallik"laridan foydalangan holda jamiyatni rivojlantirishga umid bog'lash edi. Ammo, bularning barchasi real hayotda o'z samarasini bermadi. Chunki, qaror topgan mavjud tizimdan voz kechmagan holda o'tkazilgan qayta qurish siyosati bilan ham ko'zlangan natijalarga erishib bo'lmasdi va amalda ham shunday bo'ldi. Aksincha, qayta qurish yillarida mablag'larni samarasiz yo'naltirilishi sarf-xarajatlar miqdori keskin ko'payib ketishi davlat byudjetiga katta zarar keltirdi. Masalan, 1985-1988-yillar bitmagan qurilishlar 38 mlrd. so'mga ko'payib, 1988-1989-yillarda o'rtacha maoshning o'sish darajasi milliy daromadning o'sishidan uch marta oldinlab ketdi. 1988-yilga kelib "muzlatib qo'yilgan" qurilishlar bahosi 24 mlrd.ga yetgan holda o'nlab vazirliklar 59 mlrd. so'mlik qurilishlarni boshlab yuborgan[2].

Ushbu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarida sodir bo'lgan muammolar o'z navbatida O'zbekiston uchun salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Respublikaning katta boyliklar, ishlab chiqarish imkoniyatlari, qulay tabiiy sharoitlarga ega bo'lishiga qaramasdan, asosiy iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha ittifoqdosh respublikalar orasida eng oxirgi o'rinlardan biriga tushib qoldi. Albatta, bunday tanglik holatiga tushib qolishi aynan XX asrning 80-yillari o'rtalariga

kelibgina o'z-o'zidan vujudga kelgan emas, balki uning tub ildizlari mavjud bo'lib, ular yillar davomida respublika imkoniyat va manfaatlarini inobatga olmasdan olib borilgan siyosat natijasida yuzaga kelgan edi.

Mohiyatiga ko'ra Ittifoq respublikalarini iqtisodiy birlashtirish ostida ham iqtisodiy, ham siyosiy maqsadlar qaror toptirildi. Natijada, mintaqalararo aloqalarda shunday bir zanjir vujudga keltirildiki, unda respublikalarning emas, balki markazning manfaatlari aks ettirildi. Ittifoq tarkibidagi respublikalarni ma'lum bir soha bo'yicha ixtisoslashtirish siyosati amalga oshirilib, unga ko'ra iqtisodiy rayonlarga bo'lingan sobiq sovet respublikalari "bir mahsulotni, ba'zan mahsulotning bir turini, hatto mahsulotning ma'lum bir qismini ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerak edi"[3]. Shuning uchun ham respublikalarning bir qismi xom ashyo yetishtiruvchi, boshqalari esa sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi hududlarga ixtisoslashtirildi.

O'zbekiston, asosan, paxtachilikka ixtisoslashtirilishi oqibatida paxta ekin maydonlari yildan-yilga ko'paytirib borildi. Mamlakatdagi ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimi iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishda, asosan, ekstensiv yo'ldan bordi. Buning oqibatida ortiqcha yerlarning o'zlashtirilishi, mavjud resurslardan samarasiz foydalanish va isrofgarchilikka olib keldi. Xo'jalik yuritishda ekstensiv usul va qo'l mehnatining ustunligi hosildorlik darajasi past bo'lishiga hamda sarf-xarajatlar miqdori keskin ortib borishiga sabab bo'ldi. Paxta yakkahokimligi shu darajada kuchaytirib borildiki, hatto paxtadan ko'ra boshqa ekin turlarini ekib samaraliroq foyda olish mumkin bo'lgan qishloq xo'jalik ekinlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmadi. Qolaversa, O'zbekistonda yetishtirilgan paxtaning 93 foizi respublikadan tashqarida qayta ishlangan[4]. Tabiiyki, undan keladigan daromad respublika aholisi manfaatlariga xizmat qilmagan. Bunday yondashuv asosida shakllantirilgan siyosat oqibatida O'zbekiston katta iqtisodiy imkoniyatlariga qaramay markazdan ajratiladigan moliyaviy "yordam" hisobiga yashovchi xalqqa aylantirib qo'yildi. Vaholanki, O'zbekistondan olib chiqib ketilgan birgina paxtaning o'zidan, shuningdek, oltin, (Masalan, har yili Ittifoqda ishlab chiqarilgan oltinning 50 %ga yaqini O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelgan. Ammo respublika budjetiga uning qiymatidan atigi 1 %i[5] o'tkazilgan), mo'yna, qorako'l terisi, pilla kabilardan ham bir necha mlrd.ga teng daromadlarga ega bo'lingan. O'zbekistondan olib ketilgan bir yillik paxta tolasining o'zidan 25 mlrd. rubl daromad olinib, respublikaga 2,5 mlrd. rubl berilgan[6].

O'zbekiston sobiq Ittifoq respublikalari orasida xom ashyo yetkazib berish bo'yicha yetakchi o'rinlarda bo'lgan bo'lsa-da, aholi jon boshiga milliy daromad hosil qilish, sabzavot-poliz mahsulotlarini iste'mol qilish bo'yicha, ittifoqdosh respublikalar ichida 5-o'rinni, meva va rezavor mevalar iste'moli bo'yicha 13-o'rinni egallagan[7]. Yillar mobaynida iste'mol mahsulotlarini mahalliy ishlab chiqarish darajasining past holda tashkil etilganligi tufayli aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan ko'plab turdagi tovar-mahsulotlar respublika tashqarisidan keltirish hisobiga ta'minlab kelindi. Jumladan, O'zbekistonga har yili 6 mln. tonna atrofida don, 350 ming tonna qand, 146 ming tonna go'sht va go'sht mahsulotlari, 800 ming tonna atrofida sut keltirilgan[8]. Garchi, raqamlarda bir necha mln. tonnalar aks etsada, ular aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun yetarli miqdorda bo'lmagan.

1-jadva:

Aholi jon boshiga ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi (O'rta Osiyo respublikalari misolida, yiliga kg. hisobida)[9].

	Go'sht va go'sht mahs, kg		Sut va sut mahs, kg		Tuxum, dona		Baliq kg		Sabzavot va poliz mahs, kg	
	1980	1990	1980	1990	1980	1990	1980	1990	1980	1990
Yillik norma*	82		405		292		18,2		146	
SSSR bo'yicha o'rtacha miqdori	58,0	67,0	314	358	258	239	16,5	17,6	92	97
O'zbekiston	31,0	32	185	210	120	90	4,9	4,4	107	116
Qozog'iston	56,0	64	275	286	228	206	9,9	10,2	89	84
Qirg'iziston	38,0	44	177	237	133	108	6,1	5,9	90	74
Tojikiston	32,0	31	164	154	154	79	2,9	2,9	83	95
Turkmaniston	44,0	43	174	187	98	87	4,2	4,2	113	105

*Izoh: SSSR Medidsina Fanlar akademiyasi Oziq-ovqat institutining ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyasiga binoan aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishning yillik normasi.

Aholi moddiy ta'minotidagi bunday holatni go'yoki markaz tomonidan tushunganday bo'lsalarda, ijobiy o'zgarishlar yasalmadi. Jamoa xo'jaliklari a'zolarining oylik ish haqlari past darajada bo'lib, aholining turmush darajasi, xarid quvvati, tibbiyot xizmati kabi masalalarga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xususan, 1989-yilda jami aholi jon boshiga hisoblaganda oyiga o'rtacha 75 so'mgacha jami daromad olganlar aholining 44 foizini, oyiga 100 so'mdan ortiq olganlar 34 foizni, 150 so'mdan ortiq olganlar 11 foizni tashkil etgan[10]. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, kun kechirish uchun o'sha yillarda kamida 85 so'm zarurligini e'tiborga olinadigan bo'lsa, mamlakatimiz aholisining deyarli yarmi faqatgina moddiy ehtiyojlarini qondirish bilan cheklangan. Sovet Ittifoqi bo'yicha 1988-yilda 17,2 % aholi jon boshiga 200 so'mdan ortiq daromad olgan holda, respublikalar bo'yicha bu ko'rsatkich turlicha: Ukrainada – 14 %, Litvada – 24 %, Latviyada – 28,3 %, Estoniyada – 33,6 %, O'zbekistonda – 2,8 %ni tashkil etgan, xolos[11].

XX asrning 70-yillaridan 80-yillari o'rtalarigacha respublikada sanoatning xalq iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi filiallari ishga tushirilib ularning soni 1986-yilga kelib 350 tadan oshdi. Ammo, ushbu davr mobaynida qurilgan sanoat korxonalarini joylashtirishda ko'p hollarda hududlardagi mehnat, xom ashyo va boshqa resurslarini hisobga olmasdan, ishlab chiqarish quvvatlarini asosan ekstensiv usulda shuningdek, ma'lum bir hududga zo'r berib ko'paytirib borildi. Bu jihatdan respublikada Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Farg'ona vodiysi shaharlari alohida axamiyatga ega bo'lgan. Ushbu hududlarda respublika sanoat mahsulotlarining qariyib 64,3 foizini ishlab chiqarilgan[12]. Boshqa viloyatlar esa zarur resurs va imkoniyatlarga ega bo'lsada, sanoat rivojlanishidan orqada qoldi.

Davlat tomonidan katta kuch va mablag' sarflanishiga qaramay ishlar asosan shahsiy manfaatdorlik yo'lidagi urinishlar va o'zgarishlarga emas, balki jamoaviy ishtiyotqa suyanilishi oqibatida insonlardagi ishtiyot yildan-yilga so'nib borishiga, jamoa mulkiga bo'lgan munosabat esa yuzaki xarakterga ega bo'lishiga olib keldi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mehnat unumdorligi darajasi bo'yicha ham O'zbekiston past o'rinlarda bo'lgan. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini respublikalararo bog'lab qo'yilishi eng katta muammo va kamchiliklardan biri bo'ldi. Chunki, XX asr 80-yillaridan boshlab sanoat korxonalariga xom ashyo yetkazib berishda respublikalar o'z majburiyatlarini bajarishga, qo'shib yozish kabi illatlar ishlab chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu, o'z navbatida belgilangan rejalar bajarilmasligi va o'sib borayotgan aholi ehtiyojlarini qondirishdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

Tadqiq etilayotgan davrdagi eng asosiy muammolardan biri – bu ishsizlik masalasi bo'lib, yillar davomida mehnat resurslarining o'sishi aholi soni o'sishidan orqada qolishiga bu esa aholi orasida ishsizlar soni va kambag'allik darajasi ortib borishiga olib keldi. Sovet davrida sanoat quvvatini oshirish intensiv usullar bilan emas, balki ekstensiv usullar (yangi sanoat ob'yektlarini qurish, ishlab turgan sanoat ob'yektlarini qayta qurish va kengaytirish) asosida amalga oshirib borildi. Ko'p holatlarda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish asosan ekstensiv omillar hisobiga, ma'lum bir qismigina mehnat unumdorligini oshirish hisobiga amalga oshirilgan. O'zbekiston hududida joylashgan sanoat korxonalarining aksariyatida o'rnatilgan texnologik dastgohlar va asbob-uskunalarining ko'pi eskirib, yaroqsiz ahvolda kelib qolgan edi. Jumladan, mustaqillik arafasida respublikadagi 1500 ta sanoat korxonasidan 900 dan ortig'i texnik jihatdan qayta qurish va rekonstruksiya qilishni talab etardi[13]. Qolaversa, bir qator sanoat tarmoqlarida qo'l mehnatining ulushi 40 – 70 %ni tashkil etgan. Agar, fan-texnika taraqqiyoti O'zbekiston sanoatida mehnat unumdorligini faqat 35 – 40 %ga oshirishni ta'minlagan bo'lsa, ko'plab ittifoqdosh respublikalarda bu ko'rsatkich 70 %dan[14] kam bo'lmagan. Mahsulot ishlab chiqarish hamda kapital qurilishning barcha asosiy turlarini markaz tomonidan boshqarilishi, taqsimlab berilishi, respublikalarning o'z ichki muammolarini hal qilishdagi huquqlarini cheklab qo'ygan edi. Masalan, O'zbekiston sanoatida mahsulotning salkam 10 foizini respublika, qolgan 90 foizini esa umumittifoq organlari rejalashtirgan[15].

Fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, intensiv usullarni keng tatbiq etish orqali belgilangan rejalarini bajarish mahsulot sifatini yaxshilashda ijobiy o'zgarishlar yasay olmadi. Ko'plab korxonalarda ishlab chiqarish uskunalari juda sekinlik bilan almashtirib borildi. Agar 1980-yilda sanoat asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi 36 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1988-yilga kelib bu ko'rsatkich 45 foizga yetgan[16]. Bu sanoat korxonalaridagi har ikki mehnat vositasidan deyarli bittasi eski ekanligini anglatadi. Korxonalaridagi bunday texnologik ta'minot ishlab chiqarish hajmi va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmagan. Ammo bu jarayonlarga sovet iqtisodiy tizimiga xos bo'lgan xususiyatlar, xususan, fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanish va ishlab chiqarishga tatbiq etish, intensiv usullarni keng joriy etish masalalariga yetarlicha imkon yaratib bermadi. Oqibatda, sanoat korxonalarini faoliyati uchun muhim hisoblangan yangi texnika va texnologiyalarni ixtiro qilish hamda ishlab chiqarishga tatbiq etib borish sekinlik bilan amalga oshirildi. Bunday holatlar O'zbekistondagi mavjud sanoat korxonalarini

ning aksariyatida moddiy-texnik bazasi qoniqarsiz ahvolga tushib qolishiga, ishlab chiqarish texnologiyalarining salmoqli qismi eskirishiga olib keldi. To'g'ri, korxonalarda texnologik yangilanish ishlari ham olib borilgan. Lekin, aksariyat sanoat korxonalarida texnika va texnologiyalarining yangilanish foizlari chiqib ketish foizlariga nisbatan anchagina past darajada bo'lgan. Bu shundan dalolat beradiki, korxonalaridagi texnika va texnologiyalarining ma'lum qismi yangilangan holda, aksariyat qismidan esa yangilanmagan holda foydalanish davom ettirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asrning 80-yillari O'zbekistondagi iqtisodiy holat va aholi turmush darajasi masalalarini Ziyodullayev S., Yusupov E., Tulenov J., G'ofurov Z., Aminova R., Osminin V., Muhammadjonov M., To'xliyev N., Raupov X., Abdullayev A., Bobojonova D., Yunusova X., Rahmatullayev Sh., Qobulov V., Q. Rajabovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda tarixiylik, qiyosiy, miqdoriy va tizimli tahlil, metodlaridan foydalangan holda tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Sovet hokimiyati tomonidan yillar davomida iqtisodiy taraqqiyotning ob'yektiv qonuniyatlariga zid ravishda respublikalarning real imkoniyatlarini hisobga olmasdan olib borgan siyosati keyingi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa sohalarida tanglik holatini keltirib chiqardi. Xususan, O'zbekistonning paxtadan ko'ra boshqa qishloq ho'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qulay sharoitga ega bo'lishiga qaramay, unga e'tibor qaratilmadi. Natijada, aholining turmush darajasi qoniqarsiz ahvolga tushib qolishiga olib keldi. Mamlakat hayotining barcha sohalarida keskin ijobiy o'zgarishlar yasay olishi kutilgan "Qayta qurish" siyosati demokratlashtirish va

oshkoralikka ma'lum darajada yo'l ochib bergan bo'lsada, mamlakat hayotida tub burilish yasay olmadi

Yillar davomida to'planib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, agrar sohalaridagi muammolar va yo'l qo'yilgan xatoliklar hudud manfaatlarini hamda imkoniyatlarini yetarli darajada inobatga olmasdan olib borilgan siyosat oqibatida XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib O'zbekiston aholisining turmush darajasidagi muammolarni keltirib chiqardi. Sanoat korxonalarini moddiy-texnik bazasining zamon talablari darajasidan orqada qolishi natijasida mahsulot ishlab chiqarishning miqdor va sifat jihatidan orqada qolishiga olib keldi.

Xulosa va takliflar. Sobiq Ittifoq davrida olib borilgan markazlashgan rejali iqtisodiyot tizimi iqtisodiy, ijtimoiy hayotni samarali tashkil etish imkonini bermadi. Aksincha, yillar mobaynida iqtisodiy taraqqiyotning ob'yektiv qonuniyatlariga zid ravishda olib borilgan siyosat va bu borada yo'l qo'yilgan hatoliklar keyingi yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy, agrar, ekologik sohalaridagi inqirozning kuchayib borishiga olib keldi. Umumittifoq mehnat taqsimotiga asosan O'zbekistonning mavjud imkoniyat va manfaatlarini hisobga olmay, xalq xo'jaligini xom ashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi va bu holat o'z navbatida aholi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Sanoat quvvatini oshirishda, asosan, ekstensiv yo'ldan borilganligi, yangi sanoat korxonalarini barpo etish va tarmoqlarini kengaytirish bilan uzviy tarzda yuqori malakali ishchi kadrlar tayyorlashga hamda moddiy-texnik bazasiga yetarli e'tibor qaratilmaganligi mahsulot ishlab chiqarishning miqdor va sifat jihatidan orqada qolishi, shuningdek, aholining ushbu soha mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashdagi kiyinchiliklarni keltirib chiqardi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). Ikkinchi kitob / Ma'sul muharrirlar: Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 159.
2. Qobulov V. Qayta qurish davri fojialari // Fan va turmush. 1991. – № 9. – B. 10.
3. Ziyodullayev S. O'zbekiston ekonomikasining regional problemalari. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 8.
4. Aminova R. Qayta qurish sharoitida O'zbekistonda sosial rivojlanishning dolzarb muammolari. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 16.
5. <http://www.centrasia.org/newsA.php?st=1210739760> Сиф: Хлопковое дело в Узбекистане. Как это было (история). Часть 1-я)
6. Azizxo'jayev A. Chin o'zbek ishi. – Toshkent: Akademiya, 2003. – B. 7.
7. Osminin V. O'zbekiston SSR ekonomikasini qayta qurish asosida rivojlantirishning yakun hamda problemalari // O'zbekiston kommunisti. 1988. – №11. – B. 20.
8. Yusupov E., Tulenov J., G'ofurov Z. Milliy masala bo'yicha falsafiy suhbatlar. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 31.
9. Зиядуллаев С.К. Прогнозирование экономического развития Узбекистана в условиях перехода к рыночной экономике. – Ташкент: Ўзбекистон, 1993. – С. 39; Юсупов К. Озиқ-овқат программаси амалда. – Тошкент: Ўзбекистон, 1984. – Б. 7.
10. O'zbekiston o'n ikkinchi besh yillikda. Qisqacha statistik to'plam. – Toshkent: O'zbekiston, 1990. – B. 37.
11. To'rayev R. Maoshingiz yetarlimi // Fan va turmush. 1990. – № 4. – B. 6-7.
12. Bekmetov E. Xalqlar hamkorligi va iqtisodiy aloqalar. – Toshkent: Mehnat, 1992. – B. 84.
13. O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar). Ikkinchi kitob / Ma'sul muharrirlar: Abdullayev R., Raximov M., Rajabov Q. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B. 430.
14. To'xliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. Savollar va javoblar. – Toshkent: O'zbekiston, 1991. – B. 55.
15. Зиядуллаев С.К. Прогнозирование экономического развития Узбекистана в условиях перехода к рыночной экономике. – Ташкент: Ўзбекистон, 1993. – С. 59.
16. To'xliyev N. Bozorga o'tishning mashaqqatli yo'li. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 88.



Mavluda NURMETOVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti
E-mail: mavluda_91@mail.ru

S.f.n. F.Usarova taqrizi asosida

THE EFFECTIVENESS OF POLITICAL MEDIATION IN RESOLVING INTERNATIONAL CONFLICTS (IRANIAN HOSTAGE CRISIS CASE)

Annotation

This article is focused on the phenomenon of political mediation, which is considered to be one of the diplomatic tools used to resolve conflicts between states in international relations. Referring to the theory of international mediation, the author analyzes factors, which have an impact on the effectiveness of mediation. For this purpose, the case of the Iranian hostage crisis, in which Algeria acted as a mediator between the USA and Iran, has been chosen as an example.

Key words: International relations, international conflict, political mediation, mediator, USA, Iran, Iran hostage crisis, effectiveness, success.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОЛИТИЧЕСКОЙ МЕДИАЦИИ В РАЗРЕШЕНИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ (НА ПРИМЕРЕ ИРАНСКОГО КРИЗИСА С ЗАЛОЖНИКАМИ)

Аннотация

В данной статье рассматривается феномен политической медиации, которая является одним из дипломатических инструментов, используемых для разрешения политических конфликтов между государствами в международных отношениях. Обращаясь к теории международной медиации, автор акцентирует внимание на анализе факторов, влияющих на эффективность медиации. В качестве примера выбран кейс Иранского кризиса с заложниками, в котором Алжир выступил медиатором между США и Ираном.

Ключевые слова: Международные отношения, международный конфликт, политическая медиация, медиатор, США, Иран, Иранский кризис с заложниками, эффективность, успех.

XALQARO NIZOLARNI HAL QILISHDA SIYOSIY MEDIATSIYANING SAMARADORLIGI (ERON GAROVI INQIROZI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalqaro munosabatlarda davlatlar o'rtasida vujudga keladigan nizolarni yechishda, dunyoda tinchlik o'rnatishda qo'llaniladigan diplomatik vositalardan biri bo'lgan mediatsiya fenomeni to'g'risida so'z yuritiladi. Muallif xalqaro mediatsiya nazariyasiga murojaat qilgan holda, mediatsiya samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilishga o'z e'tiborini qaratadi. Shu maqsadda Eron garovi inqirozi paytida AQSh va Eron davlatlari o'rtasida Jazoir mediatorlik qilgan siyosiy jarayon keys sifatida tanlanib, uning muvaffaqiyatli natijaga erishishiga asos bo'lgan sabablar yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro munosabatlar, xalqaro nizo, siyosiy mediatsiya, mediator, AQSh, Eron, Eron garovi inqirozi, samaradorlik, muvaffaqiyat.

Kirish. Davlatlar o'rtasida vujudga keladigan nizolar xalqaro munosabatlarning o'ziga xos fenomeni bo'lib, ularsiz insoniyat tarixi va kelajagini tasavvur qilib bo'lmaydi. Tarixdan ma'lumki, nizolarni hal qilishda, asosan, uchta usuldan foydalanib kelinmoqda: 1) kuch ishlatish; 2) muzokaralar; 3) uchinchi tomonga murojaat qilish. Xalqaro nizoga yechim izlash jarayonida birinchi va ikkinchi usullar ish bermagan vaziyatda, davlatlar uchinchi tomonga yordam so'rab murojaat qilishadi yoki uchinchi tomonning nizoni yechishga yordam berish taklifini qabul qilishadi. Nizoda uchinchi tomonning ishtirok etish shakllaridan biri bu – mediatsiya hisoblanadi. Mediatsiya G'arbda ham, Sharq davlatlarida ham uzoq tarixga ega bo'lsada, uni nazariy jihatdan o'rganish aynan G'arbda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan.

Xalqaro munosabatlarning anarxik xususiyatini, unda "o'yinning umumiy qoidalari" yo'qligini hamda davlatlardan ustun turuvchi va ularni boshqaruvchi oliy organning mavjud emasligini hamda aktorlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklarning doimo yuzaga kelib turishini inobatga olsak, mediatsiya xuddi nizoning o'zi kabi keng tarqalgan va uzoq tarixga ega ijtimoiy fenomen hisoblanadi.

Bugungi kunda ham xalqaro munosabatlarda davlatlar o'rtasida yuzaga kelayotgan yoki uzoq vaqtdan beri o'z

yechimini topmagan nizolar ko'p. Ularni harbiy kuch ishlatmasdan, tinch yo'llar orqali hal qilish muhimdir. Shu jihatdan, xalqaro nizolarni hal qilish usullaridan biri bo'lgan siyosiy mediatsiya va unga tegishli kategoriyalar, qo'llanilish sharoitlari va tartibini, xalqaro maydonda tinchlikni saqlashga qay darajada hissa qo'sha olishini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o'rganish va tahlil qilish tobora muhim va dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Mediatsiya" so'zining etimologiyasiga nazar solsak, u lotin tilidagi "mediare" fe'lidan olingan bo'lib, "o'rtasida bo'lmoq", "o'rtasiga tushmoq" degan ma'nolarni anglatadi [1]. Demak, mediator ikkala tomon o'rtasida o'ziga xos "ko'priq" rolini o'ynaydi.

Xalqaro munosabatlarda mediatsiya bu – nizoga aloqasi bo'lmagan uchinchi tomonning ikki davlat o'rtasidagi nizoga aralashuvi bo'lib, u nizolashayotgan tomonlarning roziligi hamda mediatorning xohish-istagidan kelib chiqib, kuch ishlatmagan holda, ixtiyoriy tarzda, nizoga ikkala tomon uchun maqbul bo'ladigan yechim topish maqsadida, uchinchi betaraf tomon kirib kelganda sodir bo'ladigan jarayondir. Ko'plab olimlar mediatsiyani ikki tomonlama muzokaralarning davomi, deya ta'kidlashadi. Mediatsiyaning yorqin misoli sifatida XX asr boshida rus-yapon urushining tugashini

keltirish mumkin. Urushni to'xtatishda Rossiya va Yaponiya o'rtasida AQSh mediatorlik qilgan. AQSh muzokaralar uchun o'z hududi – Portsmut shahrini taklif qilgan va aynan Prezident Teodor Ruzvelt vositachiligida 1905-yili tinchlik shartnomasi imzolangan. Xalqaro nizolarni boshqarish va hal qilishda mediatsiyaga keyinchalik ham, butun XX asr davomida murojaat qilishgan. 1966-yil Hindiston va Pokiston o'rtasida Toshkent deklaratsiyasining imzolanishi sobiq Sovet Ittifoqi vositachiligida amalga oshirilgan.

Akademik doiralarda xalqaro siyosiy mediatsiyani tadqiq etuvchi olimlar unga turlicha ta'rif beradilar. Masalan, G'arb tadqiqotchilaridan biri Oran Yung fikricha, mediatsiya deganda, ikkala nizolashayotgan tomon o'rtasidagi kelishmovchilikka barham berish maqsadida, nizoga to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lmagan uchinchi taraf amalga oshirgan har qanday xatti-harakat tushuniladi [2]. Bleyk va Mutonlar esa, unga quyidagicha ta'rif beradi: "... boshi berk ko'chaga kirib qolgan muammoga yechim topish maqsadida, dastlab nizoni chuqur o'rganib, har bitta tomon bilan alohida ishlaydigan va o'zaro maqbul yechim taklif qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan uchinchi tomonning vositachilik faoliyati" [3]. Geyl Bingxam ta'kidlashicha, mediatsiya bu – ikki tomonlama muzokaralarda uchinchi neytral tomonning yordamga kelishidir. Neytrallik va betaraflik mediatsiya jarayonida muhim omillar hisoblanadi. Elison Teylor yondashuviga ko'ra, mediatsiya – nizolashayotgan tomonlarning uchinchi taraf ko'magida, mavjud nizoga har ikkala tomon uchun maqbul bo'lgan yechim topish jarayonidir [4].

Aytish joizki, xalqaro munosabatlarda xalqaro siyosiy mediatsiyaga nisbatan barcha tomonidan umumiy tirof etilgan ta'rif qabul qilinmagan, chunki mediator ishtirok etgan har bir nizo keysi noyob va takrorlanmasdir. Zero, ushbu fenomenni o'rganishga o'zining beqiyos hissasini qo'shgan olim Dj. Berkovitch tomonidan taklif etilgan ta'rif hozircha eng mukammali deya e'tirof etiladi: "Mediatsiya – nizoni boshqarish jarayoni bo'lib, u nizolashayotgan tomonlarning o'zaro muzokaralariga aloqador lekin undan farq qiladigan, tomonlarning uchinchi tarafga yordam so'rab murojaat qilishi yoki tashqaridan taklif etilgan yordamni qabul qilishi (yakka shaxs, guruh, davlat yoki tashkilot) va uning yordamida nizo subyektlarining nizoga bo'lgan munosabatini va xatti-harakatini jismoniy kuch ishlatmasdan va qonunga asoslanib majburlamasdan o'zgartirishdir" [5]. Ushbu ta'rif murakkab bo'lishiga qaramasdan, u mediatsiyaning barcha muhim elementlarini o'zida aks ettirgan: 1) nizolashayotgan tomonlar; 2) mediator, ya'ni uchinchi taraf; 3) nizing mohiyati; 4) mediatsiya jarayoni. Sanab o'tilgan omillar birgalikda mediatsiyaning mohiyatini, sifati va samaradorligini belgilaydi hamda nima uchun mediatsiya muvaffaqiyatli bo'lishini yoki samarasiz tugashining sabablarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotni olib borishda tarixiy va keys-stadi metodlaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro munosabatlarda davlatlar o'rtasida kelib chiqadigan yoki davlat ichida hokimiyat uchun kurash maqsadida ro'y beradigan har bir nizo o'ziga xos noyob xarakterga ega bo'lganligi sababli mediator uchun barcha nizoli vaziyatlarda qo'llash mumkin bo'lgan yagona umumiy formula mavjud emas. Shu jihatdan, har bir keys individual yondashuvni talab etadi. Holbuki, mediatsiya fenomeni, uni nizoga uchinchi taraf aralashuvining boshqa shakli – arbitrajdan ajratib turuvchi xususiyatlarga ega, ya'ni, mediatsiyada kuch, majburlash va zo'raonlik ishlatilmaydi, mediatsiya nizolarni boshqarishning ixtiyoriy shakli bo'lib, nizolashayotgan tomonlar uni qabul qilishlari yoki rad etishlari mumkin [6].

Nizolarni tinch usullar orqali yechishning bir shakli sifatida mediatsiyadan, asosan, nizo uzoq vaqtga cho'zilgan va murakkab bo'lsa; tomonlarning o'zaro muzokaralari hech

qanday natijaga olib kelmagan vaziyatda; tomonlarda jismoniy, moddiy va moliyaviy talofotlarni to'xtatish istagi bo'lsa (ayniqsa, harbiy to'qnashuvlar bo'layotgan nizolarda); har ikkala tomon "qotib qolgan" muammoga o'zaro maqbul yechim topish xohish bildirgan paytda foydalaniladi.

Xalqaro mediatsiya tarixida uning samarali yakunlangan keyslari biri bu 1979-1981-yillardagi Eron garovi inqirozida Jazoir mediatorligi hisoblanadi.

Eronda 1979-yili Oyatullo Humayniy g'oyaviy rahbarligida amalga oshirilgan inqilob tarafdorlari o'sha paytda AQShda bo'lgan Shoh Muhammad Rizo Pahlaviyini Eronga qaytarilishini talab qilishgan, biroq AQSh buni rad etgan. Buning natijasida 1979-yil 4-noyabrda bir guruh eronlik talabalar AQSh elchixonasiga hujum qilishgan va elchixonaning 60 tadan ortiq vakillarini garovga olishgan. Eron garovi inqirozi aynan shu voqeadan keyin AQSh va Eron o'rtasidagi yuzaga kelgan diplomatik inqirozdir.

Garovga olingan elchixonaxodimlarining bir nechtasi qochishga muvaffaq bo'lgan, ammo 52 ta amerikalik xodim 444 kun davomida Eronda garovda saqlab turilgan. Ushbu voqea AQSh – Eron munosabatlari tarixida eng mudhish hodisalardan biri bo'lgan. AQSh prezidenti Jimmi Karter garovdagi shaxslarni qaytarishga juda ko'p uringan, ammo ular faqat 1981-yilning 19-yanvarida, Jazoir tomonidan amalga oshirilgan mediatsiya natijasida imzolangan kelishuv asosida ozod etilgan.

1979-yil 4-noyabrda AQSh elchixonasiga hujum qilinganidan keyin deyarli bir yil davomida nizolashayotgan tomonlar o'rtasida hech qanday kelishuvga erishilmadi. 1980-yilning o'rtalariga kelib, muzokaralarga kirishishga hamda nizoni joyidan siljitishga turtki bo'lgan voqealar sodir bo'ldi.

Birinchidan, o'sha paytgacha AQShda yashagan va davolangan Shoh Muhammad Rizo Pahlaviy 1980-yil iyul oyida saraton kasalligidan vafot etdi. AQSh diplomatlari, Shohni javobgarlikka tortish uchun uning Eronga yuborilishini va u AQSh banklariga o'tkazgan aktivlarni qaytarilishini talab qilib garovga olingan edi. Shohning vafoti bilan garovdagi-larni qaytarish uchun qo'yilgan asosiy talab o'z kuchini yo'qotdi.

Ikkinchidan, may oyida Eron parlamenti – Majlisga saylovlar o'tkazildi va 10-sentabrda Eron islom inqilobining rahnamolaridan biri Bosh vazir Muhammad Ali Radjaviy boshchiligida yangi hukumat tuzildi. Oyatullo Humayniy Eronda yangi hukumat tuzilmaguncha garovdagilarni ozod etmasliklarini bildirgan edi, chunki bu unga oppozitsiyaga bosim o'tkazish imkonini berardi. Muhammad Ali Rajaviy Bosh vazir lavozimiga kirishgan kuniyoq Oyatullo Humayniyning safdoshi Sodiq Tabatay G'arbiy Germaniyaning elchisi orqali AQShga murojaat qilgan [7].

Uchinchidan, bu paytga kelib, Eron bilan Iroq munosabatlarida chegara muammosi keskinlashdi. Eron butun e'tiborini shu muammoga qarata boshladi.

Bularning barchasi ikki davlat o'rtasidagi nizoni yechish uchun qulay vaziyat yaratdi. Ammo Oyatullo Humayniy AQSh bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazishni xohlamadi. "Nizo boshlangan paytdan ularga Rim Papasi, BMT, Falastin Ozodlik Tashkiloti, G'arbiy Germaniya, Shveysariya, Suriya, Turkiya, Liviya va Pokiston mediatorlik qilishga urindi, lekin 1980-yil 2-noyabrda Eron Jazoirmi rasman uning AQSh bilan "qonuniy kanali" ekanligini e'lon qildi" [8].

Eron garovi inqirozida Jazoir AQSh va Eron o'rtasida o'ziga xos "ko'prik" vazifasini bajaruvchi mediator rolida ishtirok etdi. Jazoir hukumati tomonidan tuzilgan mediatorlar guruhi quyidagi shaxslardan tashkil topdi: Jazoirning Erondagi elchisi – Abdulkarim Grib, Jazoirning AQShdagi elchisi – Redxa Malek, Jazoir Markaziy bankining rahbari – Segi Mustafoyi va bosh muzokarachi sifatida Jazoir tashqi ishlar

vaziri – Muxammad-Siddik Benyaxia [9]. Mazkur mediatorlar guruhi 1980-yil 10- noyabrdan o'z ishini boshladi, muzokaralar olib borish uchun zaruriyatga qarab goh AQShga, goh Eronga tashrif buyurishdi, ularning vakillarini Jazoirda ham qabul qilishdi. 1981-yil 19-yanvarda Jazoir kelishuvi imzolandi. Unga asosan, AQSh fuqarolari garovdan ozod etildi va Jazoirga uchib ketishdi, 27-yanvarda esa AQShga qaytishdi.

AQSh va Eron o'rtasida aynan Jazoir mediator bo'lgani to'g'risida turli manbalarda turlicha fikrlarga duch kelish mumkin. Garovdagi amerikaliklarni ozod qilish uchun Eron yetakchisi Oyatullo Humayniy talablarini AQSh tomoniga yetkazish uchun uchinchi tomon yordamiga rozi bo'lgan, deydi ba'zi manbalar [10]. Chunki uning o'zi AQSh vakillari bilan yuzma-yuz ko'rishishni xohlamagan. Ba'zi manbalarga ko'ra, Jazoirni mediatorlikka Eron chorlagan, boshqalariga asosan esa, uni AQSh da'vat etgan. Aksariyat manbalar dastlab Jazoirning o'zi ularga vositachi rolida nizoda ishtirok etishni taklif etganligi haqida ma'lumot beradi [11]. Zero, bundan qat'iy nazar, har ikkala tomon ham Jazoir mediatorlik qilishiga rozi bo'lganligiga bir necha omillar sabab bo'lgan:

Birinchidan, Jazoir oldindan xalqaro doirada mediatorlik qilgan hamda bu sohada yetarlicha malaka va tajribaga ega bo'lgan;

Ikkinchidan, Jazoirda yuqori malakali zamonaviy xorijiy xizmat tizimi shakllangan edi;

Uchinchidan, Jazoir bu paytda Eron bilan yaqin do'stona aloqalarga ega edi, AQSh esa uning asosiy savdo hamkorlaridan biri bo'lgan, ya'ni har ikkala davlat ham unga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Masalan, 1980-yilning oktabrida Jazoirda kuchli zilzila sodir bo'lganida, Eron ham, AQSh ham unga gumanitar yordam jo'natgan.

To'rtinchidan, Jazoir ikki xil madaniyat – AQSh uchun ham, Eron uchun ham eng maqbul bo'lgan “madaniy ko'priq” roliga mos nomzod edi.

Zero, nizolashayotgan tomonlarning birorta davlatni mediator sifatida qabul qilishi mediatsiyaning samarali bo'lib, nizoning hal qilinganligini anglatmaydi. Eron garovi inqirozida Jazoir mediatsiyaning muvaffaqiyatli hal qilinishi-da qator omillar rol o'ynagan.

1962-yilda Evian bitimining imzolanihi natijasida Fransiyaning mustaqillikni qo'lga kiritgan Jazoir qo'shilmaslik siyosatini e'lon qilgan davlatlardan biriga aylandi. AQSh va sobiq Sovet Ittifoqi o'rtasida o'zaro Sovuq urush ketayotgan bir paytda kichik davlat uchun bu muhim edi: tamoman bitta davlat yoki guruh ta'siri ostiga tushib qolmaslik. Ushbu omil unga xalqaro munosabatlarda davlatlararo nizolarni boshqarishga yordam bera olish imkoniyatini yaratdi. Shu sababdan, xalqaro munosabatlarda va, ayniqsa, Yaqin Sharqda

Jazoir mohir mediator imidjiga ega bo'ldi. Eron garovi inqirozining muvaffaqiyatli yakunlanishi uning dunyoda tinchlikni saqlashga o'z hissasini qo'shadigan muvaffaqiyatli xalqaro mediator sifatidagi obro'sini yanada oshirdi.

Avvalambor, shuni e'tirof etish lozimki, mediatsiya jarayonida nizolashayotgan tomonlarning mediatorga nisbatan bildirgan ishonchi juda muhim. AQSh va Eronda Jazoirga nisbatan shunday ishonch bor edi.

Eron islom inqilobi tashabbuskori Oyatullo Humayniy 1962-yilgi Jazoir inqirozini qo'llab-quvvatlagan va o'zi ham shundan ruhlangan, shu jihatdan Jazoir din va madaniyat borasida Eronga yaqin edi. AQSh esa Eron inqirozidan oldin ham Jazoirning mediator sifatidagi xizmatidan foydalangan. Jazoir qator xalqaro siyosiy nizolarni hal qilishda mediator sifatida qatnashganligi uchun bu borada yetarlicha tajribaga ham ega edi. Bulardan tashqari, AQSh uchun Jazoir unga bosim o'tkaza olish darajasidagi katta va kuchli davlat emas, balki uning nigohida kichik bir davlat; Eron uchun esa Jazoir, AQSh kabi qudratli davlat oldida uning holatini tushuna oladigan, qo'llaydigan ishonchli hamkor sifatida shakllangan.

Shuningdek, xalqaro munosabatlarda davlatlar uchun ularning “yuzini saqlash” (face-saving), ya'ni obro'sini tushirmaslik juda muhim ahamiyat kasb etadi. Jazoir mazkur mediatsiya jarayonida bu vazifani uddaladi desak, mubolag'a bo'lmaydi, chunki bitta davlatni kuchli, boshqasini zaif demasdan, har ikkalasining manfaatlarini bir xil ravishda himoya qila oldi. “Vositachilik rolini bajarganida, Jazoir nizo boshi berk ko'chaga kirib, muzlab qolmasligining oldini olish maqsadida, tomonlarning bir-biriga qo'ygan, ammo qarama-qarshi tarafga maqbul bo'lmaydigan talablarini imkon darajasida o'z chegarasida yetkazgan yoki bunday xabarni yetkazishdan umuman bosh tortgan” [12].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, xalqaro munosabatlarda uning subyektlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi natijasida nizo kelib chiqishini to'xtatib bo'lmaydi. Bu uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bunday vaziyatda, diplomatik vositalar orqali ularning oldini olish, hal qilish va tomonlarning manfaatlariga mos keladigan yechim topish muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, bunday vositalardan biri, tarixning barcha davrlarida nizolarni hal qilishga o'z hissasini qo'shib kelgan xalqaro siyosiy mediatsiya fenomenini nazariy va amaliy tarzda chuqur o'rganish lozim. Bu, birinchidan, tinchlik o'rnatishga yordam bersa, ikkinchidan xalqaro maydonda mediator davlatning obro'si va imidjini ko'taradi. Markaziy Osiyoning o'rtasida joylashgan O'zbekiston Respublikasi uchun esa, uning tashqi diplomatik faoliyatida zarur paytda mediatsiyani mohirona qo'llashga imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.dictionary.com/browse/mediation>.
2. Sinica Vukovic International Multiparty Mediation and Conflict Management: Challenges of Cooperation and Coordination. Routledge. Taylor and Francis Group. London and New York. 2016. // https://www.researchgate.net/publication/348860694_International_Multiparty_Mediation_and_Conflict_Management_Challenges_of_Cooperation_and_Coordination.
3. Jacob Bercovitch & Richard Jackson, Conflict Resolution in the Twenty-first Century: Principles, Methods and Approaches, The University of Michigan Press, 2009. p-33.
4. James A. Wall Jr., John B. Stark and Rhett L. Standifer, Mediation: A Current Review and Theory Development., The Journal of Conflict Resolution, Vol. 45, No. 3 (Jun., 2001), p-374.
5. Scott Sigmund Gartner, Third-Party Mediation of Interstate Conflicts: Actors, Strategies, Selection, and Bias, Volume 6 Yearbook on Arbitration and Mediation, 2014. pp.273-274.
6. Jacob Bercovitch Theory and Practice of International Mediation. Selected essays. Routledge, Security and Conflict Management. 2011. p-17.
7. Beber B., International Mediation, Selection Effects, and the Question of Bias. Conflict Management and Peace Science, 2012. 29(4), 397–424. doi:10.1177/0738894212449091.

8. Jacob Bercovitch, Jeffrey Z. Rubin, *Mediation in International Relations: Multiple Approaches to Conflict Management*. Palgrave Macmillan. 2003. pp.206-207.
9. Arslan Chikhaoui, *40 Years Later: The Role of Algerian Diplomacy During the Iran Hostage Crisis*. NESA Center Alumni Publication, 25 January 2021. // <https://nesa-center.org/40-years-later-the-role-of-algerian-diplomacy-during-the-iran-hostage-crisis/>.
10. Peter J. Carnevale, Dong-Won Choi, *Culture in the Mediation of International Disputes*, *International Journal of Psychology*, 2000, 35 (2), p-108. // <https://www.nottingham.ac.uk/research/groups/ctccs/projects/translating-cultures/documents/journals/culture-in-the-mediation-of-international-disputes.pdf>.
11. Peter J. Carnevale, Dong-Won Choi, *Culture in the Mediation of International Disputes*, *International Journal of Psychology*, 2000, 35 (2), p-109.
12. Jacob Bercovitch Jeffrey, Rubin Z., *Mediation in International Relations: Multiple Approaches to Conflict Management*. Palgrave Macmillan. 2003. p-210.



Suhrobbek RAVSHANOV,
O'zMU tayanch doktranti
E-mail: suhrobbekravshanov03@gmail.com

Siyosiy fanlar doktori, professor R.Z.Djumayev taqrizi asosida

TURKIYANING XALQARO MAYDONDA OLIB BORGAN “YUMSHOQ KUCH” SIYOSATI

Annotatsiya

Maqola Turkiyaning “yumshoq kuch” siyosatini tub mohiyatini, uning o'ziga xosligini, uning resurslarini ochib beradi. Uning xalqaro munosabatlarda va tashqi siyosatida bu kuchdan usdalik bilan foydalanib erishgan yutuqlari va Yaqin Sharq mintaqasida yaxshi qo'shnihilik siyosatini olib borganligi konfliktli vaziyatlarda vositachilik qilganligi o'z navbatida islom olamiga ta'sir o'tkazishdagi o'ziga xos Turk “modeli” dan foydalanilganligi o'z aksini topgan. “Yumshoq kuch” dan foydalanish Turkiyada ikki davrni o'z ichiga oladi. Birinchi davrida-Turkiyani milliy mustaqillik va erkinlik uchun kurashi, Respublikani tiklanish davrini qamrab oladi. Ikkinchi davr –Yaqin Sharqdagi qo'shnilari bilan yaxshi aloqalarni yo'lga qo'yganligi va bunda yumshoq kuchdan foydalanishini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: Yumshoq kuch, qattiq kuch, konsepsiya, Turk modeli, madaniyat, Arab Bahori, avtartzim, liberal islohatlar, oppozitsion kuchlar, legetim kuch, konflikt, konstruktive rol, “mo'tadil” islommizm, integratsiya, globalizatsiya, siyosiy tizim.

ПОЛИТИКА «МЯГКОЙ СИЛЫ» ТУРЦИИ В МЕЖДУНАРОДНОМ ПРОСТРАНСТВЕ

Аннотация

В статье раскрывается сущность политики «мягкой силы» Турции, ее уникальность и ресурсы. Были отражены его достижения в международных отношениях и внешней политике, мастерское использование этой силы и его политика добрососедства в ближневосточном регионе, его посредничество в конфликтных ситуациях и использование им своей уникальной турецкой «модели» для влияния на исламский мир. Применение «мягкой силы» охватывает два периода в Турции. Первый период охватывает борьбу Турции за национальную независимость и свободу, а также период восстановления республики. Второй период охватывает хорошие отношения с соседями на Ближнем Востоке и с применением мягкой силы.

Ключевые слова: Мягкая сила, жесткая сила, концепция, турецкая модель, культура, арабская весна, автаркия, либеральные реформы, оппозиционные силы, легитимная власть, конфликт, конструктивная роль, «умеренный» исламизм, интеграция, глобализация, политическая система.

THE "SOFT POWER" POLICY OF TURKEY IN THE INTERNATIONAL AREA

Annotation

The article reveals the essence of Turkey's "soft power" policy, its uniqueness, and its resources. His achievements in international relations and foreign policy by masterfully using this power and his good neighborly policy in the Middle East region, his mediation in conflict situations, and his use of his unique Turkish "model" to influence the Islamic world were reflected. The use of "soft power" covers two periods in Turkey. The first period covers Turkey's struggle for national independence and freedom, and the period of the restoration of the Republic. The second period covers good relations with its neighbors in the Middle East and with the use of soft power.

Key words: Soft power, hard power, concept, Turkish model, culture, Arab Spring, autarchy, liberal reforms, opposition forces, legitimate power, conflict, constructive role, "moderate" Islamism, integration, globalization, political system.

Kirish. Turkiya bugungi kun xalqaro munosabatlarda muhim rol o'ynayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda u jahon siyosiy sahnasida yetakchi davlatlar qatoriga qo'shilishga intilyatgan, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan qudratli davlatga aylanib ulgurdi. O'zbekiston Turkiyaga o'zining muhim va uzoq muddatli hamkori sifatida qarashini, turk va o'zbek xalqi o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlash, hamkorlikni o'zaro ishonch tamoyillari asosida rivojlantirish tarafdori ekanini qayd etgan. (Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йулимизни катъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. –Т., 2017. – Б.288). Bu taraqqiyotga erishishda “Yumshoq kuch” katta ahamyat kasb etadi. “Yumshoq kuch” konsepsiyasi Jozef Nayning “Bound to Lead: The Changing Nature of American Power” asarida ishlatilgan mashhur nazariyalardan biri hisoblanadi [4]. U bu nazariyani boshqa asarlarida ham keng ochib berishga harakat qilgan [5]. Nazaryaning ta'rif mavhumligicha qolayotgan bo'lishiga qaramasdan, “Yumshoq kuch”ni nimalar tashkil qilishi borasida bahslar davom etmoqda. U nafaqat AQSHda

balki boshqa davlatlarda ham foydalanildi. Turkiya mana shu konsepsiyaga bog'liq ravishda rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi [6].

Jozef Nay ta'kidlab o'tganidek, “Yumshoq kuch” boshqalar e'tiboriga tushib, o'ziga tortish orqali boshqalar xatti-harakatini shakllantira olish qobiliyatidir. U buni uchta keng ma'nodagi kategoriyasini aytib o'tadi. Bular “siyosat”, “siyosiy qadriyatlar” va “madaniyat”. Natijada biron mamlakat dunyo siyosatida o'zi xohlagan narsaga erisha olishi uchun boshqa mamlakatlar uning qadriyatlarini e'tirof etishi, uning namunasini o'zida tadbqiq etishi, uningdek gullab yashnashi va ochiqlik darajasiga erishishga intilishi, uning ortidan ergashishi lozim [5]. U avvalo davlatni qandayligi, o'ziga xos imkoniyatlari va salohiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Xalqaro munosabatlardagi amaliy burilish undagi muhim qarashlar va g'oyalarni tushunishga ko'plab yangi yo'l ochdi [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Xorij adabiyotlarni o'rganish jarayonida shuni aytish mumkinki,

tadqiq etilayotgan mavzu Jozef Nayning asarlarida “Yumshoq kuch” konsepsiyasi alohida ilmiy o'rganish ob'ekti bo'lgan. Mavzu turli tadqiqotchilarning, turk olimlaridan Meliha B. Altunışık, Tarik Oğuzlu, Ahmet Erdi Ozturk o'z asarlarida Turkiyaning “yumshoq kuch” siyosatini ochib berishga harakat qilishgan. Mavzuni yoritishda ham aynan turk manbalari ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. 2009-2010-yillarda Turkiyaning mashhur TESEV aqliy markazining mintaqada o'tkazgan so'rovi bo'yicha Turkiyaning jozibadorligi o'ziga tortishi juda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu avvalo uning tashqi siyosatining ta'sirchanligi bilan ta'riflash mumkin [8]. Turkiyaning madaniy qadriyatlarini va muvafaqiyat hikoyasi uning siyosiy-iqtisodiy qiyofasida namoyon bo'lgan. Bu jihatlar uning bu mintaqada “Yumshoq kuch”dan foydalanilganligiga ishora beradi. Turkiyada “Yumshoq kuch” siyosatini belgilashda ikki davrga ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi davri, avvalo, Turkiyani erkinlik uchun kurashi islom dunyosining e'tiboriga tushgani, ayniqsa, Tunis, Misr, Jazoir va Yaqin Sharq davlatlarini larzaga keltirdi. Musammo shundaki, “Arab bahori”ning oqibatlarini hali ham jiddiy bo'lib turishiga qaramasdan Turkiya qanday qilib bu kuchdan foydalanmoqda. Turkiyaning tashqi siyosati bu mintaqada asosiy omildir. Shuningdek, uning yana bir o'ziga xosligi – Arab dunyosi jamoatchilik orasida kata mashhurlikka egaligidir. Birinchi muhim qadami 2003-yilda AQShning Iroqdagi urushini maqullamadi. Bu qaror Turkiya bu mintaqada ittifoqchisi AQSh bilan hamkorlikda ish tutadi degan mashhur qarashni inkor etib tashladi. Ikkinchidan, Isroilning G'azo sektoridagi urushini qattiq tanqid qilishi uning obro'sini yanada oshirdi. Oldinroq, Turkiya-Isroil hamkorligi tanqid qilingani edi. Asosiy o'zgarishlardan biri hukumat tepasiga Bosh vazir Erdog'aning kelishi yaxshi kutib olindi. Turkiya mintaqasi siyosatini belgilashda o'zining ijobiy ta'siriga egaligini ko'rsatishga intilib, konstruktiv rol o'ynab kelmoqda. Tadqiqot natijasida arab dunyosining 78% Arab – Isroil urushida vositachilik rolini o'ynadi, deb hisoblaydi. Falastin, Iordaniya, Suriyada bu ko'rsatkich yana ham kattaroq.

Turkiya Yaqin Sharqdagi qo'shnilar bilan yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'ya oladi. Shuning bilan birga ular bilan muzokaralar, siyosiy uchrashuvlar va tashriflarni amalga oshiradi. Bu yangi tashqi siyosiy tashabbuslar axloqiy ta'sir va legitim kuchga egaligi bilan o'ziga xosdir. Shu bilan birga, Turkiyaning davomiy siyosiy va iqtisodiy o'zgarishi Arab dunyosida ijtimoiy – iqtisodiy turg'unlik va siyosiy avtoritarizm yuz berayotgan bir pallada o'zining ijobiy qiyofasini namoyon qilmoqda. Ayniqsa, Arab dunyosidagi oppozitsion kuchlar boshqaruvning vakillik shakliga o'zgartirish kiritish masalasida Turkiyaning siyosiy o'zgarishini yorqin misol qilib ko'rsatmoqda. Bular orada siyosiy tizimda Islomiy guruhlarning integratsiyasi masalasi ham mavjud. Bu dunyoviy ham islomiy oppozitsion kuchlarga ham dahldor. Bunda Adolat va Taraqqiyot partiyasini o'rganilishi kerak bo'lgan muhim namuna diyish mumkin. Arab dunyosidagi turli aktorlar Turkiya tajribasidan o'ziga tegishli dars olishdi. Jamoatchilik orasida Turk modeli negizida nimalar yotganligi va arab davlatlariga nechog'lik dolzarb ekanligi borasida chalkashlik mavjud. Biroq Bolqon mintaqasida Turkiyani “yumshoq kuch”dan foydalanish uchun eng muhim vositalardan biri – bu 2010-yilda tashkil qilingan “Xorijdagi turklar va qardosh jamiyatlar raisligi” (YTB) eng ahamiyatga moligi deyishimiz mumkin. “Ushbu muassasa asosiy vazifalardan tashqari, madaniy va ijtimoiy sohalarini qo'llab-quvvatlash va yordam berishni maqsad qilgan chet elda yashovchi turk fuqarolari, kelib chiqishi turk bo'lgan Bolqonda joylashgan jamoalar, albanlar, bosniyalik fuqarolar, turli mintaqalarda ijtimoiy va madaniy ko'mak berrishga qaratilgan [9].

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Turkiya demokratiyasi va Islomning o'zaro izchilligining yorqin namunasi ekanligini ko'rsatadi. Biroq qiziq jihati shundaki, Turkiya jozibadorligi keyingi yillarda sezilarli darajada o'sgan bo'lishiga qaramasdan, uning ta'siri cheklangan edi. Boshqa tomondan, Yaqin sharq mintaqasida Turkiyaning o'ziga jalb qilishi mintaqada muhim aktyor sifatida o'z eshiklarini ham ichki ham tashqi tomondan ocha boshladi. Mintaqa davlatlari bilan munosabatlarni yaxshilab olishi unga konfliktli vaziyatlarda unga vositachilik qilish imkonini berdi va bu orqali iqtisodiy va turizm aloqalarini kengaytirib oldi.

Mintaqada Turkiyaning “Yumshoq kuch”dan foydalanishi bo'lingan va bahsli mintaqada qiyin edi. Vaqt o'tgan sayin mintaqaning boshqa aktyorlariga nisbatan o'zining ta'sirini ko'rsatishda va vositachilik qilishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Bular Xamas bilan Livanda, Eron, Iroq bilan ham kuzatildi. Modomiki, mintaqada “qattiq kuch” hukumron bo'lar ekan, “yumshoq kuch”da cheklovlar bo'lishi davom etadi. Arab bahori Turkiya uchun ahvolni yanada qiyinlashtirdi. Bugungi kunda Arab dunyosi tarixiy o'zgarishlar davrini boshidan o'tkazmoqda. Boshqa tomondan, Arab bahori mintaqadagi vaziyatni o'zgaruvchan va nobarqaror ekanligini ko'rsatib berdi.

Ikkinchi davri 1990-larning oxiri – 2000-larning boshiga to'g'ri keladi. Bu davrda Turkiya yaqin Sharqdagi qo'shnilar bilan taqqoslab ko'rganda sezilarli darajada ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarga erishdi. Aniqlik qilib aytadigan bo'lsak, 1990-yillarning o'rtalaridan boshlab jiddiy o'zgarishlar pallasiga kirdi. Bularning barchasi Yevropa Ittifoqining a'zosi bo'lishga qaratilgan edi. Bu islohatlar Demokratik so'l partiyadan bo'lgan Bulet Ejevet tomonidan boshqarilgan koalitsion hukumat shofe'ligida o'tkazildi va bu ishni 2002-yilning oxirida hukumat tepasiga kelgan Adolat va Taraqqiyot partiyasi davom ettirdi.

Tashqi munosabatlarda Turkiyaning “Yumshoq kuch” siyosatiga katta e'tibor qaratgan partiya boshqaruvning ilk yillaridayoq uning ta'sirini sezilarli darajada oshirdi. Adolat va Taraqqiyot partiyasi Turkiyaning o'ziga xosligining yangi qirrasini islom dunyosiga ko'rsatib berdi. “Mo'tadil” islomizm va uning demokratiya bilan mosligini ochib berishda Turkiya tajribasini ahamiyatiga e'tibor qaratdi. Bu “model” musulmon dunyosida o'ziga jalb qiladigan yangi bir yo'nalish sifatida namoyon bo'ldi. Islomiy va liberal oppozitsion kuchlar “avtaritarizm”dan chiqish yo'llarini qidira boshladi. Hattoki, Adolat va taraqqiyot partiyasining boshqaruvi, uning mahalliy va tashqi siyosati AQShning ham e'tiboriga tushdi. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng AQSh Islom radikalizmini o'sishini hal qilishda universal vosita sifatida bu “model”ni yoqladi. Turk modelini qandayligi va o'ziga xosligi hamon bahslidir.

Turkiya mintaqasi mamlakatlari bilan ba'zi institutlar orqali iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy aloqalarni rivojlantirishga harakat qildi [1].

Turkiya tajribasiga e'tibor qaratiladiga bo'lsa, unda Turkiya musulmon g'oyasi sifatida ilgari surgan yorqin bir misolga urg'u berganini ko'radi. U “model”da Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, NATO, Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik tashkiloti kabi muhim g'arb institutlaridan biriga tegishli ekanligi, Yevropa Ittifoqi bilan qo'shiladigan bir mamlakat, globalizatsiya jarayoni bilan iqtisodiy integratsiyalashgan dunyoviy demokratik davlat ekanligini ko'rsatishga urinadi.

So'ngi yillarda Turkiyaning jozibadorligi o'zini so'zini aytib olishi sezilarli kamaydi. Bunga sabab “populistik avtoritarizm” yoki “raqobatbardosh avtoritarizm” kabi konsepsiyalar natijasida 2010-yillarda boshlangan mahalliy o'zgarishlar Turkiyani “yumshoq kuch” siyosatiga putur yetkazdi. Uning demokratiya indeksida turgan o'rni qisman

pasayganligini namoyon boʻldi. Mahalliy siyosatchilar orasida soʻz erkinligi va matbuot erkinligigiga qoʻyilgan cheklovlar tufayli boʻlinish yuz berdi. 2016-yilgi davlat toʻntarishini amalga oshirishga urinish mamlakatning siyosiy rivojlanishiga salbiy taʼsir qildi. Shu bilan birga 2018-yildan beri kuzatilyotgan iqtisodiy oʻsish oʻrnini iqtisodiy inqiroz egalladi. Bu esa, oʻz navbatida, inflyatsiya darajasini oʻsishi, turk lirasini qadirsizlanishi, ishsizlikning oshishiga olib keldi. Gretsiya bilan konfliktning avj olishi, Turkiyaning “Qattiq kuch”dan tez-tez foydalanishi uni butunlay boshqa davlatga aylantirib qoʻydi. Shu sababdan “Yumshoq kuch”ni belgilovchi indeksdagi oʻrni tushib ketdi[11]. Shu tariqa Yevropada ham tasiri tushib bordi.

Turkiya bugungi kunda inson huquqlarini himoya qilishning asoslaridan biri sifatida qabul qilingan Konvensiyadan chiqishi ham koʻhna qitʼada yumshoq kuch yaratish uchun muhim vositalardan biridan mahrum boʻlishiga olib kelgan edi[3]. Ukrainadagi inqiroz tufayli Tibbiy yordam koʻrsatishi qaysidir maʼnoda bu indeksda koʻtarilishga Isroil va Saudiya

Arabistonidan yuqoriga koʻtarilib, 2022-yilda 22-oʻringa chiqishiga yordam berdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi davrda xalqaro hamjamiyat “qattiq kuchdan” koʻra “yumshoq kuch”ning samarali ekanligiga amin boʻldi. Biror bir davlatga oʻz taʼsirini oʻtkazish uchun qurol kuchi bilan emas, balki “madaniyat”, “siyosat”, “siyosiy qadriyatlar” orqali kirib borish maqbul yoʻl ekanligi oʻzini isbotladi. Buning yorqin namunasi sifatida Turkiyani aytishimiz mumkin. Turkiya tarixining bu ikki davrida Turkiyaning nufuzi oshganligini ham Islom olamida, ham Gʻarb dunyosida keng oʻz taʼsirini oʻtkaza oladigan davlatga aylanganligini koʻrishimiz mumkin. Bunga erishishda “Yumshoq kuch” siyosatidan oʻziga xos ravishda foydalanilganligi va oʻziga moslashtirib undan turk “modelini” Yaqin sharq davlatlariga yoyishga katta hissa qoʻshganini koʻrsatadi. Oxirgi yillarda yuz bergan voqealar: Ukraina inqirozi, Ozarbayjon va Armaniston mojarosi uning indeks koʻrsatkichini oshirdi.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий таракқиёт йўлимизни катъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. –Т., 2017. – Б.288.
2. Ahmet Erdi Ozturk(2022). The Practice of Soft Power. Religions 13: 805. <https://doi.org/10.3390/rel13090805>.
3. Elżbieta Szyszlak (2021)Selected instruments of turkish soft power in europe// colloquium pedagogika – nauki o polityce i administracji kwartalnik 4(44)/2021.
4. <http://doi.org/10.34813/44coll2021>.
5. Joseph Nye (1990) Bound to Lead: the Changing Nature of American Power, NY: Basic Books.
6. Joseph Nye (2004) Soft Power: The Means to Success in World Politics, NY: Public Affairs, p.5.
7. Meliha B. Altunışık (2005) The Turkish Model and Democratization in The Middle East, Arab Studies Quarterly, Vol.27,Nos.1 and 2, pp. 45-63.
8. Meliha B. Altunışık (2008) “The Possibilities and limits of Turkey’s soft power in the Middle East,” Insight Turkey, 10, pp. 41-54.
9. Meliha B. Altunışık (2011) Challenges to Turkey’s “Soft Power” In the Middle East.
10. Muhamed Ali1(2022) Turkey’s soft power policy towards the balkans: challenges and perspectives // Journal of Liberty and International Affairs volume 8. num 2.
11. Necati Anaz (2022) An Assessment of Turkey’s Soft Power Resources in Asia: Potential and Limitations, Journal of Balkan and Near Eastern Studies, 24:5, 755-771.
12. Sanem B. Çevik (2019) “Reassessing Turkey’s Soft Power: The Rules of Attraction,” Alternatives, 44(1), pp. 50–71.
13. Tarik Oğuzlu (2007) “Soft power in Turkish foreign policy, Australian Journal of International Affairs, 61(1), PP.81-97;
14. Recep Tayyip Gürler Turkey’s Soft Power towards Central Asian Countries after the Cold War p.107.



Mahbuba RASULOVA,
Tashkent State University of Law Foreign Languages Department
E-mail: m.rasulova@tsul.uz

THE NEED FOR UNDERSTANDING AGENTIC ENGAGEMENT IN EFL LEARNING: A CASE STUDY IN UZBEKISTAN

Annotation

Agentic engagement demonstrates students' constructive contribution into the flow of instruction they receive as students express their interests and offer their input. It is a purposive, proactive, and reciprocal type of engagement that is essential to promote student outcomes. In this article, types of engagement is firstly explained, and more focus is on agentic engagement, which is the integral part of this study. Then, the data of case study is presented which follows by data discussion and conclusion.

Key words: Agentic engagement, purposive, motivation, support

INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA MAQSADLI ISHTIROKNI TUSHUNISHNING ZARURATI: O‘ZBEKISTONDA AMALIY TADQIQOT

Annotatsiya

Aktiv ishtirok talabalar o‘zlarining qiziqishlarini va o‘rgangan ma‘lumotlarini ifodalaganda, va qabul qilingan ma‘lumotlarni ijodiy tarzda ifodalaganda namoyon bo‘ladi. Bunday ishtirok talabalarning bilim natijalarini yaxshilashda muhim sanalgan, maqsadli, proaktiv va o‘zaro ishtirok turi hisoblanadi. Bu maqolada, dastla, ishtirok turlari izohlanadi, keyin tadqiqotdagi asosiy qismi bo‘lgan aktiv ishtirok turiga e‘tibor qaratiladi. Undan keyin, amaliy tadqiqot ma‘lumotlari taqdim etiladi, ularni muhokama qilinadi va muallif o‘z xulosasini beradi.

Kalit so‘zlar: Agentlik maqsadli ishtirok, maqsadli, motivatsiya, qo‘llab-quvvatlash

НЕОБХОДИМОСТЬ ПОНИМАНИЯ ЦЕЛЕУСТРЕМЛЕННОЕ УЧАСТИЕ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ: ТЕМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Целеустремленное участие демонстрирует конструктивный вклад студентов в процесс обучения, который они получают, поскольку студенты выражают свои интересы и предлагают свой вклад. Это целенаправленный, проактивный и взаимный тип взаимодействия, который необходим для улучшения результатов учащихся. В этой статье сначала объясняются типы взаимодействия, и больше внимания уделяется активному взаимодействию, которое является неотъемлемой частью этого исследования. Затем представляются данные тематического исследования, за которыми следует обсуждение данных и заключение.

Ключевые слова: Целеустремленное участие, цель, мотивация, поддержка

Introduction. Engagement refers to the specific conditions in which a set of motivational variables such as persistence and focused actions are actively used by learners and is defined as a “relatively public, objective, and observable classroom event” [1]. According to empirical studies and theoretical conceptualization, Reeve [2] asserts that engagement can be a major contributor to the learning process, it is susceptible to external support such as feedback from teachers, and it is an indicator of teachers' efforts to motivate their learners. The last function, teachers' efforts to encourage their learners, is highly likely to monitor levels of effort, enjoyment, strategic thinking, and contributions. Therefore, monitoring and responding constructively to students' signals of motivation and engagement are two important teaching skills [3]. Reeve [2] states that engagement demonstrates three functions. First, it makes learning possible (e.g., academic performance and skill development). Second, it can be changed considering external support (e.g., after teacher's intervention and feedback). And third, it functions as an indicator (through a dialectical framework) for teachers on their efforts to motivate their learners. In this article, types of engagement is firstly explained, and more focus is on agentic engagement, which is the integral part of this study. Then, the data of case study is presented which follows by data discussion and conclusion.

Literature review. Student engagement

Student engagement has been regarded as a predictor of learning, enhancement of performance, clear expectations about abilities, long-term academic achievement, and the quality of socialization and preferences [1]. To understand this construct, scholars have delved into behavioral [4], emotional [5]; cognitive [6], and agentic engagements [7].

Types of Engagements. Students display their behavioral engagement when they exert their efforts and concentrate on learning activities [8]. Emotional engagement refers to the student's positive emotional reactions to learning such as feeling interest, enjoyment, enthusiasm, and curiosity [7]. Cognitive engagement consists of the student's investment in learning to understand and master skills [9]. Reeve and Tseng [7] recently proposed agentic engagement, which refers to students' active contribution to the flow of instruction such as asking questions, offering suggestions, and expressing opinions. The dimensions of engagement are interrelated [2], and students having a high degree of one of the engagement dimensions may also experience the other dimensions simultaneously.

In particular, studies aiming at investigating agentic engagement are still in progress and claim a specific theoretical framework. This type of engagement involves the observable classroom events in which the learners constructively contribute their learning and the instruction they receive. With the help of agentic engagement, learners find ways of enriching, modifying and personalizing their

instruction by providing teachers with chances to determine how autonomy-supportive his/ her instruction is or can be [2]

What does Agentic Engagement mean?

In contrast to other types of engagement, agentic involvement can explain a particular variation in students' academic performance [10]. Conceptually, agentic engagement also differs from the other three aspects of engagement because it is proactive and transactional [10]. During a learning activity, for example, students are able to communicate their preferences to the teacher regarding the content rather than passively receiving information. Based on these preferences, teachers can enrich the students' learning experience. Students tend to be proactive and intentional by making suggestions when they are engaged with learning activities [2]. If students have a communication on the personal relevance of the activity and how it challenges them, this will bring about noticeable changes in instruction, which in turn can influence students' engagement. Therefore, agentic engagement is different from other aspects of engagement so as to improve the learning environment for themselves. According to Reeve [10], agentic-engaged learners may create self-supportive learning moments in the classroom by displaying their initiative and collaboration, which contributes directly to themselves (e.g., motivational support and achievement) and the classroom environment itself (e.g., instruction, teacher-student communication). The activities in which these engaged learners display their own contributions (e.g., student-initiated questions, recommendations, seek clarification, among others) may have two properties: the learners' own initiative (through sentences such as, "Teacher, can we do this?"), and the collaborative transaction among teachers and peers. To explain agentic engagement, this paper clarifies two concepts: choices (within the concept of autonomy) and initiatives (within the concept of agentic engagement). Autonomy refers to an "action that is chosen; action for which one is responsible" [11] and as a "psychological condition to be reached at the beginning of adulthood" [12].

Considering the aforementioned views, this paper seeks to explain the need for understanding agentic engagement in EFL learning through small-scale case study and to answer the following research questions:

Is agentic engagement important for EFL students?

If so, to what extent, is it important (or not important) for them?

Method

Research methodology. This study is based on case study data generated through a series of 8 in-depth, informal interviews conducted in English over a two-month period and supplemented by three extra records. In line with calls for more 'person-in-context-relation' perspectives on the learner [13], a case study enables a researcher to gain a detailed, situated and holistic understanding of an individual which can thus facilitate insights into complex aspects of a learner's experiences and psychology.

Also, Case study is used to analyze observation data as it is an empirical investigation of contemporary phenomena within real-life contexts. Qualitative case studies are typically longitudinal which enables researchers to collect large amounts of data over a long period of time. Data collection and analysis are done simultaneously and recursively [14].

First, the researcher observed several classes to see the whole process of the classes; how the classes are organized and conducted by the teachers and how the students participate in them. By doing so, all necessary data were collected to create interview questions to ask for the participant during the interview. All collected data were analyzed based on discourse

analysis as it is a tool for understanding authentic spoken interaction.

Research participant. The case study participant was a 26-year-old female teacher whose major is English language teaching at Tashkent State University of Law (TSUL). At the outset of the study Kamilla (her chosen pseudonym) got her Bachelor's degree at Uzbekistan State University of World Languages and Master's degree at Webster University in Tashkent and she has been working at TSUL for more than a year. Prior to starting her job at her current work place, she worked as an IELTS instructor at language schools in Tashkent. She has enough experience working with adult learners who were the same age as the tertiary level students.

Results and analysis. The data were initially analysed based on a grounded theory approach which allows for an analysis that respects and preserves the holistic, situated nature of the data and avoids imposing pre-formed hypotheses on the data [15]. Specifically, this study focused on two new main research questions:

Is agentic engagement important for EFL students?

If so, to what extent, is it important (or not important) for them?

The research questions sought to find out Kamilla's understanding of agentic engagement, her attitude towards this approach and the importance of it in classes. She says:

Agentic engagement is one types of engagement which plays an important role in learning process, in our context while learning English as a foreign language. I think this type of engagement is what students say and do to create a more supportive learning environment for themselves, such as offering their input, expressing preferences, freely turn-taking in debates and discussions, and finding interesting things to do. These initiatives make students personalize and upgrade the quality of their surrounding learning environment.

This data sufficiently describe Kamilla's viewpoints about agentic engagement. She considers that agentic engagement is visibly seen when students actively engaged in classroom activities (offering their input, expressing preferences, freely turn-taking in debates and discussions, and finding interesting things to do). She also adds:

From my experience, I can say that students seize the initiatives when teachers become more supportive and encouraging which leads to motivational satisfactions, positive development, and academic progress. Therefore, I consider that promoting agentic engagement is very useful in EFL classes. Personally, I always try to create such an environment in which my students learn the target language more naturally.

This data vividly supports her stance to use this type of engagement while teaching EFL as it brings about positive development and academic progress.

Discussion and conclusion. Students' reactions to the learning activities provided teachers can be different, as some students work harder, with greater joy, and more strategically. All types of engagements solemnly matter in predicting students' learning and achievement. However, students further vary in how much or how little they purposely act in their learning environment, as by offering suggestions so as to enrich, personalize and generally improve what they are learning.

Most empirical studies showed that agentic engagement is conceptually distinct from other three aspects of engagement, which is significantly correlated with students' motivation and it predicted independent variance in students' achievement. Agentic engagement opens the door to future work that seeks to deeper understand how students learn and also how educational psychologists can more appreciate students' constructive contributions into their own learning [7].

This article hopes to have explained the importance of agentic engagement in EFL learning. Even though outcomes were deduced based on a small-scale case study, this article firstly attempted to uncover the role of agentic engagement in the context of Uzbek students. In this article, the researcher

sought to explore agentic engagement from teachers' perspectives. For further research, it is suggested to investigate students' attitudes and stances towards agentic engagement which will be likely to bring about more insights to understand how purposeful are and can be in learning environment.

REFERENCES

1. Furrer C., & Skinner, E. (2003). Sense of relatedness as a factor in children's academic engagement and performance. *Journal of Educational Psychology*, 95(1), 148–162. doi:10.1037/0022-0663.95.1.148.
2. Reeve J. (2012). A self-determination theory perspective on student engagement. In S. L. Christenson, A. L. Reschly, & C. Wylie (Eds.), *Handbook of research on student engagement* (pp. 149–172). Boston, MA: Springer US.
3. Lee W., & Reeve, J. (2012). Teachers' estimates of their students' motivation and engagement: Being in synch with students. *Educational Psychology*, 32(6), 727–747. doi:10.1080/01443410.2012.732385 .
4. Fredricks J. A., Blumenfeld, P. C., & Paris, A. H. (2004). School engagement: Potential of the concept, state of the evidence. *Review of Educational Research*, 74, 59–109.
5. Wang, M.-T., Chow, A., Hofkens, T., & Salmela-Aro, K. (2015). The trajectories of student emotional engagement and school burnout with academic and psychological development: Findings from Finnish adolescents. *Learning and Instruction*, 36, 57–65.
6. Walker C. O., Greene, B. A., & Mansell, R. A. (2006). Identification with academics, intrinsic/extrinsic motivation, and self-efficacy as predictors of cognitive engagement. *Learning and Individual Differences*, 16(1), 1–12.
7. Reeve J., & Tseng, Ch.M. (2011). Agency as a fourth aspect of students' engagement during learning activities. *Contemporary Education Psychology*, 36, 257-267.
8. Skinner E. A., & Belmont, M. J. (1993). Motivation in the classroom: Reciprocal effects of teacher behavior and student engagement across the school year. *Journal of Educational Psychology*, 85, 571–581.
9. Newmann, F., Wehlage, G. G., & Lamborn, S. D. (1992). The significance and sources of student engagement. In F. Newmann (Ed.), *Student engagement and achievement in American secondary schools* (pp. 1 1-39). New York: Teachers College Press.
10. Reeve J. (2013). How students create motivationally supportive learning environments for themselves: the concept of agentic engagement. *J Educ Psychol*, 105, 579-595.
11. Deci E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. NY: Plenum
12. Bekker M. H. J., & van Assen, M. A. L. M. (2006). A short form of the autonomy scale: Properties of the autonomy-connectedness scale (ACS–30). *Journal of Personality Assessment*, 86(1), 51–60.
13. Ushioda E. 2009. A person-in-context relational view of emergent motivation, self and identity. In Z. Dörnyei & E. Ushioda (eds.), *Motivation, language identity and the L2 self*. Bristol: Multilingual Matters, 215–228.
14. Juanita H & Croker, R. "Qualitative Research Methods in Linguistics", Macmillan, 2009.
15. Charmaz K. 2006. *Constructing grounded theory*. London: Sage.



Zarifa RAXMONOVA,
"Alfraganus University" nodavlat tashkiloti o'qituvchisi, (PhD)
E-mail: zarifarahmonova5@gmail.com

O'zMU Ijtimoiy-psixologiya kafedrasida professor Z.E. Abduraxmonova taqrizi asosida

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE RELATIONSHIP OF EMOTIONAL INTELLIGENCE AND VALUES IN STUDENTS

Annotation

The problem of the interrelationship of the individual's values and emotional intelligence is the growing need of young people, who are the main support and developmental force of the country and society, to master modern professions, to carry out professional labor activities as specialists, to actively participate in the process of interpersonal relations. still maintains the need to carry out modern psychological research. The article analyzes the empirical results of research on the relationship between emotional intelligence and values.

Key words: Emotional intelligence, higher education, students, value, globalization, theory, health, love, materialism, work.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СВЯЗИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация

Проблемой взаимосвязи ценностей личности и эмоционального интеллекта является возрастающая потребность молодежи, которая является главной опорой и развивающей силой страны и общества, в овладении современными профессиями, в осуществлении профессиональной трудовой деятельности как специалистов, активно участвовать в процессе межличностных отношений. По-прежнему сохраняет необходимость проведения современных психологических исследований. В статье анализируются эмпирические результаты исследования взаимосвязи эмоционального интеллекта и ценностей.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, высшее образование, студенты, ценность, глобализация, теория, здоровье, любовь, материализм, труд.

TALABALARDA EMOTSIONAL INTELLEKT VA QADRIYATLAR ALOQADORLIGINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHLATLARI

Annotatsiya

Shaxsning qadriyatlar va emotsional intellektining o'zaro aloqadorligi muammosi mamlakat va jamiyatning asosiy tayanchi hamda rivojlantiruvchi kuchi bo'lgan yoshlarda zamonaviy kasblarni o'zlashtirish, mutaxassis sifatida professional mehnat faoliyatini olib borish, shaxslararo munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi yillar davomida emotsional intellekt va qadriyatlar bog'liqligi borasida zamonaviy psixologik tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyatini hanzu saqlab qolmoqda. Maqolada emotsional intellekt va qadriyatlar o'zaro aloqadorligini tadqiq etishga doir empirik natijalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Emotsional intellekt, oliy ta'lim, talabalar, qadriyat, globallashtirish, nazariya, salomatlik, sevgi, moddiyat, mehnat.

Kirish. Dunyo miqyosidagi yetakchi oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan tadqiqotlarda shaxsning emotsional intellekti va qadriyatlar aloqadorligi muammosini o'rganish, jumladan, kross-madaniy va sport psixologiyasiga oid izlanishlarda emotsional intellekt va qadriyatlar bog'liqligi muammosini tadqiq qilish asosiy masala sifatida uning etnomadaniy, differensial- psixofiziologik ko'rsatkichlarini aniqlashga yo'naltirilgan. Ammo, ularda yoshlardagi emotsional intellekt va qadriyatlar aloqadorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari talabalar misolida maxsus ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

Globalashuv sharoitida jahon miqyosida insoniyatning birlashuvi va integratsiyalashuv jarayoni kuchaygan bir paytda, shaxsning farovonligini oshiradigan, davlatlarning iqtisodiy va siyosiy jarayonlarini tezlashtiradigan, mamlakatlari va xalqlarning texnologik, fan va madaniyat yutuqlari almashinuvini faollashtiradigan ilmiy-tadqiqotlarga talab kun sayin ortib bormoqda. Shu o'rinda kelajak egalari bo'lgan yoshlarning kasbiy, ma'naviy, intellektual, emotsional yetuklik salohiyatini rivojlantirish, shaxs sifatida muloqot jarayonida o'z-o'zini adekvat baholash va anglash jarayonini ijtimoiy jihatdan samarali boshqarish imkoniyatlarini ochib

berish hamda psixologik jihatdan barkamol rivojlangan shaxslarni shakllantirishga e'tibor qaratib kelinmoqda. Ma'lum empirik tadqiqotlarda qadriyatlar bunday taqsimlanishi muhim va qiziqarli bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, juda ko'p hollarda, mavhum darajada, kishi ba'zi diqqatga sazovor tub jihatlarga yo'naltirilgan, amaliy faoliyatda esa boshqa tub jihatlarga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Sh.Shvars (Schwartz Shalom H.) qadriyatlar deganda, muayyan jamiyat madaniyatiga, muhitiga va mentalitetiga bevosita bog'liq bo'lgan "tushunib olingan" ehtiyojlarini nazarda tutgan. Shvars so'rovnoma barcha qadriyatlar ijtimoiy qadriyatlarga va individual qadriyatlarga bo'linishi haqidagi nazariyaga asoslanadi. So'rovnoma Shalom Shvars tomonidan 1992-yilda ishlab chiqilgan. So'rovnoma ishlab chiqishda muallif Rokich uslubiyotidan foydalangan, bunda uning konseptual bazasini sifat jihatidan o'zgartirib, kengaytirgan va takomillashtirgan [1].

Ijtimoiy psixologiya fan sifatida shaxsni keng miqyosdagi munosabatlar tizimida o'rganar ekan, turfa xil omillar orasida ta'sirchanlik va yoshlar dunyoqarashiga singib borishi kuchli bo'lgan omillarga ko'proq e'tiborni qaratadi. Shu nuqtai nazardan masalaga yondashar ekanmiz, qadriyat-

larning roli va ularning kundalik ijtimoiy xulqdagini rolini o'rganish ko'plab tadqiqotlarning predmetiga aylanishi mumkinligini hayotning o'zi taqazo qilmoqda.

Dunyo olimlari qadriyatlarini shaxs hayotida va tajribasidagi benazir rolini anglagan holda, ularni o'lchashning vositalari, metodikalari va testlarini taklif etishgan. Masalan mashhur M.Rokich nazariyasi asosida ishlab chiqilgan qadriyatlarini o'lchash testi, rus olimlari L.Krichevskiy, S.Rubinshteyn, A.Batarshev kabilarning testlari shular jumlasidandir. Ierusalim universiteti professori Sh.Shvars ham qadriyatlarini o'lchash uchun maxsus test ishlab chiqdi va uni turli millat vakillarida muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazdi [2].

Muallif inson hayotining asosiy to'rt yo'nalishlarini nazarda tutgan holda quyidagi qadriyatlar tizimini tasavvur etgan:

1) ijtimoiy jabhada yangilik, innovatsiyalar hamda o'zgarishlarga yo'nalganlik;

2) mavjud jamiyat va uning an'analari saqlashga yo'nalganlik;

3) o'ziga insonlarga va ularning manfaatlarini inobatga olishga yo'nalganlik;

4) o'ziga va o'z takomiliga intilishga yo'nalganlik [3].

Shvarnsning talabidagi qadriyatlar tizimini o'rganish usuli universal metodikalardan hisoblanadi. Uni har bir olingan talabalar guruhida o'tkazish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Avvalo guruhga rejalashtiriladigan tadbirning qisqacha ma'nosi tushuntirilib, har bir shaxsga alohida qog'ozlarda tartib raqami qo'yilib, qadriyatlar taqdim etiladi. Talaba har bir qadriyatni diqqat bilan o'qib chiqib, birinchi ustunga hozirgi zamon yoshlari ma'nan ushbu qadriyatlarga nechog'li mosligi, reyting tizimida – eng muhimlik darajasi nuqtai nazaridan “1” raqamidan to “10” raqamigacha baholab chiqiladi. So'ngra keyingi bosqichda xuddi shu amal shaxsan o'zi uchun berilgan baho sifatida yana reyting mezoni asosida belgilanadi. Hosil bo'lgan ikki qator o'rtasida yaqinlik Spirmanning ranglar korrelyatsiyasi metodikasi yordamida hisoblab chiqiladi [4].

Tadqiqotimizning empirik tahlilida hozirgi zamon yoshlarining aksariyati o'z hoxishlariga qarshi chiqish, boshqalar ehtiyojini inobatga olish kabi xususiyatlar begona emasligini isbotladi. Ayniqsa, yigitlarning aksariyati do'stlar davrasiga ko'proq intilishi, ularning orasida hozir, aynan shu vaziyatlar doirasida aktual bo'lgan muhitni qadrlashi ma'lum bo'ldi. Talabalardagi qadriyatlarga intilganlik hamda hamkorlik motivatsiyasining kuchliligi hal qilinishi qiyin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarda o'zini adekvat tutishini ta'minlashi mumkin. Yoshlar davrasining kursdan kursga o'tgan sari qadrlanib borayotganligiga ham bizning e'tiborimizni jalb etdi. Masalan, guruhidagi natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki,


ikkinchi bosqich talabalarda qabul qilishga intilish qadriyati (54%) rad etilishga (34%) nisbatan keskin ko'tarilishi, har ikkala qadriyatning tengligi (12%) kabi salbiy omilning oshishi ham kuzatildi. Ularni yana affiliatsiya motivi bilan solishtirganimizda 3-bosqich talabalarda qabul qilinishga intilishga nisbatan (45%), rad etilishdan qo'rqish (54%) motivi yana oshdi. 4-bosqichga kelib esa talabalarda qabul qilinishga intilish motivi (58%), rad etilishdan qo'rqish motivi (36%) va har ikkala motivning tengligi (6%) ni tashkil etdi. Har ikkala motivning tengligini yuqori ko'rsatkichi, ichki diskomfortning sakkiz foiz talabada mavjudligi, ya'ni bo'layotgan atrofidagi voqealarga befarqlik hissi borligini ko'rsatadi [5].

Oliy ta'lim muassasasi talabalarida qadriyatlarining shakllanishini ta'minlash maqsadida o'quv mashg'ulotlarida kouching, guruhiy va hamkorlik mashqlari asosida tashkil etildi. Mashg'ulotlarda tatbiq etilgan mashqlarning ta'sirchanligi kognitiv qobiliyat, ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi va aniqligi, emotsional barqarorlik, hissiy sezgirlik kabi omillarga tayanildi. Mashg'ulotlar yakunida talabalardan qadriyatlarini empirik o'rganildi.

Bunda biz tanlab olgan ob'ektimiz bo'yicha 3 ta oliy ta'lim muassasasidagi talabalarining so'rovnomaga bergan javoblari asosida olingan natijalar o'rtasidagi farqning qay darajada ahamiyatli farqlarga ega ekanligini tekshirishni maqsad qilib oldik. Aynan shu hihat tadqiqotimizdan ko'zlangan natijalarga olib kelishiga ishonch hosil qildik.

Respondentlarning vaqtini yoqimli o'tkazish shkalasi bo'yicha ishonchli farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin ($H=31,190; p<0,001$). Olingan natijalardan ko'rish mumkinki, poytaxt talabalariga nisbatan viloyatdagi talabalar vaqtini yoqimli o'tkazishni xush ko'rishar ekan. Viloyat (KDPI) (281,26) dagi talabalarining bu shkala bo'yicha yuqori natijasi ehtimol ularning aksariyat qismi o'z viloyatida, ota-onasi hamda yaqinlari bag'rida yashab kundalik ehtiyojlar haqidagi (oziq-ovqat va boshqa ehtiyojlar uchun pul topish muammosi, har bir narsani taqsimlash) muammolarini o'z uyidan uzoqda musofir bo'lib oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarga nisbatan kamroq o'ylashi va sarf xarajatda bir muncha dadilliklaridan ham bo'lishi mumkin.

Yuqori darajadagi moddiy ahvol shkalasi bo'yicha sinaluvcilarining aksariyat qismida ishonchli farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin ($N=12,809; r<0,01$). Yuqori darajadagi moddiy ahvol shkalasi bo'yicha Poytaxt talabalariga nisbatan viloyat talabalarida yuqori ko'rsatkich. Sababi Farg'ona viloyatida asosan farzandlarni yoshligidan kasbhunarga, savdo-sotiqqa (asosan o'g'il bolalarni) ya'ni tadbirkorlikka o'rgatiladi talabalar moddiy ahvoli shu sababdan yuqori bulishi mumkin.



1.rasm. Shaxs qadriyatli oriyentatsiyasini real tuzilishini tashxis qilish bo'yicha solishtirma jadval


Go'zallikni topish va ulardan zavqlanish shkalasi bo'yicha sinaluvcilarida ishonchli farqlar mavjudligini kuzatish mumkin ($N=12,589; r<0,01$). Olingan natijalar tahlil etiladigan bulsa, respondentlarning O'zMU-223,62, TDTU-

195,21, nisbatan QDPI-265,90 talabalarida har bir jarayonga proaktiv munosabatlarni kuzatishimiz mumkin shu bois ularda go'zallikni topish va ulardan zavqlanish yuqori darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Sevgi – bu shkala bo'yicha quyidagi ishonchli farqlarni kuzatishimiz mumkin ($N=21,913$; $r<0,001$). O'zMU-213,77 hamda TDTU-263,00 talabalariga nisbatan QDPI-272,44 talabalarida sevgiga sadaqat, vafo uni avaylab asrash sevgiga bo'lgan munosabat yuqori darajada ekanligini ko'rsatdi. Talabalar o'z oilalari bag'rida, turli xovotirgarchilikka o'rin yuq xotirjam bo'lganliklari uchun ham sevgi – bu ilohiy tuyg'uni qadriyat darajasida e'zozlab, ardoqlasharidandir.

Muloqot o'z hususiyatiga ko'ra turli shakl va ko'rinishlarga ega. Muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy ma'naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini o'zida aks

ettiradi. Muloqot shkalasi bo'yicha ($N=46,760$; $r<0,001$), O'zMU – 211,27, QDPI – 290,71, TDTU – 149,71. Muloqot ijtimoiy jarayon hisoblanib, muloqot orqali insonlar o'z fikrlarini bayon etadilar. Tadqiqotimiz davomida muloqot shkalasi bo'yicha olingan natijalar QDPI talabalarida yuqori ko'rsatkichni ko'rsatdi. Ular asosan adabiy tilda so'zlashishlari, hazil mutoyibaga moyilliklari so'zga chechanliklari – bizga ma'lumki Farg'ona vodiysidan buyuk shoirlar, askiyachi-yu so'z ustalari yetishib chiqqan. Balki mana shunday buyuk ajdodlarimizning avlodlari bo'lganliklaridanidir.



2.rasm. Shaxs qadriyatli oriyentatsiyasini real tuzilishini tashxis qilish bo'yicha solishtirma jadval

Xususan, respondentlarning javoblariga muvofiq, S.S.Bubnovaning "Shaxs qadriyatli oriyentatsiyasini real tuzilishini tashxis qilish metodikasi" bo'yicha Oliy o'quv yurti talabalarida muloqot, vaqtini yoqimli o'tkazishni xush ko'rish, jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishish uchun ijtimoiy faollik shkalalari bo'yicha olingan natijalar ko'rsatkichlari qolgan shkalalarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi [6].

Xulosa. Global o'zgarishlar, yuksak axborot texnologiyalari davrida, birinchidan, "Odam – ijtimoiy mavjudot" degan fikrning asosli ekanligiga hech kim shubha qilmaydi. Ikkinchidan, inson bolasi jamiyatga qo'shilib borgan sari, ya'ni ijtimoiylashib borgan sari o'zini qaysi ijtimoiy guruhlariga mansub ekanligi, qay bir guruh unga ma'qul yoki noma'qul ekanligiga ko'proq e'tibor bera boshlaydi. Unda unga yordam beruvchi muhim omil – bu uning ijtimoiy tafakkuri yoki mustaqil fikridir. "O'zinning guruhim" yoki "begonalar guruhi" tushunchalarining paydo bo'lishi esa shaxsni o'rab turgan muhitning qadriyatlariga, uning etnopsixologik o'ziga xosligiga bevosita bog'liq. O'tkazilgan so'rovlarda bizning yoshlarimiz "o'zimmiki" kategoriyasiga kiruvchi guruhlariga eng avvalo oilasini, undagi qadriyatlarini

tasavvur qilishlarini aniqladik va bu holat bizningcha muhim [7]. Chunki Amerikada o'tkazilgan ayrim tadqiqotlarda ularga ijtimoiy hayrixoh bo'lgan guruhlar qatorida eng avvalo "yaqin do'stlar", so'ngra keyingi qatorlarda "ota-onalar" guruhini qayd etishgan. Chunki bu yoshlar uchun ijtimoiy qulab-quvvatlov, yoki hamjihatlik birinchi navbatda intim munosabatlar yoki "hissiy emotsional bog'liqlik" kabi tasavvurlar bilan uyg'unlashadi. Bizning yoshlarda esa bu tasavvurlar yaqin insonlari, birinchi navbatda otasi yoki onasi, qolaversa, yaqin qarindoshlarning ma'naviy va ruhiy ko'magi ma'nosida aks etadi. Demak, qadriyatlarining e'zozlanishi bola ongida "o'zining" hamda "begona" guruhlarini aniq differentsiya qilish psixologiyasini shakllantiradi. Bu biz uchun muhim bo'lib, ma'naviy qadriyatlarimizni, avvalo oila qadriyatlariga nisbatan farzandlarda to'g'ri munosabatni shakllantirishimiz, yoshlar ongida va mustaqil shu o'rinda ularga faqat yaxshilikni ravo ko'ruvchi insonlarni qadrlash, ularni hamisha e'tirof etish psixologiyasini kuchaytiradi [8]. Oilani, mahallani qadrlash esa yoshlarni ijtimoiy xulqini turli xil og'ulardan, muammolardan asrovchi omil sifatida ma'naviy hayotimizda ijobiy rol o'ynayveradi.

ADABIYOTLAR

1. Raxmonova Z.N. "The influence of family values on personality development"// *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol.11, Issue 3, March 2021.DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00961.7 Pg.1855-1857.
2. Raxmonova Z.N., Abdullajonova D. "Motivation To Succeed, To Avoid Defeat And The Impact Of Risk Preparedness On Womens Activism And Its Socio-Psychological Factors"// *European Journal of Molecular&Clinical Medicine* ISSN 2515-8260 Volume 07, Issue 01, 2020 Pg 3555-3561.
3. Raxmonova Z.N., Mukhamedova D., Abdullajonova D, Babadjanova C., Tukhtabekov K. "The main directions of accounting socio-psychological characteristics of the manager of education in the process of optimizing management activities in Uzbekistan"// *Journal of Advanced Research Dynamical and Control Systems(JARDCS) (AQSh) ilmiy jurnali* (Vol.11,10-Special Issue, 2019. Pg. 1035-1038).
4. Базарова К.Т. «Социально-психологические факторы развития лидерских качеств руководителя. На материалах транснациональной коорпорации»2010.
5. Каримова В.М. Ижтимоий психология асослари. – Тошкент, 1994. – Б. 48–54.
6. Барабанщиков В.А. Зависимость точности идентификации экспрессии лица от локализации мимических проявлений/ Барабанщиков В.А., Малкова Т.Н.// *Вопросы психологии*. – 1988. – № 5. – С. 131 – 141.
7. Бараева Е.И. Особенности мотивации достижения и избегания неудач у студентов аграрно-технического вуза. *Педагогические Науки. Психология*. № 5. 2009. С.96,97,98.
8. Басова О.А. Психологические особенности ответственности предпринимателя в процессе личностнопрофессионального развития. Автореф.дис...канд.психол.наук.-Ростов-на –Дону, 2008.-С.20.
9. Белинская Е.П. Исследование личности:традиции и перспективы Социальная психология в современном мире: Учеб.пособ.для вузов/Под.ред. Андреева Г.М., Донцова А.И.-М.:Аспект Пресс,2002.-С.42-56.



Nazira RUZIBAEVA,
Senior teacher at UzSWLU, Tashkent
E-mail: naziraruziboeva@mail.ru

O'zMU professori, filologiya fanlari doktori A.E.Mamatov taqrizi ostida

COMMUNICATION COMPETENCE IN LANGUAGE TEACHING

Annotation

In this article we are going to test the hypothesis that it is through long-term communications, and not brief exchanges in class, that linguistic knowledge, discursive and conversational skills can be deployed. It is not just a matter of providing dialogical opportunities ("communication language bath") but of jointly constructing the discourse, of supporting it, of providing lasting help by mobilizing both communication and reflection on this communication.

Key words: Communication, discursive and conversational skills, transmission of knowledge.

TIL O'QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA

Annotsatsiya

Ushbu maqolada biz lingvistik bilimlar, diskursiv va so'zlashuv ko'nikmalarini sinfda qisqacha almashish emas, balki uzoq muddatli muloqot orqali qo'llash mumkin degan gipotezani sinab ko'rmoqchimiz. Bu nafaqat dialogik imkoniyatlarni ta'minlash ("kommunikativ til hammomi"), balki nutqni birgalikda qurish, uni qo'llab-quvvatlash, ushbu muloqotda ham muloqotni, ham fikrlashni safarbar qilish orqali uzoq muddatli yordam ko'rsatish haqida.

Kalit so'zlar: Muloqot, diskursiv va so'zlashuv kompetensiyalari, bilimni uzatish.

КОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКУ

Аннотация

На данной статье мы собираемся проверить гипотезу о том, что именно благодаря длительному общению, а не кратким обменам в классе, могут быть задействованы лингвистические знания, дискурсивные и разговорные навыки. Речь идет не просто о предоставлении диалогических возможностей («коммуникативная языковая баня»), а о совместном построении дискурса, его поддержке, оказании долговременной помощи путем мобилизации как общения, так и рефлексии над этим общением.

Ключевые слова: Общение, дискурсивные и разговорные навыки, передача знаний.

Introduction. It is commonly accepted that learning a foreign language is not limited to the simple transmission of knowledge by the teacher. Being able to use the foreign language outside of one's field of study is one of the concerns of some FLE teachers. If the learner is unable to make use of this language in his discursive circles (with his teachers, the very curiosity to apply it in his daily life, with his friends, his parents, etc.) we can arrive at the following result: the primordial task of the Teaching/Learning of French as a foreign language in this case is not accomplished.

However, outside the classroom, the adult is in a situation of communication with speakers who do not stick to their mother tongue. The learner is frustrated at not understanding and not being able to speak in French and reacts epidemically: the teacher is incompetent, the method is not good, our students speak badly, French is too difficult a language for them, the French of the method is not the one he needs. However, it cannot be otherwise since the method has eliminated what makes life.

Main part. The coexistence of two or more languages within the same community space is inevitably a source of conflict: "men are therefore confronted with languages". According to J.L. Calvet: "Wherever they are, whatever the first language they heard or learned, they meet others every day, understand them or not, like them or not, are dominated by them... the world is multilingual, it's a fact...contrary to what some may think, this multiplicity of languages does not define particular situations or continents. It is not only the prerogative of the Third World, divided between its dialects

and the languages of the former colonizers. It is a common lot, even if it manifests itself differently depending on the case.

The case of French is revealing, by examining the different situations whether they are in Europe (France, Belgium, Switzerland, Luxembourg, etc.) or black Africa (about fifteen countries, Mali, Senegal, Guinea, Congo, etc.) , the Maghreb (Tunisia, Morocco, Algeria³), North America (Canada, Louisiana), the West Indies (Guadeloupe, Martinique, Haiti) or Reunion (the Creole-speaking islands, etc.). We will notice that there is no correspondence between:

A political border (state)

A Nation

A language

If French is officially present in many countries and concerns a large number of speakers, it co-exists everywhere with other languages, and it is precisely the modalities of this co-existence that we propose to examine there. to take a look at.

If French is officially present in many countries and concerns a large number of speakers, it co-exists everywhere with other languages, and it is precisely the modalities of this co-existence that we propose to examine there. to take a look at.

Methods. The concept of competence poses several major problems when one is interested in language action and communication.

1. N.Chomsky used the notion of competence in a sense familiar to linguists and language didacticians to which some remain faithful. The question is whether we want to call competence an innate faculty of the human species or an

acquired skill that belongs to each person and therefore varies from one to the other.

2. the second problem is not specific to the field of language and communication, but it is opposed to it in a particular way. This is the question of the level of abstraction and the degree of relevant contextualization to grasp a skill. Is there a single skill, which we would call narrative or argumentative, allowing us to deal with the diversity of issues and narrative or argumentative content? or is there a different skill to tell a funny story or a drama, to convince a patient to smoke less or to persuade his boss to give you a raise? here we find the opposition capacities/competences and the question of whether a competence refers to a class of situations, with all the ambiguities of this latter concept.

3. the third problem concerns the nature of the linguistic or communicational cognitive resources that a speaker mobilizes in an exchange situation. That is, by asking the following question: to what cognitive resources does the practice of language and communication refer?

4. the fourth problem, without being specific to language teaching, arises there in particular terms: can we, should we, at school train in skills or should we stick to the abilities? and knowledge, in other words what Quebecers call "elements of competence". if we aim building skills, language teaching finds itself in a particular position: language is a tool in all areas, in other academic or scientific disciplines, in all professions and in almost all situations of daily life. Training in skills is then to invest the whole of social life, with the theoretical difficulties but also the ideological and ethical issues that one imagines.

The notion of competence is one of the words that come to mind to designate this "already there" which preexists our actions and gestures and to a large extent makes them possible, not in a vacuum, but when we are confronted with situations.

1.3. Should we talk about competence or skills?

Another problem of definition may arise from the plural of language skills, i.e. thinking of the individual as possessing a single language skill, or a single communication skill.

This plural concerns both communication situations and language operations:

the same subject, faced with different communication situations, can be very adequate and effective in some, clumsy and inefficient in others, his communication competence is therefore defined in relation to families of situations.

In the same situation, his "global performance" brings into play multiple language operations, some of which are

better mastered than others and which therefore contribute in different ways to the overall performance.

Which brings us back to an old problem, the opposition (or distinction) between capacities and skills.

- Discursive capacities, thanks to which speakers construct and use "criteria allowing them to make a choice among the discursive models available in the language environment".

- Linguistic-discursive capacities, themselves divided into "five sets of operations involved in all language production: operations of planning, temporal structuring, cohesion, connection and modelling".

Results. In another text, Bronckart and Dolz list the capacities mobilized in the conduct of a presentation:

1) Understand and analyze complex oral texts of the order of knowledge;

2) documenting a given topic;

3) organize the parts of the presentation;

4) use notes as a reminder in speaking

5) rephrase to make it easier for the listener to understand;

6) managing pauses, voice volume, rate, expressive intonation; Anyone who has experience of the presentation knows that it is the coordination of all this that is acquired the slowest. We can attribute this task of orchestration to a "capacity for action, which would in a way pilot the linguistic interaction globally - here the presentation, however weakly dialogic - and would call on the discursive and linguistic-discursive capacities in a given context. We are then quite close to what we can call skills, with one difference: the absence of reference to identified families of situations and social practices.

Conclusion. Thus, leading a conversation or participating in it with a good face would be skills, which mobilize capacities such as knowing how to listen, interrupt, wait, question, intervene, conclude, etc. We could conclude that it suffices to opt for a term (capacity or skill) and to stick to the Russian dolls which mean that each level can both constitute a resource for the higher levels and mobilize lower levels as resources. The semantic issue between capacities and skills is to mark, if not a strict opposition, at least a polarity. At one of the poles, we find decontextualized language capacities, therefore relevant in a wide variety of contexts, but powerless to deal with them on their own. At the other extreme are skills that address relatively defined categories of situations.

REFERENCES

1. Souchon Marc « Compétences, savoirs, représentations. Leur rôle dans la lecture en L2 en début d'apprentissage. Le cas de deux langues-cultures « voisine » », in Les cahiers du CRELEF, n°32, 1991-92, 1991-92, pp.107- 136.
2. Souriau Christine « L'arabisation au Maghreb : Itinéraire d'une recherche sur les effets sociaux des rôles des langues », in Annuaire de l'Afrique du Nord, Paris : CNRS, 1984, pp.89-98.
3. Trescases Pierre « L'utilisation de la page publicitaire : l'instantané (ou le flash) culturel », in Le français dans le monde, n°166, 1982, pp.18-25.
4. Trescases Pierre « Propositions pour une compétence culturelle de l'enseignant et de l'apprenant », in The French Review, vol 57, n° 1, 1983.
5. Trescases Pierre « Réflexion sur le concept de compétence culturelle en didactique », in Etudes de linguistique appliquée, n° 60, 1985.



Komila SAYFIYEVA,
Tashkent State University of Law English teacher at Foreign Languages Department
Email: k.sayfiyeva@tsul.uz

Reviewed by Yusupova Shaxzoda, (PhD) Senior teacher at Department of Foreign Languages, TSUL

WHAT IF WE TEACH IELTS AS A COMPULSORY SUBJECT IN SECONDARY EDUCATION IN UZBEKISTAN?

Annotation

This article is dedicated to the proposal to include the IELTS course as a compulsory subject in the field of teaching and learning foreign languages at the secondary level of the educational system of Uzbekistan, among the subjects in the educational spectrum, and effective methods of teaching this course. In the article, the author expressed her opinion about the IELTS program, relying on the opinions of experts in the world.

Key words: Language proposal, internationalization, IELTS, national, language policy and laws, curriculum and syllabus, inventory, phases, funding, compulsory subject

ВНЕДРЕНИЕ КУРСА IELTS КАК ОБЯЗАТЕЛЬНЫЙ ПРЕДМЕТ В СИСТЕМЕ СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Данная статья посвящена предложению о включении курса IELTS в качестве обязательного предмета в сфере преподавания и изучения иностранных языков на средней ступени системы образования Узбекистана, в число предметов образовательного спектра, а также эффективным методам преподавание этого курса. В статье автор высказала свое мнение о программе IELTS, опираясь на мнения мировых экспертов.

Ключевые слова: Языковое предложение, интернационализация, IELTS, национальность, языковая политика и законы, учебная программа и программа, инвентарь, этапы, финансирование, обязательный предмет.

O'ZBEKISTON O'RTA TA'LIM TIZIMIDA IELTS KURSI MAJBURIY FAN SIFATIDA JORIY ETILSA

Annotatsiya

Ushbu maqola O'zbekiston ta'lim tizimining o'rta ta'lim bosqichida xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganish sohasida o'quv ta'lim spektridagi fanlar qatoriga IELTS kursini ham majburiy fan sifatida kiritish taklifiga bagishlangan bo'lib, unda ushbu kursni o'qitishning samarali usullari xususida fikr yuritiladi. Maqolada muallif IELTS dasturi xususida dunyodagi yetuk soha vakillarining fikrlariga tayangan holda o'z fikrlarini bayon qilib o'tgan.

Kalit so'zlar: Til taklifi, xalqarolashtirish, IELTS, milliy, til bo'yicha qarorlar va qonunlar, o'quv rejasi va o'quv dasturi, inventar, bosqichlar, moliyalashtirish, majburiy fan.

Introduction. In the wake of the internationalization of secondary and higher education as well as decentralization of the education system, English has gained popularity as the most widely learned foreign language in Uzbekistan (Hasanova, 2007). Many laws and reforms regarding teaching and learning English has been gradually implemented at micro and macro levels starting from pre-schools to secondary and higher education by the former president and current president of the country.

According to the Law on Education and the National Programme for Staff Training (1997), the aim of the academic lyceum is to create an opportunity for the learners to enhance their knowledge in the field of their choice and to prepare them for study at Universities. Therefore, the central language proposal is focused on teaching IELTS as a compulsory subject in the second Academic Lyceum under the Uzbek State World Languages University since majority of the students want to take IELTS examination in order to pass entrance exams from English of the university as well as be proficient in English language.

It is common knowledge that, according to the recent decree of the Ministry of Higher and Secondary Education, students who obtained CEFR B1 or IELTS 5.5 certificates, are given maximum scores from English which means they do not have to take entrance exams from English. In the academic second lyceum, many students are addicted to prepare for IELTS examination which in turn leads them to ignore the

subjects which are taught there. As Bourdieu (1984) points out, being proficient in English for young generation means to achieve better employment and higher social status, as a way to gain prestige and as a sign of 'distinction' (cited in Hasanova, 2007) (Synopsis, Sayfiyeva).

National policies and laws

Kaplan (2011) states that a language policy is a body of ideas, laws, rules and practices established by government which are intended to gain the planned language change in the society, group or system. He further suggests that if the government wants to teach a language to its citizens, initially, this country should implement a certain language policy and after that some changes can be introduced to the teaching system of the language at micro and macro levels. After gaining its independence, Uzbekistan also began focusing on language planning and policy by considering many factors while implementing them (Hasanova, 2007). Among them, two major policies are worth mentioning. Education in academic lyceums used to last for 3 years from 1997 to 2017. According to the Decree of the President in 2017, secondary education had been reduced from 12 years to 11 years and the duration of the academic year at lyceums became 2 years (Decree of the Republic of Uzbekistan, PD-3290, 2017). The Second important policy which led academic lyceum students to prepare for IELTS exams is that on May 13, 2019 Cabinet of Ministry set a resolution on entrance exams of Higher education in which students who has national and international

certificates such as IELTS 5.5, CEFR B1, TOEFL IBT 72 can get maximum score from English (Decree of Cabinet of Ministry, N395, 2019). Another the most recent decree was introduced by the President of Uzbekistan, which is the order of the Cabinet of Ministry of the Republic of Uzbekistan adopted in December 3, 2020. It was said that State Testing Centre of Uzbekistan will be responsible for conducting free exams for the second year students of academic lyceums which determines their knowledge of foreign languages (Decree of President, PD-4910, 2020).

Goals and Objectives. The main goal of the proposal is to teach IELTS as a subject to the students of academic lyceum. There are also some objectives which should be considered in order to fulfill the main proposal. As Kraiser (2018) believes, clearly articulating goals and objectives sets up for later recommendations which can also be linked with a timeline or an implementation plan done in phases. Firstly, students should be trained enough by focusing all skills such as listening, speaking, reading and writing in the first year of their education and suitable learning outcomes should be created by modifying existed ones and using new up-to-date methods of teaching. When I took a survey from the first and second year students, most of them were not satisfied with English lesson since the lessons do not cover all skills and teachers demand too much to do unnecessary home tasks which make them to go educational centers to enhance their knowledge. The second objective involves employing experienced teachers who are proficient language teachers with the IELTS score at least 7 and training the teachers of lyceum to take IELTS certificates so that they will be ready to teach students. The next, it is crucial to buy authentic books and materials for teaching and if necessary create new ones taking into consideration the students' needs, age, culture and others. Another objective which supports the implementation of the proposal is related to the curriculum and syllabus. Since IELTS will be taught as a subject, designing curriculum and syllabus for the new subject would be the essential part. Additionally, in terms of assessing students, they should be assessed according to their results in mock exams and conducting the mock exams in every semester would be next main objective. Last but not least, to make sure that as many as students will take at least IELTS 5.5 band score certificates and expenses for taking the exam must be provided for less-privileged students.

Recommendations. According to Kraiser (2018), any language planning proposal must have clear recommendations which have been stated to influence the change. Having a high level of English proficiency is vital to achieve success in higher education therefore, it is necessary for students to have IELTS or other language proficiency tests (Hasanova D, 2017). Recommendations are clearly connected with the goals and objectives with addressing narrowing gap mentioned in previous section:

Since hours of English classes are not enough for students to achieve proficiency in English, the very hours should be extended. Additionally, there should be lessons focusing on IELTS which can be called "Reading and Listening", "Speaking and Writing" and "Grammar and Vocabulary".

2) Students should be trained with all four skills with clear instructions. If necessary, teachers should work with students who are falling behind.

3) In order to facilitate learning and teaching process efficiently, sufficient lesson plans should be created for teaching IELTS with the help of experienced IELTS instructors.

4) As preparation for IELTS requires authentic materials, lyceum authorities should encourage local professionals

as well as international teachers to create the books and collect appropriate materials based on IELTS exam tasks

5) Regarding the staff, all teachers must have at least IELTS 7+ certificate since it is not possible for ones to teach this lesson without getting the certificate themselves. Moreover, teacher-training courses for teaching IELTS should be offered for the current teachers of the lyceum so as to make them more qualified

6) One of the reasons why most teachers struggle in teaching English using CLT, is the lack of technology which support this approach. In lyceum, there are very few rooms which are equipped with modern technology or computers. As Rao (1996) suggested, "... audio-visual tools, photocopiers, computers, and overhead projectors are required to support dynamic teaching necessitated by communicative methods". Therefore, the rooms should be equipped with modern technology in order to create best learning and teaching atmosphere.

Timeline and funding. The suggested timeline for implementing this proposal includes three main phases and funding is ongoing:

Phase I (2021-2022) is directed to train teachers for teaching IELTS professionally and help them to take IELTS themselves. For this purpose approximately, overall 6000 dollars can be spent. This money can be spent on the salaries of the professional teachers who train them, preparation of IELTS exam and taking the certificate. According to recent decree which was the order of the Cabinet of Ministry of Uzbekistan, people who are under 30 can get 70 % of reimbursement if they take 7 band score or higher (Cabinet of Ministry, N-6155, 2021). All teachers who are trained are young teachers since 80% of the English teachers at lyceum consist of young teaching staff. For funding, the foreign investors can be involved.

Phase II (6 months) creating appropriate authentic textbooks and materials for teaching IELTS lessons. Approximately 5000 dollars will be spent for this purpose. Some textbooks also can be bought from authentic sources. The money also will be spent for the salaries of the teachers, book writers and staff who are involved for this project and it can be allocated some financial from the budget of the lyceum and parents of the students

Phase III (4 months) is targeted on equipping the rooms with modern technology in order to create better learning and teaching atmosphere for students and teachers. Almost 8000 dollars are needed for this although there are very few rooms which have modern equipment and technology. If funding is available less than 2 months are enough. Financial support should be asked from the governmental financial organizations for providing up-to-date technology.

Suggested aspects to address

Target language skills. All four skills such as reading, listening, speaking and writing will be emphasized as they are the main skills which are taught in IELTS lessons. Each skill will be taught in detail by considering the important factors which are necessary for taking the exam. Therefore students also will be prepared for the exam thorough mock exams which are held in the lyceum.

Assessments. At the beginning of the freshman year teachers and administrators should conduct placement test in order to place students to appropriate groups. As mentioned above, students should be evaluated according to their performance on mock exams each term. The final examination which consists of written work including grammar and vocabulary should be changed into IELTS mock exams. Students who got 5.5 or higher can be put the highest grade.

Additionally, there should be regular formative assessments in order to give feedback to students.

Actors. In order to put the objective into action, the actors who are people with expertise play a crucial role (Zhao and Baldauf, 2008). Hence, in my proposal, Regional English Language Office (RELO) and curriculum writers who need to add IELTS lessons into curriculum of the lyceum need to work collaboratively and professional language teachers should be involved to organize special teacher-training courses to improve the level and the skills of the teachers. For training teachers to teach IELTS lesson along with making them take IELTS certificate take approximately one year. The next objective involves using authentic textbooks for teaching IELTS or if it is needed, the appropriate materials and textbooks should be created. All teachers of lyceum and experienced IELTS instructors should be involved for doing this as it requires a big workload and professionalism. Following objective is about using modern technology such as computers, headphones, projectors and interactive whiteboards during the lessons in order to create comfortable learning environment. The supporters here can be governmental financial organizations and foreign investors. Before proposing this language project, the viewpoints of students of academic lyceum about teaching IELTS as a subject were

taken into account as students are main stakeholders and without their support there is no use of proposing it. As Kheng and Baldauf (2011) pointed out, "...neither large scale language planning, nor even local planning may be successful if the individuals do not believe in the need for the language planning activity. Thus, language planning needs to take into consideration the positive effects that intrinsic motivation may have on individuals".

Conclusion . From overall perspective, the central proposal on teaching IELTS as a compulsory subject to the students of second Academic Lyceum under UzSWLU can be great alteration on the system of education as well as curriculum of Academic Lyceum. By implementing the project, students can have a chance to take maximum scores from English in the entrance exams and they will also be proficient in their use of language skills. The main reason for proposing this project was that to help students to prepare the exams free and to increase the reputation of the lyceum in Uzbekistan. To adapt existing old system into new up-to-date methods can facilitate the language acquisition of students. Additionally, implementation of modern technology and new textbooks as well as materials and involvement of important actors and stakeholders are also the foundation of accomplishing the suggested proposal.

REFERENCES

1. Baldauf R. B. & Zhao S.H. (2008). Language acquisition management inside and outside of school. Handbook of educational linguistics, New York: Springer. pp. 233-250.
2. Hasanova D. (2007). Broadening the boundaries of the expanding Circle: English in Uzbekistan. World English 26(3), p.282.
3. Hasanova D. & Shadieva, T. (2007). Implementing communicative language teaching in Uzbekistan. TESOL Quarterly, 42(1), 138-143.
4. Kaplan R.B. (2011). Macro language planning. In E. Hinkel (Ed.), Handbook of research in second language teaching and learning: New York: Routledge, Volume 2 (924-935).
5. Kheng C.C. & Baldauf, Jr., R.B. (2011). Global language: Decolonization in the new era. In E. Hinkel (Ed.), Handbook of research in second language teaching and learning: New York: Routledge Volume 2, pp.952-969.
6. Kaiser D (2018). Growing your own onion: Teachers as Writers of Language planning and Policy. (draft article).
7. Rao Z. (1996). Reconciling communicative approaches to the teaching of English with traditional Chinese methods. Research in the Teaching of English, 30(4), pp. 458-471.
8. The national decrees and internet sources.
9. Decree of President, PD-4910. (2020). About the selection system of talented students and improvement of education system in Academic lyceums. Retrieved from https://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=-5141332.
10. Decree of the Cabinet of the Ministry of Uzbekistan (2019). About measures for the implementation of certificates of national and international evaluation systems in admission to higher educational institutions. Retrieved from <https://lex.uz/docs/4332249>.
11. Presidential Decree PD-3290. (2017). On the further improvement of the system of target training of candidates for entering higher educational institutions. Retrieved from <https://lex.uz/docs/-3357535>.
12. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, ID-29779, (2021). About the Introduction of the procedure for full reimbursement of expenses for examinations of the young people who have high scores on international examination systems. Retrieved from <https://regulation.gov.uz/uz/d/29779>.



Barno SAPAYEVA,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

C.f.n. dots N.Xalilova takrizi asosida

INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA "TEMURBEKLAR MAKTABI" O'QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Maqolada interfaol metodlar yordamida "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarida kommunikativ kompetentliligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlariga bag'ishlanadi. Unda "Temurbeklar maktabi" o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishda interfaol o'qitish metodlaridan keys stadi, aqliy hujum, loyihalash, klaster usullaridan samarali foydalanishning asosiy yo'l-yo'riqlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol metodlar, ta'lim, bilish ko'nikmalari, kommunikatsiya, kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, keys stadi, aqliy hujum, loyihalash, klaster.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ШКОЛЬНИКОВ ТЕМУРБЕКЛАР С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

Аннотация

В статье рассматриваются педагогико-психологические аспекты развития коммуникативной компетентности учащихся «Школы Темурбека» с использованием интерактивных методов. Показаны основные направления эффективного использования методов кейс-стади, мозгового штурма, проектирования и кластерных интерактивных методов обучения в развитии коммуникативной компетентности учащихся «Школы Темурбека».

Ключевые слова: Интерактивные методы, обучение, когнитивные навыки, коммуникация, компетенция, коммуникативная компетенция, кейс, мозговой штурм, дизайн, кластер.

DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN TEMURBEKLAR SCHOOL STUDENTS USING INTERACTIVE METHODS

Annotation

The article deals with the pedagogical and psychological aspects of developing communicative competence in the students of "Temurbek School" using interactive methods. It shows the main guidelines for the effective use of case study, brainstorming, projecting, and cluster methods of interactive teaching methods in the development of communicative competence in the students of "Temurbek School".

Key words: Interactive methods, education, cognitive skills, communication, competence, communicative competence, case study, brainstorming, design, cluster.

Kirish. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning butun jarayonining o'zagi aloqa faoliyati shakli sifatida vaziyatga asoslangan muloqotga yo'naltirilgan ta'limdir. Ingliz tillarni muloqotga yo'naltirilgan o'qitishning asosi, bizningcha, ingliz tilini o'zlashtirish uchun qulay didaktik shart-sharoitlarni yaratish, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishni ta'minlashdir. Bu o'quvchilarni faol nutq faoliyatiga jalb qilgan holda, o'quv jarayoniga haqiqiy muloqotning turli vaziyatlari kiritilganda mumkin.

Ta'limning interfaol shakllari - bu o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi, shuningdek, o'quvchilarning o'zlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirga asoslangan kognitiv faoliyatni tashkil etish shakllari.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Interfaol - kimdir (odam) yoki biror narsa (masalan, kompyuter) bilan o'zaro aloqada bo'lish yoki suhbat, dialog rejimida bo'lish qobiliyatini anglatadi. Binobarin, interfaol o'qitish, eng avvalo, o'qitishning turi uning davomida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlik qiladi. Ushbu turdagi ta'limning yanada to'liq mazmunini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, bu har bir o'quvchi o'z muvaffaqiyati va intellektual qobiliyatlarini his qiladigan qulay o'quv sharoitlarini yaratish uchun aniq, bashorat qilinadigan maqsadga ega bo'lgan kognitiv faoliyatni tashkil etishning maxsus shaklidir [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Faqatgina bevosita metod bilan emas, balki boshqa omillar, masalan, ta'lim muhiti bilan

ham belgilanadigan o'quvchining faoliyati interfaol ta'limning asosi hisoblanadi.

Interfaol ta'lim jarayonining samaradorligi quyidagi tamoyillarga bog'liq: dialogik o'zaro ta'sir, hamkorlik va hamkorlikka asoslangan kichik guruhlarda ishlash, faol rol (o'yin) faoliyati, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish [4].

Juftlik va guruh ishini eng mashhur shakllari: ichki (tashqi) doira, aqliy hujum, zigzag o'qish, fikr almashish, shuningdek, kommunikativ va kognitiv maqsadlarni birlashtirgan eng yangi o'qitish usullari. Interfaol usul kommunikativ-kognitiv vazifalarni ingliz tilidagi muloqot orqali hal qilish imkonini beradi. "Interfaol ta'lim" kategoriyasini quyidagicha aniqlash mumkin: a) o'qituvchi va o'quvchining muloqot jarayonida o'zaro ta'siri; b) lingvistik va kommunikativ muammolarni hal qilish maqsadida o'qitish. Interfaol faoliyatga o'zaro tushunish, o'zaro munosabat, ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisi uchun muhim bo'lgan muammolarni hal qilishga qaratilgan dialogik nutqni tashkil etish va rivojlantirish kiradi [2].

Interfaol o'qitishda o'qituvchi ishda yordamchi vazifasini bajaradi, axborot manbalaridan biri. Uning faoliyatida markaziy o'rinni alohida o'quvchi shaxs sifatida emas, balki bir-birini rag'batlantiradigan va faollashtiradigan o'zaro aloqada bo'lgan o'quvchilar guruhi egallaydi [4].

Ta'limning interfaol shakllaridan foydalanish natijasi quyidagi vazifalarni hal qilishdir: aloqa va rivojlanish, ta'lim, kognitiv, ijtimoiy va yo'naltirish.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'quv jarayoniga kommunikativ treninglarni kiritish maqsadga muvofiqdir, uning maqsadi nutq amaliyoti. Trening davomida o'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda mashg'ulot mavzusiga mos keladigan vazifalarni qo'yadilar. Natijada o'quvchilar o'z-o'zini taqdim etish ko'nikmalariga ega bo'ladilar, aloqa o'rnatishni, ma'lumotlarni to'g'ri taqdim etishni, fikr-mulohazalarini olishni o'rganadilar. Trening davomida ba'zi asosiy qoidalarga rioya qilish kerak: barcha o'quvchilar mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari kerak; his-tuyg'ularni namoyon eting, o'z fikringizni qimmatli baholansiz ochiq ifoda eting.

Tahlil va natijalar. O'quvchilar olgan bilimlaridan foydalanish jarayonida faol ishtirok etadilar, amaliy masalalarni yechish jarayonida bilimlarni umumiy tushunish va o'zlashtirish darajasi ortadi. Ta'limning interfaol shakllaridan foydalanishning har bir bosqichida o'quvchilar o'z imkoniyatlarini ochib beradilar va jamoaviy faoliyat tajribasi to'planadi.

Interfaol ta'lim o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'quv faoliyatini, ularning o'zaro ta'siriga yo'naltirilgan holda, o'qitishning faol usullarini qo'llashni o'z ichiga oladi: biznes va rolli o'yinlar, harakatlar va rollarni o'ynash, qo'shma munozaralar, taqlid o'yinlari, loyiha ustida ishlash, modellashtirish, o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari, treninglar va boshqalar.

Dialogli o'zaro ta'sir katta ijodiy va rivojlanish salohiyatiga ega, chunki u muloqot ishtirokchilarining o'z-o'zini anglashini faollashtiradi, fikrni aniqlaydi, shakl va mazmunning uyg'unligini talab qiladi. Ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan muloqot insonning muloqot qilish, o'zaro ta'sir qilish, hamkorlik qilish, birgalikda yaratishga bo'lgan asosiy ehtiyojini amalga oshiradi. Shuning uchun ta'lim va tarbiyaning dialog shakllari o'qituvchiga o'quvchi shaxsini ijtimoiylashtirish uchun sharoit yaratishga imkon beradi [1].

O'qitishning interfaol shakllarining asosiy tamoyili faol muloqot tamoyili bo'lib, u darsda turli xil tabiat va turdagi muloqot holatlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Darsda o'quvchilarning yuqori darajada tashkil etilgan o'zaro munosabati muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Biz uchun asosiy qiziqish interfaol ish shakllari bilan ifodalanadi: munozaralar, o'quv o'yinlari (rolli muloqot o'yinlari), keys usuli, loyiha usuli.

Munozara darsi, muhokama darsi va boshqalar kabi dars shakllari doirasida dialogli o'zaro ta'sir qilish mumkin.

E.V.Kovalevskaya muhokamani o'tkazishning ba'zi usullarini taklif qiladi, masalan: muammoli vaziyatni taqdim etish; muammoli savollarni ko'tarish; videolarni namoyish qilish; muammoli vaziyatda rol o'ynash; muhokama qilinayotgan mavzu bo'yicha qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish; muqobil tanlov (ishtirokchilarga muammoni hal qilishning bir nechta nuqtai nazaridan yoki usullaridan birini tanlash taklif etiladi) [3].

Hech bir munozara savol-javobsiz tugamaydi va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. To'g'ri tuzilgan savollar o'quvchilarga kerakli ma'lumotlarni olish, o'z fikrlarini bildirgan sinfdoshlarning pozitsiyasini aniqlashtirish imkoniyatini beradi. Munozara darsi bir nechta bosqichlardan iborat. Munozara darsini o'tkazishda nutq so'zlashga faqat o'qituvchining ruxsati bilan yo'l qo'yiladi, barcha o'quvchilar ishtirok etishlari, har biri bir vaqtning o'zida o'z fikrini bildirishi kerak. Dars muhokamasi bir nechta bloklardan iborat bo'lishi mumkin, ular oxirida natijalar umumlashtiriladi. Avvalo, so'z o'qituvchiga beriladi, u mavzuni tanlashni asoslaydi va qisqacha ma'lumot beradi.

Dars-munozaraning asosiy maqsadi muloqot ko'nikmalarini shakllantirishdir. O'qituvchi vazifalarni ham belgilaydi, masalan, turli kasblar haqida tasavvurni shakllantirish, ma'lum bir kasb uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni aniqlash.

Dars uchun materiallar: Kompyuter (prezentatsiya, slaydlar), kartochkalar. Keyinchalik, ma'lum bir kasbga oid turli xil rasmlardan iborat slayd-shou mavjud, o'quvchilar navbatma-navbat kasblarni chaqiradilar, ularni tavsiflaydilar. O'qituvchi ma'lum bir kasb imidjining shakllanishiga nima ta'sir qilganini, qanday omillarni so'raydi. O'quvchilar navbatma-navbat gapiradilar (filmlar, kasblar haqidagi kitoblar, ommaviy axborot vositalari, qarindoshlar, do'stlar kasblari va boshqalar). Slaydlarda harflar paydo bo'lgandan so'ng, o'quvchilar ushbu kasblarda muvaffaqiyat qozongan kishilarning ismlarini aytadilar. O'quvchilar har biri haqida qisqacha gapirib berishadi va ular rozi bo'lmashligi mumkin. Darsning ushbu muhokama bosqichida o'quvchilar o'z pozitsiyalarini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etadilar. O'quvchi o'z fikrini bildirgandan so'ng, u xulosalar chiqaradi. Keyingi o'rinda raqib keladi, u boshqa nuqtai nazarni bildiradi, buning uchun bahslashadi. Har kim o'z fikrini bildirgandan so'ng, umumiy xulosalar chiqariladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, dars-munozara jarayonida kommunikativ kompetentlikning muhim tarkibiy qismlari: pragmatik va sotsiolingvistik shakllanadi. O'quvchilarda nutq madaniyati shakllanadi: suhbatdoshning gapini to'xtatmasdan tinglash qobiliyati.

Bunday darslarni o'tkazishda o'quvchilar ijodiy faoliyatni kashf etadilar, bu darsda muloqot jarayonini jonlantiradi, dars hissiy jihatdan to'yingan bo'ladi. Bundan tashqari yangi narsalarni o'rganishda o'quvchilar nutq faoliyatining turli turlarini o'zlashtiradilar, ular ko'proq foydali ma'lumotlarni eslab qoladilar, qiziqish paydo bo'ladi.

Shuningdek, biz ingliz tili darsida (ingliz tili misolida) keys metodidan foydalanishni muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri deb hisoblaymiz. Darsda keys usulidan foydalanish quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

- monolog va dialogik nutq ko'nikmalarini rivojlantirish;
- grammatik va leksik ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quvchilarning so'z boyligini kengaytirish;
- o'quvchilarning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish;
- guruh va juftlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Shartli nutq mashqlaridan foydalanish (almashtirish, imitativ, transformatsion, reproduktiv) aloqaga yo'naltirilgan ta'limning butun jarayonining ajralmas qismi bo'lib, butun o'quv jarayoni muloqot holatlari bilan to'ldirilgan. Ushbu turdagi mashqlarni qo'llashdan asosiy maqsad shundan iboratki, o'quvchi nafaqat mashqlarni bajaradi, balki kommunikativ harakatlarni (suhbatlar, hisobotlar, ob'ektlar va boshqalar) maqsadli bajaradi.

Nutq faoliyatini samarali interfaol o'qitishning muhim sharti o'quv materialini yaratish va tanlash bo'lib, unda quyidagi mezonlarga amal qilish kerak: axborot mazmuni (audio va video materiallar, yozma matnlar); mazmunlilik (berilgan kommunikativ vazifaga rioya qilish); til va nutq amaliyoti (muloqot ko'nikmalari va qobiliyatlarini takomillashtirish).

Mashqlarni tanlash o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan elementlarga (leksik, grammatik) mos kelishi kerak.

Keys usulini interfaol ta'lim shakllaridan biri sifatida ko'rib chiqib, uning davomida yuqoridagi mezonlar amalga oshiriladi. Keys metodi (inglizchadan - case, vaziyat)

hamkorlikka asoslangan va muammoli-vaziyatli tahlildan foydalanishni nazarda tutuvchi usuldir.

Ingliz tillarini o'rgatishda keys usuli ham grammatik materialni o'zlashtirishni, ham amaliy til va muloqot ko'nikmalarini egallashni ta'minlaydi. Bu usulning maqsadi muayyan sharoitlarda yuzaga keladigan vaziyatni tahlil qilish va amaliy yechim ishlab chiqishdir. Natija - muammoni hal qilish uchun taklif qilingan yechimlarni baholash va eng yaxshisini tanlash.

O'quv maqsadlari va o'quvchilarning bilim darajasiga qarab holatlar hajmi va mazmuni bo'yicha farqlanadi. Ishlarning bir nechta turlari mavjud: tadqiqot, amaliy va o'quv. Ingliz tillarini o'qitishda amaliy va o'quv holatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Amaliy holatga kelsak, bu yerda asosiy vazifa vaziyatning o'ziga xos amaliy modelini yaratishdir (o'quvchilar ma'lum bir mavzu bo'yicha leksik va grammatik materialni ishlab chiqadilar; bilim, ko'nikma, ko'nikmalarni mustahkamlaydi; muayyan hayotiy vaziyatda qaror qabul qilishni o'rganadi).

O'qitish jarayoni o'z navbatida, real hayotda eng ko'p uchraydigan va temurbeklar maktab o'quvchisi kasbiy faoliyatida duch kelishi kerak bo'lgan tipik lingvistik vaziyatlarni aks ettiradi. Bunda birinchi o'ringa o'quv va tarbiyaviy vazifalar qo'yiladi. Har qanday holatga quyidagilar kiradi: 1) vaziyat (har qanday muammo, hayotiy voqea, voqea); 2) vaziyatning konteksti (tarixiy, xronologik, vaziyat ishtirokchilarining harakatlarining xususiyatlari); 3) vaziyatni sharhlash; 4) keys bilan ishlash vazifalari; 5) turli ilovalar [6].

Xulosa va takliflar. Ingliz tili darsida holat bilan ishlashda quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin: ingliz tilida so'z va iboralarning ichki talaffuzi mavjud bo'lib, bu ichki monolog nutqining shakllanishini bildiradi; tarbiyaviy va nutqiy vaziyatni tahlil qilish; nutq faoliyati ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshiriladi, ya'ni - ish uchun tegishli bo'lgan olingan ma'lumotlarni muhokama qilish; eng muhim ma'lumotlarni tanlash; muammo yuzasidan fikr almashish va ish rejasini tuzish (munozara); muammoga yechim ishlab

chiqish; yakuniy qarorni muhokama qilish; qisqacha hisobot, ma'lumot tayyorlash. Darslar mazmuni va mavzularini tanlash yuqori sinf o'quvchilari kundalik hayotida duch keladigan amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ingliz tili darsida keysdan foydalanish bir qator muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi:

- o'quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanadi,
- o'quvchilar o'rganilayotgan tilda fikrlay boshlaydi;
- notiqlik mahoratini rivojlantirish;
- har xil turdagi savollarni shakllantirish qobiliyati;
- muhokama qilish, o'z nuqtai nazarini isbotlash, bahslashish, xulosa chiqarish qobiliyati;
- tilni umumiy bilish darajasi oshadi;
- guruhda ishlash va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini oshirish.

O'qituvchining roli shundan iboratki, u o'quvchilarga nutq harakatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kommunikativ maqsadni, leksik va grammatik vositalarni aniqlashda yordam beradi.

Keysni o'rganish orqali o'quvchilar o'xshash kommunikativ vaziyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yechimni oladilar. Keysdan foydalanish o'quvchilarga o'zlashtirilgan til materialini ijodiy qo'llash uchun ajoyib imkoniyat yaratadi va ularga real hayotiy vaziyatlarga moslashish imkonini beradi.

Shunday qilib, ingliz tilini o'rgatish jarayonida keys usulidan foydalanish o'quv vazifalarini (jamoada ishlash, tinglash qobiliyati) va rivojlantiruvchi vazifalarni hal qilishga imkon beradi. Barcha o'quvchilar nutq amaliyotida faol ishtirok etadilar, o'qituvchi esa o'quvchilarning g'ayrati va qiziqishlarini uyg'otish, ularning ijodkorligi va hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega. O'quvchilar real hayotiy vaziyatga yaqin shart-sharoitlarni yaratish tufayli til to'sig'ini yengib o'tishadi, guruhda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishadi va kommunikativ kompetentlikni shakllantiradilar.

ADABIYOTLAR

1. Дудковская Е.Е. Подготовка педагога к формированию коммуникативной компетенции учащегося в рамках реализации ФГОС // Человек и образование. 2014. -№ 4(41). -С. 175-178.
2. Кодухов В.И. Функция языка в речи и функциональная грамматика. Языковая системность при коммуникативном обучении.- М.,1988. – С. 1726.
3. Письменная речь как средство формирования иноязычной компетенции [Электронный ресурс] / Режим доступа: <https://infourok.ru/inostrannyye-yazyiki.html> [дата обращения: 12.02.2016].
4. Ступина С.Б. Технологии интерактивного обучения в высшей школе / Учебно-методическое пособие. -Саратов: Наука, 2009. – 52 с.
5. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям / Избр. пед. соч. -М. : Просвещение, 1979.- Т. 1. – С. 102-134.
6. Щербатых Л.Н. Гуманитарные технологии в обучении школьников иностранному языку / Материалы III-й Международной научно практической конференции 12–13 ноября 2012 года.- М. : Редакционно издательский центр, 2013. – С. 394-396.
7. Kodirov Nodirbek. Problems of the globalization of information culture in the current time. In: Ştiinţă, educaţie, cultură . Vol.4, 15 februarie 2020, Comrat. Comrat, Republica Moldova: Universitatea de Stat din Comrat, 2020, pp. 272-274. ISBN 978-9975-83-094-2.
8. Kodirov N.M. Transformation and globalization of information media //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 12. – С. 83-93.
9. Kadirov N.M. Social and physical experience of information and information culture //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 3. – С. 165-170.



Dilshoda SATTOROVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
E-mail: satorova.dilshoda@bk.ru.

TDPU dotsenti, p.f.f.d (PhD) E.B.Xujanov taqrizi asosida

IMPROVING THE THINKING ABILITY OF FUTURE TEACHERS THROUGH THE INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES

Annotation

This article describes in detail the issue of creating a problematic situation in the teaching of the "Electric current in different environments" module and using demonstration experiments. It shows the active ways to further increase efficiency in using the didactic possibilities of demonstration experiments in education through modern educational technologies.

Key words: Conductor, electrical resistance, current, semiconductor, metal, electric circuit, dielectric conductivity, demonstration experiment, problem situation, thinking ability, innovative technology.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЫСЛИТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ЗА СЧЕТ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье подробно рассмотрен вопрос создания проблемной ситуации при обучении модулю «Электрический ток в различных средах» и использовании демонстрационных опытов. Показаны активные пути дальнейшего повышения эффективности использования дидактических возможностей демонстрационных экспериментов в обучении с помощью современных образовательных технологий.

Ключевые слова: Проводник, электрическое сопротивление, ток, полупроводник, металл, электрическая цепь, диэлектрическая проводимость, демонстрационный эксперимент, проблемная ситуация, мыслительная способность, инновационная технология.

INNOVATION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING FIKRLASH QOBILIYATINI OSHIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada "Turli muhitlarda elektr toki" modulini o'qitishda hamda namoyish tajribalaridan foydalanib, muammoli vaziyat hosil qilish masalasi batafsil bayon qilingan. Unda ta'limda namoyish eksperimentlarini didaktik imkoniyatlaridan foydalanishda samaradorlikni yanada oshirishning faol usullarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: O'tkazgich, elektr qarshilik, tok kuchi, yarimo'tkazgich, metal, elektr zanjir, dielektrik o'tkazuvchanlik, namoyish eksperimenti, muammoli vaziyat, fikrlash qobiliyati, innovatsion texnologiya.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil uchun Murojaatnomasida davlatimiz rahbari o'tgan yil yakunlarini sarhisob qilib, kelgusi yilda amalga oshiriladigan vazifalar ketma-ketligini taklif qildi. Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohatlar juda katta e'tibor qaratildi. Ma'ruza jarayonida yurtboshimiz : - "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir....". 2023-yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilinishini tizimli yo'lga qo'yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinishi [1] to'g'risida fikr bildirib o'tdilar. Bunday fikrlar mutaxassis chiqaruvchi kafedralarda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar zimmasiga yanada katta ma'suliyat bilan ishlashni yuklaydi.

Ayniqsa, jamiyat taraqqiyotida, fan va texnika rivojida yetakchi o'rinni egallab turgan fundamental fizika fani tub mazmuni jihatdan eksperimental fandır. Fizikada har bir nazariya, qonun, da'vo va tushuncha o'zining tajribaviy asosiga va isbotiga egadir. Shuning uchun ham barcha bosqich o'quv yurtlarida fizikani to'laqonli o'qitishni moddiy-texnikaviy za'minsiz ta'minlash mumkin emas. Xususan, namoyish eksperimenti fizikadan ma'ruzaning ajralmash qismi bo'lib yozuv taxtasi va bo'r vositasidagina o'qitilgan fizika kursi amalda juda past samaraga egadir [2].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Namoyish eksperimenti qanchalik mazmunga boy, ishonarli va yuksak extirosiy zaryadga ega bo'lmasin, talaba-o'quvchi aksariyat xolda ma'ruza davomida faqat tinglovchi-kuzatuvchi rolida qolaveradi, tanishish esa ko'pi bilan anglash-tushunish darajasida o'zlashtiradi [3]. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining "Umumiy fizika" kafedrasida namoyish eksperimentining boy didaktik imkoniyatlaridan foydalanishda samaradorlikni yanada oshirishning faol usullari ishlab chiqilgan.

Ushbu metodika zaminida muayyan namoyish eksperimenti qamrab olgan ilmiy-texnikaviy va uslubiy axborot majmuasi kartasini yaratish, ularni talabalarga muommoli uzatish ssenariysini tuzish hamda ushbu dastur zaminida ilmiy-o'quv ma'lumotlarini talabalar-o'quvchilar tomonidan ularning bevosita faol ishtirokida o'zlashtirilishida erishish yotadi.

"Turli muhitlarda elektr toki bo'limini sistemali yondoshuv asosida o'qitish metodikasi" mavzudagi G.Uzoqovanning [4] dissertatsiyasida, asosan, maktab fizika kursida mavzularni o'rganish jarayonida o'quvchilar bilimini sistemali shakllantirish va ta'lim sifatini oshirish tadqiq qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtirishning yuqorida bayon qilingan imkoniyatlari fizika kursining "Turli muhitlarda elektr toki" bo'limiga oid namoyish tajribalar asosida ko'rsatib beriladi.

1. Metall va yarimo'tkazgichlarda elektr toki.

1-tajriba. "Metall o'tkazgich, yarimo'tkazgich va dielektriklarning solishtirma qarshiligining haroratga bog'liqligi".

Mashg'ulot mavjud bilimlarni faollashtirishdan boshlanadi. Buning uchun quyidagi savol va topshiriqlar beriladi:

Elektr toki mavjud bo'lishi uchun qanday shartlar zarur?

Tok kuchining qiymati nimalarga bog'liq?

Om qonunini va o'tkazgichlar elektr qarshiligining tabiatini tushuntiring?

Om qonuni klassik elektron nazariya nuqtai nazaridan qanday tushuntiriladi?

Faraz qilaylik, talabalar birinchi va ikkinchi savollarga to'g'ri javob berishgan bo'lsin. Javoblardagi kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qo'shimcha tushuntirish o'tkaziladi, bunda o'tkazgich qarshiligining elektronlar issiqlik harakati tezligiga bog'liqligiga alohida e'tibor qaratiladi [5].

Talabalar faollashtirilgan va ularning bilim asosida to'ldirilganidan so'ng ularga 220 V kuchlanishga mo'ljallangan 100 W quvvatli cho'g'lanma lampochkaning qarshiligini hisoblash taklif etiladi. Ular om qonuni bo'yicha hisoblab, 484 om natijani oladilar. Namoyish stolida (taxtasida) cho'g'lanma lampochkaning qarshiligini ommetr bilan o'lchaganda, u 35 om ni ko'rsatadi. Bundan quyidagi savollar kelib chiqadi.

Nima uchun qarshilikning nazariy xisoblangan qiymati tajribada o'lchangan qiymatdan bir necha marta katta?

Bunday tafovutli natijalarni qanday tushuntirish mumkin?

Bu muammo barcha talabalarning diqqatini o'ziga jalb etadi. Mustaqil javob izlash uchun qisqa jim-jitlik paydo bo'ladi. 1-2 minut o'tgandan keyin ayrim talabalar o'z fikrlarini bayon qila boshlaydilar, lekin javoblar aniq emas. Masalan, natijalarining turlicha bo'lishini ommetning ichki qarshiligi mavjudligi bilan tushuntirishga urinish ham mavjud. Nihoyat talabalardan biri natijalarning tafovutiga sabab lampochkaning chog'lanuvchi tolasining turli haroratda bo'lishidir, deb javob beradi. Boshqa talaba qarshilikni ommetr bilan o'lchash xona haroratida o'tkazilganini, hisoblash esa chog'lanma tola uchun bajarilganini aytdi. Mazkur muammoli vaziyat unchalik murakkab emas va u tezda hal qilingan, ammo u talabalarining fikrlashlarini faollashtirgan [6].

Bundan keyin qarshilikning haroratga bog'liqlik tavsifini va bu hodisaning tabiatini aniqlashlik bo'yicha nazariy savollarning yoritishga imkoniyat paydo bo'ladi. Bu esa, talabalarining diqqatini ko'proq jalb qiladi, talabalarining faolligini tufayli materiallar qarshiliklarining tabiatini tushuntirishda yana bir qator muammoli vaziyatlar paydo bo'ladi. Masalan, talabalar elektronlarning tartibli va tartibsiz harakat tezliklarining farqini juda ravshan tushunmasliklari ayon bo'ladi. Bu muammoliy vaziyatni hal etilishi talabalarni elektronlarning tartibli harakat tezligi haotik harakat tezligidan bir necha marta kichik ekanligini tushunib olishlariga yordam beradi. Bu bilan talabalarga qarshilikning qiymatini tavsiflovchi va o'tkazuvchanlik elektronlarining muhim tavsifi bo'lgan kattalik-harakatchanlikni yaxshi tasavvur qilishlariga imkon yaratiladi. Bunday hulosalardan so'ng barcha talabalarda metallarni qizdirganda elektr tokening kamayishi muqarrar ekanligiga hech shubha qolmaydi. So'ngra, qizdirilayotgan namuna (yarimotgazgich material)ning strukturasi tushuntirilmagan, namuna qarshiligining haroratga bog'lanishi tajribasi ko'rsatiladi. Namunani qizdirgan sari elektr tokening kamayishini ko'rishni kutgan talabalar tezkari hodisani ajablanib kuzatadilar. Bu yerda o'qituvchining "voy ajabo" deb qo'yishi o'rinli deb

hisoblaymiz, chunki bu bilan talabalarning extirolari yanada ortadi. Shunday qilib, nima uchun ushbu materialni qizdirganda zanjirda tok kuchi ortadi? Ahir yuqorida nazariy asosda teskari xulosa chiqarilgan edi-ku? – degan muammoli savollar kelib chiqadi.

Endi muammoli vaziyat bir necha bor keskinlashdi. Muammoli vaziyatni muhokama etish ko'pgina qarama-qarshi javoblarni keltirib chiqaradi. Masalan:

Avval keltirib chiqarilgan $j = en\theta$ formulasiga binoan elektronning tezligi ortishi bilan (metallni qizdirganda bu hodisa kuzatiladi) elektr toki ortishi kerak;

Menimcha sxemada kamchilik bo'lsa kerak;

Namuna qanday materialdan yasalgan?

Ehtimol namuna yarimo'tkazgich bo'lsa kerak.

2-tajriba. "Gazlarda elektr toki" bo'limiga oid namoyish tajribalarini tahlil qilish orqali ko'rib chiqaylik. "Gazlarda elektr toki" mavzuini yoritishda odatda quyidagi tajribalar namoyish qilinadi.

Gazlarning ionlanishi

Gazlarda atmosfera bosimi sharoitida yuz beradigan razryadlar (a) sokin razryad, (b) uchqun razryad, (v) yoy razryad

Siyraklangan gazlarda razryad

Katod nurlari, ularning tabiati va xossalari

Elektron – nur trubkasi

Gaz nurlanish spektri

Yuqorida keltirilgan namoyish tajribalari umumiy fizika kursida "Gazlarda elektr toki" mavzusini mazmunini yoritishda alohida o'rin tutadi [7]. Biz bu namoyish tajribalarini ko'rsatish metodikasi va texnikasiga to'xtalib o'tirmaymiz. Chunki ular Iverenova V.I taxriri ostida chop etilgan "Fizikadan namoyish tajribalari" (rus tilida) oliy o'quv yurtlariga mo'ljallangan o'quv qo'llanmasida o'z aksini topgan.

Quyida namoyish tajribalarini ilmiy-o'quv mazmundorligini aniqlash va anashu aniqlangan asosiy tushunchalarning tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilishiga qaratilgan tadqiqotlardan namunalarni keltiramiz.

Namoyish tajribalarini qaysi maqsadda ko'rsatilishiga qarab, fizikaviy tushunchalarni quyidagicha guruhlash mumkin:

Har bir namoyish tajribasini ko'rsatish davomida ochib beriladigan asosiy tushuncha, nazariya, qonunlar va hodisalar;

Fizikaning boshqa bo'limlaridan ma'lum bo'lgan ushbu tajriba mazmunini ochishda ishlatiladigan, umumlashtiriladigan, mazmuni boyitiladigan hodisalar, qonuniyatlar, nazariya va tushunchalar;

Yuqorida sanalgan maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi yordamchi tushunchalar, hodisalar, qonuniyatlar, nazariyalar.

Namoyish tajribalarining ilmiy-o'quv mazmundorligini aniqlash har bir tajribaning nazariy va tajribaviy tomonlarini ob'yektiv baxolash imkonini beradi. O'qituvchi dars jarayonida namoyish tajribalarini ko'rsatish davomida asosiy fundamental fizikaviy tushunchalarni ochib beradi [8].

Namoyish tajribalarda ushbu uslubdan faol foydalanish namunasi sifatida "Gazlarning ionlanishi" mavzusi bayonini ko'rib chiqamiz. Darsni muammoli vaziyatni vujudga keltirgan xolda boshlash lozim. Buning uchun zaryadlangan elektrometr bilan tajriba o'tkazamiz. Nima uchun zaryadlangan elektrometr vaqt o'tishi bilan zaryadsizlanmaydi? Bu savolga ko'pincha to'liq javob bo'lmaydi. "Zaryadsizlanmaslik sababi havo dielektrik, unda erkin zaryadlar yo'q, shuning uchun electron maydon mavjud bo'lsa ham zaryadlarning harakati vujudga kelmaydi", degan javob navbatdagi savolni keltirib chiqaradi. Agar elektrometr shari yaqinidagi havoni alanga bilan qizdirdi elektrometr

zaryadsizlana boshlaydi, ya'ni to'k xosil bo'ladi. "Havoning harorati ortishi bilan qayerdan va qanday qilib erkin zaryadlar hosil bo'ladi?"

Ushbu tajribani ultrabinafsha nurlar, rentgen nurlar vositasida takrorlash mumkin.

Muammoli vaziyatni namoyish tajriba yordamida mana shunday tarzda ketma-ket hal qilib boriladi.

Namoyish tajribalarining ilmiy-o'quv mazmundorligini aniqlash va ulardan faol foydalanish orqali nazariy hulosalarga kelish bilim berish jarayonida yuqori mantiqiy afzalliklarga egadir.

Tahlil va natijalar. Muammoli vaziyatni hal etish uchun talabalarining mulohaza yuritishlarini to'g'ri izga yo'naltirish zarur edi. Shu munosabat bilan ularga "Yarimo'tkazgichlar metallardan nima bilan farq qiladi?" – degan qo'shimcha savol berildi. Javob: shunday o'tkazgichlar mavjudki, ularda harorat ortishi bilan zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi kuchli ortib ketadi, ularni yarimo'tkazgichlar deyiladi. Masalan, kremniy shunday yarimotkazgichlar sinfiga kiradi. Bu fikr barcha talabalarga ma'qul bo'ldi. O'qituvchi so'nggi javobning to'g'ri ekanligini tasdiqlagandan so'ng, muammoli vaziyat hal etiladi. Shundan keyin tegishli namoyish tajribalardan foydalanib, yarimotkazgichlarning

elektron va kovak o'tkazuvchanligining nazariyasini bayonini talabalar qiziqish bilan tinglaydilar.

Hal qilingan muammo bo'yicha o'quv mavzusining o'zlashtirilganini tekshirish va mustahkamlash uchun o'tkazgich-metall spiralini, shuningdek shishani qizdirib tajriba o'tkazildi.

Ko'rinib turibdiki, talabalar asta - sekin javob berishni boshlab haqiqatga yaqinlashganlar va ohirgi javobdan keyin ko'pchilik talabalar shu javobning tarafdori bo'ldilar.

Xulosa va takliflar. Fizikaviy jarayonlarni, hodisalarni, tabiiy tarzda, asosiy ko'rinishda ro'yobga chiqarishi jihatdan ob'yektiv namoyish tajribalari tinglovchi uchun ishonarliligi, mantiqiyiligi, ruhiy va extirosiy bag'ishlari jihatdan katta didaktik qudratga egadir. Mantiqiy, analitik va matematik xulosalarning bunday ekperement asosida ro'yobga chiqarilgan ibsoti o'quvchining ilmiy ma'lumotlarini tugalishonarli qabul qilishini, xotirasida mustahkam o'rtnashishini ta'minlaydi [9].

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinadiki, bu yerda muammoli yondashish talabalarining faqat aqliy fikrlashlarini faollashtiribgina qolmasdan balki ularga metal, yarimo'tkazgich va dielektriklar o'tkazuvchanliklarini turlicha tabiatini chuqurroq anglashlariga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://www.gazeta.uz › 2022/12/20 ›murojaatnoma>.
2. Курбанов М., Тожибоева Х.Х. Физикадан намоийш тажрибаларининг дидактик вазифаларини кенгайтириш имкониятлари. ЎзМУ қошидаги ОПИ. Педагогик кадрлар малакасини оширишнинг сифат босқичи: муаммолар, ечимлар ва истиқболлари. Илмий - методик конференция материаллари. 2003-й.
3. Тожибаева Х.Х. Физикадан намоийш тажрибаларининг хусусиятлари ва илмий - услубий имкониятлари. Академик лицей ва касб —хунар коллежларида физика-математика, информатика фанларини ўқитишни такомиллаштириш истиқболлари мавзuidaги республика илмий-амалий анжуманини, маърузулар тўплами. ТДПУ – Т.2005. 24-25 май. 74 - 75 б.
4. Uzoqova Ye.S. Turli muhitlarda elektr toki bo'limini sistemali yondashuv asosida o'qitish metodikasi. Dis....ped. fan.nom. 1997 — 133 b.
5. Ibragimova M., et al. "Technology of using interactive methods in school education."
6. Sattorova D. "Using crossword puzzles in physics lessons." Asia Pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 32-34.
7. Sodikova Sh. Kurbanov X.M. Jalolova P. "Modelling of difficult effects belong to the physics on the basis of ict". International Journal of Advanced Science and Technology.Vol.29 No.05 (2020), pp.1854-1861.
8. Mirzaakhmad K., and Yuldashevna S. D. "Use of modern educational technologies in teaching physics (in the example of electromagnetism)". Central Asian journal of mathematical theory and computer sciences, Vol.3, no. 10, Nov. 2022,pp.119-22, <https://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.php/CAJMTCS/article/view/264>.
9. Dilshoda Sattorova. "Dictated Games in Primary Education as an Important Factor in Guiding Students to Creative Thinking." JournalNX 7.03: 163-166.



UDK: 155.2(045)

Asadulloh SOATOV,

Qashqadaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

E-mail: soatovasadulloh@gmail.com

Qarshi davlat universiteti dotsenti, p.f.d. B.Jo'rayev taqrizi ostida

SONLARNI ESLAB QOLISHDA "DOMINIK" SISTEMASIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI

Annotatsiya

Maqolada xotira imkoniyatlaridan unumli foydalanishda mnemonik bilimlarning roli va ikki xonali sonlarni eslab qolishda "Dominik" sistemasidan foydalanishning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Dominik sistemasi, xotira, mnemonik usul, tasavvur, maqsad, harakat, effect, usul, eslab qolish, assotsiatsiya, qiziqish, dominant, shaxs, diqqat.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СИСТЕМЫ «ДОМИНИК» В ПАМЯТИ ЧИСЕЛ

Аннотация

В статье раскрывается роль мнемонических знаний в эффективном использовании памяти и научно-практическая значимость использования системы «Доминика» в запоминании двузначных чисел.

Ключевые слова: Система Доминика, память, мнемонический метод, воображение, цель, действие, эффект, метод, припоминание, ассоциация, интерес, доминанта, личность, внимание.

ADVANTAGES OF USING THE DOMINIC SYSTEM IN NUMBER MEMORY

Annotation

The article reveals the role of mnemonic knowledge in the efficient use of memory and the scientific and practical significance of using the Dominica system in memorizing two-digit numbers.

Key word: Dominic system, memory, mnemonic method, imagination, goal, action, effect, method, recall, association, interest, dominant, personality, attention.

Kirish. Bugungi kunda biz xotiramizda saqlab qolishga qiynaladigan ma'lumotlar ichida eng esda saqlab qolish qiyin bo'lgani bu raqamlar bo'lib, ularni esda saqlab qolish qiyinligining asosiy sabablaridan biri ma'no kasb etmasligidadir. Harflarni birlashtirish orqali biz so'zlarni hosil qilamiz. So'zlar esa muayyan ma'no, tasvir yoki emotsiyani hosil qiladi. Bir nechta raqamlarni birlashtirish orqali esa boshqa bir sonlar hosil qilinadi. Ya'ni raqamlar soni oshib boraversa ham ular bizda ta'surot yoki ma'no uyg'otmaydi. Shu sabab ko'pchilik insonlar raqamlarni eslab qolishda qiyinchilikka duch kelishadi. Ammo, bugungi hayotimizni raqamless tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki faoliyat jarayonida kundalik yumushlardan tortib murakkab vazifalarni bajarishda ham biz muayyan darajada raqamlardan foydalanamiz. Raqamlar esa ta'surotsiz va hissiz bo'lgani bois ularni eslab qolishda ko'pchilik qiynaladi. Shu sabab ko'p xonali sonlarni yozib olmasdan yoki qayta-qayta takrorlamasdan turib osonlikcha eslab qolishni barcha xohlaydi. Buning uchun biz tavsiya qilgan mnemonik usul "Dominik" sistemasidan foydalanish juda foydali.

Dominik sistemasini o'zlashtirib undan faoliyatda foydalanish malakasiga ega bo'lish istalgan ko'p xonali sonlarni osonlikcha eslab qolish imkoniyatini ta'minlaydi. Sistemani Amerikalik mnemonist Dominik O'breyn ishlab chiqqan va o'z ismi bilan nomlagan. Dominik O'breyn o'zi kashf qilgan mnemonik usuldan amalda samarali foydalanib dunyoning eng xotirasi kuchli insonlaridan biri sifatida tanilgan.

Dominik sistemasi alohida qonuniyatga asoslangan bo'lib, buning uchun biz dastavval harf, raqam, kod (HRK) shaklida raqamlarni eslab qolishga xizmat qiluvchi lotin alifbosidagi zarur harflarni tanlab olishimizga to'g'ri keladi. Bu o'ziga xos jarayon bo'lib, unda 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9

raqamlarini ifodalovchi o'nta harf ishtirok etadi. Quyida o'nta raqamga berkitilgan harflar alifbosini keltirib o'tamiz.

HRK	
0-O	5-E
1-A	6-M
2-B	7-K
3-S	8-H
4-D	9-N

Harflar berkitilgan raqamlarga shaklan o'xshashligi, alifbodagi joylashuv tartibi va tanlangan harfdan boshlanuvchi mashhur ism-familiyalik kishilarni topish qulayligiga qarab tanlangan. Masalan, nol raqami O harfiga, 7 raqami K harfiga ya'ni K harfining yotiq holati ikkita 7 raqamiga shaklan o'xshaydi. A,B,D,E,H harflarini ingliz alifbosidagi joylashuv tartibiga qarab S,M,N harflari esa shu harflardan boshlanuvchi mashhur ism-familiyalik kishilar ko'pligi bois tanladik[5].

Sistemani o'ziga moslashtirib ishlab chiqishni maqsad qilgan kishi biz tavsiya qilayotgan uchta asosga ko'ra harflarni ixtiyoriy tanlashi maqsadga muvofiq. Metodikani qo'llashni maqsad qilgan kishi oldin raqamlarga qaysi harflarni berkitganligini puxta yod olishi lozim[5].

Ma'lumki, 00 dan 99 gacha bo'lgan ikki xonali sonlar jami o'nta o'nlik sistemaga bo'linadi. Yuqoridagi alifbo asosida har bir o'nlik sistemaga bir juft harf berkitiladi. O'nlik sistemadagi barcha sonlarga berkitilgan juft harflarning birinchisi bitta harf bo'lishi lozim. Ikkinchi harf esa yuqoridagi alifbo tartibida qaysi raqamga berkitilgan bo'lsa ketma-ketlikda o'rin almashib keladi[1].

Sistemadan foydalanish uchun undagi har bir ikki xonali songa alifbo asosida juft harflarni berkitish va juft harflardan boshlanuvchi tanish yoki mashhur shaxslarning ism

familiyalarini birlashtirish hamda ularga qandaydir sifatlarini eslatuvchi harakatli ifoda yoki ta'rif berilishi lozim. Quyidagi jadvalda biz o'zimiz ishlab chiqqan namunani keltirganimiz.

Sistemadan foydalanishni maqsad qilgan kishi biz keltirgan namunadan foydalanishi yoki uni o'ziga moslab o'zgartirishi mumkin.

1-jadval

Dominik sistemasida sonlarga berkitilgan harflar, harflarga birlashtirilgan ism-familiyalar va ism-familiyalarga bog'langan harakatlar ketma-ketligining yo'riqnomasi

Son	Harf	Ism-familiya	Harakat
00	OO	Ortiq Otajonov	Horazmcha qo'shiq aytmoqda
01	OA	Obid Asomov	Baland bo'yi kishilarga latifa aytmoqda
02	OB	OttoFon Bismark	Mo'ylovini silab qo'yimoqda
03	OS	Og'abek Sobirov	Qo'ng'iroq chalmoqda
04	OD	Oskar Delahoya	Tillani o'ynatmoqda
05	OE	Oliver Evans	Olivye salatini yemoqda
06	OM	Omonulla Madayev	Tanbur chalmoqda
07	OK	Oliver Kan	Qo'lqopini kiymoqda
08	OH	Oybek Hamroqulov	Chumolini bilmay bosib ketdi
09	ON	Ozodbek Nazarbekov	Shimining kamarini to'g'irlamoqda
10	AO	Avrangzeb Olamgir	Rangli zeb berib tikilgan gilamda o'tiribdi
11	AA	Alfred Adler	Quyoshga tik qarab energiya olmoqda
12	AB	Amitabh Bachchan	Hindcha qo'shiqqa raqs tushmoqda
13	AS	Asadulloh Soatov	Soatiga qaramoqda
14	AD	Aleksandr Dyumma	Jest tilida gapirmoqda
15	AE	Albert Eynshteyn	Tilini chiqarib turibdi
16	AM	Abraham Maslou	Narvondan tepaga chiqmoqda
17	AK	Alber Kamyu	Kastyumining changini qoqmoqda
18	AH	Ahmad Hambal	Sallasini qo'lida ushlab turibdi
19	AN	Anor Nazarov	Estradasimfonik arkestirga dirijorlik qilmoda
20	BO	Barak Obama	Tuxum barak yemoqda
21	BA	Bahrom Avazov	Vaznini tarozida o'lchab ko'rmoqda
22	BB	Benazir Bhutto	Beshik tebratayapdi
23	BS	Benedikt Spinoza	Tebranma stulda o'tiribdi
24	BD	Bo'ydoq Diogen	Xumda dam olmoqda
25	BE	Buyuk Ezop	Baland ovozda masal aytmoqda
26	BM	Baxtiyor Mengliyev	Adabiy til haqida nutq so'zlammoqda
27	BK	Bill Klinton	Klitkali ko'ylakda kulib turibdi
28	BH	Bobomurod Hamdamov	Turkmancha qo'shiq kuylayapdi (yelpissa).
29	BN	Bahovaddin Naqshbandiy	Naqshinkor ko'zadan suv ichmoqda
30	SO	Svetlana Ortiqova	Vazni ortib ketmasligi uchun parhez tutmoqda
31	SA	Salohiddin Ayyubiy	Qilichini qo'lida tutib turibdi
32	SB	Saljuq Bayrakdar	Dronini havoga uchurmoqda
33	SS	Silvestr Stalloni	Armrestling bilan shug'ullanmoqda
34	SD	Se Dun	Chumchuqlarni haydamoqda
35	SE	Sternz Eliot	Elakni elamoqda
36	SM	Sevinch Mo'minova	Tinimsiz sakrayapdi
37	SK	Sayyid Kamolxon	Lavhda kitob o'qimoqda
38	SH	Saddam Husayin	Cho'pon tayoqqa suyanib turibdi
39	SN	Sevara Nazarxon	Saryog' yemoqda
40	DO	Dominik Obreyn	Telefonda raqam termomda
41	DA	Davron Ahmedov	Turnikka tortinyapdi
42	DB	Den Braun	Qadamini raqamlab sanayapdi
43	DS	Devid Sanders	Tovuq oyoqchalarini pishirmoqda
44	DD	Deni Didro	Ko'zi ochiqlarga ko'zini yumib nasihat qilmoqda
45	DE	Duayt Eyzexauer	Meditatsiya holatida turibdi
46	DM	Dimitriy Mendileev	Davriy jadvalni to'ldirmoqda
47	DK	Deyl Karnegi	Karnay chalmoqda
48	DH	Duglas Haskins	Drabl aytmoqda
49	DN	Dildora Niyozova	Piyoz archimoqda
50	EO	Elizabet Olsen	Ko'zidagi linzani qo'lga olmoqda
51	EA	Eshdavlat Ablazovich	Bolg'ani qo'lida aylantirmoqda
52	EB	Eshli Barti	Raketkani qayirib tashladi
53	ES	Edvard Snouden	Kubikni bexato termomda
54	ED	Edmon Dantes	Tish shifokoriga ko'ringani ketmoqda
55	EE	Edisson Erantos	To'pni zarb bilan tepyapdi
56	EM	Ergash Mamadiyorov	Doira chalmoqda
57	EK	Erkin Komilov	Shtanka ko'tarmoqda

58	EH	Erik Haydar	Juft oyoqlab sakramoqda
59	EN	Elyor Nosirov	Sochini taramoqda
60	MO	Metin Oqpinar	Xo'rozini so'ymoqda
61	MA	Malik Ashraf	Malina yemoqda
62	MB	Mahmudxo'ja Behbudiy	Behi yemoqda
63	MS	Mustafo Sandal	Sandalda oyog'ini isitmoqda
64	MD	Mark Dakaskis	Dokani qo'lga o'ramoqda
65	ME	Muhammadali Eshonqulov	Qalpog'ini to'g'irlab qo'ymoqda
66	MM	Merlin Monro	Mandarin yemoqda
67	MK	Mustafo Kamol	Muzda toymoqda
68	MH	Maykl Hard	Maykasini yuvib siqmoqda
69	MN	Mirzakarim Norbekov	Ko'zoynagini to'g'irlab qo'ymoqda
70	KO	Karlos Onetti	Tuflisining bog'ichini o'tkazmoqda
71	KA	Komil Allamjonov	Qalqonni qo'lida tutib turibdi
72	KB	Kamoliddin Behzod	Minatyura janrida surat chizmoqda
73	KS	Kanstantin Simonov	Sher aytmoqda (Meni kutgil va men albatta qaytaman)
74	KD	Kazimir Dobroviskiy	Tez aytish aytmoqda
75	KE	Kenan Evren	Qozonni to'ntarib tashladi
76	KM	Konor Makgregor	Kapkini qo'lida ushlab turibdi
77	KK	Kelvin Kulidj	Kivi yemoqda
78	KH	Karlos Honarato	Otjimaniya qilmoqda
79	KN	Kel Nyuport	Kelida bug'doy tuymoqda
80	HO	Hamid Olimjon	Gullagan o'rikka tikilib turibdi
81	HA	Hans Andersen	Hansirab ertak aytmoqda
82	HB	Husayin Boyqari	Mo'yqalamda xat yozmoqda
83	HS	Hamid Sodiq	Bezgaz suv ichmoqda
84	HD	Hasanboy Do'stmatov	Mishokni tinimsiz urmoqda
85	HE	Hukmdor Ertug'ul	Kamondan o'q uzmoqda
86	HM	Haruki Murakami	Murakkab krasvordni yechmoqda
87	HK	Hovard Kelli	Patnida shirinlik ko'tarib ketyapdi
88	HH	Hamza Hakimzoda	Besh yulduzli ko'krak nishonini taqib turibdi
89	HN	Habib Nurmagamedov	Chugurmani kiyib ringa chiqmoqda
90	NO	Navro'zov Osmon	Mikrafonda osmonga qarab qo'shiq aytmoqda
91	NA	Nil Armstrong	Skafandrini kiyib ketmoqda
92	NB	Napoleon Bonapart	Poligonda ot minib turibdi
93	NS	Nozim Safari	Uzum yemoqda
94	ND	Nodar Dumbadze	Dumba yog'ida osh yemoqda
95	NE	Nazar Eshonqul	Yalpizni hidlayapdi
96	NM	Nelson Mandela	Manti yemoqda
97	NK	Najmiddin Kubro	Bayroqni baland tutib turibdi
98	NH	Nuriddin Haydarov	Tango aytmoqda (yur muhabbat kettik bu yerdan).
99	NN	Najot Nur	Qulog'ini yopib gapiryapdi

Biz namuna qilib keltirgan yuqoridagi jadvalda sonlarga berkitilgan insonlar bizga tanish yoki biz uchun buyuk va mashhur bo'lgan insonlardir. Shu bois ikki xonali sonlarga ko'zimiz tushganida biz ularni sistemaga solish orqali tanish yoki mashhur bo'lgan kishilarning siymosini ko'z o'ngimizda gavalantiramiz.

Dominik sistemasini o'zlashtirib undan hayotda foydalanishni maqsad qilgan kishi ham albatta sonlarga berkitilgan ism-familiyalarni tanlashda o'ziga tanish yoki uning uchun mashhur va buyuk bo'lgan kishilarni berkitishi lozim. Sistemaning o'ziga xos afzallik jihati shuki, uni o'zlashtirgan kishi avtomatik tarzda ikki xonali sonlarni odamlar deb o'ylay boshlaydi. Buning uchun biz sonlarga berkitgan odamlarni yaxshi bilishimiz, ular haqidagi ta'surotlarimiz yorqin bo'lishi muhim ahamiyatga ega[4].

Sistemani samarali qo'llash kishidan diqqat fokusini fikriy ob'yektga qaratishni va barqaror diqqat bilan assotsiativ qonuniyatlar asosida harflarga berkitilgan shaxs nomlarini harakatga bog'lab eslab qolishin talab qiladi[3].

Sistema qanday ishlashi va undan faoliyatda qanday foydalanish mumkinligini quyida ko'rib chiqamiz. Dominik sistemi sonlarni bir juft, har bir juft bir kishini anglatuvchi, raqamlarga ajratish bilan ishlaydi. Misol uchun, biz to'rtta

raqamni eslab qolishni maqsad qilgan bo'lsak, aynan shu sonlarga berkitilgan ikki kishi haqida o'ylashimiz kerak bo'ladi[6].

Bunda birinchi juft son shaxs nomi bilan ikkinchi juft son esa harakat nomi bilan ta'riflanishi lozim. Chunki, ko'p xonali sonlarni eslab qolish jarayonida ketma-ket shu sonlarga berkitilgan shaxs nomlarini takrorlash orqali eslab qolishga harakat qilish juda kam effekt beradi. Agar biz birinchi juft songa shaxs nomini ikkinchi juft songa jadvalda aynan o'sha songa berkitilgan shaxsga berilgan ta'rif ya'ni harakat nomini berish orqali voqea tuzsak sonlar xotiramizda yaxshi saqlanib qoladi. Sonlarning xonasi ko'payib borgani sari birin-ketin avval shaxs nomini keyin harakat nomini qatnashtirgan holda voqeani pishiq qilib tuzib borishimiz lozim. Quyida bir necha xonali sonlarni sistemaga solib eslab qolish usullarini keltirib o'tamiz.

1 misol. 3274 sonlari bizga jadvaldagi shu sonlarga berkitilgan ikki kishini eslatadi. Ularni ko'rganimizda birinchi bo'lib 32-Saljuq Bayrakdar (Bayrakdar dronlarini ixtiro qilgan olim), 74-Kazimir Dobrovskiy (mashhur polyak psixologi) eslatuvchi ikki xonali songa ajratamiz. Faqat 3274 sonlarini eslab qolish uchun birinchi juft sonlarga shaxs nomini berish, ikkinchi juft sonlarga esa harakat nomini berish lozim. Keyin

ularni eslab qolish uchun “Saljuq Bayrakdar tez aytish aytmoqda” taʼrifiga birlashtirish mumkin. Bu yerda Kazimir Dobrovskiy voqeada ishtirok etmaydi. Biz uning faqat tez aytish aytayotganini yaʼni harakatini oldik.

2 misol. 894307 sonlari bizga jadvaldagi shu sonlarga berkitilgan uch kishini eslatadi. Ularni eslab qolish uchun esa 89-Habib Nurmagamedov (sportchi), 43-Devid Sanders (KFS kompaniyasi asoschisi), 07-Oliver Kan (Futbolchi) nomlarini eslatuvchi uch xonali songa ajratamiz. Endi 894307 sonlarini eslab qolish uchun birinchi juft songa shaxs nomini, ikkinchi juft songa harakat nomini va uchinchi juft songa esa shaxs nomini berish lozim. Endi ularni “Habib Nurmagamedov tovuq oyoqchalarini pishirib Oliver Kanga taqdim qildi” voqeasini tasavvur qilish orqali eslab qolishimiz mumkin. Bu yerda ham Devid Sanders voqeada ishtirok etmadi. Biz uning faqat tovuq oyoqchalarini pishirayotganligi bilan qiziqdik.

3 misol. 36950471 sonlari bizga jadvaldagi shu sonlarga berkitilgan toʻrt kishini eslatadi. Ushbu sonlarini eslab qolish uchun 36-Sevinch Moʻminova (xonanda), 95-Nazar Eshonqul (yozuvchi), 04-Oskar Delaxoya (bokschi), 61-Komil Allamjonov (jurnalist) nomlarini eslatuvchi toʻrt xonali songa ajratamiz. Keyingi bosqichda qoida boʻyicha 36950471 sonlarini eslab qolish uchun birinchi va uchinchi juft songa shaxs nomini, ikkinchi va toʻrtinchi juft songa harakat nomini berish lozim. Demak voqeani “Sevinch Moʻminova gulzorda xushboʻy yalpizni hidlab turganida Oskar Delohoyaning qoʻlida qalqon bilan uni zimdan kuzatayotganiga koʻzi tushib qoldi” shaklida tuzishimiz mumkin.

Keltirilgan fikrlardan xulosa chiqargan holda raqamlarni mustahkam esda saqlab qolishni maqsad qilgan

kishilarga “Dominik” sistemasini oʻzlashtirish orqali xotira imkoniyatlaridan unumli foydalanishlari uchun quyidagilarga rioya qilishlarini tavsiya etamiz:

Dominik sistemasini hayotda qoʻllash orqali murakkab boʻlgan koʻp xonali sonlarni qiynalmasdan eslab qolishning afzalliklarini taʼlim oluvchilarga tushuntirish;

sistemaning ahamiyatini tushuntirish orqali taʼlim oluvchilarda qiziqish uygʻota olish;

sistemani oʻzlashtirish jarayonida unga nisbatan diqqat-eʼtiborni yetarli darajada yoʻnaltirish;

taʼlim oluvchilarning sistemasini oʻzlashtirish jarayonida imkon qadar koʻp sezgi organlarini ishga tushirishi va ulardan foydalanishi;

oʻzlashtirilishi lozim boʻlgan sistema mazmunini tushungan holda takrorlashi;

taʼlim oluvchilarga bu kabi materiallarni esda saqlab qolish uchun maxsus mnemonik usullarga tayangan holda oʻzlashtirish qonuniyatlarini oʻrgatishlari lozim[2].

Xulosa. Sonlarni toʻgʻridan-toʻgʻri esda saqlab qolishga qiynaluvchi kishilarning biz tavsiya qilayotgan sistemadan foydalanishlari amaliy hayotda foydasi teguvchi muhim usul hisoblanadi. Bundan tashqari barcha raqamlar bilan ishlaydigan soha egalari jumladan, bank va bugʻalteriya sohasi xodimlari, ilmiy faoliyat bilan shugʻullanuvchi tadqiqotchilar, tarix, giografiya, matematika fanlaridan dars beruvchi pedagoglar va talim oluvchi talaba, abuturent hamda oʻquvchilar ham sistemadan real hayotda faol foydalanishlari mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Raxmonov SH. Mukammal xotira. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2014.-107 b.
2. Soatov A.J. Boʻlajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish koʻnikmalarini shakllantirish texnologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. Qarshi: Fan va taʼlim. 2022.-128-137 b.
3. Soatov A.J. Diqqat va uning taʼlimiy ahamiyati. “Xalq taʼlimi” ilmiy-metodik jurnalning 3-maxsus soni. 2021.55-58 b.
4. Soatov A.J. Pedagogik kasbiy faoliyatda xotiraga xos mnemonik usullardan samarali foydalanish omillari. “Taʼlim fan va innovatsiya” jurnali 1 son. 2020.-100 b.
5. Soatov A.J. “Moʻjor” sistemasini ikki soatlik dars mashgʻulotida qoʻllash texnologiyasi. “Xalq taʼlimi” ilmiy-metodik jurnalning 3-maxsus soni. 2021.55-58 b.
6. Oʻbrey D. Mukammal xotira. Qarshi: Nasaf. 2019.-25 b



Baxromjon TOJIBAEV,
Namangan muxandislik texnologiya instituti dotsenti, PhD
E-mail: tojibayev77@gmail.com

NamDu dotsenti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori PHD T.Ismailov taqrizi ostida

EDUCATIONAL CAPITAL AND INTELLECTUAL CAPITAL AS A SOCIOLOGICAL DILEMMA

Annotation

Education, as an important part of the formation of human capital, plays a fundamental role in increasing the socio-economic creativity of the people. As a result of the high efficiency of education, the development of the individual's ability to create new ideas, ensuring that he becomes a subject with constructive-innovative qualities and not destructive aspects, becomes the locomotive of the development of society. As the effectiveness of the education sector became a necessity, in our society, as in the whole world, the importance of development by increasing the efficiency of "human capital" is increasing.

Key words: Education, educational capital, human capital, social assets, intellectuality, intellectual capital, scientific and technical progress, intellectual economy, intellectual value.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ КАПИТАЛ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКАЯ ДИЛЕММА

Аннотация

Образование, как важная часть формирования человеческого капитала, играет основополагающую роль в повышении социально-экономического творчества людей. В результате высокой эффективности образования локомотивом развития общества становится развитие способности личности к созданию новых идей, обеспечивающее ее превращение в субъекта, обладающего конструктивно-инновационными качествами, а не деструктивными аспектами. По мере того как эффективность сектора образования становилась необходимостью, в нашем обществе, как и во всем мире, возрастала значимость развития за счет повышения эффективности «человеческого капитала».

Ключевые слова: Образование, образовательный капитал, человеческий капитал, социальные активы, интеллектуальность, интеллектуальный капитал, научно-технический прогресс, интеллектуальная экономика, интеллектуальная ценность.

TA'LIM KAPITALI VA INTELLEKTUAL KAPITAL SOTSIOLOGIK DILEMMA SIFATIDA

Annotatsiya

Ta'lim inson kapitalini shakllanishining muhim qismi sifatida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy yaratuvchanlik qobiliyatini oshirishda fundamental rol o'ynaydi. Ta'limning yuqori samaradorligi natijasida shaxsning yangi g'oyalar yaratish layoqatini rivojlantirish, uning destruktiv jihatlariga emas, balki konstruktiv-innovatsion sifatlariga ega sub'ekt bo'lishini ta'minlab, jamiyat rivojlanishining lokomotiviga aylanadi. Ta'lim sohasi samaradorligi zaruriyatga aylangan ekan, butun dunyoda bo'lgani kabi jamiyatimizda, "inson kapitali"ning samaradorligini oshirish orqali taraqqiy ettirish ahamiyati ortib boraverdi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, ta'lim kapitali, inson kapitali, sotsial aktivlar, intellektuallik, intellektual kapital, ilmiy-texnik taraqqiyot, intellektual iqtisodiyot, intellektual qadriyat.

Kirish. Ta'lim natijasida biror-bir soha bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka, ko'nikmalarga ega shaxsning qiymati shakllanadi va natijada ta'lim kapitali shakllanadi. Ta'lim kapitalini doimiy oshirish imkoniyatlarini mavjudligi jamiyat taraqqiyotiga kiritilgan eng muhim investitsiyalardan biridir. Ta'lim kapitali tajriba, mehnat ko'nikmalari va eng muhimi malaka-ko'nikmalarni oshirish natijasida insonni butun hayoti davomida shakllanib boradi. Ta'lim malakali xodimlarni takror hosil qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Inson va ta'lim kapitalining ko'p qirrali tahlili olimlar tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning istiqbolli ko'rsatkichlarini tahlili uchun asos sifatida qo'llaniladi. Ta'lim kapitali – zamonga mos rivojlanishning eng muhim ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida, odamlar hayotining intellektual va moddiy sharoitlarini ta'minlovchi jarayon sifatida talqin etiladi[1]. Nazariy va amaliy jihatlarida ta'lim kapitali ikki yo'l bilan o'rganiladi: ta'lim olish uchun shart-sharoitlar darajasi [2] o'qitish natijasida olingan malakalarni o'z faoliyatlarida qo'llash imkonini beradigan bilim va ko'nikmalar sifatida[3].

Ta'lim kapitali inson kapitalining bevosita hosilasidir. Ta'limga sarmoya kiritish iqtisodiyotda va umuman jamiyatda

yangi imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradigan qimmatli ijtimoiy boylikdir. Ta'lim kapitali mafkurasiga ko'ra, insonning kasbiy sohadagi muvaffaqiyati uning ta'lim tizimida olingan malaka va ko'nikmalarni amaliyotga joriy etishdagi samaradorlik ta'lim muassasalarining sifatiga bog'liq. Tadqiqotlarga ko'ra mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan sarmoyalarni effekt davri 1-5 yilni tashkil etsa, ta'lim kapitali shaklidagi inson kapitali uchun bu davr 12- 20 yilni tashkil etadi[4]. Inson kapitaliga qo'yidagi sotsial aktivlarni; jamoaviy bilimlar, ijodiy qobiliyatlar, muammolarni hal qilish qobiliyati, yetakchilik fazilatlarini, tadbirkorlik va boshqaruv qobiliyatlarini kiritishimiz mumkin.

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi turli masofaviy dasturlardan foydalanish yordamida kengaytirish yo'lida faol rivojlanmoqda. Bu, bir tomondan, geografik to'siqlarni engib o'tishga imkon bersa, ikkinchi tomondan, bilimlar portfelini o'z vaqtida zamonaviy va dolzarb ma'lumotlar bilan to'ldirish imkonini beradi. Ta'limni isloh qilishda faqat yangi axborot texnologiyalari va kommunikatsiya texnologiyalari yordamida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ta'limning yangi shakllariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Internetga asoslangan masofaviy o'qitishning yangi shakllarini rivojlantirish uchun yangi

axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'limdagi "haqiqiy qiymat"ni tushunishga olib keladi. Haqiqiy harakatchanlik muhim ahamiyat kasb etishda davom etsa-da, u baynalminal-lashuv elementlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ta'lim amaliyotidagi xalqaro o'lchov tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, unda mobillik virtual makonda amalga oshiriladi yoki maqsad fikr almashish uchun xalqaro muhit yaratishdan iborat bo'ladi. Ta'lim va tarbiya berishning yangi, takomil-lashtirilgan, tejamkor vositalarini izlash dunyo bo'ylab tobora kengayib bormoqda. Sayyoramizning aksariyat qismi uchun zamonaviy masofaviy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish axborot kommunikatsiyalar infratuzilmasiga ulkan sarmoyalarni jalb qilgandan keyingina an'anaviy ta'lim tizimidan ko'ra mumkin.

Forobiyning ta'kidlashicha "Ta'lim – degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasida tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-xarakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganilishidir"[5].

Ta'lim kapitali ta'lim turi va kasbiy tabaqalanish o'rtasidagi yaqin aloqadorlikning natijasidir. Ta'lim olishning liberallasuvi va ta'lim berishda xususiy sektorga keng yo'l ochilishi ba'zi mutaxassislik diplomlariga ishonchni boshqasidan ko'ra farqlanishlarni o'sishiga olib keldi. Yangi ta'lim muassasalari abturiyentlarni sifatli bilim olishga ishonitirishga xarakat qilishsa ham, ular an'anaviy elita ta'lim muassasalari bilan bir xil bilim darajadagi abturiyentlarni jalb qila olmaydi. Ma'lumki, Garvard bitiruvchilari nisbatan yuqoriroq maoshli ishlarga va obro'li kareraga erishishlari bilan boshqa universitetlar fonida yaqqol ajralib turishadi. Elitar ta'lim muassasalarining hayotiy muvaffaqiyatga erishishdagi rolini borasida o'tkazilgan tadqiqotlarda, ikki ijtimoiy guruh solishtirilgan: 1) Garvardga o'qishga kirib, o'sha yerni tugatgan bitiruvchilar; 2) Garvardga o'qishga kirib, keyin biror sabab bilan boshqa universitetlarni bitirganlar. Ikkala guruhning hayotiy muvaffaqiyat darajalari va o'rtacha maoshlari deyarli bir xil chiqqan. Xulosa qilinganki, gap aynan Garvardda o'qib, uni bitirishda emas ekan. Gap shundaki, Garvard avval boshidan intellekt egalari ni saralab olar ekan[6]. Ta'lim va inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi an'anaviy ravishda ijtimoiy harakatchanlikni qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillar sifatida qaralmoqda[7]. Erta bolalikdagi ta'lim investitsiyalari keyinchalik hayotga kiritilgan sarmoyalarga qaraganda ancha yuqori daromad keltirishi mumkin.

Inson ehtiyojlarini qondirish uchun intellektual resurslardan foydalanish va yangi yechimlarni yaratish qobiliyati bilimga asoslangan iqtisodiyotda markaziy o'rinni egallamoqda. Inson bilimi va qobiliyati har doim yangi qadriyatlarini yaratishning asosi bo'lib kelgan, ammo bu haqiqat mehnatning aqliy tarkibiy qismi tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan globallasuv asrida yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. An'anaviy tarixiy jamiyatlarda intellektuallikka unchalik ahamiyat berilmagan, chunki jamiyatda milliy boylik yaratishda intensivlikdan ko'ra ekstensivlik amaliyotiga ega insonlar ko'pchilikni tashkil qilar edi.

Intellektual aktivlarni qiymati odamlarning undan foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi. Tadqiqotchi P.Druker "bilimlar xodimi" atamasini kiritar ekan, "bilim asosiy dominant iqtisodiy resurs va ehtimol, raqobatdosh ustunlikning yagona manbaiga aylanadi", deb ta'kidlagan edi[8]. Uning fikricha, bilimga asoslangan faoliyat yangi asr ilmi-fanining asosiy dilemmasi bo'lib qoladi. Inson intellektni likvidlikka aylantirish qobiliyati bugungi kunda iqtisodiyotning muhim kompetensiyasiga aylanib bormoqda. Intellektuallik komponentida yangi va samarali iqtisodiy foyda yaratish

tendensiyasi yashiringan. Va ayni damda raqobatbardoshlik uchun xam bilimlarni qo'llash jamiyat taraqqiyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Intellektuallik talab qilinadigan ijodkorlik va innovatsiyalarga qiziqish tobora ortib bormoqda

Inson kapitali turlarini unga xarajatlar, investitsiyalar kiritish nuqtai-nazaridan ham tasniflaydilar. Shu asosda inson kapitalining quyidagi formulasi iqtisodchi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan: $I_k = T_k + S_k + M_k$ bunda: T_k – ta'lim kapitali; S_k – salomatlik kapitali; M_k – madaniyat kapitali[9]. Shu bilan birga, bilimlarni boshqarish va umuman intellektual resurslar sohasidagi nashrlarning kontent-tahlili shuni ko'rsatadiki, bilimga asoslangan iqtisodiyotning zamonaviy nazariyasida tadqiqot markazi "intellektual kapital - ilmiy-texnikaviy taraqqiyot" tuzilmasi hisoblanadi. "Intellektuallik yaxlit tizim nuqtai-nazaridan gnoseologik jihatdan dixotomik tizim emas, intellektuallik mazmunan (u nima qiladi va nima bo'ladi) va protsessual (u qanday amalga oshiriladi) jarayonlardan iborat. Shu bilan birga, yangi texnik yechimlar (ilmiy-texnika taraqqiyotining innovatsion rentabelligi) aslida intellektuallik tomonidan yaratilgan natijalarning yagona shakli sifatida qaraladi.

Intellektual kapital - bu nomoddiy aktivlar uchun atama bo'lib, jamiyatning yaratuvchanlik salohiyati, imkoniyat dinamikasini ta'minlovchi mezoniy tushuncha hisoblanadi, usiz taraqqiyot mavjud bo'la olmaydi.

"Intellektual" atamasi "intellekt" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "insonning bilimi, tushunchasi, aqli" degan ma'noni anglatadi. Intellektual kapital tushunchasi birinchi marta 1969-yilda D. Galbreyt tomonidan "intellektual faoliyat" ma'nosida ilmiy muomalaga kiritilgan[10]. Intellektual kapitalni ilmiy o'rganishni boshlab bergan T.Styuartga ko'ra intellektual kapitalni "... patentlar, jarayonlar, boshqaruv ko'nikmalari, texnologiyalar, tajriba va iste'molchilar va etkazib beruvchilar haqida" ma'lumot sifatida taqdim etdi[11]. "Intellektual kapital" atamasi ko'p ma'noga ega, jumladan intellektual kapitalni "qiymatga aylantirilishi mumkin bo'lgan bilimlar" (L. Edvinson), "barcha nomoddiy resurslar" (J. Ruus, S. Pike va L. Fernshtaym), "bilim va nomoddiy o'zgarishlar jarayoni, aktivlarni foydali resurslarga aylantirish"(S. Albert va K. Bredli), "moddiy shaklni olgan bilim" (T. Styuart) va "rivojlanish va qiymat yaratish potensialiga ega tuzilgan bilim va qobiliyatlar" (J. Daum) sifatida turli kontekstlardan tahlil qilingan. Bu borada nisbatan to'liq tushunchani E.Bruking tomonidan berilgan: "intellektual kapital - bu qiymat yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan nomoddiy aktivlar yig'indisi bo'lib, ularsiz jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy institutlar mavjud bo'lolmaydi va raqobatdosh ustunliklarni rivojlantira olmaydi"[12].

Intellektual kapital - bu foyda va boshqa iqtisodiy va texnik natijalarni ko'paytirish maqsadida unumli foydalaniladigan aniq shaxslar va nomoddiy aktivlar, jumladan patentlar, ma'lumotlar bazalari, dasturiy ta'minot, tovar belgilari va boshqalarning bilimi, malakasi va ishlab chiqarish tajribasi.

Intellektual kapitalning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: inson aktivlari, intellektual mulk, infratuzilma va intellektuallikni foydali ish koeffitsientiga aylantira olish imkoniyatlari. Intellektuallik funktsionalligiga ko'ra quyidagi aspektlarga ega:

- kommunikativ – mavjud bilimlarni uzatish jarayonlarini tashkil etish, shu jumladan yangi texnologiyalarini rivojlantirish;
- moliyaviy - fanga yo'naltiriladigan investitsiyalarni oqlash;
- intellektual likvidliklarni mualliflik huquqini hurmat qilish.

Muayyan universitet yoki maktabni bitirganlik malaka va ijtimoiy mavqeyning isbotidir. Amalda, ta'lim kapitali ijtimoiy mavqeye, daromad, ish xavfsizligi va muvafaqiyat uchun kafolat manbai emas. Diplom, litsenziya va sertifikat ta'lim kapitalining hosilasi bo'lib, u insonga muayyan sohada faoliyat yuritish imkoniyatlarini taqdim etadi va ijtimoiy mavqeyini pasaytirish xavfini kamaytiradi.

Yangi intellektual texnologiyalarning iqtisodiy rentabelligini oshib ketishi natijasida ularni yaratuvchilari jamiyat a'zolarini madaniy, texnologik ehtiyojlarini qondirish asnosida yangiliklarni joriy etishadi va shu asnoda yuqori daromad olishni ko'zlashadi. Bundan intellektual texnologiyalarni yaratish va qayta ishlashning ijtimoiy jarayonlari (jamiyat madaniyati) va tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va tarqatish qobiliyati (ishlab chiqaruvchi kuchlar) o'rtasidagi yangi munosabatlar kelib chiqadi. Shunday qilib, intellektual iqtisodiyotni, sanoat tuzilmalarini, mahsulotlar xarakterini va mehnat bozorlarini tubdan o'zgartiradigan turmush

tarzini ta'minladi. O'zgargan narsa insoniyat faoliyatigina emas, balki insonni boshqa biologik mavjudotlardan ajratib turadigan to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchi kuch sifatida foydalanishning texnologik qobiliyati, ya'ni yangi timsollarni qayta ishlash va tushunish qobiliyatidir.

Ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotini 90 % ta'minlamoqda[13]. Texnologik paradigmaning zamonaviy o'zgarishi asosan arzon energiya sarmoyasiga asoslangan texnologiyadan mehnat predmeti va vositalariga aylangan bilim va axborot texnologiyalariga o'tish tomon o'zgarib bormoqda. Tarixiy taraqqiyotda birinchi marta inson tafakkuri ishlab chiqarish tizimining ma'lum bir elementi emas, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Globallashuv sharoitida insoniyatning faoliyati emas, balki insonni boshqa biologik mavjudotlardan ajratib turadigan bevosita ishlab chiqaruvchi kuch sifatida foydalanishning texnologik qobiliyati, ya'ni ramzlarni qayta ishlash va tushunish qobiliyati o'zgardir.

ADABIYOTLAR

1. Шарова М.А. Образовательный капитал как социокультурный феномен современных общественных процессов / М.А. Шарова А. В. Уланова // Инновационные технологии в науке и образовании.— 2015.— № 2(2).— С.157–159.
2. Максимова М.Л. Доступность высшего образования, образовательный капитал и выбор образовательной стратегии / М.Л. Максимова // Вестник Нижегородского университета имени Лобачевского Н.И.. Серия: Социальные науки.— 2006.— № 1(5).— С. 273–279.
3. Фади́на Т.В. Человеческий капитал и рынок образовательных услуг: взаимосвязь и взаимозависимость (теоретико-методологический аспект) / Фади́на Т.В.// Вестник экономической интеграции.— 2009.— № 11–12.— С. 47–53.
4. Валентей С.Д., Нестеров Л.И. Развитие общества в теории социальных альтернатив. –М.: Наука, 2003. С.19
5. Forobiy AbuNasr. Vaxt-saodatga erishuv haqida. –Toshkent: Fan, 1975. -76-b.
6. https://islandena.livejournal.com/49531.html?fbclid=IwAR2dnpj7Y4EJzOiQIGcAt_vjYRwNEAFZ6paFpIBTiBAIsUZEBSpYEJ9JiQ.
7. For a description of such policies and their outcomes see OECD, 2018a, World Bank, 2018a, and Ludwinek, et al, 2017
8. Drucker P. F. Post-Capitalist Society. — Oxford Butterworth: Heinemann, 1993, p. 271.
9. Abduraxmonova G.Q., Rustamov D.J. "Inson kapitalini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish yo'nalishlari". Monografiya. – Beau Bassin: "GlobeEdit" Publisher, 2020. – 31 bet.
10. Гэлбрейт, Дж.К. Экономические теории и цели общества. Economics and the Public Purpose (1973) / Под общ. ред. и с предисл. Иноземцева Н.Н., Милейковского А.Г.. — М.: Прогресс, 1976. — 408 с.
11. Гапоненко А.Л., Орлова Т.М. Управление знаниями. Как превратить знания в капитал. М.: Эксмо, 2008. 400 с.(с.58)
12. Филиппов О.А. Интеллектуальный капитал как социальная основа устойчивых инновационных преимуществ компании: автореф. дис. ... канд. соц. наук : 22.00.03. Москва, 2011. 4-6 с.
13. Глазьев С.Ю. Мирохозяйственные уклады в глобальном экономическом развитии. Экономика и математические методы. 2016, том 52, № 2, с.6.



Davlatjon O'RINBOYEV,
Qo'qon davlat pedagogika instituti f.f.b.f.d.(PhD)
E-mail: o'rinboevdavlatjon220@jmail.com

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.n Z.D.Boytemirova taqrizi asosida

INDEPENDENT DEVELOPMENT STRATEGY OF UZBEKISTAN - NATIONAL LEVEL EXPRESSION OF MODERN STRATEGY THEORY

Annotation

In an article about the formation, development and growth of the development strategy of Uzbekistan. Today it is reported that the strategy for the development of an independent state is a model and expression of modern theory and strategy at the national level. Analyzing the theory of modern strategies, the author made suggestions and conclusions.

Key words: Strategy, Uzbek development model, independent development strategy, strategy, theory of strategies, modern strategies.

НЕЗАВИСИМАЯ СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА- ВЫРАЖЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ

Аннотация

В статье о формировании, развитии и росте стратегии развития Узбекистана. Сегодня сообщается, что стратегия развития независимого государства является образцом и выражением современной теории и стратегии на национальном уровне. Анализируя теорию современных стратегий, автором были даны предложения и выводы.

Ключевые слова: Стратегия, узбекская модель развития, самостоятельная стратегия развития, стратегия, теория стратегий, современные стратегии.

O'ZBEKISTONNING MUSTAQIL TARAQQIYOT STRATEGIYASI – ZAMONAVIY STRATEGEMALAR NAZARIYASINING MILLIY DARAJADAGI IFODASI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining shakllanishi, rivojlanishi, yuksalishi borasida so'z yuritiladi. Bugungi kunda mustaqil davlatning taraqqiyot strategiyasi –strategemalar va zamonaviy nazariyasining milliy darajadagi namunasi va ifodasi ekanligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Zamonaviy strategemalar nazariyasini tahlil etish orqali muallif tomonidan taklif va xulosalar berilgan .

Kalit so'zlar: Strategiya, taraqqiyotning o'zbek modeli, mustaqil taraqqiyot strategiyasi, strategema, strategemalar nazariyasi, zamonaviy strategemalar

Kirish. Mamlakatimizda mustaqillikni yanada mustahkamlash, jamiyatimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlash va kelajakni ilmiy o'rganishning strategik mexanizmlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analriga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirib, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdami. Ulardan ko'zlangan maqsad - "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat"[1]. Shu nuqtai nazardan, bu boradagi tajriba-larni umumlashtirish va mavjud muammolarni aniqlashda strategemalar nazariyasining O'zbekistondagi o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy taraqqiyotga ta'sir etish qonuniyat va mexanizmlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Strategema mavzusi bo'yichazamonaviy xorij falsafasida Shveysariyalik olim Xarro fon Zenger[2] hamda ingliz faylasufi Robert Grin[3] kabi tadqiqotchi olimlarning strategemalarga oid tadqiqotlari shu sohada ilk yirik va mashhur asarlar hisoblanadi.

Keyingi yillarda olimlar, xususan, MDH davlatlari mutaxassislari "Strategologiya" fani haqida gapira boshladilar va aynan ana shu asarlarni bu boradagi dastlabki ilmiy adabiyotlar sifatida e'tirof etmoqdalar, L.S.Vasilyev,

V.S.Myasnikov[4], G.Almond, S.Alford, R.Aron, Z.Bjezinskiy, P.Neylor, P.Reynolds, S.Xantington va boshqalarning izlanishlari va asarlarida ham strategiyalarning ilmiy, amaliy va falsafiy xususiyatlari hamda ba'zi jihatlari muayyan darajada tadqiq etilgan va ular bizning mavzuumiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, professor V.Alimasovning[5]"Falsafa yoxud fikrlash sanati" kitobidan joy olgan "Strategema – fikrlash va yengish ilmi" nomli maqolasi, tadqiqotchi Davronbek Qodirovning[6]mamlakatimizda bevosita strategemalar mavzusiga bag'ishlangan nihoyatda kam sonli asarlardan biri bo'lgan "36 Xitoy strategemasi: harbiy hiylalar va iqtisodiy muvaffaqiyat sirlari" nomli risolasida ham bu mavzuga doir ba'zi ma'lumotlar berilgan. Mohir tarjimon va jurnalist Jaloliddin Safoyevning bu boradagi izlanishlarini ham alohida ta'kidlash joiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusining ilmiy-strategemik asoslarini mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.Karimov va Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning asarlari asosida tahlil qilish mumkin. Ularda taraqqiyotning dolzarb masalalar har tomonlama keng va chuqur tadqiq qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 4-maydagi PF-5430-son "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institut-larining rolini tubdan oshirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 21-sentabrdagi PF-5544-son “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, farmonlari va qarorlarini maqolaga metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Ma‘lumki, O‘zbekistonning suveren davlat sifatida istiqloлга erishishi va o‘z mustaqilligini mustahkamlab borishi jarayonida Respublikamizning o‘ziga xos rivojlanish strategiyasi tanlandi, “Taraqqiyotning o‘zbek modeli” konsepsiyasi, bozor munosabatlariga o‘tishning besh tamoyili ishlab chiqildi. Iqtisodning mafkuradan xoliligi, davlatning-bosh islohotchiligi, qonun ustuvorligi, ijtimoiy himoya siyosatiga jiddiy e‘tibor qaratish lozimligi va o‘tish davrida yangi iqtisodiy munosabatlarga bosqichma-bosqich o‘tish zarurligi kabi besh tamoyilga tayanadigan ushbu strategiya asosida yosh mustaqil davlat hayotida tub islohotlar, “Islohot islohot uchun emas, inson, uning baxt-saodati va manfaatlar uchun!”, “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari” kabi strategik tamoyillar amalga oshirila boshladi.

Mustaqillik strategemalarini ishlab chiqish va zamonaviy strategemalar nazariyasi namoyon bo‘lishidagi umumiylik, xususiylik va alohidalik dialektikasining milliy darajada samarali amalga oshirishini ta‘minlash jarayoni faqatgina O‘zbekiston emas, balki butun jahon siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining eng mas‘uliyatli pallalaridan biriga, insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti bilan bog‘liq ko‘plab masalalarga javob izlanayotgan murakkab davrga to‘g‘ri keldi. Dunyo notinch bo‘lib qolgan, tinchlik va barqarorlikka rahna soluvchi kuchlar tahdidi kuchaygan va sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida shakllangan qator mustaqil davlatlarda qonli voqealar, talofatli jarayonlar kechgan bir vaziyatda milliy taraqqiyot strategiyasiga asoslangan aniq chora-tadbirlar izchil amalga oshirildi. Bu borada mustaqillik yo‘lini bosib o‘tgan davlatlarning ijobiy tajribasi sinchiklab o‘rganildi va, ayni vaqtda, O‘zbekiston voqeligi, xalqimizning o‘ziga xosligi, milliy mentaliteti, boy ma‘naviyati, tinchliksevarligi va bag‘rikengligi kabi xislat va xususiyatlari inobatga olinib, ish yuritildi. Chuqur falsafiy-ijtimoiy tahlil natijasida tanlab olingan va amalga oshirilayotgan, mustahkam tinchlik va barqarorlik, millatlararo va dinlararo totuvlik ta‘minlanishi uchun asos bo‘layotgan taraqqiyot yo‘lining samarali ekanligini ko‘plab misollar orqali ko‘rish mumkin.

Mustaqil taraqqiyot strategiyasida namoyon bo‘lgan va istiqloлning dastlabki yillariga doir maqsadlar jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldor ko‘pdan-ko‘p siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy vazifalarni amalga oshirishni taqozo etardi. Milliy strategiya xalqimizni ana shu maqsad atrofida birlashtirib, ulug‘ ishlarga safarbar etadigan bizga tayanch va ko‘mak bo‘ladigan ma‘naviy mezon bo‘lishi lozim edi. Mustaqillik yillarida shakllanish yo‘liga kirgan yangi davrga xos milliy strategiya umuminsoniy qadriyatlar, dunyo sivilizatsiyasi yutuqlari bilan boyitishga xizmat qilishi davr talabidir.

1992-yilda mamlakatimizning Asosiy qonuni - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingani nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning jahon andozalariga, dunyo xalqlarining demokratik taraqqiyot tamoyillariga mos keladigan ushbu Konstitutsiya qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida alohida ta‘kidlanganidek, istiqloл davrining o‘tgan yigirma besh yili – “tarix uchun bir lahza, xolos. Shu qisqa davrda jonajon O‘zbekistonimiz mustaqil va suveren davlat sifatida shakllanib, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladi, tom ma‘noda ulkan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Ana shu mashaqqatli va sharafli yo‘lda erishgan barcha yutuqlarimizni, eng avvalo, Konstitutsiyamiz bilan bog‘lashimiz, albatta, bejj

emas. Nega deganda, Asosiy qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo‘limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi. To‘la ishonch bilan aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”[7].

Istiqloлning dastlabki yillaridayoq, mazkur Konstitutsiyada ilgari surilgan strategiya va qoidalarga tayangan holda, avvalo butun jamiyat hayotining barcha sohalar kabi, ma‘naviy qadriyatlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasida ham nihoyatda muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi, sobiq Ittifoqdan mutlaqo yangi siyosiy tizimga o‘tish va bu borada yangicha munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan edi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning barcha fuqarolari manfaatlariga xizmat qiladigan milliy strategiya mamlakatimiz taraqqiyoti, uning rivoji va yanada gullab-yashnashi bilan uzviy bog‘lanadi. Bu har bir fuqaro, butun jamiyatning faol harakat qilishini, Respublika mustaqilligini belgilab bergan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarish uchun bor kuch-imkoniyatlarni safarbar etishni taqozo qiladi. Bumamlakatni izchil rivojlantirish, jamiyat hayotini demokratlashtirish va modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, O‘zbekistonning taraqqiyotgan davlatlarsafiga olib chiqishga qaratilgan izchil islohotlarni davom ettirish davridir.

Mamlakatni faol demokratik yangilash va modernizatsiyalash, kuchli fuqarolik jamiyatiga izchil va bosqichma-bosqich o‘tish davrida esa, birinchi navbatda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining vakolatlarini kengaytirish, aholining turli qatlam va guruhlarini manfaatlarini ifodalovchi, himoyalovchi siyosiy va ijtimoiy institutlarning rolini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Mazkur jarayon davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda, ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalarida, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining keng qatlami qo‘llab-quvvatlaydigan, xalq orasida chuqur ildizga ega bo‘lgan mustaqil, mustahkam, barqaror, ixcham turli-tuman fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish ham O‘zbekistonda rivojlangan bozor iqtisodiyoti bilan demokratik jamiyat qurishning eng muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Xalqning an‘analari va madaniyatini aks ettiruvchi asrlar mobaynida shakllangan o‘zini o‘zi boshqarish tajribasi zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg‘unlashib bormoqda. Yurtimizda qadimdan mavjud bo‘lgan mahalla singari o‘zini o‘zi boshqarishning noyob shakli kishilar, oilalar o‘rtasida aloqalarning mustahkamligi va ishonchliligi, jamiyat qurilishida ijtimoiy adolatli demokratik tizimning takomillashuviga xizmat qiluvchi muhim omilga aylandi.

Istiqloл yillarida mulkchilikning tuzilishida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bunday sharoitda ushbu ishlarni davom ettirish bilan birga, keng miqyosdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohot va o‘zgarishlarni amalda o‘zini to‘la oqlagan modelga muvofiq ravishda davom ettirish davlat va jamiyatning barqarorligi va zarur rivojlanish sur‘atlarini ta‘minlash, hayot sifatini oshirish, xalqaro maydonda o‘zimizga munosib o‘rin egallash imkonini beradi.

Aynan ana shu davrda mustaqillikning oldingi yillari mobaynida yaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma‘naviy taraqqiyot asoslari zamonaviy tajribalar bilan boyitilib, ularning tadrijiy yangilanishiga erishildi. Bu boradagi tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ma‘naviyat taraqqiyoti va unga ta‘sir

ko'rsatuvchi omillar samarasini oshirish, mamlakatimizda bu sohadagi mavjud tajribani umumlashtirish hamda uni bugungi hayotimizda qo'llash amaliyoti bir-biri bilan uzviy aloqador va o'zaro bog'liq jarayon ekanidan dalolat beradi. Bu esa, davlatimizning o'z siyosatida mazkur yo'nalishda ham insoniyat tomonidan yaratilgan ilg'or tajribalar va o'ziga xos milliy an'analar bilan bog'liq ma'naviy hayot voqeliklariga tayanib ish olib borayotganini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Natijada bunday jarayonlar jamiyat ma'naviy hayoti o'zgarishlar dinamikasiga nihoyatda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda esa, ushbu sohadagi yangilanishni yanada takomillashtirish va o'zgarishlar jarayonini har tomonlama chuqur, yuksak ma'naviyat tamoyillarini aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimizga singdirish borasida barchamizning zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

O'zbekistonni revojlantirishning Harakatlar strategiyasi amalga oshirila boshlagan keyingi yillarda mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, uning iqtisodiy, ijtimoiy hamda huquqiy asoslarini yaratish bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy va ta'lim-tarbiya sohasini isloh etish, yoshlarimizni ham ma'nau, ham jismonan yetuk, bozor iqtisodiyoti sharoitida bemaol raqobatlasha oladigan, zamonaviy bilimlarni puxta egallagan yuksak aql-zakovat sohibi etib voyaga yetkazish davlatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Shu yillar mobaynida yurtimizda dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilgan ta'lim-tarbiyaning takomillashtirilgan tizimi amaliyotga tatbiq qilindi, jahon andozalariga to'liq javob beradigan va zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan jihozlangan ta'lim muassasalari barpo etildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ta'lim sohasidagi muammolarni hal etish, avvalo, maktablarni ta'mirlash, ularni zamonaviy asbob-uskuna, kompyuter texnikasi bilan jihozlash hamda ko'plab yangi o'quv maskanlarini qurishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugun davlat xarajatlarining kattagina qismi shu sohaga yo'naltirilayotgani ham, uning salmog'i yildan-yilga ortib borayotgani ham mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimi rivojiga, barkamol avlod tarbiyasiga ustuvor masala sifatida qarab kelinayotganidan dalolatdir. Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha sa'y-harakatlar strategik maqsad-muddalarimiz qurayotgan yangi qiyofadagi jamiyatimizga munosib, ham jismonan, ham ma'nau sog'lom, hech kimdan kam bo'lmagan avlodni tarbiyalashga qaratilganini yana bir bor isbotlaydi.

Xulosa va takliflar. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan 1991-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davr xalqimiz tarixida o'ziga xos va muhim o'rin egallaydi. Nihoyatda

serqirra va murakkab ushbu jarayonning tahlili shundan dalolat beradiki, o'tish davridagi birinchi navbatdagi islohotlar va o'zgarishlar milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish va mustaqil demokratik davlat poydevorini yaratishga qaratildi va bu ma'naviy hayot o'zgarishlari dinamikasiga muqarrar tarzda ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-siyosiy omillarning ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qildi.

Ana shu davrda to'plangan tajriba yangi jamiyat o'z-o'zidan barpo bo'lmasligi, balki buning uchun muayyan vaqt talab etiladigan uzluksiz jarayon ro'y berishi lozimligini ko'rsatdi. Ushbu jarayonning sur'ati va sifati, pirovard natijada esa samarasi va muvaffaqiyati ma'naviy hayot o'zgarishlari dinamikasini belgilaydigan ijtimoiy-siyosiy omillar mustahkamlanib borishini taqozo qilgani o'sha davrning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'ldi, deyish mumkin.

Bu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi zamonaviy strategemalar nazariyasining bugungi kunda mamlakatimizda milliy darajada aks etishining yaqqol dalilidir.

Ular, o'z navbatida, mazkur yo'nalishda barcha zarur iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va ma'naviy asoslar shakllanganidan dalolat beradi.

-Yangi iqtisodiy tizim va mulkchilikning xilma-xil shakllari vujudga keldi. Bozor munosabatlari va iqtisodiy plyuralizm bu sohadagi yangilanish va zamonaviy tamoyillarni shakllantirish borasidagi jarayonlarga asos bo'ldi.

Agar xalqimizning milliy davlatchilikni tiklash, mustaqillikni mustahkamlash, va mamlakatimiz tanlab olgan taraqqiyot modelini amalga oshirish jarayoni qanday sharoitda kechgani haqidagi yaxlit va jiddiy tahliliy tadqiqotlar kamligini inobatga oladigan bo'lsak, bu Harakatlar strategiyasining ham ilmiy, ham amaliy jihatdan qanchalikkatta ahamiyatga ega ekanligi yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu hujjat O'zbekistonda yangi davlat va jamiyat barpo etish yo'lida qanday amaliychora-tadbirlar amalga oshirilgani, bu serqirra jarayonning ilmiy-tarixiy, mantiqiy va qonuniy zamini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy omillari, har bir taraqqiyot bosqichining o'ziga xos xususiyatlari – ularning barchasini hartaraflama chuqur yoritib va isbotlab berishga qaratilgan. Shu ma'noda, mazkur tarixiy hujjatni chuqur va har tomonlama o'rganish, unda aks etgan strategiya va tushunchalarni aholining barcha qatlamlari qalbi va ongiga singdirish muhim vazifaga aylandi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 20-sentabr, № 189 (6883).
2. Харро фон Зенгер. Стратегемы. О китайском искусстве жить и выживать. Знаменитые 36 стратегем за три тысячелетия. - М.: Прогресс, Культура. 1995; Зенгер Х. фон. Стратегемы. О китайском искусстве жить и выживать. ТТ. 1, 2. — М: Изд-во "Эксмо", 2004; Кайхан Криппендорф. 36 стратегем в эпоху конкуренций. - С-Пб, 2005
3. Grin R. O'zgarimas mohiyat. Tarjimon Safojev J. –T.: "O'zbekiston", 2013; Grin R. Hokimiyatning 48-qonuni. Tarjimon Safojev J. –T.: "Bayoz" 2017.
4. Мясников В. С. Традиционная китайская дипломатия и реализация Цинской империей стратегических планов в отношении Русского государства в XVII веке. - М., 1977. Альмонд Г. Сравнительная политология: концепция развития. - Москва, 1997
5. Alimasov V. Strategema – fikrlash va yengish ilmi // "Falsafa yoxud fikrlash sanati". –T.: "Noshir" 2008;
6. Qodirov D. 36 Xitoy stratagemasi: harbiy hiylalar va iqtisodiy muvaffaqiyat sirlari. –Buxoro: BuxDU, 2016; Grin R. O'zgarimas mohiyat. Tarjimon Safojev J. –T.: "O'zbekiston" 2013; Grin R. Hokimiyatning 48-qonuni. Tarjimon Safojev J. –T.: "Bayoz" 2017.
7. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi http://constitution.uz/uz/pages/prezident_maruzasi_25yil.



Latofat URINOVA,
Qarshi DU psixologiya fani o'qituvchisi
E-mail: urinovalatofat@gmail.com

Qashqadaryo VPYMO'MM dotsenti, p.f.f.d. A.Soatov taqrizi ostida

DIQQATNING MDH PSIXOLOGLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

Annotatsiya

Maqolada diqqatning mustaqil davlatlar hamdo'stligi psixologlari tomonidan o'rganilishi, diqqatning nazariy ahamiyati va uning psixik jarayonlar samaradorligini ta'minlashdagi roli, diqqatning turlari va xususiyatlariga oid masalalarni turli xil yondashuvlar asosida o'rgangan olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Diqqat, diqqat fokusi, dominanta, ustanovka, irodaviy diqqat, emotsional qiziqish, sensor ustanovka, motor ustanovka, obraz, qo'zg'alish, idrok, mayl.

ИССЛЕДОВАНИЕ ВНИМАНИЯ ПСИХОЛОГАМИ СНГ

Аннотация

В статье анализируются исследования внимания психологами Содружества Независимых Государств, теоретическое значение внимания и его роль в обеспечении эффективности психических процессов, научные взгляды ученых, изучавших вопросы, связанные с видами и особенностями внимания на основе на разных подходах.

Ключевые слова: Внимание, фокус внимания, доминанта, установка, волевое внимание, эмоциональный интерес, сенсорная установка, моторная установка, образ, возбуждение, восприятие, влечение.

RESEARCH OF ATTENTION BY CIS PSYCHOLOGISTS

Annotation

The article analyzes the studies of attention by psychologists of the Commonwealth of Independent States, the theoretical significance of attention and its role in ensuring the effectiveness of mental processes, the scientific views of scientists who have studied issues related to the types and characteristics of attention based on different approaches.

Key words: Attention, focus of attention, dominant, attitude, volitional attention, emotional interest, sensory attitude, motor attitude, image, excitation, perception, attraction.

Kirish. Bugungi kunda muayyan faoliyat turida aqliy yoki jismoniy vazifalarni bajarayotgan kishilar diqqat bilan bog'liq u yoki bu darajadagi muammolarga duch keladi. Bu muammolar ular diqqatining tarqoqligi, parishonligi, kuchsizligi va be'qarorligida namoyon bo'ladi. Har bir inson kasbiy faoliyatda samaradorlikka erishishi uchun diqqat sifatlarining qanchalik rivojlanganligini bilishi va shu yo'l orqali taqsimlangan va konsentratsiyalashgan diqqatini o'stirib borishi lozim. Buning uchun psixologiya tarixidagi diqqat va uning sifatlariga oid nazariy qarashlar haqida ma'lumotga ega bo'lishlari bir muncha foydali.

Diqqatning nazariy ahamiyatini o'rganuvchi olimlar uning boshqa psixik jarayonlar bilan bog'liqligini va psixik jarayonlar faoliyatida diqqatning roli masalalarini turli xil yondashuvlar asosida o'rgananlar.

Diqqat muammosi va uning boshqa psixik jarayonlar bilan bog'liqligi hamda roli masalalari MDH psixologlari N. N. Lange, A. R. Luriya va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan rus psixologi N.N.Lange diqqatning iroda, reflektiv, instinktiv, perseptiv holatlar bilan bog'liqligini o'zining «Irodaviy diqqat nazariyasi» asarida ko'rsatib beradi. A.R.Luriyaning fikricha, kichik yoshdagi bolalarda diqqatning bu holatini ko'rish oson. Birinchi bosqichda u beqarorligi va ko'laming torligi uchun qo'zg'atuvchilar qurshovida diqqatni bo'lolmaydi. Chunki bolaning dastlabki yoki maktabgacha yoshida yangi paydo bo'lgan qo'zg'atuvchiga nisbatan orintir refleksi zaif bo'ladi[5].

O'quv faoliyatida diqqatni shakllantirishda irodaviy diqqat bilan emotsional qiziqishning birlashuvi, ko'z yugurtirish, illyustratsiyalarni chuqur tahlil qilish, mantiqiy urg'uga e'tibor berish, tekstdan mantiqiy xatoni topish,

tekstdagi nuqsonlarni payqash usullarini qo'llash orqali shakllantiriladi. Tajribalarda topshiriqni bajarish uchun unga diqqat yo'naltiriladi, uni yechish faoliyatida esa diqqat shakllantiriladi[3].

Jahon psixologiyasi faniga o'zining ilmiy qarashlari orqali katta hissa qo'shgan olimlardan biri-bu rus psixologi N.N.Lange hisoblanadi. U o'zining «Irodaviy diqqat nazariyasi» degan kitobida (1893-yilda bosilgan) diqqatning nazariyasiga bag'ishlangan jamiki ishlarni xronologik tarzda turkumlarga (guruhlariga) ajratib o'rgangan. N. N. Langening nazariy mulohazalarini turkumlashtirish muammosi yuzasidan fikrlar P. Y. Galperinning asarida ham keng joy ajratilgan. N. N. Lange diqqat muammosini o'rganishning qadimgi davrdan boshlab, to XIX asrgacha bo'lgan rivojlanish bosqichini sakkiz turkumga ajratgan holda tahlil qiladi va ularning har birini o'ziga xos xususiyatlari atroficha ochib beriladi[5].

N. N. Lange birinchi turkumga diqqatning motor nazariyasini yoqlab chiqqan olimlarni kiritadi: R.Dekart, Y.Friz, F.Bek, G.Lotse, T.Siyen, R.Ribo, N.N.Lange. Ta'kidlab o'tilgan nazariyalarning barchasida diqqat motor harakatga moslashish natijasi sifatida vujudga kelib, shu zahotiyoq predmetni idrok qilishni yaxshilaydi yoki g'oyalarning aqliy jihatdan oqilona tahlil qilishni taqozo qiladi. N.N.Langening ta'kidlashicha, bu hol diqqatni nazariy tadqiq qilishdagina namoyon bo'lib, uch xil o'zaro o'xshamagan holatni hisobga olishni taqozo qiladi: a) g'oya yoki obyektning dastlabki bosqichini payqash, b) ularning idrok qilish jarayonini takomillashtirish, v) g'oya yoki predmetini aniq va ravshan idrok qilish natijasini hisobga olish. N.N.Langening shaxsiy nuqtai nazari shundan iboratki, har qaysi sezgi va g'oya qaysidir, harakat bilan bog'liq bo'lib, harakatni esga

tushirish (tiklash) davomida sezgi va g'oyaning qo'shimcha kuchayganligi diqqatning kuchi orqali amalga oshadi.

Ikkinchi turkumga N. N. Lange diqqat ong ko'lamining cheklanishi degan nazariyalarni kiritadi: jumladan, I.Garberg, V.Gamilton kabilar. Bularning tushuntirishlariga ko'ra, diqqat bu ong ko'lamining cheklanishidan iborat bo'lib, kuchli ta'sirlar nisbatan kuchsizlarini siqib chiqarish bilan xarakterlanadi.

Uchunchi turkumga ingliz assotsianistik empirizm klassik nazariyasi vakillari D.Xartli, P.Braun, Dj.Mill, A.Ben kabilardir. Mazkur guruhga kirgan olimlarning qarashlaricha diqqat alohida jarayon sifatida hukm surmaydi. Ana shundan kelib chiqqan holda ushbu psixologik maktabning namoyondalari, diqqatni sodda his-tuyg'ular va oddiy xotira bilan tenglashtirib qo'yadi. Ularning fikricha, diqqatni o'ziga tortadigan narsa bu qiziqish bilan bog'liqdir, ma'lumki qiziqish emotsiyaning aynan o'zidir: emotsiya esa obyektga idrok yoki tasavvurni jalb qiladi, assotsiatsiya o'rniga intensivlik, aniqlik, ravshanlik, barqarorlik kabilarni olib keladi.

To'rtinchi turkumni shunday diqqat nazariyalari tashkil qiladiki, ularning qarashlariga ko'ra diqqatning birlamchi ruhiy qobiliyat tariqasida nomoyon bo'lishi (G. Leybnits, I. Kant, V. Vunt), ichki iroda birlamchi ruhiy kuchning avtonomiyasi (U. Djems) dan iboratdir. Bu nazariyalar diqqatning faol jarayon ekanligini u barcha jarayonlarni tushuntirish uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi. Biroq diqqatning ahamiyatini qobiliyat darajasida ta'riflash bir yoqlama qarash, shuning uchun ularning negizida qandaydir g'ayritabiiylik (binobarin, noilmiylik) yotadi.

Beshinchi turkumni shunday diqqat nazariyalari tashkil qiladiki, ularning talqinicha, diqqat bu oliy nerv markazlaridan keladigan qo'shimcha nerv qo'zg'alishlarining faoliyatidan iborat bo'lib, obraz yoki tushunchalarning kuchayishiga olib keladi (R.Dekart, I. Miller, SH. Bonne). Bu nazariyalar diqqatni shunday ta'riflaydiki, hissiy organlardan keladigan qo'zg'ovchiga markaziy nerv o'choqlari nerv impulsini yuborib turadi, natijada impuls tashqi qo'zg'atuvchining u yoki bu tomoniga to'planadi, ularga qo'shimcha aniqlik va ravshanlik kiritadi. Bu o'rinda N.N.Langening ushbu holat fiziologik gipoteza (taxmin) emas ekanligini aniq payqash qobiliyatini ta'kidlab o'tish joiz. Chunki mazkur fiziologik terminlar, omillar, dalillar zamirida diqqat jarayoni muallif tomonidan shaxsan o'zi kuzatganligi turadi.

Oltinchi turkumni tashkil qilishda N.YE.Lange to'rtinchi guruhda qayd qilingan nazariyaga qaytatdan murojaat qiladi. Agarda to'rtinchi turkumda apperpsiya va irodaning idealistik talqini yuzasidan mulohaza yuritilgan bo'lsa, oltinchi guruh nazariyalarida ularning ruhiy yoki psixologik aktivligi to'g'risida fikr bildiradi.

N. N. Lange yettinchi guruhga diqqatni bir narsa bilan mashg'ul bo'lish faoliyati sifatida talqin qiladigan nazariyalarni kiritadi (G.Ulritsi, G.Lotse). Faoliyat to'g'risidagi g'oya bu olimlar tomonidan yoritib berilgan, lekin bir narsa bilan mashg'ul bo'lish ruhiy faoliyatni har qanday mazmunli, obyektiv, predmetli faoliyatga qarama-qarshi qo'yish to'la-to'kis mazmunsiz faoliyat haqida fikr yuritishga olib kelgan[5].

N. N. Lange diqqat nazariyalarini sakkizinchi turkumini amalga oshirishda nerv jarayonini ontogenetik o'zaro ta'sirini asos qilib oladi. Bunda ongni muayyan ob'yektga to'planishi nerv jarayonlari bilan bog'liqligi va ular diqqatning fiziologik asosini tashkil qilish ekanligi muallif tomonidan dalillab beriladi[5].

Shunday qilib, N. N. Lange yuqoridagi mulohaza yuritilgan asarida bir tomondan, tarixiy, ikkinchi tomondan, ilmiy-eksperimental jihatdan diqqatni yoritib berish

imkoniyatiga ega bo'lgan. Shuning uchun bu asar o'zining qiymatini hali yo'qotganicha yo'q.

O'tgan asrning 20-yillarda bir qancha psixologlar diqqat muammosini ustanovka bilan bog'lab tushuntirdilar. Buning yaqqol isboti K. N. Kornilov tahriri ostida 1926 yilda chop qilingan psixologiya darsligidagi bir mavzu «Ustanovka va diqqat» deb atalganligidir. Darslikda yozilishicha, qator obyektlardan bir obyektini ajratish diqqatning subyektiv kechinmasidir va buni obyektiv hodisalar bilan taqqoslash sezgi organlarining ustanovkasidan-ishlash vaziyatidan iboratdir[5].

Shunga o'xshash g'oya L. S. Vigotskiyning dastlabki tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanadi. L. S. Vigotskiy diqqat bilan aloqador bo'lgan ikkita ustanovka turini ajratib ko'rsatadi:

Sensor ustanovka - tayyorgarlikda idrokning ustunligi qobiliyati.

Motor ustanovka - tayyorgarlikda harakatning ustunligi qobiliyati.

Sensor ustanovkada idrok, motor ustanovkada esa harakat ustunligi sezilib turadi. L. S. Vigotskiy bularga misol qilib jismoniy tarbiya mashg'ulotida komanda (buyruq) berishni keltiradi. Safda turganlarga qarab «O'ng» deb aytamiz. Shu zahotiyoq saflanganlar buyruq oxirini aytishga sensor ustanovka qo'zg'aydi «ga!» deyish oyoqlarni aylantirishga moslashish bilan bog'liq motor ustanovka komanda oxirini eshitishni ta'minlaydi [5].

Diqqat nazariyasini o'rganishda A.A. Uxtomski tomonidan o'rganilgan dominantlik tamoyili alohida o'rin egallaydi. Dominantlik nazariyasiga ko'ra, miyada doimo ma'lum vaqt ichida nerv markazlari faoliyatini belgilab beruvchi va shu bilan inson xulq-atvoriga ma'lum yo'nalganlik bag'ishlovchi qo'zg'alishning vaqtincha hukmron o'chog'i mavjud bo'ladi. Dominantlik xususiyatlariga asoslangan holda nerv tizimiga keluvchi impulslar to'planadi va jamlanadi, shu vaqtning o'zida boshqa markazlar faolligi susayadi, buning hisobiga qo'zg'alish kuchaytiriladi. Bu xossalarga binoan, dominantlik qo'zg'alishning barqaror o'chog'i hisoblanadi, bu esa o'z navbatida diqqat jadalligini mustahkamlovchi nerv mexanizmini tushuntirishga imkon yaratadi [1].

Diqqatni jamlash deganda diqqatning yo'naltirilgan ob'yektga nisbatan jamlanganligi va jadalligining darajasi tushuniladi. A.A. Uxtomskiyaning fikriga ko'ra, diqqatni jamlash bosh miya po'stlog'idagi kuchli qo'zg'alish o'chog'i faoliyatining xususiyati bilan bog'liq.

Diqqatni taqsimlash ostida odamning bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatlarni bajarish qobiliyati tushuniladi. Hayotiy tajribaga ko'ra, odam ongli psixik faoliyatning faqat bir turini bajara oladi, bir vaqtning o'zida bir nechtasini bajarish subyektiv hissi esa ketma-ket tezlik bilan bir faoliyat turidan ikkinchisiga o'tish oqibatida yuzaga keladi[4].

Diqqat tabiatini tadqiq etishga turli xil boshqa yondoshuvlar ham mavjud. D.N. Uznadze fikricha, diqqat to'g'ridan-to'g'ri mayl bilan bog'langan. Uning nuqtai nazariga ko'ra, mayl diqqat holatini ichkaridan ifodalaydi. Mayl ta'siri ostida atrof-muhitni idrok qilishda hosil qilinadigan ma'lum obraz yoki taassurotning ajralishi sodir bo'ladi. Bu obraz yoki taassurot diqqat obyektiga aylanadi, jarayonning o'zi esa ob'ektivlashtirish deb nomlanadi [2].

P.YA. Galperin ham diqqatning qiziqarli konsepsiyasini taklif etdi. Uning konsepsiyasi quyidagi asosiy holatlardan iborat:

1. Diqqat yo'nalishli-tadqiqot faoliyatining vaziyatlaridan biri bo'lib, obraz, fikr, inson psixikasida ma'lum vaqtda mavjud bo'lgan boshqa hodisa mazmuniga qaratilgan psixik harakatdan iborat.

2. Diqqatning asosiy vazifasi – psixik obraz, harakat mazmuni va boshqalar ustidan nazorat qilish. Insonning har

bir harakatida yo'nalganlik, bajaruvchilik va nazorat qilish qismlari mavjud. Mana shu oxirgi qismi diqqat tomonidan gavalantiriladi.

3. Ma'lum mahsulotni ishlab chiqarishga qaratilgan harakatlardan farqli o'laroq, nazorat yoki diqqat faoliyati alohida natijaga ega bo'lmaydi.

4. Diqqat mustaqil akt sifatida aqliy harakat bo'lib qolmasdan, aqliy harakatlar nazoratini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda har qanday nazoratni ham diqqat sifatida o'rganib bo'lmaydi. Nazorat harakatni umumiy tarzda baholaydi, diqqat esa uning yaxshilanishini ta'minlaydi.

5. Diqqat psixik nazorat faoliyati sifatida o'rganiladigan bo'lsa, u holda diqqatning ixtiyoriy va ixtiyorsiz ma'lum aktlari yangi aqliy harakatlar shakllanishining natijasidir.

6. Ixtiyoriy diqqat reja asosida amalga oshiriladigan diqqatdir, bu oldindan tuzilgan reja yoki namuna bo'yicha bajariladigan nazorat shaklidir[6].

N. F. Dobrinin, N. V. Kuzmina, I. V. Straxov, M. V. Gamezo, F. N. Gonobolin va boshqalarning nuqtai nazaricha, diqqatning vujudga kelishida ongning bir nuqtaga to'planishi

ong doirasining torayishini bildiradi, go'yoki ong doirasi bir muncha tig'izlanadi. Bunday torayish va tig'izlanish natijasida ong doirasi yanada yorqinlashadi. Ongning eng toraygan, tig'izlangan yorqin nuqtasi diqqatning markazi (fokus) deb nomlanadi. Xuddi shu markaz (fokus) ga tushgan idrok qilinayotgan jismlar, tasavvur obrazlari, o'y va fikrlar to'la, yorqin va aniq ifodalanadi. Jahon psixologlarining fikricha, diqqat uzluksiz ravishda, muayyan darajada aktivlik xususiyatini saqlab turadi. Bunday aktivlik, ongning biron bir obyektgacha yo'nalishining kuchayishi va ma'lum vaqt davomida diqqat yo'naltirilgan narsaga ongning faol (aktiv) qaratilishini regulirovka qilib turadi hamda mazkur holatning saqlanishini ta'minlaydi [5].

Xulosa. Yuqorida biz o'rgangan nazariyalarning ilmiy ahamiyati muhimligiga qaramasdan diqqat muammosi tugaligicha o'rganilmagan. Kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlashda diqqat sifatlarining rivojlanganligi, ilmiy faoliyatda ixtiyoriy va muvaqqat diqqatga tayanishning afzalligi tajribalar orqali o'rganib kelinmoqda. Shu bois diqqat tushunchani o'rganish va tadqiq etish hali ham davom etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Yugay A.X, Mirashirova N.A. "Obshaya psixologiya" – Tashkent 2014 g. S.-194-205.
2. Safayev N.S, Mirashirova N.A. "Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti" TDPU, 2013 y, B.79-90.
3. Soatov.A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Qarshi: Fan va ta'lim. 2022.-102 b.
4. Diqqat va uning ta'limiy ahamiyati. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalning 3-maxsus soni. 2021.55-58 b.
5. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Darslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010.-336-39 b.
6. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/14553-diqqat>.



UDK:811,111(045)(5751)

Dildora USAROVA,
TDYU katta o'qituvchisi
E-mail: dildorausarova@gmail.com

TMC (Technology, marketing and communication) institut of Tashkent, Xorijiy tillar kafedrasida mudiri D.Raximova taqrizi asosida

IMPROVING THE SPEAKING COMPETENCE OF STUDENTS IN THE ENGLISH LANGUAGE (IN THE EXAMLE OF ESP STUDENTS)

Annotation

Currently, the purpose of studying English is not only to read and understand texts, but also to express the content in speech. Why a student should learn a foreign language is a crucial question that should be covered in the field English classes. Business English, legal English, scientific and technological English and other topics are the main areas of study for some researchers of industrial English.

ПОВЫШЕНИЕ РАЗГОВОРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ)

Аннотация

В настоящее время целью изучения английского языка является не только чтение и понимание текстов, но и выражение содержания в речи. Зачем студенту учить иностранный язык — это ключевой вопрос, который следует освещать на уроках английского языка в полевых условиях. Деловой английский, юридический английский, научный и технологический английский и другие темы являются основными направлениями изучения некоторых исследователей промышленного английского языка.

TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI NUTQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH (NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI MISOLIDA)

Annotatsiya

Hozirgi vaqtda sohaviy ingliz tilini o'rganishdan maqsad nafaqat matnlarni o'qish va tushunish, balki nutqdagi mazmuni ifodalashdan ham iborat. Nima uchun talaba chet tilini o'rganishi kerak - bu sohaviy ingliz tili darslarida yoritilishi kerak bo'lgan hal qiluvchi savoldir. Biznes ingliz tili, yuridik ingliz tili, ilmiy va texnologik ingliz tili va boshqa mavzular sohaviy ingliz tilining ayrim tadqiqotchilari uchun asosiy o'rganish yo'nalishlari hisoblanadi.

Kalit so'zlari: Sohaviy ingliz tili, kompetensiya, kompetentlik, nutq kompetensiya, kommunikativ kompetensiya

Kirish. Sohaviy ingliz tili asosan o'rta ta'lim yoki oliy ta'lim talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ular o'z sohalarida kelgusida kerak bo'ladigan ma'lumotlarni o'rganadilar, o'z sohasida duch kelishi mumkin bo'lgan terminlar bilan tanishadilar.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv, shu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning fikricha, uchta tamoyilga asoslanadi: Ta'lim odatda bilim, ko'nikma, o'qitish usullariga asoslanishi kerak; ta'limning mazmuni asosan bilim va shaxslarga nisbatan insonparvarlik tamoyili bo'lishi kerak;

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik va psixologik ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, kompetensiya pedagogika fanida uning mohiyatini aniq tushunmaydigan keng qamrovli tushunchadir (lotincha *competo* – erishaman, mos kelaman, mos kelaman). Bu tushunchani 1965-yilda til nazariyasiga kiritgan amerikalik tadqiqotchi N.Chomskiyning fikricha, “Kompetensiya – til belgilarini va ularni birlashtirish qoidalarini o'zlashtirish orqali cheksiz miqdordagi lingvistik jihatdan to'g'ri gaplarni tushunish va hosil qilish qobiliyatidir”. N. Chomskiyning fikricha, malakali so'zlovchi yoki tinglovchi modellar bo'yicha cheksiz sonli jumalarni tuzishi, tushunishi va bayonot bo'yicha qaror qabul qilishi kerak. Amerikalik olimlar (R.Uayt va D.MakKleland) kompetensiyalar o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tartibga solish va ijtimoiy ko'nikmalarni o'z ichiga olgan xulq-atvor fazilatlarini bilan bog'liq deb hisoblashadi. R. Uaytning "kompetentlik" ta'rifi motiv bilan bir qatorda shaxsiy elementlarni ham o'z ichiga oladi.

Kompetensiyalar D.Mak Klelandning fikricha, har xil turdagi o'qitish va rivojlantirish orqali shakllantirilishi mumkin bo'lgan xulq-atvor sifatlaridir. Samarali faoliyatga olib keladigan yoki namoyon bo'ladigan shaxsiyat, xarakter xususiyatlari, umumiy iste'dodlar, motivatsiya va inson xatti-harakatlarining namunalari kompetensiyalarni tahlil qilishda shaxsiy yondashuvning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Britaniya metodik maktabi ilmiy tadqiqotchilari kompetensiyalarni belgilashda shaxsning shaxsiy xususiyatlariga emas, balki faoliyat atributlariga e'tibor qaratdilar. Shaxsning umumiy belgisi sifatida kompetensiyalar va ishni bajarish jarayonida o'zini namoyon qiladigan individual qobiliyatlar sifatida qaraladi. Fransiyada faoliyat olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilarning yondashuvi boshqacharoq. Ya'ni fransuz tadqiqotchilarning malakasi uchta omil bilan belgilanadi: bilim, tajriba va xulq-atvor xususiyatlari.

Tadqiqot metodologiyasi. Amaliyotda kompetensiyalarni tushunishning ikkita usuli paydo bo'ldi. Amerika yondashuvi "shaxsiy" bo'lib, qobiliyatlarini faoliyat muvaffaqiyatini rag'batlantiradigan inson atributlari bilan bog'laydi, Britaniya yondashuvi esa vazifa tavsiflari va kerakli natijalarga asoslangan "funktional" yondashuvdan iboratdir. Rossiyalik olimlarning tadqiqotlari "kompetentlik" atamasining ko'p qirrali nuqtai nazarini aks ettiradi. Ularning fikricha: "Kompetensiya - bu inson faoliyatidagi bilim va harakat o'rtasidagi o'zaro ta'sir sohasidir".

Tahlil va natijalar. Kompetensiyalar kontekstidagi bilimlarni ob'yektiv voqelik hodisalari va qoidalarining

odamlar miyasida ularning o'zaro bog'liqligi va dinamikasida aks etishi sifatida qaraladi. Ular mahoratni odamlarga ma'lum sharoitlarda muayyan faoliyat yoki harakatlarni bajarishga imkon beradigan bilimlar va moslashuvchan ko'nikmalar to'plami sifatida belgilaydilar. Ko'nikma shaxsning tegishli ko'nikmalarni amalga oshirish va tartibga solish qobiliyatini qisman avtomatlashtirish sifatida aniqlanadi. Semantik tuzilishga asoslanib, olimlar "kompetentlik" atamasini quyidagicha izohlaydilar:

harakatdagi bilimning butun tizimi;

shaxsiyat xususiyati;

faoliyatga tayyorgarlikning namoyon bo'lish mezonlari;

kasbiy faoliyatni, shaxsning o'z malakasini amalda qo'llash qobiliyatini, motivatsiya qobiliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarning yaxlitligi;

faoliyat natijasida erishilgan bilimlar, ko'nikmalar va tajriba (shaxs tomonidan o'rganilgan individual harakatlar, muammolarni hal qilish usullari), shuningdek motivatsion va hissiy-irodaviy qobiliyatlar;

motivatsion va emotsional-irodaviy qobiliyatlar.

Tadqiqotchilarning "nutq kompetensiyasi" ta'riflari kontseptsiyaning murakkabligi va moslashuvchanligini ochib beradi. Nutq kompetensiyasi tadqiqotchilar tomonidan quyidagicha ta'riflangan:

boshqalarni tushunish va muloqotning maqsadlari, sohalar va vaziyatlariga mos keladigan nutq xatti-harakatlarining o'z dasturlarini yaratish qobiliyati;

talabaning ingliz tilidan nutq, nonutq (mimika, imo-ishoralar, harakatlar) va intonatsiya vositalarini birgalikda ishlatish ko'nikmasini shakllantirish, aniq kommunikativ vaziyatlarda amaliy foydalanish qobiliyati;

muayyan tilda amaliy nutqda ravonlik, shu jumladan dialogda ham, monolog tarzida ham to'g'ri, ravon va dinamik gapira olish qobiliyati, shuningdek, har qanday funksional uslubda nutq so'zlash va tushunish qobiliyati va h.k.

Nutq va kommunikativ kompetensiyalar ayrim manbalarda sinonimik tushunchalar sifatida talqin etiladi, nutqda to'plangan til materialidan muloqot qilish maqsadida foydalanish qobiliyati hisoblanadi, boshqa manbalarda nutqiy kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning bir qismi sifatida qaralib, til orqali fikrni shakllantirish va shakllantirish usullariga ega bo'lishni va bu jarayonda bunday usullardan foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi.

Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, nutq kompetensiyasi sotsiolingvistikdir, ya'ni unga ega bo'lgan shaxs nutq aktining holatlari: kommunikativ maqsadlar, vaziyat va so'zlovchi niyatidan kelib chiqib, tegishli lingvistik shakl va ifoda texnikasini tanlay olishi kerak.

Bizning tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, nutq kompetensiyasi boshqalarni tushunish va maqsadlar, sohalar va muloqot sharoitlariga mos keladigan o'z nutqiy xatti-harakatlar dasturlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan bilim va qobiliyatlarni to'g'ri yo'naltirishdan iborat.

Tinglash, mulohaza yuritish va kuzatish qobiliyatini o'z ichiga olgan nutq kompetensiyasining inson hayotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda, huquqshunos talabalarga ingliz tilidagi nutqni adekvat idrok etish, shuningdek, nutq innovatsiyasini o'rgatish juda muhimdir.

Talabalar nutq kompetensiyasini rivojlantirishi uchun quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim sanaladi:

fikrlashning o'sishi mantiqini idrok etish va mavzuni tushunish qobiliyati;

og'zaki yoki yozma manbadan tegishli ma'lumotlarni olish qobiliyati;

ma'lumot to'plash va tartibga solish qobiliyati.

Yuqoridagi ilmiy izlanuvchilar, chet davlatdagi pedagogik-psixologik ilmiy tajriba sinov natijalarini hisobga olgan holda bizning talabalarga sohaviy ingliz tilini o'rgatish,

ularni so'zlashuv malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda yangicha psixologik yondoshuvlarni ko'rib chiqamiz. Sohaviy ingliz tilini talabalarga o'rgatish anchagina murakkab, chuqur pedagogik-psixologik yondoshuvlarni talab etishini hamma-miz yahshi bilamiz. Quyida biz chet el tajribalarini, yuqori malakali professor olimlarning fikr mulohazalarini, ular olib borgan ko'p yillik tajriba sinov natijalarini hisobga olgan holda sohaviy ingliz tilini o'qitishda yangicha yondoshuv va yangicha pedagogik fikrlashning bir nechta misollarini ko'rib chiqamiz.

Ingliz tili darslarida roli o'yinlar, intervyular, munozaralar va boshqa turdagi ishlarni o'tkazish talabalarda nutqiy malakani rivojlantirishni kuchaytiradi. Og'zaki va yozma nutq faoliyatining turlari sifatida o'zaro bog'liq bo'lgan nutqiy fikrlash jarayonlari - aloqa vaziyati natijasida bayonotlarni idrok etish va takrorlash orqali erishiladi. O'z nutqini rivojlantirish va tilni yaxshiroq o'rganish istagini uyg'otadigan nutq sharoitlarini yaratish talabalarining nutq kompetensiyasini shakllantirishning uslubiy shartidir.

Darhaqiqat, nofilologik talabalarga ingliz tilini o'rgatishning eng muhim jihatlardan biri nutq kompetensiyasini rivojlantirishdir. Ingliz tilini o'rgatishda nutq faoliyatining barcha turlarining bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini hamda ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ushbu kontekstda ingliz tilini o'qitishdan maqsad olingan usulning uzilishini bartaraf etish va talabalarining nutq faoliyatining turli turlarini (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) o'rgatishdan iboratdir. Huquq fakulteti talabalarining nutqini rivojlantirish muammolari bo'yicha tadqiqotlarni tahlil qilish asosida ingliz tilini o'rgatishda nutq kompetensiyasini shakllantirishning quyidagi uslubiy tamoyillarini aniqlaymiz:

1. Nutq kompetensiyasini shakllantirishda talabalarining hissiy, aqliy va nutq rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik. Nutq faoliyati atrofidagi dunyoni bilish bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, fikrlashning mazmunini tomonini rivojlantirish, kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga yordam beradigan usul va tartiblardan foydalanish asosida ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish juda muhimdir. Talaba quyidagi bosqichlarni bajarishi kerak: konkret ma'nodan mavhum ma'noga o'tish; oddiy tuzilmalardan murakkab tuzilmalarga o'tish.

2. Talabalarda nutq qobiliyatini rivojlantirish kommunikativ-faollik yondashuvining asosi hisoblanadi. Ingliz tili kurslaridagi asosiy ish yo'nalishlari, til materiallari va o'qitish usullari talabalarining nutqini rivojlantirishga yordam berishi kerak.

3. Nutqning turli komponentlari ustida ishlash va nutqni har tomonlama ta'lim sifatida rivojlantirish o'rtasidagi munosabatlar. Talabalarining nutqiy kompetensiyasi rivojlanayotganda, tilning barcha darajalari (fonetika, lug'at, grammatik tuzilish va boshqalar) tandemda rivojlanadi. Nutqning bir komponentining rivojlanishi bir vaqtning o'zida uning boshqa xususiyatlarining rivojlanishiga yordam beradi.

4. Talabalarining nutqiy faoliyatga motivatsiyasini oshirish tushunchasi. Ijodiy nutq motivatsiyasi mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi va ularning nutq qobiliyatlarini rivojlantiradi. Professor-o'qituvchilar talabalarining nutq faolligini rag'batlantiradigan va ijodiy nutq qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadigan turli xil ta'lim usullarini qo'llashi, shuningdek, talabalarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda gapirishga majbur qiladigan vaziyatlarni yaratishi kerak.

5. Faol nutqni mashq qilish zarurati. Nutq faoliyati talabalarining nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Shaxsiy tajribaga asoslangan o'yin usullari, vizual materiallar va topshiriqlardan foydalanish ularning guruhlarda nutq faolligiga yordam beradi.

Nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida talabalarining nutqiy fikrlash faolligi, nutq qobiliyatlari yaxshilanadi, ingliz tilini turli sharoitlarda o'zlashtirishni ta'minlaydi; ularning so'z boyligi kengayadi; va ularning ingliz tilida muloqot qilishga tayyorligi va qobiliyati yaxshilanadi. Shu bilan birga, talaba ingliz tili ko'p millatli muhitda muloqot qilish uchun zarur ekanligini tushunishi kerak va unga jamiyat a'zosi sifatida o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga va kelajakda munosib martaba egallashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki yuqorida bayon qilingan fikrlar, ilmiy izlanishlar, olimlarning mulohazalari shuni aniq ko'rsatib beradiki sohaviy ingliz tilini o'rgatish hozirgi kun chet tilini o'qitish

metodikasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib yechimini kutib turgan muammolar anchagina. Bu muammolarni hal qilishda pedagogik va psixologik tajribalar o'tkazish, ularni umumlashtirish, shu bilan bir qatorda hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonaviy texnologiyalardan ham unumli foydalanish anchagina samara berishini ko'rib turibmiz. Yildan-yilga bu jarayon o'ta og'irlashib borayotganini ko'rib turibmiz va biz pedagog mutaxassislar bunga moslashib borishimiz talab etiladi, ya'ni kim hozirgi yangi zamon talabalari oldingilaridan psixologik jihatdan tubdan farq qilishini anglab yetmog'imiz va shunga qarab sohaviy ingliz tilini o'qitishda yanada samarali yo'llarni, vositalarni qidirib topmog'imiz lozim sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Kurz R. and Bartram D. Competency and Individual Performance: Modelling the World of Work. / Robertson I, Callinan M. and Bartram D. (eds), Organizational Effectiveness: The Role of Psychology. - London: John Wiley & Sons. - pp. 216.
2. Hedge T. (2000). Teaching and learning on the language classroom. New York: Oxford University Press.
3. Bystrova E.A. Celiobuchenijarusskomujazyku, ilikakujukompetenciju my formiruemnaurokah [Tekst] / E.A. Bystrova // Russkajaslovesnost' [The goals of teaching the Russian language, or what competence we form in the lessons [Text] / Bystrova E.A.// Russian literature]. - 2003. -№ 1. - S. 25-28.
4. Skalkin B.J.I. Osnovyobuchenijaustnojinojazychnojrechi [Tekst]/ Skalkin B.J.I. [Fundamentals of teaching oral foreign speech [Text] / Skalkin B.J.I.]. - M.: Russkijjazyk, 1981. - 248 s.
5. Воробьева А.И. Развитие навыков устной речи посредством сюжетно-ролевых игр на уроках иностранного языка // Международный студенческий научный вестник, 2019; 3.
6. Cooper L. & Husband, R. (1993). Developing a model of organizational listening competency. Journal of the International Listening Association, 7,
7. Polvanova M. Improving students' speaking skills through the technique "Think-Pair-Share" in ESP classes / Полванова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 11 (197). — С. 185-187. — URL: <https://moluch.ru/archive/197/48806/> (дата обращения: 18.08.2022).
8. Ken Lackman. Teaching speaking sub-skills: Activities for improving speaking., Lackman& Associates, Toronto, Canada, 2010.
9. Nunan David. Task-Based Language Teaching., Cambridge University Press, Cambridge, 2004.
10. Gez N.I. Metodikaobuchenijainostrannymjazykam v srednejshkole [Tekst]/ Gez N.I., Ljahovickij M.V., Miroljubova A.A. - M.: Vyssh. shk. - 1982. - S.161.



УДК:37.014.543.3(575.1)

Orziqul HAKIMOV,
O'z MU Jizzax filiali dotsenti
Islom HOSILMURODOV,
O'z MU Jizzax filiali assistenti
E-mail: islomxosilmurodov@jbnuu.uz

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti professori, psix.f.d. R.Abdurasulov taqrizi asosida

TEMURIYLAR DAVRI QURILISH MADANIYATI VA ME'MORCHILIKDAGI ULUG'VORLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

O'rta Osiyo zaminida temuriylar davri ilm-fan, adabiyot, san'at sohasida kamolot bosqichiga ko'tarildi. Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa qurilish va me'morchilikda namoyon bo'ldi. Temur davrida Saroy Mulk xonim, Go'ri Amir majmuasida madrasalar qurilgan. Mirzo Ulug'bek Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda madrasalar bunyod ettirdi. Madrasa qurilishi yagona tizim bo'yicha rejalashtirilsa ham, asosiy shakllari, ularning o'zaro nisbatlari va bezaklariga ko'ra har biri o'z qiyofasiga ega edi. Maqolada Temuriylar davrida qurilish madaniyati va Ulug'bek akademiyasi olimlarining arxitekturadagi matematik hisoblari G'iyosiddin Jamshidning "Hisob kaliti"dagi ma'lumotlar asosida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, madrasa, maqbara, masjid, rasadxona, me'morchilik, dunyoviy fanlar, Sharq Renessansi, hisoblash metodlari, sekstant, arka, toqi, ravoq, kichik o'lchamli asboblari.

СТРОИТЕЛЬНАЯ КУЛЬТУРА ПЕРИОДА ТИМУРИДОВ И СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВЕЛИЧИЯ В АРХИТЕКТУРЕ

Аннотация

На почве Средней Азии период Тимуридов достиг стадии зрелости в науке, литературе и искусстве. Сила государства Тимуридов особенно ярко проявилась в строительстве и архитектуре. Во времена правления Темура медресе были построены в Гури Эмирском комплексе Сарай Мулк ханум. Мирзо Улугбек построил медресе в Самарканде, Бухаре и Гиждуване. Хотя строительство медресе планировалось по единой системе, каждое из них имело свой облик в зависимости от его основных форм, их относительных пропорций и орнаментов.

В статье описывается культура строительства времен Амира Темура и Тимуридов, а также математические расчеты в архитектуре ученых Академии Улугбека на основе сведений из «Расчетного ключа» Гиясиддина Джамшида.

Ключевые слова: Тимуридский период, медресе, мавзолей, мечеть, обсерватория, архитектура, мировые науки, Восточное Возрождение, вычислительные методы, секстант, ковчег, гора, арка, малогабаритные инструменты.

BUILDING CULTURE OF THE TIMURID PERIOD AND SPECIFIC ASPECTS OF GREAT IN ARCHITECTURE

Annotation

On the soil of Central Asia, the Timurid period reached the stage of maturity in science, literature and art. The power of the Timurid state was especially evident in walking and architecture. During the reign of Temur, madrasas were built in the Gori Amir complex of Sarai Mulk khanum. Mirzo Ulugbek built madrasas in Samarkand, Bukhara and Gijduvan. Although the construction of the madrasa was planned according to a single system, each had its own appearance according to its basic forms, their relative proportions and ornaments.

The article describes the culture of construction in the time of Amir Temur and the Timurids, and mathematical calculations in architecture by scientists of the Ulugbek Academy on the basis of information in Giyosiddin Jamshid's "Calculation Key".

Key words: Timurid period, madrasa, mausoleum, mosque, observatory, architecture, secular sciences, Eastern Renaissance, computational methods, sextant, arch, mountain, arch, small-sized instruments.

Kirish. Amir Temur davrida Movarounnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko'chalar, me'moriy majmualar keng ko'lam kasb etadi. Oqsaroy peshtoqida bitilgan "Qudratimizni ko'rmoq istasang– binolarimizga boq" degan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatar edi. Ik o'rta asrlardagi shaharning asosiy qismi bo'lgan "Shahriston"dan ko'lam va mazmuni bilan farq qiluvchi "Xisor" qurilishini Samarqand va Shahrisabzda kuzatish mumkin. Temur davrida Kesh shahar qurilishi yakunlandi. "Xisor"ning janubi-g'arbida hukumat saroyi Oqsaroy va atrofidagi rabotlar, bog'-rog'lar qurildi. Bularning barchasi me'morchilikdagi estetikaning yuksak ahamiyat kasb etganligidandir.

Amir Temur saltanat poytaxti Samarqandni bezatishga alohida e'tibor berdi. Shaharda "Xisori", qal'a, ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi. Samarqandga kiraverishdagi Ko'hak tepaligida Cho'pon ota maqbarasi

Ulug'bek davrida qurilgan bo'lib. Bu inshootda mutanosiblik, umumiy shaklning nafisligi, bezaklarda ulug'vorlik uyg'unlashib ketgan. Temur davrida Samarqand Afrosiyobdan janubda mo'g'ullar davridagi ichki va tvshqi shahar o'rnida qurila boshladi hamda bu maydon qal'a devori va xandak bilan o'ralib (1371-yil) Xisor deb ataldi. Xisor 500 gektar bo'lib, devor bilan o'ralgan. Shaharga oltita darvozadan kiritilgan.

Amir Temurning obodonchilik ishlari to'g'risida taniqli sharqshunos olim, akademik V.V. Bartold: «Temur go'yo Samarqanddan boshqa hamma yerda vayrongarchilik bilan shug'ullangan, degan fikr mubolag'ali: u Qobul vodiysi va Mug'an cho'li kabi Samarqanddan uzoq bo'lgan joylarda ulkan sug'orish ishlari olib bordi», degan tarixiy jihatdan g'oyat qimmatli fikrni aytib o'tgan. Bu fikrga muqoyasa qilib, Ali Yazdiyning yozishmasini keltirish maqsadga muvofiqdir. «Bir yil mobaynida, deb yozadi O'rta asr tarixchisi Ali

Yazdiy, Bag'dod shahrini tiklash haqida buyruq berildi, toki shahar yana o'z qiyofasini olsin, unda hunarmandchilik rivojlansin, tevarak atrofida dehqonchilik o'ssin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, islom bil imi ilgariy-day yoyilsin. Bu vazifa amirzoda Abu Bakirga topshirildi».

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Movarounnahrda mo'g'ullarning qariyb 140 yillik hukmronlik davrida bironta ham ko'zga ko'rinarli qurilish yoki suv inshootlari vujudga kelmagan. Amir Temurning tashabbusi bilan 1365-yilda Qarshi, 1370-yilda Samarqand, 1380-yilda esa Keshning atrofi qaytadan mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Shuningdek, xalq farovonligiyu, mamlakat obodonchiligi yo'lida suv omborlari, to'g'onlar qurishga, ariqlar qazishga, yangi yerlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor berilgan. Mamlakatning iqtisodiy ahvolini ko'taritsa savdoning ahamiyati beqiyos ekanligini tushungan hukmdor bozorlar, rastalar va timlar, turli-tuman ustaxonalar barpo etib, xalq hunarmandchilik san'atini taraqqiy ettirgan.

Ko'hna va hamisha navqiron Samarqand shahri betakror sharqona ruhi va qiyofasi, boy tarixi, bu yerda saqlanib qolgan noyob, har qanday odamni hayratga soladigan obidalar bilan sayyoramizning turli o'lkalarida afsonaviy shahar sifatida ma'lum mashhurdir. Moviy gumbazlari millionlab sayyohlarni o'ziga maftun etadigan Samarqandning Rim bilan bir qatorda "abadiy shahar" degan nom bilan butun dunyoda shuhrat qozongani bejiz emas, albatta. Tadqiqotchi - olimlarning fikricha, Sharq, xususan Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda bamisoli po'rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Sharq uyg'onish davri - Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan [1].

Samarqand Temur va temuriylar davlatinshg poytaxti davrida ko'rkamlikning eng yuqori nuqtasiga yetdi, butun Sharqda mislsiz go'zal va qudratli maskanga aylandi, davrning eng yaxshi ijodiy kuchlari shu yerda to'plandi. Temur hamda temuriylar tomonidai zabt qilingan Eron, Ozarbayjon, Xorazm, Hindiston va boshqa mamlakatlarning eng mashhur me'mor va muhandislari, san'atkor va hunarmandlari saroyda to'planib, maxalliy ustalar bilan hamkorlikda juda ko'p muhtasham binolar qurildilar. Temur amri bilan qal'a bunyod etildi. keyinchalik u shahri dagi (ichki shahar) ga aylandi, balandligi 8 m li devor bilan o'rab olindi. 11 —12-asrlardagi sobiq shahri birun (hozirgacha bu joy "xisor" deb ataladi) qal'asi devorlari qayta tiklandi. Shahar markazidagi gumbazli bozor binosi — tomoniga borib taqaladigan oltita asosiy ko'cha ishga tushirildi. 1404-yilda Ohanin darvozasidan Chorsu darvozasigacha butun shaharni kesib o'tuvchi katta to'g'ri bozor yo'li o'tkazila boshladi. Qurilish oxiriga yetkazilmadi, shunday bo'lsa-da, yo'lning ikki tomoniga ikki qavatli do'konlar, gumbazli rastalar qurildi. Buxoro, Farg'ona, Shahrisabzga ketadigan yo'lning chorrahasida markaziy savdo maydoni yuzaga keldi. 15-asrning 20- yillariga kelib, bu yerda shaharning bosh maydoni Registon (Registon ansambli) tashkil topdi. Temur hukmronligining dastlabki yillarida Shohi Zinda ansambliida Turkan og'a va Amirzoda maqbaralari, 1385-yilda Shirin beka og'a makbarasi, keyinchalik Burundiq maqbarasi, hozirgi Amir Temur maqbarasi kompleksida Ruhobod maqbarasi, shaharning sharqiy chegarasida Bibixonim masjidi va boshqa yirik, muhtasham imoratlar qurildi.

XV asrda shahar tashqarisida bir kancha binolar qad ko'tardi. Shohi Zinda ansambli qayta shakllantirildi. 1424-yilda Obirohat arig'i bo'yidagi tepalikka Ulug'bek rasadxonasi qurildi. Shayxzoda darvozasi g'arbidagi o'rta asrga oid Namozgoh 15-asrda qayta qurildi. Asosiy binolar Xisor va Temur qal'asi ichida qad ko'tardi. Qal'a ichida 4 kavatli Ko'k saroy hamda Chorbog'li Bo'ston saroy qurilib,

unda davlat idoralari, kurol-yarog' ustaxonalari, xazina, zarbxona, turma joylashtirildi. Hisorda yirik arxitektura ansambllari vujudga keltirildi. Registon maydonida Ulug'bek madrasasi, Qorizgoh darvozasi yaqinida Muhammad Sulton nomi bilan bog'liq ansabl tashkil topdi. Ishratxona, oqsaroy kabi muhtasham imoratlar qad ko'tardi. Mashhur Bibixonim machiti o'sha davr (XIV asrning va XV asrning birinchi yarmi) da qurilgan eng noyob binolardan biridir.

Bibixonim masjidi haqida manbalarda: "Uning gumbazi, agar osmon gumbazi bo'lmaganda yakkayu yagona bo'lur edi, arki ham Somon yo'li bo'lmaganda yakkayu yagona bo'lib qolardi" deb yozib qoldirilgan. Temuriylar davrida temur vafotidan (1405) dan keyin ilmiy asosda rivojlantirgan davlat arbobi Ulug'bekdir. Ulug'bek (taxallusi, asl nomi Muhammad Tarag'ay)—buyuk o'zbek astronomi va matematigi, davlat arbobi. Temurning nabirasi Ulug'bek O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini o'rta asr sharoitida dunyo fanining oldingi safiga olib chiqqan olimlardan biridir [2].

Movarounnahrda Ulug'bekning hokimlik davri (1409—1449)da Samarqand yanada gullab-yashnadi; hunarmandchilik, me'morchilik va adabiyot ravnaq topdi, ilm-fan yuksaldi, savdo rivojlandi. Ulug'bek farmoyishi bilan Buxoroda (1417), Samarqandda (1420), G'ijduvonda (1432—33) madrasalar va Marvda xayriya muassasalari qurildi. Madrasalarda diniy fanlarga emas, shu bilan birga dunyoviy fanlar ham o'qitildi. Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Shohi Zinda ansambli qurilishlari poyoniga yetkazildi. U. talaygina jamoat binolari (karvonsaroy, tim, chorsu, hammomlar va boshqalar) ham barpo ettirgan [3].

Ayniqsa Ulug'bek rasadxonasi (1-rasm) — Samarqanddagi 15-asr me'morligining nodir namunalaridan biri. Bino Ulug'bek farmoyishi bilan 1428—1429- (R.Muqminovada "Rasadxona XV-asrning 20-yillarida qurilgan (1420-yil) deyiladi") yilda Ko'xak (Cho'ponota) tepaligida, Obirahmat arig'i bo'yida bunyod etilgan. Rasadxona silindr shaklida uch qavatli, balandligi 30,4 m dan iborat ulkan bino. Uning asosiy kismi radiusi 40,2 m li gigant sekstant (ba'zi manbalarga ko'ra kvadrat) bo'lgan. Sekstantning janubiy qismi yer ostida joylashgan bo'lib, qolgan qismi shimol tomondan yer sathidan 30 m cha baland. Asbob aylanasida bir gradus yoy 701,85 mm va bir minut yoy 11,53 mm ga mos. Rasadxona o'rta asrlarda asbob-uskunasi jihatdan ham beqiyos bo'lgan. Asbob astronomiyaning asosiy doimiyliklari — ekvator va ekliptika orasidagi burchakni o'lchash, yillik protsessiya doimiyisini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergan[4]. Sayyoralar, oy harakati tekshirilgan. Rasadxonada kichik o'lchamli asboblari: armilyar sfera, 2,4 va 7 halqadan iborat o'lchash asboblari, trik, quyosh va yulduz soatlari, astrolyabiya va boshqalar bo'lgan. Sharq astronomiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan "Ziji Ko'ragoniy" asari shu yerda yaratilgan. Qurilishga zamonasi-ning mashhur olimlari— astronom, matematik, me'morlari (masalan, Salohiddin Muso Muhammad Qozizoda al-Rumiy, G'iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi va boshqalar) jalb qilingan.

Qurilish (me'morchilik)da arka, ravoq, toqilar ko'p ishlatiladi. Arka, toqi, ravoq (lat. agcus — yoy, egma) — bino devorlaridagi deraza va eshik o'rinlarining yuqori qismiga yoki ko'prik tayanchlariga qo'yiladigan yoysimon qurilma. Arka yo'nilgan tabiiy yoki sun'iy toshlar, beton, temir-beton, yog'och va po'lat singari materiallardan ishlanadi. Arkaning tayanch qismi tovon, markaziy ponasimon toshi esa qulf deb ataladi. Arkalar shakliga ko'ra: a) yakka markazli nursimon; b) yarim aylana shaklli; v) baland markazli taqasimon; g) ikki va undan ortiq markazli nayzasimon uch, besh va hokazo markazli tuxumsimon, tovonlari har xil balandlikda o'rnatilgan sirpanuvchan arka bo'ladi. Ichki kuchlanishlarni

kamaytirish maqsadida arkalar uch sharnirli, ikki sharnirli va sharnirsiz qilib ishlanadi. Ustunlarga tiralgan bir xil hajm va shakldagi arkalar qatori arkada deb ataladi.

G'iyosiddin Jamshid o'zining "Hisob kaliti" asarida arxitektura shakllarini yasash va hisoblash usullari haqida gapiradi. Shuningdek, har xil ravoqlar va muqarnaslarni yasash, ularning yuzalari va hajmlarini topishda hisoblash usullaridan foydalanish yo'llari bayon etilgan. Masalan, G'iyosiddin Jamshid usuli bilan hosil qilingan ravoq egriligining 1-fasadi hisoblash usulida quyidagicha bajariladi. 136266 ni ravoqning devorlari oraligidagi kattalikka (o'lcham birligiga) ko'paytirilsa, ravoqning egrilik chizig'i kelib chiqadi.

Bu yerda va bundan keyingi hisoblashlarning davomida chap tomondagi birinchi raqam gradusni, ikkinchisi minutlarni, uchinchisi sekundlarni, to'rtinchisi tertsiyani sekundning oltmishdan bir qismini bildiradi.

Agar 1353728 ni ravoq qalinligiga ko'paytirib, ko'paytmanni uning egriligiga qo'shsak va yig'indini shu ravoq qalinligiga ko'paytirsak, fasadning yuzasi kelib chiqadi. Arka devorlari oralig'idagi masofani 0,34281 ga ko'paytirilsa, arka egriligining ichki balandligi topiladi. Arka qalinligi 11184 ga ko'paytirganda, uning egrilik qalinligi chiqadi. Bunga ichki balandlik qo'shilsa, egrilikning yuqorigi qismi balandligi topiladi. Arka devorlari orasidagi masofaning kvadratini 0,262812 ga ko'paytirsak, ravoq ichki qismining yuzasi hosil bo'ladi. Shunday qilib, 1-fasad hisoblab topildi. G'iyosiddin Jamshid o'zining hisoblash metodlari bilan bundan boshqalarni (o'zining ishlarida yasagan fasadlarni), gumbaz, muqarnaslarni ham yasash usullarni topgan.

Ravoq bino devorlaridagi eshik va deraza o'rinlarining yuqori qismiga, ko'proq tayanchlariga qo'yiladigan yoysimon qurilmadir. Ravoqning tayanch qismi tavon, yuqoridagi ponasimon qismi qulf deyiladi.

Ravoq konstruksiyalarini Go'ri Mir, Bibixonim, Ulug'bek, Sherdor (3-rasm), Tillakori, Shohizinda va Ishrat-xona kabi me'moriy yodgorliklarida uchratamiz. Bibixonim madrasasining peshtoqi hayratda qolarli darajada katta bo'lgan [5].

Yuqorida sanab o'tilgan qurilish inshootlari Temur va Temuriylar davrlaridagi me'morchilik san'atining jozibadorligi, ulug'vorligi va mahobatini namoyon qiladi va madaniyatning yuksak darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

Xulosa. Mazkur aytilgan hisoblashlar qadimiy obidalarini ta'mirlashlarida katta yordam beradi. Temur va Temuriylar davrida Samarqand poytaxt sifatida qurilishdagi ko'rkamlikning eng yuqori nuqtasi (cho'qqisi) ga yetishida va Samarqandning bundan Sharqda mislsiz go'zal va qudratli maskanga aylanishida hokimiyatni boshqargan Temur va ayniqsa Ulug'bekning ilm-fanni qurilish madaniyatini yuksaltirishga yo'naltirish uchun katta shart-sharoit yaratishga e'tibor berganini alohida ta'kidlash joiz.

Yoshlarga kasbiy ta'lim berishda ularni yuqoridagidek sohaga taalluqli tarixiy o'tmishimizni, ilmiy, madaniyatimiz rivojlanish, xususan bunday hashamatli binolar o'tmishda qay usulda va qay tartibda qurilgan, ustalari kimlar bo'lganligi bilan tanishtirish, ularda quruvchilikda geometriya va matematika ilmarining ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A., "O'rta asrlar sharq allomalarining va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiyadagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi. "Xalq so'zi"
2. Kamolov A. Obidalarda yashiringan ilm. "Fan va turmush" № 3. 1970-yil, 20-22-betlar.
3. Mahmudov Q. Arkoni davlatimiz tarixi. "Fan va turmush" № 8 1978-yil, 14-15-betlar.
4. Axmedov A. Volter va Ulug'bek. "Fan va turmush" № 6, 1989-yil, 28-29-betlar.
5. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. T., "O'qituvchi" 1994-y 305-bet.
6. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Mantiq ilmini o'rganishning ahamiyati". Zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari. 2022-yil. 250-bet.
7. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati. Jamiyat va innovatsiyalar. 2021-yil 10b.
8. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Tafakkur uslubining falsafiy-metodologik tahlili". "Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dalzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari" Ilmiy-amaliy konferensiya 2022-yil. –B.549-552.
9. Xosilmurodov I.X. Informatsion globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. "Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari" xalqaro-ilmiy texnik konferensiya. 2022-yil. 61-64b.
10. Xosilmurodov Islom Фалсафий тафаккур услубининг ижтимоий-фалсафий аҳамияти. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2022-yil noyabr. 138-147b
11. Хакимов О.М., Курбанов З.Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 176-181.
12. Khakimov O.M. Issiq-quruq iqlim sharoiti uchun asfaltbeton tarkibini tanlash //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 241-247.



Dilmurod XASANOV,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchi
E-mail: dxasanov65@gmail.com

Xalqaro kurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasida dotsenti v.v.b., p.f.b.f.d.(PhD), Sh.Sh.Gaziyev taqrizi asosida

METHOD OF DEVELOPING ENDURANCE IN THE MIDDLE CLASS IN EXTRA-EDUCATIONAL ACTIVITIES

Annotation

In the article, one of the physical skills of middle school pupils in physical education classes is the use of effective methods for the development of endurance, the systematic use of good tools in the development of physical development and physical training of middle school pupils, and the use of convenient and reliable exercises in athletics to develop the important endurance skills of pupils. information on effective skill development and improvement is provided.

Key words: Middle school pupils, endurance, extracurricular activities, physical fitness, athletics exercises, methods.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ВЫНОСЛИВОСТИ У СРЕДНИЙ КЛАСС ВО ВНЕУЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье одним из физических навыков учащихся средних классов на занятиях по физическому воспитанию является использование эффективных методов развития выносливости, систематическое использование хороших средств в развитии физического развития и физической подготовки учащихся средних классов, а также использование удобных и надежных упражнений в легкой атлетике для развития важных навыков выносливости студентов, представлена информация по эффективному развитию и совершенствованию навыков.

Ключевые слова: Учащиеся средних классов, выносливость, тенерровка кроме уроков физкультуры, физическая подготовленность, упражнения по легкой атлетике, методы.

O'RTA SINIF O'QUVCHILARINING CHIDAMLILIK QOBILIYATINI DARS DAN TASHQARI MASHG'ULOTLARIDA RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Аннотация

Maqolada o'rta sinf maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslaridan tashqari mashg'ulotlarda jismoniy qobiliyatlardan biri chidamlilikni rivojlantirishda samarali uslublardan foydalanish, o'rta sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishlarini va jismoniy tayyorgarliklarini rivojlantirib borishda yaxshi vositalarni tizimli qo'llash, o'quvchilarda muhim sanalgan chidamlilik qobiliyatlarini yengil atletika sport turidagi qulay va ishonchli mashqlardan foydalanish orqali bu qobiliyatni samarali kamol toptirish va uni takomillashtirib borish to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'rta sinf o'quvchilari, chidamlilik qobiliyati, jismoniy tarbiya darslaridan tashqari mashg'ulotlar, jismoniy tayyorgarlik, yengil atletika mashqlari, uslublar.

Kirish. Chidamlilik qobiliyati - bu so'ngi vaqtlarda ota-onalar, tarbiyachilar, murabbiylar va ommani jiddiy tashvishga solgan maktab o'quvchilarining salomatlik darajasi, mehnat faoliyati va funktsional imkoniyatlarini aks ettiruvchi har tomonlama jismoniy tayyorgarlik tuzilishining yig'indilari majmuasidir [1].

Hozirgi ma'lumotlarga ko'ra bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi o'zlaridan oldingi yillardagi bolalar va o'smirlariga qaraganda sezilarli darajada pasayganini ko'rsatdi [3]. Kasalliklar bilan chalinish ko'proq kam harakat qiladigan maktab o'quvchilarida sodir bo'ladi. Buni oldini olish uchun avvalambor, o'quvchilarda jismoniy tarbiyaga qiziqish uyg'otish va uning ahamiyatini ochib berish muhimdir. Masalani yechimi sifatida jismoniy tarbiya darslaridan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlarda maktab o'quvchilarini jismonan chiniqtirishga urg'u berish va samarali vositalarni qo'llash orqali erishiladi. Jismoniy sifatlardan biri bo'lgan chidamlilikni rivojlantirishda yengil atletika sport turining yugurish bo'limidan foydalanish samaralilik va qulaylik olib keladi [6].

Tadqiqot maqsadi. 12 yoshli maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslaridan tashqari mashg'ulotlarida chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish uslubiyatini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

12 yoshdagi o'quvchilarda har tomonlama jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash;

12 yashdagi o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida tashqari mashg'ulotlarini tizimli tamoyilni hisobga olgan holda chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish uslubini ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Chidamlilik qobiliyatini bo'yicha ko'plab olimlar ilmiy ishlarni amalga oshirishgan. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo'yicha (B.J.Yadgarov, 2007; D.N.Raxmatova, 2010) tomonidan bir qancha uslublar va tavsiyalar berilgan, chidamlilik qobiliyatini yoshga xos xususiyatlar bo'yicha (R.S.Salamov, 2003; T.S.Usmonxodjaev, 2006; I.G.Niyazov, 2007) tomonidan chidamlilik qobiliyatiga bolalar organizmining sezuvchanligiga tegishli davrlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan, Vatanimiz olimlari (Sh.X.Xankeldiev, 1996; K.T.Shakirjanova, 2007) tomonidan ham yoshlarda chidamlilikni rivojlantirish muammosi ko'rib chiqilgan. Biroq bu ilmiy ishlarda o'rta sinf o'quvchilarining chidamlilik qobiliyatini darsdan tashqari mashg'ulotlarida rivojlantirish bo'yicha masalalari yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ishda quyidagi tadqiqot uslublaridan foydalanildi: ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik nazorat testlari, pedagogik tajriba, antropometrik ko'rsatkichlar. O'rta sinf


o'quvchilarini jismoniy rivojlanishini nazorat qilib borishda antropometrik ko'rsatkichlari bo'y uzunligi, tana vazni, ko'krak qafasining kengligi o'lchandi. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarliklarini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PQ-5148-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan yosh toifalari buyicha "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlarining turlari va mezonlaridan foydalanildi. 12 yoshli nazorat va tajriba guruh o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash uchun 30 metr ga yugurish, moksimon yugurish 3x10 m (s), turgan holda uzunlikka sakrash, o'tirgan joydan oldinga egilish testlari olindi.

O'rta sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslaridan tashqari mashg'ulotlarida chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish vositasi sifatida bosqichma-bosqich o'sib boruvchi tezlik bilan yugurish va 1500 m ga yugurishlardan foydalanib o'quvchilarning chidamliligini rivojlantirish tajribaning asosini tashkil etdi.

Tahlil va natijalar. O'rta sinf maktab o'quvchilarini jismoniy rivojlanishini nazorat qilib borishda bo'y uzunligi,

tana vazni, ko'krak qafasining kengligi o'lchandi. Olingan natijalarni 1-rasmda keltirilgan. 12 yoshli maktab o'quvchilarining bo'y uzunligi tajribadan oldin nazorat guruhi o'g'il bolalarida 139 sm va tajriba guruhi o'g'il bolalarida esa 152 sm natijani berdi. 12 yoshli maktab o'quvchilarining tana vazni tajribadan oldin nazorat guruhi o'g'il bolalarida 42,7 kg va tajriba guruhi o'g'il bolalarida esa 46,1 kg natijani berdi. 12 yoshli maktab o'quvchilarining ko'krak qafasining kengligi tajribadan oldin nazorat guruhi o'g'il bolalarida 71,1 sm va tajriba guruhi o'g'il bolalarida esa 72 sm natijani berdi. O'tkazilgan tajribadan so'ng 12 yoshli maktab o'quvchilarining bo'y uzunligi nazorat guruhi o'g'il bolalarida 143 sm bo'lgan bo'lsa, tajriba guruhi o'g'il bolalarida esa 156 sm natijani ko'rsatdi. 12 yoshli maktab o'quvchilarining tana vazni nazorat guruhi o'g'il bolalarida 45,9 kg va tajriba guruhi o'g'il bolalarida esa 49,3 kg natijaga o'zgardi. 12 yoshli maktab o'quvchilarining ko'krak qafasining kengligi tajribadan keyin nazorat guruhi o'g'il bolalarida 72,4 sm va tajriba guruhi o'g'il bolalarida esa 73,3 sm natijani berdi.

12-yoshli o'g'il bolalarda jismoniy rivojlanishning ko'rsatkichlari tahlili (tajriba boshida va oxirida) N=120




1-rasm. 12-yoshli o'g'il bolalarda jismoniy rivojlanishning ko'rsatkichlari tahlili

Qiz bolalarda jismoniy rivojlanishning ko'rsatkichlari 2-rasmda keltirilgan. 12 yoshli maktab o'quvchilarining bo'y uzunligi tajribadan oldin nazorat guruhi qiz bolalarida 137 sm va tajriba guruhi qiz bolalarida esa 135 sm natijani berdi. 12 yoshli maktab o'quvchilarining tana vazni tajribadan oldin nazorat guruhi qiz bolalarida 42,5 kg va tajriba guruhi qiz bolalarida esa 41 kg natijani berdi. 12 yoshli maktab o'quvchilarining ko'krak qafasining kengligi tajribadan oldin nazorat guruhi qiz bolalarida 72 sm va tajriba guruhi qiz

bolalarida esa 70 sm natijani berdi. O'tkazilgan tajribadan so'ng 12 yoshli maktab o'quvchilarining bo'y uzunligi nazorat guruhi qiz bolalarida 141 sm bo'lgan bo'lsa, tajriba guruhi qiz bolalarida esa 140 sm natijani ko'rsatdi. 12 yoshli maktab o'quvchilarining tana vazni nazorat guruhi qiz bolalarida 45,2 kg va tajriba guruhi qiz bolalarida esa 45,4 kg natijaga o'zgardi. 12 yoshli maktab o'quvchilarining ko'krak qafasining kengligi tajribadan keyin nazorat guruhi qiz bolalarida 75 sm va tajriba guruhi qiz bolalarida esa 76,3 sm natijani berdi.

12-yoshli qiz bolalarda jismoniy rivojlanishning ko'rsatkichlari tahlili (tajriba boshida va oxirida) N=70



2-rasm. 12-yoshli qiz bolalarda jismoniy rivojlanishning ko'rsatkichlari tahlili

Jismoniy rivojlanishdan olingan natijalar shuni ko'rsatdiki o'rta sinf o'quvchilarining bo'y uzunligi, tana vazni, ko'krak qafasining aylanasini ijobiy tomonga o'zgartirgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalarini aniqlash uchun testlardan foydalanildi. 12 yoshli nazorat va tajriba guruh o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash uchun 30 metrga yugurish, moksimon yugurish 3x10 m (s), turgan holda uzunlikka sakrash, o'tirgan joydan oldinga egilish testlaridan foydalanildi. 12 yoshli nazorat va tajriba guruh o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatgan dastlabki natijalari 1-jadvalda ko'rsatib o'tilgan. Shunga ko'ra 12 yoshli nazorat va tajriba guruh o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatgan dastlabki natijalari 30 metrga yugurish testida nazorat guruhi o'g'il bolalari 5,8±0,33 soniyani, tajriba guruhi o'g'il bolalari esa 5,9±0,42 soniyani tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlar tadqiqot yakuniga

kelib bu ko'rsatkichlar nazorat guruhi o'g'il bolalari 5,2±1,15 soniyaga, tajriba guruhi o'g'il bolalari esa 5,3±0,23 soniyaga o'zgariganini ko'rishimiz mumkin. 12 yoshli nazorat va tajriba guruh o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatgan yakuniy natijalari 2-jadvalda ko'rsatib o'tilgan. Turgan holda uzunlikka sakrash testida nazorat guruhi o'g'il bolalarining natijalari 165,8±12,2 smni, tajriba guruhi o'g'il bolalarining natijalari esa 167,4±15,1 smni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlar tadqiqot yakuniga kelib nazorat guruhi o'g'il bolalarining natijalari 175,2±11,2 smga, tajriba guruhi o'g'il bolalarining natijalari esa 177,5±9,3 smga o'zgariganini ko'rishimiz mumkin.

1- jadval:

12 yoshli nazorat va tajriba guruh o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatgan dastlabki natijalari (n=O'-120, Q-70)

№	Guruhlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
	Testlar	$x \pm \sigma$	$x \pm \sigma$
O'g'il bolalar			
1.	30 metr (soniya)	5,8±0,33	5,9±0,42
2.	Moksimon yugurish 3x10 m (s)	9,2±0,25	9,1±0,26
3.	Turgan holda uzunlikka sakrash, sm	165,8±12,2	167,4±15,1
4.	O'tirgan joydan oldinga egilish, sm	5,5±2,1	5,7±3,5
Qiz bolalar			
1.	30 metr (soniya)	5,9±0,23	5,8±0,28
2.	Moksimon yugurish 3x10 m (s)	9,5±0,31	9,6±1,2
3.	Turgan holda uzunlikka sakrash, sm	155,2±9,3	156,3±9,4
4.	O'tirgan joydan oldinga egilish, sm	10,4±4,1	9,9±4,6

12 yoshli nazorat guruhi qiz bolalarining jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatgan dastlabki natijalari 30 metrga yugurish testida 5,9±0,23 soniyani, tajriba guruhi qiz bolalari esa 5,8±0,28 soniyani tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlar tadqiqot yakuniga kelib bu ko'rsatkichlar nazorat guruhi qiz bolalari 5,7±0,32 soniyaga, tajriba guruhi qiz bolalari esa 5,5±0,18 soniyaga o'zgariganini ko'rsatadi.

2- jadval

12 yoshli nazorat va tajriba guruh o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatgan yakuniy natijalari (n=O'-120, Q-70)

№	Guruhlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
	Testlar	$x \pm \sigma$	$x \pm \sigma$
O'g'il bolalar			
1.	30 metr (soniya)	5,2±1,15	5,3±0,23
2.	Moksimon yugurish 3x10 m (s)	8,7±0,34	8,5±0,26
3.	Turgan holda uzunlikka sakrash, sm	175,2±11,2	177,5±9,3
4.	O'tirgan joydan oldinga egilish, sm	5,8±3,3	6,1±4,1
Qiz bolalar			
1.	30 metr (soniya)	5,7±0,32	5,5±0,18
2.	Moksimon yugurish 3x10 m (s)	9,0±0,29	9,1±0,5
3.	Turgan holda uzunlikka sakrash, sm	162,4±7,1	164,2±7,3
4.	O'tirgan joydan oldinga egilish, sm	13,4±4,2	12,7±3,3

O'tirgan joydan oldinga egilish testlaridan foydalanib quyidagi natijalar olindi: nazorat guruhi qiz bolalarining natijalari 10,4±4,1 smni, tajriba guruhi qiz bolalarining natijalari esa 9,9±4,6 smni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlar tadqiqot yakuniga kelib nazorat guruhi qiz bolalarining natijalari 13,4±4,2 smga, tajriba guruhi qiz bolalarining natijalari esa 12,7±3,3 smga o'zgariganini ko'rishimiz mumkin.

Tajriba natijalarini tahlil qilish orqali o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini bilish uchun foydalanilgan 30 metrga yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrash va boshqa

testlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, maktab o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi sezilarli darajada oshganligini bilish mumkin.

Xulosa va takliflar. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar va ma'lumotlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya daralaridan tashqari mashg'ulotlarda boshqa jismoniy qobiliyatlarga nisbatan chidamlilik qobiliyatini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmayabdi. Hozirgi davrda o'rta sinf maktab o'quvchilarning chidamlilik ko'rsatkichlari sezilarli darajada pasayishini ko'rsatadi. Sababi mashg'ulotlarda bir xil tezlikdagi uzoq vaqt mobaynida bajariladigan mashqlardan

juda kam foydalaniladi, ularni o'rniga tezligi o'zgaruvchan shiddatli mashqlardan ko'p qo'llaniladi. Maktablarimizdagi jismoniy tarbiya dasturida o'quvchilarni chidamlilik qobiliyatlarini rivojlantirishga urg'u berilgan. Shuning uchun, bu jismoniy qobiliyatga befarq qarab bo'lmaydi. Chidamlilik qobiliyatini rivojlantirishda muvaffaqiyatli uslublarni va vositalarni topish muhimdir.

12 yoshdagi o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini hamda chidamlilik qobiliyatini rivojlantirishda isbotlangan samarali uzluksiz pog'onali yugurish usulini jismoniy tarbiya darslaridan tashqari mashg'ulotlarda qo'llash yordamida natijalar oshirishga erishildi. Tajribada mashg'ulotni nazorat qilish uchun yordamchi usullardan foydalanildi.

Chidamlilikni uzluksiz rivojlantirishning ishlab chiqilgan usuli jismoniy tarbiya darslaridan tashqari mashg'ulotlarda shuni ko'rsatdiki, har bir mashg'ulotlarga sifatli tayyorgarlik ko'rib borish zarurdir. Chidamlilik

qobiliyatini rivojlantirishda "asta-sekin ortib borayotgan tezlik bilan yugurish" mashqlardan foydalanishni tavsiya qilish mumkin. Chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mashg'ulotlar haftasiga 4 martadan olib boriladi. Chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish uchun tizimli yondashuv muhim hisoblanadi. Mashg'ulotlar ketma-ket olib borilishi va yuklamalar o'zaro bir-biriga bog'langan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Maktab choraklarini hisobga olgan holda birinchi chorak 9 hafta davomida 36 ta mashg'ulot o'tiladi. Ikkinchi chorak 7 hafta davomida 28 ta mashg'ulot o'tiladi. Uchinchi chorak 10 hafta davomida 40 ta mashg'ulot o'tiladi. To'rtinchi chorak 8 hafta davomida 32 ta mashg'ulot o'tiladi. Bir o'quv yili davomida jami 136 ta mashg'ulotlar o'rta sinf o'quvchilari uchun tashkil qilinadi. Shu orqali shug'ullanuvchilarni jismoniy tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun qulay vaziyat yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. Астафьев В.С. Потребность и мотив как внутренний побудитель двигательной активности человека //Вестник Бурятского государственного университета. – 2014. – №1. – Том 13. – С. 6-9.
2. Апанасенко Г.Л. Физическое здоровье и максимальная аэробная способность индивида //Теория и практика физической культуры. – 1988. – №4. – С. 29-31.
3. Баевский Р.М. Оценка адаптивных возможностей и риск развития заболеваний [Текст] Баевский Р.М., Берсенева А.П. -М.: Медицина, 1997. -236 с.
4. Бальсевич В.К. Очерки по возрастной кинезиологии человека [Текст] Бальсевич В.К. -М.: Советский спорт, 2009. - 219 с.
5. Германов Г.Н. Классификационный подход и теоретические представления специального и общего в проявлениях выносливости //Ученые записки университета им. Лесгафта П.Ф. – 2014. – №2 (108). – С. 49-57.
6. Эгамов Д. Совершенствование методов популяризации массового спорта среди молодежи //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 9/S. – С. 28-32.
7. Development of physical qualities of preschool children L Kholmurodov Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 2021 (02), 197-206.
8. Хасанов Д.Х. Жисмоний тарбия дарсларида 5-6-синф ўқувчиларининг чидамлилиги қобилиятини ривожлантириш //Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnali. -2022. 5-son 79-82-betlar.
9. Khanduraev N., Ochilova B. Organizational and legal basis of preparing athletes for international competitions //Научно-просветительский журнал "Наставник". – 2020.
10. Rakhmatova D. Dynamics of endurance indicators in young middle-distance runners //Eurasian Journal of Sport Science. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 44-47.
11. Umarov D. H. Technique of development of special endurance //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2018. – Т. 6. – №. 5.
12. Khasanov D. Efficiency of using national movement and action games at primary school //Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2022. – Т. 2022. – №. 1. – С. 185-193.



Sumanbar XASANOVA,
ChDPU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: d.ahmedjonov@mail.ru

TATU professori, t.f.d. M. Yakubov taqrizi asosida

EDUCATIONAL PROBLEMS IN THE PROCESS OF STUDYING SOCIAL INFORMATICS

Annotation

This article discusses the tasks of the formation of the academic discipline since the appearance of the term “social informatics”, where the tasks and problems of the formation and development of the information society are considered – patterns of formation and development, problems of information security of society, legal protection of programs and information, licensed, free and shareware programs, personal rights and freedoms in the educational sphere, as well as their role, such issues as information culture and information security, as well as ethical standards of behavior in computer networks are analyzed.

Key words: Social informatics, education, upbringing, research, information society, information culture, multimedia, school, technology.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФОРМАТИКИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются задачи формирования учебной дисциплины с момента появления термина “социальная информатика”, где рассматриваются задачи и проблемы становления и развития информационного общества – закономерности формирования и развития, проблемы информационной безопасности общества, правовая защита программ и информации, лицензионных, бесплатных и условно-бесплатных программ, права и свободы личности в образовательной сфере, а также их роль, анализируются такие вопросы, как информационная культура и информационная безопасность, а также этические нормы поведения в компьютерных сетях.

Ключевые слова: Социальная информатика, образование, воспитание, исследования, информационное общество, информационная культура, мультимедиа, школа, технологии.

IJTIMOYIY INFORMATIKANI O'RGANISH JARAYONIDA TA'LIM MUAMMOLARI

Аннотация

Ushbu maqolada umumta'lim maktablari xamda oliy ta'limda ijtimoiy informatikaning ilmiy yo'nalish sifatida vujudga kelgan va aynan “ijtimoiy informatika” atamasi kiritilganidan beri uning o'quv fani sifatida shakllanishida axborot jamiyati – shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari va muammolari, jamiyatning axborot xavfsizligi muammolari, dasturlar va ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish, litsenziyalangan, bepul va shartli-bepul dasturlar, shaxsning axborot madaniyati va axborot xavfsizligi, shuningdek, kompyuter tarmoqlarida xulq-atvorning axloqiy normalari kabi masalalar taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy informatika, talim, tarbiya, tadqiqot, axborot jamiyati, axborot madaniyati, multimedia, maktab, texnologiya.

Kirish. Ijtimoiy informatikani o'rganishda ta'lim muammolarini hal qilishga e'tibor qaratgan holda, ilmiy tadqiqotlar va pedagogik amaliyot natijasida aniqlangan va bugungi kunda yangi jiddiy ijtimoiy muammo va hodisa hisoblanuvchi jamiyatni axborotlashtirish bilan bog'liq axborot tengsizligi va uning yoshlarga ta'siri, axborot jinoyati, virtual voqelik va kompyuter o'yinlarining yoshlarga axborotga qaramlik va psixologik ta'siri, ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish kabi muammolarga e'tibor berish juda muhimdir [1,2].

Ijtimoiy informatikaning ilmiy yo'nalish sifatida vujudga kelgan va aynan “ijtimoiy informatika” atamasi kiritilganidan beri uning o'quv fani sifatida shakllanish masalasi paydo bo'ldi. Insoniyatning omon qolishi tushunchasi va noosferaning shakllanishi muammolariga bag'ishlangan asarlarda ijtimoiy informatika rivojiga alohida ahamiyat berildi, uni shakllanayotgan axborot jamiyatining ilmiy asosi deb qaraldi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy informatikani o'rganish uzluksiz oliy ta'lim tizimida ham “Ijtimoiy informatikaga kirish” kursi shaklida amalga oshirildi. K.K.Kolinning so'zlariga ko'ra, ushbu kursni o'rganish tajribasi (dastlab tanlov fani sifatida, keyin esa

aspiranturaning majburiy elementi sifatida) tinglovchilarga yaxshi umumiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatdi va unda ko'rib chiqilgan muammolarga kasbiy qiziqishni oshirdi [4] Ijtimoiy informatika sohasidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishlarining tuzilishi va muammolari K.K.Kolin [5] asarlarida ko'rib chiqilgan. Asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish taklif qilindi:

1. Jamiyatning axborot resurslari, ularning xossalari, tuzilishi va topologiyasi, jamiyatning axborot resurslariga bo'lgan ehtiyoji va ularni qondirish darajasini o'rganish;

2. Jamiyatning axborot salohiyatini, uning axborot infratuzilmasini, rivojlanish dinamikasini, shakllanish qonuniyatlarini va ulardan foydalanish samaradorligini o'rganish;

3. Sivilizatsiya taraqqiyotining navbatdagi tarixiy muqarrar bosqichi sifatida axborot jamiyatining rivojlanish qonuniyatlarini, uning xususiyatlari va muammolarini o'rganish;

4. Axborot jamiyatida shaxsning yangi imkoniyatlari va muammolarini o'rganish.

“Ijtimoiy informatika” kursi dasturida to'rtta muam-moli modul mavjud edi:

- Axborot resurslari;
- Jamiyatning axborot salohiyati;

- Axborot jamiyati;
- Axborot jamiyatida inson.

21-asr boshlariga kelib, ilmiy-pedagogik hamjamiyat o'rta maktabda informatika o'qitish mazmuniga informatika va AKTni o'rganish bo'yicha tegishli kurs yoki o'quv dasturiga bo'lim kiritish zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda, bu masala bo'yicha nashrlar soni ortib bormoqda.

Informatika kursining mazmunida ijtimoiy informatika bo'limiga quyidagi mavzular kiritilgan:

- Axborot jamiyati - shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari va muammolari. Jamiyatning axborot xavfsizligi muammolari;

- Dasturlar va ma'lumotlarni huquqiy himoya qilish. Litsenziyalangan, bepul va shartli-bepul dasturlar;

- Shaxsning axborot madaniyati va axborot xavfsizligi. Kompyuter tarmoqlarida xulq-atvorning axloqiy normalari.

O'quvchilarga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga axborot resurslarining ta'siri haqida tasavvurga ega bo'lish;

- jamiyat va shaxsning axborot xavfsizligi muammolari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- dasturiy ta'minotga bo'lgan mualliflik huquqi va foydalanuvchining undan foydalanish huquqlari haqida tasavvurga ega bo'lish;

- shaxs axborot madaniyatining asosiy tarkibiy qismlarini asoslay olish.

Ijtimoiy informatika "Axborot jarayonlari" va "Boshqaruvning axborot asoslari" mualliflik kursining mazmun yo'nalishlarida mustaqil modullarining bir qismi sifatida "Ijtimoiy informatika" sifatida taqdim etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizningcha, kurs tushunchasida ijtimoiy informatikani o'qitishning o'rni va metodik xususiyatlari:

mualliflar axborot sivilizatsiyasi, ijtimoiy informatika, axborot iqtisodiyoti, axborot huquqi, axborotni himoya qilish; axborotni izlash va baholash, yetakchi g'oyalarni qatorida - axborot resurslaridan foydalanganda, belgilangan huquqiy sohada (axborot huquqi) harakat qilish va shu bilan birga individual axborot xavfsizligi choralariga rioya qilishi.

Ta'lim mazmunida "Ijtimoiy informatika" bo'limi quyidagi mavzular bilan ifodalangan:

- jamiyat taraqqiyotida axborotning roli;
- jamiyatni axborotlashtirish global jarayon sifatida.

Jamiyat taraqqiyotining axborot bosqichining xususiyatlari;

- jamiyatning axborot resurslari tushunchasi. Axborot resurslari bilimlarni ifodalash shakli sifatida. Bilim milliy boylik sifatida. Axborot resurslarining asosiy turlari, ularning sifat va miqdoriy xarakteristikalarini. Shaxsning axborot xavfsizligi;

• fuqaroning axborot jamiyatidagi huquq va majburiyatlari (axborot qonunchiligi sohasida).

Analitik faoliyat turlari.

• axborot huquqi sohasidagi amaldagi qonun hujjatlarini tahlil qilish;

• jamiyat taraqqiyotining axborot bosqichiga o'tishning asosiy tendentsiyalarini tahlil qilish va baholash.

Amaliy faoliyat turlari axborot sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishi muammolari bo'yicha referat yozishdir.

O'quv materialini o'zlashtirish darajasiga qo'yiladigan talablar:

O'quvchilar tushunishlari kerak:

• axborot sivilizatsiyasi jamiyat taraqqiyotining tabiiy bosqichi ekanligini;

• axborot huquqi normalariga rioya qilishning ahamiyati;

Bilishi kerak:

- tarmoqdagi xatti-harakatlar qoidalari;
- fuqaroning axborot qonunchiligi sohasidagi huquq va majburiyatlari;

Bajara olishi kerak:

• salbiy axborot ta'siridan himoyalashning asosiy usullarini qo'llash.

Informatikaning asosiy va ixtisoslashgan kursida asosiy tushunchalar qatorida mualliflar quyidagilarni ajratib ko'rsatadilar: axborot sivilizatsiyasi, ijtimoiy informatika, axborot iqtisodiyoti, axborot huquqi, axborotni himoya qilish, axborotni qidirish va baholash, o'quv maqsadlari orasida:

• axborot faoliyati sohasidagi fuqaroning huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish; shaxsiy axborot xavfsizligi masalalarida boshqalarning huquqlarini hurmat qilish va o'z huquqlarini himoya qilish qobiliyatini shakllantirish;

• davlat axborot resurslarini saqlash va ko'paytirish haqida g'amxo'rlik qilishga tayyorlikni shakllantirish; tarqatilayotgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun shaxsiy javobgarlikni olishga tayyorligi va qobiliyati;

• shaxs axborot sohasining asosiy xossalari, atrofda axborot muhiti va axborot makonlarining rivojlanish xususiyatlari va tendentsiyalari bilan tanishtirish;

Ta'lim mazmunida "Ijtimoiy informatikaga kirish" bo'limi quyidagi mavzular bilan ifodalangan:

• Axborot jamiyatining asosiy belgilari, xususiyatlari va o'ziga xosligi;

• axborot jamiyatida dominant faoliyatning o'zgarishi;

• Axborot jamiyatining inson tarbiyasiga qo'yadigan talablari;

• Kompyuter savodxonligi. Kompyuter foydalanuvchisining axborot madaniyati. Mutaxassisning axborot madaniyati;

• Elektron hujjat aylanishi. Axborot xizmati. Elektron bosma nashr. Axborot biznesi;

• Axborot xavfsizligi. Axborot qonunchiligi.

Analitik faoliyat turlari:

• axborot resurslarini sifat va miqdor jihatdan baholash usullari bilan tanishish;

• axborot va moddiy mahsulotlar xarakteristikalarini solishtirish;

• axborot xizmatlarining xususiyatlarini tahlil qilish;

• axborot xizmatlarining asosiy turlari bilan tanishish;

• ma'lum tarixiy voqealarga axborot yondashuvini qo'llash;

• yirik axborot inqiloblari sabab va oqibatlarini tahlil qilish.

Amaliy faoliyat turlari:

• turli tarixiy davrlarda har xil turdagi tashuvchilarda saqlangan axborot hajmlarini solishtirish;

• axborot, xom ashyo, energiya, moliyaviy resurslarning ijtimoiy funktsiyalaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash;

• bo'lim mavzulari bo'yicha taqdimotlar qilish.

O'quv materialini o'zlashtirish darajasiga qo'yiladigan talablar

O'quvchilar bilishi kerak:

• informatika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari haqida;

• ta'limni axborotlashtirish zamonaviylikning asosiy muammosi sifatida; ta'lim tizimini axborot bilan ta'minlash;

• axborot madaniyatining shaxs va jamiyat umumiy madaniyatidagi o'rni haqida;

• shaxsning axborot erkinligi tushunchasi va axborot tengsizligi muammolari haqida;

• shaxs va davlatning axborot xavfsizligi muammolari haqida;

Tushunishi kerak:

- axborot madaniyati rivojlanish darajasining jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri;
- axborot davlatning strategik resursi ekanligi;
- axborot olish huquqi shaxsning axborot erkinligining zaruriy sharti ekanligi;
- texnokratiyaning global xavfi.

Bilishi kerak:

- rus olimlarining informatikaning fan va amaliyot sohasi sifatida rivojlanishiga qo'shgan hissasi;
- jamiyat taraqqiyotining axborot bosqichining asosiy xarakteristikalarini;
- axborot jamiyati rivojlanishining asosiy xususiyatlari va qonuniyatlari;
- axborotlashtirishning asosiy bosqichlari, uning asosiy muammolari va yo'nalishlari;
- ta'limni axborotlashtirishning maqsad va vazifalari va ularni hal etishning asosiy yo'llari;
- ta'limni axborotlashtirishda informatika kursining roli;
- ijtimoiy axborot texnologiyalarining asosiy turlari;
- axborot texnologiyalari orqali odamlarni boshqarishning oldini olishning asosiy usullari;
- axborot sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy muammolari va usullari.

Bajara olishi kerak:

- shaxs va jamiyatning axborot manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy hujjatlarni tahlil qilish;
- ochiq ijtimoiy axborot texnologiyalarini yashirin maqsadli ijtimoiy axborot texnologiyalaridan farqlash;
- texnokratik sivilizatsiya sharoitida inson hayotining muammolarini aniqlash va ularni hal etishning taklif etilayotgan yo'llarini baholash.

Tahlil va natijalar. Taqdim etilgan tushunchaga ko'ra, asosiy kursda ijtimoiy informatikani o'qitish mazmuni asosiy ta'lim dasturlarining majburiy minimal mazmuni talablaridan tashqariga chiqmaydi, biroq ixtisoslashtirilgan maktabda uning amalga oshirilishi didaktik birliklar ro'yxatining sezilarli darajada kengayishiga olib keladi, ular orasida faylasuf dunyoqarashiga ega bo'lgan va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lganlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan, mualliflar shaxsning axborot madaniyati, axborot erkinligi va shaxsning axborot xavfsizligi, maktab o'quvchisida sifatli va har tomonlama ta'lim olishga bo'lgan munosabatini shakllantirish tushunchalarini ko'rib chiqishga katta ahamiyat beradilar.

Shu bilan birga, muallif shuni aytish kerakki, taqdim etilgan ta'lim metodikasi o'quvchining ijtimoiylashuviga to'liq yordam beradi va olingan bilim va ko'nikmalar unga axborot jamiyatida kelajakdagi kasbiy faoliyat asoslari sifatida individual ta'lim strategiyasini belgilashda zarur yordam beradi. Axborot va huquqiy madaniyatning dastlabki asoslarini shakllantirgan holda, ushbu dasturda fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasining vazifalari, ekologik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish vazifalari shakllantirilmagan.

Bilim va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar:

- sivilizatsiya rivojlanishining axborot bosqichi bilan postindustrial davr o'rtasidagi farqlarni aniqlash va tavsiflash, jamiyat taraqqiyoti tarixiga misollar keltirish;
- ijtimoiy axborot texnologiyalarini ajratib ko'rsatish va tahlil qilish va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini tashkil etish.

Bugungi kunda MDH maktablari o'quv dasturlarida va pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash tizimida ijtimoiy informatikaga bo'lgan e'tiborning tobora kuchayib borayotganini ta'kidlash kerak. Masalan, Belarus Respublikasida yuqori bosqichda ixtisoslashgan ta'lim doirasida maxsus

tanlov kurslarining yangi o'quv dasturlari (tanlov kurslari) yaratilgan. Jumladan, 36 soatlik "Axborot jamiyati va ijtimoiy jarayonlarni kompyuterda modellashtirish" kursi dasturiga quyidagi "Ta'limning mafkuraviy mazmun yo'nalishlari" kiritilgan:

1. Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy informatika.

Axborot va ijtimoiy jamiyat. Axborot jamiyatining belgilari. Jamiyatni axborotlashtirish. Jamiyatdagi axborot jarayonlari va munosabatlarining turlari. Axborot sifati. Axborot sifatining o'zgarishi. Axborotni buzish. Ijtimoiy axborot turlarining tasnifi. Axborot va insonparvarlik madaniyati. Jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyoji. Axborot jamiyatining ijobiy va salbiy tomonlari.

2. Shaxsning psixologik moslashuvi va uning ijtimoiy axborot jamiyatidagi xatti-harakatlari.

Kompyuterli axborot jamiyatidagi shaxsning psixofiziologik va ijtimoiy ehtiyojlari. Hissiy to'yinganlik. Axborot jamiyatida shaxsning o'zini o'zi tasdiqlashi yoki yo'q qilishi. Axborot jamiyatida xavfsizlik. Axborot jamiyatida insonning moslashuvi.

3. Axborot texnologiyalari asosida axborot mafkurasi va huquqiy tarbiya.

Mafkuraviy-huquqiy xarakterdagi axborot resurslari. Jamiyatning siyosiy va huquqiy rivojlanishiga axborotlashtirish jarayonlarining ta'siri. Axborotni huquqiy himoya qilish. Kompyuter tarmoqlaridan mafkuraviy va huquqiy xarakterdagi axborotni izlash. Kompyuter tarmoqlarida xulq-atvorning axloqiy va huquqiy normalari.

Oliy va o'rta maktablar dasturlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy informatika kursini o'qitishda oliy ta'lim muassasalarida keyingi o'n yillikda to'plangan metodik va metodologik tajribadan cheklangan holda foydalaniladi.

Xulosa va takliflar. Informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fanini o'qitish tushunchalari va dasturlarida ijtimoiy informatikaning mazmuni va o'rning tahlili ushbu ilmiy yo'nalishning yetakchi vakillarining sa'y-harakatlariga qaramay, "Ijtimoiy informatika" mazmun yo'nalishlari hali maktab informatikasida yetarlicha o'z aksini topmaganligini ko'rsatadi, shuningdek bir qator jiddiy muammolarni boshdan kechirmoqda:

1. Barcha e'lon qilingan didaktik birliklarni taxminan 2-5 soat material hajmiga moslashtirish istagi materialni o'ta yuzaki taqdim etilishiga va muammoli ta'limni amalga oshirib bo'lmashligiga olib keladi;

2. Dasturlar va o'quv qo'llanmalar mazmuni ko'pincha fanning hozirgi holatiga mos kelmaydi, ko'plab faktik xatolarni o'z ichiga oladi;

3. Ijtimoiy informatikaning butun mazmunini alohida bo'limlarga, asosan, "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari" va "Axborot etikasi va huquq, axborot xavfsizligi" bo'limlariga qisqartirishga urinishlar mavjud;

4. Ijtimoiy informatika bo'yicha o'quv maqsadining elektron vositalari mavjud emas;

5. Kursning tarbiyaviy ahamiyati aniqlanmagan, tegishli vazifalar amalda shakllantirilmagan.

Eng muhimi, ta'lim standarti taqozo etgan hozirgi sharoitda ma'lum darajada ijtimoiy informatikani ta'lim mazmuniga zamonaviy yondashuvlarga mos ravishda o'rganish va ushbu kursda ta'lim muammolarini faqat kasbiy tayyorgarlik doirasida hal qilish haqida gapirish mumkinligini ta'kidlashni nihoyatda muhim deb biladi. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, bunday ixtisoslashtirilgan yoki tanlov kursi nafaqat axborot-texnologik yo'nalish doirasida, balki har qanday ta'lim yo'nalishi uchun zarurdir.

ADABIYOTLAR

1. Soyev Stiv; Rozenbaum, Xovard. Axborot fanlari bo'yicha ijtimoiy informatika: dolzarb faoliyat va paydo bo'layotgan yo'nalishlar . Ilm-fan haqida ma'lumot: Rivojlanayotgan transdisiplinaning xalqaro jurnali. 2000 y. №3 (2), doi:10.28945/583., 89–95 bet.
2. Fichman Pnina; Rozenbaum, Xovard (2014). Ijtimoiy informatika: o'tmishi, buguni va kelajagi. Nyukasl apon Tayn: Kembrij olimlari nashriyoti. ISBN 978-1443855761.
3. Chugunov Andrey Vladimirovich. Sotsialnaya informatika. Uchebnoe posobie. 2012. Sankt-Peterburgskiy NIU ITMO, 223 s.
4. Sokolov A. V. Stupeni i ranogamy poznaniya informatsii // Teoriya i praktika obshchestv.-nauch. informatsii: Sb. nauch. tr. / RAN. INION. BEN; Red. kol.: Pivovarov Yu. S., gl. red., i dr. — M., 2011. — Выр. 20. — S. 97-119.
5. Kolin K. K., “Budushee informatiki v 21 veke: rossiiskii otvet na amerikanskii vyzov”, Otkrytoe obrazovanie, 2006, no. 2(55), 73–77 [14] Kolin K. K., “Informatsionnyi pokhod v met



Abbos HUSANOV,
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: husanov.abbos@mail.ru

Dotsent, psix.f.d. B. Jo'rayev taqrizi asosida

O'SMIR O'QUVCHILARNI KIBER HJUMLARDAN SAQLASHDA KONSTRUKTIV AXBOROTLAR-MUHIM PSIXOLOGIK MANBA

Annotsiya

Ushbu maqolada o'smir o'quvchilarni kiberxujumlardan saqlashda konstruktiv axborotlar-muhim psixologik manba sifatida foydalanish zamonaviy tadqiqotlar orqali yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda yolg'on axborotlardan saqlanishga doir psixologik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Internet, xavfsizlik muammosi, konstruktiv, virtual psixologiya, kiberxujumda yolg'on axborot, psixologik ta'sir, virtual olam, kiberxujum, shaxs, psixologik xususiyat, ta'sir etish, individuallik.

КОНСТРУКТИВНАЯ ИНФОРМАЦИЯ В ЗАЩИТЕ УЧАЩИХСЯ-ПОДРОСТКОВ ОТ КИБЕРАТАК - ВАЖНЫЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ РЕСУРС

Аннотация

В этой статье рассматривается использование конструктивной информации - как важного психологического ресурса - в защите учащихся-подростков от кибератак с помощью современных исследований. В то же время представлены психологические рекомендации относительно защиты от ложной информации.

Ключевые слова: Интернет, проблема безопасности, конструктивная, виртуальная психология, ложная информация в киберзапугивании, психологическое воздействие, виртуальный мир, киберзапугивание, личность, психологическая черта, влияние, индивидуальность.

CONSTRUCTIVE INFORMATION IN THE PROTECTION OF ADOLESCENT STUDENTS FROM CYBER ATTACKS-AN IMPORTANT PSYCHOLOGICAL RESOURCE

Annotation

This article covers the use of constructive information-as an important psychological resource-in the protection of adolescent students from cyber attacks through modern research. At the same time, psychological recommendations regarding the protection of false information are presented.

Key words: Internet, security problem, constructive, virtual psychology, false information in cyberbullying, psychological impact, virtual world, cyberbullying, personality, psychological trait, influence, individuality.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va tarqalishi dunyoning sifat jihatidan boshqacha tasvirini shakllantirishga, qadriyatlarini efirga uzatishga, yangi normalar, xatti-harakatlar modellari va ijtimoiy o'zaro ta'sir strategiyalarini belgilashga olib keladi[1]. Aloqa soddalahib, an'anaviydan virtualga o'tadi, buning natijasida axborot-kommunikatsiya muhiti (AKM) shakllantiriladi, bu zamonaviy jamiyatning maxsus ijtimoiy aloqa tizimini nazarda tutadi, bunda ijtimoiy subyektlar birlashishi orqali o'zaro bog'liq bo'ladi. Aloqa - Internet texnologiyalari (IT) va ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishning yangi shakllaridan foydalangan holda muloqot orqali qo'shma faoliyatni muvofiqlashtirish va uyg'unlashtirishga yordam beradigan tarmoq, hayotning barcha sohalarida sifat jihatidan yangi siljishlarga olib keladi.

TASS-Telecom tahliliy guruhi prognoziga ko'ra, yaqin yillarda veb-texnologiyalar global bozori yillik o'sishni 10 foizga, dunyodagi eng yirik IT-kompaniyalarning rivojlanish sur'atlari esa 14-15 foizni tashkil qiladi. Internet texnologiyalari ham jismoniy (tarmoqlar, kompyuterlar, dasturiy ta'minot, aloqa kanallari va boshqalar), ham mantiqiy (xizmatlar, resurslar, navigatsiya) jihatlarida mavjud[2]. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanish sur'ati AKM subyektlari bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish, foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini olish va Internetda kontentni qidirishni osonlashtirish uchun interaktiv o'zaro ta'sir doirasini kengaytiradi.

«Axborot har qanday tabiatdagi, shu jumladan ijtimoiy tizimlarning o'zini o'zi tashkil etuvchi asosiy harakatlantiruvchi omili» bo'lganligi sababli, u evolyutsiya jarayonlarining rivojlanishini, natijada paydo bo'lgan tabiiy, ijtimoiy va sun'iy ravishda yaratilgan inson tizimlarining tuzilishi va barqarorligini belgilab, axborot almashinuvining intensivligi va tarkibini ta'minlaydi[3]. Shu sababli, auditoriyaning axborot xavfsizligini ommaviy axborot vositalarining unga nomaqbul ta'siridan ta'minlash muammolarini o'rganish masalasi hozirgi paytda ayniqsa dolzarb bo'lib, uni hal qilmasdan turib, shaxs, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, harbiy va boshqa sohalaridagi ijtimoiy taraqqiyotni yanada barqarorlashtirish va xavfsizlikni ta'minlash mumkin emas.

Xavfsizlik muammosi psixologiya fanining fundamental yo'nalishlari qatoriga kirmaydi. Shunga qaramay, bugungi kunda ushbu mavzu psixologik tadqiqotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Ma'lumki, xavfsizlik insonning asosiy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. A.Maslou[4] iyerarxiyasiga ko'ra, insonning o'zini namoyon qilish, tan olish va qadrlash, muhabbat va mehrga bo'lgan eng yuqori ehtiyojlari insonning fiziologik ("vital" deb ataladigan), shuningdek, har birimizga xos bo'lgan xavfsizlik ehtiyojini qondirish asosida amalga oshiriladi.

Klinik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, shaxs va/yoki guruh xavfsizligi shartlariga rioya qilmaslik shaxs va jamiyatning aqliy rivojlanishi va psixologik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, har qanday to'g'ridan-to'g'ri va

bilvosita o'zaro ta'sirlar shaxs yoki jamiyat uchun potensial tahdid manbalari bo'lishi mumkin: boshqa odamlar, odamlar guruhlari, ko'plab texnik qurilmalar (ish stoli va noutbuklardan tortib atom elektr stansiyalarigacha), turli xil jonli va jonsiz hodisalar.

Mutaxassislar o'z bemorlarida uchraydigan bir qator umumiy fobiyalar, hadiksirashlar va qo'rquvlarni turli darajada batafsil tasvirlab bera oldilar. Masalan, balandlikdan qo'rqish - akrofobiya, chuqurlikdan qo'rqish - batofobiya, yopiq joylardan qo'rqish - klaustrofobiya, bo'sh joylardan qo'rqish - kenofobiya va jamoat joylaridan qo'rqish - agorafobiya. Bir qator qo'rquvlar hayvonlar bilan muloqot qilishni istamaslik bilan bog'liq - zoofobiya. Juda keng tarqalgan fobiyalar faunaning qo'ng'izlar - akarofobiya, ilonlar - ofidiofobiya, o'rgimchaklar - araxneofobiya, itlar - kinofobiya kabilar. Mavsumiy tabiat hodisalaridan qo'rqish ham bor: momaqaldiraq - astrofobiya yoki brontofobiya, yomg'ir - omrofobiya, shamol - anemofobiya. Har xil turdagi texnik tuzilmalar va mashinalardan kelib chiqadigan qo'rquvlar mavjud. Ular orasida: transport vositalaridan qo'rqish (samolyotlar, metro va poyezdlar, liftlar va boshqalar) - amaksofobiya; kompyuter bilan bog'liq qo'rquvlar - kiberfobiya, kompyuter tashvishi, texnostress va boshqalar.

Xavfsizlik muammosi xorijda ham, mahalliy fanda ham ma'lum darajada rivojlandi. Ushbu muammoning umumiy uslubiy jihatlar bilan bir qatorda psixologik jihatlar, shu jumladan terrorizm kabi hodisaning psixologik tomoni bilan bog'liq bo'lgan tomonlari ham o'rganilmoqda. Bu mavzu ilmiy adabiyotlarda juda yaxshi aks ettirilgan. Shuning uchun mahalliy psixologik fan tomonidan kamroq o'rganilgan yo'nalishga - yangi axborot texnologiyalari sohasidagi xavfsizlik psixologiyasiga (ko'pincha «kiber xavfsizlik» deb ataladi) murojaat qilinadi.

Axborot ta'siri (xususan, «axborot urushlari» doirasida) asosan «kibernetik» xususiyatga ega degan qarashdan farqli o'laroq, axborot xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlar ham psixologik ma'lumotlarga asoslanishi kerak. Xavfsizlik muammosi o'z mohiyatiga ko'ra fanlararodir, shuning uchun uning rivojlanishi murakkab va fanlararo xarakterga ega bo'lishi kerak.

Globalashuv jarayonlari Internet va u bilan bog'liq ko'plab multimedia xizmatlarining paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, texnologiyalarning o'zi, yuqorida ta'kidlanganidek, inson va insoniyatning, birinchi navbatda, yosh avlodning psixologik rivojlanishi yo'nalishlariga nisbatan noaniqdir. «Kompyuter savodxonligi» mukammallikka olib keladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida yuzaga kelgan va shartlangan psixologik rivojlanish ijobiy, neytral yoki salbiy yo'lni bosib o'tishi mumkin, garchi kompyuterlar, operatsion tizimlar, brauzerlar, dasturlash tillari va Internet mavzuning rivojlanish yo'nalishini aniqlamasa ham. Axborot texnologiyalari sohasida iqtidorli bolalar va

o'smirlarni rivojlantirishning bir qancha istiqbolli yo'nalishlari mavjud. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari tufayli shunday psixologik rivojlanish yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularni salbiy deb tasniflash mumkin. Ular orasida: potensial (barcha ekspertlar tomonidan tan olinmagan bo'lsa ham) «Internet-addiksiya» - kompyuter va Internetga qaramlik[5]; tez-tez kuchli stressga olib keluvchi kompyuter xavotiri[6]; tafakkurni texnokratlashtirishning o'ziga xos turi[7] bo'lib, texnik vositalar bilan tizimli ravishda ishlaydigan mutaxassislarga xos bo'lishi shart emas va hokazo.

Internetda axloqiy xulq-atvor xususiyatlarini o'rganishning zamonaviy yo'nalishlaridan biri kiber-etika deb nomlanmoqda. Bu Internet muhitida axloqiy (ya'ni, to'g'ri, adolatli) xatti-harakatlar qoidalariga ishora qiladi. Ko'pgina mualliflar kiber-etikaga oid savollarni texnologiya rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan dolzarb ma'naviy-axloqiy muammolar toifasiga kiritadilar. Ularda kompyuter va internetdan axloqiy/axloqsiz foydalanishni o'rganish sohasida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy ishlarning aniq yo'nalishlari, birinchi navbatda, jinoyat va yolg'onning oldini olish, ulardan himoyalanih va xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Bundan tashqari, pornografiya, pedofiliya, Internet orqali jinsiy zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar, bolalarni jinoyatchilar tomonidan ularning ruhiy salomatligiga mumkin bo'lgan zararlardan himoya qilish yo'llari faol muhokama qilindi[8]. Internetda yolg'on va firibgarlikka qarshi kurashish, potensial jozibador domen nomlarini keyinchalik qayta sotish maqsadida ularni «qo'lga olish» (yomon niyat bilan ro'yxatdan o'tkazish), murakkab (yoki inson e'tiborsizligiga asoslangan) masofaviy kompyuterlarga ruxsatsiz kirishni qo'lga kiritish, kredit raqamlari kartalarini o'g'irlash (va shunga mos ravishda pul, xizmatlar, tovarlar), shuningdek, plagiat, qaroqchilik va mualliflik huquqining buzilishi kabi holatlarga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, «kiber-terrorizm» va ofis kompyuterlaridan noto'g'ri foydalanishga qarshi kurashish maqsadida internet foydalanuvchilarining shaxsiy erkinligini cheklashga yo'l qo'yilmasligi masalalari ham muhokama qilinmoqda. Tadqiqotchilar internetdagi xakerlik, «o'ng» va «chap» ekstremizm, qasddan (obro'ga putur yetkazish), shantaj, boshqa shaxsga nisbatan «kiber ta'qib» va shu bilan bog'liq tahdidlar yoki uning shaxs erkinligiga tajovuz qilish ko'rinishlarini e'tibordan chetda qoldirmaydi.

Xulosa va takliflar. So'nggi paytlarda keng tarqalgan axloqiy va noqonuniy xatti-harakatlar o'rganilmoqda: spam jo'natish, kompyuter viruslarini kompilyatsiya qilish va tarqatish, masofaviy kompyuterlar ustidan nazorat o'rnatish, vandal-dastur tipidagi kompyuter dasturlari orqali buzg'unchi harakatlar, masofaviy veb-saytlar faoliyatida muammolar yaratish.

ADABIYOTLAR

1. Юревич А.В. Три источника и три составные части поддержания нравственности в обществе // Психологические исследования нравственности / Отв. ред. Журавлев А.Л., Юревич А.В.. М.: Издательство «Институт психологии РАН», 2013. С. 13–35.
2. Селюнина С.В., Горбачева Н.А. Теоретические и практические аспекты обеспечения информационной безопасности детей и подростков в глобальной сети // Здоровье населения и среда обитания, 2017. С.11-17
3. Василенко Л.А. и др. Информационная культура в системе государственного управления / Василенко Л.А., Рыбакова И.Н.. М., 2004.
4. Маслоу А.Г. Мотивация и личность. – СПб: Евразия, 2001.
5. Интернет-зависимость: психологическая природа и динамика развития / Под ред. А.Е. Войскунского. – М., 2009.
6. Васильева И.А., Пашенко Е.И., Петрова Н.Н., Осипова Е.М. Психологические факторы компьютерной тревожности // Вопросы психологии. – 2004. – №5.
7. Зинченко В.П., Моргунов Е.Б. Человек развивающийся. Очерки российской психологии. – М., 1994.
8. Войскунский А.Е., Дорохова О.А. Становление киберэтики: исторические основания и современные проблемы // Вопросы философии. – 2010. – №5.



Uchqun CHORIYEV,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti assistenti
E-mail: uchqin_1515@mail.ru.

TDTR p.f.d, v.b.prof Muxammadiyev K.B. taqrizi asosida

IMPROVEMENT OF PEDAGOGICAL METHODS OF INJURY PREVENTION IN THE PROCESS OF KURASH SPORT

Annotation

This article presents scientific opinions aimed at ensuring the life, health, physical and functional state and safety of those practicing kurash, scientific opinions and methods aimed at protecting against injuries by pre-pedagogical prediction of situations that are harmful to health. athletes and youth involved in wrestling sports during the period of participation in competitions. Also, athletes, coaches and sports judges must undergo medical, social and professional rehabilitation, participants in wrestling competitions must have an insurance policy in accordance with the law, and sports equipment, inventory and sportswear must comply with international and (or) GOSTs, norms and requirements, recommendations are given.

Key words: Kurash, injury, training, physical education, sport, healthy, will, responsibility, recovery, tool, pedagogy, psychology, medicine, fatigue, massage, bathing, sauna, exercises.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПРОФИЛАКТИКИ ТРАВМАТИЗМА В ПРОЦЕССЕ СПОРТА КУРАШ

Аннотация

В данной статье представлены научные мнения, направленные на обеспечение жизни, здоровья, физического и функционального состояния и безопасности занимающихся курашом, научные мнения и методы, направленные на защиту от травм путем допедагогического прогнозирования ситуаций, наносящих вред здоровью. спортсменов и молодежи, занимающихся борцовскими видами спорта в период участия в соревнованиях. Также спортсмены, тренеры и спортивные судьи должны пройти медицинскую, социальную и профессиональную реабилитацию, участники соревнований по борьбе должны иметь страховой полис в соответствии с законодательством, а спортивный инвентарь, инвентарь и спортивная одежда должны соответствовать международным и (или) ГОСТы, нормы и требования, даны рекомендации.

Ключевые слова: Кураш, травма, тренировка, физическое воспитание, спорт, здоровый, воля, ответственность, восстановление, инструмент, педагогика, психология, медицина, утомление, массаж, купание, баня, упражнения.

KURASH SPORT TURI BILAN SHUG'ILLANISH JARAYONIDA SHIKASTLANISHLARNI OLDINI OLISHGA YO'NALTIRILGAN PEDOGOGIK USULLARNI TAKOMIMLLASHTIRISH

Аннотация

Ushbu maqoladi kurash sport bilan shug'ullanuvchilarning hayoti, sog'lig'i, jismoniy va funksional xolati hamda xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy fikrlar, kurash sport turi bilan shug'illanadigan sportchi va yoshlarning musobaqalarda ishtirok etish vaqtida sog'lig'iga ziyon yetkaziladigan holatlarni oldindan pedogogik bashoratlash orqali sodir bo'ladigan jarohatlardan himoyalanihga qaratilgan ilmiy fikrlar va usullar ochib berilgan. Shuningdek sportchilar, murabbiylar va sport hakamlariga qonunchilikka muvofiq tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya, kurash musobaqalarida ishtirok etuvchilar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urta polisiga ega bo'lishi, hamda, sport jihozi, anjomi va sport kiyimi xalqaro va (yoki) davlat standartlari, normalari hamda talablariga muvofiq bo'lishi kerakligi haqida tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kurash, shikastlanish, mashg'ulot, jismoniy tarbiya, sport, sog'lom, iroda, mas'uliyat, tiklash, vosita, pedagogika, psixologik, tibbiyot, charchoq, toliqish, massaj, chumilish, sauna, shug'illanish.

Kirish. Respublikamizda har tomonlama sog'lom yosh avlodni voyaga yetkazish, ularga bilim berish, ma'naviy barkamol etib tarbiyalash maqsadida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi besh yili mobaynida Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish, rivojlantirish hamda tashkil etish masalalariga oid Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Prezident farmonlari, vazirlik buyruqlari qabul qilinib, ularda qo'yilgan vazifalar izchillik bilan jismoniy tarbiya va sport amaliyotiga joriy etilmoqda. Bu qonunosti hujjatlarining amaliy ahamiyati O'zbekiston sportchilarining erishayotgan yuqori natijalari hamda xalqaro talablarga javob beradigan sport inshootlari barpo etilishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-noyabrdagi "Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning

xalqaro nufuzini yana-da oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4881-son qarorida qadimiy qadriyatlarimiz, xususan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalari o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalash-tirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish, kurash-ning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yana-da kuchaytirish, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an'analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o'zbek sporti brendi nomi bilan

kurashning jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini yana-da mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish kuzda tutilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sportda shikastlanishlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, hisobga olish, tahlil etish va bashoratlash, sportning harakat faoliyati bilan bog'liq barcha turlarida shikastlanishning oldini olish yoki oqibatlarini yumshatish bo'yicha masalalar xorijiy mamlakatlar hamda respublikamiz olimlari va tadqiqotchilaridan V.N.Platonov, O.Perasalo, M.Vapaavuori, V.Mexelen, U.Yorgensen, P.Renstrom, B.M.Nigg, B.Hurley, D.Ye.Taunton, U.A.Grana, G.G.Uoker, F.A.Kerimov, S.Sulaymanov, K.B.Muxammadiyev va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Hamda shikastlanishlarning holati, sabablari, tibbiy profilatika, reabilitatsiya sug'urtalash, sport mashqlariga pedagogik yondashuv, sportchi mahoratini oshirish bo'yicha masalalari o'rganilgan va ilmiy asoslangan tibbiy, pedagogik usullar ishlab chiqilgan.

Ammo bu ilmiy tadqiqotlarda kurash sportning harakat faoliyati bilan bog'liq barcha turlarida mamlakatimizdagi sport shikastlanishlarining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, hisobga olish, tahlil etish va bashoratlashning, shikastlanishning oldini olish yoki oqibatlarini yumshatish bo'yicha ilmiy asoslangan tashkiliy, texnik hamda sanitar-gigiyenik va pedagogik usullar xamda yechimlar o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida kurash sportdagi shikastlanishlarining oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan o'quv-mashq va musobaqa jarayonlarida shikastlanishga oid anketa-so'rov, xronometraj va kuzatuvlar o'tkazish usullaridan foydalanilgan.

Kurash sportdagi shikastlanishlarning sabablari pedagogik tahlil qilinib, kurashchilar shikastlanishlarini topografik tahlili o'tkazilgan, shikastlanishlarni kurashi tana a'zolari bo'yicha taqsimlanishi natijalari asosida shikastlanish ehtimoli eng yuqori tana a'zolari kuch yuklanishi matematik modeli ishlab chiqilgan, shikastlanishlar ko'rsatkichlarini aniqlash bo'yicha anketa-so'rovlar o'tkazilgan, olingan natijalar asosida sportdagi shikastlanishlar chastotasi, og'irlik va xavfsizlik koeffitsientlarini aniqlash orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini tahlil etilgan. Kurashdagi shikastlanishlarning tashkiliy, texnik va sanitar-gigiyenik sabablari aniqlangan va bashorat qilingan. Ilmiy asoslangan tashkiliy, pedagogik, texnik va sanitar-gigiyenik tavsiyalar ishlab chiqilgan va shikastlanishlarni bartaraf etish usullari takomillashtirilgan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki sport faoliyatining aksariyat turlarida, ayniqsa professional kurashchilar va oliy darajali sportlarda, tayanch harakat apparatlarining turli tashqi va ichki kuchlar ta'siridan zo'riqishi bilan bog'liq holda kechadi. O'quv mashqlari, o'quv-mashq yig'inlari va musobaqalar kuchli, chaqqon, epchil, chiroyli va yuqori sport texnikasi namoyish etishga tayyorlanish va ko'rsatishga qaratilgan. Bu esa tabiiyki, o'quv-mashq yig'inlarining boshida, oxirida va musobaqa paytida ruhiy, jismoniy tayyorgarlikning, sport mahoratining yetishmasligi tufayli, ba'zi holatlarda, sportchi qaltis harakat sodir etishi oqibatida shikastlanishga olib kelishi mumkin [1].

Dunyodagi turli rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, ba'zi manbalarda kurash sportdagi shikastlanishlar ulushi umumiy shikastlanishlar (maishiy turmush, ishlab chiqarish, transportda harakatlanish va boshqalar)ning 2-5% dan ortig'ini tashkil etadi, ilmiy manbalarda esa, sportdagi shikastlanishlar ulushi barcha jarohatlarning 10-17% ni tashkil qilishi aytilgan. Masalan, AQSHda sport jarohatlari barcha bolalar va yoshlar shikastlanishlarining 16% ini,

transportdagi shikastlanishlar esa 7,1% ni tashkil qiladi. Shvetsiyada sport jarohatlari soni jarohatlar umumiy sonining 10% ni tashkil qiladi. 40 yillarda sport jarohatlari barcha jarohatlarning atigi 1,4% ni tashkil etgan [www.sportmedicine.ru]. 1970 yilda bu ko'rsatkich 5-7% gacha ko'tarildi. 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida jarohatlar soni 10% dan oshdi, 90-yillarning o'rtalarida bu 12-17%, 2001-2003yillarda esa 17-20% ga yetdi. Sport jarohatlarini davolash uchun sarflangan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlar juda katta nisbatlarda oshdi. Masalan, Gollandiyada sport jarohatlarini davolashning yillik qiymati 200-300 million dollarni tashkil qiladi. Sug'urta kompaniyalarining ma'lumotlariga ko'ra, har yili Shveysariya yo'llarida jarohat olgan tog' chang'ichilarini davolash uchun 4-5 milliard AQSH dollari sarflanishi tahlillardan ma'lum bo'ldi [1].

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport jarohatlanishiga oid, sport turlari kesimida, shikastlanishlarni davolashga sarf etilayotgan mablag'larga tegishli ma'lumotlar statistikasi tizimli olib borilmaydi va ularni to'plash, qayta ishlash, dinamikasini o'rganish, tahlil etishning yagona tizimi aniq mavjud emas. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlar bo'yicha sportdagi shikastlanishlarga oid yuqorida keltirilgan raqamlar asosida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholining umumiy sonidan kelib chiqqan holda, ularning yiliga 129594-323995 nafari (yoki AQSH statistikasiga asoslangan foiz bo'yicha 1035439) shikastlanishi ehtimolini taxmin etish mumkin [1].

Kurash sportning harakat bilan bog'liq barcha turlarida, asosan sportchining tayanch-harakat tizimi a'zolari shikastlanishi kuzatiladi. Demak turli shikastlanish hodisalarini qayd etish, o'rganib chiqish, sabablarini chuqur tahlil qilish ularni bartaraf etish va shikastlanishlarning yengil kechishini ta'minlash bo'yicha ilmiy-pedagogik, nazariy va amaliy tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi. Kurashchilar jarohatlanishining yana bir muhim masalasi ijtimoiy himoya muammosidir. Lekin mazkur muammo yechimining asosini tashkil etuvchi, kurash sportdagi shikastlanishlarni rasmiylashtirish masalalari bo'yicha ish yuritish hujjatlarining yagona tizimi yaratilmagan. Bu jarayonda kurashchilarning salomatligi holatini sug'urtalashda baxtsiz hodisa sabablarini aniqlash muhim o'rin tutadi. Chunki sug'urta holati sug'urta tashkiloti tomonidan tan olingandagina, badal, davolanish xarajatlari uchun moliyaviy mablag' ajratiladi. Shikastlangan kurashchi sug'urta varaqasidan foydalanishi uchun baxtsiz hodisani o'rganish, hisobga olish va rasmiylashtirish hujjatlarining havaskor sportdagi yagona tizimini yaratish maqsadga muvofiq. Tadqiqot jarayonida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi shikastlanishlar, ularning sabablarini birinchi marta qayd etish holati chuqur tahlil qilingan va olingan natijalarga asoslanib shikastlanishlarni kamaytirishga qaratilgan tashkiliy, pedagogik va sanitar-gigiyenik tadbirlar ishlab chiqishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi [1].

Kurashda shikastlanishlarni bartaraf etishning pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, hisobga olish, tahlil etish va bashoratlash usullari orqali, kurash sportida jarohatlarini kamaytirish, oqibatlarini yumshatishga oid ilmiy asoslangan tashkiliy, sanitar-gigiyenik yechimlar ishlab chiqish maqsatida quyidagi vazifalarni amalga oshirildi:

- kurashda shikastlanishlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, hisobga olish, tahlil etish va bashoratlash usullarining muammoli masalalariga oid adabiyotlarni o'rganish;

- kurashda shikastlanishlarning kelib chiqishiga sabablarini aniqlash bashoratlash usullarini nazariy tadqiqot qilish;

- kurash o'quv-mashq va musobaqa jarayonlarida shikastlanishga oid pedagogik anketa-so'rov, xronometraj va kuzatuvlar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil etish;

- kurashda shikastlanishlarni bartaraf etishga qaratilgan usullarini takomillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish;

- kurashda shikastlanishlarni kamaytirish, oqibatlarini yumshatishga oid ilmiy asoslangan tashkiliy, pedagogik, tarbiyaviy, sanitar-gigiyenik yechimlar ishlab chiqish;

- ishlab chiqilgan va joriy etilgan pedagogik tashkiliy, hamda sanitar-gigiyenik yechimlarni kurashdagi shikastlanishlarni kamaytirish, oqibatlarini yumshatish bo'yicha pedagogik, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash.

Bu vazifalardan kelib-chiqib, jismoniy tarbiya va sport, yoshlar sporti, havaskor va professional sport, olimpiya sporti va yuqori natijali kurashchilar bilan shug'ullanuvchi insonlarning harakat faoliyati jarayonlari va mashqlar sharoitining ko'rsatkichlari tahlil keng yoritib, kurashchilar ongi va shuuriga singdirishni pedagogik jihatdan tadqiq etilishi kerak [1].

Tadqiqot natijalari bo'yicha umum pedagogik qabul qilingan usullari kurashdagi harakatlar biomexikasining fundamental qonuniyatlaridan, zamonaviy asbob va o'lchov uskunalaridan foydalanish orqali yetarlicha isbotlandi. O'tkazilgan tadqiqot ishlarining asosiy obyekti sifatida Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti va Karshi shahar kakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabi tanlab olingan. Sport turlari o'quv-mashq va musobaqa jarayonlarida shikastlanishga oid anketa-so'rov, xronometraj va kuzatuvlar asosida olingan natijalari tahlil qilindi

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilmiy asoslangan tashkiliy, pedagogik texnik va sanitar-gigiyenik tavsiyalarni sport amaliyotiga joriy etish shikastlanishlar ehtimolini 40% kamaytirdi. Shundaki, xavfsizlik texnikasi qoidalarini kurashchilarga o'rgatish o'quv-mashqlari va

musobaqalar jarayonidagi 22 % shikastlanishlarning oldini olindi.

Tadqiqot natijalari bo'yicha yaratilgan tashkiliy (xavfsizlik texnikasi qoidalari, o'quv-mashqlar, musobaqalarni o'tkazish vaqti tartibi), texnik (pnevmoqilamlar va poyafzal to'shamasi) va sanitar-gigiyenik tavsiyalar Qarshi shahri, Samarqanda shahridagi kakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabilariga joriy etish uchun taqdim etilgan [1].

Xulosa va takliflar. Tajriba va kuzatuvlar natijalarining tahlili kurashchilar shikastlanishlarining eng ko'p uchrashi, kurashchilar shikastlanishlari soni uning mahorati va jinsiga bog'liq ekanligi, malakasi yuqori kurashchilarda shikastlanishlar soni kamayishini ko'rsatdi.

2. Qizlarda o'g'il bolalarga nisbatan shikastlanishlar soni ko'pligi, shikastlanishlar soni 87, 90 kg va 90 kg dan ortiq vaznli toifadagi ekurashchilarda nisbatan ko'pligi va qizlarda esa 52, 57 kg va 70 kg dan ortiq kurashchilarda ko'p ekanligi tasdiqlandi.

3. Kurashchilarda qo'l-panja, bilak, tizza va oyoq-panja shikastlanishlari ko'pligi, ayol kurashchilarda ushbu tana a'zolarining va bo'g'imlarining shikastlanishi erkak kurashchilarnikiga nisbatan 1,5-2 marta ko'pligi, kurashchilarning aksariyati, ya'ni 2/3 qismi shaxsiy himoya vositalaridan foydalanmasligi va shular shikastlanishlarning asosiy sabablari ekanligi aniqlandi.

4. Sport zaldagi havo harorati hamda nisbiy namligi natijalari o'quv mashqlari rejimi va sport zalidagi sanitar-gigiyenik sharoit "Ishlab chiqarish xonalari mikroiklimini sanitar-gigiyenik normativlari" talablariga mos emasligini tasdiqladi.

5. Sport zali mikroiklimi sportchi tana qobig'i va yadroning to'la qizishi 20 minutlik umumiy chigal yozish mashqlarini o'tkazish bilan ta'minlanmasligini ko'rsatdi, undan tashqari havo nisbiy namligini me'yoridan sezilarli darajada pastligi (me'yor 40-60%) sportchilar mashq jarayonida ko'p miqdorda suv yo'qotishiga (teri va nafas olish orqali) olib kelishini tasdiqladi.

ADABIYOTLAR

1. Мухаммадиев К.Б. Спортизированное физическое воспитание студентов на основе сочетания средств борьбы и игрового метода // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. УДК/UDC 796.011.2:5:012.33. – Москва, № 9, 2021. С. 23-24.
2. Мухаммадиев К.В. Sport mashg'ulotlari jarayonida talabalarning jismoniy sifatlari, funksional tayyorgarligi, organizm fizologik holatining o'sish va tiklanish dinamikasi // Xalq ta'limi – Toshkent, 2020. 6-son, – 78-84 б.
3. Мухаммадиев К.Б. Жисмоний тарбия таълими жараёни самарадорлигини ошириш ва талабаларда экологик маданиятни ривожлантиришнинг назарий асослари: Монография // "Инновацион ривожлантириш наشريёти-матбаа уйи" – Тошкент, 2021.
4. Мухаммадиев К.Б. Жисмоний тарбия таълими жараёни самарадорлигини оширишнинг долзарб педагогик муаммолари // "Фан-спортга". – Тошкент, 2021. 4-сон. –53-56 б.
5. Mukhammadiev K.B., Mirzakulov I.M., Karimov A.H.. Methodological fundamentals of formation of ecological culture in students - AIP Conference Proceedings, 2022.
6. Нуршин Ж.М. – Миллий кураш усуллари. Ўқув услубий қўлланма. Тошкент 1987-йил.
7. Нуршин Ж.М., Таймуродов А. – Ўзбекистон миллий кураш усуллари. Тошкент 1987-йил.
8. Туманян Г.С. – Спортивная борьба, теория, методика, организация тренировки. Учеб.пособ. В 4-х кн. Кн. II. Кинезиология и психология. М.: Советский спорт. 1998 г. С.280.



Xadichaxon SHARAFUTDINOVA,
Termiz davlat universiteti dotsenti
E-mail: xadicha_sharafutdinova@mail.ru

psix.f.d. U.D. Qodirov taqrizi asosida

OILAVIY MUNOSABATLAR DESTRUKTSIYASIDA KOGNITIV –BIXEVIORAL PSIXOTERAPIYA IMKONIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqlada oilaviy munosabatlar destruksiyasida kognitiv-bixevioral psixoterapiyani qo'llash, D.Olson "Oila tuzilishini o'rganish so'rovnomasi" asosida olib borilgan tadqiqot natijalarining statistik tahlili, kognitiv-bixevioral psixoterapiyaning destruksiyani bartaraf etishdagi imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Destruksiya, psixoterapiya, kognitiv psixoterapiya, oila tizimi, funktsional oila, disfunktsional oila.

ВОЗМОЖНОСТИ КОГНИТИВНО-ПОВЕДЕНЧЕСКОЙ ПСИХОТЕРАПИИ В ПРЕОДОЛЕНИИ ДЕСТРУКЦИИ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация

В данной статье представлена информация о применении когнитивно-поведенческой психотерапии при разрушении семейных отношений, статистический анализ результатов исследования, проведенного на основе «Опросника изучения структуры семьи» Д. Олсона, и о возможностях когнитивно-поведенческой психотерапии при преодолении деструкции.

Ключевые слова: Деструкция, психотерапия, когнитивная психотерапия, семейная система, функциональная семья, неблагополучная семья.

POSSIBILITIES OF COGNITIVE-BEHAVIORAL PSYCHOTHERAPY IN OVERCOMING THE DESTRUCTION OF FAMILY RELATIONS

Annotation

This article provides information on the use of cognitive-behavioral psychotherapy in the destruction of family relationships, a statistical analysis of the results of a study conducted on the basis of the "Questionnaire for the Study of Family Structure" by D. Olson, and the possibilities of cognitive-behavioral psychotherapy in overcoming destruction.

Key words: And concepts, destruction, psychotherapy, cognitive psychotherapy, family system, functional family, dysfunctional family.

Kirish. Kognitiv psixoterapiya psixoterapiyadagi zamonaviy kognitiv-xulq-atvor tendentsiyasining yo'nalishlaridan biri bo'lib, shaxs xulq-atvori, fikrlari va munosabatlari darajasidagi salbiy o'zgarishlarni aniqlash orqali o'z-o'zini tadqiq qilish va o'z-o'zini kognitiv tuzilmasidagi o'zgarishlarni tuzatish va barqarorlashtirishga yo'naltirilgan strategiya modelidir. Kognitiv-bixevioral psixoterapiya shaxsning vaziyatni qanday qabul qilishini va fikrlashini o'rganadi, unga sodir bo'layotgan voqealarga yanada realroq qarashni rivojlantirish asosida mijozga o'z muammolarini anglashga ko'maklashadi.

Mavzuga oid adabiyotlar taqlili (Literature review).

Kognitiv-bixevioral psixoterapiyaning rivojlanishi uzoq tarixga ega, jumladan uning rivojlanish tarixi E.Torndik, J.Uotson, B.Skinner, A.Bandura, A.Ellis va A.Bek kabilarning kognitiv modellari bilan bog'liq. Kognitiv-bixevioral psixoterapiya tarafdorlari inson o'z xatti-harakatlarini sodir bo'layotgan narsalar haqidagi g'oyalari asosida qurishidan kelib chiqadi, kishining o'ziga, odamlarga va hayotga qarashi uning fikrlash tarziga, tafakkuri esa u qanday fikrlashga o'rgatilganiga bog'liq bo'ladi. Kishi salbiy, destruktiv, noto'g'ri fikrlashi uning noto'g'ri g'oyalarga egaligi natijasidir. Kognitiv-bixevioral psixoterapiyada mijoz davolanmaydi, balki to'g'ri, konstruktiv fikrlashga o'rgatiladi va shu yo'l bilan hayotini yaxshilanishiga erishiladi.

Tahlil va natijalar. Uzbek oilalaridagi shaxslararo munosabatlarning turlari, ularning shaxs rivojlanishiga ta'siri, psixologik xususiyatlari, ayni qisqartirish bilan, ajrimlar tufayli oiladagi farzandning kelgusida barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga

ta'siri, oila muhitida nizolarni o'rganishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilayotganiga qaramay, so'nggi yillarda oilalardagi yuz berayotgan noxush holatlarni yuzaga keltiruvchi sabablari boshqa yillardagiga nisbatan keskin tafovutga ega ekanligi kuzatilmoqda. Bu esa mazkur muammolarni chuqur va keng qamrovda o'rganishni, ularni bartaraf etishning samarali amaliy chora-tadbirlarini ishlab chiqishni, oilaviy psixologik xizmatni amaliyotda joriy etishni taqazo etmoqda[1].

Zamonaviy psixologiyada kognitiv-bixevioral psixoterapiya eng ilmiy asoslangan, psixoterapiyaning samaradorligi va texnologik jihatdan asoslangan eng ko'p tadqiqotlarga ega yo'nalish hisoblanadi. Kognitiv-bixevioral psixoterapiya zamonaviy psixoterapevtlar qo'llaydigan usullari ichida eng ko'p o'rinni egallaydi.

Kognitiv-bixevioral psixoterapiyada insonning his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini bevosita ularning fikrlari belgilaydi. Masalan, kechqurun uyda yolg'iz bo'lgan kishi qo'shni xonadan kelayotgan shovqinni turlicha talqin etishi mumkin, ya'ni agar u shovqin sababini uyga o'g'ri tushgan deb hisoblasa, qo'rqib, politsiyani chaqirishi, yoki agar kimdir derazani yopishni unutgan deb hisoblasa, u derazani ochiq qoldirgan odamga g'azabini yo'naltirib, derazani yopish uchun ketishi mumkin. Demak, vaziyatni baholovchi fikr kishining hissiyoti va harakatni belgilab beradi.

Bu haqda kognitiv-bixevioral psixoterapiya asoschilaridan xisoblangan A.Bek shunday yozgan: «Insonning fikr-mulohazalari uning his-tuyg'ularini, his-tuyg'ulari unga mos keladigan xatti-harakatni, xatti-harakati esa, o'z navbatida,

bizni o'rab turgan dunyodagi o'rnimizni shakllantiradi». Boshqacha qilib aytganda, fikrlar atrofimizdagi dunyoni shakllantiradi ya'ni, biz tasavvur qiladigan haqiqat juda subyektivdir va ko'pincha haqiqatga hech qanday aloqasi bo'lmaydi. Ammo, muammoning ikkinchi tomoni shundaki, bizning fikrlarimiz har doim biz ko'rgan narsalarning talqini xisoblanadi. Shuningdek, har qanday talqin qandaydir erkinlikni nazarda tutadi va agar mijoz, sodir bo'lgan voqeani salbiy va destruktiv (muammoli) talqin qilsa, psixoterapevt unga, aksincha, ijobiy va konstruktiv talqinni taklif qilishi orqali engillashtirishga olib keladi. Kognitiv-bixevioral psixoterapiyada destruktiv fikr va g'oyalari kognitiv xatolar sifatida baholanadi. A.Bekning fikricha, kognitiv sxemalar asosan e'tiqodlardan iborat bo'lib, ular har bir insonga dunyoni ko'rishga, uni tushunishga va o'z tajribalari orqali tuzilmalarni qurishga imkon beradigan qo'llanmalardir[3].

Kognitiv xatolarga voqelikni buzib ko'rsatilgan xulosalar, ayrim hodisalarning ahamiyatini bo'rttirib yoki susaytirib ko'rsatish, shaxsiylashtirish va haddan tashqari tahlil qilish va umumlashtirish bilan bog'liq quyidagi vaziyatlarni kiritish mumkin:

- o'zbo'shimchalik bilan xulosa chiqarish "Agar oliy ma'lumotli bo'lmasa, demak aqli kalta.";

- haddan tashqari umumlashtirish - bir yoki bir nechta hodisalar asosida xulq-atvorning umumiy tamoyillarini belgilash va ularni barcha vaziyatlarga qo'llash (Bir marta omadi kelmaganligidan o'zini "omadsiz" deb baholash);

- ixtiyoriy vaziyatni tanlab olib, unga bo'lanib qolgan holda umumlashtirish yoki mavhumlashtirish - nima sodir bo'layotganini o'zining tanlovi asosida tushunish, ijobiy tomonlarni e'tiborsiz qoldirib, salbiy tomondan yondashish;

Voqea-xodisalarni bo'rttirib yoki kamaytirib ko'rsatish - o'zlarining muvaffaqiyati va yutuqlarini kamaytirib, "zarar" va "yo'qotishlar" ini bo'rttirib ko'rsatish

va muvaffaqiyatsizliklari uchun boshkalarni yoki o'zini aybdor qilishga moyillik;

Shaxsiylashtirish - barcha voqea- xodisa va vaziyatlarni o'z harakatlarining natijasi deb baholash turli narsalar bilan bo'lashga moyillik;

Maksimalizm - dioxotomiyali fikrlash, mutlaqo yaxshi yoki mutlaqo yomon xodisalarni ajratish ("Bugun kayfiyatimning yaxshiligi - ertaga qam kayfiyatim yaxshi bo'ladi degani emas." Bu kabi irratsional fikrlashning barchasi kognitiv psixoterapevt uchun faoliyat sohasi xisoblanadi.

Destruktiv oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, oila a'zolarining hech biri oiladagi psixologik muhitdan mamnun emas, lekin hech kim vaziyatni yaxshi tomonga o'zgartirishga qodir bo'lgan harakatlarni qilishga tayyor ham emas. Uzoq vaqt davomida destruktiv munosabatlarda bo'lgan odamlar ko'pincha psixosomatik kasalliklar bilan og'riy boshlaydilar. Doimiy stress va keskin muhit er-xotinning ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi, shuningdek, oilada farzandlarining normal rivojlanishiga to'sqinlik qiladi[4].

Tadqiqot ishimizda oila tuzilishini o'rganish maqsadida D.Olson so'rovnomasidan foydalandik. Oila psixologiyasida psixoterapiyada uyg'un, so'lom oilalar odatda funktsional, disgarmonik - disfunktsional deb ataladi. D.Olsonning 2 mezonni - uyg'unlik va moslashuvchanlikni o'z ichiga olgan diagnostika modeliga ko'ra, oilaviy tizimlarning 16 turini ajratish mumkin. Ulardan 4 tasi muvozanatli yoki funktsional, 8 tasi o'rtacha muvozanatli yoki yarim funktsional va 4 ta ekstremal turi muvozanatsiz yoki disfunktsiyali oilalar [2].

D.Olson "Oila tuzilishini o'rganish so'rovnomasi" asosida olib borilgan tadqiqotimizda 540 nafar respondentlar ishtirok etdilar va so'rovnosaga javoblari asosida ularning oilalari 3 guruhga ajratildi. Bular: "funktsional oila", "yarim funktsional oila", "disfunktsional oila".

Jadval-1.

D.Olson "Oila tuzilishini o'rganish so'rovnomasi" ko'rsatkichlari:

Oilalar	Soni	Jinsi		Jami
		Ayollar	Erkaklar	
Funktsional oila	Soni	146	102	248
	Foizi	51,4%	39,8%	
Yarim funktsional oila	Soni	81	63	144
	Foizi	28,5%	24,6%	
Disfunktsional oila	Soni	57	71	128
	Foizi	20,1%	27,7%	
Jami:	Soni	284	256	540
	Foizi	52,5%	47,5%	

Oila tizimining funktsional va disfunktsionalligi oiladagi ichki munosabatlarning xarakteriga asosan belgilanadi.

Funktsional oila - bu ochiq oila tizimi bo'lib, unda bir-biri bilan o'zaro munosabatlarning moslashuvchan qoidalari mavjud, tashqi yoki ichki sharoitlar o'zgarganda, qoidalar o'zgarishi mumkin, oila a'zolari o'z rollarini o'zgartirishi mumkin, boshqa odamlar ushbu oila tizimiga osongina kirishlari mumkin.

Disfunktsional oila - bu oilaning har bir a'zosi uchun vaqt o'tishi bilan o'zgarimas, oilada hal etilmaydigan muammolar, begona odamlar uchun qiyin bo'lgan qat'iy xatti-harakatlar qoidalari va belgilangan rollar mavjud bo'lgan yopiq oila tizimidir. Disfunktsional oilalarda ijtimoiy zararli odatlarga berilganlik, ota-onalardan biri yo'qolgan; oila a'zolaridan biri jiddiy kasallik bilan kasallangan; jismoniy yoki ruhiy zo'rvonlik mavjud bo'ladi.

Funktsional oilalarning ijtimoiy-psixologik belgilari	Disfunktsional oilalarning ijtimoiy-psixologik belgilari
shaxsiy muammolar tan olinadi, muhokama qilinadi va hal qilinadi; har bir oila a'zosining individual xususiyatlari hurmat qilinadi; o'z his-tuyg'ulari va ehtiyojlarini ochiq ifoda etish rag'batlantiriladi; oilaning har qanday a'zosi oila tizimidagi o'z rolini tanlashi	shaxsiy muammolar muhokama etilmaydi; his-tuyg'ularini ochiq ifoda eta olmaydi; samimiy muloqot yo'q; o'ynash, zavqlanish taqiqlanadi; boshqa odamlarga va o'zingizga ishonish taqiqlanadi; o'zini o'ylash imkoniga ega bo'lmaydi; oiladagi muammolar haqida boshqa birovning (do'stlar,

va o'zgartirishi mumkin;
oilada dam olish va ko'ngil ochish uchunimkoniyat mavjud;
nizo va kelishmovchiliklar ochiq hal qilinadi;
Oilaning har bir a'zosi shaxsiy erkinlik, o'z qobiliyatlarini
namoyon etish va rivojlantirish huquqiga ega;

tanishlar, psixologlar va boshqalar) gapirishi mumkin emas;
Oila tizimidagi rolini o'zgartirish taqiqlanadi:
bolalikdan katta bo'lish, kasallikdan sog'lom bo'lish,
mag'lubiyatdan muvaffaqiyatli bo'lish imkoni kam.

D.Olson "Oila tuzilishini o'rganish so'rovnomasi"
bo'yicha disfunktsional oila tizimidagi 128 nafar respondent-
lar bilan kognitiv-bixevioral psixoterapiya elementlaridan
foydalanib, mashqulotlar olib bordik. Mashqulotlarda asosan
fikrlash tarziga qaratildi. Bunda ishtirokchilarning fikrlash
tarziga xos jihatlar individual suqbatlar uyushtirish hamda
savol-javob usulida belgilab olindi va "vaziyatni qayta tahlil
qilish" usulidan foydalanildi. Qanday bo'lmasin, ishtirok-
chilarga o'zlarining avtomatik, irratsional mulohazalarini
tajriba orqali sinab ko'rishning turli usullari taklif etildi.

Fikrlash tarziga xos jihatlar sifatida quyidagilar
ajratildi:

fikrlardagi chalkashliklar (aniq g'oyaning yo'qligi);

o'z fikrida qat'iy turib olish, boshqa fikrlarni qabul
qilmaslik;

oila to'g'risidagi bayonotlarning stereotiplarga asos-
lanishi (erkak oilada ustun bo'lishi kerak, ayol erga itoatkor
bo'lishi kerak, oilani erkak iqtisodiy ta'minlashi kerak va x.k.)

xamma narsani taqdir bilan bo'lash;
oilada o'zini ustun bo'lishiga intilish;
hissiyotning ustunligi va musho'ada qilishning
sustligi;

mulqotda ustunlikka moyillik.

Xulosa vatakliflar. D.Olson "Oila tuzilishini
o'rganish so'rovnomasi" bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimiz
540 nafar respondentlardan 128 nafarining oilalari disfunk-
tsional oila tizimi xosligi ma'lum bo'ldi. Bu jami respondent-
larning 23,7% ni tashkil etdi. Disfunktsional oilalarda o'zaro
munosabatlar destruktiv xarakterga ega bo'ladi. Demak,
bizning oilaviy munosabatlar destruktiviyasida kognitiv
psixoterapiyani qo'llash bo'yicha olib borayotgan tadqiqot-
larimizda qo'llanilgan diagnostik metodikalarimiz oilaviy
munosabatlar destruktiviyasini tashhis qilish imkoni bilan birga
kognitiv-bixevioral psixoterapiya usullari yordamida yosh va
o'rta yosh oilalarda mavjud destruktiv munosabatlarni bartaraf
etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Akramova F.A O'zbekistonda amaliy psixolog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish: Muammo va yechimlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami Termiz 2020, B.27.
2. Бебчук М.А., Рихмайер Е.А., Практическая психодиагностика семьи. Москва, 2012.
3. Бек А., Раш А., Шо Б., Эмери Г. Когнитивная терапия депрессии. — Санкт-Петербург: Издательский дом «Питер», 2003.
4. Sharafutdinova X.G. Oilada destruktiv munosabat yo'nalishlari O'zMU xabarlar Toshkent 2022 y. 180 b.



Nodira SHERMATOVA,
TATU Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: nadirashermatova@bk.ru

TATU dotsenti, f.f.n. Sagdullaeva D.Sh taqrizi asosida

IJTIMOYIY FALSAFADA JAMIYAT HAYOTI VA TARAQQIYOTINING TABIIY VA IJTIMOYIY OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy falsafada jamiyat hayoti va taraqqiyotining tabiiy va ijtimoiy omillari ilmiy asoslar bilan tahlil qilingan. Bugungi kunda jamiyat va insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sanalmish tabiiy va ijtimoiy omillar to'g'risida ham ilmiy ham falsafiy yondashilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyat, taraqqiyot, tabiat, tabiiy, dialektik, birlik, mohiyat, odam va hayvon, inson.

NATURAL AND SOCIAL FACTORS OF SOCIETY LIFE AND DEVELOPMENT IN SOCIAL PHILOSOPHY

Annotation

This article analyzes the natural and social factors of social life and development in social philosophy with scientific foundations. Today, natural and social factors, which are considered as one of the main factors of the development of society and humanity, are approached both scientifically and philosophically.

Key words: Society, development, nature, natural, dialectic, unity, essence, man and animal, human.

ПРИРОДНО-СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ЖИЗНИ И РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА В СОЦИАЛЬНОЙ ФИЛОСОФИИ

Абстракт

В данной статье анализируются природные и социальные факторы общественной жизни и развития в социальной философии с научной точки зрения. Сегодня к природным и социальным факторам, которые рассматриваются как один из основных факторов развития общества и человечества, подходят как с научной, так и с философской точек зрения.

Ключевые слова: Общество, развитие, природа, природное, диалектика, единство, сущность, человек и животное, человек.

Kirish. Jamiyat hayoti va taraqqiyoti bilan tabiat orasidagi aloqadorlik ijtimoiy falsafaning muhim muammolari doirasiga kiradi. Avvalo, jamiyat tabiat evolyutsiyasining mahsuli va ko'rinishi, obyektiv borlikning shakli bo'lib hisoblanadi. Jamiyat tabiatdan ajralib chiqqan. Jamiyat tabiat bilan aloqadorliksiz mavjud bo'la olmaydi va yashay olmaydi.

Jamiyat bilan tabiat orasidagi aloqadorlik tabiiy omillarning jamiyatga ta'siri tarzida namoyon bo'ladi. Jamiyatga ta'sir etuvchi tabiiy omillar deganda; a) geografik muhit; b) aholi zichligi va ularning jamiyatga ta'siri nazarda tutiladi. Jamiyat va tabiat dialektik birlikda, o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'lik. biri ikkinchisiz mavjud bo'lishi mumkin emas. Bu bog'liqlik jamiyatning genezisida uz ifodasini topadi. Aynan ana shu tufayli jamiyat va tabiatning birligi narsalarning mohiyati, tuzilishidagi umumiylikda namoyon bo'ladi. - Odam va hayvon tirik tabiat vakillari sifatida tuzilishiga ko'ra o'xshash, ayni vaqtda uning hayotiy funksiyalari xam o'zaro biri ikkinchisiga o'xshash (masalan: biologik ehtiyojlarni qondirish, nafas olish, ovkat hazm qilish, o'zaro modda almashish va x.k.).

Jamiyat tabiatdan tashqarida, unga bog'liq bo'lmasdan mavjud bo'la olmaydi. Inson tabiat bag'rida yashaydi va faoliyat ko'rsatadi. - Tabiat xam, jamiyat xam moddiy, ular yaxlit moddiy olamning turli ko'rinishlari hisoblanadi. - Tabiatda xam, jamiyatda xam ob'ektiv qonunlar amal qiladi. Biz falsafa kursida tabiat va jamiyat qonunlari, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlar bilan tanishgan edik. Olimlar fikriga


kura, jamiyat bilan tabiat orasidagi uzviy aloqadorlik tarixini to'rt davrga bo'lib o'rganish mumkin:

- 1) O'zlashtirish bosqichi;
- 2) Agrar bosqich;
- 3) Industrial bosqich;
- 4) Neosfera davri.

Tabiat tabiiy muhit haqidagi karashlar biosfera to'g'risidagi ta'limotda uz ifodasini topgan. Biosfera tushunchasini birinchi bo'lib avstriyalik olim, geolog Eduard Zyus ilmiy muloqotga kiritgan va uni yerning jonli qobig'i, deb ta'riflagan. Biosfera to'g'risidagi ta'limot akademik Vladimir Vernadskiy (1863-1945) tomonidan ilmiy jihatdan asoslangan. Vernadskiy biosferani - organizmlar tarqalgan yer sayyorasining jonli kobigi, deb ta'riflagan. Biosferaning yuqori rivojlanish bosqichini, ya'ni tabiatning inson aqliy faoliyati sohasiga aylanishini frantsuz olimi Lerua neosfera, deb atagan. Demak, neosfera tabiat va jamiyat orasidagi o'zaro aloqa va munosabatda inson ongli faoliyatining taraqqiyotning bosh omiliga aylanishini nazarda tutadi. Neosfera, ya'ni "aql sohasi"ning tarkibiga:

- a) inson va uning faoliyati, turli shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan inson ongi;
- b) texnika;
- v) madaniy-iqtisodiy komplekslar;
- g) inson ta'siri ob'ekti hisoblangan notirik va tirik tabiat qismi kiradi.

Buni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:



Neosfera madaniy-iqtisodiy komplekslar inson texnika tirik va notirik tabiat qismi jamiyatga ta'sir etadigan tabiiy omil - geografik muhit hisoblanadi. Tabiatning jamiyatga ta'sirining muhim tomonini geografik muhit tashkil etadi. Geografik muhit muayyan tarixiy davrda inson va jamiyat hayoti kechadigan makon. «Geografik muhit» tushunchasi fanga olimlar E.Reklyu va L.M.Mechnikov tomonidan kiritilgan. Geografik muhit inson hayoti uchun zarur bulgan tabiat elementlari majmuasi, ijtimoiy munosabatlar kechadigan tabiiy makon.

Geografik muhit bilan jamiyat orasidagi uzviy aloqadorlik dialektik xarakterga ega. Buning ma'nosi shuki, geografik muhit jamiyatga, jamiyat ham uz navbatida geografik muhitga o'z ta'sirini o'tkazadi. Jamiyat tabiatdan oziq-ovqat mahsulotlarini, ishlab chiqarish vositalari uchun xomashyolarni va energiya manbalarini oladi. Geografik muhit ishlab chiqarishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Geografik muhitning jamiyatga ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir mehnat taqsimotining chuqurlashib boruvida, ishlab chiqarish turli sohalarning joylanishi va taraqqiyotida namoyon bo'ladi;

2) mehnat unumdorligiga ta'sir ko'rsatadi. Buni ob-havo sharoitlarining ishlab chiqarishga ta'siri misolida ko'rish mumkin. Yoki tabiiy hodisalar inson faoliyati natijalarini yo'qqa chiqarishi mumkin. (Masalan: suv toshqini, qurg'oqchilik va x.k.).

3) tabiiy shart-sharoitlar ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotining tezlashuvi yoki sekinlashuviga ta'sir ko'rsatadi;

4) inson qobiliyatlarining taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir avvalo ijtimoiy ongning shakllanishi va taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda geografik muhit jamiyat ma'naviy hayotiga ham ta'sir qiladi;

5) jamiyat taraqqiyoti darajasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. U jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin;

6) ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Markaziy Osiyo mintaqasida tabiiy shart-sharoitlar juda qadimlardan boshlab sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan;

7) jamiyatning ijtimoiy-ruhiy qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatning geografik muhitga ta'siri inson faoliyati va uning natijalarida namoyon bo'ladi. Insonning tabiatga ta'siri ekologik faoliyat, deb yuritiladi. Ekologik faoliyat tabiatga ijobiy va salbiy ta'sir tarzida namoyon bo'ladi. Jamiyat va inson ehtiyojlarini qondirish zarurati ekologik faoliyatni yuzaga keltiradi. Ekologik faoliyat tabiat bilan jamiyat orasidagi muvozanatni saqlashga yoki bu muvozanatning yemirilishiga xizmat qilishi mumkin. Shunga ko'ra insonning tabiatga munosabati ikki shaklda: a) oqilona b) vahshiyona munosabadda namoyon bo'lishi mumkin.

Ekologik faoliyat, uning qanday xarakterga egaligi ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti darajasiga, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Jamiyatga geografik muhitning ta'sirini mutlaqlashtirish geografik determinizm yoki geografizm falsafiy oqimida o'z ifodasini topgan. Geografizm oqimi XVII asrning boshlarida shakllandi. Bu oqimning falsafiy mohiyati


frantsuz olimi Sharl Lui Montesk'e (1689-1755) asarlarida o'z ifodasini topdi.

Mazkur oqim namoyondalariga XIX asr ingliz olimi Bokl (1821-1862), E.Reklyularni kiritish mumkin. Bokl—sotsiologiyaning geografik maktabi namoyondasi. U ayrim xalqlarning tarixiy taraqqiyoti xususiyatlarini tabiiy omillar (landshaft, tuproq, iqlim va oziq-ovqatlar) ta'siri bilan izohlaydi. Geografizm oqimi o'zi shakllangan davr - XVIII asrda progressiv o'rin tutgan, chunki u jamiyatni diniy-afsonaviy tushunishga qarshi qaratilgan oqim edi. Geografik muhitning jamiyatga ta'siri geosiyosat (geopolitika)da o'z ifodasini topdi.

Aslida "geopolitika" atamasini fanga shvetsiyalik olim R.Chshlen olib kirdi. Bu atama 1-jahon urushi arafasida keng qo'llana boshlandi. "Geosiyosat" tushunchasi "geo" - yer (shar), "siyosat" esa shu Yer shari (Kurrai zamin)ga doir siyosat yurguzish, demakdir. U muayyan davlat yoki davlatlar guruhining geografik yoki makoniy-hududiy yo'nalishda olib boradigan siyosati va ayni chog'da, jahon hamjamiyati, ayrim davlatlar ittifoqi va bloklarning umumjahon miqyosida belgilaydigan o'lchov (parametrlari, fe'l-atvorlarini ham anglatadi. Geosiyosatga doir nazariyalar XIX asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropada vujudga kelgan. Nemis olimi F.Rettsel (1844-1904) davlat siyosati va mamlakatning geografik vaziyati orasidagi o'zaro aloqadorlik masalasini ko'tardi. U xalqlarda "alohida makonni his qilish" qobiliyati mavjudligini e'tirof etgani holda, o'z chegaralarini kengaytirishga intilayotgan xalqlarga e'tibor qaratdi. Shu asosda K.Xausxofer (1869-1946) mohiyatan tashabbuskorlik tabiatiga ega bo'lgan "nemis millati hayotiy Makoni" haqidagi gipotezani ishlab chiqdi, Geosiyosat nazariyasi geografik muhit xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynashi to'g'risidagi qarashlarni mutlaqlashtirishga harakat qiladi. Bunday qarashlar go'yoki yangicha yondashuvlar sifatida talqin etilsa-da, aslida bunday g'oyalar qadimgi grek olimlari asarlarida ilgari suriladi, o'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlarida ilgari surilgan edi. Geosiyosatdagi arabparastlik mayllari tufayli davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda zo'ravonlik qonuniy jarayon sifatida, mustamlakachilik urushlari zarurat sifatida talqin etila boshlandi. Bunday qarashga ko'ra, kuchsizlar ustidan kuchlilarning hukmronlik qilishi qonuniy jarayon hisoblanadi. Ana shunday nuqtai-nazarga tayanib, Germaniya siyosatchilari kuch ishlatish bilan xukmronlik qilishni birinchi o'ringa qo'yidilar. Nemis siyosiy arbobi O.Bismark Germaniyaning yakkayu-yagona xududi uning armiyasidir, degan g'oyani ilgari surdi-ki, bu siyosatni amalga oshirish avvalo nemis xalqiga, so'ngra jahon halqlariga juda qimmatga tushgani hammaga ma'lum. XX asrning 80-yillarida geosiyosat yangicha mohiyat kasb eta boshladi. Geosiyosat nazariyasi davlat siyosatida o'z ifodasini topa boshladi. Davlat siyosatining muhim tomonlaridan biri geografik siyosatdir. Geografik siyosat keng ma'nodagi tushuncha bo'lib davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarida o'z ifodasini topadi. Uning asosiy yo'nalishlaridan biri ekologik siyosat bo'lib hisoblanadi. Ekologik siyosat: a) suv, havo, tuproq, o'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilishda; b) chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishda; v) ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirishda namoyon bo'ladi. Aholi zichligi jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan muhim tabiiy omildir. Unga ko'ra muayyan hududda,

mamlakat yoki Yer yuzida yashovchi aholining majmui nazarda tutiladi. Aholi zichligi uning soni, muayyan hududga nisbatan zichlik darajasi, o'sish sur'atlari, jins, yosh xususiyatlari, madaniy taraqqiyot darajasi kabi xususiyatlarni nazarda tutadi. Aholi dinamikasini o'rganadigan maxsus fan sohasi mavjud. Bu - demografiya fani. Demografiya fani ma'lumotlariga ko'ra odamzod Yer yuzida deyarli 5 mln

yildan beri istiqomat qilib keladi. Shundan keyingi 50-40 ming yil ichida u jamiyat bo'lib yashab keladi. Ma'lumotlarga qaraganda neolit asriga qadar Yer planetasi aholisi 10 mln kishini tashkil etgan, 3000 yil avval 50 mln, II asrda 230 mln, birinchi ming yillik oxirida 276 mln kishini tashkil etgan. Dunyo aholisining o'sib borish sur'atlarini quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin:



Aholi zichligi omilining jamiyatga ta'siri ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuvi yoki sekinlashuviga olib kelishi mumkin. Aholi zichligining jamiyatga ta'siri "aholi-iqtisodiyot" va "iqtisodiyot-aholi" tizimida yaqqol namoyon bo'ladi. Aholi zichligining ortib boruvi umumiy tarzda olganda ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotida o'z ifodasini topadi. Lekin aholi zichligi uning ko'p, kamligi bilangina o'lchanmaydi. Aholi zichligining jamiyatga ta'siri "demografik omil" tushunchasida o'z ifodasini topdi. Demografik omil ko'p qirrali tushuncha bo'lib;

a) aholining soni va zichligi; b) yosh xususiyatlari; v) salomatlik darajasi; g) bilim (ma'lumot) darajasi; d) yashash manzillari yerurbanizatsiya (shaharlashish) va urbanizatsiya jarayonlari; j) migratsiya jarayonlari va x.k.larni hisobga olishni taqazo etadi. Aholi omilining jamiyatga ta'siri jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan aholi omilining iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy, ma'naviy hayot sohalariga, ta'siri haqida gapirish mumkin. Aholi sonining ortib boruvi va jamiyatga ta'siri turli-tuman falsafiy qarashlarda o'z ifodasini topgan.

XVIII asrlardan boshlab olimlarni "Aholi sonining ortib boruviga qanday yondashmoq lozim" degan savol

qiziqtirgan. Maltuschilik va neomaltuschilik nazariyalari shu davrda shakllangan. Ingliz iqtisodchisi Tomas Maltus (1760-1833) "Aholi zichligi qonuniyati tajribasi" asarida aholining tez sur'atlar bilan o'sib borishi demografik portlashga, oqibatda oziq-ovqat maxsulotlarining yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun u tug'ilishni cheklash lozim, degan xulosaga keldi. XX asrda G'arbda neomaltuschilik qarashlari keng yoyildi. 1971-yilda J.Forresterning Rim klubiga tavsiya etilgan "Dunyo dinamikasi" deb nomlangan hisobotida insoniyat haqiqatan ham inqiroz oldida turibdi; shuning uchun aholi o'sishini chegaralash yo'li bilan xomash-yo zahiralari muvozanatini saqlash mumkinligi haqidagi fikr ilgari surildi. Haqiqatan ham, geografik muhit va demografik omilning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini inkor etish mumkin emas. Ayni vaqtda ularning jamiyatga ta'sirini mutlaqlashtirish ham noo'rin. Uning shakllanishi va taraqqiyotida tabiiy omillarning tutgan o'rnini inkor etmagan xolda, jamiyatga ta'sir etadigan ijtimoiy omillar ham mavjudligini e'tiborga olmoq lozim. Moddiy ishlab chiqarish, madaniyat, qadriyatlar, milliy g'oya jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy omillardir.

ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. - T.: "O'zbekiston", 1997-yil, 110-137, 227-252-bet.
2. Крапивенский С.Э. Социальная философия. - Москва, ВЛАДОС, 1998-йил, 19-20, 119-127, 177-190-бетлар.
3. Барулин В.С. Социальная философия. - Москва, ФАКР-ПРЕСС, 1999-йил, 351-392-бетлар.
4. Falsafa. Qomusiy lug'at. - T.: "Sharq" 2004-yil.
5. Falsafa. - Toshkent, 2006-yil, 356-361-betlar.



Jamoliddin SHOHIMARDONOV,
QarMII "Fizika va elektronika" kafedrasi professori

P.f.d Q.SH.Tursunov taqrizi asosida

TABIY O'QUV FANLARINING INTEGRALLASHTIRILGAN MAZMUNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Milliy dastur" asosida fizika darsliklarining integratsiyalashtirilgan g'oyalarni tashkil etish, o'quv fanlarini modellashtirishni tahlil etish. Tabiiy fanlarning integratsiyalashtirilgan mazmunining davr talablariga muvofiqligi va shu mavzuga oid adabiyotlar tahlil etiladi.

ИНТЕГРИРОВАННОЕ СОДЕРЖАНИЕ ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНЫХ ДИСЦИПЛИН

Аннотация

В данной статье рассмотрена организация интегрированных идей учебников физики по национальной программе в общеобразовательных школах, анализ моделирования учебных дисциплин. Анализируется соответствие интегрированного содержания естественных наук требованиям периода и литературы по этой теме.

INTEGRATED CONTENT OF NATURAL LEARNING DISCIPLINES

Annotation

In this article, the organization of integrated ideas of physics textbooks on the basis of the "national program" in general secondary schools, the analysis of the modeling of academic disciplines. The compliance of the integrated content of the natural sciences with the requirements of the period and the literature on this topic are analyzed.

Kirish. "Milliy o'quv dastur" loyihasi asosida yaratilgan umumiy o'rta ta'limning "Davlat ta'lim standart"i o'quvchilarning asosiy o'quv dasturlarini o'zlashtirish natijalariga qo'yiladigan talablarni yangicha shakllantirish imkoniyatini beradi[1]. Ular orasida o'quvchilarning integrativ yutuqlari alohida muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, ta'limning integrativ mazmuni va umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarning o'zaro aloqador fanlarni integratsiyalashtirilgan fanlar faoliyatining mohiyatini aniqlash dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun o'qitishda integratsiyalashtirilgan yondashuvni joriy etishning zamonaviy konsepsiyalari tahlil qilinadi, ta'limning intergralashtirilgan mazmuni na standartlarda, na turli mualliflarning konsepsiyalarida aniq talqin qilinmaganligi e'tiborga olinadi.

Ta'limda integratsiyalashtirilgan g'oyalarning rivojlanish tarixini, ta'lim mazmunini tashkil etishning nazariy asoslarini, o'quv fanining modellashtirishni tahlil qilish asosida, o'quv fanining integratsiyalashtirish mazmunining davr talablariga muvofiq ravishdagi zamonaviy talqini beriladi. Bilimning har bir elementi tuzilishida, o'quv fanining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan bilimning turli sohalaridan, interatsiyalashtirish va fan komponentlari aniqlandi. Bilimlarning har bir turi ma'lum bir universal ta'lim faoliyatlariga(UTF) mos keladi. Olingan natijalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishning zamonaviy mazmunini rivojlantirish bo'yicha nazariy tadqiqotlarda, shuningdek, tabiiy fanlar sikli fanlari bo'yicha o'quvchilar tomonidan o'quv dasturlarini o'zlashtirishdan kutilayotgan o'quv fanlarini integratsiyalashtirish natijalarini loyihalash o'qitishning uslubiy rivojlanishi va amaliyotida qo'llanilishi mumkin.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublarini joriy qilish, mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda ijobiy samaradorlikka erishishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablariga "Milliy o'quv dasturi" loyihasini joriy etilishi o'qitish nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Integrallashtirish tushunchasi ta'lim mazmunini loyihalashning barcha darajalarida dolzarb bo'lib qolishi mumkin. Biroq, integratsiyalashtirilgan yondashuvni amaliyotga joriy etish jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki bugungi kunda uning mohiyati va mazmuni haqida umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari ham aniq tasavvurga ega bo'lishlari lozimdir.

Integratsiyalashtirish natijalariga qo'yiladigan talablarning batafsil tavsifi turli xarakterdagi (kognitiv, tashkiliy, refleksiv va boshqalar) ko'nikmalar ro'yxati keltiriladi [2]. Shunday qilib, "Milliy o'quv dastur" loyihasida o'quvchilarning integratsiyalashtirilgan fanlardan yutuqlarining tashkil etuvchi mazmuni deyarli taqdim etilmagan.

Bu shundan dalolat beradiki, ushbu taklif qilinadigan "Milliy o'quv dastur" loyihasi asosida yaratilgan umumiy o'rta ta'lim maktablari fizika ta'limi konsepsiyasi mualliflari tomonidan aniq ko'rsatib berilmagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. A.V.Xutorskoyning ta'limdagi metapredmetlilik yoki o'zaro o'xshash fanlarni birlashtirilgan yoki "integratsiyalashtirilgan" konsepsiyasi bugungi kunda eng tushunarli ishonchli konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Unda ta'lim deganda shaxsning ichki va tashqi ta'lim mahsulotlarini yaratish tushuniladi. Ta'limning maqsadi o'quv faoliyatini o'zlashtirish rivojlantirishga emas, va nafaqat o'quvchi uchun balki atrofda jamiyat, olam, insoniyat uchun ham asoslantiradigan shakllantiruvchi ta'lim natijasining ishlab chiqishni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxs ta'limini uning imkoniyatini amalga oshirish nuqtai nazaridan loyihalashtirish uning integrallashtirish tarkibini aniqlash va yaratish zaruriyatini kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Muallif bunday mazmunning asosini asosiy ta'lim obyektlari - olamning birligini aks ettiruvchi va bilish haqiqatini o'zida to'playdigan asosiy obyektlar deb hisoblaydi. Bu asosiy ta'lim

yo'nalishlarining tugun nuqtalari bo'lib, buning natijasida haqiqiy bilim maydoni mavjud va ular haqida ideal bilimlar tizimi yaratilgan [2].

Uslubiy nuqtai nazardan, fundamental ta'lim obyektlari asosida o'quv fanining mazmuni umumlashtiriladi va o'quvchilarning alohida o'ziga xos ta'lim yo'nalishi ta'minlanadi.

Integratsiyalashtirilgan mazmunini o'rganish faoliyati o'zaro bir biriga bog'liq fanlarni birlashtirib o'qitishdagi ta'lim faoliyati hisoblanadi.

Garchi A.V.Xutorskoy o'quv faning metapredmet yoki integratsiyalashtirish mazmunini ta'kidlashga asosiy e'tiborini qaratgan bo'lsada, ushbu maqolada bu tarkibni u tomonidan noaniq tarzda taqdim etilgan deb hisoblaymiz. Bu yerda asosiysi ta'limning asosiy obyektlari haqidagi tasavvurlarning noaniq ta'kidlanligidir. Muallif ularni ilmiy bilim elementlarining biron bir toifasiga (bu tushunchalar, qonunlar yoki nazariyalar yoki hammasi birgalikda) taalluqli emas, ular qaysi bilim sohalariga tegishli ekanligi ta'kidlanmagan. Darhaqiqat, hozirgi davrda har qanday obyekt har bir fan yoki bir nechta fanni har kim o'z imkoniyati darajasidan kelib chiqib o'rganadi [3].

Bundan tashqari, "Milliy o'quv dastur" loyihasida ta'limning o'quv fani va bir biriga o'zaro o'xshash fanlar mazmuni o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlarni yetarli darajada ochib berilmagan. Bu yerda muallif, bizning fikrimizcha, birlashtirilgan fanlar mazmunini amalga oshirishning unchalik ratsional bo'lmagan usuli asosiy ta'lim obyektlariga asoslangan fanlarni ("metapredmetlar") kiritishni taklif qiladi. O'quv fanlarini integratsiyalashtirishning mohiyatini faqat umumlashtirish, taqqoslash, mavhumlashtirish va hokozolar natijasida o'quv fani mazmuni asosida bilish mumkin. O'quv fanlarini integratsiyalashtirish sun'iy ravishda ajratish o'quvchilarning yaxlit dunyoqarashini shakllanishiga yordam bermaydi.

Konsepsiyaning yaxlitligi nafaqat o'quvchilarning meta-subyektlari faoliyatining nazariy darajasi, balki tegishli ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlarini ochish, ularni shakllantirishning innovatsion vositalari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda xuddi shuningdek, ular bilan ishlash, o'quvchilarning integratsion yutuqlarini ta'minlash uchun turli fanlar o'qituvchilarining metodik ish texnologiyasi ta'minlanadi. Ta'limning integratsion mazmuniga kelganda, bu yerda mualliflar A.V. Xutorskiyning qarashlariga deyarli to'liq qo'shiladilar[3].

Ko'rinishdagi turli farqlarga qaramay, mualliflarning konsepsiyalarida o'qitishda interatsiyalashtirishdan foydalanish haqidagi quyidagi umumiy qoidalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Interatsiyalashtirishda asosiy o'quv dasturlarini o'zlashtirish natijalari, mazmun va faoliyat komponentlari ajratiladi.

2. O'qitishda protsessual va baholovchi bilimlarning roli ortib boradi, axborot bilimlarining ulushi kamaytirilib, refleksiv bilimlar kiritiladi, bilimlarning integratsiyalashuvi va o'quv fanlarini o'zaro o'xshash fanlarni birlashtirish kontekstlari kengayadi [4].

Shunday qilib, interatsiyalashtirish faoliyati usullari o'quv fanlarini o'zaro birlashtirilishi mazmuni bilan bog'liq bo'lib, uning asosida amalga oshiriladi va aynan shu asosda "Milliy o'quv dastur" loyihasida o'quv fanlarini nteratsiyalashtirish konsepsiyasi tuzilishi kerak. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, "Milliy o'quv dastur" loyihasida o'quv fanlarini birlashtirilgan mazmuni faqat fanlararo o'zaro bog'liq tushunchalar bilan ifodalanadi. Ularni aniqlash mumkinmi?

Tahlil va natijalar. Maqolada takomillashtirgan modelni tabiiy ilmiy yo'nalishidagi fanlar umumlashtirib taqdim etilgan (1 jadval).

1-jadval.

Tabiiy ilmiy yo'nalishdagi fanlarni o'qitish mazmunining didaktik modeli

Asosiy blok (fanlar bo'yicha ilmiy bilimlar)	Yordamchi blok	
Fan asoslari: 1) ilmiy dalillar; 2) tushunchalar; 3) qonunlar; 4) nazariya asoslari; 5) texnologiyaning ilmiy asoslari; 6) tadqiqot usullari	I. Yordamchi bilimlar majmui (asosiy qism): 1) mantiqiy; 2) metodologik; 3) falsafiy; 4) fanlararo; 5) fan va texnika tarixidan; 6) amaliy bilimlar; 7) baholash; 8) ekologik	II. Faoliyat usullari (protsessual qism): 1) kognitiv; 2) amaliy; 3) tashkiliy; 4) baholash; 5) o'z o'zini nazorat qilish

Q.SH.Tursunov "Yordamchi blok" nomini quyidagicha asoslagan: ushbu blokning har bir elementi o'quvchiga fan dasturi o'quv rejasiga kiritilgan asosiy mazmunni o'zlashtirishga yordam beradi. Bunday nomlanish yordamchi blok elementlarining ahamiyatini kamaytirmaydi. Ushbu bloklar shunchaki yordam bermaydi hamda ularni e'tiborga olmasdan fanlarning asoslarini o'zlashtirishning imkoniyati yo'q, chunki ushbu bloklar keng didaktik funksiyalarga ega. Ushbu bilim va ta'lim faoliyati tarkibiy tuzilishidan xabardorlik, fan bilimlarini konkretlashtirish va umumlashtirish, kognitiv qiziqishning rivojlanishi, o'quvchilarda qadriyatlar tizimini shakllantirishda yordam beradi. Agar tabiiy ilmiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha o'quv kurslari haqida gapiriladigan bo'lsa, ularning sifati, didaktik qadriyati, maqolada ta'kidlanishicha, Q.SH.Tursunov tomonidan ishlab chiqilgan yordamchi blok mazmunining boyligi bilan aniqlanadi.

Maqolada yordamchi bilimlar kompleksining elementlari tavsiflanadi.

1. Rasmiylashtirilgan mantiqdan olingan bilimlar umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining ilmiy bilimlar tizimiga yo'naltirishga yordam beradi - ular tushunchalar ta'rifini to'g'ri tuzishni, tushunchalar bilan turli amallarni o'tkazishni, ularning turli asoslarga ko'ra tasniflashni, tadqiqot natijalariga asoslangan xulosalarni asoslashga, izchil zanjir tuzishni o'rganadilar. Shuning bilan birga, rasmiy mantiqdan olingan bilimlar o'quvchilarning tafakkuri va nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Ilmiy bilim elementlarining tuzilishi va mazmuni haqidagi metodologik bilimlar o'quv materialini ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi, ular asosida bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish amalga oshiriladi.

3. Falsafada borliq haqidagi ta'limot tabiiy fanlar ma'lumotlariga asoslanadi. O'quv dasturi mazmuniga falsafiy

bilim elementlarining kiritilishi, bir tomondan, fan bilimlarini umumlashtirishning eng yuqori darajasini ajratib ko'rsatishga va ikkinchi tomondan, ularni shakllantirishning metodologik asosini belgilash imkoniyatini beradi.

4. Fan va texnika tarixidan olingan bilimlar ilmiy tasavvurlarning rivojlanish evolyutsiyasini, fanning shakllanish bosqichlarini ochib beradi. Asosiy o'quv material bilan organik ravishda bog'langan holda, ular har doim hissiy rangga bo'yalgan va ilmiy bilimlarni "insonlashtiradilar". Ular doimiy ravishda rivojlanayotgan fan haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga, olamning zamonaviy ilmiy manzarsini shakllantirishga, o'quvchilarning dunyoqarashini, o'qishning ijobiy motivlarini shakllantirishga, ularning axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga, insonparvarlik nuqtai nazarini shakllantirishga hissa qo'shadilar.

5. O'zaro bog'liq fanlararo bilimlar umumiy tushunchalarni umumlashtirish va konkretlashtirishga, shuningdek, aniq bir fan bo'yicha bilimlarni boshqa sohalarida qo'llash namoyish qilishga, ilmiy qonunlar va nazariyalarning umumiylikini ko'rsatishga, murakkab masalalarni yechish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

6. Amaliy bilimlar zamonaviy jamiyatda fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuch sifatida tutgan o'rnini to'g'risida xabardor bo'lishga yordam beradi; ilmiy bilimlarning mohiyatini tushunishga va shu orqali bilim olishning ijobiy motivlarini shakllantirish, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, kundalik turmushda amaliyotga oid amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantiriladi.

7. Fizikani o'rganishda o'quvchilarning baholash faoliyatining tashkil etilishini e'tiborga olgan holda ushbu maqolada uning quyidagi: faoliyatni baholash (shaxsiy va boshqalar), ahamiyati (bilimlar, jarayonlar, qurilmalar va boshqalar), qiymatlar (qiymatlar, o'lchash natijalarining aniqligi) turlari aniqlandi [9]. Baholovchi bilimlar sanab o'tilgan barcha tadbirlarning asosini tashkil etadi va asosan aks ettirish xususiyatiga ega.

8. Texnik masalalarni ko'rib chiqish muqarrar ravishda tegishli ekologik muammolarni o'rganishga olib keladi. O'quvchilarni insonlarning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari usullari bilan tanishtirish, ushbu o'zaro

ta'sirning ijobiy va salbiy tomonlarini e'tiborga olish zarurati, ekologik toza texnologiyalarning afzalliklarini ko'rsatish, ularda atrof-dagi voqelikka qadriyatli munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi; Ekologik bilimlar majmuasini o'rganishda talabalar atrof-muhitning o'zaro ta'sirini optimallashtirish bo'yicha quyidagi: atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq tabiatshunoslik va moddalar almashinuvi va aylanishining optimal to'liqligini saqlashga qaratilgan texnologik fanlar, energiya va energiya oqimi haqidagi ma'lumot va tasavvurlarni bilishadi. Ekologik majmua xuddi shuningdek, inson hayoti va salomatligini muhofaza qilish haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi [10].

Maqolada keltirilgan Q.SH.Tursunov modelida faoliyat usullari tasnifi keltirilgan [8]. Ushbu tasnif "Milliy o'quv dasturi" loyhasida keltirilgan universal ta'lim faoliyati turlari bilan bog'liqligini kuzatish mumkin. Ammo har bir turdagi faoliyat usullarida fan va integratsiyalashtirilgan komponentlarini ajratish mumkin. Yordamchi bilimlarning alohida elementlari integratsiyalashtirilgan faoliyat uchun yo'nalishga asos rolini o'ynaydi. Yuqorida qayd qilinganlarni mantiqiy va uslubiy bilimlar misolida namoyish qilinadi.

Xulosa va takliflar. Amalga oshirilgan tahlil natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalar chiqariladi:

1. O'zaro o'xshash fanlarni integratsiyalashtirilgan mazmuni - ushbu tegishli fan sohasiga kirmaydigan yoki undan tashqariga chiqmaydigan turli bilim sohalaridan olingan bilimlar majmuasi hisoblanadi. Tabiiy ilmiy siklidagi subyektlariga kelsak, bularga mantiq, metodologiya, falsafa, fan tarixi, ekologiya, boshqa o'quv fanlari, politexnik bilimlar kiradi.

2. Integratsiyalashtirilgan bilim elementlari predmetli bilimlarga nisbatan umumlashtiruvchi funksiyani bajaradi.

3. Yuqoridagi ayrim sohalar (mantiq, metodologiya, falsafa) olingan bilimlar sofi integratsiyalashtirish tavsifiga ega. Bilimlarning boshqa turlarida ham predmet, ham intergatsiyalashtirish komponentlarini ajratish mumkin.

4. Sanab o'tilgan turlarning har biri bo'yicha integratsiyalashtirilgan bilimlar bilan ish olib borilganda, umumiy ta'lim harakatlarining barcha turlarini qamrab oladigan, ma'lum ta'lim harakatlari amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekistan Respublikasi "Milliy o'quv dasturi" 14.12.2019, 132 b.
2. O'zbekistan Respublikasining "Davlat ta'lim standarti" 2021-yil 27-oktyabr.
3. Хуторской А.В. Метапредмет «Мироведение»: Программа и методика занятий в 5–6 классах: Методическое пособие для учителя : 2–е изд., перераб. и доп.–М.: Издательство «Эйдос»; Издательство Института образования человека, 2015. — с.132.
4. Пурьшева, Н.С. О метапредметности, методологии и других универсалиях.
5. Звягин А.Н. Совершенствование системности знаний учащихся в процессе обучения в средней школе: дис. ... канд. пед. наук.
6. Shodiyev D. "Tabiiyotshunoslik darslarida fizikaviy materiallarni o'qitish". (2 va 3 eksperimental sinf o'qituvchi va o'quvchilari uchun qo'llanma) Ivanov S.I. va Ochilov M.tahriri ostida, Toshkent 1969, 37 b.
7. Tursunov Q.SH. XXI asrda tabiiy-ilmiy fanlarning integratsiyasi.–//Innovatsion texnologiyalar.–Qarshi, 2011.– №2.–62–66 b.
8. "Milliy dastur" asosida yaratiladigan zamonaviy ta'lim daturini tahlili", Q.SH.Tursunov, J.M.Shohimardonov "O'zMU xabarlari" 1/1 son, Toshkent 2022.
9. "Zamonaviy fizika ta'limi mazmuni va tarkibiy tuzilishi muammolari haqida (Uzluksiz ta'limning umumiy o'rta ta'lim maktablari bosqichi misolida)" Shohimardonov J.M., Zamonaviy ta'lim/Современное образование 2021 1(98).
10. Модернизация общего образования. Вариативный личностно направленный учебный план школы / Под ред. В.В. Лаптева А.П. Тряпицыной. - СПб., 2002.



*Kudrat YULDASHEV,
O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi*

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti kafedra boshlig'i, siyosiy fanlar doktori F.Xatamov taqrizi asosida

CONCEPTUAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF PUBLIC SECURITY IN SOCIO-POLITICAL SCIENCES

Annotation

Public security is one of the main criteria for the development of each country. The actual scientific problem was the correct understanding of the category of public security, its perception, the improvement of legal and political aspects. The main goal of the reforms carried out in Uzbekistan in recent years under the slogan "From Action Strategy to Development Strategy" is aimed at ensuring the peace of our people and the security of society.

Key words: Public safety, political mechanisms, human rights, social development, reforms.

IJTIMOY-SIYOSIY FANLARDA JAMOAT XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASINING KONSEPTUAL TAHLILI

Annotatsiya

Jamoat xavfsizligi har bir mamlakat taraqqiyotining bosh mezonlaridan biri hisoblanadi. Jamoat xavfsizligi kategoriyasini to'g'ri anglash, uni idrok etish, huquqiy va siyosiy aspektlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy masala bo'lib kelmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" shiori ostidagi islohotlardan ko'zlangan birlamchi maqsad ham xalqimizning tinchligi va jamiyat xavfsizligiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Jamoat xavfsizligi, siyosiy mexanizmlar, inson huquqlari, ijtimoiy taraqqiyot, islohotlar.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ НАУКАХ

Аннотация

Общественная безопасность является одним из основных критериев развития каждой страны. Актуальной научной проблемой стало правильное понимание категории общественной безопасности, ее восприятие, совершенствование правовых и политических аспектов. Главная цель реформ, проводимых в Узбекистане в последние годы под лозунгом «От стратегии действий к стратегии развития», направлена на обеспечение мира нашего народа и безопасности общества.

Ключевые слова: Общественная безопасность, политические механизмы, права человека, социальное развитие, реформы.

Kirish. Xavfsizlik muammosini uning turli jihatlarida tadqiq etar ekanmiz, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida sezilarli rivojlanishga erishgan "Hayot falsafasi" yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash lozim. Yondashuvlardan birining mohiyati shundaki, inson xavf ostidadir, chunki hayot barcha ko'rinishlarida xavflidir. Xavf nafaqat muqarrar, balki barcha tirik mavjudotlar evolyusiyasi, ijtimoiy hayot taraqqiyotining zaruriy omili hamdir.

Inson, ijtimoiy guruhlar, jamiyat, davlat taraqqiyotining har bir bosqichida xavfsizligini ta'minlash eng ustuvor vazifalardan biri. Uni hal qilish tahdidlarning soni va mohiyatini, mavjud va istiqbolli vositalarni, ularni zararsizlantirish mexanizmlarini, shuningdek, xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha maqsadli faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlarni tizimli tushunish bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bu jarayonda esa milliy xavfsizlik fenomeni ajralmas tushuncha hisoblanib, xavfsizlik siyosatini amalga oshirishning turli yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Jamiyat xavfsizligini mazmunli va har tomonlama o'rganishga ajratilishi so'nggi yillardagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi turli destruktiv ko'rinishlar bilan bog'liqdir.

Masalan, 90-yillarda O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligining yagona huquqiy asosini yaratish, bu sohadagi ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiyalarini chegaralashning konseptual asosi sifatida ishlab chiqishga harakat qilinganiga qaramay, jarayon ma'lum to'siqlar sabab to'xtab qolgan edi. Natijada faqatgina 2021-yilda O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi tasdiqlandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turli ensiklopedik lug'atlarda "xavfsizlik" tushunchasi hech kimga yoki hech narsaga xavf tug'dirmaydigan vaziyat sifatida talqin qilinadi; xavfdan himoyalash holati; xavfdan himoya qilish; xavfning yo'qligi; xavfsizlik, ishonchlilik va h.k. shaklida qo'llaniladi. Siyosiy ensiklopediyada xavfsizlik – bu "shaxs, jamiyat va davlat, shuningdek, jahon hamjamiyatining hayotiy manfaatlari va mavjudligining fundamental asoslarini ichki va tashqi tahdidlardan ishonchli himoya qilish holatidir" [1], deya e'tirof etilgan. Metodologik adabiyotlarda "xavfsizlik" toifasining mohiyati va mazmunini ochib berishning juda ko'p uslubiy yondashuvlari mavjud, ammo biz siyosatshunoslik doirasida aniqlangan yondashuvlarga asoslangan holda ilmiy tahlil olib bordik.

Demak, siyosiy fanlarda xavfsizlik ma'lum bir tizimga taalluqli, bir qator tizimlar va shaxs, jamiyat va davlat organlari faoliyatining natijasi, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat jarayonining o'zi sifatida talqin etiladi. Agar biz aniq mualliflarga murojaat qilsak, xavfsizlik tushunchasiga turli xil yondashuvlarni topishimiz mumkin, bu erda u tahdidlarning yo'qligi, sotsiumning holati, milliy manfaatlarni himoya qilish, qadriyatlarini saqlash, ma'naviy-axloqiy ko'rsatmalar sifatida namoyon bo'ladi[2].

Xavfsizlik natijalarini tushunish va ilmiy tahlil qilish doirasida uning mohiyatini sinchiklab o'rganish talab etiladi, chunki boshqa narsalar qatori, bu xavfsizlik nimani anglatishiga bog'liq. Falsafiy va siyosiy adabiyotlarda uchraydigan milliy, harbiy, siyosiy, davlat va jamoat xavfsizligi

tushunchalarining mohiyati va mazmunini aniqlash yagona talqin va ma'nodan uzqligicha qolmoqda. Ularning batafsil ochib berilishi bizningcha ushbu kategoriyani talqin qilishning uchta yondashuvi eng keng tarqalgan shakllaridir. Ularni qisqacha mafkuraviy (g'oyaviy), tizimli-falsafiy va aksiologik shakllarda ta'riflash mumkin.


Mafkuraviy yondashuv kontekstida xavfsizlik milliy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish sifatida e'tirof qilinadi. Xavfsizlik konsepsiyasiga bunday yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, milliy manfaatlar xavfsizlik tizimida himoya qilinadigan mafkuraviy-g'oyaviy sifat deya qaraladi hamda unga nisbatan konseptual yondashuvni talab etadi.

Xavfsizlikni belgilashda tizimli-falsafiy yondashuv tarafdorlari tizimning (mamlakat, davlat, jamiyat ijtimoiy tizim sifatida) yaxlitligi, barqarorligi va normal ishlashini unga destruktiv ta'sirlar ostida ta'minlashga alohida e'tibor berishadi. Shu nuqta nazardan, tanqid predmeti xavfsizlik tizimining yuqori dinamikasini tan olish, doimiy ravishda yangi tahdidlarni shakllantirish hisoblanadi[3]. Shu munosabat bilan tinchlik va barqarorlik holati xavfsizlikni ta'minlash uchun mutlaqo imkonsiz bo'lib qoladi.

Aksiologik yondashuv nuqta nazardan xavfsizlikka ta'rif berishda xavfsizlik deganda mamlakatning (xalqning,

millatning) milliy merosini, moddiy va ma'naviy qadriyatlarini jiddiy zararlardan himoya qilish tushuniladi. Ushbu yondashuvlarni qiyosiy jihatdan o'rganish asosida bizda faqat aksiologik yondashuv xavfsizlik konsepsiyasining turli jihatlarini eng to'liq ochib berishga, yuzaga keladigan tahdidlar darajasini belgilash va xavfsizlik samaradorligini baholash mezonlarini yanada aniqlashga imkon beradi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu, birinchi navbatda, xavfsizlikni aksiologik tushunish haqiqatda boshqa talqinlarni o'z ichiga olganligi va ularning o'ziga xos kamchiliklari va qarama-qarshiliklarini olib tashlash imkonini berishi bilan bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Davlatda inson xavfsizligi va erkinligini ta'minlash dilemmasi dastavval Tomos Gobbs tomonidan ishlab chiqilgan edi (1-rasm). Ushbu siyosiy mutafakkirning falsafiy tadqiqotlari 17-asrga to'g'ri kelishiga qaramay, u tomonidan shakllantirilgan nazariy muammo, ham falsafiy, ham siyosiy-ma'muriy masala XXI asrda ham dolzarbligicha qolmoqda. Jamiyatni boshqarishning davlat mexanizmlari, inson hayoti va sog'lig'i xavfsizligi hamda uning davlatdagi erkinligining oqilona chegaralari o'rtasidagi doimiy mutanosiblik bugungi kunda davlat boshqaruvini global demokratlashtirish fonida yangicha ohang kasb etmoqda.



Davlatda xavfsizlik muammolari, erkinlik va xavfsizlik o'rtasidagi dilemmani o'rganishning hozirgi bosqichida shunday g'oya ishlab chiqildi: birinchidan, xavfsizlik har qanday davlatning muhim tayanch elementi bo'lib, uning inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklarini cheklash oqilona (asosli) darajasini baholash mezoniga aylanadi. Ikkinchidan, xavfsizlik davlat organlari va mahalliy boshqaruvi hokimiyati organlari faoliyatining mazmuni va mohiyatini belgilab bermoqda.

Shaxs (inson), jamiyat va davlat manfaatlarini o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning optimal shakllarini hamda manfaatlar uyg'unligini izlash tarixi bir nechta asrdan buyon dolzarb ahamiyat kasb etadi. Uzoq vaqt davomida olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida bunday o'zaro bog'liqlikning nisbatan muvozanatli g'oyasi shakllandi. Ya'ni, ijtimoiy taraqqiyot ustuvorliklarini hisobga olgan holda jamiyat xavfsizligini ta'minlash siyosatini ishlab chiqishda shaxs manfaatlarini birinchi navbatda e'tirof etilsa, jamiyat rivoji bilan bog'liq tendensiyalar esa davlat boshqaruvini amalga oshirishning asosi bo'lishi lozim.

Biroq, amalda jamiyat xavfsizligini ta'minlash maqsadida mazkur uch subyekt manfaatlarini optimal muvozanatining bunday nazariy konstruksiyasini amalga oshirish shaxs erkinligiga davlatning aralashuvini oqlaydi. Manfaatlar o'zaro bog'liqligini amalga oshirishning ushbu amaliyotiga tez-tez murojaat qilish umuminsoniy qadriyatlar va ommaviy (jamoat) manfaatlarini prizmasidan ko'rib

chiqiladigan shaxs huquq va erkinliklarini cheklashda qo'llab kelinadi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin inson huquqlari muammosi milliy masaladan xalqaro muammoga o'sib chiqdi. Mavjud muammoni bartaraf etish variantlarini ishlab chiqish bo'yicha maqsadli huquqiy ishlar 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishiga, shuningdek, BMT Nizomida inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilish tamoyilining mustahkamlanishiga olib keldi.

Bu borada shuni hisobga olish kerakki, shaxsning jamoat xavfsizligini himoya qilish har qanday davlatning eng dolzarb muammolaridan biridir. Jamiyatning hayotiy jarayoni muqarrar ravishda davlatdan inson va fuqaroning asosiy qonun va xalqaro normalar bilan kafolatlangan huquq va erkinliklariga zarar yetkazuvchi mexanizmlarni qabul qilishni talab qiladigan holatlarga duch keladi. Shu nuqta nazardan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida davlat organlari shaxs erkinligini cheklash huquqiga ega bo'lgan maqsadlarni alohida ajratish talab etiladi. Shunday qilib, xujjatning 29-moddasi 2-bandida bunday maqsadlar quyidagilardan iborat shaklda berilgan: boshqa insonlarning huquq va erkinliklarini munosib tan olinishi va hurmat qilinishini ta'minlash; demokratik jamiyatda axloq, jamoat tartibi va umumiy farovonlikning adolatli talablariga javob berish va h.k.[4].

Tahlil va natijalar. Xavfsizlikning muayyan sohalarini tushunchalari ierarxiyasini aks ettirishga bo'lgan obyektiv talabga qaramay, milliy xavfsizlik turlarining davlat va jamoat

xavfsizligi bo'ysunishida xaotik joylashuvi yetarli darajada asoslanmagan. Hozirgi vaqtda ushbu yondashuv bilan tadqiqotchilar siyosiy va axborot xavfsizligini bevosita davlatga bo'ysunuvchilar sifatida ajratish uchun yagona mezon tizimini taklif qilmaydi. Xuddi shu tanqid ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy xavfsizlikni yagona qabul qilingan mezonlar tizimisiz jamoat xavfsizligiga bo'ysunuvchi tushunchalar sifatida ajratishga asos bo'lmaydi.

Biroq, ushbu sxema ilmiy nazariy munozaralarda e'tirof etilgan jamoat xavfsizligi konsepsiyasining favqulodda ahamiyati va imkoniyatlarini ochib berish va tasdiqlash imkonini beradi. Jamoat xavfsizligi konsepsiyasining tadqiqot uchun muhim soha sifatida tan olinishi keyinchalik ijtimoiy va jamoat xavfsizligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalasi bo'yicha ilmiy munozaralarni rivojlantirish uchun sharoit yaratdi. Har bir pozitsiya ushbu tushunchalardan birining ikkinchisiga nisbatan ustuvorligini asoslaydi. Ushbu ilmiy polemikaga chuqurlashmasdan, shuni ta'kidlash lozimki, "jamoat" tushunchasining etimologik ma'nosi, avvalo, "ijtimoiy" tushunchasini o'z ichiga oladi. Shu bois, milliy xavfsizlikning kichik tiplari ierarxiyasida jamoat xavfsizligi ustuvorligi haqidagi qarashga amal qiluvchi olimlarning pozitsiyasi albatta o'rinni deya ta'kidlashimiz mumkin.

Zamonaviy dunyoda inson xavfsizligini ta'minlash ham o'z-o'zidan tahdid manbalari bo'lgan noaniq global tendensiyalarga bog'liq. Bunday jarayonlar orasida globallashuvni va unga hamroh bo'lgan barcha hodisalarni, masalan, xalqaro terrorizm tarmog'ining yakuniy shakllanishi, global nazoratsiz migratsiya, xalqaro jinoiy tarmoq, giyohvandlik vositalarining xalqaro tranziti kabi ko'plab omillarni sanab o'tish mumkin. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida inson, uning qadr-qimmat, daxlsiz huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekanligini davlat e'tirof etadi. Shu munosabat bilan shaxs va jamiyatga tahdidlarning murakkablashishi va kuchayishi yangi sharoitlarda jamoat xavfsizligining mohiyatini mukammal darajadagi ilmiy asoslarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi ilmiy muhokama uchun nisbatan yaqinda qabul qilinganiga qaramay, asosan huquqiy fanlar doirasida tahlil qilingan. Jamoat xavfsizligi tushunchasiga eng yaqin kategoriya hisoblangan jamoat tartibi fenomeni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tartibot (yoki jamoat tartiboti) qonun normalari, axloq va umum-jamiyat qoidalari bilan mustahkamlangan, ushbu munosabatlar ishtirokchilarining hayoti, daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan huquq va majburiyatlarni belgilaydigan ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida belgilanadi.

Jamoat tartibini muhofaza qilish jamoat xavfsizligini ta'minlashning muhim qismidir. Bu, eng avvalo, ijtimoiy hayotni tashkil etish meyorlarini himoya qilishga bo'ysunish, jamoat xavfsizligini ta'minlash shartlari va omillarini ifodalash bilan izohlanadi. Ko'pgina ayrim Rossiyalik olimlarning tadqiqotlarida asossiz ravishda jamoat xavfsizligini jamoat tartibini himoya qilish bilan bir xilda talqin etish jihatlari kuzatiladi[5]. Vaholanki, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi o'zaro bog'liqdir, ammo ular ma'lum bir mustaqillikka ega bo'lganligi sababli bir xil talqin qilish mumkin emas.

Jamoat tartibi va jamoat xavfsizligi tushunchalari o'rtasidagi muhim farqlar qadimdan ularning xavfsizligini ta'minlashning turli usullari bilan bog'liq bo'lib kelgan. Shunday qilib, jamoat tartibiga ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barcha shakllari yordamida tartibga solish natijasida erishilsa, jamoat xavfsizligi esa kengroq tushuncha bo'lib, tarmoqlararo meyorlar, turli usullar va davlat tomonidan tartibga solish darajalarini o'z ichiga qamrab oladi. Biroq, huquq va davlat boshqaruvi sohasidagi ishlab chiqilgan yondashuvlar doirasida shuni alohida

ta'kidlash mumkinki, jamoat xavfsizligini jamoat tartibini saqlamasdan turib ta'minlash mumkin emas. Shu bilan birga, jamoat tartibini ta'minlash jamoat xavfsizligining asosiy rolining kuchayishisiz ham tasavvur qilish qiyin.

Masalan, 2016-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra ichki ishlar organlari faoliyatini o'z vakolatlari doirasida: jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash vazifalarini bajarishi belgilab qo'yilgan[6].

Hozirgi vaqtda zamonaviy maxsus ilmiy adabiyotlarida jamoat xavfsizligi tushunchasi ifodalanadigan majburiy bo'lgan yagona ta'rifga ega emas. Biroq, ta'riflardan biri uni insonlarning hayoti, sog'lig'i va mulkiga tahdidning oldini olish yoki bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga olgan milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida tavsiflaydi. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat tartibi bilan uzviy bog'liqdir.

Jamoat xavfsizligi kategoriyasining ilmiy ta'rifini aniqlash tirish maqsadida olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida Qozog'iston Respublikasining qonunchiligiga ham murojaat etdik. Aynan Qozog'iston qonunchiligida jamoat xavfsizligiga alohida ta'rif berib o'tiladi. Bizning holatimizda esa normativ formulalar va aniq ta'riflarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani ko'p jihatdan chegaralar va jamoat xavfsizligini ta'minlash shartlari konsepsiyasida nazarda tutilgan masalalar sohasida samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga jiddiy cheklolvar qo'yadi.

Ko'pgina meyoriy hujjatlarda shaxs, jamiyat va davlatning mutlaq xavfsizligi ideal shaklda ta'minlash omiliga asoslanishi tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Dinamik o'zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy vaziyat, xavfsizlik holatiga ta'sir etuvchi omillarning ko'pligi nuqta nazaridan, mutlaq xavfsizlik tushunchasi faqatgina nazariy jihatdan mavjud bo'lishi mumkin, deyishimiz mumkin. Amaliy ma'noda esa bugun xavfsizlikka tahdidlar va tanlangan shakl va usullar, xavfsizlikni ta'minlashning siyosiy mexanizmlari samaradorligi o'rtasidagi muvozanat holatiga erishish istagi haqida baxs yuritish lozim.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, shuni aytish kerak-ki, jamoat xavfsizligi tushunchasiga ilmiy ta'rif berishga urinishda xavfsizlikning mavjud ta'riflariga tayanib bo'lmaydi, chunki ularda ma'lum kamchiliklar mavjud. Bundan tashqari, jamoat xavfsizligi mohiyatining ilmiy tavsifini izlash jarayonida milliy xavfsizlik konsepsiyasi tarkibiga kiruvchi ayrim xavfsizlik turlarini belgilashga tayanish qiyin. Bu, asosan, uning (xavfsizlik) turlari ta'rifining noaniqligi va ba'zan ularning amaldagi qonunlarda yoritib berilmagani bilan bog'liq.

Yuqorida berilgan tahlil va ta'riflarga, jamoat xavfsizligining meyoriy ta'rifini shakllantirish tajribasini har tomonlama baholashga asoslanib, biz mazkur tushunchaga quyidagi ta'rifni taklif qildik: jamoat xavfsizligi – bu shaxs, jamiyat va umuman davlatning siyosiy-huquqiy, madaniy, ma'naviy va ijtimoiy sohalarda huquq va erkinliklarning himoya qilinishini ta'minlaydigan ijtimoiy-siyosiy tizimning sifat holatidir. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligi holatini amalga oshirish va tartibga solishning siyosiy mexanizmlari fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va farovonligini ta'minlashi mumkin bo'lgan turli chaqiriq va tahdidlardan ta'minlashga qaratilgan davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi hamda mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlash, fuqarolar tinchligi va totuvligini saqlash, madaniy-ma'naviy merosni ko'paytirish va rivojlantirishga ko'maklashuvchi muhim omildir.

Bizning fikrimizcha, taklif etilayotgan ta'rif hozirgi bosqichdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etadi va jamoat xavfsizligini ta'minlanishini qamrab olishi kerak bo'lgan

vazifalar doirasini yanada aniqroq tavsiflaydi. Bundan tashqari, bunday ta'rif davlat hokimiyati organlarining fuqarolarga nisbatan inson huquqlarini majburiy cheklash

sohasidagi vakolatlarini qonuniy qo'llash chorasini aniq belgilash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Политическая энциклопедия: В 2 т. –Т.1. / Национальный общественно-научный фонд; Рук. проекта Семигин Г.Ю.; Науч.-ред. совет: пред. совета Семигин Г.Ю.. М., 1999.
2. Бондаренко М.В. Безопасность как социальная категория: формирование категориально-понятийного аппарата. Наука и практика / Бондаренко М.В.. Орловский юридический институт МВД России, 2010.
3. Clifton Smith. Security Science: The Theory and Practice of Security. 2012, -P. 11.
4. Universal Declaration of Human Rights // <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
5. Воронов А.М. Общественная безопасность: административные и информационно-правовые проблемы обеспечения: дис... докт. юрид. наук 12.00.14 / Воронов, Алексей Михайлович. Москва, 2005.
6. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 38-son.



Jahongir YUNUSALIYEV,
Qo'qon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail:www@jahongiryunusaliyev

Farg'ona Davlat Universiteti f.f.d. (DSc) I.Siddiqov taqrizi asosida

BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSI VOSITASIDA O'QUVCHILARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASI

Аннотация

Maqolada bugungi kunda umumiy o'rta ta'limda o'qitilayotgan O'zbekiston tarixi fani darsliklarining mazmuni, sifati, o'qitilish holati, mazkur darsliklarda olis va yaqin tariximizning yoritilishi, bugungi kun qahramonlari va ularni darsliklarda qanday yoritib berilayotgani, tarix faniga ajratilgan dars soatlari, shuningdek, vatanimiz tarixi fanidan mashg'ulotlar olib borayotgan o'qituvchilar salohiyati, bilimi, ilmiy tadqiqotlarning holati kabi bir qator muhim masalalar bo'yicha taklif va tavsiyalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Umumiy o'rta ta'lim, ilmiy dunyoqarash, tarix fani darsliklari, mazmuni, sifati, taklif va tavsiyalar.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ У УЧЕНИКОВ ПО СРЕДСТВОМ НАСЛЕДСТВА ВЕЛИКИХ ПРЕДКОВ

Аннотация

В статье рассматривается содержание, качество и состояние образования учебников истории Узбекистана, преподаваемых сегодня в общем среднем образовании, освещение в этих учебниках нашей далекой и недавней истории, сегодняшние герои и то, как они освещаются в учебниках. Проанализированы уроки, посвященные истории, а также ряд важных вопросов, таких как потенциал, знания и состояние научных исследований преподавателей, ведущих занятия по истории нашей страны, высказаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Общее среднее образование, научное мировоззрение, учебники, истории, содержание, качество, предложения и рекомендации.

PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF FORMING SCIENTIFIC WORLDVIEW IN STUDENTS THROUGH THE HERITAGE OF OUR GREAT ANCESTORS

Annotation

The article describes the content, quality, status of textbooks on the history of Uzbekistan taught in general secondary education, coverage of our recent and recent history in these textbooks, today's heroes and how they are covered in textbooks, history lessons, as well as lessons on the history of our country. A number of important issues such as the potential of teachers, knowledge, the state of scientific research, suggestions and recommendations were expressed.

Key words: General secondary education, scientific outlook, history textbooks, content, quality, suggestions and recommendations.

Kirish. Jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosqichida xalqimizning tarixiy xotirasini shakllantirish va unga munosabatini to'g'ri yo'naltirish muhim ijtimoiy-pedagogik zaruratdir. Buning uchun tarix fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, yangicha yondashuvlarni olib kirish, tarixni talqin qilishda ob'ektivlikni ta'minlash, tarixni o'rgatuvchi adabiyotlarni shakllantirishda mafkuralashtirish va siyosiy maqsadlardan xoliligini ta'minlash dolzarb vazifalardan biridir. Zero, "shiddat bilan o'zgarayotgan zamon oldimizga yangi, biz ilgari duch kelmagan muammolarni, juda o'tkir savollarni ko'ndalang qo'ymoqda. Ularga munosib javob topish va oqilona yechish uchun har jihatdan tayyor bo'lishimiz kerak"[1]. Shunday ekan, tarix faning futurologik funktsiyasiga tayangan holda o'tmishni bag'olash, unga xolisona munosabatni shakllantirish orqali kelajakni qurish yo'llarini, zamonaviylashtirish tendentsiyalarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Bunday zamonaviylashtirish jarayoni orqali tarix ta'limi sifati va samaradorligini oshirish bilan birga uni o'rganuvchilarda tarixiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bu jarayonda buyuk ajdodlarimiz, mutafakkir-allomalarning ilmiy merosi, ilm-fanning turli sohalarini uchun qo'shgan ulushi va asarlari, ilmiy g'oya va nazariyalarini umumiy o'rta ta'limda o'qitish tizimi takomillashtirish,

yangicha yondashuvlar asosida innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish mumkinligi faraz qilinmoqda. Shu bois mazkur tadqiqot ishida ham bu farazni ilmiy asoslash maqsad qilingan va amalga oshirish texnologiyasini yaratish ko'zda tutilgan. Zero, «o'z milliy tarixiva madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo'lgan intellektual vama'naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylashva boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlatva jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotida, hech shubhasiz,hal qiluvchi o'rin egallaydi»[2].

Demak, buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy merosi vositasida o'quvchilarning ilmiy faoliyati, qiziqishlari va fanlarni o'rganish istagiga ta'sir ko'rsatish va bu orqali ularda yuksak dunyoqarash va teran tafakkurli kadrlar sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biridir.

darsning maqsadi va mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetish;

dars jarayonini to'g'ri va aniq manbalarga asoslanib tashkil etish;

mavzuni o'zlashtirish va o'rgatish nuqta nazaridan pedagogik faoliyatga ega bo'lish;

fanlararo integratsiya qoidalarini puxta egallash;

buyuk ajdodlarimizning ilmiy faoliyatini jamlagan ilmiy asarlarini o'rganish, ularni tahlil qili bilish va ijtimoiy ahamiyatini baholay olish mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlar va manbalarni bog'lay bilish salohiyatiga ega bo'lish; fanlararo integratsiya qoidalarini puxta egallash; avr va zamon tushunchalarini aniq manba, voqea va hodisalar bilan mutanosibligini ta'minlay bilish;

2.3.1-shakl. Davlat ta'lim standartlarini bajarish uchun pedagoglar yuklanadigan vazifalar

Buyuk ajdodlarning ma'naviy merosi vositasida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish pedagog va o'quvchining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi. Bugungi tarix darslari tarixiy faktlarni o'rganish bilan kifoyalanayotgan bir sharoitda yangicha metodika bilan tarixiy jarayonlarning qonuniyatlarini o'quvchilar tomonidan anglashlariga yo'naltirish ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish yo'lidagi muhim vazifalardan biridir.

Maktab ta'limida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun o'qituvchi tarix darslari sinfdan sinfga takomillashib borishini sistemali ravishda kuzatib bormoqi kerak. Ayniqsa yuqori sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda tarixiy jarayonning amaliy ahamiyati bilan tanishtirish orqali ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim. Zero, tarix darsi jamiyatda sodir bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar talabi darajasi bilan, shuningdek, ilm-fan, madaniyat va ayniqsa ma'naviyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar talabi asosida doimo rivojlanib boradi. Shu bois maktab ta'limida tarix fanini o'qitish orqali jamiyatning madaniy o'zgarishlar bilan yuzlashgandagi pozitsiyasini optimallashtirish dolzarb vazifadir. Buning uchun esa, "ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, o'qitish sifati va pedagog xodimlarning bilim va malakasini oshirishga qaratilgan "Zamonaviy maktab" davlat dasturini amalga oshirish"[3] davlatning pirovard vazifalari sifatida maydonga chiqmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundand-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi [4]. Maktab ta'limida tarix fanini zamonaviy metodikasi asosida, real keyslar bilan o'qitish orqali ilmiy dunyoqarashni rivojlantirishda va dars samaradorligini oshirishda har bir o'qituvchidan ta'lim-tarbiya jarayonini optimal tashkil etishi talab etiladi. Darsning optimal varianti deb, dars jarayonida ta'lim-tarbiya va o'quvchilarni kompleks rivojlanishlarini ta'minlaydigan, o'quvchi va o'qituvchiga ajratilgan vaqtdan maqsadga muvofiq foydalanilib, erishilgan maksimal ijobiy ilmiy-uslubiy va didaktik natijalar kompleksiga aytiladi. Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosi asosidarsni tashkil qilishda ham aniq natijalar ko'zga tashlanishi, o'quvchilarda madaniy munosabatlarga to'g'ri yondashuvni va xulosani shakllantira olishi kerak. Pedagogning asosiy vazifasi o'quvchilarda har qanday madaniy birlikka tolerant munosabatni shakllantirishi hisoblanadi. Chunki o'quvchiga beraladigan bilim va informatsiyalar eskiradi, o'z ahamiyatini yo'qotadi. Biroq yondashuv va o'quvchilarda shakllangan munosabat va tafakkur qilish tarzi qoladi. O'quvchilarda tarixiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda mana shunday yondashuvning yetishmasligi, bugungi ta'lim tizimining eng asosiy kamchiliklaridan biri hisoblanadi.

Bugungi maktab ta'limida "Tarix" fanini o'qitishning mavjud holatiga ko'ra, barcha umumta'lim maktablarida 5-sinf dang 11-sinfga qadar "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" fanlari o'tiladi. Shuningdek, 10-11-sinflar uchun "Dunyo dinlari tarixi" fani ham o'tiladi. 5-sinflar uchun umumiy ma'noda "Tarixdan hikoyalar" nomi ostida tarix ta'limi olib boriladi va tarixiy xikoyalar tarzida o'quvchilarni tarix faniga olib kiriladi va bosqichma-bosqich o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish maqsad qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14-yanvar kuni mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oldiga yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish maqsadida choratadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifasi yuklatildi[5]. Bu orqali asl tarixni anglash, tarixiy jarayonning borish yo'lini tushunish va yoshlarda jamiyatlar taraqqiyotidagi muammolarni o'rganishga undash mavjud edi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'limda o'qitilayotgan O'zbekiston tarixi fani darsliklarining mazmuni, sifati, o'qitilish holati, mazkur darsliklarda olin va yaqin tariximizning yoritilishi, bugungi kun qahramonlari va ularni darsliklarda qanday yoritib berilayotgani, tarix faniga ajratilgan dars soatlari, shuningdek, Vatanimiz tarixi fanidan mashg'ulotlar olib borayotgan o'qituvchilar salohiyati, bilimi, ilmiy tadqiqotlarning holati kabi bir qator muhim masalalar yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish mumkin.

Birinchiidan, maktab ta'lim tizimida, o'quvchilar uchun elektron va multimediyali dasturlarni o'z ichiga qamrab oluvchi darsliklar va o'quv majmualar yangi avlodini yaratish, ularga bo'lgan ehtiyojni to'liq qoplashga erishish hamda tarix fanini o'qitishda hayot bilan bog'lash amaliyotiga keng o'rin berish zarur. Mazkur ishlar negizida buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy merosini keng hajmda va ob'ektiv yoritish va bu orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish texnologiyasini yaratish zarur.

Ikkinchiidan, tarix fani bo'yicha fan va ta'lim itegratsiyasini rivojlantirish, jamiyatimizning yangi taraqqiyot bosqichida olib borilayotgan O'zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo munosabatlar bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosatning ahamiyatini ko'rsatib beradigan va uni boshqalarga o'rnak sifatida namoyon qila oladigan materiallar bilan maktab darsliklarini boyitish zarur. Bu ishlarni amalga oshirishda buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi, ularning qrashlari va bu vaziyatlarga munosabati, o'sha davrdagi xolat va bugungi kunda tarixdan o'rganadigan jihatlar aniq yoritilishiga erishish lozim. Tarix o'qitishda ta'limiy jarayonning asosiy tashkiliy shakli dars ekanligini e'tiborga oladigan bo'lsak, o'quvchilar dars materialining asosiy mazmunini sinfdan o'zlashtiradilar. Albatta, o'quvchilarning tarix fanidan o'rganishi zarur bo'lgan bilim va malakalarining hammasini ham sinf-dars mashg'ulotlari doirasiga sig'dirib bo'lmaydi. Buning ustiga tarixiy bilimlar, ilmiy va siyosiy yangiliklar hajmi ham kengayib, muttasil oshib borayotgan sharoitda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini tizimli rivojlantirib borishlari uchun sinfdan tashqari mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish darkor. Bu jarayonda, tabiiyki, muayyan ta'limiy qonuniyatlar, didaktik talablarga amal qilish lozim. Siyosatshunos N. Jo'rayev o'zining «Tarixiy xotirani tiklash va uni yaratish kontseptsiyasi»da ta'kidlagandek, «... tarixni anglash orqali hayotni anglash, insonning insoniyligini anglash qobiliyati shakllanadi»[6].

Demak, maktab ta'limida tarix darslarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarni tariximizni yaxshi anglashga, ajdodlarimiz kimligini bilishga o'rgatish, ularda vatanimizga bo'lgan sadoqatni shakllantirish, tarix faniga nisbatan qiziqishni uyg'otish, shuningdek, g'oyalarni o'zlashtirish, o'zlari sevgan tarixiy shaxslardan o'rnak olish, yaxshi fazilatlar, vatanparvarlik, botirlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, mustahkam irodalilik sifatlarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik metodini ishlab chiqish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Vatanimiz tarixini o'rganishda tarixdagi hamma manbalardan? Me'morchilikdan tortib, yozma manbalargacha foydalaniladi. Biz ularni ta'lim tizimi, o'quvchilar hayotiga olib kira olsak, ular haqida tarix manzarasini yaqqolroq ko'ra olish imkoniyatiga ega bo'lardik. Bu, o'z navbatida, tarix fanini o'qitish samaradorligini oshirishning muhim didaktik imkoniyatidir. Maktab ta'limida "Tarix" fanini innovatsion shaklda, mediaimkoniyatlar orqali o'tilishi buyuk allomalarimiz bilan tanishish, ularning jahon madaniyatida tutgan o'rnini o'rganish natijasida o'quvchilarda o'z shaxsiy imkoniyatlarini chamalash, aniq maqsadga

yo'naltirgan tarzda foydalanish kabi jarayonlar kechadi. O'quvchi o'zini shu tarixning bir bo'laki sifatida qabul qilib, o'z tarixini o'zi yaratish fikri asosida tarbiyalanadi. Shu tariqa o'quvchining ilmiy dunyoqarashi shakllana boradi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi, o'z faoliyatini baholash, qarorlar qabul qilish, ishiga javobgarlik hissini tuyish kabi fazilatlar kamol topadi. Shu bilan birga, bu kabi metodlardan foydalanish, o'quvchilarda buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosini kengroq o'rganishga qiziqishini shakllantiribgina qolmay, balki ularni asrab-avaylash zaruriyatini anglab yetishlariga olib keladi.

Xulosa. Buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi vositasida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun maktab ta'limida "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" fanlarini o'tilishida ayrim jihatlariga e'tiborni qaratish va mavzularni o'tilishida buyuk sharq mutafakkirlarining ilmiy faoliyati, merosi, ilmiy g'oyalari va qarashlarini ochib berishga yo'naltirilgan yondashuvlardan ham foydalanish kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. –Toshkent.: O'zbekiston. 2020. 4-jild –B. 159.
2. Mirziyoyev Sh.M. 2017. 24-iyun. "Xalqso'zi" gazetasi Milliy tiklanish. –B. 367.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent.: 2008. –B.14
4. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –Toshkent.: "O'zbekiston", 2017. –B. 46.
5. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. –Toshkent.:Ma'naviyat, 2008. –B.63.



UDK: 371.035(045)

Yulduz YARMANOVA,
Qarshi Davlat universiteti o'qituvchisi

QarDU pedagogika fanlari doktori(DSc), professor SH.U.Nurullayeva taqrizi asosida

JAMOAVIY MUNOSABATLARDA BOLA SHAXSIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Bola shaxsini shakllantirishda shaxsiy va jamoaviy muammolar har doim diqqat markazda va juda murakkab bo'lib, turli xil tarixiy davrlarda o'ziga xos ma'no va mazmunga ega bo'lgan. Bu esa ushbu muammoni hal qilishda ustuvorlik bir tomonga yoki boshqa tomonga qaratilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Shu sababli jamoaviy munosabatlarda shakllantirilgan ijtimoiy-madaniy sifatlarni kelajakda shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: Shaxs, shaxsiy sifat, jamoa, jamoaviylik, bola, ijtimoiy, jamiyat, individuallik, bola, individ, madaniy, kichik maktab yoshi.

ПРОЦЕСС СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ АДАПТАЦИИ, ОСНОВАННЫЙ НА ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация

Личные и коллективные проблемы в формировании личности ребенка всегда находятся в центре внимания и очень сложны, имеют свое значение и содержание в разные исторические периоды. Это важно, поскольку приоритет в решении этой проблемы направлен то в одну, то в другую сторону. Поэтому социальные и культурные качества, сформированные в коллективных отношениях, становятся основой для активного участия человека в жизни общества в будущем.

Ключевые слова: Личность, личностные качества, коллектив, коллективные отношения, ребенок, социальный, общество, индивидуальность, ребёнок, индивид, культурный, младший школьный возраст.

THE PROCESS OF SOCIAL CULTURAL ADOPTION BASED ON COMMUNITY RELATIONS

Annotation

Personal and collective problems in the formation of a child's personality are always in the center of attention and are very complex, and have their own meaning and content in different historical periods. This is important because the priority in solving this problem is directed to one side or the other. Therefore, social and cultural qualities formed in collective relations become the basis for the active participation of a person in the life of society in the future.

Key words: Personality, team, personality traits, collective relations, child, social, society, individuality, child, individual, cultural, primary school age.

Kirish. So'nggi yillarda jahonning ilg'or mamlakatlarida ta'lim tizimini isloh etishga katta ahamiyat berilmoqda. Jahonning yetakchi ilmiy markazlarida inson va uning ijtimoiy muhitga munosabatini o'rganish masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Buning natijasida inson paydo bo'lishidan to umrining oxirigacha davom etadigan tarbiya va o'qitishni yaxlit ajralmas tizim deb qarashga va uni amaliyotga tatbiq etishga undamoqda. Bunda ota-onalar, ijtimoiy muhit va bolaning olamini o'zaro bog'langan va harakatdagi tizimini yaratish nazarda tutilmoqda. Bu tizimni o'rganadigan fanlar yangi yondashuvlar, tamoyillar, metod va qarashlar bilan yanada boyib bormoqda. Bola shaxsining individual sifatlari avvalo oila muhitida tarkib topsa, asta-sekinlik bilan tarbiya topadigan ta'lim muassasalarida ko'zga tashlana boradi. Shu boisdan ham insoniyat madaniyati tarixining ilk davrlaridanoq bolani shaxslararo munosabatlarga, ayniqsa, unda ota-ona va farzandlar hamda bolalarning o'zaro munosabatlariga alohida etibor berib kelingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Odamlarning jamoa bo'lib yashash tamoyillariga "Avesto"da, qadimgi manbalarda, Suqrot, Aflotun, Arastu, O'rta Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy [5] kabi allomalar merosida alohida ahamiyat berilgan.

Abu Nasr Forobiy o'z asarlarida jamoa bo'lib yashashga tabiiy moyillik inson turmush tarzining mazmunini tashkil etishini uqtirgan. U bu haqda quyidagi fikr-mulohazalarni bayon qilgan: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday

tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritolmaydi, ularga ega bo'lish uchun odamlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sabab yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashashi va yetuklikka erishishi uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi..." [5].

Shuningdek, sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniy jamoaviy munosabatlarni tarkib topishida yaqin qarindoshlik munosabatini yo'lga qo'yish lozimligini ta'kidlaydi. Bu masala to'g'risida alloma shunday deb yozadi: "Inson jamiyatda o'z qarindosh-urug'lari bilan birgalikda yashashga majburdir, bundan maqsad bir-birini qo'llab-quvvatlash hamda har bir kishining ham o'zini, ham boshqalarini ta'minlash uchun zarur ishlarni bajarishdir" [6].

Mashhur rus pedagogi Lesgaftning fikricha, insonning bolalik davri shunday bir bosqichki, bu davrdagi ijtimoiy munosabatlarda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari, shaxsiy sifatlarni yuzaga keladi [7].

Kichik maktabgacha yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, jamoaviy munosabatlarda ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat

natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi. Jamoaviy munosabatlarda ular axloq meyorlarini anglashi, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida "jamo" – (arabcha - birlashma; uyushma; guruh) muayyan, bir xil ish bajaruvchi kishilar guruhi"[1] sifatida tavsiflangan.

Jamoaviy munosabatlar – odamlarning o'zaro yaqinligi va hamkorligi asosida shakllangan, dunyo xalqlari madaniyatida tarixan shakllanib kelgan ijtimoiy birlikni anglatuvchi tushuncha bo'lib, Pedagogika ensiklopediyasida "Jamoaviylik (arabcha birlashma; uyushma; guruh) – 1) yagona jamiyat va kishilar uchun foydali maqsad, faoliyatga ko'ra birlashgan, jamiyat va kishilar manfaatini ko'zlaydigan kishilarning tashkiliy guruhi; 2) kishilarning qadimiy uyushuv shakli"[3] tarzida talqin qilingan.

Jamoaviy munosabatlar – odamlarning o'zaro hamkorligi, yordamga asoslangan hayot kechirish va turmush tarzi bo'lib, individualizm, shaxsiy xudbinlik, egotsentriзмning aksi hisoblanadi. Jamoaviy munosabatlarning mavjudligi ijtimoiy birlik, mahalla, elat va xalqlarning taraqqiyotini, turmush tarzining mazmun-mohiyatini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri bo'lib, tarixiy shart-sharoitlar asosida shakllangan va yuksak ma'naviy qadriyat sifatida qaror topgan.

Bola shaxsini shakllantirishda shaxsiy va jamoaviy muammolar har doim diqqat markazda va juda murakkab bo'lib, turli xil tarixiy davrlarda o'ziga xos ma'no va mazmunga ega bo'lgan. Bu esa ushbu muammoni hal qilishda ustuvorlik bir tomonga yoki boshqa tomonga qaratilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Bu davrlarda pedagogik tizimlar ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ygan yoki "shaxs – jamoa – jamoatchilik" o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga intilishgan.

Jamiyatda shaxsni rivojlanish muammosini ko'rib chiqish uchun "shaxs", "indivud", "indivudallik", "jamo" va "jamoatchilik" tushunchalarining mohiyatini aniqlashimiz zarur.

"Indivud" tushunchasi pedagogik lug'atda "lot. individuum – bo'linmas ma'nosini anglatib, mustaqil, aql ato etilgan mavjudot sifatidagi inson" [4] sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, u o'zini o'zi idora etishi mumkinligi, lekin shu bilan birga o'zining tashqi munosabatlarida umuminsoniy qadriyatlarni eltuvchi ham hisoblanishi qayd etiladi.

"Indivudallik" – yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o'ziga xos xususiyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Ushbu tushunchaning "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "indivudga xoslik, indivudga oid xatti-harakat" [1] ma'nolarini anglatishi ko'rsatilgan.

Shaxs, bir tomondan, ma'lum bir indivudni hayot faoliyati subyekti sifatida individual xususiyatlar va ijtimoiy sifatlarini birligini ko'rsatsa, boshqa tomondan, shaxs deganda indivudning ijtimoiy xususiyatlari, unga birlashtirilgan, ma'lum bir kishining boshqa insonlar bilan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita o'zaro ta'siri jarayonida shakllanadigan hamda muloqot, bilish, faoliyat obyekti bo'lgan ijtimoiy xususiyatlari tushuniladi.

Indivudallik – bir ma'noli atama emasdir. U bir shaxsni inson va indivud sifatida boshqalardan, xususan tabiiy, jismoniy, aqliy va ijtimoiy fazilatlarini orqali ajratib turadigan aniq, o'ziga xos xususiyatni anglatadi.

Jamo" – ma'naviy-axloqiy birlashma, insonlarga xos bo'lgan umumiy istiqomat qilishning obyektiv xususiyati, mehnatni tashkil etish, bo'sh vaqt, moddiy va ma'naviy tovarlarni tarqatish usuli, iste'mol shakllari, xuquqiy, axloqiy va estetik xulq-atvor normalariga rioya qilishni ta'minlaydigan munosabatlar tizimidir.

Jamoachilik – ijtimoiy foydali faoliyatda obyektiv ravishda tarbiyalanadigan, meyoriy munosabatlarni ta'minlaydigan odamlarning umuminsoniy xususiyatidir. Shuning uchun ham mazkur shaxsiy xususiyat odamlarning ijtimoiy yo'nalishi va pedagogik tizimga qaramasdan maqsadli tarbiya predmeti bo'lishi lozim.

Har bir bolaning o'ziga xosligi o'rtoqlar orasida bolalar jamosida namoyon bo'ladi. Bola o'zini qadrlagan, sevgan, tushungan, himoyalangan joyida qulay his qiladi. Bu jamoa axloqiy munosabatlar hukmron bo'lgan jamoadir.

Bolaning shaxsiy kechinmalari boshqa bir bolaga yo'naltirilishi juda muhimdir, chunki bu boshqa bolaga hissiy yo'naltirish jarayoni bo'lib, u kichik maktab yoshidagi bolaning tengdoshlar guruhiga kirishini – adaptatsiyasini osonlashtiradi va unda bo'lishini nisbatan qulayligini ta'minlaydi.

Biroq, bolaning ijtimoiy-madaniy adaptatsiyasiga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj, ta'lim tizimiga qo'yilayotgan yangi talablar sharoitida bolani ijtimoiylashtirish zarurati sababli kuchayib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bolaning tabiiy ravishda o'z imkoniyatlarini bolalar jamoasida amalga oshirishga intilishi hamda pedagogik nazariya va amaliyotdagi tadqiqot o'rtasidagi ziddiyat: a) jamoa hayotida bolaning o'ziga xosligini saqlab qolishning eng optimal yo'llari; b) jamoaviy munosabatlarning ishlashi uchun zarur bo'lgan individ kontekstida shaxsning ijtimoiy-madaniy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradigan bunday tadbirlarni tashkil qilish.

Ushbu qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda, tadqiqotning asosiy masalasi quyidagilardir:

pedagogik jarayon, bola uchun uning individualligi o'rtasidagi obyektiv qarama-qarshilikni yengib o'tishga sharoit yaratadigan, ijtimoiy-madaniy fazilatlarining namoyon bo'lishi, jamoaga adaptatsiya va sinfdagi faoliyatning jamoaviy tavsifi;

kichik maktab yoshidagi o'quvchining tengdoshlari bilan ijtimoiy-madaniy muloqotga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ularda individual ijobiy xususiyatlarini namoyon bo'lishi va salbiylarini bartaraf etib borish.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy pedagogika sohasida izlanishlar olib borgan olim D.Ro'ziyeva ushbu sohasining vazifalari sifatida quyidagi asosiy yo'nalishlarni ko'rsatib ber:

1. Shaxsni ijtimoiy hayotga moslashtirish.
2. Imkoniyati cheklangan shaxslarga ruhiy va moddiy yordam ko'rsatish.
3. Shaxsning muayyan (yangi) muhitga moslashishiga ko'maklashish.
4. Farzandlar tarbiyasini tashkil etishda oilalarga ijtimoiy-pedagogik va metodik yordam ko'rsatish.
5. Salbiy ijtimoiy holatlar (jinoyatchilik, ichkilikbozlik, narkomanlik va h.k.)larning oldini olish.
6. "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilarini ma'naviy-axloqiy, ruhiy va kasbiy tayyorlash.
7. Favqulodda holatlar (terroristik harakatlar, buzg'unchi g'oyalar ta'siri, zo'rvonlik va odam savdosi) sodir etilganda jabrlanuvchilarga ruhiy va huquqiy yordam ko'rsatish.
8. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish bilan shug'ullanuvchi muassalar faoliyatini muvofiqlashtirish(9).

Avstriyalik psixolog va faylasuf V.Frankl [8] indivudallikning ahamiyati, inson shaxsining qadr-qimmatini va mazmuni hamma vaqt u yashayotgan jamiyatga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Insonning indivudalligini saqlash va uni rivojlantirish doimo falsafiy anglash predmeti bo'lgan. Shaxs rivojlanishi tabiat va insonni o'zgartiruvchi turli xil amaliy faoliyatda sodir bo'ladi. Faoliyat nazariyasining asosiy qoidalari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan L.S.Vigotskiy,

A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn va boshqalarning ishlarida rivojlantirilgan. Shaxs ijtimoiylashuvi barcha faoliyat turlarida ifodalanadi. Shaxs jamoaviy munosabatlarsiz namoyon bo'la olmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiylashuv muammosi pedagogikada ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi.

Jamoaviy munosabatlarda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy alaptatsiyasini rivojlantirishda ularni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. Pedagogik qo'llab-quvvatlash jarayonida o'quvchilar jamoasining barcha a'zolariga o'qituvchi tomonidan bir xilda yordam ko'rsatiladi. Pedagogik qo'llab-quvvatlash davomida o'qituvchi jamoa a'zolarining gender xususiyatlarini alohida hisobga olgan holda o'g'il va qiz bolalarga o'ziga xos tarzda yordam ko'rsatishi, ularning har biriga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llab-quvvatlashning xarakterini belgilashi lozim. Bu jarayonda pedagoglar o'quvchilar jamoasi bilan birgalikda muayyan masalaga oid qarorlarni qabul qilishi, muammolarga yechim izlashi, vujudga kelgan vaziyatlarni obyektiv baholay olishlari muhim ahamiyatga ega.

2. Kichik maktab yoshidagi bolalar jamoasi bilan ishlash jarayonida o'qituvchi tayyor modellar asosida bolalarning faoliyatini tashkil etishga emas, balki jamoaning umumiy tavsifidan kelib chiqqan holda pedagogik jarayonlarni tashkil etishi kerak. Jamoaviy munosabatlarda pedagoglar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jamoasini pedagogik jihatdan samarali qo'llab-quvvatlash uchun ularning o'ziga xos xususiyatlarini tashxislash metodikalaridan foydalangan holda aniqlab olishlari muhim ahamiyatga ega.

3. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonida o'qituvchilar ularni mustaqil bilim olish, loyihalar ustida ishlash, birgalikda kichik tadqiqotlar o'tkazishga unday olishlari zarur. Chunki pedagogik qo'llab-

quvvatlashning asosiy vazifasi bolalar jamoasini bilim olish, o'rganish, ijtimoiy munosabat tajribalarini tarkib toptirishga yo'naltirishdan iborat.

4. O'qituvchilar jamoada sog'lom ijtimoiy hamda axloqiy meyorlar darajasidagi o'zaro munosabatlarni shakllantirish, kommunikativ madaniyat talablarini, ijtimoiy madaniyatga doir talablarni va muloqot uslublarini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'rgatish metodikasini o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

Real hayotda o'quvchilar jamoasi faoliyatini, o'quvchilarning barchasini qiziqishlari va ehtiyojlarini qondiradigan tarzda tashkil etish deyarli mumkin emas. Odatda, ushbu faoliyat kattalarning individualligi, ularning qiziqishlari, o'ziga xosliklari va tashkilotchilik qobiliyatlari bilan bog'liq. Shu sababli, birgalikdagi qiziqarli faoliyat bolalarning erkin muloqot qilishlari, shaxsiy o'ziga xosliklarini va erkin jamoaviy munosabatlar muloqotini rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga egadir.

Xulosa va takliflar. Jamoaviy munosabatlarda kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy xulq-atvor madaniyatini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Shu asosda jamoa a'zolarida tartib-qoidalar va huquqiy meyorlarga amal qilish, axloq-odob va madaniyat ko'rinishlarini egallash ko'nikmasi shakllantiriladi. Bu jarayonda jamoaning har bir a'zosi o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Chunki, jamoa bo'ysunish, tashkilotchilik va yetakchilikda jamoaviy munosabatlarning turli xil ijtimoiy tajribasini to'plash uchun shaxsga katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Natijada tashabbuskorlik, o'ziga ishonish, ijtimoiy adolat, zaif va himoyasizlarni himoya qilish istagi kabi qimmatli fazilatlar rivojlanadi. Faqatgina jamoada eng muhim: o'z-o'zini hurmat qilish, o'zini o'zi qadrlash, o'zidan qoniqish va qoniqmaslik kabi shaxsiy fazilatlar shakllanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. A-D / 5 jildli. Birinchi jild. Madvaliyev A. tahriri ostida. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 679 b.
2. Педагогика: Энциклопедия. II жилд. Жамоа // Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти 2015. – 376 б.
3. Педагогика энциклопедия. III жилд. Жамоа // –Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти 2017. – 424 б.
4. Pedagogika fanidan izohli lug'at. P.f.d.professor M.X.Toxtaxodjajevaning tahriri ostida. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008. – 480 b.
5. Зуннунов А. Педагогика тарихи // Олий ўқув юртлари учун дарслик – Т.: 2004. -335 б.
6. Ирисов А. Ўзбек педагогикаси антологияси. Т.: Ўқитувчи, 1995. 137 б.
7. Лесгафт П.Ф. Семейное воспитание ребенка и его значение. / Лесгафт П.Ф. – М.: Педагогика, 1991. – 174 с.
8. Франк С.Л. Духовные основы общества. Введение в социальную философию. – М.: Академия, 2012. – 112 с.
9. Ro'ziyeva D. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. 127 b.
10. Yarmanova Y.B. Development of individuality in collective relations // International Scientific Journal. Teoreticheskaâ i prikladnaâ nauka. Theoretical & Applied Science, № 06 (86), 2020. Philadelphia, USA. Impact Factor ICV = 6.630. Impact Factor ISI = 0.829.